

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

FERUZA MUSAYEVA

O‘ZBEK XALQ SO‘ZLARI

TOSHKENT – 2023

**UO‘K: 000000 KBK:
00000000**

MUSAYEVA FERUZA. O‘zbek xalq so‘zlari – [Matn] / T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023. 392 bet.

ISBN: 978-9943-6645-0-0

Ushbu lug‘atda o‘zbek shevalarida qo‘llanib kelgan va hozirda qo‘llanayotgan, xalqimiz turmushi, fikrlash tarzini yorqin ifodalaydigan, uning lisoniy idrokini aks ettiradigan so‘z va iboralar jamlangan va izohlangan; izohlarga badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan illyustrativ misollar keltirilgan. Kirish maqolasida jamlangan birliklarning zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosidagi tadqiqi amalga oshirilgan va shevaga xos birliklar asosida nomlash tamoyillari tahlil qilingan. Kitob filologiya fakultetlari talabalari, tilshunoslik sohalari mutaxassislari, shuningdek, o‘zbek tili targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi jamoat faollari uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K: 000000
KBK: 00000**

Mas‘ul muharrir:

A.Madvaliyev

Taqrizchilar:

S.Ashirboyev, B. Yusufov.

Kompyuterda teruvchilar: M.Saydaliyeva, A.Ahmedova.

ISBN: 978-9943-6645-0-0

© “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023.

OLAMNING DIALEKTAL LISONIY MANZARASI VA NOMINATSIYA

O‘zbek shevalarini o‘rganishga lingvomadaniy yondashuv

Tilshunoslik rivojining hozirgi bosqichida tadqiqot paradigmasi o‘zgarishi qayd etilmoqdaki, uni eng umumiy tarzda antropotsentrizm deb ta’riflash mumkin. XX asr so‘ngida tilshunoslarning diqqat-e’tibori til va madaniyat munosabatlari tadqiqiga qaratila boshladi. Ushbu yo‘nalish doirasida hozirda bir necha ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Yangi yo‘nalish lingvokulturologiya deb yuritila boshladi. Tadqiqot obyektlarining rang-barangligi lingvomadaniyat yo‘nalishidagi izlanishlarda turli an’analar shakllanishiga olib keldi. “Til – madaniyat” yaxlitligi va o‘zaro munosabatlari yangi yo‘nalishning tadqiqot doirasiga aylandi. Inson belgilar yordamida madaniy muhitga cho‘madi, lisoniy material esa madaniyat saqlovchisi hisoblanadi.

Hozirga qadar madaniyat tushunchasining yuzlab talqini va ta’rifi yaratilgan. Ularning ayrimlari noan’anaviyligi bilan aqlni shoshiradi: “Madaniyat – inson hammasini unutganida unda qoladigan narsa”.

Shu kunga yaratilgan yuzlab ta’riflarda bitta umumiy jihat bor: madaniyat, umuman olganda, shaxs, guruh va jamiyatning hayot faoliyatini tavsiflaydi; bu – inson mavjudligining o‘ziga xos usuli; madaniyat xulq-atvor xususiyatlari, inson ongli faoliyati, narsa-buyumlar, san’at asarlari, mehnat qurollarini o‘z ichiga oladi. “...Madaniyat – inson aralashuvi oqibatida o‘zgartirilgan va shu sababli ijtimoiy kontekstga kiritilish mumkin bo‘lgan har qanday tabiat hodisasidir”. Bir so‘z bilan aytganda, madaniyat faqat va faqat inson bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa, zero u inson bilan boshlanib, inson bilan tugaydi, shuning uchun ham madaniyat fenomenini tushunishda inson ochqich vazifasini o‘taydi.

«Madaniyat» tushunchasi izohlangan yuzlab talqinlarda ma’nolar madaniyat mag‘zini tashkil etishi xususidagi fikr uqtiriladi. Rus faylasufi va jamiyatshunosi P.A. Sorokin madaniyatni qadriyatlar olami deb biladi.

Mashhur fransuz madaniyatshunosi A. Mol madaniyatni sun'iy muhitning intellektual aspekti sifatida e'tirof etadi. Rus olimi L. Batkin: "Madaniyat – bu tarixan belgilangan ma'nolar olamidir", – deydi. Uning fikricha, madaniyatda ma'nolar va ularni ifodalashdan o'zga narsa mavjud emas¹. Darhaqiqat, bizni qurshab turgan narsa-buyumlar, tabiat o'z-o'zicha madaniyatimizning bir qismi bo'lolmaydi; ularning madaniyatga aylinishi uchun biz ularga qandaydir ma'no yuklashimiz va qandaydir qiymat bilan o'lchashimiz kerak bo'ladi.

Til va madaniyatning o'zaro aloqasi E. Sepir qarashlarida ham ilgari surilgan. U madaniyatni "ma'lum jamiyat qiladigan va o'ylaydigan narsalar" deb ta'riflaydi. Til esa fikrlash tarzi... Tabiiyki, til mazmuni madaniyat bilan bevosita bog'liq². Shu tariqa til madaniyatni ifodalovchi voqelashtirgan "ichki shakl" sifatida, madaniyat esa inson tomonidan voqelikni o'zlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi³.

Turli xalqlar, madaniyatlar, tillar to'qnashuvi yuz berayotgan bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslikning ahamiyatini yanada ortib bormoqda. Shu o'rinda, bu yo'nalish shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan V.fon Gumboldt fikrlarini eslash o'rinli. Olim "Til va xalq xususiyati" nomli asarida "turli tillar o'rtasidagi farqlar bu shunchaki belgilar o'rtasidagi farqlardan yuqoriroq narsa, so'zlar va so'zshakllar tushunchalarni shakllantiradi va ularni belgilaydi, turli tillar mohiyatiga ko'ra, bilish va his-tuyg'ularga ta'siri jihatidan aslida turlicha dunyoqarashdir" deb e'tirof etadi⁴.

Ma'lumki, verbal tilga noverbal tildagi barcha narsalarni o'girish mumkin. Verbal til madaniyatning obrazli kodlarini o'z ichiga oladi. Ifoda plani moddiy qobig'ini o'zgartirib, obrazlar borliqning tabiiy modusidan lisoniy modusga o'tadi. Madaniyat kodlari, verballashib, lingvomadaniy kodlarga aylanadi. Lingvomadaniy kodlar nutqiy muloqotda amal qilib, madaniy kodlarning so'zdagi ifodasidir. Masalan, kimgadir min-

¹ Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии. – М., 2009. – С. 39

² Хавола куйидаги манбадан олинди: Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва, 2006. – Б. 12.

³ Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М., 2006. – Б. 12.

⁴ Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 370.

natdorchilik bildirmoqchi bo‘lsangiz, ta‘zim qilishingiz mumkin. Ammo shu maqsadda “bosh egaman” deyishingiz ham mumkin. Yoki hayratini ifodalash uchun o‘zbeklar kiyimning yoqasini ushlagan bo‘lishsa, keyinchalik bu harakat so‘zga ko‘chib, “yoqasini ushladi” iborasi “hayratlandi, lol bo‘ldi” ma‘nosini ifodalay boshladi. Shu tariqa, ijtimoiy ramziylikning noverbal belgisi uning verbal ekvivalenti bilan almashadi.

Madaniyat falsafasi qonunlariga ko‘ra, inson faoliyatining har qanday faoliyati emas, balki sakral xarakter kasb etgan va ma‘no chiqarish bilan bog‘liq qismigina madaniyatni yuzaga keltiradi. Predmet yoki harakat mazmun kasb etgandagina madaniyat fenomeniga aylanadi; ma‘nolarni hosil qilish madaniyatni yaratadi⁵. Masalan, “shox” predmeti o‘z-o‘zicha madaniyat tarkibiga kirolmaydi. Madaniyat fenomeniga aylanishi uchun, biz unga ma‘no yuklashimiz, mazmun bilan to‘yintirishimiz kerak. Shox “ustunlik qilish” ma‘nosida talqin etiladigan bo‘lsa, ana endi madaniyat unsuriga aylanadi. Odamning boshqalardan ustun ekanligini ko‘rsatish uchun bosh kiyim shoxlar bilan bezatiladi. Tarixdan ma‘lumki, Iskandar Zulqarnayn bosh kiyimi – diademasi ikkita shox bilan bezatilgan edi. Folklorchilar “Iskandarning shoxi bor” afsonasining kelib chiqishini mana shu fakt bilan bog‘lashadi. Bu madaniyat fakti tilga ko‘chib, tilda verbal ifodaga ega bo‘ldi: o‘zbek tilidagi “shoxing bormi”, “shoxing chiqdingmi” kabi iboralar fikrimiz dalilidir. Xalqimiz eri o‘lgan yoki eri yo‘q xotinni “shoxsiz echki”ga o‘xshatgan. Shuning uchun Boyqo‘rg‘on aholisi eri o‘lgan yosh xotinini “to‘qolak” deydi⁶. Rus tilida esa “носить рога” (shox olib yurish) iborasi “xotini xiyonat qilayotgan er” ma‘nosini ifodalaydi. “Рогоносец” (shoxi bor – ko‘chma ma‘noda – xiyonatkor ayol eri) so‘zi ham shundan kelib chiqqan. Ibora kelib chiqishini rus tilshunoslari quyidagicha izohlashadi: ibora nemis tilidan o‘zlashgan bo‘lib, qadimgi germanliklarning harbiy kiyimi bilan bog‘liq. Xotin erini urushga jo‘natayotib, boshiga shoxli bosh kiyim – shlem kiygizgan. Ayollar tilida “erga shox taqish” “erni urushga jo‘natib, erkin qolish” ma‘nosini anglatgan.

⁵ Гуревич А.Я. Этнология и история в современной французской медиэвистике // Советская этнография. 1984. – № 5. – С. 34-36.

⁶ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент, 2011. – Б. 311.

Quyosh nurlaridan kam bahramand bo'ladigan G'arb davlatlarida quyosh ezgulik, yorug'lik ramzi sifatida gavdalanadi. Quyosh yil davomida yerni qizdirib, o'simliklarni quritib tashlaydigan Afrika davlatlarida u yovuzlik timsolida talqin etiladi. Sharq xalqlari madaniyatlarida oy alohida ahamiyat kasb etadi. Xitoyliklar hayoti oy taqvimida asosida kechadi. Xitoyning an'anaviy bayramlaridan biri – Oy bayramidir. Bu bayram qamariya taqvimida bo'yicha sakkizinchi oyning 15 sanasida nishonlanadi. Bu kun kuzning o'rtasiga to'g'ri kelgani uchun uni “Chjunsyu” – “kuz o'rtasi” deyishadi. Bu kun oy yorug' va to'liq bo'ladi. O'zga yurtlarda bo'lgan vatandoshlar esa, oyga termilib, vatanlari va qarindoshlarini eslashadi. Xitoyliklarda oy oila yaxlitligi ramzi sanaladi. Shuning uchun Oy bayramini Birlashuv bayrami ham deyishadi. O'zbeklarda esa oy go'zallik ramzi sanaladi. Shuning uchun o'zbeklar yorning yuzini oyga o'xshatishadi. “Oy yuzli”, “o'n to'rt kunlik oydek” degan ta'riflar ham shundan kelib chiqqan. Ruslarda esa oy zulmat, o'limdan keyingi hayot bilan assotsiatsiya qilinadi. Ularda oy haqidagi tasavvurlar olam va hayot to'g'risidagi barqaror falsafiy qarashlar bilan bog'liq. Slavyan xalqlarida oy shu'lasi homilador va yosh go'daklar hayoti uchun xavfli deb qaralgan. “Жить под луной”, “в подлунном мире” kabi frazemalarning paydo bo'lishi ham shunday qarashlar bilan bog'liq. Somnambulizm⁷ kasalligiga muhtalo bo'lgan odamni ruslar “lunatik” deyishadi, chunki xalq e'tiqodiga ko'ra, bunday harakatlarni odam oy ta'sirida qiladi. Shuning uchun agar rus qiziga “yuzing oydek” desak, u bunday xushomadni tushinishi amri mahol.

Bugungi kunda sheva leksikasini lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish ustuvorlik kasb etmoqda. Lingvokulturologiya – tilshunoslik va kulturologiya kesishuvidagi fan bo'lib, tilda o'z ifodasini topgan va mustahkamlangan madaniyat belgilarini o'rganadi⁸.

Lingvomadaniyatshunoslik jonli xalq tilida o'z ifodasini topgan va turli lisoniy jarayonlarda reallashadigan moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganadi. Uning bosh maqsadi til qay tariqa o'z lisoniy birliklarida

⁷ Уйкусида юриш касаллиги.

⁸ Шарипова Н. Э. Лингвокультурология как новое направление в системе преподавания иностранного языка // Молодой ученый, 2015. – №3. – С. 993-995.

madaniyat belgilarini joylashtirishi, saqlashi va avloddan avlodga yetkazishini o'rganishdan iborat.

Sheva, umuman tilning lingvomadaniy tadqiqi uchun madaniyat "tili" vazifasini bajaradigan va sheva vakillarining milliy-madaniy mentalligini ko'rsatuvchi barcha lisoniy birliklar (shevaga xos iboralar, xalq maqol va matallari, o'xshatishlar va milliy stereotiplar, sheva vakillarining madaniy muloqoti) muhimdir. Sheva vakillari jamoasi mustaqil subetnos bo'lganligi sabab "ma'lum bir hudud, madaniyat va tarix, shuningdek, umummilliy til zaminida shakllangan, ammo lisoniy sathning barcha sathlarida o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanuvchi sheva orqali bir jamoaga birlashgan kishilar mentalligi, mentaliteti, madaniy an'analari va merosi, dialektal olam manzarasi va konseptlar olami haqida gapirish mumkin"⁹.

Yuqorida mentallik degan terminni qo'lladik. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mentallik tushunchasini ham madaniyat tushunchasi kabi ta'rif va talqin qilish mushkul. Mentallikni ta'riflashdan ko'ra, uni tavsiflash osonroq ko'rinadi. Mentallik tushunchasini tavsiflash uchun Xrolenko A.T gazeta tahririyatiga yo'llangan maktubda hikoya qilingan voqeani keltiradi. Rus millatiga mansub kishi GFR da bo'lgan chog'ida bir kafeda o'tirgan. Biroz vaqt o'tib kafega yoshi kattaroq bir nemis kiradi. Zalda bo'sh stollar ko'pligiga qaramay, nemis zaldagilarni ko'zdan kechirib, aynan rus kishi o'tirgan stolga yaqinlashadi va rus tilida unga hamroh bo'lishni so'raydi. Shu tariqa ular tanishib, dilkash suhbat quradilar. Xayrlashish payti kelganida, maqola muallifi nemisdan uning rus ekanligini qayerdan bilganini so'raydi. Nemis Ikkinchi jahon urushi paytida Adver (Germaniya imperiyasida harbiy razvedka organi) da xizmat qilganligi va xizmat vazifasi davomida "Приметы русских" ("Ruslarning belgilari") kitobini diqqat bilan o'qib chiqqanligini aytadi. Kitobda keltirilgan ko'plab belgilar orasida shu belgi ham bor edi: ruslar oyoq kiyimini tozalayotganida odatda etik yo tuflining bosh qismiga butun e'tiborini qaratishib, oyoq kiyimning orqa tomonini unutishadi. "Shundan beri oyoq kiyimimni tozalayotganimda rus mentaliletimni sindirib, etigimning orqa qismiga bor ku-

⁹ Брысина Е.В. Диалект через призму лингвокультурологии // Вестн. Волгогр. гос. ун-та. Сер. 2, Языкозн. 2012. № 2 (16). – С. 53.

chimni beraman” – deb xulosa qiladi maqola muallifi. Rus kishisini oyoq kiyimining old qismiga bor kuchini qaratib, orqa tomonidagi changni unutishga undaydigan g‘ayritabiiy kuch ilmda mentalitet yoxud metallik deyiladi¹⁰.

O‘zbek mentalligiga xos xususiyatlardan birini ta’riflash uchun quyidagi holatni eslatib o‘tish mumkin. O‘zbek futbol hakami Ravshan Ermatov jahon chempionatlaridagi uchrashuvlarda hakamlik qilib, shuhrat qozongach, butun dunyoda dovrug‘i ketib, ko‘plab jurnalistlar undan intervyu olib, chop etishdi. Jurnalistlarning aksariyati uning haliyam ota-onasi bilan yashashini “taajjub” bilan qayd etishardi. Ma’lumki, G‘arb davlatlarida, voyaga yetgan farzand ota-onasidan alohida yashaydi. Shuning uchun bu holat ularga g‘alati tuyulgan bo‘lishi tabiiy. Rus nashriga bergan intervyularidan birida Ermatov buni quyidagicha izohlagan: “O‘zbek oilalarida qarigan chog‘ida ota-ona yolg‘iz qolmasligi, ularga g‘amxo‘rlik qilish uchun o‘g‘illardan biri albatta ular bilan qolishi kerak. Bu o‘zbek mentalitetidagi nozik jihatlaridan biri. Men ota-onam bilan yashayman, menga bu juda yoqadi, ularsiz hayotimni tasavvur qilolmayman”.

Mentalitet deb, “siyosat”ga ham, “ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar”ga ham, “odatlar”ga ham, “qonun”larga ham kirmaydigan narsalarni aytish mumkin. Boshqa xalqlar madaniyati va tarixidagi g‘alati va tushunarsiz bo‘lgan narsalarni tushuntirishda mentalitet so‘zidan foydalanishadi. Metallik tafakkur, xulq-atvor me’yorlari, tuyg‘ulardan chuqurroq. U tizimga solinmagan. Mentalitet ma’lum tarzda harakat qilishga moyillik, ruhan tayyorlik sifatida gavdalanadi. Bu ong va xulq-atvor avtomatik shakllari sohasi¹¹.

Lingvokulturologiya yangi fan tarmog‘i sifatida qayd etilayotgan bo‘lsa-da, aytish mumkinki, tilning madaniyat bilan bog‘liqligi xususidagi gaplar ancha oldin ham aytilgan. Masalan, V.Gumboldt til madaniyatida, madaniyat esa tilda yashashini ta’kidlab, til va madaniyat o‘zaro aloqadorligi masalalarini yoritadi. “Har bir til yaxlitligicha insoniyat ruhini ifoda etadi, ammo har bir tilda ma’lum millat gapirgani va ularning har

¹⁰ Хроленко А.Т. Основы лингвокультурологии . – М., 2009. – С. 42.

¹¹ Хроленко А.Т. Кўрсатилган асар. – С. 45.

biri ma'lum xususiyatga ega bo'lgani bois, bu ruh faqat bir tomonlama namoyon bo'ladi"¹². Shuning uchun ham rus olimi T.R.Radbil lingvokulturologiya – bu juda yangi yo'nalish emas, balki "yaxshigina unutilgan eski qarash" deb e'tirof etadi.

V.Gumboldt hozirgi lingvomadaniyatshunoslikning ikkita asosiy g'oyasini belgilab berdi:

1. Har qanday milliy til milliy madaniyat va jamiyat taraqqiyoti mahsulidir.

2. Til milliy madaniyat, olamning milliy manzarasi va ma'lum millatga mansub shaxs xulq-atvorini belgilaydi¹³.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat idrok etilgan olamni aks ettirish usuli sifatida talqin etiladi, milliy idrok millat ongida milliy-mental konseptlar shaklida saqlanadi. Lingvomadaniyatshunoslikning vazifasi milliy-madaniy mentallikni ifoda etuvchi til birliklarining madaniy mazmunini ochib berish, milliy tildagi madaniy stereotiplarni aniqlash va ular vositasida shu xalq madaniyatining qadriyatlar tizimi, umuman, idrok intizomini yoritishdir.

Shu tariqa, lingvomadaniyatshunoslik kompleksli ilmiy yo'nalish bo'lib, til va madaniyat o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini bevosita faoliyatda o'rganadi, bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmun yaxlitligidagi birliklar majmuyi sifatida talqin etadi va bunda sistem yondashuvlarni qo'llab, hozirgi kundagi ustuvor jihatlar va madaniyat me'yorlari (qoida va umuminsoniy qadriyatlar tizimi)ga e'tibor qaratadi¹⁴.

Ammo har qanday tadqiqot yo'nalishining o'z kamchiliklari bo'lgani singari, lingvomadaniyatshunoslik ham ayrim nuqsonlardan xoli emas. Bu avvalambor lingvomadaniyatshunoslik o'z tadqiqot metodologiyasiga ega emasligida ko'rinadi. Bu lingvomadaniyatshunoslikning sinkret xarakterga egaligi bilan izohlanadi. Shu sababli lingvomadaniy tadqiqotlarda psixologiya, madaniyatshunoslik va sosiologiyaning turli-tuman usullari qo'llanadi. Lingvomadaniyatshunoslikda turli soha usullarining tatbiq et-

¹² Гумбольдт Вильгельм. Опыт анализа мексиканского языка / Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 364.

¹³ Шаклеин В.М. Лингвокультурология. Традиции и инновации. – М.: Флинта, 2012. – С. 45.

¹⁴ Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М., 2006. – С. 36-37.

ilishi esa turli nazariya terminlarining qo‘llanishiga zamin yaratadi. Shu tariqa, lingvomadaniyatshunoslikning yana biri nuqsoni – terminlarni qo‘llashdagi rang-baranglik yuzaga keladi¹⁵.

Mavjud kamchiliklariga qaramay, lingvomadaniyatshunoslik bugungi kundagi sermahsul tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Lingvomadaniyatshunoslik tadqiq usullari nafaqat milliy til, balki milliy tilning ko‘rinishi – subtil, ya’ni sheva faktlarini o‘rganishga ham tatbiq etilmoqda. Tabiiyki, adabiy til egalari bilan sheva vakillari nafaqat tildan turlicha foydalanadilar, balki olam haqidagi tasavvurlarini tilda turlicha namoyon etadilar. Misol uchun “nishonlamoq” tushunchasini ifodalovchi dialektal lingvokulturemalarni ko‘rib chiqsak o‘zbek tilining turli shevalarida bu tushuncha turli so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu esa subetnos, ya’ni sheva jamoasining ko‘p asrlik tarixi, o‘ziga xos turmush tarzi va olamni idrok eitsh tizimi bilan bog‘liq. Xorazm vohasida yashovchilar bu tushunchani “jo‘shmoq” fe’li bilan ifodalaydilar. Biror kishiga “nishonlaysanmi, yuvib berasanmi?” mazmunidagi tushunchani yetkazish uchun “Jo‘shasanmi?” deya murojaat qiladilar. “Jo‘shmoq” so‘zi adabiy tilda quyidagi ma’nolarga ega: 1. Qattiq to‘lqinlanmoq, mavj urmoq; 2. To‘lib toshmoq, qaynamoq¹⁶. Tabiiyki, Xorazm shevasiga xos ma’no so‘zning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dastlabki ma’nolariga borib taqaladi. Nega degan savol tug‘iladi? Gap shundaki, Xorazm otashparatslarning muqaddas kitobi “Avesto” yaratilgan hudud hisoblanadi. Aynan shu yerda arxeologlar otashparatslarning qabristonlari va “ostadon”larning qoldiqlarini topishgan. Otashparatlarda har qanday bayram, tantana olov va uning atrofidagi jo‘shqin raqslar bilan assotsiatsiya qilinadi. Shu sababli Xorazm lazgisi boshqa o‘zbek milliy raqslaridan jo‘shqinligi va dinamikligi bilan ajralib turadi. Xorazm raqslari o‘ynoqi, serharakat bo‘lib, olovdek qizdiradi. Xorazmlik raqqosalar raqsning avvalidanoq juda jo‘shqin harakatlar qilishadi, raqs oxiriga kelib esa yanada tezlashadilar. Xorazmliklarda qandaydir diqqatga sazovor sana, voqeani nishonlash raqs, tuyg‘ular mavji bilan aloqadorlikda voqelanadi.

¹⁵ Токарев Г.В. В развитие учения В.Н. Телия о языке культуры: квазиэталоны / Язык, сознание, коммуникация. – М.: МАКС Пресс, 2013. Вып. 46. – С. 114.

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – Б. 119.

Shahar aholisida esa, masalan, toshkentliklarda shu tushuncha “erimoq” so‘zi orqali ifodalanadi. Ma’lumki, shahar hayoti pul mablag‘larini qat’iy nazorat qilishni taqozo etadi, zero shaharliklar, ko‘p narsa tomorqasida o‘sadigan qishloq aholisidan farqli o‘laroq, hamma narsani sotib olishga majburlar. Shuning uchun shaharlikka biron narsani nishonlatish, yoxud uni “eritish” juda mushkul, agarda u bunga jazm etgan bo‘lsa, demakki, u “eridi”. Toshkentliklar “Bugun men eriyman” deyishadi, ya’ni bugun men biron narsani nishonlayman, xarajat qilaman. Qashqadaryoliklar esa “nishonlamoq, yuvmoq” ma’nosida “haq beraman” iborasini ishlatadilar. “Haq” so‘zining ma’nolaridan biri – to‘lov, mukofot¹⁷. O‘zbekistonning janubida istiqomat qiluvchi aholi (qashqadaryoliklar, surxondaryoliklar) kengfe’lligi, bag‘rikengligi, ochiqqo‘lligi bilan mashhur. Shuning uchun ularda “nishonlamoq” tushunchasi saxovat ko‘rsatish, ya’ni nimadir sovg‘a qilish, tortiq qilish bilan bog‘liq holda idrok etiladi. Shu ma’no o‘zbek adabiy tilida “yuvmoq” so‘zi bilan ifodalanadiki, bu o‘zbek xalqi mental manzarasini ifoda etmaydi. Mazkur so‘z rus tilidagi “обмыывать” so‘zining semantik kalkasi bo‘lib, rus tilidan tarjima orqali o‘zlashgan. “Обмыывать” so‘zi rus millatiga xos xususiyat va rus mentalligini ifodalaydi, zero ruslarda bayram ichkilik, aroq – “voda” so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lgan “vodka” bilan bog‘lik tarzda idrok etiladi. Shuning uchun biror voqea yoki bayramni nishonlash tushunchasini ifodalashda rus kishisi “обмыывать” so‘zidan foydalanadi. Yuqorida keltirilgan “nishonlamoq” konsepti tahlili shevalar olamning milliy manzarasini adabiy tildan yorqinroq ifodalashini isbotlaydi.

Shevalarda olamning lisoniy manzarasi ifodasi turli urf-odatlar, milliy udumlar, an’analar bilan bog‘liq. Masalan, surxondaryoliklarga xos “unashtirmoq” ma’nosidagi “ro‘mol tashlab qo‘ymoq” ifodasini ko‘rib chiqamiz. Ushbu iboraning lingvomadaniy axboroti quyidagicha: ro‘mol – o‘zbek ayollariga xos milliy bosh kiyimi. O‘zbek urf-odatlariga ko‘ra, turmushga chiqqan ayol boshini ro‘mol bilan o‘rab yuradi. Agar qiz bola ro‘mol o‘ragan bo‘lsa, demak u turmushga chiqqan yoki unashtirilgan.

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 518.

Shuning uchun “ro‘mol tashlab qo‘ymoq” deganda surxondaryoliklar “unashtirish”ni tushunadilar. Yoxud boshqa bir misol. Xorazmda kelin bo‘lajak xonadoniga, ya’ni kuyovning uyiga mahsi kiyib borgan. Shuning uchun Xorazmda “turmushga chiqmoq” ma’nosi mahsi kiyish udumi bilan bog‘liqlikda idrok etiladi. Xorazmliklar “mahsi kiyish” iborasi bilan “turmushga chiqmoq” ma’nosini ifodalaydilar¹⁸.

Kishining madaniyati idrok intizomida ham o‘z ifodasini topadi: ayni bir xil hodisalar va voqelik turli lisoniy jamoalar tomonidan turlicha idrok etilib, turlicha talqini qilishi va tilida turli vositalar orqali ro‘yobga chiqishi mumkin. Masalan, N.Mahmudov o‘zbeklar kichkina, serharakat qushni nomlashda avvalambor uning harakatini e’tiborga oladilar, shuning uchun uni “chit-chit” so‘zi bilan bog‘lab, “chittak” deb nomlaydilar, rus kishisi esa uning rangini e’tiborga olib, uni “синица” deb nomlashini yozadi¹⁹. Olamni turlicha ko‘rish sheva vakillari uchun ham xos. O‘zbek shevalarida “to‘yda pul berish” tushunchasini ifodalovchi leksik vositalarni ko‘rib chiqsak. Raqs barcha o‘zbek to‘ylarining tarkibiy qismidir. To‘yda mehmonlar ham, kelin-kuyovning ota-onasini ham raqsga tushadi. Raqsga tushgan ota-onaga pul berish odati deyarli O‘zbekistonning barcha hududlarida mavjud. Ammo turli sheva vakillari bu odatni, jarayonni turlicha nomlaydilar, zero uni turlicha baholaydilar. Masalan, o‘zbek shevalarining aksariyati bu jarayonning boshini, ya’ni bu pullar qay tariqa raqs tushayotganlarga taqdim etilayotganini ko‘radi. Odatda bu pullar qistiriladi, ya’ni cho‘ntakka solinadi yoki do‘ppiga ilintiriladi. Nom ham shundan kelib chiqqan: qistir-qistir. “Qistirmoq” fe’lining ma’nolaridan biri “to‘y-hashamlarda o‘yinchi, hofiz va sh.k. rag‘batlantirish uchun chakkasiga yoki qo‘liga pul suqib qo‘ymoq²⁰”. Namanganliklar esa bu jarayonning oxirini ko‘rishadi, bu pullarni olgan shaxs uni boshqa birovga qistiradi, unisi esa, o‘z navbatida, boshqasiga. Shu tariqa, pullar aylanib yuradi. Aynan shu xususiyat to‘yda hofiz yoki raqsga tushgan odamga beriladigan pulni nomlashda e’tiborga olingan; namanganliklar “qistir-qistir”ni “sargar-

¹⁸ Норбаева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика. – Тошкент, 2014.– С. 47.

¹⁹ Маҳмудов Н. Оламинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №3. – Б. 5.

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент, 2008. – Б. 309.

don” deyishadi. Sargardon – tojik tilidan olingan bo‘lib, “sarson bo‘lgan” ma’nosini ifodalaydi²¹.

Lisoniy jamoalar nafaqat borliqni turlicha ko‘rib, idrok etishadi, ko‘rganlarini tilda turlicha ifoda etishadi, balki borliqdagi tovushlarni ham turlicha eshitishadi. Shuning uchun, tovushga taqlid asosida yuzaga kelgan so‘zlarda ham farqlanishlar yuzaga kelishi mumkin. N.Mahmudovning e’tirof etishicha: “o‘zbek tovuqning polaponi chiqaradigan tovushni “jip-jip” deb eshitadi, shuning uchun uni jo‘ja deydi, rus kishisi esa uni “цип-цип” deb eshitadi va shu asosda “циплёнок” deb nomlaydi”²². Nafaqat turli millatlar, balki bir xalqning ichidagi turli sheva vakillari ham borliqdagi tovushni har xil eshitadi. Masalan, ko‘pchilik o‘zbek shevalari vakillari kurka chiqaradigan tovushni “kurk-kurk” deb eshitadi, shuning uchun uni “kurka” deydi, Samarqand viloyatidagi ba’zi qishloq aholisi esa kurka chiqaradigan tovushni “g‘ul-g‘ul” deb eshitadi, shuning uchun bu qushni ular g‘ulg‘ultovuq, ya’ni “g‘ul-g‘ul deb tovush chiqaradigan tovuq” deb nomlashadi. Yoxud “g‘iybat qilmoq” ma’nosini ifodalovchi dialektal fe’llarni tahlilga tortsak. Masalan, Qashqadaryo viloyati Qamay qishlog‘i aholisi g‘iybat vaqtida chiqariladigan ovozni “g‘it-g‘it” deb eshitadi va shuning uchun “g‘iybatlashmoq” ma’nosini ifodalashda shu taqlid so‘zdan foydalanib, g‘itg‘itlamoq so‘zini hosil qilganlar²³. Davtosh qishlog‘i aholisi esa “birovni birovga tezlash, birovni yomonlash, ig‘vo, gijgijlamoq” tushunchasini ifodalash uchun kishkishlamoq so‘zidan foydalanadilar, zero ular g‘iybat paytidagi tovushlarni “kish-kish” deb eshitadilar²⁴. Alohida ta’kidlash kerakki, adabiy tilda shu ma’noni ifodalash uchun gijgijlamoq so‘zi qo‘llanib, u ham gij-gij tovushga taqlid so‘zidan hosil bo‘lgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, “millat tarixiy taraqqiyoti davomida o‘z tilini shakllantirib borgan, moddiy va ma’naviy madaniyat shakllanishi va rivojida olamni idrok etish va uni egallash uchun o‘z ichki va tashqi

²¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент, 2007. – Б. 447.

²² Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 5.

²³ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 448.

²⁴ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б.149.

taqdiri, tarixiy va jo‘g‘rofiy shart-sharoitlari uchun ahamiyatli deb bilgan barcha narsalarini jo qilgan”²⁵.

Olamning dialektal lisoniy manzarasi

Hozirgi tilshunoslikda “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasi “borliq haqida ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami” deb ta’riflanadi²⁶.

“Olamning lisoniy manzarasi quyidagi vazifalarni bajaradi: olamni o‘ziga xos ko‘rishni ta’minlovchi interpretativ vazifa; olamda o‘z o‘rnini aniqlashga imkon beruvchi regulativ vazifa; voqelikni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish vazifalari”²⁷.

Olamning lisoniy manzarasini sheva materiallari asosida o‘rganayotgan olimlar “olamning dialektal lisoniy manzarasi” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritmoqdalar. Ularning fikricha, olamning dialektal lisoniy manzarasi umumiy lisoniy manzaraning tarkibiy qismi bo‘lib, shu bilan birga o‘ziga xos gnoseologik va madaniy hodisadir²⁸. Olamning dialektal lisoniy manzarasini o‘rganish zamonaviy lingvomadaniy va dialektologik tadqiqotlarning muhim vazifasi sanaladi.

Lingvistik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasi obyektiv olamning subyektiv ko‘rinishi, olamning konseptual manzarasini tilda ifodalash usuli sifatida talqin etiladi. Rus shevalari asosida milliy lisoniy manzara chizgilarini o‘rgangan K.I.Demidova milliy lisoniy manzara turdosh emasligi, u yoki bu tilning umumiy milliy lisoniy manzarasi kasbiy, badiiy, bolalar, dialektal lisoniy manzaralar kabi tizimlardan tashkil topishini yozadi²⁹. Olamning dialektal lisoniy manzarasi har bir millat va elat uchun nihoyatda muhim hodisalardan biri, zero unda millat va elatga xos muhim madaniyat belgilari aks ettiriladi, xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi o‘z ifodasini topadi.

²⁵ Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа / Л. Вайсгербер. – М.: Астрель, 1993. – С. 387.

²⁶ Махмудов Н. Оламининг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №3 – Б. 3.

²⁷ Краснова И.А. Концепт честь в русской языковой картине мира. – Канада, 2010. – С. 25-26.

²⁸ Овчинникова Л.Н. Дialeктная языковая картина мира в социально-культурном аспекте (на примере глагольных метафор русских народных говоров Среднего Урала) // Политическая лингвистика, 2006. – №18. – С. 170.

²⁹ Демидова К.И. Дialeктная лексика как источник изучения диалектной языковой картины мира в психолингвистическом аспекте // Вестник ЮрГУ, 2011. – №22. – С. 6.

Olamning dialektal lisoniy manzarasi umumiy lisoniy manzaradan tabiiylik, aniqlik, obrazlilik kabi belgilar bilan farqlanadi. Cheklangan hududda, yopiq jamoada shakllangan bu til ma'lum guruh odamlarining turmush tarzini, shu guruh odamlarining o'zlarini qurshab turgan olam, tabiatga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Shu sababli bunday til o'ziga xos sotsiolingvistik va sistem parametrlarga ega bo'ladi³⁰. Agar lingvokulturologiyaning o'zi ikkita semiotik tizim, ya'ni til va madaniyat o'zaro munosabatini o'rgansa, uning xususiy ko'rinishi bo'lmish dialektal lingvokulturologiya sheva tili va an'anaviy madaniyat bilan bog'liq³¹. Sheva vakillari umumadabiy tildan farqli, o'ziga xos leksik, frazeologik va so'z yasash vositalaridan foydalanishadi, ular o'zlarini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni o'zlaricha so'zlarga aylantirishadi, turmushning faqat ularga xos yangi manzarasini yaratadilar. Ammo dialektal lisoniy manzara o'z-o'zicha, yopiq holda rivojlanadi deb bo'lmaydi, zero umumiy dialektal lisoniy manzaraga xususiy dialektal tizimlarning lisoniy manzaralari qo'shib, singib ketadi, shuningdek, uning faoliyatiga olamning umummilliy lisoniy manzarasi ham ma'lum darajada ta'sir etadi. Shu bilan birga, olamning dialektal manzarasi o'z taraqqiyot yo'liga ega noyob hodisa bo'lib, albatta, milliy til ta'sirida rivojlanadi. Shuning uchun olamning dialektal manzarasi tushunchasini tizimosti, alohida til varianti sifatida talqin etish noto'g'ri bo'lar edi.

Olamning dialektal lisoniy manzarasi olamning umumiy lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismi ekanligidan kelib chiqib, dialektal hamjamiyatni lisoniy jamiyatning maxsus tarkibiy qismlaridan biri sifatida talqin etish, sheva vakillarining o'ziga xos dunyoqarashi, ularning nazdidagi olamning o'zgacha manzarasi to'g'risida so'z yuritish mumkin. N.Tolstoy: "milliy til, xalq tili, milliy urf-odatlar, qarashlar, xalq madaniyati unsurlari yaxlit milliy madaniyatni tashkil etib, elitar madaniyat bilan ziddiyatga kirishadi",³² deb hisoblaydi. Olimning fikricha, sheva nafaqat

³⁰ Радченко О.А., Закуткина Н.А. Дialektnая картина мира как идиоэтнический феномен // Вопросы языкознания. №4. 2006. – С.25.

³¹ Калиткина Г.В. Междисциплинарные области диалектной лингвокультурологии / Сибирский филологический журнал. - №3. 2008. – С. 181.

³² Толстой Н. И. Язык и народная духовная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике / Н. И. Толстой. – М.: Языки славянской культуры, 1995. – С. 21.

lingvistik hududiy birlik, balki etnografik birlik hamdir. Ma'lum ijtimoiy guruhning olamni bilish va qabul qilish xususiyatlari uning madaniyati bilan bog'liq. Turli guruhlar bir xil voqelikni turlicha ko'rishi va uni turlicha talqin etishi mumkin. Masalan, "unashtirilgan qiz" tushunchasi o'zbek shevalarida turlicha ifodalanadi va bu ifodalarning aksariyati unashtirish jarayonida bajariladigan turli urf-odat va marosimlar bilan bog'liq. Xususan, Toshkentda unashtirilgan qizga oq libos hadya etiladi, shu bois toshkentliklar "unashtirish" ma'nosida "oq o'rash" iborasini ishlatishadi, unashtirilgan qiz esa "oq o'ralgan" birikmasi bilan yuritiladi. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida unashtirish "ro'mol" tushunchasi bilan aloqadorlikda talqin etiladi. Unashtirilgan qiz unashtirish marosimidan keyin "ro'mol" o'rab yurishi lozimligi sababli, unashtirilgan qiz "ro'mol tashlab qo'yilgan" birikmasi bilan ifodalanadi. Shuningdek, o'zbek xalqida patir, non sindirilishi unashtirish etnografik marosimining tarkibiy qismi sanaladi. Shu bois ayrim shevalarda "patir ushatilgan", "non sindirilgan" birikmalari "unashtirilgan qiz" tushunchasini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Bizning kuzatuvlarimiz va lisoniy material tahlili bir tilda so'zlashuvchi, ammo turli tarixiy, iqlimiy, madaniy, lingvistik, ijtimoiy sharoitlarda yashaydigan odamlar va butun ijtimoiy guruhlar dunyoqarashida farqlanishlar borligini ko'rsatdi. Masalan, qatiq hosil qilish uchun foydalanadigan oz miqdordagi qatiqni ayrim sheva vakillari *achitqi* desa, ayrimlari *uyitqi*³³ deydi, boshqalari esa *tomizg'i* so'zini ishlatadi. Nomlash uchun motivlashgan belgini tanlab olishning o'zidayoq borliqini qabul qilish bir xil emasligi, sheva vakillari ongidagi assotsiativ obrazlarning turfaligi ko'rinib turibdi. Ayrim sheva vakillari achitish, uvitish harakati bilan bog'lashsa, boshqalari tomizish harakati bilan assotsiatsiya hosil qilishadi.

Ham lingvistik, ham umummadaniy jihatdan olamni talqin etish usullari va mexanizmlarini tadqiq etish, sheva vakillari foydalanadigan obrazli sxemalarni aniqlash muhim sanaladi. Bu ijtimoiy-madaniy stereotiplarni belgilash, olamning dialektal lisoniy manzarasini aniqlash imkonini beradi.

³³ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент, 2011. – Б. 314.

Dialektal manzaralarning turlichaligi olam manzarasi turfaligidan dalolat beravermaydi. Masalan “jimjiloq – qo‘lning kichkina barmog‘i” tushunchasi dialektal manzaralarda *lilicha* (Buxoro), *chinatay* (Iqon), *chinachiq* (Qashq.) kabi turlicha ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, ularning inson ongida aks etgan olam manzarasi mushtarakdir. Shuningdek, dialektal manzaradagi shakliy o‘xshashlik turli olam manzaralarini ifodalashi mumkin: nofarmon Buxoro shevalarida binafsha rang bo‘lsa, *noparmon* Qamashida – to‘q qizil; xira; *yuzochar* (Yakkabog‘) – nikoh kuni ertasi kelin yuziga yopilgan yopinchiqni ochishga bag‘ishlangan marosim – *batochar* (Iqon) – qochib ketgan qiz yoki kelin olib qochib kelgan yigit uchun to‘y.

Sheva vakillarining o‘ziga xos dunyoqarashi, olamning dialektal manzarasini tadqiq etar ekanmiz, uning quyidagi belgilarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin: antroposentrizm (markazda inson turadi – u yaratadi, barbod etadi, baholaydi), aniqlik, obrazlilik, mifologizm, detallashtirish, tabiiylik, atrofda olamga bog‘liqlik, tabiat, turmush tarziga bog‘liqlik, subyektivizm, yuqori darajadagi ekspressivlik va emotsionallik, voqelikning salbiy jihatlariga e‘tibor qaratish (pessimizm), murossasizlik.

Antropotsentrizmni nafaqat sheva, umuman milliy tilga xos xususiyat sifatida belgilash mumkin. Antropotsentrizm deganda u yoki bu tushunchalar ifodasida o‘zidan kelib chiqish nazarda tutiladi; olamni qabul qilish, bilish odamning o‘zi orqali, o‘z “men”ini atrofida voqelikka jo etish oqibatida sodir bo‘ladi. Masalan, uzoq, yaqin, ojiz, baland kabi xususiyatlarni ifodalashda kishilar o‘zlaridan kelib chiqib, o‘z tana a‘zolari nomidan foydalanadilar. O‘zbek adabiy tilida “bormaslik” ma’nosida “oyoq uzmoq”, “baland” ma’nosida “boshidan do‘ppi tushadigan”, “imkoniyati keng” ma’nosida “qo‘li uzun” ifodalari ishlatiladi. Bunday ifodalalar sheva vakillari tilida ham uchraydi. Ammo shevalarda umummilliy til uchun xos bunday ifodalardan tashqari faqat ayrim shevalarga xos, antropotsentrizm bo‘rtib turgan ifodalar ham mavjud. Xususan, Iqon shevasida “pala-partish” ma’nosini ifodalash uchun “boshini oqartirib, ko‘zini ko‘kartirib” iborasi ishlatiladi, adabiy tildagi “bog‘dan-tog‘dan” iborasi ekvivalenti o‘rnida esa “bosh-oyoq” (Bash-ayaq qib sellædi – Bog‘dan-

tog‘dan gapirdi) iborasi qo‘llanadi. Toshkent va boshqa qator shevalarda esa “yaqin” va “uzoq” tushunchalarni ifodalash uchun inson tanasining markazi – “kindik” so‘zidan foydalaniladi. Masalan, “ma’nan yaqinlik” tushunchasi ifodasi uchun “kindigimiz bitta” iborasi qo‘llansa, “juda uzoqda” tushunchasi uchun “yerning kindigida” iborasi faol qo‘llanadi. Biron narsaning ibtidosi, asosini ifodalash uchun sheva vakillari inson tanasining yuqori qismi “bosh” so‘zi, intihosini ifodalash uchun esa inson tana a’zosining quyi qismi “oyoq” so‘zidan foydalanishadi. Xususan, Qashqadaryo viloyati Tol qishlog‘ida “quyi tomon harakat qilmoq”, “tugatmoq” ma’nolari ifodasi uchun “oyoq” so‘zi ishtirokida so‘z qo‘llanadi, tolliklar adoqlamoq deydilar³⁴. Chiroqchiliklar esa kuyov va kelinning bobosi va momosini “boshquda” deydilar³⁵.

Insonning tabiat hodisalarini nomlashda uni o‘zidek tasavvur qilishini O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ham “Jon ichra jonim mening” maqolasida katta hayrat va zavq-u shavq bilan yozadi: *“Tuxum oqiday bo‘lib kun chiqdi. Tikkaga o‘rlamay, tumanli ufq toqidan asta ko‘tarilib, bir yerga borganida tek qoldi, tegrasida oqish doira paydo bo‘ldi. “Kun o‘tov tikdi” deyishdi kishilar. O‘tov ulovga ortilgan bo‘ladi, ulus biroz tin olay deganida tushilib, o‘tov tikiladi. Qanchadir muddat o‘tib, yana yo‘lga tushiladi. Haqiqatan ham, kun tikkaga yetar-etmas bir dam tek turib qoladi. Kishilar uni o‘zlariga o‘xshatib “o‘tov tikdi” deyishganiga nima deysiz?”* Parchadan ayon bo‘ladiki, ilmiy tilda “galo” deb yuritiladigan tabiat hodisasi, ya’ni oying atrofida halqasimon yog‘duning hosil bo‘lishini chorvador halq o‘z turmushidan kelib chiqib nomlagan. Yoki boshqa misol. Xalqimiz kuzda qor yog‘ishini insonning “bola tashlashi”-ga qiyoslab, “qish bola tashladi” iborasi bilan yuritadilar. Isajon Sultonning bu boradagi fikrlariga diqqat qaratamiz: *Qor momoguldurak bilan yog‘sa, “qish bola tashladi”, deyilgan. Qish-a? Bu ajoyib el qishni tirik deb tasavvur qilmoqda. U ham qaylardadir hayot kechiradi, bir sabab bo‘lib, xuddi qo‘y-sigirlar, ot-tuyalar singari bola ham tashlarmish! Yoki “qilichini ko‘tarib, qish keldi”, deydilar. Shuning o‘ziyoq qishga o‘zga*

³⁴ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 16.

³⁵ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 52.

mazmun yuklab yuboradi, ya'ni uni lashkar deb tasavvur qiladi. Umuman, o'zbek tili iboralarida odamni hayratga soladigan jonlantirishlar bor".

Aniqlik ham dialektal manzarani xarakterlovchi xususiyatlardan biridir. Sheva asosan kommunikativ maqsadni ifodalab, kundalik turmushda duch keladigan narsa-predmetlarni ifodalashga qaratilgani bois ham sheva leksikasida denotativ ma'noni ifodalovchi so'zlar ko'p uchraydi. Sheva vakillari doim aniqlikka intiladilar, shu sababli hatto abstrakt tushunchalarni nomlashda ham konkret ma'noli so'zlardan foydalanishadi. Xususan, sheva vakillari "ma'no, mazmun" abstrakt ma'nosini ifodalash uchun konkret ot nomi – "tuz" so'zidan foydalanishadi va "bema'ni" tushunchasi ifodasi uchun "tuzsiz" so'zini qo'llashadi: *Ichsa biram tuzsiz bo'ladi-ey!* Konkret ma'nodan abstrakt ma'no shakllanishini M.Hakimova ma'no ko'chishning alohida usuli deb ko'rsatib, uni abstraktlashish usuli deb nomlaydi. "Bunda konkret denotatni ifodalovchi so'zlar abstrakt tushunchalarni ham nomlay boshlaydi. Masalan, tuz (ovqatga ta'm beruvchi modda) – tuz (ma'no, mantiq), bahor (fasl) – bahor (shodlik), og'ir (vazning me'yordan yoki taqqoslanayotgan narsadan ortiqligi) – og'ir (vazmin), tiralmoq (biron-bir narsani ustki qismining qirilishi) – tiralmoq (ruhiy azoblanish), bo'sag'a (uyning kirish qismi) – bo'sag'a (har ishning boshlanishi)³⁶".

Obrazlilik xususiyati nazarimizda alohida diqqatga sazovor. Obrazlilik dialektal nutqning muhim belgilaridan biri bo'lib, sheva vakillarining fikrlashdagi o'ziga xosligini belgilab beradi. Sheva vakili uchun obrazlilik olamga bo'lgan o'ziga xos munosabatga aylanadi. "Atrofdagi olam in'ikosi hissiy aniq ifoda va umumlashgan ma'no ayniyati (tengligi, parallelizm, uyg'unlik)ga asoslangan obrazlar shaklida amalga oshadi³⁷". Masalan, ayrim sheva vakillari "qo'ziqorin"ni nomlashda uning shakliga e'tibor berishadi va uni qo'zining qorni yoki dumbasiga o'xshatishadi va shu tariqa "qo'ziqorin", "qo'zidumba" so'zlari paydo bo'lgan. Ammo o'zbek tilining boshqa sheva vakillari, masalan shimoliy o'zbek shevalari guruhi-

³⁶ Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт сўзлар семантикаси. – Фил. фанл... докт. диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б. 22.

³⁷ Димитриева В.Н. Мифореализм «без берегов»: к вопросу о наследовании литературой свойств мифа / Миф, фольклор, литература: эстетическая проекция мира. – Вроцлав, 2015. – С. 12.

ga kiradigan Iqon shevasi vakillari qo‘ziqorinning shakliga emas, uning g‘ovaklik xususiyatiga e‘tibor qaratishib, uni “kovak” deb nomlashgan.

Mifologizm. Mifologik dunyoqarash olamni bilishning eng qadimgi usullaridan biridir. Sheva til taraqqiyotining dastlabki ko‘rinishi bo‘lgani bois, sheva vakillari dunyoqarashida mifologizm unsurlari ko‘rinadi. Ma‘lumki, mifologik qarash animistik, fetishistik va totemistik tasavvurlardan iborat. Dialektal manzaraning animistik xususiyati shunda ko‘rinadiki, olam ko‘rish, his etish mumkin bo‘lgan aniq obraz orqali o‘zlashtiriladi. Masalan, Qashqadaryo shevalarida “adishak” mifonimi mavjud. Adishak – yovuz maxluq qiyofasidagi afsonaviy kuch . Galamo‘laliklar “ozib ketgan” degan tushunchani ifodalash uchun “adishak urgan” birikmasidan foydalanishadi. Zero, xalq tushunchasida ozib ketgan bola yoki hayvonga mana shu yovuz maxluq ta’sir etgan deb hisoblashgan. Yoki Boysun aholisi may oyi boshlarida o‘sib chiqadigan yovvoyi o‘tning turini “tilako‘ti” deb nomlashadi. Bu nominatsiyada fetishistik qarash ustuvor ekanligi ko‘rinib turibdi. Zero, yerli aholi shu o‘tdan uyiga olib kelib, ildizi bilan osib qo‘yadi va biror qarindosh yoki farzandi uzoq joyga ketsa, uning nomini shu o‘tga qo‘yib, shu o‘t orqali uzoqqa ketgan farzandining sog‘ yurishini tilaydi. Shuning uchun ham o‘t “tilako‘ti” deb nom olgan³⁸. Aksariyat shevalarimizda tug‘ilgan vaqtda og‘izda bo‘lgan kichik tish yoki birinchi chiqqan tish “bo‘ritish” deb yuritiladi. Yoki “kuchli darajada va holatda tikilish, ko‘z nurini tik qilib qarash” To‘rsari qishlog‘i shevasida “bo‘riqarash” deb yuritiladi. Bu kabi ifodalar o‘zbek xalqining “bo‘ri” bilan bog‘liq qadimgi totemistik qarashlariga borib taqaladi. Tarixchi L.I.Gumilyov VI asrda bo‘ri nomi turkiylar uchun muqaddas bo‘lib, rivoyatga ko‘ra turkiylar xunn shahzodasi bilan urg‘ochi bo‘rini ilk ajdodi deb bilganliklarini va o‘z bayroqlarini oltin boshli bo‘ri tasviri bilan bezaganliklarini yozadi³⁹. Yuqorida keltirilgan misollar sheva vakillari dunyoqarashi mifologik dunyoqarashga yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

³⁸ Файзиёва Х. Сурхондарё шевалярида ўсимлик номлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011. – №3. – Б. 116.

³⁹ Ҳавола қуйидаги манбадан олинди: Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент, 2010. – Б. 59.

Dialektal iboralarida ham mifologik qarashlar unsurlarini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Surxondaryo va Qoraqalpog‘iston shevalarida uchraydigan “unashtirmoq” ma’nosidagi “ro‘mol tashlab qo‘ymoq”, “ro‘mol bog‘lamoq” iboralarida xalqimizning “ro‘mol” kul’ti bilan bog‘liq qadimiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Xalq qarashlariga ko‘ra, ro‘mol oila, muhabbat ramzidir. Shuning uchun ham xalq qarashlarining yorqin ifodasi bo‘lmish o‘zbek folklori asarlarida ro‘molni yo‘qotish, uni qo‘ldan chiqarish, shamol uchirib ketishi yoki ro‘molning o‘g‘irlanishi ayriliq, oilaning barbod bo‘lishi alomati sifatida talqin qilinadi. Buning uchun xalq ijodi syujeti asosiga qurilgan “Tohir va Zuhra” dramasini eslash kifoya. “Ko‘ngillarni orziqtiradigan musiqa ohanglari fonida sahnaga yugurib chiqqan Zuhra *“Qani ro‘molim? Shamol qurg‘ur, qani, ro‘molim? Qayerlarga uchirib ketding? Shamoljon, shamoljonim! Meni ovora qilma! Ro‘molim qani?”* deb sahnada zir yugurgancha o‘zining ro‘molini izlaydi⁴⁰”.

Detallashtirish, detallarga alohida nom berish – sheva leksikasiga xos muhim xususiyatlaridan biridir. Sheva leksikasida sheva vakillari hayot tarzi uchun muhim narsalarning detallashgan nomlari ko‘plab uchraydi. “Bir tomondan adabiy til uchun turmush detallari, kundalik faoliyatda ishlatiladigan narsalar, milliy kiyim qismlari nomlari u darajada aktual emas. Boshqa tomondan esa, aynan mana shu xususiy madaniy faktlar inson hayoti to‘g‘risidagi nodir bilimlarni o‘zida mujassam etadi⁴¹”. Masalan, adabiy tilda ham, shevalarda ham yog‘ olish uchun ishlatiladigan “kuvi” so‘zi ishlatiladi. Adabiy tilda uning detallari alohida nomga ega emas. Ammo shevalarda kuvining tarkibiy unsurlari ham alohida nomga ega. Masalan, kuvi ichidagi suzma va suvni chalib, yog‘ini ajratish vazifasini bajaradigan maxsus cho‘p Qashqadaryo shevalarida “cho‘pkak” nomi bilan yuritiladi⁴². Shuningdek, shevalarda ma’lum vazifa bajarishga ixtisoslashgan narsa, predmetlar adabiy tildan farqli o‘laroq alohida nomga

⁴⁰ Турсунова Н. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси. Фил. фанл... фалс. доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2019. – Б. 27.

⁴¹ Брысина Е.В. Диалект через призму лингвокультурологии. Вестник Волгоградского гос. ун. Серия 2. Языкозн. 2012., № 2 (16). – С. 53.

⁴² Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 361.

ega bo‘lishi mumkin. Xususan, biror narsani ilishga mo‘ljallangan ilm-oq adabiy tilda “changak” so‘zi bilan ifodalansa, qashqadaryoliklar uning go‘sht ilib qo‘yish uchun ishlatiladigan turini “chancha” deb atashadi. Shu singari, Janubiy Qozog‘iston shevalarida sut, qaymoq osiladigan savatning alohida turi mavjud bo‘lib, u “ortmoq” xususiy nomi bilan yuritiladi, adabiy tilda esa uni ifodalash uchun alohida so‘z mavjud emas, shu bois umumiy “chambarak” so‘zi bilan yuritilaveradi. O‘zbek tilida meva nomi – “o‘rik” va uning ichidagi shirin mag‘zi nomi – danak so‘zlari bor. Ammo danakni olish uchun biz ustki qattiq qoplarni “chaqishimiz” kerak. O‘riknining chaqiladigan qismi uchun alohida nom mavjud emas. Iqon shevasida esa o‘riknining chaqiladigan qismi *da:shak* deyiladi. Xorazm shevalarida esa chaqiladigan po‘choq qismi *changalaq*, mag‘zi – *bijanak* deyiladi. Demak, umummilliy lisoniy manzarada *o‘rik* – *danak* strukturasi ega bo‘lsak, dialektal manzarada *ørik* – *dø:shøk* – *dø:nøk*; *ørik* – *chaçalaq* – *bijønøk* strukturasi ega bo‘lamiz.

Turmush tarziga bog‘liqlik. Ma‘lumki, olamning dialektal manzarasi ko‘p jihatdan ma‘lum sheva bilan birlashgan jamoaning turmush tarziga, istiqomat qilayotgan hududning jug‘rofiy o‘ziga xosligi, ayricha tabiati bilan ham bevosita bog‘liq. Ya‘ni sheva vakillari uchun kundalik turmushda tez-tez ishlatadigan, murojaat qiladigan narsalar juda muhim, shuning uchun ularni alohida nomlashni ma‘qul ko‘radilar. Turmush tarziga bog‘liqlik yuqorida ta‘rif berilgan detalizatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Sheva jamoasining turmush tarzidan kelib chiqib, uning tilida ko‘plab detallashgan nomlar uchraydi. Masalan chorvachilik rivojlangan Surxondaryo aholisi nutqida chorvachilik, ayniqsa qo‘ychilik bilan bog‘liq ko‘plab detallashgan nomlar mavjud. Hayvonning jinsi, yoshi, nasldorligi, rangi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra alohida-alohida nomlar uchrashi, shevashunoslarning ishlarida qayd etilgan. Xususan, uloqligida tug‘gan echki *chibich*, bir oydan uch oygacha bo‘lgan qo‘zi *barra*, ikki oydan olti oylikkacha bo‘lgan semiz qo‘zi *shirboz*, ikki yoshli, ikki tish yorgan qo‘chqor *shishak*, ayni yetilgan uch yoshli qo‘chqor *dagar*, to‘rt tish yorgan, uch-to‘rt yoshli qo‘chqor *chori*, to‘rt-besh yoshli qo‘chqor *panji*, olti-yetti va undan katta yoshdagi qo‘chqor *monggi*, qo‘zilagan

qo‘y to‘soq, bo‘yi o‘smay qolgan qo‘zi go‘mbik, dumli qo‘y *chibalang* kabi nomlar bilan yuritiladi⁴³. Yoxud Xorazm vohasi suv tarmoqlari rivojlangan hudud bo‘lgani uchun xorazmliklar shevasida suv yo‘llari va suv yo‘llaridagi to‘siqlarni ifodalovchi ko‘plab nomlar uchraydi: *arna* – katta ariq, kanal; *axra* – oqib turgan suvning sathi, *dag‘ana* – suvning ekinga kiradigan joyi, *zey* – yer tagidan sizib chiqqan iflos suv; *zeykash* – yer tagidan sizib chiqqan iflos suvlar to‘planib oqadigan ariq, zovur; *yap* – katta anhor; *yasqa* – anhorning sayoz kechuv joyi, ka:l – daryoning quruqlikda qolgan yeri; *koriz* – chig‘iriy suv oladigan chuqurlik,⁴⁴ *daldarg‘a* – ariqcha, shuningdek, jo‘yaklarda suvni to‘sib, boshqa joyga yo‘naltirish uchun qo‘yiladigan to‘siq. U asosan loy yoki shox-shabbadan qilinadi⁴⁵. Xorazm vohasi Amudaryo deltasida joylashganligi uchun bu yerda qadimdan baliqchilik rivojlangan. Xorazm shevalarida ko‘plab baliq nomlari mavjud. Masalan, F.Abdullayev 30 ga yaqin baliq nomini keltiradi va ulardan ayrimlarining ruscha muqobilini topolmaganligini yozadi (*toqi* – 500 gm keladigan mayda baliqlarning turidan, *si:lə* – mayda baliqning bir turi)⁴⁶.

Sheva vakillari leksikasining turmush tarziga bog‘liqligini boshqa til shevalarini o‘rgangan olimlar ham e‘tirof etgan. Masalan, xantiy tili shevalarida abstrakt tushunchalarning lisoniy reallashuvini kuzatgan O.Potanina eskimos tilida muz va qorning har xil turlarini nomlash uchun qirqaqqa yaqin so‘zlar mavjudligini qayd etadi,⁴⁷ o‘zbek tili va uning shevalarida esa qor va muzning turli holatlari va shakllarini nomlash uchun alohida so‘zlar mavjud emas, bu ham, albatta o‘zbek xalqi issiq o‘lkada istiqomat qilishi va ularning turmush tarzida qorning ahamiyati yuqori emasligi bilan izohlanadi. O‘rta Osiyo quyoshli o‘lka bo‘lib, turli o‘simliklarning o‘sishi uchun qulay iqlim sharoitlariga ega bo‘lgani uchun bu yerda yashovchi xalqlar tilida bir o‘simlikning turli nomlari bo‘lishi mumkin. Xususan,

⁴³ Раҳмонов Б. Сурхондарё чорвачилик лексикасида этнографизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - №4. – 2018. Б. 108–109.

⁴⁴ Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. I. – Тошкент, 1964. – Б. 121.

⁴⁵ Норбаева Ш. Касбий лексикага оид айрим сўзлар этимологияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - №6. – 2015. – Б. 85.

⁴⁶ Абдуллаев Ф. Кўрсатилган луғат. – Б. 117-118.

⁴⁷ Потанина О.С. Способы языковой реализации абстрактных понятий в диалектах хантыйского языка. Дис. ... канд. филол. наук. – Томск, 2006. – С. 73.

buni xalq shevalaridagi qovun navlari nomlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ingliz tilida qovun birgina *melon* so‘zi bilan nomlanadi, zero Britaniya orollari iqlimi qovun yetishtirish uchun qulay emas va inglizlar qovun yetishtirish bilan shug‘ullanmaydi ham. O‘zbeklar istiqomat qiladigan hudud qovun yetishtirish uchun qulay bo‘lgani uchun, o‘zbeklar qadimdan qovunchilik bilan shug‘ullanib keladi va shu bois o‘zbek tili va o‘zbek xalq shevalarida qovun navlarini nomlovchi turli atamalar mavjud. Ularning aksariyati mashhur qovunchilar nomi bilan bog‘liq (*aligavhar, kamol, davlatboy, asanbey, mullasapo, kalhasan, meliumar*), ayrimlari qovunning xususiyatidan kelib chiqib nomlangan: *atirqovun, toshqovun, yog‘ochqovun, kampirqovun*. Shuningdek, A.Yo‘ldoshev quyidagi idiomatik qovun nomlarini keltiradi: *beshurug‘, bosvoldi, bo‘rikalla, jo‘raqand, obinovvot, qariqiz, qizilurug‘, qo‘ybosh, shakarpalak, shirinpo‘choq, aligavhar*⁴⁸, bu leksikaning xalq turmush tarziga bog‘liqligini yana bir karra isbotlaydi. Umuman olganda, turmush tarziga bog‘liq nafaqat sheva, balki milliy tilning fundamental xususiyatlaridan biri sifatida talqin etish mumkin.

Tabiiylik. Sheva vakillari tilining o‘zigi xos xususiyatlaridan biri uning tabiiyligida ko‘rinadi. Zero sheva fikrni ixcham, aniq va tez ifodalashga qaratilgani va asosan og‘zaki ko‘rinishda mavjudligi bois unda sheva vakilining mental fikrlashini xarakterlovchi tabiiy ifodalar ko‘p. Bu ayniqsa adabiy til materiallari bilan qiyoslaganda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, adabiy tildagi “yirtib olinadigan”, “uzib olinadigan” sifatini sheva vakillari oddiygina qilib, “uzma” deb qo‘ya qolishadi. Adabiy tilda millatning o‘ziga xos va mos tafakkur tarziga zid bo‘lgan, asosan, o‘zga tillardan kalkalab olingan ifodalar ko‘p bo‘lsa, shevada ular yo‘q yoki tabiiy ifodalar bilan almashgan. Masalan, rus tilidagi “продлѐнка” so‘zi adabiy tilda “kuni uzaytirilgan ta’lim” kabi uzundan uzoq va notabiiy ifoda bilan yuritilsa, oddiy xalq tabiiy va qulay “qo‘shimcha” so‘zi bilan ifodalaydi.

Atrofdagi olamga bog‘liqlik. Borliqni in’ikos etishda sheva vakillari ko‘p yillik kuzatishlari, olamni bilish davomida orttirgan hayotiy tajrib-

⁴⁸ Йўлдошев А. Оламнинг лисоний манзарасида идиоматик қўшма сўзлар. Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. - №6. – Б. 95.

alarini ishga soladilar. Masalan, boysunliklar efir moyi tarqatadigan va shu tufayli biror qush yaqinlashmaydigan yovvoyi o'simlik turini "qush-qo'nmas" yoki "chibinqo'nmas" deb nomlaydilar. Yoki bargi va poyasi birlashgan joyidan yelimsimon modda chiqadigan o'simlikni "saqichtikan" deb nomlashadi⁴⁹.

Pessimizm, ya'ni voqelikning salbiy jihatlariga e'tibor qaratish. Sheva vakillari voqelikning salbiy jihatlariga ko'proq diqqat qaratib, aynan ularni nomlashga e'tibor qaratishadi. Masalan, Qashqadaryoning Chaydari qishlog'ida uzun yuzli odamni *otjag*⁵⁰ deyishadi va bu ifoda salbiy ma'noda ishlatiladi. Yuzi cho'zinchoqlikning ijobiy bahosi uchun esa alohida nom yo'q. Yoki iqonliklar shevasida tez-tez unutilib qo'yadigan kishiga xos xislat pessimistik ruhda *ko'kmiya*, *eshakmiya* deyilib, salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lsa, shu xislatning sal yumshoqroq shakli uchun maxsus so'z yo'q. Dialektal manzarada pessimistik ruh ustuvorligini ayrim tushunchalarning faqat salbiy ma'noli ifodalari mavjudligi, ularning ijobiy tomonini nomlash uchun maxsus nomlarning yo'qligida ham ko'rish mumkin. Turmushga chiqmaslik o'zbek xalqida ijobiy hodisa sanalmaydi, shu bois turmushga chiqmagan qiz tushunchasi Surxondaryoda salbiy bo'yoqqa ega "betiqora" iborasi bilan ifodalanadi⁵¹, Iqon shevasida esa yaqqol salbiy konnotatsiyaga ega "sasay" so'zi qo'llanadi. Pessimizm dialektal iboralarida ham yaqqol ko'rinadi. Iqonliklar "ertalabdan" ma'nosidagi "qarg'a go'ng cho'qmasdan" iborasini, Toshkent va qator boshqa sheva vakillari "so'fi azon aytmasdan" frazemasini salbiy ma'noda ishlatishadi.

Yuqori darajadagi ekspressivlik va emotsionallik. Sheva shu subtilda muloqot qiluvchilarning asosiy muloqot vositasi bo'lib, ular shu vosita orqali o'zlarining bor his-hayajonlari, emotsiyalarini ifodalaydilar. Shuning uchun shevalarda salbiy yo ijobiy bo'yoqdorligi kuchli so'zlar ko'plab uchraydi. Masalan, iqonliklar shevasida erkalash, suyish uchun jonim qoqay, qoqindiq kabi ko'plab stilistik vositalar qo'llangan holda, salbiy tuyg'ularning cho'qqisini ifodalashga xizmat qiluvchi *xizan*, *xizanak*, *tu-*

⁴⁹ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 247.

⁵⁰ Нафасов Т. Кўрсатилган луғат. – Б. 212.

⁵¹ Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 10.

lak, ko' rko' krak, asalang kabi soʻzlar va boshshingni yegur, ogʻzingdan qoning kegur kabi qargʻishlardan keng foydalaniladi.

Aytish mumkinki, oʻzbek shevalari leksikasi nihoyatda rang-barang boʻlib, bugungi antropotsentrik tilshunoslik rivoji uchun nihoyatda katta material berishi mumkin. Oʻzbek shevalari asosida olamning dialektal manzarasini yoritish zamonaviy dialektologiyaning dolzarb muammolaridan biriga aylanmogʻi lozim.

Oʻzbek shevalarida milliy realiyalar va lakunarlik

Lingvomadaniyatshunoslik va lingvomamlakatshunoslik kabi sohalarning eng asosiy oʻrganish obyektlaridan biri oʻrganilayotgan, madaniyat va mamlakatga xos boʻlgan milliy realiyalardir. Realiya (realise; realia – “moddiy”, “haqiqiy”) – bu maʼlum bir madaniyatga mansub xalqning maishiy turmushi (tandir, rapida, kigiz), maʼnaviy qarashlari (madrasa, soʻfi, halol, orif, zakot), tarixi (jadidchilik, xudaychi, yasovul), anʼanalari, urf-odatlari, sanʼati (shoshmaqom, mavrigi, xamsachilik) bilan bogʻliq boʻlgan real faktlar. Realiyalar milliy va tarixiy kolorit ifodachisi boʻlganligi bois boshqa tillarda aniq muqobillarga ega emas, shuning uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish tarjimondan alohida yondashuv va mahoratni talab etadi.

Realiyalar odatda faqat shu xalq va elat moddiy madaniyati, oʻtmishiga oid nomlar, milliy qahramon va mifologik mavjudotlar nomi boʻlishi mumkin. O.Axmanovanning lugʻatiga koʻra, realiyalar – bu: 1. mumtoz grammatikada tashqi lingvistika tomonidan oʻrganiladigan turli-tuman omillar. 2. Moddiy madaniyat buyumlari⁵². Ularga mamlakatning davlat tuzilishi, xalqning tarixi va madaniyatiga oid birliklar, shu tilda soʻzlovchilarning lisoniy aloqalari kabilarni kiritish mumkin. G.D. Tomaxin realiyalarni “faqat maʼlum millat va xalqlar moddiy madaniyati, tarixiy faktlar, davlat institutlariga mansub nomlar, milliy va folklor qahramonlari, mifologik mavjudotlardir” deya taʼriflaydi⁵³.

“Realiya” soʻzining oʻzi lotincha boʻlib, oʻzbek tiliga rus tili orqali oʻzlashgan. Filologik sohalarda realiya ikki xil tushuniladi:

⁵² Axmanova O. C. Словарь лингвистических терминов. 4-е изд. М.: КомКнига, 2007. – С. 381.

⁵³ Лютавина Е. А. Реалии как лингвистическое явление // Молодой ученый. – 2015. – №14. – С. 488-490. – URL <https://moluch.ru/archive/94/21235/> (Murojaat sanasi: 14.01.2019)

Realiya – madaniyat nazariyasi, xalqning maishiy turmushi, hayot tarziga xos bo‘lgan va boshqa xalqlarda uchramaydigan predmet, tushuncha, hodisalardir.

Realiya predmet, hodisa nomi, shuningdek, shunday so‘zlar ishtirok etgan so‘z birikmalari, iboralar, naql va maqollarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Realiya vositachi, oraliq kategoriya, ya’ni referent orqali predmetga nisbatlanadigan so‘z. Referent – obyektiv voqelik hodisasi yoki predmetni aks ettiruvchi va mazkur lisoniy birlik mansub bo‘lgan tushunchaviy mazmuni tashkil etuvchi fikr predmetidir.

Realiyalardagi predmetli mazmun uni tildagi boshqa birliklardan ajratib turadi. Ya’ni realiya bildiradigan predmet, tushuncha, bir tomondan, xalq bilan, ikkinchi tomondan, tarixiy davr bilan bog‘liq. Shundan xulosa qilish mumkinki, realiyalar nisbiy yoki milliy koloritga ega. Kolorit deganda umumiy xarakter ma’nosidan tashqari davr, shaxs xususiyatlarining jami, nimaningdir o‘ziga xosligi ma’nolarini ifodalaydi. Aynan kolorit tufayli neytral, bo‘yoqdorlikka ega bo‘lmagan lisoniy birlik “milliy xoslangan, “milliy bo‘yoqdor” birlikka aylanadi. Kolorit – so‘z ifodalayotgan predmet, ya’ni referentning ma’lum xalq, mamlakat yoki hudud, ma’lum tarixiy davrga tegishliligi tufayli orttirilgan bo‘yoqdorlik.

Lingvomadaniyatshunoslik, lingvomamlakatshunoslik va tarjimashunoslikda realiya alohida birlik sifatida o‘rganiladi. Bir tomondan, realiya mamlakatning davlat qurilishi, iqtisodiy va geografik tuzilishi, madaniy o‘ziga xosligini bildiradi, shu tufayli qadriyatlar qatoriga qo‘shiladi. Ikkinchi tomondan, realiya ma’lum xalq uchun xos, ammo boshqa xalq madaniyatida uchramaydigan obyektlarni ifodalagani uchun, ularning boshqa tillarga tarjimai mutaxassislarda ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ularning tarjimasida tarjimonlar odatda tavsifiy yo‘l tutadilar yoki mualliflik neologizmlarini taklif etadilar. Buni Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” asarining ruscha tarjimai misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Quyidagi parchaga e’tibor bering: *Nur jo‘rligida samo’ tushayotgan daraxtzor baribir mendan naqadar balandda va naqadar toza ekanlig-*

ini anglayman. Mazkur parchada qo‘llangan *samo* – milliy realiyadir. Samo’ (zikr-u samo) – IX-X asrlarda shakllangan, keyinchalik deyarli barcha tariqat (qodiriya, kubroviya, yassaviya, naqshbandiya va b.)da turli ko‘rinishlarda O‘rta va Yaqin Sharqda keng tarqalgan, tasavvuf mazmunidagi asarlarni musiqiy, ba’zida esa (masalan, Jaloliddin Rumiy asos solgan mavlaviya tariqatida va b.da) tana harakatlari vositasida ham ijro etish an’anasi. Tarjimonlar uni rus tiliga quyidagicha tarjima qilganlar: *He помогает потому, что я четко и ясно осознаю, насколько выше и чище меня эта роца, кружащаяся в суфийской молитве “самов” под аккомпанемент лунного луча.* Ko‘rinadiki, tarjimonlar *samo*’ realiyasi-ning o‘zini qoldirib, uni aniqlashtirishni ma’qul topadilar va “суфийская молитва” degan izohni kiritadilar.

Uslubiy jihatdan milliy realiyalar milliy tilga mansub, shu bois ular jargon, argo, kasbiy leksikadan farq qiladi. Ammo shevalarda ham milliy realiyalar mavjud.

Shevalardagi milliy realiyalarni umummilliy va dialektal realiyalarga ajratish mumkin. Umummilliy realiyalarga sheva jamoalari madaniyati va tili uchun mushtarak, ammo boshqa tillarda uchramaydigan realiyalarni kiritishimiz mumkin. Bunday milliy realiyalar ifoda jihatidan o‘zaro farqlanishi mumkin. Masalan, azani yechish marosimi barcha sheva jamoalari uchun mushtaraklik kasb etsa-da, ular turlicha nomlarga ega: *azaburon* (Qashq), *bashag‘arti* (Iqon). Bu realiyalar umummilliy realiyalardir, chunki hamma sheva jamoalarida bor. *Gavrapo‘sh* (Qashq) – *beshigurtik* (Iqon) kabilarni ham umummilliy realiyalar sifatida talqin qilish mumkin, chunki beshik, beshik yopinchi‘i o‘zbek tilining turli shevalarida mulloqot qiluvchi barcha lisoniy jamoalarda mavjud. *Qizko‘rdi*, *kelinsalom*, *chillaguzaron* kabi marosimlarni ham umummilliy realiyalar qatoriga qo‘shamiz. Moddiy madaniyat predmetlarini ifodalovchi *chakich*, *duki* (Iqon), *tikach* (Xor.), *nonpar* kabilar ham umummilliy realiyalar, chunki non pishirishda nonning ustiga bezak beradigan uy-ro‘zg‘or buyumi turli nomda bo‘lsa-da, hamma shevalarimizda bor.

Faqat ma’lum sheva jamoasi uchun xos va boshqa shevalarda uchramaydigan dialektal realiyalar sifatida Iqon madaniyatiga xos *kuyovta:la-*

ti (kuyovtaladi) to‘y marosimni keltirish mumkin. Bu marosim nafaqat yon-atrofdagi qishloqlarda, balki O‘zbekistondagi biron qishloqda uchramadi va qayd etilmadi. To‘y marosimi nomi kuyov va taladi so‘zlari birikuvidan hosil bo‘lgan. Urf-odatga ko‘ra, kelin kuyov xonadoniga tushurilgandan so‘ng, kelin tomondan bo‘lgan barcha ayollar kuyov xonadonida mehmon bo‘ladi. Mehmondorchilikdan so‘ng kuyovtaladi marosimi bo‘lib o‘tadi. Kuyovning jo‘ralari – o‘rtoqlari kuyovni berkitishadi. Kelin tomonidan o‘n ikkita yanga kuyovni qidirishadi. Topgandan so‘ng yangalarning vazifasi kuyovning eski kiyimlarini yechib, yangi – kuyovlik liboslarini kiydirish bo‘ladi. Kuyovtaladi marosimining mohiyati mana shunda ko‘rinadi. Yangalar kiyimni yechishga urinadi, kuyov va uning do‘stlari uni doiraga olib, yangalarni yo‘latmaydi va himoya qiladi. Haqiqiy jang boshlanadi. Kelin va kuyovning barcha qarindoshlari qiziqarli tomosha guvohi bo‘lishadi. Yangalar oxir-oqibat kuyovning kiyimlarini yechishadi. Kuyovni talashda jonbozlik ko‘rsatgan barcha o‘n ikkita yanga marosimdan so‘ng munosib taqdirlanadi. Har bir yangi bir patnis shirinlik, quruq choy va hokazolardan iborat tuxfa oladi. O‘n ikkita yanga uchun alohida sovg‘a – bu pishirilgan go‘sh. Kuyovning onasi yangalar uchun alohida qo‘y so‘ydirib, go‘shini pishiradi. Bitta qo‘yning go‘shini o‘n ikki qismga bo‘linib, tarqatiladi.

Faqat ma‘lum sheva jamoasi uchun xos va boshqa dialektal jamoa madaniyatida uchramaydigan dialektal realiyalardan biri buxorolik ayollar o‘tkazadigan *sallakiydi* marosimidir. Bu marosim etnograf olimlarning e‘tiroficha, zardushtiylikdan qolgan marosimlardan biridir. Uning mohiyati shundaki, turmushga chiqqan ayol shu marosimni o‘tkazgandan so‘ng, ayollik maqomiga erishadi.

Yuqoridagi misollardan xulosa qilish mumkinki, dialektal realiyalar asosan marosim va urf-odatlar bilan bog‘liq. Ammo turmush tarzi bilan bog‘liq dialektal realiyalar ham mavjud. Masalan, Iqon shevasida uchraydigan *tovshik*, *o‘lchak* realiyalari iqonliklarning turmush tarzi bilan bog‘liq. *Tovshik* – o‘ziga xos barter, sigirdan sog‘iladigan sutni navbatma-navbat olish. Yaqin qo‘shnilar sog‘iladigan sutga har kuni ishlov berib, vaqtini shunga sarflamaslik uchun navbatma-navbat bir-biriga bir xil miqdordagi

sutni berishgan. Sut chelaklarda maxsus asbob – o‘lchak orqali o‘lchan- gan. O‘lchak – daraxt novdasidan tayyorlangan o‘lchash asbobi. Novdada- gi butoq o‘rinlari o‘lchov birligi bo‘lgan. Qo‘shnilar o‘lchakni sut solin- gan chelakka tikka joylashtirib, sut sathi o‘lchakning qaysi qismiga to‘g‘ri kelayotganligini eslab qolishgan va shu miqdorda sutni ertasiga qaytarish- gan. Tovshik dialektal realiyasi asosida tovshik olishmoq dialektal iborasi ham shakllangan. Tovshik olishmoq “oldi-berdi qilmoq, yaqin muloqotda bo‘lmoq” ma’nosini ifodalagan. *Sen bilan tovshik olishib yurganmidim* degani iqonliklar nutqida “sen bilan bordi-keldi muomala qilganmidim” degan ma’noni anglatadi.

Tilshunoslikda milliy realiyalarning turlicha tasniflari amalga oshiril- gan. Mavjud tasniflarga asoslanib, o‘zbek shevalaridagi umummilliy va dialektal realiyalarning quyidagi mavzuiy guruhlarini ko‘rsatish mumkin:

1) Maishiy turmush bilan bog‘liq realiyalar: *yengsak, yengcha, yench, yenglik* – non yopganda qo‘l kuymasligi uchun qo‘lga kiyiladigan yeng; *hapran* (Dehqonobod) – bo‘yalgan junlardan tayyorlangan naqshli kigiz; *damkach* (Xorazm) – qozon qopqog‘ini o‘rab, palov damlaydigan das- turxon; *palayish* (Xorazm) – kapkirsimon chovli; *chuklik* (Xorazm) – su- mak; *bolg‘ishtak* (Chorshanbi) – uchi ikki narsaga bog‘langan qo‘sh ip orasiga cho‘p, latta yo boshqa narsa qo‘yib chaqaloq yotishiga moslab qilingan belanchak.

2) Marosimlar va ular bilan bog‘liq narsalar: *chanki, beshikkerti, uyko‘rma, kampiro‘ldi, beshiksoldi, xayriyat* – (Chiroqchi) qazo kunida motam marosimiga yig‘ilganlarga beriladigan mablag‘, *xayrxudoyi* (Qar- shi), *kiyimbichar* (Uyshun) – nikoh va sunnat to‘yi oldidan xonadonda o‘tkaziladigan marosim; *gulxivich* (Qarshi) sunnat to‘yida tengdosh yig- itlarning tol xivichiga gul yo boshqa narsa o‘rab yasab, evaziga pul olish uchun to‘y egasiga beriladigan guldasta.

3) Taomlar: *go‘mma, tuxumbarak, g‘ilmindi – uchpishar – chalpak, biqtirma* (Surxondaryoda go‘shni uzoq vaqt, past olovda qaynatib tayyor- lanadigan sho‘rva), *cho‘pchima* (Jizzaxda qovurilgan go‘sh), *kurdik, kulchatoy, bulamiq* – atala, *gilagay* – yangi tug‘gan sigir sutidan tayyor-

lanadigan taom; *gurvov* (Muborak) – sutni qatiqqa aralashtirib tayyorlanadigan yegulik.

4) Kiyim va uning qismlari: *papag'*, *chel*, *cho'gurma*, *guppi*, *tanir-po'sh* (Bux.) – non yopishda kiyiladigan ust kiyim, *lachak*, *kallapo'sh*, *boshdon*, *kultapeshak* – bosh kiyimi, *kapach* (Naymansaroy) – yoshi ulug' ayollarning bosh kiyimi, *itko'ylak* (To'qboy) – chaqaloqning birinchi kiyimi, *babay* (Chiroqchi) – bolalar kiyimi.

5) Milliy o'yinlar: *happak* (Chiroqchi) – beshta yoki uchta mayda tosh bilan o'ynaladigan bolalar o'yini; *ajidi* (Toshqo'rg'on) – belgilangan chiziq ustiga ost-ust qilib terilgan soqqa bilan ma'lum masofadan urib yiqitish va marradan chiqarish o'yini; *akkon* (Kamolon) – chillak o'yini; *buqur* (Chiroqchi) – ma'lum masofadagi belgidan chuqurga yong'oq tashlab, chuqurchaga tushgan toshning juft yoki toqligiga ko'ra g'olib aniqlanadigan bolalar o'yini.

6) Mehnat qurollari: *pishkak* – ip o'raydigan qamish, *kashkart* – kichik pichoqsimon o'roq, *qirg'i* – qamish o'radigan o'roq, *karsan* – yog'och tog'ora, *suprunch* – un sidiriladigan latta, *juntaroq* – junni titish uchun yog'och yoki metaldan qilingan taroq; *kajgart* (Taxtapul) – dastasiga yog'och cho'p o'rnatiladigan, uchi qarilgan tig'li metall asbob; *kachkut* (Qarshi) – tut shoxi va boshqa narsalarni chopish uchun uch qismi egik qilib tayyorlangan uchi tig'li asbob.

7) musiqa asboblari: *sibizg'a*, *nay*, *qo'biz*, *kepchik*, *chanqovuz*, *karnay*, *surnay*, *loyshivillak* (Chiyal) – loydan yasalgan *sibizg'a*, *dudik* (Xorazm) – nay.

8) Adabiy qahramonlar: *Alpomish*, *Barchin*, *Go'ro'g'li*, *Layli*, *Majnun*, *Rustam*. Bunday realiyalar ko'pincha folklor asarlarida uchraydi: *Xoja Abdidorun*, *yo Xoja Berun*, *Hech valiy bo'lmag'ay sizlardan burun* (“Dalli” dostoni); *Bu xizmatga talab qildi mard Hasan*, *Tilayman G'irko'kday asbi tozingni* (“Dalli” dostoni).

9) etnonimlar, urug' nomlari: *avoqli*, *kesavli*, *barmoq*, *maltaka*, *bolg'ali*, *barlos*, *xandaqli*, *katari*.

10) raqslar: *Xorazm lazgisi*, *pakapak* (Xorazm), *Andijon polkasi*.

Yuqorida ko‘rsatilgan dialektal mavzuiy guruhlar yakuniy emas. Ularni yana o‘simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari deb davom ettirish ham mumkin.

Demak, lingvomadaniyatshunoslikda so‘zlarning bevosita denotativ, ya’ni lug‘aviy ma’nolaridan tashqari ma’lum so‘z yoki ibora ortida turgan obraz bilan bog‘liq ravishda til va madaniyat egasi ongida faollashdigan assotsiatsiyalar o‘rganiladi. Shu ma’noda lingvomadaniyatshunoslik so‘zni an’anaviy semasiologiya, leksikografiyadan ko‘ra kengroq talqin etadi. Bunda u psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik tushunchalariga tayanadi, chunki bu yo‘nalishlar so‘zning lug‘atlarda qayd etilgan ma’nalari bilan chegaralanmaydi, balki milliy kodlangan, ya’ni ma’lum til va madaniyat egalari uchun umumiy bo‘lgan qator assotsiatsiyalarni o‘z ichiga olgan obrazni ham o‘rganadi. Ushbu murakkablikni tarkibiy semantik qismlar: madaniy, aksiologik, gonofirik, uslubiy va h.k.larga ajratishadi.

Milliy realiyalar lingvomamlakatshunoslikda ham o‘rganiladi. Lingvomamlakatshunoslik nazariyasiga ko‘ra, so‘zlarda leksik ma’no va leksik fon mavjud. Bu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, realiyalar bu – qiyoslanayotgan tillarda mazmun jihatdan muqobili bo‘lmagan so‘zlar, chunki bu so‘zlarni ifodalayotgan predmet, hodisaning o‘zi ikkinchi til va madaniyatda mavjud emas. Fonli leksika – ayrim semantik qismlari to‘g‘ri kelmasligi sababli fonlari farqlanadigan so‘zlardir. Ularni ba’zan ikkinchi darajali belgilar ham deyishadi. Masalan, turk tilidagi *evlenmek* so‘zi semantik tarkibida “qizning oila qurishi, erkakning oila qurishi” ma’nolaridan faqat “erkakning oila qurishi” o‘zbek tilidagi uylanmoq so‘zida mavjud. Ammo aynan mana shu alohida semantik komponentlar u yoki bu so‘zni aynan qaysidir madaniyatga nisbatlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin, chunki so‘zning aynan mana shu qismda ma’lum bir so‘z ifodalayotgan milliy o‘zgachalik yashiringan.

Shunday qilib, realiyalarda o‘z ifodasini topgan milliy xususiyatlar lingvomadaniyatshunoslik tadqiq obyekti bo‘lib, ular yordamida biz o‘rganilayotgan til, shevada gapiradigan xalqning tarixi, madaniyati, qahramonlari, urf-odatlar va qadriyatlarini o‘rganamiz. Aynan realiyalar orqali ma’lum tarixiy davrda, ma’lum hududda yashaydigan xalqning

o‘ziga xos jihatlarini kashf etamiz, chunki leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o‘zgarishlarga javoban o‘z tarkibini doimiy o‘zgartirib boradi.

Milliy realiyalarni lakunalardan farqlash lozim. Lakuna atamasi ilk bor kanadalik olimlar J.P.Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi⁵⁴”. Fransuz tili tadqiqotchisi V.G. Gak lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerakdek ko‘ringan so‘zlarning mavjud emasligi⁵⁵” deb izohlaydi. Ilmiy termin sifatida lakuna XX asrda tilshunoslikka kirib kelgan bo‘lsa-da, bir tildagi tushuncha nomlari boshqa tillarda uchramasligi mumkinligini Alisher Navoiy turkiy va fors tili muqoyasasi misolida XV asrdayoq ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, “Muhokamatul-lug‘atayn”da “*Yana g‘izo va har taomki, yesa bo‘lur, yegululuk derlar, va sort elining ko‘pi, balki barchasi yemakni ham va ichmakni ham «xo‘rdani» lafzi bila ado qilurlar*⁵⁶” deya ko‘rsatib, forsiylar suyuqlik va taom iste‘moli uchun bitta “xo‘rdan” fe’li ishlatishini, turkiylarda esa ular uchun alohida nomlar mavjudligini qayd etadi. Shuningdek, Navoiy turkiy tilda hayvon nomlari jinsi va yoshiga ko‘ra alohida nomga egaligi, fors tilida esa ular umumiy nom bilan yuritilishini ko‘rsatadi: “*va ov va qushki, salotin odob va rusumida har qaysi boshqa mutaayyin ishitur, ikalasin, “shikor” derlar. Va ovda umdaki kiyikdur, turk aning erkakin «huna» va tishisin “qilchoqchi” der. Yana suyqunning ham erkakin “bug‘u” va tishisin “maral” der. Sort ohu va gavazndin o‘zga nima demas. Va bir sho‘ru shaynlig‘ ovki, to‘ng‘uz ovidur, aning ham erkagini “qobon”, tishisin “megachin” va ushog‘in “cho‘rpa” derlar. Va sort barchasin “xuk” va “guroz” lafzi bila aytur*”⁵⁷. Bu misollar Alisher Navoiy bundan 550 yil muqaddam tillararo lakunarlik hodisasiga diqqat qaratganligini isbotlaydi.

⁵⁴ Hale K. Gaps in grammar and culture / Linguistics and Anthropology. – New York, 1975. PP. 295–315.

⁵⁵ Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. Л.: Просвещение, 1977. – С. 261.

⁵⁶ Алишер Навоий. Муҳокаматул луғатайн / Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами 10 жилдли. 10-жилд. – Тошкент, 2011. – Б.522.

⁵⁷ Алишер Навоий. Кўрсатилган асар. – Б. 524.

Lakunalar nafaqat turli til va madaniyat vakillari, balki bir tilda mu-loqot qiluvchilarning ham bir-birini tushunishida ma'lum muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

So'nggi paytlarda intralisoniy lakunalar (bir til ichidagi) tobora ko'proq tadqiqotchilarni o'ziga jalb etmoqda. Masalan, R.A. Markaryanning "Shakl yasalishida semantik aks ta'sir turlari (rus tili misolida)" (Yerevan, 1974); V.N. Ryabovanning "Rus tilidagi intralisoniy lakunalar (shakliy-se-mantik aspekt)" (Krasnodar, 1997); G.V. Bikovanning "Lakunarlik leksik semiologiya kategoriyasi sifatida" (Voronej, 1999) doktorlik dissertatsiyalari rus tilidagi intralakunarlik hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan.

Hozirgi tilshunoslikda lakunalar "muloqot jarayonida boshqa madaniyat vakili umuman tushunmaydigan yoki to'la tushuna olmaydigan, shu madaniyat vakili tilida o'z ifodasini topgan milliy-madaniy unsurlar⁵⁸", "leksik tizimning virtual birliklari", "leksemasiz sememalar", "u yoki bu tilning milliy xoslanganligini boshqa hodisalardan-da yorqinroq ifodalaydigan" fenomen sifatida talqin etiladi⁵⁹. Quyidagilar lakunalarning asosiy belgilari sifatida ko'rsatiladi: tushunarli emaslik, noodatiylik (ekzotiklik), notanishlik (begonalik), aniq emaslik (xatolilik), nodirlik, g'ayritabiiylik, kutilmaganlik. Lakuna yoki lakuna emaslikni belgilashda quyidagi oppozitsiya e'tiborga olinadi: tushunarli-tushunarli emaslik, odatiy emas-odatiy, tanish-notanish, aniq emas / xato – to'g'ri.

Hududiy shevalar va adabiy til umummilliy tilning tarkibiy qismi bo'lib, umumiy leksik fonga ega. Shu bilan birga shevani adabiy tildan farqlab turuvchi o'ziga xos leksiki xususiyatlar ham qayd etiladi. Yagona umumlisoniy tizimning yashash shakllari sifatida ular til taraqqiyotining obyektiv qonunlariga bo'ysunadi. Sheva va adabiy tilning o'zaro aloqasi har ikkalasining boyishiga xizmat qiladi.

Umuman realiya va lakunalar ikkita til yoki til ko'rinishlari (adabiy til, sheva) qiyosida aniqlanadigan narsa. Shuning uchun biror leksik birlikni lakuna sifatida belgilashda, albatta qaysi tilga nisbatan ekanligi-

⁵⁸ Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков) / В.Л. Муравьев. Владимир, 1975. – С. 24.

⁵⁹ Томашева И.В. Понятие «лакуна» в современной лингвистике. Эмотивные лакуны // Язык и эмоции. Волгоград: Перемена, 1995. – С. 58.

ni ko‘rsatishimiz kerak. Lakunalar tillar qiyosida voqelanadigan hodisa bo‘lganligi bois, ular asosan lingvomadaniyatshunoslik, lingvomamalakatshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida o‘rganiladi. Ammo umum-milliy til bilan birlashgan shevalararo yoki sheva va adabiy til nisbatida ham lakunarlik hodisasi kuzatilishiga rus tilshunosligida ilk bor V.L. Muravyov e‘tibor qaratgan: “Masalan, ko‘plab shevalarda uchraydigan, “bir necha soat qotib uxlash” ma’nosini ifodalaydigan spen so‘zi hozirgi rus adabiy tili uchun lakunadir”⁶⁰. “Sistema-guruh taqqoslanishida aynan shevaga xos so‘zlar umumiy tilda lakuna borligiga ishora qiladi. Albatta, u yoki bu maydon semantik to‘rining har bir “katagi”, “xujra”siga alohida leksema mos kelishi maqsadga muvofiq”⁶¹. Ammo amalda har doim ham unday emas.

O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari qiyoslanganda ko‘plab leksik lakunalar mavjudligi kuzatildi: “yerning tagidan sizib, sirilib chiqadigan” – *izma* (Dehqonobod); “soqolda oqlik belgilari paydo bo‘la boshlagan” – *ko‘kazan* (Kitob); “novvotning qozon o‘rtasida qotmay qolgan qismi” – *selova* (Qarshi); “daraxtning yerosti kundasidagi mayda, ingichka tomirlar” – *chajalg‘ay* (Davtosh); “onasi o‘lgan uloq” – *chiralay* (Qo‘rg‘ontosh); “bir lahzalik uyqu” – *chirim* (Quruqsoy); “bo‘yinning bo‘g‘iz qismida oldinga chiqib, yutinganda qimirlagandek bo‘lib ko‘rinadigan bo‘g‘izlovning uch qismi” – *chundalaq* (Dehqonobod); “ikki lab tutashgan joy” – *ezuv* (Chiroqchi).

Rus shevalari misolida lakunarlik hodisasini o‘rgangan tadqiqotchilar adabiy til bilan qiyosan lakunarlik hodisasi o‘rganilmaganligini ta’kidlashmoqda. Ammo o‘zbek dialektologiyasida bu ancha yaxshi ishlangan. Chunki dialektologiya gullab-yashnagan davrda shevashunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar adabiy til va shevani qiyoslash asnosida olib borilgan, asosiy e‘tibor adabiy tilda uchramaydigan so‘zlarni topish va ularni qayd etishga qaratilgan. Albatta, ularda lakuna va lakunarlik terminlari tilga olinmagan. Ammo, ishonch bilan aytish mumkinki, bu ishlarda biz ko‘rib chiqayotgan lakunarlik hodisasiga daxldor fikrlar mavjud.

⁶⁰ Муравьев В.Л. Кўрсатилган асар. – С. 26.

⁶¹ Быкова Г.В. Внутряязыковая лакунарность в лексической системе русского языка / Г.В. Быкова. Благовещенск, 1998. – С. 136-137.

Sheva va adabiy til o‘zaro aloqasi bir birining leksik tarkibini boyitishda ko‘rinadi. Har ikkala tizimda leksik bo‘shliqlar mavjud va mana shu bo‘shliqni to‘ldirishda ularning o‘zaro aloqasi ayni muddao. Nutqiy tejamkorlik tamoyili shevalarda faol qo‘llanadigan birliklarni me‘yorlashtirilgan lisoniy tizimga olib kirishni taqozo etadi. Milliy til tarkibidagi tizimlarda (adabiy til, sheva) u yoki bu konsept ifodasining yo‘qligi ularda leksik tizimosti lakunalarning mavjudligidan dalolat beradi. Bunday lakunalar o‘zining asosiy belgilariga ko‘ra tillararo leksik lakunalar bilan bir xil. Ular ham tushunarsiz, g‘ayrioddiy (ekzotik), notanish (begona), aniq emas.

O‘zgaruvchan leksik kategoriya bo‘lganligi bois lakuna leksik tizim bilan birga rivojlanib boradi. Tizimlararo lakunalarning hosil bo‘lishi leksik tarkib shakllanishining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Shevalardagi yangi so‘zlarning hosil bo‘lishi adabiy tildagi so‘z yasalishi tizimidan farq qiladi, shevalarda ayrim so‘z yasalish modellari adabiy tilga nisbatan faolroq va mahsuldorroq. Masalan, shevalarda *-chak*, *-gir* affikslari adabiy tilga qaraganda faolroq. Mana shu faol qo‘shimchalar bilan ko‘plab so‘z yasalishi oqibatida, adabiy til va sheva munosabatida lakunalarlik yuzaga keladi: *bo‘rtmachak* (Dehqonobod) – badanda shishib chiqadigan toshma, *gupchak* (Qizilcha) – ikki soyning qo‘shilgan joyida suv to‘planib qoladigan chuqur joy, *ingirchak* (Mug‘lon) – eshak ustiga qo‘yiladigan egar, *kadichak* (Qoraxitoy) – sut uyitiladigan suvqovoq; *davragir* (G‘ozliq) – davralarda yaxshi suhbat qiluvchi, o‘zgalarning e‘tiborini qaratuvchi, *yodgir* (Mag‘zon) – tez-tez yod oluvchi, yaxshi eslab qoladigan, *ilgir* – yosh bolaning tomo‘g‘ida turib qolgan po‘choq, qipiqlarni olib tashlaydigan tabib.

Turli predmet va hodisalarni nomlashda dialektal so‘z yasalishida qaysidir onomastik tamoyilning yetakchilik qilishi ham lakunarlikni yuzaga keltiradi. Masalan, shevalarimizda tovushga taqlidan so‘z yasash ustuvorligi bois tovushga taqlid asosida yasalgan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bunday birliklar ham adabiy til uchun lakunalar: *chilpildoq* (Ayoqchi) – chilpchilp etib muloyim ovoz chiqaradigan, *chingillak* (Ayoqchi) – ingichka ovoz bilan tez-tez gapiradigan, mayin ovoz chiqaradigan, *habab* (G‘oz-

lik) – itning hurishi; *vijilloq* (Qarshi) – objo‘shga solganda vij-vij tarzida shovqin chiqaradigan dori.

Shevalar leksikasi lug‘aviy boylikni kengaytirishning boshqa usullari qatorida tilning ichki imkoniyatlari, adabiy tildan so‘z o‘zlashtirish orqali ham kengayadi.

O‘zbek xalq shevalarida ilgari xalq turmushi uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan, ammo hozir eskilik sarqiti sifatida qaraladigan holatlarni ifodalaydigan leksik tarkib saqlanib turibdi. Bunday leksik qatlam sheva leksikasini hozirgi adabiy tildan keskin farqlaydi; ularning muqobili adabiy tilda yo‘q. Bunday so‘zlar ko‘pincha xo‘jalik yurtishning eski usullari (*hamma* (Xorazm) tegirmonda un tushadigan joy, *kargi* (Urganch) molning qorni dam bo‘lganda og‘ziga solinadigan tayoq, *ovush* (Buxoro) tikan va boshqa o‘simliklar yig‘ilgan uyumi), qadimgi mehnat qurollari (*kapcha* (Buxoro) paxsa devorga loy uzatishda, ariq qazish va tozalashda ishlatiladigan maxsus kurak, pozo (Buxoro) omochning tishi), uyro‘zg‘or buyumlari (*kuvacha* (Davtosh) ichiga suv solinadigan jo‘mrakli va dastali kichik ko‘za, *qalaqcha* (Xorazm) un, tuz olishda qo‘llanadigan kichik qoshiqcha, *do‘lcha* (Qalqama) kattaroq idishdan og‘zi kichik idishga suyuqlik solishga mo‘ljallangan, zanglamas metallan qilingan idish), relyef, iqlimning o‘ziga xosligi (*aydin* – ko‘lning qamishsiz chuqur joyi, rosh (Qarshi) ariqning qirg‘og‘idagi tarosh) bilan bog‘liq. Har bir sheva jamoasi o‘ziga xos xo‘jalik yuritish usullariga ega bo‘lganligi sababli uyro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollarining detallashgan nomlari uchraydi. Masalan, Xorazm ahli qadimdan baliqchilik bilan shug‘ullangani uchun xorazmliklar nutqida baliq ovi bilan bog‘liq buyumlarning detallashgan nomlari uchraydi: *ko‘tarma* – katta baliq tutadigan to‘r, *qabadan* – tez oqib turadigan suvga qurilgan to‘r, o‘rlik – baliqchilar kemasida yelkan o‘rnatilgan uzun yog‘och, *qaza* – yulg‘un yoki qamishdan to‘qilgan baliq tutish asbobi. Surxondaryo hududida yashovchi aholi chorvachilik, xususan qo‘y, echki boqish bilan shug‘ullanib kelganligi bois sheva vakillari nutqida qo‘ychilik bilan bog‘liq detallashgan nomlar ko‘p: *chundir* – qulog‘i tabiiy kichkina bo‘lgan qo‘y, *qonjolaq* – qo‘y-echkilarni so‘yish jarayonida oqizishga mo‘ljallangan, qazilgan o‘racha, *mosliq* – harom qo-

tib qolgan mollar uzoq-uzoq o‘ralarga tashlangandan keyin bir necha kun ichida qurtlab, quzg‘unlar yemishiga aylanadigan o‘ta sassiq narsa.

Shevada bitta mazmuniy maydonga birlashadigan nomlarning ko‘pligi va adabiy tilda ularning yo‘qligi adabiy tilda tizimlararo giponimik lakunalar borligidan dalolat beradi. Giponimik lakunalarni adabiy tilda tavsifiy xarakterda ifodalash mumkin: *oqshoq* – shoxining joyi oq tuk, jun bilan qoplangan qo‘ylar, *tubildiriq* – baliqchilar kemasida yelkan o‘rnatilgan uzun yog‘ochni suqib qo‘yadigan to‘rt burchakli teshik).

O‘zbek dialektal leksikasining nomlash tamoyillari

Onomasiologiyaning markaziy masalalaridan biri – nominastiyadir. Mazkur termining lingvistik talqinlarini o‘rgangan J.A.Vardzelashvili nominatsiya termini voqelikning turli qismlari uchun nomlarni yaratish, biriktirish va taqsimlash jarayonini ham, nomlash jarayonida hosil bo‘lgan ma’noli lisoniy birlikning o‘zini ham ifodalashini ta’kidlaydi. V.N.Teliya nomlash jarayonini va bu jarayonda hosil bo‘lgan birliklarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi ham nominatsiya termini bilan atalishini e’tirof etadi⁶². J.A.Vardzelashvili tadqiqotchilar birlamchi va ikkilamchi nominatsiya tushunchasini ham turlicha talqin qilishlarini yozadi. Masalan, T.V.Buligina, V.G.Gak, A.A.Ufimsevalar birlamchi nominatsiya deganda so‘z va so‘z birikmalar bilan nomlash, ikkilamchi nominatsiyada esa gaplar orqali nomlashni tushunadilar. S.S.Maslova-Loshanskaya, G.V.Kolshanskiy, N.D.Arutyunova, Y.S.Kubryakova va V.N.Teliya kabi tadqiqotchilar “birlamchi nominatsiya deganda dastlabki lisoniy nom, so‘zning dastlabki ko‘rininishi, Odam Ato o‘zi anglagan narsalarga bergan nomlarni⁶³” tushunadilar. Hozirgi tilshunoslikda, xususan o‘zbek tilshunosligida ham, birlamchi va ikkilamchi nominatsiya ayni shu ma’noda tushuniladi. G.N.Yagafarova birlamchi nominatsiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Birlamchi nominatsiya bu – voqelik unsurlarini (ham narsa, ham voqealarni) tub so‘zlar orqali ifodalash. Tub so‘z deganda til egalari tomonidan sinxron planda birlamchi, ya’ni boshqa so‘zlardan hosil bo‘lmagan deb

⁶² Телия В. Н. Номинация // Большой энциклопедический словарь. Языкознание / гл. ред. В.Н.Ярцева. М., 1998. С.336.

⁶³ Вардзелашвили Ж. А. К вопросу о толковании термина «номинация» в лингвистических исследованиях // Славистика в Грузии: сб. научн. ст. – Тбилиси, 2000. – №1. – С. 63.

qabul qilinadigan soʻzlar tan olinadi. Ular bizni qurshab turgan olam unsurlarini bevosita, shartli va motivlashmagan tarzda ifodalaydi⁶⁴. Bundan kelib chiqadiki, nomlarni birlamchi va ikkilamchi deb ajratishning oʻzi shartli, chunki sinxron planda tub hisoblangan soʻz, diaxron planda tub boʻlmasligi mumkin. Masalan, dialektal leksik birlik “inak” (sigir) sinxron planda tub boʻlib, uni biz hozir birlamchi nom deb talqin qilsak, etimologik kuzatuvlar natijasida uning “ena” (ona) soʻzidan hosil qilingani, yaʼni “ona sigir” maʼnosini anglatishi va shuning uchun faqat urgʻochi jinsiga mansub buzogʻi bor qoramolni anglatishi oydinlashadi. Demakki, “inak” sinxron planda birlamchi, diaxron planda ikkilamchi nomdir.

Bunday tushunishda birlamchi nominatsiya juda kam boʻlib, bu kabi nomlar zamonaviy tillar leksikasining qadimgi qatlamini tashkil etadi, zero dastlabki leksik qatlam hozirda barcha tillarda shakllanib boʻlgan. Buni turkiy tillarni oʻrgangan tadqiqotchilar ham tasdiqlaydi: “Turkiy tillardagi turkiylarga xos olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi bir tarkibli sodda soʻzlar – monosillablar qadimgi turkiy leksikaning qadimgi qatlamini tashkil etadi”⁶⁵.

Nom va u anglatgan maʼno oʻrtasidagi aloqadorlik masalasiga toʻxtalar ekanmiz, A.A.Potebnyaning “soʻzning ichki shakli” haqidagi qarashini eslash oʻrinli. Olim soʻzda ikkita maʼno borligini qayd etadi. Ularning biri – obyektiv maʼno, yaʼni soʻzning eng yaqin etimologik maʼnosi har doim oʻzida bittagina belgini ifodalaydi; ikkinchisi – subyektiv maʼno, unda belgilar koʻp boʻlishi mumkin”⁶⁶. Nominatsiya hozirgi kognitiv tadqiqotlarning ham bosh masalalaridan biriga aylanmoqda. Zero, “har qanday nom inson faoliyatining empirik tajribasini aks ettiradi. Nomlash jarayonida har bir xalq yoki lisoniy jamoaning atrofdagi narsa-buyumlar va voqeliklarni bilish va idrok etish yoʻllari verballashadi. Demak, soʻzning obrazli asosi, soʻz hosil boʻlishiga asos boʻlgan motiv insonning kognitiv faoliyatini aks ettiradi. Nom kognitiv mazmuni ifodalashning elementar shakli sifatida namoyon boʻladi, obrazlilik esa kognitiv mazmuni obyektlashtiruvchi

⁶⁴ Ягафарова Г.Н. Основные ономаσιологические понятия // Вестник Челябинского государственного университета. 2010. – № 13 (194). Филология. Искусствоведение. Вып. 43. С. 173.

⁶⁵ Гарипов Т. М. Историко-этимологический словарь башкирского языка. Уфа, 2007. – С. 7.

⁶⁶ Потебня АА. Полн. собр. трудов: Мысль и язык. М., 1999. – С. 90.

lisoniy hodisalarning mazmun planining sifat xususiyati hisoblanadi. Voqelikni ifodalashning obrazli xarakteri tafakkur ko‘rinishlaridan biridir. O‘ziga xos moddiy shakl, ya’ni insonning ichki va tashqi olamini tashkil etish shakli bo‘lib, olamni til ko‘zgisida aks ettiradi, olamni lisoniy kodlar orqali kodlaydi. Har qanday nom nomlanayotgan narsaning biror belgisini ajratish orqali uning ortidagi kognitiv mazmunni ifodalaydi va assotsiativ xususiyatga ega⁶⁷.

Nomlash uchun asos bo‘lgan belgi yoki xususiyat tadqiqotlarda turli nom bilan yuritiladi: *nomlash tamoyillari, motivatsion belgilar, motive-ma, etimon*. Hozirda motivema termini faol qo‘llanib kelmoqda. Voqelik, predmetni nomlash uchun asos bo‘lgan motiv, belgi, xususiyatni aniqlash *so‘z motivizatsiyasi* deb yuritiladi. Hozirda nom uchun asos bo‘lgan belgini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ko‘paygan bo‘lib, ular *motivologiya* nomli yangi ilmiy yo‘nalishni shakllantirmoqdalar. Bu soha ayniqsa Tomsk motivologiya maktabida prof. O.I.Blinova rahbarligida jadal rivojlanmoqda⁶⁸.

Quyida o‘zbek shevalari leksikasi misolida dialektal nomlar motivemalarini ko‘rib chiqamiz. Nomlar motivemasiga bog‘ishlangan ishlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, nomlash tamoyillari turli mavzuiy guruhlarda turli darajada ishtirok etishi mumkin. Shuning uchun aksariyat tadqiqotchilar nom uchun asos bo‘lgan motivemalarni mavzuiy guruhlar bo‘yicha o‘rganadilar, deylik, flora va fauna nomlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, chorvachilik bilan bog‘liq nomlar va h.k. turli mavzuiy guruhlariga mansub nomlarda yetakchi motivemalarning o‘zaro farq qilishi nomlash obyektlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Masalan, hayvon nomlari yoki narsa-buyum nomlari motivemalaridan ovoz motivemasi yetakchilardan biri bo‘lsa, o‘simlik nomlarida bu motivema yetakchi emas, zero o‘simliklar ovoz chiqarmaydi. Shuningdek, tashqi ko‘rinish motivemasi aksariyat nomlar uchun ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

⁶⁷ Маркова Е.М. Когнитивные основания названий животных в русском языке и его диалектах в общеславянском контексте // Ученые записки Казанского университета. Серия гуманитарные науки 2018. – С. 1193.

⁶⁸ Ягафарова Г.Н. О номинации в башкирской лексике // Tehlikedeki Diller Dergisi / Journal of Endangered Languages. Summer/Winter • Volume 3, Issue 4-5, 2014. – С. 117.

Umuman olganda, tashqi ko‘rinish motivemasi tabiat leksikasining barcha mavzuiy guruhlarida mavjud bo‘lib, rang-tus, shakl, o‘lcham kabi ichki bo‘linishlarga ega. Bu motivema ko‘zga tashlanadigan tashqi belgilar asosida shakllanadi. Hayvon va o‘simliklar nomini hosil qilishda, qora, ko‘k, sariq, oq, qizil kabi ranglar yetakchilik qiladi. Masalan Xorazm shevasida arining bir turi ko‘k rangi asosida *go‘gayin* deb nomlangan: *Hozir bulbul seyrap getdi bellada, Boshqo yerda vizzildo, hay go‘gayin*. (M.Abdulhakim, Xorazmcha she‘rlar). Farg‘ona shevalarida sassiqpopishakning bir turi sariq rangi asosida *sariqso‘fiyon* deb nomlangan: *Yana sassiqpopishak bilan sariqso‘fiyon degan qushlar bor edi, sariqso‘fiyon “Kuyov-kuyov, kimga kuyov” deya sayrardi*. (I.Sulton, Onaizorim). Mevasi to‘q rangli olxo‘ri ayrim shevalarda qora rangi asosida hosil bo‘lgan: *Jiyda gulining isi, qaroli gulin isi. Gullar atrin taratgan tog‘imsan, Vatan, o‘zing*. (A.Suyun, Vatan fasllari); *Bilmadim, negadir bog‘da qora nordon olxo‘ri (qora sho‘rak) ko‘p bo‘lardi. Biz darhol shunga yopishardik*. (Z.Saidnosirova, Oybegim mening). Oq gulli tugmachagul xalq orasida *oqqaldirg‘och* nomi bilan mashhur: *Onasi uning [qizining] boshini siladi. Lekin gulzordan ko‘z uzmay: - Gullarning nomini juda topib qo‘yishadi-da, - dedi, - tugmachagul, gulibeor, qirqog‘ayni, oqqaldirg‘och... rostdan ham, qaldirg‘ochga o‘xshaydi. Qizligimda meniga nuqul oqqaldirg‘och sovg‘a qilishsa, deb orzu qilardim*. (N.Eshonqul, Yalpiz hidi). Shuningdek, *qorotoshqol* (Chimkent – ko‘kragida qora xoli bor chumchuq), *qiz(il)dori* (Iqon – qalampir), *oqdori* (Qo‘shrabot – mevasi kartoshkaday shifobaxsh o‘simlik) kadi dialektal birliklar ham rang motivemasi asosida hosil bo‘lgan.

Rang ifodasi inson atrofidagi narsalarning tashqi ko‘rinishiga ishora qilibgina qolmasdan, balki til va xalqlar rivojlanishi tarixini ko‘rsatadi, madaniy va diniy qadriyatlarni ifoda etadi. Undan tashqari, rang-tus leksikasi ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashning qudratli vositasi hamdir⁶⁹. Buni biz o‘zbek tilidagi “oq fotiha” yoki “qora niyat” iboralari misolida ko‘rishimiz mumkin: bu o‘rinda “oq” va “qora” ranglari bevosita

⁶⁹ Папченко Е.В. Языковые номинации как отражение культурно-исторического опыта // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=17013> (murojaat sanasi: 11.12.2022).

rangni emas, yaxshi va yomon tushunchalarini ifodalashga xizmat qilmoqqa. Masalan tilimizda *betiqora* soʻzi mavjud. Ushbu soʻz salbiy maʼnoni ifodalaydi. Oʻgʻirlik, fohishalik, yolgʻon gapirish kabi nomaʼqul ishlar bilan shugʻullangan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Surxondaryoning ayrim shevalarida esa ushbu soʻz “turmushga chiqmagan, oʻtirib qolgan qiz” maʼnosida ishlatiladi. Bu nomda nominatorning nomlanayotgan shaxsga nisbatan salbiy munosabati “qora” soʻzi orqali voqelanadi. Zero, turmushga chiqmaslik, oila qurmaslik xalqimiz orasida, ayniqsa, qishloq sharoitida salbiy voqelik sifatida baholangan. Ammo yuqoridagilar asosida qora doim salbiy konnotasiyani, oq doim ijobiy konnotasiyani ifodalaydi degan xulosa chiqarish kerak emas. Masalan, shevalardagi *boshqora* soʻzi “er, himoyachi” maʼnolarini anglatadiki, bunda qoraning salbiy emas, ijobiy konnotasiyasi voqelangan. Shuningdek, shevalardagi “mehnatkash” maʼnosidagi *qoratovon* soʻzida ham ijobiy konnotasiya namoyon boʻlgan, zero tovonning qora tusga kirishi tinimsiz mehnat natijasi; mehnat va mehnatkashlik esa xalq ichida hamisha ijobiy baholangan. Mehnat qilmandan keyin albatta odam kir boʻlmasdan, “oppoqqina” boʻlib yuradi, shuning uchun “dangasa, ishyoqmas” maʼnosidagi “oqbilak”da oqning salbiy maʼnosi voqelangan.

Narsa-predmetni nomlash jarayonida rang tashqi koʻrinish motivemasi bilan birga shakl motivemasi ham ahamiyatli. Predmetning dumaloq, yassi, toʻrtburchak, oval shakli uning nomiga singishi mumkin. Masalan, Iqon shevasidagi *doʻngalak* (gʻildirak) soʻzida predmetning dumaloqligi belgisi mujassam, Fargʻona shevalaridan birida sunʼiy yoʻldosh antennisasi *lappak* deb atalishida ham uning yassi shakli muhim rol oʻynagan. Ayrim predmetlar boshqa predmet shakli bilan assotsiatsiya qilinishi natijasida nomlanishi mumkin. Xususan, Surxondaryo shevasida ilon evfemik tarzda *argʻamchi* nomi bilan yuritiladiki, bunda ilonning uzun ingichka shakli argʻamchi bilan assotsiatsiya qilinadi, Qoʻshrabotda aloe guli *patakgul* deb nomlangan; chunki aloening yassi kenga barglari patakni eslatadi. Shakl motivemasi asosida nomlashda qism motivatsiyasi juda mahsuldor. Bu, ayniqsa, flora va fauna nominatsiyasida yaqqol koʻzga tashlanadi. Tabiiyki, nomlanayotgan hayvon yoki oʻsimlik murakkab biologik va organik

“qurilma” bo‘lib, nomlash jarayonidagi aktual belgi butun qurilmaga xos bo‘lmasligi mumkin. “O‘simliklarning xalqona nomlari orasida ildiz, barg, meva komponentli tavsifiy nom modellari shakllanishi bejiz bo‘lmay, ular o‘simlikning u yoki bu komponenti aktuallashishi bilan izohlanadi⁷⁰. Masalan, na‘matakning dialektal variantlaridan biri *itburun* butaning shakli emas, uning bir qismi – mevasi asosida shakllangan. Na‘matak mevasining shakli cho‘zinchoq bo‘lib, darhaqiqat itning tumshug‘ini eslatadi. Na‘matakning boshqa dialektal variantida esa ushbu o‘simlikning guli aktuallashib, nom shu asosda shakllangan: – *Menga bog‘gul opkemaysanmi ulim? – derdi. Nevara bedazorning qoq o‘rtasiga ekilgan bog‘gulga yetib boraman deguncha necha martalab surinib, yiqilib, ishtoni ertalabki shudringlarda ho‘l bo‘lib qaytib kelarkan, chol gul bilan qo‘shib nevarasini boshdan-oyoq hidlar, hidlab to‘ymas edi.* (Sobir O‘nar, O‘lmaydigan odam). Qism motivemasi asosida shakllangan dialektal zoonimlar qatorida *oqshoq* (shoxining joyi oq tuk, jun bilan qoplangan qo‘y – Surx.), *shoxilon* (shilliqqurt – nom boshidagi o‘simta asosida hosil bo‘lgan, Farg‘.), *burnoch* (burnida olasi bor ot – Surx.), *mirzaboshi* (qirqoyoq – Olot), *mingtomir* (otquloq – Chortoq) kabilarni keltirish mumkin.

Hajm motivemasi asosida shakllangan nomlar o‘simliklarda deyarli uchramaydi, bu motivema hayvon, hasharot, qurt-qumursqa nomlarida faol. O‘simlik nomlarida hajm motivemasining faol emasligini N.D. Golev hajm o‘simliklarda doimiy belgi emasligi bilan izohlaydi. Bunday dialektal nomlar katta-kichik oppozitsiyasi asosida hosil bo‘ladi. Bunda katta va kichik belgilar bevosita emas, obrazli namoyon bo‘lishi ham mumkin. Masalan, o‘zbeklar lingvomadaniyatida katta o‘lchovi tuya, ot kabi hayvonlar bilan assotsiatsiyalanadi. Shuning uchun o‘zbek tilida tuya komponenti bilan hosil bo‘lgan va predmetning yirik o‘lchamini bildiruvchi nomlar ko‘plab uchraydi: *tuyasandiq* (katta sandiq), *tuyaqush*, *tuyatish* (doni yirik anor), *tuyayaproq* (yaproqlari katta ravoch). Dialektal hayvon nomlarida ham tuya, ot komponentlari ishtirokida hajm motivemasi asosida hosil bo‘lgan nomlarni uchratish mumkin. Masalan, *tuyatovuq* (Samar-

⁷⁰ Голев Н.Д. О некоторых ономазиологических особенностях диалектных наименований одной тематической группы (на материале народных названий рыб) // Вопросы исследования лексики и фразеологии сибирских говоров. – Красноярск: Изд-во КрГПИ, 1978. - С. 59-69.

qand – kurka), *tuyaqumursqa*, *tuyachumoli*, *otmo'cha* (Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo – yirik chumoli), *ot ninachi* (Farg'ona – katta ninachi), *tevona* (Vobkent – juvoldiz (teva igna, ya'ni katta igna): *Tirnalgan tuproqda turli-tuman hasharotlar*; *lo'kanglagan tuyaqumirsqalar yuguriklab qoladi*. *Issiqning zo'ridan sarg'ayib, mo'rtilib turgan munchoqgullarga temirtishlar tegishi bilan omonat turgan donlari to'kilib, poyasi g'aramlar orasiga qo'shib ketadi*. (A.Suyunov, Ota va o'g'il); *Tilov yolg'iz, devor tagida cho'nqayib o'tirar, kattakon qizg'ish tuyachumolining orqa oyog'idan bosib, uning jon achchig'ida tipirchilashini tomosha qilardi*. (Sh.Xolmirzayev, O'n sakkizga kirmagan kim bor); *Qizg'ish tusli yana bir turi ham bor. Eng kattasini, ko'k ranglisini ot ninachi deymiz, u sira toliqmaydi*. (I.Sulton, Onaizorim).

Dialektal nominatsiyada onomatoplar

Hozirgi onomasiologiyaning dolzarb muammolari sirasida “turdosh predmetlarni nomlashga xizmat qiladigan xarakterli jihatlar va belgilar, masalan, rang, harakat, kelib chiqishi kabilarni umumlashtiruvchi o'ziga xos onomasiologik modellarni o'rganish”ni⁷¹ e'tirof etish mumkin. Bunday onomasiologik modellar tilshunoslikda nomlash tamoyillari deb yuritiladi. Masalan, Xorazm sohaviy leksikani o'rgangan Sh.Norbayeva xomashyo va materialga ko'ra nomlash tamoyili, vazifasiga ko'ra nomlash tamoyili, xoslash tamoyili, mansublash tamoyili kabilarni ko'rsatadi⁷². Shuningdek, tadqiqotlarda nominatsiya jarayoni bilan bog'liq motivatsiya⁷³, *motivema*⁷⁴, *motivlashuv*⁷⁵ kabi terminlar faol qo'llanadi. Motivema ter-

⁷¹ Голев Н.Д. О некоторых общих особенностях принципов номинации в диалектной лексике флоры и фауны \\\ Русские говоры Сибири. – Томск: Изд-во ТГУ, 1981. – С. 17.

⁷² Норбаева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика. – Тошкент, 2014.

⁷³ Сетаров Д.С. Именования животных: принципы и типы мотивации в славянских и тюркских языках. КД. – М., 1992.

⁷⁴ Гинатуллин М.М. К исследованию мотивации лексических единиц (на матер, наименований птиц). КД. – Алма-Ата, 1973; Рубцова О. Названия лекарственных растений в разноструктурных языках. АКД. – Чебоксары, 2015; Юрченкова (Моисеева) Е.Ю. Явление мотивации слов в динамическом аспекте (на примере фитонимической лексики русского языка) \\\ Томский журнал лингвистических и антропологических исследований (Tomsk Journal of Linguistics and Anthropology), 2014. Вып. 3 (5) – С. 23–38.

⁷⁵ Блинова О.И. Лексическая мотивированность и некоторые проблемы региональной лексикологии \\\ Вопросы изучения лексики русских народных говоров: Диалектная лексика. – Л., 1972; Топорова Е. Лексическая мотивированность в говорах русского севера. КД. – Екатеринбург, 2001.

mini tilshunoslikda ilk bor M.M.Ginatullin tomonidan qo‘llangan bo‘lib, u motivema deganda obyektning so‘zda ifodalangan belgisini bildiruvchi lisoniy hodisani tushunadi va qush nomlarida “faollik davri”, “ovoz”, “rang” kabi motivemalarni ko‘rishimiz mumkinligini e‘tirof etadi⁷⁶.

Barchamizga ayonki, har bir narsa-predmet yoki hodisa bir emas, bir qator belgi va xususiyatlarga ega. Masalan, narsaning shakli, hidi, rangi, hajmi, uzunligi, tovushi bo‘lishi, voqea-hodisa esa muayyan davrga tegishli bo‘lishi mumkin. Ammo nomlovchi nomlash jarayonida predmet yoki voqeaga xos barcha belgi va xususiyatlarni asos qilib ololmaydi, buning imkoniyati ham yo‘q. Nomlash uchun odatda bittagina belgini ajratib oladi. “Motivatsiya uchun muhim yoki u qadar muhim bo‘lmagan belgi asos bo‘lishi mumkin. Xalq terminologiyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, aksariyat nomlar stixiyali ravishda hosil bo‘ladi: nomlar ko‘p jihatdan nom beruvchining xayolot olamiga, tafakkur o‘yiniga bog‘liq”⁷⁷.

Xalqona nomlarning katta guruhini “tovush” motivemasi asosida shakllangan leksik birliklar tashkil etadi. “Tovush” motivemasi asosida lisoniy birliklarning hosil bo‘lishi tilshunoslikda onomatopeya termini bilan yuritiladi. Onomatopeya deganda ovozga taqlid, ya’ni tabiatdagi tabiiy tovushlarga taqlid qilish (masalan, yomg‘ir yog‘ishi, momaqaldiroq gumburlashi, qamishzor shovullashi), turli jonsiz predmetlardan chiqadigan ovozlarni takrorlash (mehnat qurollari, asbob-uskunalar, jihozlar), tirik mavjudotlar va odamlarning tovushlariga taqlid qilish asosida hosil bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmalar nazarda tutiladi.

Tishina Y.V. o‘z tadqiqotida *onomatopeya* terminiga “lisoniy belgining tasviriy yoki birlamchi motivlashuv hodisasi”, onomatop terminiga esa “tasviriy motivlashuv ifodasining yakka lisoniy hodisasi” deya ta’rif beradi⁷⁸. Bundan xulosa qilish mumkinki, onomatopeya tilda ovoz orqali lisoniy birlikning hosil bo‘lish hodisasi, onomatop esa shu usulda hosil bo‘lgan lisoniy birlikning o‘zi. O‘zbek tilshunosligida onomatopeyaga

⁷⁶ Каранг: Голомидова М. В. Искусственная номинация в русской ономастике. – Екатеринбург, 1998. – С. 23.

⁷⁷ Дейниченко Н.П. Зоологическая лексика в восточнополесском говоре украинского языка. АКД. – Киев, 1985. – С. 10.

⁷⁸ Тишина Е.В. Русская ономапея: диахронный и синхронный аспекты изучения. АКД. – Волгоград, 2010. – С.6.

quyidagicha ta'rif berilgan: "Hayvon, qush tovushlariga taqlid va shu-larga taqlidan so'z hosil bo'lishi: qu-qu, miyov kabi so'zlar va ulardan ququlamoq, miyovlamoq so'zlarining hosil bo'lishi"⁷⁹. Ushbu ishimizda nafaqat tovushga taqlid, balki tovush haqidagi obraz asosidagi so'z ijod-korligini ham onomatopeya doirasida o'rganganligimizni e'tiborga olib, onomatopeyaga "tovushga taqlid va ovoz haqidagi obraz asosida so'z ho-sil bo'lishi" deb ta'rif berishni ma'qul topdik.

Shu o'rinda onomatopeya til paydo bo'lishining antik falsafa, aniqrog'i stoiklarga borib taqaluvchi, keyinchalik nemis faylasufi G.Leybnis to-monidan rivojlantirilgan tovushga taqlid nazariyasining asosi bo'lganlig-ini eslashimiz o'rinni. Ushbu nazariyaga ko'ra til qadimgi odamlarning tabiatdagi tovushlarga (suvning jildirashi, qushlarning sayrashi, yovvoyi hayvonlarning irillashi) taqlid qilishi, keyinchalik bunday taqlid so'zlar-ga muayyan shakl va tizimlilik berish asosida paydo bo'lgan. Albatta, tovushga taqlid til kabi nihoyatda murakkab va muhtasham hodisaning paydo bo'lishini tushuntirib berolmaydi, ammo xalq shevalari va umu-man tildagi aksariyat so'zlarning kelib chiqishini izohlab berishga qodir. So'nggi davr tadqiqotlarida onomatopeya reklama matnlari ifodaviyligini oshiruvchi vosita sifatida ham o'rganilmoqda⁸⁰.

O'zbek dialektal leksikasi semantik maydonlari tadqiqi tovush aso-sida hosil bo'lgan ko'plab lisoniy birliklar mavjudligini ko'rsatdi, zero "tovushga taqlid asosida hosil bo'lgan so'zlar yordamida tabiatdagi to-vushlar rang-barangligini bemaolol ifodalash mumkin"⁸¹. Buni Shodmon-qul Salomning "Ona tili ulug' kemadir" qatrasidagi parchada ham yaqqol ko'rish mumkin. Qatrada yosh kelinchak "Qamishzorning naryog'ida, ko'kko'lning beryog'ida bir qo'zini bo'ri bo'g'izlab ketibdi" degan xabar-ni qaynonasiga "*Shovullamaning naryog'ida, jildiramaning beryog'ida bir mangramani uvillama bo'g'izlab ketibdi*" tarzida yetkazadi. Bunda qamishzor shovullashi tufayli shovullama, suv jildirashi tufayli ko'l jildi-

⁷⁹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002, 75–76-бетлар.

⁸⁰ Хабибуллина О. А., Николаева А.В. Ономапея как выразительное средство рекламного текста (на материале английского и немецкого языков). Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2017. 3 (180). – С. 68 – 74.

⁸¹ Алиева С.А. Словообразование имён существительных от звукоподражательных слов в русском и кумыкском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 2-2 (56), 2016. – С. 37.

rama, qo‘zi ma‘rashi tufayli mangrama, bo‘ri uvillashi sababli uvillama so‘zlari bilan berilgan.

O‘zbek dialektal onomatoplarini tovush va ma‘no aloqadorligi jihatidan quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. Birinchi guruhga alohida so‘z turkumini hosil qiluvchi so‘zlarni kiritishimiz mumkin. Ma‘lumki, o‘zbek tilida tovush va holatga taqlid qiluvchi so‘zlar mavjud. Bu guruhga kiruvchi so‘zlarning katta guruhini tabiatdagi ovozlari, parranda-yu darrandalar chiqaradigan tovushlarga taqlidan yasalgan birliklar tashkil etadi: *paq-paq, g‘ir-g‘ir, qiyt-qiyt, tak-tak*. Bu guruhga kiruvchi so‘zlarning shakllanishida ko‘pincha reduplikatsiya (lot. *reduplicatio* – ikkilantirish) hodisasi kuzatiladi. So‘z asosi to‘liq (*shap-shap, dir-dir*) yoki qisman (*bag‘-bug‘, jiz-biz*) takrorlanishi mumkin. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, “tovushga taqlid so‘zlar milliy-madaniy kolorit tashuvchilari hisoblanadi, zero har bir xalq, har bir madaniyat u yoki bu tovushlarni o‘zicha talaffuz qiladi, bu esa milliy an‘analar bilan bog‘liq”⁸². Aynan shuning uchun ham o‘zbek tili va uning shevalarida qo‘llanadigan taqlid so‘zlarning tovush tarkibida tilga nisbatan keyingi davrda o‘zlashgan “f” yoki “ц” tovushlari deyarli uchramaydi. Rus tili fonetikasiga bu tovushlar azaldan xos bo‘lgani uchun bu tilda ular ishtirokidagi onomatoplar ko‘plab uchraydi: *цун-цун, цокать, фыркать*. Ammo bu tilda “q” tovushi ishtirokidagi onomatoplar uchramaydi, vaholanki, o‘zbek tilida bu tovush ishtirokidagi taqlid so‘zlar bisyor: *qars-qurs, qurey-qurey, qaq-qaq, qult-qult*. Aynan tovushlarning milliy o‘ziga xosligi tufayli bir predmet yoki bitta hayvon chiqaradigan tovush turli millatlarda turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan, soat chiqillashini ruslar “tik-tak” deb eshitsa, o‘zbek uni “chiq-chiq” deb eshitadi. O‘zbek shevalari bir til tizimiga birlashishi bois shevaga xos tovushga taqlid so‘zlar orasida jiddiy farq mavjud emas. Shunday bo‘lsa-da, ayrim farqlar kuzatiladi. Masalan, kurka chiqaradigan tovushni aksariyat o‘zbeklar “kurk-kurk” deb eshitsa (o‘zbek tilidagi “kurka” so‘zi shu tovush asosida shakllangan), ayrim

⁸² Петкова З.А. Русские звукоподражательные слова в зеркале носителей болгарского языка. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М., 2011. С. 135.

sheva vakillari uni “quli-quli” va “g‘uli-g‘uli” deb eshitadi (kurka o‘zbek shevalarida “quliqu” va “g‘ulig‘uli” kabi nomlar bilan yuritiladi).

2. Ikkinchi guruh so‘zlarga birinchi guruh birliklari bilan motivlashgan leksemalar kiradi. Bunday so‘zlarda birlamchi tovush obrazi saqlanib qolgan bo‘lib, grammatik vositalar yordamida shakllanadi va ikkilamchi ma’no kasb etadi, ya’ni tovush leksikalizatsiyasi sodir bo‘ladi. Masalan, Olot shevasida “vag‘ir” shovqin-suron, Qo‘qon shevasida esa “vala-vala” vaysaqi odamni ifodalaydi. Bu hollarda tovushga taqlid “vag‘ir” so‘zi nafaqat shovqinga taqlid qiladi, balki uni ifodalaydi ham, *vala-vala* vaysaqining so‘zlariga taqlid qilibgina qolmasdan, vaysaqining o‘zini ham ifodalaydi. O‘tgan asr boshlarida xalqimiz traktorni u chiqaradigan “pot-pot” tovushi asosida “potpot” deb nomlaganini eslash o‘rinli: *Pot-pot ishga tushgan kunlardan birida Aziz aka otamning oldiga keldi* (M.Qo‘shjonov, Dagish).

Bu guruh so‘zlarida saqlanib qolgan tovush obrazi tegishli so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida so‘zga aylantirilishi mumkin. Masalan, o‘zbek adabiy tilida *kakku, churrak, kurka, chug‘urchiq, bulbul, qarg‘a* shu qushlar chiqaradigan tovushga taqlid asosida hosil bo‘lgan. Ularning ayrimlariga *-rak, -a, -chiq* so‘z yasovchi affikslari qo‘shilgan. Bu guruhga kiruvchi so‘zlarning semantik guruhlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatdiki, bunday birliklar “hayvonlar”, “qushlar”, “ro‘zg‘or buyumlari”, “mehnat qurollari”, “tabiat hodisalari” semantik guruhlarida ko‘plab uchraydi, ammo “o‘simliklar”, “baliqlar” semantik guruhlarida onomatoplar yo‘q hisobida. “O‘simliklar”, “baliqlar” semantik maydonlarida onomatoplarning yo‘qligi yoki kam uchrashi bu semantik maydonga birlashuvchi tushunchalarning tabiiy xususiyatlari bilan bog‘liq. O‘simlik va baliqlar odatda tovush chiqarmaydi, demakki, inson tovushga taqlid qilolmaydi va tovushga taqlid asosida ularni ifodalay olmaydi. Shunday bo‘lsa-da, “o‘simliklar” semantik maydonida tovushga taqlid asosida yasalgan kam sonli onomatoplarni uchratish mumkin. Masalan, xalqaro lotincha nomi *Physalis alkekengi* bo‘lgan o‘simlik nomiga o‘zbeklar *paq-paq* deb nom bergan. O‘simlikning botanik ta’rifidan uning tomatdoshlar oilasiga

mansubligi va olovrang qizil meva solishi haqida bilib olamiz⁸³. Demak, pishgan mevalari yerga paq-paq to‘kilgani bois, o‘simlik shunday nomga sazovor bo‘lgan. Tog‘arpaning xalqona *taktak*⁸⁴ nomi ham yerga to‘kilgan boshloqlar chiqaradigan ovoz bilan bog‘liq deb taxmin qilish mumkin.

“Qush, hasharot” semantik maydoniga quyidagi dialektal onomatoplar kiradi: *g‘ulig‘uli*, *quliquili* (kurka, Farg‘ona – g‘ul-g‘ul, qul-qul tovushlaridan), *jigjikka* (chittak, Olot – jik-jik tovushidan), *chakchak* (chigirtka, Xorazm – chak-chak tovushidan). “Ro‘zg‘or buyumlari” semantik maydonida quyidagi dialektal onomatoplar kuzatiladi: *duki* (chekich, Iqon – duk-duk tovushidan), *cho‘lpi* (chovli, Buxoro – cho‘lp-cho‘lp tovushidan), *tumtumak* (jo‘mrak, Beshkent – tum-tum tovushidan), *tiktak* (poshnali oyoq kiyim, Surxondaryo – tik-tak tovushidan). “Taom nomlari” semantik maydoniga *chakida* (suzma, Xorazm – zardobning chak-chak tovushidan), *jizziq* (jizza, Jizzax – eriyotgan dumbaning jiz-jiz tovushidan), *cho‘pchima* (cho‘ponlar ovqati, Jizzax – yog‘da qovurilayotgan go‘shtning “cho‘lp-cho‘lp” tovushidan) kabi onomatoplarni kiritish mumkin. Shuningdek, bu guruh so‘zlarga “odam”, “musiqqa asboblari” semantik maydonlariga mansub quyidagi shevaga xos so‘zlarni kiritish mumkin: *shapshak* (Qo‘qon, bezori, shap-shap tovushidan), *chuqchuq* (g‘iybatchi, Urganch, chuq-chuq tovushidan); *vojji* (Xorazm, ko‘p gapiradigan odam, voj-voj tovushidan); *duduk* (nay, Xorazm, du-du tovushidan). O‘g‘uz lahjasida kuzatiladigan *duduk* onomatopi o‘zbek adabiy tiliga kirmagan bo‘lsa-da, Kavkaz tillariga o‘zlashgan va faol qo‘llanadi. Hozirgi arman tilida nay “duduk” so‘zi bilan ifodalanadi, uning qadimgi arman tilidagi nomi – tsiranapox (o‘rik shoxidan qilingan nay).

3. Uchinchi guruhga birlamchi tovush obrazi bilan aloqani qisman yo‘qotgan dialektal onomatoplarni kiritishimiz mumkin. Sheva egalari on-gida saqlanib qolgan tasavvurlar yoki so‘z tarkibidagi tovushga xos formal belgilar bunday dialektal birliklar dastlab tovush asosida hosil bo‘lganligini aniqlash imkonini beradi. Masalan, Jizzax shevasida qor uyumi “kurtik”

⁸³ Каримов В. А., Шомахмудов А. Халқ табоботи ва замонавий илми тибда қўлланиладиган шифобахш ўсимликлар. – Тошкент, 1993. – 170-бет.

⁸⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 3-жилд. – 646-бет.

so‘zi bilan yuritiladi. Faqat shu sheva vakillari ongida *kurtik* so‘zi qorda yurganda chiqadigan “kurt-kurt” ovozi bilan aloqadorligi haqidagi tasavvurlar saqlanib qolgan. Ushbu so‘zning fonetik o‘zgarishi ham taqlid so‘z bilan aloqadorligi xiralashuviga olib kelgan. Masalan, ayrim shevalarda u gurtik, gurtin shakllarida uchraydi. Xorazm shevasida faol qo‘llanadigan “shig‘ir” (arava izi) so‘zi arava g‘ildiraklari chiqaradigan “shig‘-shig‘” tovushi bilan aloqadorligini ham faqat xorazmliklar biladi. Shuningdek, “yig‘lamoq” ma’nosidagi *ingirsimoq* (Qoraqalpog‘istondagi Beruniy tumani shevalari va ayrim Surxondaryo shevalarida) dialektal onomatopini ham misol qilish mumkin. Bu so‘z chaqaloq chiqaradigan “inga-inga” tovushi bilan aloqadorligini darrov fahmlash qiyin. Qashqadaryo shevasida uchraydigan *sharrak* (ariqdan suv olish uchun ariqqa o‘rnatiladigan, toldan yo‘nilgan tarnov) ham shu guruhga mansub. O‘zbek tilidagi suv bilan bog‘liq *sharshara*, *sharros* so‘zlari bu so‘z ham bevosita pastga tushayotgan suv chiqaradigan “shar-shar” tovushi bilan bog‘liq ekanligi va uning dialektal onomatop ekanligini ko‘rsatadi.

4. To‘rtinchi guruhga dastlabki tovush obrazi bilan aloqadorlik butkul yo‘qolgan so‘zlarni kiritish mumkin. Bunday dialektal onomatoplarga *jarchoq* (G‘allaorol) – bog‘dan-tog‘dan gapiradigan kishi, *jirpi* (Qo‘shko‘pir) – yengiltak qiz, *gurri* (G‘uzor) – chapani, *churalay* (Navoiy) – g‘ildirak, *ishqirim* (Olot) – hushtak kabilarni kiritish mumkin. So‘z o‘zining dastlabki obrazi bilan aloqani birdan yo‘qotmaydi, bu uzoq, ko‘p vaqt talab etuvchi jarayon; “ayrim leksemalar u yoki bu tovushga aloqadorligini butkul yo‘qotadi, ayrimlari esa, aloqadorlikni yo‘qotgan bo‘lsa-da, unda tovush belgisi saqlanib turadi”⁸⁵. Aynan shuning uchun bu guruhga kiruvchi so‘zlarni aniqlash katta qiyinchilik tug‘diradi. Buning uchun etimologik va qiyosiy tahlillar zarur bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “buloq” so‘zini ham shu guruhga kiritish mumkin. Arman tilidagi “pulpulak” (1 metr balandlikdagi tosh favvora bo‘lib, undan toza ichimlik suvi chiqadi) so‘zining etimologiyasini olimlar pastdan yuqoriga otilib chiqadigan suvning “pul-pul” tovushi bilan aloqadorligini e’tirof etishadi (arman adabiy tilida

⁸⁵ Тишина Е.В. Русская ономотопея: диахронный и синхронный аспекты изучения. – Автореферат на соискание учёной степени кандидата филологических наук, Волгоград, 2010. – С. 10.

bu tushuncha “tsaytaxpur” deb nomlanadi, shu asosda xalq tilida faol “pul-pulak”ning boshqa ko‘plab so‘zlar singari turkiy tillardan o‘zlashganligini taxmin qilishimiz mumkin). Shu asosda o‘zbek tilidagi “buloq” so‘zi ham chashmadan pastdan tepaga otilib chiquvchi suvning “bul-bul” tovushi bilan aloqador va shu asosda shakllangan deyishimiz mumkin. Aytish joizki, Sh.Rahmatullayev bu so‘zning kelib chiqishini qadimgi turkiy tildagi “oqib chiq” ma’nosidagi “bula” fe’li bilan bog‘laydi⁸⁶.

“Sopol xurmacha” ma’nosini ifodalovchi hozirda eskirgan “qulqulum” so‘zining ham aslida “qult-qult” tovushga taqlid so‘zi bilan aloqadorligini bir qarashda ilg‘ash mushkul. Suyuqlik ichilayotganda idishdan chiqadigan tovushni odatda o‘zbeklar “qult-qult” deb ifodalashadi, xurmachaga asosan suyuqlik solinganligi tufayli idish “qulqulum” deb nomlangan bo‘lishi mumkin. Hozirda bu so‘z “*Og‘zi qulqulum, uzun oyog‘u kalta dum*” (Tuya) topishmog‘i tarkibida saqlanib qolgan. Shu o‘rinda aytish joizki, “afsonaviy tubsiz hovuz” ma’nosini bildiruvchi “Havzi qulqulum” birikmasi yuqoridagi topishmoqning o‘g‘uzcha talaffuzi “hovzi qulqulum (og‘zi qulqulum) asosida yuzaga kelgan. Bu yerda hovuz emas, aslida og‘iz. Xalq tilida iboraning o‘g‘uzcha “hoviz” (og‘iz) bilan aloqadorligi yo‘qolib, o‘rniga uning paronimi “hovuz” aktuallashtirgan.

5. Bevosita tovushga taqlid asosida shakllanmagan, ammo ovoz haqidagi obraz so‘z hosil bo‘lishida muayyan rol o‘ynagan so‘zlarni biz alohida guruhga ajratishni lozim topdik. Bunday so‘zlarda bevosita tovushga taqlid yo‘q, biroq “ovoz” motivemasi so‘z yasash vazifasini bajaradi. Bunday so‘z yasalishida tovush assosiativasi muhim hisoblanadi. Misol tariqasida, *to‘ng‘izo‘lani* fitonimini keltirish mumkin. O‘simlikning shamolda shovullashi o‘zbek lisoniy jamoasida to‘ng‘iz chiqaradigan ovoz bilan assosiativasi hosil qiladi, shu tasavvur asosida nom hosil bo‘lgan. Bunday turdagi motivatsiya ko‘pincha “sayroqi qushlar” semantik maydonida kuzatiladi. Masalan, to‘rg‘aylar turkumiga kiruvchi qushning sayrashi islom diniga e’tiqod qiluvchi o‘zbeklar uchun imom, mullalar qiroatiday yoqimli tuyuladi. Shu sababli bu qush uchun *so‘fito‘rg‘ay* deb nom qo‘yishgan. Bu nomning Jizzax dialektal varianti mullato‘rg‘ay ham shu o‘xshatish

⁸⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 68.

asosida shakllangan: *Pichanzorlar orasida bir maromda sayrayotgan mullato'rg'ayning chug'ur-chug'uri adirlar bo'ylab kezadi. G'o'bdintog' etagidagi yoyilmalarda poda boqib yurgan bolakaylarning qiy-chuvi mullato'rg'ay chug'ur-chug'uriga esh bo'lib, olis-olislarga uchadi.* (A. Suyunov, Yo'qchi). To'rg'ayning yana bir turi shevalarda g'azaloy deb yuritiladiki, bu ham sheva vakillarining qush sayrashini g'azal o'qiyotgan kishining yoqimli ohangga teng qo'yishlarini bildiradi: *Odil polvon o'zini oldirib, qo'yganidan ko'knoriga kuch berib, bo'yni g'azaloyning bo'yniday bo'lib... kun o'tkazaverdi.* (T.Sulaymon, To'lg'onoy). *Ey g'azaloy, g'azaloy, Buncha shirin sayraysan. Cheksiz o'tloq bag'rida, Uchib uchib yayraysan.* (S.Po'ltanov, G'azaloy).

Yuqorida nomlash jarayonida nom beruvchi asosan predmet yoki hodisaning bitta belgisini ajratib, shu asosda nom berishini aytib o'tgan edik. Ammo dialektal onomatoplar tahlili shuni ko'rsatdiki, ayrim hollar-da nomlashda birdan ortiq motivema ishtirok etadi. Masalan, "tabiat hodisalari" semantik maydonida "momoguldir, momoguldirak" (momaqaldiroq) dialektizmlari uchraydiki, ularda "tovush" motivemasidan tashqari muayyan mifologema ishtirok etadi. O'zbeklarning mifologik tasavvuriga ko'ra Guldur Momo aravaga minib, samoda sayr qiladi. Aynan aravaning g'ildiraklari dahshatli suronni keltirib chiqaradi. Matyoqub Qo'shjonovning avtobiografik xarakterdagi "Dagish" qissasidan olingan quyidagi parcha buni tasdiqlaydi: *Guldurmoma, – derdi enam, – chopqir otini katta aravasiga qo'shib olib, bulutlar ustida choptiradi.* Safo Ochilning "Ko'klam qo'shig'i" she'rida ham arava qo'shib kelayotgan Momoguldur obrazi bilan bog'liq tasvirni ko'rishimiz mumkin:

Momaqaldiroq
Arava qo'shib
Tog'lar ustidan
Kelmoqda tushib.

Ushbu nomemada so'zning dastlabki qismi "momo" mifologema bo'lib, o'zbek xalqining qadimgi mifologik qarashi bilan bog'liq bo'lsa, uning ikkinchi qismi "guldur", "guldurak" – onomatopdir. Ta'kidlash joizki, bu tushunchaning adabiy tildagi "momaqaldiroq" ifodasida mifologe-

ma va “natija” motivemasi ishtirok etgan: momaqaldiroq natijasida butun olam “qaltiraydi”. Ta’kidlash joizki, bir nechta motivemaning ishtirok etishi asosan qo’shma so‘zlarda uchraydi.

Olamning tovushli lisoniy manzarasini o‘rgangan olimlar fonosferaning antropotsentrik tabiatga egaligini e’tirof etishadi. “Insonga bevosita aloqador bo‘lgan sohalar eng ko‘p ishlangan”. Aynan shuning uchun onomatoplar inson o‘z hayotini ularsiz tasavvur qila olmaydigan hayvonot, nabotot olami, tabiat hodisalari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, musiqa asboblarini ifodalovchi dialektal nomlar orasida uchraydi.

Umuman olganda, nomlash jarayonida “tovush” motivemasining o‘rni va dialektal leksika materiallarida tildagi onomatopeya hodisasini o‘rganish tilning antropotsentrik mohiyatini ochish hamda insonning nominativ faoliyatidagi kognitiv mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi.

A

ABDAV (Jizzax) Tomdan yog'in suvi tez oqib tushib ketishi uchun tom sathida qilinadigan qiyalik; obdov. **Gapning abdavi.** Gapning o'zani. – *Yosh o'tavergandan keyin go'dakday bo'p [bo'lib] qolarkan odam! **Gapning abdavi** shuki, Yaratgan birovga ketmon, birovga o'roq, birovga bolta, yozuvchiga esa qalam bergan.* (Abdusaid Ko'chimov, Dunyoni yaxshilar ushlab turadi). **Gapning (suhbatning) abdavini burmoq.** Suhbat mavzusini o'zgartirmoq. – *Bilmasam, yetmishni qoralagan kishining sog' joyi qoladimi?! – **gap abdavini** hazilga **burdi** Qurbon bobo.* (Anvar Suyunov, Solin yo'li). – *Shu yerda nozik masala tomon juda ichkarilab ketayotganini sezib qoldi va darrov **suhbat abdavini** kerakli ko'chaga **burdi**.* – *Xo'sh, keyin-chi, keyin nima bo'ldi? – deb so'radi.* (Abdusaid Ko'chimov, Binafsha).

ABDIRA (Iqon) Sandiq. [*Berdaq*] *Nima desam ekan? Aslida-ku, barcha turkiy xalqlar bir ota, bir onaning farzandlari. Barchasi bizlar singari mehmondo'st. Taroz shahridan Toshkent shahriga yetib borguncha yo'l-yo'lakay ancha-munchasida **abdira-sandiq** ustiga ko'rpa-to'shakning yig'ib qo'yilishi xuddi bizlarnikiday.* (To'lepbergen Qayıpbergenov, Sahro bulbuli).

ABRAV q. **obrav.** – *Shu **abravda** mening qadamim tegmagan joy qolmagan, hamma biladi. Men hech narsani ko'rmayin-da, bu shalpanqu-loq ko'rsin. Molini g'ojir yegan bo'lsa, kimdir aybdor bo'lishi kerakmi?* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

ABRIK (Qashqadaryo) Binafsha rang mayda gullar ochadigan challa buta tog' o'simligi. *Ko'zlar qamashar ko'rkidan, Do'lana, uchqat, zirkidan. **Abrik** ifori burgida Archalar shoxi g'ichirlab.* (Hol Muhammad Hasan, Sehr).

ABRO'K q. **abrik.** *Keng dala. Shuvoq, **abro'k**, ayqash-uyqash o'sgan pichanzor...* (Shoyim Bo'tayev, Kunbotardagi bog').

ABRO'Y (Jizzax) q. **abrik.** – *Boshladik, – dedim men, surp xaltadan dorivor giyohlarni yonma-yon qatorasiga qo'yib: qizga yaqin kelib, –*

Setora, buning ismi “Karovush”, bu “Zirk”, ovqatga solib iste’mol qilina-
di. Qozonda qaynatilib, quyuyq, xushbo’y, yashil dorivor suyuqlikda, ya’ni
“**Abro’y**” dorisi vannasida badan haroratida o’n besh daqiqa yotasan.
(Isak Sattorov, Devona tabib).

ADAN (Xorazm) Poygak. *Eshikka chiqsam mening bilan yuradi, Uyga
kirsam **adanda** menga qarab turadi.* (Topishmoq, Javobi – kavush). *Sher-
oziy **adanda** tiz cho’kib, titrab-titrab, Durdibika buyurgan qo’shiqlarni
aytibdi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). *Yoqit momo bir amallab dugonas-
inikida tong ottirdi. Ro’zika momoning kelini allaqachon sigirni sog’ib,
sutlarni pishirib, mehmonxonada dasturxon yozishga uringan. Momolar
dahliz **adan**idagi to’shshi yoniga keldilar.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

ADARG’I (Surx.-Qashq.) Qoqma gilamni to’qish uchun alohida
o’rmaksoz. *O’rmakni qanday qurishni, dastgohlarni qanday tayyorlashni,
ko’targini kuziviga qanday birlashtirishni, seruviga ipni qanday o’rashni,
adarg’ini qay yo’sinda o’rnatishni, qilichni qanday qoqishni, siltashni,
qoziqlarni qanday urib, oyoqlarini qanday tiklashni, nihoyat, **adarg’ini**
qay tartibda tortib borishni – hamma-hammasini miridan-sirigacha mu-
kammal egalladi.* (To’ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). *Sen naynov
tilingni tortib so’yla. – dedi Norqizil achchiqlanib. – Bo’ying yana picha
o’ssin, keyin otang **adarg’iday** qinjir qizni olib beradi.* (Hamid Alp, Nor-
kallaning uylanishi).

ADAS 1. Yasmiq. *Har xil turlarga mansub gorox, china (burchoq),
yasmiq (**adas**), xashaki goroxning don rangi, poya uzunligi va boshqa
belgilari bo’yicha bir xil irsiy o’zgarishlarga duch kelgan xillari mav-
jud.* “Genetika asoslari”. **2.** (Samarqand) Burchoq. *Ular o’zaro kelishib,
ellikboshining gaplaridan chiqmay, oilaning imkoniyati, jon soniga qarab
yerlarni taqsimlab olishib, arpa, bug’doy, no’xat, zig’ir, kunjut, tariq, bur-
choq (**adas**) ekib olishgan.* (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi).

ADOQ (Qashqadaryo) Quyi. *Ovchi Oqmatog’dan umidini uzib Par-
dum tarafga yuzlanganda u o’zini o’ngladi-yu **adoq** tomonga kamon o’qi-
day otildi.* (G’ozi Rahmon, Oshiq dunyo).

ADOQ-BOSH q. **Bosh-adoq.** – *Soyibimiz kelsin, **adoq**-bosh yig’ilib
maslahat qilaylik, kengashaylik.* (Hamid Alp, Qo’nalg’a).

ADOQLAMOQ I (Qashqadaryo) Quyiga qarab yurmoq. *Otam **adoqlab** ketaversa bir yo'lovchiga duch kelibdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). *Otamiz chayladan **adoqladi**. Adir adog'ida qantarilmish otini mindi. Uyiga yo'l oldi.* (Tog'ay Murod, Oydinda yurgan odamlar).

ADOQLAMOQ II (Jizzax, Qashqadaryo) Tugamoq. *Xullas, dadam allambalo, hidi o'tkir dorilar bilan ancha vaqt muolaja qildi. Har safar malham surayotganida eski chopon bilan tumshug'idan ushlab turardim. Qish **adoqlab**, ko'klam oyoqlagungacha zo'r berib qaradik.* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq). *Bahor **adoqlab**, yoz keldi. Karnaygullar battar tarvaqaylab, yonlaridan ikki-uch bachki shoxchalar chiqarib yubordilar.* (Isajon Sulton, Mening gulim). *O'ylagan taqdirdayam, o'yi **adoqlab** ulgurmay, yonboshlagan ko'yi, asta mudroqqa ketadi.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda).

AHMOLAMOQ Bo'g'izlamoq. *Ne gap ekan, deb qo'raga kirsam ikki uch qo'yni, eshakni **ahmollabdi** [shoqol]...* (Shuhrat Matkarim, Xavf).

AHMON-DAHMON // **ahman-dahman** (Jizzax, Qashqadaryo) Bahor boshlanishidagi sovuq kunlar bo'lib, 4–10 martga to'g'ri keladi. *Qirqqa chidagan qirq biriga ham chidaysan endi, – onamga tasalli berardi dadam, – Ko'pi ketib ozi qoldi. **Ahmon-dahmon** o'tdi deguncha u yog'i sadpok... savr...* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim). *Xuddi ayoz kabi titratardi, "**Ahmon-dahmon**" – oxiri qishning.* (Mirtemir). – *Ilkuzildidan endigina chiqqanda shamollab qolma, deyman-da, bolam, hali to'qson to'lganicha yo'q, hutning kichik chillasi ko'p o'yinlar ko'rsatadi, uning ayamajuz ("Ajum momo"), **ahman-dahman**, navro'z qaroqchi degan kunlari bor. Qo'ychivon ahli ularga "Gul cho'mmiqning hisobi"ni ham qo'shib qo'yadi...* (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq Ajuz momo).

AHRORIY (Samarqand) Xalq seleksiyasida yaratilgan, mevasi yirik, och sariq, qizil, ba'zan zarg'aldoq, eti qalin, sershira bo'lgan ertapishar o'rik navi. *Bekorchi suv sal ko'llab qolgan joylarda ituzumlar qur soladi. Qizil, qora, sariq deganday. Keyin ko'ksultonlar aralashgan o'rikzor. Ko'rsodiq, subhoni, **ahroriy**, qizil yuz otliq.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

AHVOLLASHMOQ (Surx.-Qashq.) Hol-ahvol so'ramoq, salomlashmoq. *Rais o'ziga qarashli yasovul va navkarlar bilan bozorga kiribdi.*

Odamlar bilan so‘rashib, **ahvollar** o‘taveribdi. (Shukur Xolmirzayev, Ota yurt). Ertalab **ahvollar**, “Yaxshi bog‘larsan, og‘rig‘i qoldi” dedilar hech narsa bo‘lmagandek. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Sattor chovog‘on-da, xirmondagilar bilan **ahvollar** bo‘lib, ularga yaqinroq joydagi bug‘doy choshiga yonbosh urib, oyog‘iga dam bergan bo‘ldi. (Rajab Xolbek, Qora yo‘rg‘a).

AFSONAK (Thermopsis alpina) Burchoqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘tlar turkumi. – *Sen, jirg‘anoq, sharbat bo‘lasan... qariqiz, sen kasallarni terlatasan... yulg‘in, pismiq, nega yashirinyapsan? Arilarga asalni kim beradi, tentak! Afsonak! Zaharliman deb xafamisan?* (Usmon Azim, G‘oz). Tibbiyotda **afsonak**ning damlamasidan ko‘p kasalliklarni davolashda foydalaniladi. **Afsonak**ning shifobaxshligi shundaki, u shamollash, gripp, bronxit, bosh og‘rig‘i va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. (Odilshoh Bobokalonov, Shifobaxsh o‘simlik nomlarining leksik-semantik xususiyatlari).

AJINABUTA (Jizzax) Na‘matak. *Qayerda ajinabuta bo‘lsa, chet-chakalak, ovloq joylarda, paxtazorlardagi egasiz shiyponlarda, hatto qishloqlarning ichidagi odam turmaydigan choldevorlarda ham bu kaso-fat bisyor uchrab turgan.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar). *Bu sizga ajinabutaning tagida o‘tirib, o‘zi ko‘rinmay, bolalarni qo‘rqitadigan shunchaki qitmir ajina ham emas.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

AJINAPITTA (Jizzax) Na‘matak. *Lekin undan ham keng tarqalgan oti “ajinapitta”, ya‘ni “ajinabuta”. Chunki ilgarilari hamma joyda bor edi, barining tagida kamida bittadan, bo‘lmasa, uch-to‘rttadan ajina o‘tirgan.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

AKKOL (Buxoro) Chillak o‘yini. **Akkol** o‘ynab yurganlar bilsin o‘yin totini. *Davrni bermaganlar Davcha bobom xotini! “Qo‘shiq”.* **Akkol** – chillik qang‘illab uchadi. *Ikki uchi rosa tekislangan. Ikki tumshuqli burgutqushday.* (Oydin Hojiyeva, Chillik o‘yini).

AL (Xorazm). Qo‘l. – *To‘ydim, ota, ko‘p yedim, – dedi Polvon va gapni davom ettirdi, – alimdan kelgancha ko‘maklashaman.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). *Go‘ro‘g‘li shunda dutorini aliga olib yigitlarga qarab*

bir qo‘shiq boshladi. (“Gulruh pari”). Bir ko‘rishga xumorim bor, Dod, alimdan getdi ro‘mol. (“O‘zbek xalq qo‘shiqlari”). – Alingni bar, polvon! – Qo‘lini uzatishga iymajib turgan Qutlug‘murod tomon sal engashib, qo‘lidan tutib tortdi. (Komil Avaz, Sozanda).

ALAMAZON (Farg‘ona) O‘t, olovning gurullab yonishi. *Laylak o‘tib g‘oz keldi, bahor ketib yoz keldi. Jo‘jalar xo‘rozga, kurtaklar charosga aylandi. Boshloqlarga o‘roq, qovunlarga pichoq tegib, jazlar bir qozon, tandirdagi o‘tlar **alamazon** bo‘ldi. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari). Bu orada qizlar kelinni davra o‘rtasiga boshlab kirishdi, **alamazon** qilib yoqilgan gulxan tegrasida aylantirib, “yor-yor”ni avjga chiqarishdi. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).*

ALGOV (Qashqadaryo) Ehtiyoji bor narsani boshqalardan vaqtincha olib turish va berib turish. *Algov qilib xashaklarni tashib oldi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

ALLA: Allada aziz-to‘rvada mayiz Juda ehtiyotlamoq, erkalamoq. *Aslida esa, hozircha **allada aziz-to‘rvada mayiz** bo‘lib turgan Ding Gouverdek arzanda mehmonning oxurdan bosh ko‘tarmay kavshanayotgan ho‘kizdan yo to‘ng‘izdan ko‘pda farqi yo‘q. (Xurshid Do‘stmuhammad, Razolat saltanatiga sayohat). Qachonlardir bu oiladagilar Shunqorbekni **allada aziz, to‘rvada mayiz** qilishardi. (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). U [Karomatxon] gumroh banda hech narsadan bexabar qizini **allada aziz, to‘rvada mayiz** qilib yuribdi. Buvasi tengi chol bilan gap-so‘z bo‘lganiga chidolmay sochini yulib, olamni buzmoqchi. (Emin Usmon, Tomir). Sevara oilaning erkatoyi edi. **Allada aziz, to‘rvada mayiz** bo‘lib o‘sayotgandi. Ammo o‘n to‘rt yoshga yetar-etmas kutilmaganda onasidan ayrilib qoldi. (Gulnoz Mamarasulova, Armonga aylangan baxt).*

ALLABESHİK (Qashqadaryo) Belanchak. *Hammadan oldin kelgan Hayitgul hayallamay **allabeshik** (halg‘ushtak)ning pardasini ko‘tardi, unda belangan bola qop-qora bo‘g‘ilib, hushsiz yotardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

ANDA (Namangan) Qudaning qudasi. *Birinchi gal qudalari **andalar** bilan aralashib o‘tirishgan ekan. (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).*

ANGOR Hosil o‘rib olingan dala. *Archalar tagidagi o‘t-o‘lanlar tonggi qirovlardan yiltirab qoldi. Qo‘ylar qishloq etagidagi angorlarga qaytdi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar). *Angordagi shuvoq shoxlarida panoh topgan to‘rg‘aylar sayray boshlapti.* (Shoyim Bo‘tayeov, Yulduzlarga eltar yo‘l). *Saraton jaziramasidan sarg‘aygan adirlar, suruv-suruv qo‘ylar tuyog‘idan taqiri chiqib ketgan tog‘ etaklari, angor va yaylovlarga yana jon kirdi.* (Nurali Qobul, Kechikkan turnalar). *Hosili o‘rib olingan angorlar oftobning bo‘z rangida ohorsiz ko‘rinardi.* (Hamid Alp, Zuryod).

ANJIRNAK (Namangan) Rangi to‘q. *Kampir nevarasini har kechikkanidagi kabi yana uchib-qo‘nib kutib oldi, cho‘g‘da turib anjirnak bo‘lgan choydan quyib uzatdi.* (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

ANQILDOQ (Xorazm) Sodda. *Hay mayli, qizning uzatilishi xudoning buyrug‘i. Ammo qanday odamga, qanday xo‘jalikka tushadi u? Shumlikni bilmaydi, og‘zi ochiq, anqildoq, sodda.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

APRAN (Qashqadaryo) Bo‘yalgan junlardan to‘qilgan, naqshinkor kigiz. *Mehmonlarni apran kigiz to‘shalgan qurga o‘tqazishdi, dasturxonga non tashlab, quruq meva sochishdi, korson tovoqlarda qaynatma sho‘rva-yu go‘shni muchasi bilan qo‘yishdi, izidan palovni tortishdi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

AQBA (Jizzax) Tog‘ yo‘li, dovon. *Qarasam, boya eshak yetaklab osmonda yurgan odamning o‘rnida tikkalab ketgan baland tog‘ so‘qmog‘i, aqba deydimi, shunda hali ham odamlar yuribdi, birovi o‘roq, birovi yelkasiga arqon tashlab, birovi o‘tin yelkalab tushyapti.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

AQQOL 1. Zo‘r. “E-eh-he! *Aqqol solibdi bu!*”, degan ekan, shig‘il solib turgan yong‘oq bechora shu zahoti o‘rtasidan qars ayrilib, sinib tushibdi. (Ahmad A‘zam, Oyimning garashalari). *Mana, Toshkent to‘la yaxshi qizlar. Hozir buning dugonasini ko‘rdingizmi? Aqqol qiz! O‘ladimi shunaqasidan topsa!* (Ahmad A‘zam, O‘zi uylanmagan sovchi). “*Puling ko‘paygan bo‘lsa, bolalarni o‘qit, kelinni olib sanatoriya bor, dam ol,*” deb [tog‘aning] dars berarini *aqqol yaxshi bilarding!*” (Abdusaid Ko‘chimov, Tubsiz quduq). **2** Sira, aslo. – *Davlatbekovning bo‘limiga aqqol kel-*

mayman degan edim, o'rtiq Mansurov qo'y madilar. Bo keldim. (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar).

ARABI XOL (Buxoro) Bo'rtma xol. *Baland bo'yli oq sariqdan kelgan, iyaklarida arabi xollari, xollari ustida tuklari ham bor opam ishga borgani-borgan.* (Oydin Hojiyeva, Mehtar bobo).

ARAQ-ARAQ Biror narsani aniqroq bilib olish uchun tikilib-tikilib qarash. *Uzoqdan qaradim araq-araq. Qoshiga bordim, zar xalak.* (Topishmoq. Javobi – o'rik)

ARAVA(K) (Xorazm) Burunga taqiladigan ayollar taqinchog'i. *Elda ochlik hukmron bo'lganidan ayollar kelinlik seplariidagi uzuk, bilaguzuk, isirg'a, arava (burun taqinchog'i), tuzuv va hokazo qimmatbaho buyumlarini do'konga topshirishardi-da, ularning qiymatiga arzimagan miqdordagi unni ko'tarib kelishardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Bunda sirg'a burunning ikki chetiga, burun paraklariga hamda burun o'rta devoriga taqilgan. Shunga ko'ra bu sirg'alar lativa, izmak, aravak (arabak) kabi nomlar bilan yuritilgan bo'lsa, o'rta devorga taqilganlari bo'lovi, burun baldoq deb ham yuritilgan.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).

ARBAMOQ (Qashqadaryo) Olqishlamoq, undamoq; ruhini ko'tarmoq. *Daho urush ishtirokchilarini ruhan arbadi, qalban eladi.* (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i). *Tevarak suv sepganday jimjit bo'ldi. Faqat Tilovberdi polvon bilan Abray polvon nafasi eshitildi. Polvonlar bir-birini ruhan arbadi!* (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

ARJA (Xorazm) Sandiq. *Boyning xotini yigitni to'rda turgan temir arjaga solib qo'yibdi-da, borib eshikni ochib, erini izzat-ikrom bilan kutib olibdi.* ("Osma savat" ertagi). *Do'konxonaga aylangan uydan talakka kirdim. Ilgari bordon-bordon har xil don-dun, ko'zalar to'la mol yog'i, arja-parja mol-mulk saqlanadigan talak bo'm-bo'sh edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Onam va elim bag'rida). *Arja-arja pul yig'gankim yana bo'lsa arja der, Puli yo'qkim ul g'ariblar bo'lsa der bir dona pul.* (Boltaboy Muhammad Qurbon, Jummi doyi hangomalari).

ARJACHI (Xorazm) Sandiqchi. *Qishloqlardagi, qal'alardagi temirchilar, elakchilar, dapmachilar, misgarlar, novvoylar, pozachilar,*

orvachilar, kuchanchilar, **arjachilar** va boshqa kosiblarning holi ne kechadi? (Komil Avaz, Sozanda).

ARLON Bo'ri, itning erkagi. *Faqat bir marta qaysidir cho'pon uning zo'r arlon bilan yurganini ko'rib qolgan.* (Soyim Is'hoq, Vafodor). *Tog'a qanjiqni yo'qotib, arlon it asrashni maslahat berarkan, kuchukvachchalarni choponi bariga solib, tomorqa adog'iga oborib tashladi.* (Normurod Norqobilov, Oqbo'yin). *Duch kelgan qo'yni bo'g'izlab borayotgan ulkan arloni bo'rining oldini to'sib chiqdi.* (Bahodir Abdurazzoq, Qiron).

ARMANMOQ Aylanmoq. – *Hammasining bosh sababi – oilaning asosiy yurituvchi kuchi – ayolning o'ta bandligida. Ayol hozir shaharda ham (qishloq ayoli haqida-ku gap aytmay qo'ya qolay) davlat idorasi, uy, bozor-o'char, mehmon-izmon o'rtasida bo'zchining mokisiga armandi.* (Halima Xudoyberdiyeva, Yuragimning og'riq nuqtalari).

ARSLONQUYRUQ (Leonurus turkestanicus) Tabobatda tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llanadigan, tukli, ko'p yillik o'tsimon o'simlik. *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochaqirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittonvon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li). *Sabohat to'rvani ochib dastalangan arslonquyruq, do'lana, na'matak, kiyiko't va boshqa giyohlarni tabibning oldiga qo'ydi.* (Erkin Samandar, Afsungar gul).

ARRATO'PON (Farg'ona) Qipiq. *Ombor to'la yem, g'aram-g'aram pichanlar, issiqqina og'ilxona. Buning ustiga, ular yotgan joylarni o'z vaqtida tozalashib, taglariga yumshoqqina arrato'pon sepib qo'yishadi.* (Anvar Obidjon, Qo'ng'iroq o'g'risi).

ARVOHKAPALAK Kechasi chiroq yorug'iga keladigan hajmi nisbatan katta, qo'ng'ir rangli kapalak. *Namozshomgulning boshiga katta chiroyli arvohkapalak qo'nadi. Qiziq, arvohkapalaklar, odatda, tunda kelardi-ku.* (Halima Ahmedova, Buxoroga qaytish). *Kapalak qo'rquv va hadikni ham unutgancha to'ppa-to'g'ri mening boshim ustida doira solib, aylanib ucha boshladi. Men unga ko'zim tushib, beixtiyor ko'nglimdan arvohkapalak bo'lsa kerak, degan o'y kechdi-yu, birdan sergak tortdim. Men tabiatan irim-sirimlarga unchalik ishonmasdim.* (Shodiqul Ham-

ro, Qaqnus qanotidagi umr). *Oradan bir hafta o'tib, Mansur uy xonasini supurar ekan, radiator tagida o'sha arvohtkapalakning jonsiz yotganini ko'rdi.* (Nodir Normatov, Bisot).

ARVOHONA O'tganlar xotirasiga atalgan xudoyi. *Eng avvalida arvoh oshi yoki arvohona degan marosim bo'ldi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

ARXARO'T (Angelica ternata) Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog'li tumanlarining daryo bo'ylarida, shag'alli va toshli yerlarida o'sadigan, ziradoshlar oilasiga mansub o'qildizli ko'p yillik o'simlik. *Qoyalar orasida, yarimtoshloq maydonlarda buta, chal-abuta va o'tlardan yostiqsimon tikanli buta, na'matak turlari, uchqat va pakana zarang, to'ng'izsirt, ermon shuvoq, yaylov ko'kamaroni, tog' astragali, ovcho'p, arxaro't, ayiqtovon, gulkarrak, olchin, tangacho'p, tilovo't, tog'chalov, tulkidum, ayiqquloq, g'ozpanja kabi turlardan iborat qoplam hosil bo'lgan.* (Xo'jamqulov B.E., Eshonqulov E.Y. Hisor davlat qo'riqxonasining bioxilma-xillikni asrashdagi ahamiyati).

ARZIK q. **arziq**. *Oyog'imning tagida chaqaloqning kallasidan chog'roq arzik kesak turgan ekan.* (Oxunjon Hakim, Cho'chqa mingan chavandozlar).

ARZIQ (Farg'ona) Tarkibida ohak, bo'r bo'lgan, changsimon oq tuproq. *Bir vaqtlar qishloq o'rnida arziq tuproqli tepalik bo'lgan edi.* (Mansurxo'ja Xo'jayev, Tilsimotli Dang'ara). *Bu tuproqlar allyuvial tartibtdagi o'tloqi tuproqlarga nisbatan chirindiga boy, strukturali va "arziq" hamda "sho'x" qatlamlarining mavjudligi bilan ajralib turadi.* (Alijon Maqsudov, O'zbekiston tuproqlari).

ARG'AMCHI (Surxondaryo) Ilon. – *Tinchlik, jiyan, – dedi o'ylanib. – Shu... g'orda nimadir borday. Inraganday bo'ldi. Na odamga, na hayvonga o'xshaydi... Kim biladi, biror jonivor yomg'irdan qochib kirganmi... – Arg'amchi bo'lsa kerak-da! Ular odamday ovoz chiqaradi, deb edingiz! – Avrayotgan mahaldagina tovush beradi. – Arg'amchining ko'zi yilda bir marta yonarmish. Buni ko'rgan odam boy bo'larmish. Shu chinmi, tog'a?* (Dilmurod Sodiqov, O'zidan qochayotgan odam).

ASIRMOQ (Xorazm, Iqon) O'zidan ketmoq, quturmoq. – *Mol-dunyo kishini asirtadi, – dedi yo'talib turib chol va o'zini rostlab olgach: – xa-*

torimiz ko'payar ekan, endi g'iring dab go'r-chi, belingda o'mcha sinadi. (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

ASPAK (Jizzax) Daraxtning kanasi, qalqondor hasharot. *Manovillarding **aspak** so'rganday bo'lib qolgan rangiga qarang. Yaxshi ovqat yeb turganida shunday bo'lmasdi.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

ATIRQOVUN (Melo dudaim) Xushbo'yligi bilan boshqa qovunlardan ajralib turadigan mevasi dumaloq qovun turi. *Atirqovun O'zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida, ayniqsa, Surxondaryo va Xorazm viloyatida manzarali o'simlik sifatida ekiladi.* (O'zME).

ATISHAK (Qashqadaryo) Jin, ajina. **Atishak chalgan** Ozg'in. *Toshmurodning chirqillab turgan olti bolasining oh-vohlari, **atishak chalgan** turshakday bujmayib qolgan kampir-enaning duo-olqishlari, nolalari ham jamolini ko'rmay turib sig'inadigan Ollohimning dargohiga yetib bormayapti.* (G'ozzi Rahmon, Oqibat so'qmog'ida).

AXTACHI Baytar, mollarni axta qiluvchi. *Galdagi mudhish zarba Abdul **axtachi** tutgan to'garak qalqonga tegdi qarsillab!* (Asad Dilmurod, Mezon burji). *Birinchi chopganda, qilich hazrat sohibqironning boshiga tushishi mumkin edi, Odil **axtachi** qalqoni bilan uni to'sib qoldi.* (Bo'ri-boy Ahmedov, Amir Temur).

AVQOLAMOQ Uqalamoq. – *Oyoqlarimni **avqolab** qo'y, bacham. Sani qo'llaring biram yumshoq, issiq.* (Oydin Hojiyeva, Mehtar bobo).

AYAMAJUZ Qishning oxirgi haftasi. *Qish bilan bahor jangi – **ayamajuz** kechalaridan birida men sizlarga Amir Temur haqidagi afsonalarning birini hikoya qilib berish maqsadida qo'linga qalam oldim.* (Xurshid Davron, Amir Temur o'g'lining o'limi haqida rivoyat). – *Ayamajuzi nima? – so'raymiz qaysidir birimiz o'zimiz uchun yangi atama sirini ayon qilib olish niyatida qiziqsinib. – Ayamajuz to'qsonni yakunlab beradigan olti kunning nomi.* (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq Ajuz momo).

AYDARI (Surxondaryo) Katta ilon, ajdarho. *Tog'am tulkini yomon ko'radi. Uchratib qolsa, "zoti past", deb so'kadi va o'ng yengidan ip uzib, tutatib yuboradi. Shunday irimchi odam nega buncha g'orga tikiladi? Tag'in **aydarimasmikin?** Voy, gapim qursin, **aydari** degani juda dahshat-*

ku! Uning qorasi o'chsin. Unga hech bir jonzot bas kelolmaydi. (Dilmurod Sodiqov, O'zidan qochayotgan odam).

AYIQQULOQ (Folium Uvae ursi) Barglari tuxumsimon, etli, oshlovchi modda olinadigan, shuningdek, tabobatda qo'llanadigan ko'p yillik buta. *U ayiqquloqning barglarini sidirib avval ko'zlariga surtdi. "Xudoga shukur, bismilloh, baniyati shifo", – deya ularni chaynay boshladi.* (Nabijon Hoshimov, Arosat dunyo). *Klotilde Armentaning ular tag'in do'konga qaytishganda avvalgi vajohatlari yo'qligini sezgani bir hisobda ayni muddao bo'lgan, ularga o'zlariga kelishar, degan umidda bir shisha ayiqquloq qaynatmasidan solingan musallas bergan, ichinglar, degan.* (G.G.Markes, Oshkora qotillik qissasi – Tohir Qahhor tarjimai). *Tumanda mavjud bo'lgan yovvoyi pista, do'lana, achchiq bodom, uchqot, tug'dona, zirk, chakanda (oblepixa) va boshqa noyob daraxtlar; zas dug'boy, andus, kovrak, ayiqquloq, choy o'ti, xarron, ipor, o'lmas o't, qon tepar, oq chayir, kiyik o'ti va boshqa dorivor o'tlardan turli xil dorivor mahsulotlar tayyorlab turli xil shaklda qadoqlab chetga eksport qilish mumkin.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).

AYIRMA Farq. *Ikki o'rim sochini jamalak qilib orqasiga tashlab yurguvchi, ko'rinishi, yurish turishi, bo'y basti bilan tengqurlaridan hech ayirmasi yo'q, hatto o'g'il bolalarnikiga o'xshagan katta burni yuziga uncha yarashmagan bu qizni nega shunchalik yoqtirib qolganligini hozirgacha bilmaydi.* (Shuhrat Matkarim, Og'riq). *Buni qarangki, yillar va raqamlar ayirmasi solishtirilganda, Monteskyening O'zbeki bilan deyarli tengdosh bo'lib chiqdi Ashurboy. Demakki, qizginaning uni "Fors maktublari" da tasvirlangan O'zbek deb qabul qilishida jon bor.* (Ne'mat Arslon, Ashirit).

AYRI (Xorazm, Iqon) Panshaxa. *Otam va akamlarning otlar tuyog'i ostidagi bug'doy poyasini ayri – panshaxalar bilan tez-tez ag'darib turganidan ko'tarilgan chang-chunglar dimoqqa urilarkan, nafas olish qiynlashadi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

AYRIT Farq. **Ayrit qilmoq** (Xorazm) Farqlamoq. *Xalqdan bir ko'z tashlash bilan qil ayrit Xalqman, deb kerilgan podani.* (Matnazar Abulhakim, Chaqaloq). *Tushmi o'ngligini ayrit qilolmay, ajrata olmay boshi bir zum g'uvulladi.* (Bahodir Qobul, Ota chiroq). **Ayrit bo'lmoq** Ajral-

moq. *Hali Eson akaning uliminanam orasi pichoqminan kesganday ayrit bo'lmagan.* (Hamid Elxon, Maynagul).

AYTUVCHI To'y-ta'ziya marosimlariga xabar beruvchi; jarchi. *Kech kuzning zaharday sovuq, turushdan turush havosi olako'sov qirov bosgan tongidan yelkasi tirishibgina uyg'ongan qishloqni aytuvchining do'rillagan ovozi bosadi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

AYG'IRQIYOQ (Léymus) Ko'p yillik boshoqli o'simlik. *Ayg'irqiyog degani ham shudir-da, a? Yoz kunlari qiyoqni o'tkir o'roqda o'rib olib, o'tga, pichanga bog' qilamiz, sovuq kuz kunlari, paxta terimida huzurijon gulxan, to'pi ko'kka qadar lovullab yonar, ko'klamda esa hech narsani ko'rmagandek, yana gurkirab bo'y cho'zar edi.* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).

AZOT [f.-t. **az zot** – tagi bilan] Yaxlit, bor bo'yi bilan. *Qoyadan azot ko'rinib turadigan, enlab o'sgan sershox qora do'lana tagida nimadir g'imirlaganday... (Azim Suyun, Tillaburamashox). Xola azot o'rnidan turib ostonaga yo'naldi.* (Oydin Hojiyeva, Bug'doyga qop). *...o'rnidan azot turib, bu yoqqa, biz tomonga qaradi, nigohi meni ham bepisand kesib o'tdi, ayol mendan ikki qator oldinda o'tirgan edi, kattakon yo kattakonning xotiniga o'xshamadi shekilli, siltab tashladi... (Ahmad A'zam, Avtobus). Keyin, keyin son-sanoqsiz yaltiroq nayzalar soylarni azot teshib, chaqmoqday kelib buloq boshiga bosh uradi.* (Bahodir Qobul, Ko'klam so'ngidagi jala). **Azot ko'tarmoq** Dast ko'tarmoq. *Shu asnoda bellarimdan mahkam quchib meni azot ko'tardi-yu chap yelkasidan oshirib yerga tashladi.* (Luqmon Bo'rixon, Quyosh hali botmagan).

ACHCHIQMAG'IZ Ko'ngilsiz gap, noxush holat. *Sirasi, agar ke-
linning gapini so'zma-so'z tahlil qilgandayam momoga tegishli joyi to-
pilmaydi. Nega deganda, qaynona-kelin o'rtasida hali biror marta ach-
chiqmag'iz gap o'tmagan.* (Kamil Avaz, Yoqut momo).

AG'DARISHMOQ Bir-birini yiqitishdan iborat milliy o'yin. *Ag'darishmoq soz o'yin, Polvonlar egmas bo'yin. Davrani keng olamiz, Chunki tengqur bolamiz.* (Tursunboy Adashboyev, Ag'darishmoq).

ANG Ovlanadigan hayvon. *Yo'lbars qirqqa kirsam ham, yeyishi – ang, qarg'a mingga kirsam ham, yeyishi – go'ng.* Maqol.

ANGIMOQ (Samarqand) Anglmoq, tushunmoq. *Oqdaladan terilgan mashoqqa birov ega chiqmasini, "Qaroqchiyam mashoqdan qo'rqadi, ot-dan tushib ko'ziga surtadi", degan gapni sal **angidim**, chog'i. Isqotga nima uchun bug'doy qo'yilishini **angigandayman**.* (Bahodir Qobul, Oqda-la).

ANGSARMOQ (Qashqadaryo) Fahmlamoq. *Yigitning yuragi qinidan chiqayozdi. Qo'lida fonus ko'targan Maynagul ko'rindi, oshxonaga o'taverib to'xtadi, birpas nimagadir **angsarib** quloq tutgach belini bilqillat-gancha, oshxonaga kirib ketdi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

B

BADIGA URMOQ Joniga tegmoq. *Tashqaridan qaragan odam darhol payqashi qiyin emas – yoshi katta soqchi xizmati obdon **badiga urgan** shekilli, erinchoqlik bilan alpang-talpanlab qadam tashlamoqda.* (Xurshid Do'stmuhammad, Yolg'iz). *Bekorchilik **badiga urgan** Qamar Jontoy ilmoqli gap qildi.* (Asad Dilmurod, Oq Ajdar sayyorasi). *Bir kun o'tar-o'tmas zig'irdekkinaning ustaning shoshirishlari joniga tegdi, ikkinchi kuni esa, notanish cho'lning o'zi **badiga urdi**.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). *Tesha momoning o'n qadam ham yurmasdan kavushining ichini ko'mib ketayotgan tuproq ko'cha **badiga urdi**.* (Javlon Jovliyev, Ko'k, oq va ola kaptarlar).

BADAMAL Asov. *Otam bir yil eshak sotib oldi, bu eshak **badamal** chiqdi, uni har kim minolmas edi, mingan odamni diringlab ustidan otib tashlardi.* (Sadridin Ayniy, Esdaliklar). *To'y xabarini eshitgach, u [Norkalla] sal **badamal**roq bo'lsa ham mashhur uloqchi oti Bo'zdingakni minib bo'yinsalari bilan Olmurut qaydasan, deb yo'lga tushdi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

BADASH (Surxondaryo) Surxondaryo vohasiga xos, asosan, daf (doira) cholg'usida ijro etiladigan musiqiy yo'nalish. ***Badash** ohang, kuy, nola, nag'ma (na'ma) singari to'rt usulning birgalikda daf (doira) orqali ifodalanishidan hosil bo'ladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

BADIK Kishi tanasiga qizilcha, eshakyemi va boshqa toshmalar toshganda, ularni “daf etish” uchun badikxon (badik aytuvchi)lar tomonidan ijro etiladigan aytim, folklor janri. *Qo ‘bizingni qo ‘lga ol-da nag‘ma tort, “Qirq qiz”ingni chorla badik aytgali.* (Hol Muhammad Hasan, Qoraqalpog‘im).

BAHORYURT (Surx.-Qashq.) Chorvadorlar yoki eliboylar bahorda mollarini boqadigan yaylov. *Bahoryurt deb atalmish yaylovda yashashadi, chorva bilan shug‘ullanishadi. Ularning yashash tarzi o‘ziga xos.* (Nodir Normatov, Boysunlik Gogen). *Qo ‘yining hisobini birov bilmasdi, cho‘ponlari bahoryurtga ko‘chish mahalda suruvlarni bu yil qirq chiqarsa, keyingi yil qirq bir chiqarardi.* (Shodmonqul Salom, Ona tili ulug‘ kemadir). *Bahori tugab, yuksak tog‘larga – bahoryurtga yo‘l olgan cho‘pon-cho‘liqni qori erimaydigan manzillarga eltib, ularning qo‘shxonasi, o‘tov anjomlarini tog‘ga ko‘chirib qaytgan qo‘ng‘ir nortuyalar yo‘l-yo‘lakay tuyaqorin, shuvoq, qo‘ng‘irboshlarni terib yeb, dashtlarga kelib joylashadi.* (Shavkat Salom, Saraton).

BANDI (Jizzax) Otning butun tanasiga chiqqan yara. *To‘riq ot: Bo‘ynimdan yol, tanamdan kuchim ketdi, Axiri bandi bo‘lib, ichim ketdi.* (To‘ra Sulaymon, Suyunboy oqin).

BASQOQ (Qashqadaryo) Mollarda vitamin yetishmasligidan kelib chiqadigan kasallik. *Bazmga bor, to‘yga bor, to‘rga chiqib to‘k viqor, Otga o‘tar qo‘shganing basqoq uloq bo‘lsa-da.* (Hol Muhammad Hasan, Bo‘lsa-da). *Basqoq tuya misol g‘ofil olomon! Arosat! Qurt bosgan Farosat! Mog‘orlagan Fikr! Moy bosgan Vijdon!* (Amir Xudoyberdi, Pandemiya).

BARAK (Xorazm) Chuchvara. *Barak odatdagidek qirg‘oqlari ichkari tomon qayrilgan katta yog‘och tovoq karsanda edi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Aytishlaricha Polvon bir o‘tirishda yetmish yumurtadan bo‘lgan barakni yegan, karsanda qolgan ayronini ham tomchi qoldirmay simirgan, guldirak ovozi birinchi eshitganda uncha-muncha odamni cho‘chitib ham yuborishi mumkin ekan.* (Shuhrat Matkarim, Ziyod muallim).

BAVAK (Xorazm) Chaqaloq. *Sut, qatiq, obi yovg‘on bilan qorni to‘ygan Yoqitning kayfiyati yaxshilangani bavakka ham o‘tdimi, tinchgina*

*uxlab qoldi. (Komil Avaz, Yoqut momo). – Tavba, o‘zi bir **bavakning kaf-tidayin otiz bo‘lsa, unga shaharlik chigirtkalar ham yopirilganiga o‘lay-mi, – dedi ataylab Qamarsultonga tekkizib. (Komil Avaz, Sozanda).***

BAXNA (Xorazm) Qaram, mute. *Bo‘lmasin deb yog‘du Zulmatga **baxna** rangni jangga soldim, topolmagach so‘z. (Matnazar Abdulhakim, Men yaratgan dunyo).*

BAXNALIK Qaramlik. *Yana odil bo‘lsa davlatboshilar: bitirsa kishining **baxnaligini**, ayniqsa, ezmasa bolalarini. (Qutlibeka Rahimbekova, Haqboy buvaning sodda falsafasi).*

BAXSHI (Qashqadaryo) Folbin. *Ko‘rdim, dedi erkak ishonch bilan. – Fol ko‘rsatibdi, **baxshi** xayrli gaplardan aytibdi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

BAYMOQ Qiyshiq. *Anvar yebdi qaymoq. Og‘zi bo‘bdi **baymoq**. (“Chittigul”). Aslida bu odamning yengi kalta, sho‘r bosgan, yoqasi kir, g‘ijim ko‘ylagiga, tizzasi qopday bo‘lib qolgan shimiga, rangsizlangan, **baymoq** tuflisiga boqib, qachonlardir men o‘qigan joyda tahsil olganiga ishongim kelmaydi. (Ismoil Shomurodov, Gazeta umrga o‘xshaydi). Kampirning kuyovi-ku, go‘l, nimjon bola ekan, bir zumda ko‘zi g‘ilay, og‘zini **baymoq** qilib tashladim. (Anvar Muqimov, “Ne ko‘ylarga tushdim mano...”)*

BEDANATUT (Farg‘ona) Bedona tut. – *Manavi shinni **bedanatutni** kimi deyman? – beparvo turib Mutal-maynavozga savol berdi u. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari). Eng avval oq **bedanatut** pishib berardi. Novdalarida oppoq marjondek tizilib turgan tut mevalarini cho‘qilab butoqdan-butoqqa uchib-qo‘nib yurgan chumchuqlar galasi shodiyonasi-ni ko‘ring! (Ohunjon Hakim, Cho‘chqa mingan chavandozlar).*

BEDAR Nom-nishonsiz. *Jarlar ustiga katta quvurlar o‘tkazish uchun to‘rt so‘m-besh so‘mdan yig‘dirib traktorining qo‘liga tutqazgan, so‘ng boshida turib **bedar** ketayotgan soy suvidan adoqdagi hovlilar qurilishiga, ko‘p tomorqali bo‘lib qolishiga ham shu kampir kattalik qilgan. (Sobir O‘nar, Vijdon).*

BEDOV (Jizzax, Qashqadaryo) Tug‘mas. *Senday bebaxtni tug‘may men o‘lay, qizim! Nasl-nasabimizda tuvmas xotin degan, **bedov** degan*

tavqila'nat tamg'asini olgan ayolding o'zi bo'lmag'an. (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). *Qani endi unga ham xudoyim shu baxtni nasib etsa, "tug'mas, bedov" degan tavqi la'natni ko'tarib yurguncha to'lg'oq azobida o'lib ketsa ham mayli edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Kimdandir arazlaganday lab-lunji osilgan, afti-angori alamzada erning jahl ustida ko'tarilgan mushtidan ko'kargan bedov xotinning qosh-qovog'i misol g'amboda qisir bulutlar tubsiz osmonning qayeriga borishni bilmay, ilohiy hukmni kutgancha mag'rib-u mashriqda serrayib turib qoladi.* (G'ozī Rahmon, Ajriq va ayol).

BEJAY (Qurama shevalari) *Juda, rosa. – Sigiriyam o'liptimi? – uning gapini bo'ldi endi davraga qo'shilgan ayol hovliqib. – Bejay zotdor edida, esiz!* (Shahodat Isaxonova, Tosh nok).

BEJAG'IM (Qashqadaryo) *Yoqimsiz, noma'qul, xush kelmaydigan. Agar bilsangiz, meni hatto otam chertmagan. – Bu bejag'im qilg'ing uchun seni urish emas, urib o'ldirish ham kam.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). – *Seni ko'rgani kelarmidik? – dedi yigitchaning chimxo'r buqachanikiday bejag'im harakatlaridan ensasi qotib, fe'li aynigan Muhammad. – Uyingga borsak, shoxlab quvarkansan-da?..* (Abdusaid Ko'chimov, Cho'qqidagi quyosh).

BEJAG'IMLIK (Qashqadaryo, Samarqand) **1.** *Yoqimsiz qiliq qilish. Birona qurt-qumursqa bejag'imlik qilib qo'ymasin, mehmon ekan deb hunar ko'rsatmasin, bolalar qo'rqmasin, begona emas, ota-ena arvohlari qarab turibdi degan o'yda bo'ladi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li). **2.** *Sho'xlik, to'polonchilik. Egizaklar bejag'imligini qo'ymaydi. Qulog'iga gap kirmaydi.* (Bahodir Qobul, Bog'dagul).

BEKLARO'TI (Echinophora sibtorpiana Guss.) *Soyabonguldoshlar oilasiga mansub adirda o'sadigan yem-xashak ko'p yillik o't. Yuqori adirlarda esa bodomcha, izen, tersken, oqshuvoq, ravoch, gulxayri, andiz, beklaro'ti, shirach, ajriq, bug'doyiq, qatron, cho'lsabzi, no'xotak va boshqalar uchraydi.* (O.T. Mirzamahmudov, K.M. Boymirzayev, Naman-gan viloyati adirlarining landshaft-ekologik sharoitini baholash).

BEKTOSH *q. beshtosh.* *Qora toldan uzun dudik chiqarib, jamalak sochlariga qo‘shib o‘rganlari-yu, bektosh o‘ynab quvnaganlarini biri olib biri qo‘ydi.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

BELAMAK Varrakning o‘rta beliga ko‘ndalang qilib yopishtiriladigan o‘rta cho‘p yoki qamish. *Belamagi bequvvat bo‘lsa, beli mayishar.* (Maqol).

BELDOV (Surxondaryo) O‘tovning belidan mahkam tortib bo‘zag‘a yog‘ochiga bog‘lanadigan, jundan qilingan arqon. *O‘tov tikdi o‘tovi... chang‘arag‘i to‘lin oy, beldovlari barqutdan...* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon). *Kun aynigan vaqtda to‘rtta ipni beldovga mahkam tortib bog‘lashadi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

BELQARS (Qashqadaryo) To‘y-tantanalarda taqiladigan, zar bilan bezatilgan belbog‘. *Kuyov belqars o‘ray-o‘ray eshik sari yurdi.* (Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom). *[Enasi bolaning] Egniga zarbof, uqali to‘n kiydirib, beliga shohi belqars bog‘ladi.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a). *Jumaqulboyga fotiha qilinganidan beri shosha-pisha dastro‘mol, belqars tikayotgan, ularning girdo-girdiga pirpirak munchoq o‘tkazayotgan qizning tun-u kun o‘ylagani shul: “Mana shu o‘rtadagi katta qir kelin bo‘lib ketayotganimda cho‘kkan tuyaday pasayib tursa bas...”* (G‘ozi Rahmon, Qo‘sh kabutar chizilgan uy). *Yosh kelinchak Moviya inja gullar chekib, o‘z qo‘li bilan belqars tayyorlashni niyat qildi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

BEQILIQ 1. Yoqimsiz qiliqli. *Ko‘ylaklarni ko‘yi og‘ir. Ko‘ylaklar jiqqa ho‘l bo‘lmagan vaqtlar beqiliq xushtorday o‘zicha qizlarning bir g‘uchchasiga tegib, bir quymichni quchib yurgandi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). **2.** Ilmoqli. *Ilk hikoyamni gazetaga tayyorlayotgan Ahmad Otaboyevga beqiliq savollar beraman: Aytmatov zo‘rmi, Shukur akami?* (Shodmonqul Salom, Men hayotga muxlisman...)

BERGU Qarz. *Qizning ota-onasiga: “Yo bergungizni berasiz, yoki qizingizni” – deya turib olgan.* (Mannop Egamberdiyev, Sariq ajdar ham-lasi).

BERIM (Qashqadaryo) To‘yda to‘yga kelganlarga beriladigan sovg‘alar, sarmo. *Zarnigor suyarcha xotin bo‘lib tushgan yili qirq qozonda osh damlab, shunday to‘y berdiki, to‘ydagi berimning ta‘rifi tillarda dos-*

ton bo'ldi. (G'ozī Rahmon, Shukuhli karvon). *Burungilarning gapini qarang: o'lganiga chidasang qo'y qil, berimiga chidasang to'y qil.* (G'ozī Rahmon, Tepalikdagi uy).

BERMAN // BERMON (Surx.-Qashq.) Bu tomon. – *Berman ke, ulim, berman ke! – dedi otam. Bunday vaqtda borishim kerak.* (Shukur Xolmirzayev, O'zbekning soddasi). *Berman kel, – dedim, – Mana, do'xtir bovani olib keldim, seni bir ko'rsatayin, dedim.* (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). *Qorabosh akaning armiya jo'ralari kelib, ular bilan ichib mast bo'lib qolganini aytib, bermon tomon boshlanglar, deb soyning narigi betida turadigan Esirgap degich ukasinikiga boshladi.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

BESAHAT (Samarqand) Galvars. *Besahat odam bilan beshoxning farqi yo'q...* (Bahodir Qobul, Bog'dagul). *Besahat degani qulog'iga gap kirmaydigan, to'g'ri gapni tushunmaydigan degani, buni o'zimdanda qo'shyapman.* (Bahodir Qobul, Bog'dagul).

BETKAYLIK (Jizzax) Yonbag'ir. *Hamza podachining betkayligida Oqtirnoq o'nga yaqin it bilan olishib yotardi.* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq).

BEXIT (Farg'ona) Xarxashasi kamroq. *Shu sababdan Beknazarning hamrohlari, aylanish esa-da, bexitroq deb shu yo'nalishni ma'qul ko'rishdi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari). *Yerto'ladagi hojatxonaga tushishgach, qizlarga shaffof xaltachadagi kukunni berib, Shuhratni erkaklar bo'lmasiga boshladi-da, qulog'iga qistirilgan papirosni olib unga uzatdi: Pivoxonaga o'tsang, bexitroq joy bor, - deb tayinladi-da, yana ogohlantirib qo'yishni ham unutmadi.* (Tohir Malik, Eng kichik jinoyat).

BESHA Dara, vodi. *Beshadan chiqqan besh biya, Beshovi ham qulunli.* (Topishmoq. Javobi – bulut). *Ayg'ir qochsa, uyurdan top, Biya qochsa – beshadan.* (Maqol).

BESHLIK (Farg'ona) Panshaxa. – *Ketamiz, faqat sen boshlaysan, – dedi Sotvoldi. Shartta beshlikni go'ngga sanchib ketvorsa-chi. Lekin bu tili uzunlarga bir umrga gap topiladi-da.* (Adham Damin, Hayot va o'lim).

BESHOX (Samarqand) Benamoz. *Xudoning kunini Bismillo bilan boshlamagan, kech bo'ganda boshini yostiqqa bir-u-borsan deb topshirmaganni beshox deydi.* (Bahodir Qobul, Bog'dagul).

BESHTOSH (Xorazm) Beshta kichik tosh yerga tiralgan chap qo‘lning yoniga sochilib, keyin besh toshdan xohlagan bittasi o‘ng qo‘lga olinib, uni yuqoriga irg‘itgancha, yerda yotgan toshlardan bittasini o‘sha tiralib turgan ikki barmoq orasidan haydash asnosida yuqoriga otilgan toshni tutib olib o‘ynaladigan o‘yin. ...*ko‘cha boshi berk bo‘lgani bois katta-kichik yoshdagi to‘rt-besh qiz ochiq-sochiq **beshtosh** o‘yini bilan andarmon edi.* (Komil Avaz, Sozanda). *Hamma o‘z tengilari bilan qandaydir o‘yin bilan mashg‘ul. O‘g‘il bolalar urush-urush o‘ynagan, ayrimlar yashinmashoq, biz ham qizlar bilan aylana bo‘lib o‘tirib **beshtosh** o‘ynashga kirishgandik.* (Go‘zaloy Matyoqubova, Toshkentlik qiz). *Bolalikning xotiralari nurli chiroqday doim inson yo‘llarini yoritib turadi. Kim biladi, balki bekinmashoq o‘ynab yurgan kezlaring, dugonalar bilan “to‘ptosh”, “**beshtosh**” o‘ynagan paytlaringdagi beg‘uborliklar she‘rning daragiga o‘xshar.* (Oydin Hojiyeva, Yo‘limdagi chiroqlar). *Daraxtim yillar karvonini ma‘yus kuzatdi. Endi uning oldiga sharpalar kelmay qo‘ygandi. Yo‘q, to‘g‘rirog‘i, ularning o‘rnini endi boshqalari egallagandi. **Beshtosh** o‘ynayotganlar ham avvalgi bolalar emas. O‘tkinchilar ham begona.* (Oydin Niso, Hayot daraxti). *Sayilga chiqqan qizchalar esa happak, quvlashmashoq, **beshtosh** singari o‘yinlar bilan band, aksariyat jamalaksoch go‘daklar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

BIGIZAKI (Buxoro) Bigiz bilan tikilgan. *Kiygan chit ko‘ylaklari ham, **bigizaki** yo‘rma bilan bezatilgan do‘ppichalari ham o‘ziga yarashib turardi.* (Oydin Hojiyeva, Qizg‘aldoq).

BIJANAK VIII–XI aslarda Volga va Ural daryolari bo‘ylari, Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘idagi dashtlarda yashagan pecheneglar. *Yov bossa birlashib – chopishib kelar, **Bijanagim**, o‘g‘iz, juzim, qipchog‘im, Qora bo‘rkli alpim – qoraqalpog‘im.* (Hol Muhammad Hasan, Qoraqalpog‘im).

BINOYI Tasdiq, ma‘qullash ma‘nosidagi modal so‘z. – ***Binoyi, binoyi.** Qani, ichkarilangizlar. Do‘ppili odam ichkariladi. Ketidan boshqalari ergashdi.* (Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom).

BIQMA Yashirin. ***Biqma** badik tog‘inda, bixma badik, Kun-u tun-u jeganim juxma badik. “O‘zbek xalq qo‘shiqlari”.*

BIRAGAY (Jizzax) Egiz tug‘ilmagan, bitta tug‘ilgan jonliq. *Biragay kuchuk nihoyatda olg‘ir bo‘larmish. Kuchga to‘lganida har qanday qashqirning dodini berarmish.* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq).

BIR MAYDON (Surx.-Qashq.) Birpas, biroz muddat. – *Barcha uy-uyiga, kapa-kuyiga! – deya majlis tarqatdi raisimiz. – Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq iling!* (Tog‘ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). *Otamning ko‘zlari kulib, bir maydon gapirmay, o‘ziga yaqin kelishimni imo qiladilar.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). *Shamol boshiga latta o‘ralgan itning ahvoliga bir maydon kulumsirab qarab turdi-yu, baribir ko‘ngli to‘lmadi.* (Bahodir Qobul, Oq kamar).

BIR QO‘NA (Jizzax) Bir gal, bir marta. *Bir qo‘nag‘a achchig‘ingdan tush, chirog‘im, sendan tiladim shuni!* (Soyim Is‘hoq, Osmon ustuni).

BIRTAN (Qashqadaryo) Birga. – *Oralamasa bakovullik qilib bo‘lmasmikan? – U bakovul bo‘lgan ko‘pkarida chavandozlar bilan birtan chopgan, deyishadi.* (Nurilla Chori, Bo‘ron tingan kecha). *Quvonch, g‘amga sherik – birtan bo‘lib baham ko‘rishardi.* (Ikrom Otamurod, Toshguzarning bolalari).

BIRCHANOQ (Qashqadaryo) Ko‘saklarda qolgan paxta. *Bu mashina juda nozik, aniqrog‘i, juda bo‘sh. Ya‘ni, paxtani birchanoq qilib terib ketadi. Tolalar chanoqda chuvalib, dala oppoq bo‘lib qoladi.* (Tog‘ay Murod, Otamdan qolgan dalalar).

BIRCHIGIT (Jizzax) Ko‘saklarda qolgan ozgina paxta. *Bu yoqda esa paxta tugagan, lekin bir-ikki pishakizi qor ham tushdiki, hali javob yo‘q, dekabrning o‘rtalari, ba‘zan yangi yilning tagigacha dalada ushlab turaverishadi. Birchigit-u ko‘r ko‘sakdan boshqa narsa qolmagan, termasak ham, dalada sang‘iyimiz.* (Ahmad A‘zam, Tugmachagul). *Dalalarda yakkam-dukkam birchigit qolgan, sovxoz oktyabr oyi o‘rtalarida planni do‘ndirib bajargan-u, el-u yurt hali hamon shu bajariqni to‘ldirolmay jon-halak, bo‘l-ha-bo‘l hiqildoqqa kelgan.* (Ahmad A‘zam, Qatag‘on yili).

BIRCHIZIQ Ona tili darslarida tutuladigan chiziqli daftar. *Qayoqdan tushgan, biron bola unutilib qoldirganmi yoki shamol ilashtirganmi, o‘t ustida bitta o‘n ikki varaqli birchiziq o‘quvchi daftari yotgan ekan, tutil-*

magan, varaqlariga sal-pal dog‘ teggan-u, lekin butun. (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

BITISHLI (Jizzax) 1 Tumsa. *Shu bitishli xotin ham o‘g‘il tug‘adimi, degan gap bor.* (Ahmad A‘zam, Almisoqdan qolgan Karim). *Bu bitishli xotinning o‘g‘il tug‘ishi qiyin.* (Ahmad A‘zam, Odam zahri). 2 Bichimli. *U yoshi elliklarni chamalagan girdig‘um bitishli, tepakal kishi edi.* (G‘afur Shermuhammad, Quduq).

BITMA Qo‘lyozma. *Hamrohi bobomni Arabiston cho‘llariga dafn etib, uning qo‘pol qozoqi choponini, oq surp kuloh-do‘ppisini va bitma Qur‘onini keltirib, buvimga topshirgan. Jiltga solingan, kattagina, og‘ir bu bitma Qur‘onni bobom hamisha qo‘ltig‘ida osig‘liq olib yurar ekan.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

BIX Ildiz, tomir. *Haramzasin yulsang, bixiga zo‘r beradi.* (Maqol).

BIY Tanasining uzunligi 3,5 sm gacha bo‘lgan, uzun sariq tuk bilan qoplangan zaharli katta o‘rgimchak. *Tilimga nish urmish chayon, biy... yo‘g‘ay, Men senga ne qildim Xudoyjon, Xudoy...* (Holmuhammad Hasan, Tush).

BIYDALAMOQ Burdalamoq. *Tontirama, u dunyo bor, ukalaring rohatda yurishgani rost, deb o‘zimni biydalagudek bo‘lardim.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). – *Masalan, men xotinimning ba‘zi shamalaridan sezib yuribmanki, turkcha ko‘ylak bilan tillo sirg‘a olishga pul to‘playapti. Olmaysan desam, biydalab tashlaydi.* (Anvar Obidjon, Poxoldo‘q).

BIYORA (Xorazm) Qovun poliz. *Eshikni oldi biyoramikan? Sevgan yor galmakka uyolamikan? “Shoda-shoda marvarid”.*

BINGAK Kichkina ari. *G‘o‘balakda (ot pashshada) bingak nishiday zahar nish bo‘ladi.* (Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom).

BOBOLAYTAKA Bir oyoqda sakrab o‘ynaladigan bolalar o‘yini. *Sanaqul hardamxayol o‘spirin, hushi tutsa kelin bilan chimildiq ortida ozroq bobolaytaka o‘ynab, hushi tutmasa ko‘rpaga boshini burkab uyquga ketardi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

BODI (Surxondaryo) Olifta, shunday odamning laqabi. – *Anovi bodicha Yunus po‘piga (tikraytirib soch qo‘yib yurgani uchun laqabi po‘pi) xotinchasi qo‘ydan yaxshi ko‘rinib, oqshomgi navbatga kelmay qo‘ymasin,*

xo'pmi? (G'ozī Rahmon, Tilsimli tog'lar). *Agar gapni sal naridan boshlaydigan bo'lsak, yo'lak o'rni, kecha Bozor bodi da'vo qilganidek, unga emas, aksincha Sodiqqa qarashli edi.* (Normurod Norqobilov, Yo'lak).

BODILIK Olifalilik, maqtanchoqlik, o'zini ko'rsatish. *Bola yal-yal yashnagan kuyi bizdan ko'z uzmay, bolalarga xos bodilik bilan qo'llarini beliga tiradi.* (Luqmon Bo'rixon, Sut sotuvchi bola). *Agar kecha Bozor bodi o'zicha qiliq qilmaganida – bodilikni obdan qiyomiga yetkazishga urinmaganida, yo'lak o'rni o'zga birovga emas, aynan o'ziga tegishli ekanligi ikki dunyoda ham Sodiqning esiga kelmasdi.* (Normurod Norqobilov, Yo'lak).

BODOMCHA (*Amygdalus spinossisima* Rge) Ra'nodoshlar (atirgul-lilar oilasi)ga mansub sershox va sertikan buta. *Shundoqqina yelka taraf-dagi bir tup bodomcha tagidagi uyada uchta bola tug'ib, chillasini olgan, beorligi sabab odamlarga yaqin joyda yashab qolgan ona tulki g'unajinning bu qilig'iga hayron turgandi.* (G'ozī Rahmon, Mo'minjon). Ikki cho'ponning ham bo'yni ichiga tortib, qo'nishib qolishdi. *Quruq bodomcha kundalarini yig'ib, o't yoqib isinmoqchi bo'lishdi.* (G'ozī Rahmon, Tepalikdagi uy).

BOLAMCHA *q. bodomcha.* *Tog' qo'rqinchli. Nispak yoki bolamchalar bo'ri bo'lib ko'rinadi. Qo'shiqni baralla qo'yib, hakkalab yo'l olayapman.* (Isak Sattorov, Devona tabib).

BOLASOP (Surxondaryo) Chillak o'yinida tepaga otib onasop (katta tayoq) bilan urib, uzoqroq masofaga tushirish kerak bo'lgan tayoq. *Nima qilardim? Qarab turardim. U yenglarini shimarib, onasopni olib bolasopni tepaga otib, pastdan "Bir, ikki, uch, to'rt" deb, chillakbolani yerga tushirmay koptokdek sapchitib-urib sanayberardi.* (Shukur Xolmirzayev, Chillak o'yin). *Boybo'ri: Saylda chillak o'yini uchun Hakimbekka bolasop tayyorlatib qo'ydirgan edim. Bu bolasop cho'pning bir tomoni tilladan, ikkinchi tomoni kumushdan.* (Ibrohim Sodiqov, Alpomishning bolaligi).

BOLISH (Qashqadaryo) Yostiqlik. *Tog'ay polvon sal uzalib, naridagi qirmizi baxmal bolishni biqiniga tortarkan, uddalash juda mushkul bo'lgan o'sha kuchli raqibni noxushlanib eslaganday, asabiy bir tarzda iyak changallab, tag'in xayolga toldi.* (Normurod Norqobilov, Xesh). *Bal-*

kon so 'risidagi qo 'sh **bolish**ga yonboshlab, ovozim rostdan ham itning ovozidaqa chiqmasmikan degan qo 'rqvuva qizimdan sekin gap o 'g 'irladim. (Adham Damin, Tentakka salom berdim). Norjon o 'rnida yuztuban yotib, rosa yig 'ladi. **Bolish-u sochig 'i ho 'l bo 'ldi.** (Fayzulla Salayev, To 'lov).

BOLING Ko 'prikning tayanch ustunlari. Ko 'priklar ham ko 'tarib solingan, **bolinglari** baquvvat, uncha-buncha sel ta 'sir qilmaydi. (Hakim Sattoriy, Sog 'inch).

BOLLI (Surxondaryo, Jizzax) Shirin. Endigina bir haftalik kelinning fahm-farosatini sinamoq niyatida Ermanboy ayoliga gap soldi: – Kampir, kelinining tilini ko 'rdingmi? **Bollimi, achchimi?** (Shodmonqul Salom, “Shovullamaning naryog 'ida...”) Kuyovga vafoli qalliq yarashmish, Tidlari shakar ham **bolli** yarashmish. (To 'ra Sulaymon, O 'xshar). Sarmishning o'ftob nurlariga to 'yingan uzumlarini tanlar ekansiz, qaysi boshini taroziga qo 'yishni bilmaysiz: hammasi sarxil, har donasi shirali, **bolli.** (Ahmadali Shernazarov, Kuz bahori).

BOLQISH Balqib chiqqan narsa. Borliqqa tarqalsin tanburim tovushi, Bir **bolqish** yaratsin yosh yuraklarda. (Mirtemir, Tanburim tovushi). Hurmat to 'ridaman, yog 'adi olqish, bilim va tajriba berganda bolqish. (Mirtemir, Yetti yigit va bir chol). Shuhratida **bolqish** bor. Yelkasida Andijon, Yaratgan paxta – xirmon!!! (To 'lan Nizom, Andijonda bir qush bor).

BOLCHINGIRIK (Xorazm) Poyasi shirin, oqjo 'xoriga o 'xshagan bir yillik o 'simlik. Avvallari bo 'ka-bo 'ka qilingan poyasi artilib, bolalarga shirinlik sifatida bozorlarda sotilgan. Ba 'zan, bularga qarab, hay, o 'lmagaysizlar, mansab degan narsa unchalik mazali narsa emas, havas qilmang, degim keladi. Lekin aytmayman. Aytolmayman. Shunday desam, o 'zim shimib yurgan **bolchingirikni** birovlarga tutganday bo 'laman. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

BOQIB-BOVLIMOQ (Surxondaryo) Parvarishlamoq. Bechora-e, yosh bug 'uchani och-nahor qoldirmay ona o 'rnida sut berib **boqsa-bovlisa,** hayotini saqlab qolsa-yu, yana jarimasi nima? (Mengziyo Safarov, Ayrishox). Aka-ukalari, opa-singillarining farzandlaridan, urush yetim

qilgan bolalardan jami sakkiz nafar norasidani **boqib-bovlib** odam qilishdi. (Shodmonqul Salom, Tulporlarim).

BORDOSH (Xorazm) Chordana. *Otam Xalillo akaning opamga murojaatini eshitsa ham beparvo, **bordoshni** buzmas, non chaynab choy ho‘plashlari avvalgidek edi.* Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish.

BORDOSHLAMOQ (Xorazm) Chordana qurmoq. *Mezbon xontaxtaning qarshi tomonidagi ko‘rpachaga **bordoshlab** (chordona qurib), xotiniga yuzlandi.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

BORJOQ (Ephedra strobilaceae Bge) Zog‘ozadoshlar oilasiga mansub, barglari yo‘qolgan (reduksiyalangan), shoxchalari bo‘g‘imli, poyasi sershox, bo‘yi 60–100 sm ga yetadigan buta; qizilcha. *Qish paytida **borjoqning** tarkibida alkaloid bo‘lmaganligi uchun chorva mollariga hech qanday zarar yetkazmaydi.* (Q. Haydarov, Q. Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari) [*Repetek qo‘riqxonasi*] *Boshqa qo‘riqxonalardan ...Qoraqum cho‘lida o‘sadigan asosiy o‘simlik turkumlari (oq va qora saksovul, qandim, cherkez, quyonsuyak, **borjoq**, quyonquyruq, yaltirbosh, cho‘lkuchalla, lolaqizg‘aldoq, sassiqquray, iloncho‘p, tuyayaproq, shirach va b.) bilan ajralib turadi.* (O‘zME).

BORG‘U Ko‘pkarida o‘rtaga qo‘yilgan sovrin, zot. *O‘rtaga qo‘yilgan sovrinni **borg‘u** yoki zot deyishadi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

BOSALQA (Qashqadaryo) Yoshida farqi kam bo‘lgan opa-singillar. *Ular o‘z qadrdonlarini ko‘rgach, yuzlari yorishib ketdi, ochiq eshikdan bir-biriga **bosalqa** uch bola qulochini yozib uchib chiqdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

BOSMA (Jizzax) Qo‘y junini eshib, pishitib tayyorlanadigan, ot minganda kiyiladigan, issiqni yaxshi ushlaydigan, choponga o‘xshash ustki kiyim. *Egnimdagi **bosmam** oshlanmagan teriday qotib qoldi.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

BOSLIQMOQ Bosinqiramoq. *Oqsoqolning jahli chiqdi. “Ukkag‘arning kampiri, **boslig‘ayapman**, uqdingmi, **boslig‘ayapman**. Tushimga otam kiryapti. Oqibatsiz ulini urishayapti. Sen bo‘lsa, poshikasta deysan”.* (Murodxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida). *Qulmirza: (ovozi) Jayron bobo, eshikni oching. Nima balo, qo‘y go‘shti yeb **bosliqib**, mudrab yotibdimi bu*

chol? Hoy, kim bor. Ochinglar. (Qo‘chqor Norqobil, Biz ham odammiz). Cho‘milib, so‘ng uxlagan Mahkam oradan uch soatcha o‘tib uyg‘onib ketdi. Uyg‘onganda ham, bosliqib uyg‘ondi. Bag‘rida Sanobar bor edi. U ham uxlagan ekan. Xotini ham uyg‘ondi. (Nuriddin Ismoilov, Gunohkor).

BOSMALIM Beshtosh o‘yiniga o‘xshash qizlar o‘yini. *Qizi bosmalim o‘ynay berarmish-o‘ynay berarmish! Bosmalimning yovg‘on turini o‘ynab bo‘lib, dahmana, ulug‘, eshala, eshong‘o‘zim, shovdir, kichikqon, kattakon, kultepa, yer shapillatar, qayiruv, kelin turlarini-da o‘ynarmish. (Tog‘ay Murod, Oydinda yurgan odamlar).*

BOVA (Surxondaryo) Bobo. *Bovasiyam gap-so‘zi o‘rnida, aql-hushli odam edi. Nevara-chevarali bo‘lishgach, turmush o‘rtog‘iga bova deyishni odat qildi. (Komil Avaz, Yoqut momo). Shunda, yosh yigit gap qo‘shdi: – Endi, bovalar qaridi, shoir aka, qaridi, – dedi. – Birovi kar bo‘p qoldi, birovi shabko‘r bo‘p qoldi, birovi joyidan turolmay qoldi. (Tog‘ay Murod, Momo Yer qo‘shig‘i). – Ena, Xoliq bovaning bir qo‘li yo‘q, nega? – Qo‘lini urush yeb qo‘ygan. Urushda bo‘lgan bovang. (Qo‘chqor Norqobil, Adibning tug‘ilishi).*

BOVLI Qabilalardan iborat. *To‘qson olti bovli o‘zbek xalqining Qo‘ngirot urug‘iga tegishli oboqli tarmog‘i mamlakatimizning barcha go‘shalariga tarqalgan. (Shodmonqul Salom, Tulporlarim).*

BOVURDOSH Qarindosh. *Olatov Jettisuv-la quchoqlashgan Eliga dur-gavharli qo‘ynin ochgan. Bag‘ringda Olmataday zo‘r shahrim bor, Bovurdosh – o‘ris, qozoq o‘rtoqlashgan. (Mirtemir, Olatov).*

BOVURLASHMOQ Bag‘riga bosmoq, quchoqlashmoq. *To‘y bahona ko‘rishib-tanishib, bovurlashdi. (Murodboy Burxonov, Ikki tog‘ orasida).*

BOYNA Boya. – *Kechagina qo‘zilagandi, boyna bir kaltakesakni ko‘rdim, yeliniga tarmashib turgan ekan. Shunga yarasini bog‘lab qo‘yay, degandim, – deya Qo‘chqor cho‘pon dovdaraydi. (Shodiyor Hazrat Ismat, Yovon jonzotlari). – Boyna Salim keldi. U menga Baxti bugun keladi, degandi. (Xoliyor Safarov, Oy botmagan kechalar).*

BOG‘GUL (Jizzax, Qashqadaryo) Na‘matak. *Bizning G‘azirada itburun – na‘matakni hech kim “itburun” yo “na‘matak” demaydi, uning oti “bog‘gul”, odamlar bog‘gul deydi, na‘matak desangiz, nima u, deb*

hayron ham bo'ladilar. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). – Menga **bog'gul** opkemaysanmi ulim? – derdi. Nevara bedazorning qoq o'rtasiga ekilgan **bog'gulga** yetib boraman deguncha necha martalab surinib, yiqilib, ishtoni ertalabki shudringlarda ho'l bo'lib qaytib kelarkan, chol gul bilan qo'shib nevarasini boshdan-oyoq hidlar, hidlab to'ymas edi. (Sobir O'nar, O'lmaydigan odam). **Bog'guli** ham bosh egib bag'riga to'ldirdi qon. (Hol Muhammad Hasan, Guldasta).

BOSH-ADOQ To'liq, yaxlit; barcha, hamma. *U umrida barini ko'rdi: XX asrni bosh-adoq ko'rdi.* (Tog'ay Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi). *Qahraton chillasining bosh-adoq'i sovuq biror tarafga siljimadi.* (G'ozil Rahmon, Oshiq dunyo). *Oq oralagan sochlari so'nggi urfda tarashlangan, bosh-adoq ohorli, orasta kiyingan, qaddi tik, nigohlari viqorli bu do'stimizning ismi Akram.* (Luqmon Bo'rixon, Ota va oila).

BOSHAMAK Bolalar uchiradigan varrakning eng tepasiga ko'ndalang qilib yopishtiriladigan cho'p yoki qamish. *Boshamagi baquvvat bo'lsa, dardiragi darillaydi.* Maqol.

BOSHDON (Qashqadaryo) Ayollar boshiga tashlab yuradigan ust kiyim. *Ona mahsi-kalish kiyib olgan, boshdonining yengini tomog'iga tang'igan, o'roqqa jo'nagandek chapdast, shijoatli tuyulardi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

BOSHOQOY Sentyabr. *Kelin ota-ona oldida qoldi. Kuyov boshogoyda o'qishiga qaytdi.* (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i).

BOSHOG'RIQO'T (*Achillea millefolium* L.) Murakkabguldoshlar oilasiga kiruvchi, poyasi bir yoki bir necha chiziqli, tik o'suvchi, bo'yi 70–80 sm ga yetadigan ko'p yillik o't; bo'yimodaron. *Boshog'riqo'tdan tabiiy kamfora ham olish mumkin.* (O'zME).

BOSHQORA Himoyachi; er. *Asli erkagining bari shu kampirning sho'riga bitgan ekan, egachijonlar-ov. Yerga ursa, osmonga sapchiydigan er "jonivor" ham o'zini o'qqa-cho'qqa urib, Suluvni boshqorasiz qoldirib o'ldi-ketdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish).

BULAMIQ (Xorazm) Atala. – *Bormayman. O'zing bulg'agan bulamiqni aylanib-o'rgilib yeyaver endi...* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni). *"Yaramaslar" biroz mizg'igan bo'lishadi-da, bulamiq tamaddi qilgach,*

*qamchilar ostida yana ishga haydaladilar. (Mannop Egamberdiyev, Sariq ajdar hamlasi). Dunyoda yalma, umoch, nonpalla, yovg'onsho'rva, piyoz va pomidorga un aralastirilib, qaymoqda qovurilgan **bulamiq** singari taomlar ham borligini o'sha "begona yurtlar"da ko'rib bilganman. (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo'llar).*

BUQALOCH Semiz, bo'liq. *Podalar **buqaloch** bo'lgan, juvonlar g'unajinlar ortidan surdovlashgan, sovliqlarning yelinlari sutga to'lgan, qo'zilari emib yayrab dirkillashgan, yelkalariga oftob teggan cho'liqlar kebanaklarini tashlashgan, qo'nishga borsak, sog'imga kelgan bo'yqizlarni ko'rarmikanmiz, deyishib qo'shiqlarini vang qo'yishardi. (Hamid Elxon, Maynagul).*

BURGA: ichiga burga tushmoq. Bezovtalanmoq, nimadandir shubhalanmoq. *Kimdir qaysidir ma'arakada Naqrachda ellik chog'li beega qo'y yurganmish degan darakni tarqatdi-yu, Berdi chavandozning **ichiga burga tushdi**. (Anvar Suyun, Yo'qchi).*

BURGADORI (Xorazm) Zararkunandalarga qarshi kurashda ishlatiladigan dori; dust. *O'ylab shu xulosaga keldimki, do'xtir aytgan "dust" degan dori xalq orasida "**burgadori**" deb atalib, uni bemalol xonalarga, to'shalgan kigizning taglariga sepishardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

BURMAK (Xorazm) Yengil tanbeh so'z. *Achchiqlanishsifat ko'zlari ni menga tikib: – **Burmak!** – deb qo'ydi [buvim]. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

BURNOCH (Qashqadaryo) Burnida olasi bor ot. *Nimaga **Burnoch** ot deymiz! Boisi, **Burnoch** ot peshonasida qashqasi, burni uchida olasi bo'ladi. Butlari-da ola bo'ladi. Burnoch otning xili ko'p bo'ladi. Ko'k **Burnoch**, qora **Burnoch**, to'riq **Burnoch**, jiyron **Burnoch!** (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom).*

BUROQ Archa hidi. *Tog'da qor ola chalpoq, Go'yo yosti qurog'i. Chunki kiygan oq qalpoq Anqir archa **burog'i**. (Tursunboy Adashboyev, Qo'biz tinglab...)*

BURTOZ Tanglik, torlik (obdasta va chilim jo‘mraginging ingichkalligi, torligi. *Qorni, qortoz, Burni burtoz. Otga minmas, Piyoda yurmas.* (Topishmoq. Javobi – obdasta).

BURUM // BURIM Muyulish. *Ko‘p o‘tmay bir burum tarafdanda ona kaklikning bolalarini o‘z yoniga chorlovi eshitildi.* (Azim Suyun, Nevoralarim uchun). *Har bir qo‘ra, qo‘nalg‘a, qo‘nim, qo‘shqo‘ra, qo‘tan, tosh, burum, qirra, o‘r, enishning tus oti bor.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li). *Sayfi maxsum gap-so‘zsiz muyulishdagi burimga qarab lo‘kkillab ketaverdi.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi). *Bu safar Pirmanning tanidan sovchilikka borayotgan mulla Abdullo Sangrazaning burimidan oshgach, qattiq uyqusi kelibdi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

BURUSKUN (Surxondaryo) Indin. *O‘shanda ham ko‘p g‘amlar chekib, ko‘p savollarga javob bera olmasdan va Misir aytganidek, “bir terining ichida necha bor ozib, necha bor semirib” kelayotgan ekan, demak, ertamas-buruskun yana yangi va mislsiz bir saltanatda yashashi aniq: insonning tabiati o‘zi shuni taqozo etadi.* (Shukur Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi). – *Faqir erta-buruskun kelamen, – dedi Qalandar va javob kutib Bonuga qaradi.* (Odil Yoqubov, Ulug‘bek xazinasini). *Ertaburuskun Shayboniyxon Hirotni olsa, Qorako‘z bégimning holi ne bo‘lur?* (Risolat Haydarova, Javzo).

BURG‘ULDAK Tog‘ qushi. *Tog‘ning ko‘rki Burg‘uldak, Chax-chax sayrar bulbuldak Osma qilib suvtolga, In qurmoqda G‘urg‘uldak.* (Tursunboy Adashboyev, Sanoch soy).

BUTRAMOQ (Xorazm) Tarqalmoq. *Bilganing-ko‘rganing paxta bo‘libdir, Aqling, tafakkuring axta bo‘libdir, Yuz sariq, jigaring so‘xta bo‘libdir, Nasling shajarasi butrashga tushdi.* (Omon Matjon, Turg‘unlik yillari).

BUVI (Farg‘ona) Ona. *Akmal Katta hovliga qaytarkan buvisiga ko‘zi tushdi. – Buvi, nima gap? Moshin ko‘rinmaydi? Tolib qayoqqa ketdi? – dedi u xovliqib.* (Adham Damin, Hayot va o‘lim).

BUVRIL Burul; xoldor, ko‘kish otning tusi va shu tusdagi ot. – *Hey, mardi maydon! Go‘dakniyam urasanmi, meni qamchilasang bo‘lmaydimi!*

– *Qurbon bobo buvril otning jilovidan tortdi. – Kim aytadi seni davra ko‘rgan deb!* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

BUYDA Tuyanining tumshug‘idan boylab, eshakning bo‘yniga solib qo‘yiladigan arqon. *Tuyanining buydasi – eshakning bo‘ynida.* (Maqol).

BO‘BAK (Qashqadaryo) Chaqaloq. *Hulkar – bo‘bak, Tarozu – belanchakka aylana, Yo‘rgakbog‘ish mengzalmish Somon yo‘lga azaldan...* (Hol Muhammad Hasan, Go‘zalsan).

BO‘JA (Qashqadaryo) Archasining urug‘i, tandirkabob tayyorlashda ziravor sifatida ishlatiladi. *To‘xtashning hovlisiga yetganda cho‘pon o‘rnidan bir qo‘zg‘olib qo‘ydi. U o‘z bog‘ining qanday yashnaganini ertaroq ko‘rmoqchi, bo‘ja hidi taratib go‘sht qozonda qovurilayotganida tomorqa oralab tomosha qilmoqchi...* (Xolmuhammad Karimiy, Chorva odami). *Kimdir archa bo‘jasini burni, qulog‘i teshigiga tiqib o‘ynay boshlaydi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

BO‘JALAMOQ (Qashqadaryo) Go‘shtga bo‘ja ziravorini sepmoq. *Qo‘tonidan chiqsa ham, qozonidan chiqmadi. Haydarqul cho‘ponga o‘xshab kasbi-koridan mag‘rurlanib yuradiganlarning bahor seryog‘in kezlari himmati jo‘shadi. Kunlar isib, xatarlar ortda qolgach bir to‘qlini bo‘g‘izladi-da, bo‘jalab xurjunga joyladi.* (Xolmuhammad Karimiy, Chorva odami).

BO‘JAXO‘R 1. Qarqunoq. *Bo‘jaxo‘rning oti o‘zi o‘ndan ortiq. Xuddi Kattatog‘ning otidek.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). **2.** ko‘chma Bolajon. – *Bo‘jaxo‘rlar, qani saflaning deydi [Rasmchi Mardon]. Bolalar bo‘ylariga qarab tizilishadi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

BO‘LARMAN Uddaburon, pishiq. *Bo‘larmanning bolasi yettisida bosh bo‘lar, bo‘lmag‘urning bolasi yetmishidayam yosh, degan burungilar.* (Nurilla Chori, Qizg‘aldoq).

BO‘LDOMLI (Xorazm) **1.** Ish beradigan, zehnli. *Bolta aka ko‘zlagan bo‘ldomli yoshlardan biri viloyatda birinchi bo‘lib rus maktabini oltin medal bilan bitkazgan G‘ayrat Masharipovdir.* (Komil Avaz, Haqiqatbin). **2.** Bo‘liq, baquvvat; *Savdogar qo‘yilgan tuyalar ichida bir yosh, baquvvat tuya ko‘zimga bo‘ldomli ko‘rindi.* (Komil Avaz, Sozanda). **3.** To‘la, g‘uj. *Qoramtir-qizg‘ish “xirmoni” uzumining bo‘ldomli so‘lqimlari ke-*

chki quyoshning qizg'ish nurlaridan yal-yal yonadi. (Komil Avaz, Ichon qal'adagi oydin kecha).

BO'LK: **bo'lk etmaslik** Qimirlamaslik, pinagini buzmaslik. *Bejoy ko'p qo'shindir daryodan o'tar, shu bugun kechasi bo'lk etmay yotar.* (“Gulnor pari” dostoni).

BO'RBOY Boldir. *Endi bu yerga saralangan, beliga belbog' jetmaydigan, no'g'oy etik bo'rboyiga to'g'ri kelmaydigan jigitlar jamlangan edi.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). *Boshqa paytda to'p ot-sayam uyg'onmaydigan mulla bu tovushni eshitib o'rindan dast turibdi, imomlikka kiyadigan oq ishtonini qidiribdi, aksiga olib po'stak adog'ida ekan, arang topib bo'rboyiga tortibdi-da, bog'ichidan ikki qo'llab tutgan-cha enkayib eshikka chopibdi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

BO'RBOYLI Oyoqlari baquvvat; do'mboq oyoqli ...**bo'rboyli**, siyroqli otlardan olib kelib, pulini olar edik. (“Dalli” dostoni). *G'o'ladan kelgan, to'ladan kelgan, iylab tashlagan xamirday po'ladan kelgan, peshnobli, siyroqli, bo'rboyli qizlar uxlab yotibdi.* (“Qunduz bilan Yulduz” dostoni).

BO'RITARQQ (*Aibiscus trionum* L.) (Samarqand) Poyasi tik o'sadigan, bo'yi 10–70 sm, sershox, gullari sariq, uzun gulbandlarda yakka-yakka joylashgan, asosida qirmizi rangli dog'lari bor, ko'sakcha mevali, gulxayridoshlarga mansub bir yillik begona o't. *Mezon dorlarining bo'ritaroqlarga xayolday suzilishib, chuvalashib kelib ilinishi, ilinib kun nafasida sollanishi ayniqsa xush yoqadi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li). *Shunday kunlarning birida ...jangallar orasidan, itburun-u, bo'ritaroq ostidan enkaygan cha isga botib, tortanakka talanib, timirskilangan suratchi juhud chiqib keladi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

BO'RTA (Qashqadaryo) Ko'k yoki ko'kish tusli. *Tuproq va toshlar qip-qizil, kulrang yoki bo'rta butalar-u kaltakesaklar, hatto odamlarning tusi ham shunga monand.* (Hamid Elxon, Ayol va ilon). – *Burxon, bir katta bo'rta echkim bor edi-ku, o'sha yo'q.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

BO'TAN (Jizzax, Iqon) Boshqa, bo'lak. *Maydon ko'rganlarining qilig'i bo'tan bo'lib, Har qishloq, har shaharda Yig'in o'tkazayotir.* (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

BO‘YINCHOQ Mollarning, masalan, qo‘zi, buzoqning bo‘ynida bita yo ikkita qo‘ng‘iroqchadek osilib turadigan ortig‘i. *Bo‘ladigan buzoq bo‘yinchog‘idan belgili.* (Maqol).

BO‘YINSA Tengqur, tengdosh. *Men sizga bo‘yinsa bo‘lmasam, yoshim biror o‘n yosh katta bo‘lsa, nega menga munday hazil qilasiz? – Men sizga hazil qilmadim.* (Murod Muhammad Do‘st, Bir toychoqning xuni). *Avtobusda bolalikdan billa o‘smish Sadir bo‘yinsasi bo‘ldi. Ana shu bo‘yinsasi joyidan lik etib turdi.* (Tog‘ay Murod, Momo yer qo‘shig‘i). *Qulmat chavandoz o‘z navbatida butun aybni xotiniga yuklardi: “Sen yaxshi bo‘lganingda, bo‘yinsalarim uydan chiqmasdi. Endi pashsha ham qo‘nmaydi bu uyga”.* (Hamid Alp, Zuryod).

BO‘YON (Glerrhizza glabra) (Xorazm) Dukkakdoshlarga mansub ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘t; qizilmiya; shirinmiya. *O‘shanda ko‘chadagi dang‘ir-dung‘urlar kamaygandek, vaqt xuftondan oshgan, biz esa hamon sergak, uyning tuynugi bo‘yon bog‘i bilan tortib berkitilgan.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Tirsak bo‘yli sazan bo‘yon va takasoqollar orasida tipirchilar, akam uni ushlashga harakat qilardi.* (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchilar). *Hademay bo‘yonlar orasida Elmurod bo‘y ko‘rsatdi.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

BO‘YTERAK (Xorazm) Mirzaterak. *Kechasi tengqurlari bilan oy yorug‘ida yig‘ilishib, biror tomon ketishayotganda “bo‘yterak soyasidan ariq qazishibdi-ya”, deb sakrab-sakrab o‘tishsa, Otash aka ham jon-jahdi bilan sakrab o‘tarkan.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Gohi, bo‘yterakdek, dirdov qolibman, na gul va na meva tugib, o‘z-o‘zim bilan* (Omon Matjon, Odamning soyasi quyoshga tushdi).

BO‘ZALAM (Samarqand) Chimzor, o‘tloq. *Qoyaga uzoqdan qarasangiz, tepasida kamarlar ham ko‘rinadi. Har joy, Har joyda parcha-parcha bo‘zalamlar ham.* (Bahodir Qobul, Ko‘klam so‘ngidagi jala). *Dilkusho bog‘i qarshisidagi ariqlar bo‘yi va yam-yashil bo‘zalamning o‘rtasiga ulug‘ hoqonning sultoniy chodiri tikilgan edi.* (Nurali Qobul, Qadarning g‘arib jilvasi). *Erta kelib, og‘ir va uzoq davom etayotgan qishning namgarchiligidan hovuri ko‘tarilib yengil tin olayotgan, atrofini*

bo'zalam tortgan supani qishloq xotin-xalajlari to'ldirishgan. (Bahodir Qobul, O'smirlik).

BO'ZLOQ (Samarqand) O'tloq. – *Kecha na'matak va yovvoyi olcha terib yursam, bo'zloqda yaktak kiygan bir mo'ysafid uchradi.* (Asad Dilmurod, Narvon). *Arava g'ildiraklari qat-qat iz solgan toshloq ko'cha, yon-girdi qichitqon bo'zloq.* (Asad Dilmurod, Fano dashtidagi qush). – *Kecha na'matak va yovvoyi olcha terib yursam, bo'zloqda yaktak kiygan bir mo'ysafid uchradi.* (Asad Dilmurod, Narvon). [Sohibqiron] *Taxminan saharga qadar xayol surib yotdi, axiyri, kipriklari yumilarkan, o'zini bir tomoni chuqur jarlig-u bir tarafi yaydoq adir, xazon-u to'zon qoplagan bepoyon bo'zloqda ko'rdi.* (Asad Dilmurod, Mezon burji).

BO'ZQIR (Samarqand) O'simligi kam qir. *Bo'zqirlarda maysalar nishlab, ilk bahor rangini ola boshladi.* (Nurali Qobul, Kechikkan turnalar). *Narida qirlar boshlanibdi, ularni shu yerning kishilari bo'zqir deyishar ekan.* (Isajon Sulton, Og'riq tog'i).

BO'SHLOV (Xorazm) Hosil yig'ib olingach, mollarni dalalarga erkin qo'yib yuborish. *Taxminan oktyabr oyining oxirlariga kelib hosil yig'ib olinadi-da, ilgari to'qaylarda boqiladigan, yoxud bog'lab qo'yiladigan mollar bo'shatib yuboriladi... Buni Xorazm vohasida "bo'shlov" deb atashadi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

BO'CHALAMOQ (Qashqadaryo) Uy hayvonlari tug'ish uchun o'ziga qulay joy tanlab ketishi. *G'unajin bo'chalab ketgan. Bo'chalagan molning shunisi yomon. Achchiq dardga chidolmay duch kelgan tarafga qarab yomon qochadi.* (G'ozzi Rahmon, Mo'minjon).

BO'G'AJILI O'zbek urug'laridan biri. *Turib inilariga aytibdiki, yoronlarim, endi biz bir joyda g'uj bo'lmasdan jovdirab yashashimiz kerak ekan, kunchiqar qishloqlarda bizning urug'doshlarimiz bor. Bo'g'ajili qaydasan deb urug'imni izlayman, qo'shilganing men bilan yur!* (Sobir O'nar, Vijdon).

BO'G'ISHMA Janjal, to'palon. *Deraza orti kamida uch qulochlik pastlik, uy nishabga qurilgani uchun tosh qalab qo'yilgan, toshdan narisi pastlik, qulasang shu yerdan qulab mayib bo'lasan. Boyagi bo'g'ishma shu pastlikda ro'y bergan.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

BO'NGKMOQ Anqimoq, kuchli hid taratmoq. *Badaning sasib, bo'ngkib ketibdi, teggan odamingni aytgin o'zima!* ("Misqol pari" dos-toni).

D

DAGISH (Mang'it) Daryo suvining qirg'oqni o'pirib ketishi. *Voha aholisining hayoti ba'zan tinch-totuv, o'z o'zanida oqqan bo'lsa, ba'zan dagish yasab o'zidan chiqib ketar, xalq boshiga musibatlar tushardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *U changli yo'llarda tengqurlarim bilan quvlashmchoq o'ynaganimda ham, Jayhunning loyqa suvlari qirg'oqdan dagish olishlarini kuzatganimda ham, oy yorug'ida Eshonyopda cho'milganimda barmoq uchlaridan nur yog'dusi kabi sachragan tomchilar bilan o'ynashganimda ham xayolimdan jilmasdi.* (Gulnora Avezova, Kutish). *Dastlab Cho'bolonchi qishlog'ida bandargoh-pristan qurmoqchi bo'lishganida, u hudud chagalang yumshoq yer bo'lgan. Qolaversa dagish olib qishloqni suv bosgan.* (Umid Bekmuhammad, Daryo bo'yidagi bandargoh).

DAGGO'RI Yengil koyish. *Daggo'ri bolangiz qayerda? – salom-alik-siz gap qotdi Jabbor To'rayev.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). *-Ha daggo'ri, Cho'mmoqning bolasi, nimaga paxtadan qochding?* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

DAHANA (Qashqadaryo) **1.** Daraning og'zi. *Chahak Qizilgaza-ga chiqqandan keyin so'l tarafda, yana bir choydish qaynaguncha yuriladigan dahanada edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). **2.** Kanal yoki ariq boshlanadigan joy. *Shunda ketmonga rosa alam qiladi-da! Kuni bilan yer chopgani yetmagandek, yarim kechgacha dahanaga bog'lab, dahanaga ochadi.* (Ashurali Jo'rayev, Ketmon yuzidagi oy). *Dahana keng ochilib, shoxariqdagi suvning teng yarmi ilzdiz bosib ketgan novsimon o'zandan sharqirab pastga oqa boshlaydi.* (Erkin A'zam, Jannat o'zi qaydadir).

DAHNA q. **dahana.** *Gazalar boshi qoraymish, Dahnalarga og'zi toraymish, Boslig'ib chiqqan boybicha Tushlarin yo'lga yo'raymish.* (Hol Muhammad Hasan, O'lan). *Mardlarga qo'yilgan birinchi shartda Tillaka-*

mardan Sherobod Dahnasiga ot choptirib, **dahna** tutashgan qoyadagi xarsang toshga kamonda o‘q otib, tog‘ qirrasidagi ulkan toshni tushurganga, qaytishda Chilonzordan ikki yoshli novosni otga o‘ngarib kelganga talab qo‘yildi. “Hulkar pari”.

DALAMA Sigirning og‘iz sutidan tayyorlanadigan taom. **Dalamani** pishirish uchun avval qozon yog‘langan, so‘ng begona, ya‘ni boshqa sigirning suti va og‘iz suti solingan, salgina qaynab chiqqach, qozon o‘choqdan tushirilib sovuq suv solingan tog‘oraga qo‘yib, cho‘mich bilan tinmay shopirilgan. (Manzila Qurbonova, Turkiy xalqlarda sutli taomlar).

DALI Devona. – Devona! – dedi Mamat. – **Dali!** Shuning uchun hech qayerda ishlatmay ketiga tepib qo‘yibdilar! Hech qachon el bo‘lmagan bu bizga! (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

DALVA Telba. Qizil qiya ichida Qiyma juvon o‘tirar, Dakanasin dol qo‘yib **Dalva** juvon o‘tirar. (Topishmoq. Javobi - bedana)

DALVA-DALVA Parcha-parcha, burda-burda. Yigitning kuyunishlari hammaning yuragini **dalva-dalva** qilib yubordi. Boshliq ko‘z yoshlarini kepkasiga artardi... (Shoyim Bo‘tayeov, Qora tuman).

DAMLI: Damlimi? Damlikkina yuribsizmi? Salomlashish, hol-ahvol so‘rash shakli. *Shukr... O‘zingiz yaxshimisiz? Xatcha yangam damlimi? Nevaralaringiz katta bo‘lishyaptimi? – tandir issig‘ining taftidan ikki yuzi anordek qizargan Munisa opa Sora baxshining gaplarini deyarli takrorladi. (G‘afur Shermuhammad, Langartog‘ yo‘lida). – Yaxshimisan? Tan sovliqmi? Munday so‘rashda-e, ulim, biz ham tavarrik, yetmish beshga chiqdim. Musulmon bolasisan – so‘rash, yaxshimisiz, bovo, damlikkina yuribsizmi, de, shunday yuring, de. (Ahmad A‘zam, Qatag‘on yili). Kabinadan qo‘ng‘iz mo‘ylovli haydovchi bilan Safar soqovning o‘ziga o‘xshagan tili chuchuk o‘g‘li Tursunali tushdi. – Hormang, Oybuvi momo! – dedi u shipshigan ovozda. – Kaptarlarni boqib yotibsizmi? Damlikkina yuribsizmi?* (Nurali Qobul, Kaptarlar qaytmagan tun).

DAMSAR (Samarqand) Nafas. **Damsar urmoq (tortmoq).** Nafas olmoq. *Enam og‘ir va katta damsar urib xuddi yaxshilik qilmoqchi bo‘lgan odamlarini yaxshi ko‘rib urishganda ishlatadigan tovushlarida gapiradilar. (Bahodir Qobul, Bog‘dagul). Enasoy boshlanadigan Tangritog‘*

qorlaridan aylanib tushib, Oyqorning oy suratlig‘ qorlariga kelib **dam-sar urib** o‘ziga kelmaguncha hech kim gap qo‘shmaydi. (Bahodir Qobul, Bog‘dagul). *Beixtiyor **damsar tortsam**, ko‘pib to‘fon makon o‘rtar. Agar oshiqlik‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar.* (Bobur Bobomurod, Mashrab g‘azaliga muxammas). *Zoriqdi. **Damsar urishga** qo‘rqdi. Qo‘shilishib joni chiqib ketardek tuyuldi.* (Bahodir Qobul, Ota chiroq).

DANAP Oshna. *Amirtepadagi shiyponga o‘t tushib, yong‘in ro‘y beribdi. Egasi bir oymi-ikki oydan buyon tijorat ishlari bilan chet elda ekan, “osh” jo‘ralari **danap**-sanaplarini eltib bas deguncha bazm qurishibdi, shunda badmastlik tufaylimi, beboshlik orqasidami, shiyponga o‘t ketibdi.* (Erkin A‘zam, Bizning tog‘a). – *E, bormisan, **danap!** – dedi Karomatxon Nilufarni gij-gijlab va menga qarab. – Ana, pattangizni oldingiz, kalampo, endi noyi bo‘ling!* (Uchqun Nazarov, Jazo).

DANDONA (Xorazm) Pishiq g‘isht terilgan joy. *Yasavullar Sobir temirchini dozining oldiga olib kirdilar. U qozining qarshisida **dandona** ustida tiz cho‘kib turdi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

DANGALA O‘rtada pul yig‘ib, masalliq olib, ovqat pishirib, birgalikda yeyish odati. *Yana bozorhilar “**dangala**” qiladilar, bu degani pul yig‘ib, mol sotib olinadi-da, pishirib, o‘rtada baham ko‘riladi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

DANIKMOQ (Jizzax, Iqon) O‘rganib qolmoq. – *Yo‘lda ko‘p toliqdi, shul vajhdin besh-o‘n kun ayovlab turursiz. Uy va do‘kon yumushlaridan o‘zgasig‘a **danikmagonliqin** hisobg‘a olursiz. Nasib etsa, kelasi yili shu mahallarda qaytarib olib keturmen. Shung‘a roziliq berurmusiz?* (Soyim Is‘hoqov, Qabrdan chiqqan qul).

DANG‘IL Keng, ravon. *Qirg‘iz eli borar – zil yukli karvon Yo‘l **dang‘il**, ravon...* (Mirtemir). – *Ot ustida yurishga qolganda ikkovimiz ham bo‘sh kelmas edik. Biroq **dang‘il**-tekis, katta yo‘lga tushib olib: “Boshga tushganni ko‘z ko‘rar” deb ketaverishga durust edik.* (Muxtor Avezov, Abay - Zumrad tarjimas).

DAQQOQ O‘jar, o‘z bilganidan qolmaydigan. *Tag‘in xatoga yo‘l qo‘yishdan cho‘chigan jinoyat kodeksining **daqqoq** kalamushlari hukm ijrosini uch oyga cho‘zishadi.* (Nusrat Rahmat, Eng ashaddiy kallakesar).

“Demokratiya yaxshi-yu, ammo demokratlar chatoq” dedi, qaysi kuni televizorga chiqib. Mana uning cho‘ltoq saviyasi; **daqqoq**, meshchan falsafasi... (Nusrat Rahmat, Oq kalamushlar).

DARS (Xorazm) Go‘ng. Aksincha, bir g‘ramm ham dori bermiyman, agar bersam ham yalatib beraman. Uni ham **dars** tezroq yeyishsin, deb beraman. Hovva, kuzda bug‘doyni sochganimdan keyin ustiga kami-da ikki-uch barmoq chirigan tovuq **darsi** bilan mol **darsini** aralashtirib to‘shiyman. O‘ldirilgan **dars**, kamida bir-ikki yil chiriganidan, dedi yigit. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

DARXONA (Qashqadaryo) q. **qo‘shxona**. Mehmonlar safida umri maydonida o‘tgan chavandozlar, polvonlar bor, ular qo‘ngan **darxonalar** yana ham gavjum. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

DARVESHONA (Surxondaryo) Har yili bir marta – erta bahorda aholi tomonidan Olloh yo‘lida qilinadigan sadaqa. **Darveshonani** o‘tkazish uchun odamlardan pul yig‘ilgan... Odamlar “**darveshona** – tishga davo” deb, ovqatni yeyishgan. (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). **Darveshonadan** so‘ng etakdagi sayhonlikka qur tikildi. (Anvar Suyunov, Asrlarni qaritgan yilboshi).

DAROYI Ertapishar jaydari uzum navi. Oq va pushti (qizil) xillari bor. Tupi o‘rtacha o‘sadi. Novdalarda sharbatga to‘lgan shivirg‘oni, oq kish-mish, husayni, **daroyi** uzum boshlari, “marhamat, xohlaganingizni uzib olib yeng!” deb turgandek... (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim). Atirgullar qiyg‘os ochilib elektr nurida ayvon tovlanadi. Hovli etagidagi baland ishkonda sanoqsiz uzum boshlari: qora chillaki, oq **daroyi**, endi oqara boshlagan husayni, hasaynilar osilib yotibdi. (Hamid G‘ulom, Mushkul savdo).

DASMOL Qozonyuvg‘ich. Onasi doshchirog‘ining g‘ira-shira yorug‘ida go‘sht deb, suv to‘la qozonga **dasmol** – qozon yuvg‘ichni solib, moshxo‘rdani pishiribdi. (Komil Avaz, Sozanda). Bir kuni biz, – deb gapida davom etdi xodim, – rahbarlarimizdan birining stoliga qozon yuviladigan **dasmol** to‘la qutini qo‘yib, yonida: “mazkur **dasmoldagi** teshikchalarni shaxsan o‘zingiz muvofiqlashtirib berishingizni iltimos qilamiz”

degan mazmunda xat qoldirdik. (Simon Karmiggelt, So‘z – rus tilidan Qulman Ochilov tarjimasi).

DASTAVEZ (Buxoro) Birovning uyiga borganda quruq qo‘l bilan kirmaslik uchun olinadigan u-bu narsa. “*Bolam, biror yerga borsang, quruq bormagin, qo‘lingda dastavez bo‘lsin – nonmi, shirinlikmi, kitobmi... hech bo‘lmaganda bir xushxabaring bo‘lsin*”, deb nasihat qilib turardi. (G‘aybulla Hojiyev, Xotiralar to‘lqini). ...*enkayib eshikdan kirib kelar va tancha ustiga qiyiqchasi orasida dastavez qilib keltirgan turshag-u jiydalarini sochib yuborib: Olinglar, ermak qilinlar, – deya saxiylik ko‘rsatar-di.* (Shoyim Bo‘tayeov, Otam nega jim). *Mendan qutulib, semiribdi, dedi pichirlab. U uy bolorlariga osib, shu kungacha saqlagan uzumlardan uch-to‘rt boshini qiyiqqa o‘rab, dastavez qilib keltirgandi, shuni kelinning qo‘liga tutqazdi: – Muni chayqab unga ber.* (Shoyim Bo‘tayeov, Kunbotardagi bog‘).

DASTSHO‘Y (Buxoro) Yuz-qo‘lni yuvganda suv shunga oqishi uchun ishlatiladigan, cheti qasnoqli, ichi chuqur metall idish. Ro‘zika momoning qiz nevarasi **dastsho‘y** bilan iliqqina suvga to‘ldirilgan kumushrang qumg‘onni tayyorlab, chap yelkasiga top-toza sochiq tashlagan ochiq yuz bilan kutib turardi. (Komil Avaz, Yoqut momo). *Ne ajabki, ba‘zi xujralarda qadimiy so‘zanalar, adras to‘nlar, chilimlar, kashkul, obdasta, oftoba, dastsho‘ylar terib qo‘yilgandi. Bu noyob buyumlar dollarga sotish uchun olib chiqilgan ekan.* (Oydin Hojiyeva, Odamiylik saranjomlikdan boshlanadi). *XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yasalgan kandakorlik buyumlaridan choydosh, mis, ko‘za, kosa, lagan, la‘li, kashkul, oftoba, qumg‘on, dastsho‘ylar hozir ham boysunlik ayrim xonadonlarni bezab turibdi.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).

DAVIL Gardishining ikki tomoniga teri qoplangan barabanga o‘xshash urma cholg‘u asbobi: dovul, do‘l. *Juozim qaylarda sinib yo‘qoldi, Davilim devolda osilib qoldi. Yorimnan ayrildim bugun, yoronlar, Paraxat turmushim nega chaypaldi?* (Safo Ochil, Yorimnan ayrildim).

DAVRACHIROQ Kerosin bilan yonadigan, uy shipining boloriga uzun sim bilan osiladigan chiroq. *Mayram qo‘shmijja shu fikrga keldi-yu, qattiq hayajonga tushdi. Qo‘lidagi davrachiropni tozalashni ham unutib,*

ular tomon bordi. Bidondan moy olib, davrachiroyga quydi. (Nodir Normatov, Jazo). [Qariya:] – Qosh qorayar mahal bog‘ga kirdim-da, to‘g‘ri qarshingdan chiqdim. Oldingda **davrachiroy** milt-milt yonib turardi. (Mehmon Baxtiy, Qariya – O‘rinboy Usmon tarjimasi).

DANGBOSH Ovsar. Toshqo‘rg‘onliklar amirlikka borib, qotilni top-tirib, jazosini beradilar; tovonga nikohidagi ayolini olib kelib, qishloqda xotin tegmay yurgan eng uquvsiz Xudoyberdi **dangbosh**ga tanmahramlikka topshiradilar. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

DELAGAY Yalangqavat to‘n. Uyning soya tomoniga Sanam xola uzun qilib o‘rmak qurgan, rang-barang jun iplarni bir-biriga to‘g‘rilab, goh qaychini, goh o‘rmak qilichini ishga solib, patgilam to‘qiyapti. Yoshi ellik beshlarda bo‘lsa ham, yuziga hali uncha ajin tushmagan. Egnida nafarmon tusli **delagay**. (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar). Xona issiq bo‘lishiga qaramay zarbof **delagay**, simobiy sallada o‘tirgan Valiahd avval Shunqorbekka, keyin “u bu yerda nima qilib yuribdi”, deganday Abduboriga qaradi. (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

DEPARA (Farg‘ona) Tuman. Devona pirim Qipchoq to‘qayi **deparasidagi** o‘z kapalarida bir yuz ikki yoshda vafot etadilar. (Mansurxo‘ja Xo‘jayev, Tilsimotli Dang‘ara). O‘rmon xo‘jaligi **deparasidagi** g‘aroyib va muqaddas go‘shalardan biri “Egizak ota” mozoridir. (Mansurxo‘ja Xo‘jayev, Tilsimotli Dang‘ara).

DERAVERSIN (Xorazm) Joyi jannatda bo‘lsin. Otam o‘lib qoldi, – dedi Bekjon yig‘lamsirab. – **Deraversin**, yaxshi odam edi. Polvonboy, seni zindonda deb eshitgandik, eson-omon qutuldingmi? (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

DEVONATELPAK Zaharli qo‘ziqorin. Bir xillarining boshidagi tepagi baxshilarning bosh kiyimiga o‘xshagani uchun **devonatelpak** nomi ham bor ekan. (G‘ofur Jo‘rayev, Yuring, tog‘ga chiqaylik!)

DEVORTAGIO‘T (Marrubium anisodon L.) Turar joylar yaqini, yo‘l chetlari, devorlar tagida, begona o‘t bosgan joylarda o‘sadigan, bo‘yi 80 sm gacha boradigan ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. **Devortagio‘tning** yer ustki qismida efir moyi, flavonoidlar, qatron moddalar, staxidrin, marrubin va boshqa moddalar topilgan. (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq

tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar).

DIGIL I Ustki qismi jun yoki paxtadan turli ranglarda bo‘yalib tayyorlangan kalava ipdan to‘qiladigan, bosildiriqning ostidan qo‘yiladigan sachoqli ot abzali. *Yuvosh bo‘ldi g‘irning qahri to‘kildi, Odamzodga Olloh bersin aqldi, Zavqi kelib yopayotir bek soqi, Chirazlangan zar sochoqli digildi.* (“Toshbosar” ertagi). *Bakovullar “Halol” dedi, zotga qo‘yilgan, o‘rkachiga guldor baxmal digil tashlangan g‘unon tuyani yetaklatishdi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

DIGIL II (Xorazm) G‘ildirak. *Aravaning digili, Larzon berdi, yor-yor, Qavmi-qarindosh ekan, Arzon berdi, yor-ror.* “Shoda-shoda marvarid”.

DIGIR (Xorazm) Shaklan ko‘zaga o‘xshash, og‘zi katta va tutqichsiz, tubi yassi emas, do‘ng sopol idish. *Digir aslida chig‘ir qasnog‘i (doirasi)ga bog‘lash uchun mo‘ljallangan idish hisoblanardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

DIGIRCHAK (Xorazm) G‘ildirak. *Dik-dikirchak, Bo‘yni egilchak.* (Topishmoq. Javobi – no‘xot). *Sherxon mashinaning yonayotgan qizil chirog‘iga, shamol olib kelayotgan gaz islarini hurpaygan junli bo‘ynini ko‘targanicha bir zum shamolga yuzini tutib turdida, digirchak izi bilan sahro bag‘riga qarab ketdi.* (Salomat Vafo, Teri ustidagi it). *Osmonning kumush gardini aylananar chog‘da, mag‘rib-u mashriq, oqshom va bugun, o‘tgan va kelasi kun osmonida shahd bilan aylanmish chaqin digirchaklar... yaqin kela-kela... tarang-turung... taqa-taqur bir- biriga urilib, osmon toqidan olovli yulduzlar, olovli yova, olovli sanchqi, nayzalarini otib, qiyomat jangiga kirishdi.* (Salomat Vafo, Hasan-Husan o‘q yoyi). *Bir vaqt qarasa, yo‘lning ustida aravaning digirjagiday chig‘irning ulli ko‘machiday o‘tlar yonib, goh osmonga chiqib, goh yerga tushib, yana osmonga chiqib alomat bo‘lib turibdi.* (“Gulruh pari” dostoni).

DILIKAPTAR Kechpishar uzum navi. *Jarko‘cha yoqasida bo‘yniga dor osmagan qolmaydi. Bo‘riguldan tortib pochaqirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog‘iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig‘-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

DIM (Xorazm) Juda. – Men *dim* shoshib turibman-da, og‘a, – dedi Bobojon, chim chayla eshigi yonidagi “Kavroves” mototsikliga ko‘z qirini tashlab. – Sizga bir iltimos bilan keldim. (Norto‘xta Qilich, Tantana). – **Dim** ham unchalik emas. Yuragimning gardlari bir-ikki eshakka yuk bo‘ladi. Faqat yaxshilab niqoblanib yuraman. Ayniqsa o‘zim bilan o‘zim qolganda, o‘h-ho‘o‘ ... *dim* yomon odamman. (Shuhrat Matkarim, Boljon).

DIRDIRAMOQ Qaltiramoq. U Sho‘rqishloqqa och-nahor yetib keldi. Xufton chog‘ida bir kosa mastava ichib, sovuqdan **dirdirab** to‘shakka o‘ranib uxlashga chog‘landi. (Qamchibek Kenja, Toshqin). Davlatmurod bo‘lsa, tizzalab o‘tirganicha boshini ko‘tarmay, yerga qaraganicha, qaltiragan, **dirdiragan** ovozda tinmay kalima qaytarardi. (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

DIYRALISHMA (Xorazm) Hofizlarning bahsli aytishuvi. ...Xorazm “Suvoriy” va “Savti”lari, **diyralishmalar** haqida ham so‘z yuritilishini ko‘zda tutgan xon, mazkur mashvaratni salobat bilan boshladi. (Kamil Avaz, Sozanda).

DISHAK (Xorazm) Oldingi yirik tishlari lablaridan yorib chiqib turadigan odam. – Nima qildik? – past bo‘yli, ko‘zlari potloq, o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlaridagi nashriyot bo‘lim mudiri, **dishak** Shodlik qo‘l ostida ishlovchi, ancha tanilib qolgan shoir, Abror Asrorga sinovchan tikildi. Jilmayishga urindi. (Shuhrat Matkarim, Axlat hidi).

DODA (Toshkent) Eng zo‘r. To‘raqul Labi-labiga tegmay: “Keling, aka, go‘shtdan oling, go‘shetni zo‘ri, **dodasi** bizda, kelavering”, deya narxini so‘ragan odamni qo‘yib yubormay, salomlasha turib qo‘liga go‘shetni tutqazadi. (Mirzapo‘lat Toshpo‘latov, Bozor).

DODOQLAMOQ (Xorazm) Valdirab gapirmoq. Momo keling, momo keling, choy ichasizmi, ovqat yeysizmi, deb **dodoqlab** boshlaydi. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

DOLTAK (Xorazm) To‘qaylarda o‘sadigan chirmovuq o‘simlik. Xaltani shu yaqin oradagi **doltak** bosgan to‘rong‘u panasidagi cho‘tirmakka ildirgan edim. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

DOMANA // DAMONA 1. Tog‘ yonbag‘ri, tog‘ etagi. Shaxzodaning uyqusi kelmabdi. Bir chetroqda o‘t qalab, gulxan yoqib o‘tiribdi, yarim

kecha bo'libdi, yuqoriga qarasa, tog'ning ichidan mash'al singari yorug' chiqib, tog'ning **damonasiga** urib turgan emish. ("Kambag'al qurandoz" ertagi). **2.** Daryoning qirg'og'i. Dardlarini daryo tushunadi. Daryoning dardi shamolnikidan ziyod ekanligini sarg'aygan ikki beti – **domanasi** bildiradi. (Bahodir Qobul, Tanovar). Nay nag'mani tosh bilan o'ynagan to'lqinlardan, karnay dovruq solmoqni sharraklardan, doira zarb sehrini tomchilardan, tanbur nola tortmakni **domanaga** yuzini urgandagi sasdan, g'ijjak oh urmakni hansiragan xarsang toshlarni o'zaro gurungidan ilib olganini bilmaganga olib, kulib-kulib xotirlaydi. (Bahodir Qobul, Tanovar).

DONASHO'RAK (Buxoro) Sho'rdanak. Bu ahvolda biz samovarxonalar va xonaqoh sahnida sayilchilar guruhi orasida o'tirishni ep ko'rmadik, qo'limizdagi choyjo'shda samovarxonadan choy va biroz **donasho'rak** olib olomondan uzoqlashdik, bug'doyzor chetida g'arq gullab yotgan o'rik daraxti ostida palos solib, bir-birimizga qarab yonboshlab choy ichish, **donasho'rak** chaqishga kirishdik. (Sadridi Ayniy, Esdaliklar). – **Donasho'rak** solib yurish uchun de! – dedi Nazar bobo ovozini balandlatib. – Bittasini ko'rganman, bodring solib yurganini. (Ilhom Zoir, Dardisar).

DONIYORIY Qovun navi. Mening paykalimda bitgan umrboqiy, shakarpalak, qizilmag'iz, bo'rikalla, ko'kkallapish, **doniyoriy**, gurvay, amiriy qovun yoki qo'zivoy tarvuzlarimning xaridorlari har qachon yo'lda bo'ladi. (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

DORG'OT To'g'on. – Tinchlikmi? Qo'lingizdagi nima u? – **Dorg'otti** kaliti. Noinsoflar suvdi bo'g'ib ketishibdi. – Ota sholcha ustiga horg'in cho'zilib, bolishni biqiniga tortdi. – Yovonga o'tib ketayotuvdim. (Norto'xta Qilich, Munojot). – Bu yerda nimani qo'riqlaysiz? – deb so'radi. – Qovun polizi yo'q, bog' yo'q. – **Dorg'otti**-da, aka! – dedi Hoshimjon, to'g'onga ishora qilib. – Qo'riqlamasak, "Oq oltin"liklar suvdi urib ketadi. Kechasi **dorg'otti** qo'riqlayman, kunduzlari paxtaga suv qo'yaman. (Norto'xta Qilich, Tantana).

DOVJUT (Megacarpaea gigantea Rgl.) Krestguldoshlar oilasiga kiruvchi, poyasi tik, yaxshi rivojlangan, tuksiz, yuqori qismi juda shoxlangan,

bo‘yi 70–150 sm ga yetadigan, ko‘p yillik o‘simlik. **Dovjut tog‘** mintaqasining o‘rta qismlarigacha bo‘lgan mayda shag‘al toshli joylarda o‘sadi. **Dovjut** ildizi kraxmal, qand, oqsil, yog‘, azotli va azotsiz moddalarga boydir. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari).

DOYI (Xorazm, Olot) To‘g‘a; yoshi katta erkakka murojaat shakli. *Chunki Sobir bodroq ular kabi maktab o‘quvchilarini emas, hatto katta-katta opalar, xolalar, ammalar, **doyilar**, og‘alarni ham tergar, birovlarini maqtab, boshqalarini qora yer qilar edi.* (Shuhrat Matkarim, Og‘riq). *Jumabozordan o‘tib, Qizilqal‘aga yaqinlashganda Ali polvon gap qotdi: – **Doyi**, mehmon och qolmadilarmikan? Soat ham o‘n ikkiga yaqinlashdi.* (Abdunabi Hamro, Olotning odamlari).

DUBALAY q. **duvalay**. – *Qurib ketgur, kechasi **dubalay** bo‘pti, uchakdagi bo‘yon bovlari uchib yerga tushibdi, dedi [opam].* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

DUDIK // **DUDUK** (Xorazm) **1.** Tolning nozikroq shoxini kesib olib, dumaloq qilib yumshatilgach, silliqqina shoxdan sug‘urib olingan po‘sti. Uning kichikroq kesmalarini hushtak qilib chalish mumkin. *Shu tabassumli savol-javoblar asnosida ikki kampirning gurunglari yoshlik davrlariga qarab qanot qoqdi. Qora toldan uzun **dudik** chiqarib, jamalak sochlariga qo‘shib o‘rganlari-yu, bektosh o‘ynab quvnaganlarini biri olib biri qo‘ydi.* (Komil Avaz, Yoqut momo). **2.** Nay. *O‘zim ham qo‘y boqib yurgan paytlarda qamishdan **duduk** – nay yasab qandaydir kuylarni chalgan bo‘lardim.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

DUDOR (Xorazm) Yosh qizlar bezak qilib boshiga taqadigan qush patli jig‘a. *Boshima osganim Xiva **dudori**, orosinda hilpiraydi bir tori. “Xiva dudori”. Raqs boshlanishi bilan raqqosalarning shavkalalari, ularga osilgan chap va o‘ng tomondagi tumorlar, tayxalaridagi par, **dudori**, jig‘asi keng planda tasvirga olinib, boshlovchi qiz ovozi bunga izoh beradi.* (Komil Avaz, Lazgi).

DUGANBEGI Oqsoqol. *Shohdan tap tortmay dedi Bir ovul **duganbegi**...* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).

DUGO‘SHA (Surxondaryo) Ikki quloqli ko‘zacha. *Poshxurddagi Normamat Tug‘anov, To‘xtamurod Rajabov xonadonida saqlangan 50,*

100 litr mahsulot sigʻadigan xumlar oʻtmishda qishloqda uzum shinnisi va goʻsht, moy mahsulotlari saqlash uchun ichi sirlangan xumlardan, ikki quloqli 10-15 litrli xajmdagi mahsulot sigʻadigan **dugoʻsha** (ikki quloqli koʻzacha), sut va qaymoq saqlash uchun xurmachalar qishloq xonadonlarida saqlanib kelinmoqda. (Poshurdning oltin poydevorlari).

DUJON (Buxoro) Homilador. *Mukar opa boshini oq doka bilan tangʻib, dujon ayolni qoʻltiq lab turardi...* (Hakim Sattoriy, Sogʻinch). *Ishqning uvoliga qolmasin bu jon, Armon azobidan qilgil himoya. Bechora yuragim umidga dujon, Kel, qalbm qiynalar, oʻzing boʻl doya.* (Xurshid Nurullayev, Kel).

DUKART (Xorazm) Kichkina qaychi. *Tokchadagi dukartni zang bosibdi, yor-yor, Chiqadigan bikani gʻam bosibdi, yor-yor.* (Komil Avaz, Sozanda).

DUKARTLAMOQ Kesmoq, qaychilamoq. *“Sodiq yigit” nomi bilan jizzaxliklarga tanish mirshab Sodiq ukki koʻz, boʻrsiqqa oʻxshash semiz, soqoli dukartlangan, yoʻgʻon moʻylovli odam edi.* (Nazir Safarov, Koʻrgan-kechirganlarim). *Uning moʻylovlari kalta qilib dukartlangan, burni qirrali, yuzi chiroyli, soʻlgʻin edi.* (Mixail Sholoxov, Tinch Don – Mirkarim Osim tarjiması).

DUKYOGʻOCH (*Lonicera microphylla* Willd.) Shilvidoshlar oilasiga mansub, boʻyi 1,5 m ga yetadigan, yosh novdalari kalta tukli, eski tuplari pushti rangli buta, mayda bargli uchqat. **Dukyogʻoch** may-iyun oylarida gullaydi. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, Oʻzbekiston oʻsimliklari).

DUMPAK (Xorazm) Doʻng. – *Buyogʻi qiziq, otam mushtday kesakni olibdi-da, dumpakni nazarlab otsa, kesak borib unga tegibdi, dumpak qoʻzgʻalmabdi.* (Matyoqub Qoʻshjonov, Dagish).

DURUSHTA (Xorazm) Somon bilan qirqilgan beda aralashmasi. *Somonxonadan bir quchoq durushta – somon bilan qirqilgan beda aralashmasini chiqarib sigirning oldiga tashladi.* (Matyoqub Qoʻshjonov, Dagish).

DUSOQ (Qashqadaryo) Ikki-uch yoshli urgʻochi qoʻy. *Oʻn besh-yigirma qadam pastda toʻrt gilam boʻyi yastangan yasqoq tosh biqinida bir*

dusoq (ikki-uch yoshli urg‘ochi qo‘y) pishqirgancha oldingi oyoqlarini tap-tap yerga urib, xezlanib turibdi. (G‘ozi Rahmon, Tilsimli tog‘lar).

DUT Shoxdan maxsus ishlangan tegirmon karnayi. (Tegirmonda tortish uchun bug‘doy, don qolmaganda, tegirmon tomiga chiqib chalinadigan karnay.) *Uzun uluchim* (o‘g‘ilcham), *Qisqa qilichim*, *Do‘mbira dutim*, *Nog‘ora nayim*. (Topishmoq. Javobi – cho‘p savag‘ich).

DUXYOL Dovdir, esar. *Vaqtida to‘ylarda aroq to‘la kosaga non to‘g‘rab yeyishi bilan mashhur bo‘lgan Abdirayim qattiqning kenja o‘g‘li aqlan sal zaiфроq bo‘lib o‘sdi. Ovulimizda “dovdir, merov”, qisqasi, “jinni” ma‘nosini bildiradigan “Duxyol” laqabi ham Xo‘rozqulga shu sababli taqalgan.* (Abduqayum Yo‘ldoshev, Boy).

DUVALAY (Xorazm) Kuchli bo‘ron. *Nimadir yuz berdi, mo‘tadil iqlim duvalay komida uzildi yerdan.* (Omon Matjon, O‘rtamizda birgina olma).

DUZIY (Xorazm) Oltin-kumushdan qilingan bezaklar. *“Hoy qizlar, Osiljonni yaxshilab yuvintiringlar, yaxshi kiyimlarni olib kelinglar, duziylarini taqinglar”, – deb o‘zi xon oldiga chopdi. Kanizlar esa “Osiljon so‘zida turolmadi, bo‘yni sindi-ku” deb ta‘na qildilar.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

DUSHMANKO‘ZI Yomonlikni ravo ko‘radigan (odam). *Yana uning xotiridan armiyadagi akasiga xat jo‘natganlari ham o‘tdi: – Bilmasam, otamning yodgorligi. Ta‘mirlab minib yursak, dushmanko‘zi bo‘larmidi?* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi).

DUCHLASHMOQ (Xorazm) Uchrashmoq. *Ovchilar ayri-ayri yo‘lga tushib, Novdan tumanladilar va Dehvaronda duchlashib, Qizilsuv yoqalab yurdilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Hajring vasli hijron ila duchlashdi Shirin kalom so‘zlarini sog‘indim. Kelin salom nozlarini sog‘indim.* (Nurulloh Doston, Sog‘indim). *Faqat to‘y-ma‘rakada duchlashib, ikki og‘iz so‘rashishdan nariga o‘tmagan qaynog‘a-checha va qayni-kelinlar suhbatini qo‘y sutiga damlangan shirchoy ustida rosa qizidi.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

DUG‘ (Chiroqchi) Qurtini suvda ezib, so‘ngra qaynatib tayyorlanadigan ovqat. – *Ena nima pishiryapsiz? – Qurtova. Tog‘liklar dug‘ deyishadi.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). **Dug‘** tayyor bo‘lish

arafasida enam qozonga sariyog'dan yarim cho'mich soldi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

DUG'BOY (Surxandaryo) Boysun tog'larida o'sadigan shifobaxsh giyoh. *Tumanda mavjud bo'lgan yovvoyi pista, do'lana, achchiq bodom, uchqot, tug'dona, zirk, chakanda (oblepixa) va boshqa noyob daraxtlar, zas dug'boy, andus, kovrak, ayiqquloq, choy o'ti, xarron, ipor, o'lmas o't, qontepar, oq chayir, kiyik o'ti va boshqa dorivor o'tlardan turli xil dorivor mahsulotlar tayyorlab turli xil shaklda qadoqlab chetga eksport qilish mumkin. (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).*

DO'KAY Obro'li shaxs, kazo-kazolar. *Shuncha fan do'kaylari turganda bizga yo'l bo'lsin! Foydasi yo'q, foydasi. Siz bilan bizning foydani anovi basseyndan topib turganimiz o'zi g'animat. (Erkin A'zam, Jannat o'zi qaydadir). Davlatboy uniyam yengsa, do'kaylarning bizga xusumati oshib, oxiri bir kul urib o'ldirib qo'yardi. (Sobir O'nar, Bir o'larman chavandoz). Bu kishilar Tuyoqlining do'kay chavandozlari. Durustroq qo'noq qilmasak, gapning tagida qolamiz. (Anvar Suyun, Solin yo'li). Biz Kamarsoy chollari – do'kaylari, ertablari nevara yetaklab qirlarga mol-hol haydamaymizmi endi? (Is'hoq Ismoilov, Meteorit).*

DO'LTA I Bo'ri. *Do'lta* xotirjam, kashtasini keltirib avval bo'yinini, keyin navbatma-navbat orqa oyoqlarini kerdi. (Bahodir Qobul, Tanovar). *Qasd kun ekan, oy og'ish oqshomida jondor doridi. Do'ltalar davra olishdi. Qashqirlar to'dani to'rt tarafdin o'rab keldi. (Bahodir Qobul, Tanovar).*

DO'LTA II Durda. *U dasturxondagi nondan sindirdi. Do'ltali, sutli nonning hidi ishtahasini qitiqladi. (Enaxon Siddiqova, Jalada).*

DO'LTABO'RI Katta bo'ri. *Qaroqchi-yo'lto'sarlarga yo'liqmagan taqdirdayam, keyingi yillarda qamishzorlarda qandaydir vahshiy hayvonlar paydo bo'lib qolgandi: birov ajdar desa, birov do'ltabo'ri yoki odamxo'r yo'lbars derdi. (Soyim Is'hoq, Qiyomatga qolmagan qasos). Do'ltabo'ri bu – kallasi bir bo'lak, tanasi bir bo'lak katta ko'k bo'ri. (Bahodir Qobul, Oy yo'li). Qosh-ko'zidan to'daboshi, do'ltabo'riligi bilinib turgani ko'zini berkitib turgan jonivorga yaqinlashdi. (Bahodir Qobul, Tanovar).*

DO'LVOR I Oqim. [Odamlar] Ko'chalardan bitta oqib chiqib, katta **do'lvor** bo'lib, o'lahatdan kelinadigan yo'lga – Xishayniga qarab, oqa boshlashdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

DO'LVOR II Sodda. Ammo **do'lvor** jo'ramni xafa qilib qo'yamay degan maqsadda bu ajabtovur “sovg'a”ni rad etishim sababini yotig'i bilan, ilmiyroq asosda tushuntirishga urindimki, xo'p, ana, o'zing uch yuz chaqirimlik yo'ldan kelding shu matohni ko'tarib, xo'sh, bunday o'ylab ko'r-chi, nima bo'ldi, qaysi ishing birdan, sekundda, garantiyasi bilan jo'nashib ketdi? (Abduqayum Yo'ldosh, Puankare).

DO'LVORLIK Soddalik. – Uka, dangal aytavering, – kombaynchi **do'lvorligiga** bordi. – Ochiqchasiga bo'lgani ma'qul, shunga qarab soz qilardim. (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).

DO'RAMOQ (Xorazm) Bunyod bo'lmoq, yaralmoq, tug'ilmoq. Jonlidan jonsiz **do'raydi**, Jonsizdan jonli **do'raydi**. (Topishmoq. Javobi – tovuq, tuxum, jo'ja). ...Afrig' ham, Sarjamug' ham, podsholikning boshqa o'nlab azamatlari ham chimildiqqa sherdek baquvvat bo'lib kirishgan, ulardan ko'rkam-ko'rkam, oqil-oqil, chiroyli-chiroyli farzandlar **do'ragan**. (Yangiboy Qo'chqorov, Etikdo'zning elchisi). Vaqtida vohaning katta ulamolaridan biri bo'lgan otasi, yaxshidan yaxshi **do'riydi**, deb o'g'lini qadrdonlaridan birining qiziga uylantirgan edi. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

DO'RJI (Qashqadaryo) Kattaroq miqdordagi pul; mo'l. Nasim sergak bo'ldi. Bo'riga sinovchan tikildi. Bo'ri ko'zlarini pirpiratdi. Gapida davom etdi: – Nasim oshna, sen Momoqizga ayt, Bo'ri seni tushlarida ko'radi, de. Senga qiyoqni **do'rjiroq** berishida gap bor, de. (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). – Ermat polvon, – dedi, – siz manovi Shukuy... e, astag'firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O'zi, yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo'пти-da! Qani, yuringlar. Rais bova, manavi polvonlarga duo bering. **Do'rjiroq** zot qo'ying, kelbatidan ikkoviyam katta polvonga o'xshayapti! (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). Nomard amakim... Otam avvallari uyimizga biror nimani **do'rjiroq** olib kelsa, albatta, amakimga ham mendan berib yuborar, bolalarining ham og'zi tegsin, derdi. (Jasur Kengboyev, Shubha). Endi shu qashqir mollarimizni

Susambilga zinhor yaqin yo'latmaydi, o'zi bir joylardan boylarning son-sanoqsiz mollarini haydab kelib boqib yuradi, evaziga **do'rji-do'rji** haq oladi, uni quvib solishga hech kimning qurbi yetmaydi, haddi sig'maydi. (Is'hoq Ismoilov, Meteorit). Har bir qishloq yo'ovuldan kelgan to'ychilarni to'dasiminan bir uyga tayin qildik. Tobin, tobiniga qo'sh tashlay berasiz. Agar mehmon **do'rji** bo'lsa, bo'linadi, qo'niq olgan hamsoyasiminan kelishadi. (Behzod Abdusamad, Tog' atirguli).

DO'MBOL (Tojikiston) Chipqon. Tanaga tanda qo'ygan **do'mbol** yorilmay qolmaydi. (Poyon Ravshanov, Amir Temur sulolasi).

DO'MLAMOQ: Og'iz do'mlamoq. Gapisirishga chog'lanmoq. Beknazar **og'zini do'mladi-yu**, o'zini eshitmaganga soldi. (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

DO'NMA (Xorazm) Yaltiroq. Ustida (qarindoshimizning) malla chakmon yoki **do'nma** to'n. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

DO'MBIQ (Xorazm) Tuproq uyumi. Keyin bilsam siyraklashtirilgan jo'xorining boshi bir yashar bolaning kallasidek bo'lib, donga kirgan paytda sug'orish kerak bo'lsa, o'sha **do'mbiq** jo'xorini shamoldan yoxud o'z og'irligi sabab yiqilishidan saqlab qolar ekan. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

DO'SARA Sodda, dilkash, mehribon. Darhaqiqat, bir qarashda inoq, **do'sara** ko'ringan Qavomning mijozida shuhratparastlik unsurlari yo'q emasdi. (Mirmuhsin, Me'mor). Admiral og'ir harbiy sinovlardan o'tgan bo'lsa ham, ekspeditsiya, korabllar, flotlarga boshchilik qilgan bo'lsa ham ancha **do'sara** odamga o'xshab ketardi. (Abdijamil Nurpeisov, Halokat – Lola Tojiyeva tarjimasi). **Do'sara** ko'ringani bilan badjahl, jahli chiqsa, olovdek yonadi, o'zini sarishta qilolmaydi; katta-kichikni birdek sansiraydi. (Ilhom Zoyir, Qismat o'chi).

DO'G' (Qashqadaryo) Ayronga tog' piyoz, sarimsoq, anzurpiyoz qo'shib qaynatilib, betiga qo'y yog'i yoki sariyog' quyib dasturxonga tortiladigan shifobaxsh taom. **Sumbul tog' giyohlaridan do'g'** pishira boshladi. (G'ozzi Rahmon, Langar lavhalari). **Sumbul esa tog' giyohlaridan yig'ib do'g'** pishiradi. (G'ozzi Rahmon, Kelintosh afsonasi).

DO'NGALAK (Xorazm) G'ildirak, qasqon. *Chig'irning katta do'ngalagidagi digirlar biri ikkinchisini quvlagandek suvlarini novaga shopirib to'kar, yana suv to'lishi uchun pastga – qarz tomon shoshilardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

DO'NGMO'YINLIK Takabburlik. *“Heh, tavba, kambag'alning orqa tomiri tarang bo'ladi, deb bekorga aytishmaskan-da. Senga kim qo'yipti do'ngmo'yinlikni. Undan ko'ra aka-aka deb qo'ltig'imga kirmaysanmi, ahmoq.* (Mamatqul Hazratqulov, Momaqaldiroq).

DO'NGSA Kichik tepalik. *Kuchli oqim ichra kalovlandi, oqim baquv-vat gavdasini qayoqqadir surib ketdi. Oxiri bir oz qiyaroq do'ngsa joyga chiqib qoldi.* (Asad Dilmurod, Mezon burji).

E

EGARQOSH I Egarning turtib chiqqan old qismi. *Egarqosh egarqoshga tegib qarsilladi, Davlatboyimiz egardan uchib ketdi...* (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi). *Tortqini tarang qilib, egarqoshga aylantirib oldim.* (Anvar Suyun, Solin yo'li). *Sarimsoq taqimidagini shartta egarqoshga oldi. Oyoqlarini uzangidan chiqarib, uning qayishidan o'tkazdi.* (Soyim Is'hoq, Ko'klam adog'ida kuz).

EGARQOSH II Qirrali qosh. *Egarqosh qilib o'sma qo'ygan, mayda o'rilgan uzun sochini burab-burab qilgan turmaklarini zar ro'mol bilan tang'ib olgan qizlar mashinadan tap-tap qilib yerga sakrab tusha boshladilar.* (Said Ahmad, Kiprikda qolgan tong).

EJASHMOQ (Xorazm) Tegishmoq, o'chakishmoq. *Maktabda to'polon qilmadi. Hech kim bilan urishmadi. Qizlarga ejashmadi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas). – *Birinchidan shu aytgan raykomdagilaringni enasini Uchqo'rg'ondan ko'rsatganman shu vaqtda. Qaytib mongo ejashmadilar. Bu bir. Ikkinchidan she'rlarning o'zi yaxshi edi.* (Shuhrat Matkarim, Bahs).

ELAKIMOQ (Olot) O'rganmoq. *Kimning bag'riga kirsam, u mendan minnatdor bo'lib, elakib qolar, yaxshi ko'rardi, faqat sen yoqtirmading,*

sevgilim! (Stefan Sveyg, Noma'lum ayol maktubi – *Sharif Talibov tarjimasi*).

ELANMOQ (Qashqadaryo) Yalinmoq. *Bu zamonda bировga ahmoq odam qarz beradi, olgan odam vaqtida qaytarmaydi, elanib yurasan-yurasan orqasidan...* (Sobir O'nar, Tarvuz). *Yuragim yuragingga elanar, Bir kaming bo'lmasin bir kam dunyoda.* (Matnazar Abulhakim, Etimologiya lug'ati).

ELBOSHI Qishloq yetakchisi. *Tayloq Ro'zi, Tog'ay Musurmon, Aliqul Ramazon va yana ko'p Chuvilloq, To'qmor, Annaro'z singari qancha qishloqlarning kayvonilari, elboshilari bilan bordi-keldi bardavom bo'lib kelardi.* (Poyon Ravshanov, Birodarim).

ELBURUTDAN (Qashqadaryo) Juda erta, muddatdan avval. *Do'ngkalla elburutdan voyaga yetib, allaqachon mustaqil yashash ko'nikmasiga ega bo'lgan esa-da, hali-hanuz onasini qumsaydi.* (Normurod Norqobilov, Do'ngkalla). *Xudojon, undan oldin mening jonimni ol! Kimdir ayolni yupatishga tirishadi: (Bu enasi) – Elburutdan joni chiqmagan odamga aza ochma! Toshmurod uchun Nortoydan boshqa kimning joni achiydi?* (G'ozi Rahmon, Oqibat so'qmog'ida).

ELBO'LMOQ (Qashqadaryo) q. **ellashmoq**. *Shevasidan chiroqchilik ekanligi sabablimi, yo ochiq yuz, ko'zlaridagi beg'uborligimi, bilmadim, lekin darrov el bo'lib ketdik.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

ELIBOY (Qashqadaryo) Chorvador. *Shuytib qistab, g'ayrat qilib, Hasanxon Sahrodagi eliboyga aralashdi.* (“Dalli” dostoni). *Bir kuni qarapchi eliboylardan biri Bulung'urga ko'p ushoqmol tushiribdi.* (Anvar Suyun, Solin yo'li). *Eliboilar uy sirin qo'rga chiqib kengashmas, Bo'yni sinib ketsayam el ichida, engashmas.* (Hol Muhammad Hasan, Or).

ELLASHMOQ (Qashqadaryo) Chiqishmoq. *Olimboy qulfi-dili ochiq, kirishimli ekan, darrov ellashib-tillashib-qovushib ketdi.* (Abdusaid Ko'chimov, Safar). – *Yana o'sha oshiqlarimni esga solyapsiz-da, chiqon!.. Rostiga ko'chsam... ular hozir ham topiladi. Ammo-lekin uyalaman... qizlarim, kuyovlarimdan uyalaman! Ellashib ketsam, ne xo'p!.. Biron-bir*

vaj bo'lib, kelishmay qolsam, kim degan odam bo'laman? Qanday bosh ko'tarib yuraman mahalla-ko'yda? (Fayzulla Salayev, To'lov).

ELOVRAMOQ (Qashqadaryo) Bosinqiramoq. *Men daraxtlarni, uylarni oqlayman. Meni esa qoralaydilar. Oq-u qora atalgan bu ikki ziddiyatli tushuncha aro odamlarga hayrat va umid bilan **elovrab** qarayman.* (Xoldor Vulqon, Yopilgan advokatura).

ELTIBIYI (Xorazm) Domla-imom xotinlari. – *Tashvishga soldikmi? – dedi bika qorako'l papaxini boshidan olib. Enaga esa “Men bir **eltibiyi** bilan gaplashib kelay” deb chiqib ketdi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

ELYOTAR Oqshom. – *To'yg'acha bir o'tung. – Qachon?! – Aytoliq, bugun **elyotarda**. – Qandoq bo'lur? – Qantdoq bo'lur. O'zum siz taraf bo'lub kutub olurmen. Qarindoshmiz, Bek og'a. Soatliq shakarguftorlikdin so'g'in qaytursiz... (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul). Ular mening qilgan ishimdan mamnun edilar. Shu kuni oqshom g'ira-shirasigacha yangi do'stlarim bilan xursandchilik qilishdik. **Elyotar** payti (hatto undan ham kechroq) oyog'imni sudrab, zo'rg'a xobgohimga yetib keldim. Ko'zlarimni sochiq bilan berkitib, xonamdagi barcha oynalarni sindirib chiqdim (aksiga olib ular ko'p edi). (Sabohat Rahmon, Aks). Eshmuhammad bilan Shunqorbek ishlarini **elyotar** paytigina boribgina zo'rg'a tugatishdi. (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).*

ELCHIMOQ (Farg'ona) Ergashmoq. *Onaning rozilik so'zlariga bu birgina “lekin” **elchib** kelganidan, bechora qizlar sevinish to'lqinlarini yana bir qur ko'tarishga fursat topolmadilar.* (Abdulhamid Cho'lpon, Kecha va kunduz). *Axir, Miryoqub amaldor bo'lmasa, loaqal mingboshiga mirza yo tilmoch bo'lmasa, o'zi o'rus tilini tuzuk-quruq bilmasa... nega munaqa mingboshining ketidan **elchib** yurardi? Nega?* (Abdulhamid Cho'lpon, Kecha va kunduz). *Yarashiqsiz qiligidan, ayol kishining ortidan bo'taloqday **elchiganidan** endi xijolat tortdi va tez-tez yurib, hojatxonaga o'tdi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

EMARI (Buxoro) Anoyi, sodda, go'l. – *Qiziq ekansiz-a, usto, – dedi Elmurod bobo mitti ko'zlarini o'ynatib, – qaysi **emari** eshakka to'qimni ayilsiz bosadi? Mana, to'qimi shu yerda-ku. Anovi jiyanchangiz olgandir.* (Ne'mat Aminov, Ayri).

EMASA(M) (Qashqadaryo) Bo‘lmasa. *Emasam*, xeshlari qora tortib kelishganidek, u ham vaqti-vaqti bilan ularni yo‘qlab turadi. (Normurod Norqobilov, Xesh). *Buni eshitgan Eralining seskanib ketganini zimdan kuzatib turgan Usmon mamnun bo‘lib, o‘rnidan turdi. – Mayli, ketdik emasa.* (Abduqayum Yo‘ldosh, Osmon og‘ushi). – *Xo‘sh, manavi qumg‘on. Siz uni doim yoningizda olib yurasiz. Shu qumg‘onda choy qaynatasiz-a? – E-e-ey, boshqa nima qaynataman, emasam?* (Qo‘chqor Norqobil, Shafaqdagi shu‘lalar).

EN Adashib ketmasligi uchun mol qulog‘iga solinadigan belgi, tamg‘a. *Turdi Ortiqqa yordam so‘rab qaradi. Ortiq qo‘yning ustiga engashib: – Qani? – dedi. – Men ham bir qo‘yni qo‘ziligidan enlab qo‘ygan edim. O‘sha en bo‘lishi mumkin.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar).

ENLAMOQ Mol qulog‘iga en solmoq. – *Sizning enlagan qo‘yingiz sovxozning suruvida nima qilib yuripti o‘zi? – so‘radi Mansurov.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar).

EN OLMOQ (Jizzax) Taqlid qilmoq, namuna olmoq. *O‘ktam cho‘qqilarning kumushrang qorlaridan en olib shoshayotgan jilg‘a ustida parlanayotgan bug‘ misoli subhidamning rutubati o‘ynaydi.* (Anvar Suyunov, Erta kelgan bolalik).

ENISH (Jizzax) Tog‘ning qiyalik joyi. *So‘ngra tog‘ biqinidagi ovullar tepasida muallaq turib qolganday bo‘ladi. Biroz o‘tib, enishga – Muzbel ustiga qarab yuradi.* (Anvar Suyunov, Erta kelgan bolalik). *Sanoqsiz bahaybat archalar buloqning bosh tomoniga ega chiqqan. Ikki yelkasidan toshlar tushib kelgan. Enishga yo‘l topgan suv toshlarni bo‘lib turadi.* (Bahodir Qobul, Oybuloq, Oynabuloq). *Yo‘lning u tomonidagi ulkan xar-sangga chiqib, enishdagi soyga ko‘z soldim.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

ERBAHO(SI) (Centaurium) Gazako‘tdoshlarga mansub bir yillik va ikki yillik o‘simliklar turkumi. *Ayni ko‘klam soy yoqalarida qo‘ng‘iroq bo‘lib gullaydigan, boychechak tusli, ammo ko‘m-ko‘k siyoh rang erbahosi cho‘lika telpakgullar yam-yashil maysalar ustiga siyoh to‘kilganday sochilib yotadi.* (G‘ozi Rahmon, Shukuhli karvon). *Sap-sariq qoqilar, ko‘k-qizg‘ish no‘xataklar, nofarmon erbaholar orasida uzoqdan qip-qizil gilamga o‘xshab ko‘zga tashlanadigan – qiyg‘os ochilgan lolaqizg‘aldo-*

qlar edi. (Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar). *Cho'lika telpakgullar yamyashil maysalar ustiga siyoh to'kilganday sochilib yotadi. Qizaloqlar uni terib olib, boshiga chambarak yasaydilar. Uning g'oyat shifobaxshligini bilgan ayollar soyada quritib, ich og'rig'iga davo qiladilar. **Erbahosi** bor joyda yigit o'lmas, degani shundan qolgan.* (G'ozil Rahmon, Shukuhli karvon). *Keta-ketguncha soylilik ekani, ayni bahorda faqat tog' etaklarida o'sadigan **erbahosi**, shuvoqlarining to'p-to'p bo'lishi, ular orasida tulki-yu tovushqon, shaqol-u bo'rilarining ko'p bo'lishi taxminni tamg'alaydi.* (G'ozil Rahmon, Qarqara mergan). ***Erbahoni** etik yechib bo'lsa ham, Anov toshqin suvdan kechib bo'lsa ham, Ziyon qilmas kimki olsa dastalab.* (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

ENGARAK q. **erganak** 1. (Qashq.-Surx.) – *O'zimam bilib edim-ov, – dedi-da, yog'och **engarakdan** (qo'lbola darvoza) keyin eniladigan jarlikning u betidagi xo'jalik idorasiga qarab shovqin soldi: – Ho'-o', Boltabo-oy!* (Shukur Xolmirzayev, Quyosh-ku falakda kezib yuribdi). *Ha, **engarakdan** chiqarib, soyga optushadigan so'qmoqqa yo'naldi. Xayriyat, yer loy-sirpanchiq edi, xolaning o'ziyam bazo'r qadam bosardi.* (Shukur Xolmirzayev, Bandi burgut).

EMGAK (Qashqadaryo) Mehnat. *Turmush tarzi tirikchilik kechirishga yo'naltirilgan oilalarning farzandlari **emgagini** ko'tarib, o'rimalay boshlagach, ro'zg'or ishiga jalb qilindi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

ERBO'TA (Centaurea cyanus) To'q ko'k rangli guli bo'lgan o'simlik; bo'tako'z. *Hulkar o'rgan o'tini bir bog' qilib bog'ladi-yu, o'roqchasini bog'ning ustiga sapchib qo'ydi. So'ng marzada ochilgan nafarmon tusli **erbo'ta** gullaridan terib, chambar yasay boshladi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar).

ERGANAK 1. *Xodadan yasalgan qo'lbola eshik. Nafas shira hovli adog'idagi pastakkina **erganak** darichani ochib, qo'shnisi Bo'ron cho'ponning tomorqasiga o'tdi va boshi uzra yoyilib turgan majnuntol novdalarini qo'llari bilan surgancha ariq yoqalab cho'zilgan ensiz uvatdan yurib borarkan, hayron bo'ldi.* (Raimqul Suyarov, Oy to'lgan kecha).
2. *Shox-shabbadan qilingan to'siq, chetan devor. Ayniqsa, shox-shabbalari tig'iz **erganak** qordevorga o'xshardi. Ayoqning kuchliligidan qor*

beti muzlagandi. *Qo'shxo'na tarafd'an: – Obloqul, ho-ov Obloqul! – degan xitob eshitildi. – Tim-tirs ketding, shu atrofdamisan?! (Anvar Suyun, Solin yo'li).*

ERGACHAK Yonma-yon qalamadan yasalgan, ustiga ko'rpa-to'shaklarni yig'ib qo'yishga mo'ljallangan anjom. *Ergachakning pastiga yostiqlarni, so'ngra ko'rpachalarni taxlab, sakrab o'ynay boshladilar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

ERISH Matoning uzunasiga o'tgan ipi; o'rish. *Junni qanday savab, undan pattivitni qanday ajratishni, jun bilan paxtani savash o'rtasida farq borligini ham biladigan bo'ldi. Erish bilan arqoqni qanday yigirishning mashqini oldi. (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). Kelajak bilan quyosh arqoq-erish payvasta, Atlaslarga burkadi Vatanimning har yog'in. (G'afur G'ulom, Onaxonlarga).*

ERTACHI (Surxondaryo) Erta. *“O'limdan boshqa hamma ishning ertachisi yaxshi” degan gap bor. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Sut sotuvchi bola o'sha kuni kechga dovur ko'z o'ngimdan ketmadi. Ismi juda chiroyli ekan: Umid. Ishda ham, uyda ham u haqida o'yladim. Keyingi kun atay ertachi tushib bolani qiziqsinib kuzatdim. (Luqmon Bo'rixon, Sut sotuvchi bola). – Ertachi ekkanakan, – dedim men merovsirab, xuddi o'zim yerga urug' qadaganday. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).*

ESAYMOQ (Qashqadaryo) Ulg'aymoq. – *Nimaga chiroqni yoqmad-inglar, chiroqni yoqinlar, ish buyurdi Roziya esayib qolgan qizlariga, – bularga sovchi keladigan bo'lib qoldi-yu, haliyam qo'g'irchoq o'yindan bo'shamaydi, – yo'liga tanbeh ham berib qo'ygan bo'ldi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Anchagina esayib qolgan Saida qo'shni xonada ukasini uxlatayotgan edi. (Saidvafo Boboyev, Qismat chig'irig'i). Uy kiyimidalgidanmi yoki uyda bekalik yumushlarini qilib yurgani uchunmi, haytovur, Edna ko'zimga ancha esayib qolganday ko'rindi. (Chinua Achebe, Xalqdan chiqqan odam – To'lqin Alimov tarjimas).*

ESI OG'MA Jinnni, tentak. *Uning nimaga bunday deyayotganini anglolmadim. Esi og'maroq bo'lsa kerak, degan xayolga bordim. (Dilmurod Sodiqov, Najot daraxti).*

ESKANLAMOQ (Samarqand) Allergiya toshib, badani qichishmoq. *Asabiylashganim bois badanim eskanlab ketdi.* (Asad Dilmurod, Oq ajdar sayyorasi).

ETLAM (Qashqadaryo) Tuproqli. *Ular xuddi yuzga toshgan yaradek etlam yerda bo'rtib yotadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Toshlar orasidan o'tgan yo'l tugab, **etlam** yerga chiqdik. (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron).

EYLANMOQ Kechikmoq. *Ro'zika momo noiloj yana oshxona tomonga o'tdi va biroz eylanib, qo'lida kichikroq bir tuguncha bilan Yoqit momo oldiga kirdi.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

ESHAKOLMA Olmaning yovvoyi, asosan, to'g'rab qoramollarga beriladigan navi; rozmarin. *U yerda baland-baland o'sgan daraxtlar bo'lardi. Nimagadir, bu navni odamlar "eshak olma" deyishardi.* (Nodir Normatov, Jazo). *Tanasini qurt kemiraverib-kemiraverib g'ovak qilib tashlagan eshakolma ostini Ulg'ay ena supurib-sidirdi.* (Shoyim Bo'tayev, Kunbotardagi bog'). *Nozirlar ham har xil takliflar kiritishibdi: – Tirigicha yerga ko'mib, ustiga eshakolma ekish kerak.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).

ESHAKYO'L Tog'li joylarda yolg'izoyoq yo'l. *Shamol-u izg'irin bo'lib, qor qalin yog'ishiga qaramay, Intizor qishloqqa tezroq yetish niyatida eshakyo'ldan jo'nabdi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

ESHAKSHO'RA Gultojixo'rozdoshlarga mansub, poyasi tik, tukli, shoxlanib o'sadigan, bo'yi 20–75 sm, bir yillik begona o't; machin. *Zulfiqor kun bo'yi Chag'irtepada tentiradi, u yerda bir nima izlayotgan odamga o'xshab tosh, chag'ir, qum aralash tuproq, siyrak shuvoqlar-u eshaksho'ralarni oralab, ularni nazardan o'tkazdi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

ESHKILLAMOQ (Forish) Haddidan oshmoq. *[O'g'iloy Xumor yig'ichiga:] eskillama, manjallaqi.* (Mamadali Mahmudov, O'lmas qoyalar).

ECHKIICHAK (Astragalus unifoliolatus Bge.) Dukkakdoshlar oilasiga mansub, cho'lda o'sadigan yem-xashak chala buta. *Buning ustiga Qar-*

ovul tepa xashakning koni. Andiz-u yantoq, shuvog'-u echkiichaklar to'p-to'p bo'lib o'sib yotadi. (G'ozni Rahmon, Ko'chki).

ECHKITOL (*Salix songarica* Aders.) Bo'yi 8–10 m ga yetadigan, shoxlari ingichka, yosh novdalari sarg'ishroq, barglari tuksiz, silliq bo'lgan, barg yozishdan oldin gullaydigan, toldoshlar oilasiga mansub daraxt. *Echkitol* aprel oyida gullaydi. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O'zbekiston o'simliklari).

F

FOTMACHUMCHUQ Jibljibon. *Yo'lning chap tomoni unga yondosh cho'zilib ketgan qizg'ish jar, jar tubida suv miltiraydi, u yerdan fotmachumchuq va cho'ponaldag'ich qushining chiq-chiq, qiyiq-qiyiq ovozlari keladi. (Shukur Xolmirzayev, O'n sakkizga kirmagan kim bor). Keyin qoratorning shabada har birini alohida mehr bilan silab, har birini, ham hammasini shivir-shivir jo'rovoz kuylatayogan barglari orasida maydagina moviy fotmachumchuqni ko'rib, rosa to'lqinlanib ketdim. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistoniga safar). Tog'larida kaklik, bedana, burgut, qiyg'ir, ko'k kabutar, qora qarg'a, zog'chalar, so'fito'rg'ay, sassiqpopishak, musicha, qumri, chumchuq, fotmachumchuq, loyxo'rak, yoz va bahor oylarida qaldirg'ochlar, zarg'aldoqlar, bulbullarni uchratish mumkin. (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi). Ko'lvor ilon ham ertalab xo'rak dardida inidan sudralib chiqqan, o'zini merovlikka solib zarang shoxida sayrayotgan fotmachumchuqqa tashlanish uchun payt poylab yotardi. (Hamid Alp, Qo'nalg'a).*

G

GABA (Qashqadaryo) Erta tug'ilgan uy hayvoni. *Ko'ganda gaba qo'zilar, Iydirib bo'yni cho'zilar. Jamrashganida mangrashib, Emacha bovring ezilar. (Hol Muhammad Hasan, O'lan).*

GAJGAL G'adir-budur. *Ovulimizning tog' tarafida turli ko'rinishdagi qoyalar, gajgal toshlar orasida buloq bor. (Isak Sattorov, Sehrli tosh).*

*Ammo semizgina shoxdor to‘xcha to‘xtab ma‘raganicha, o‘zi istamagan holda **gajgal** tosh yoniga sudralib boraverdi. (Isak Sattorov, Vahimali chashma).*

GALAGOV (Qashqadaryo) Qo‘sh haydash. *Xirmonchi chollar Bo‘ri-ga **galagov** haydattirmadi. (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). **Galagovga** toq tuyoqli hayvonlar – ot va eshak qo‘shiladi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Oydonaning o‘g‘li **galagov** haydaganida qanchalar havas qilgandim. Endi menga xuddi shunday havas qiladiganlar bo‘ladi. (Nazar Eshonqul, Urush odamlari). Bir vaqtlar xirmonda charchab qo‘r ustiga yiqilganda shunaqa xayollarga sho‘ng‘igan, **galagov** – xirmonga qo‘shilgan mollarni haydashdan bezib qushga aylanib qolishni orzulagan. (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a).*

GALAGUV (Qashqadaryo) q. **galagov**. *Kuzda pishib-yetilgach, qo‘lda o‘roq bilan yig‘ishtirib oladi, xirmonjoyda eshak, ho‘kiz, ot qo‘shib **galaguv** haydaydi, shamolda sovurib, donini donga, somonini somonga ajratadi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

GALINBIYI (Xorazm) Kelinoyi. *Oliya **galinbiyisini** bu xonadonga bugun yetaklab kelgani xato bo‘lganini angladi. (Komil Avaz, Sozanda). Qiziq ekansiz! Shu sovuq bilan shog‘olning yonida tovuq bilan sovuq ne degan gap? Hozir borib **galinbiyimning** issiqqina qo‘ynina kirganingiz ming davlat emasmi? (Shuhrat Matkarim, Xavf).*

GALLAMOQ Bo‘g‘izlamoq. *Zotdor va yana shum, abjirlari esa bo‘rini o‘ynatadi. Baribir, bo‘ri ularniyam **gallaydi**. (Dilmuroq Sodiqov, Yurtkezar).*

GANGAVUL Tog‘ giyohi. *Qarinlar tozalanib, pudina, **gangavul**, alqor singari xushbo‘y dorivor tog‘ giyohlari suvi bilan ishlov berilgach, undan idish tayyorlanadi. (Hakim Sattoriy, Shahodat).*

GANNIMAK Beda. *Bir bog‘ **gannimak** kerak edi-da. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). ...yaylovlarda shevar, **gannimak**, yovvoyi yo‘ng‘ichqa, annuz, chayir, ajriq, alqor, avg‘on kabi tog‘ o‘tlari tabiiy ravishda, yomg‘ir bilan unib chiqadi va saraton chillasining o‘rtasida pishib yetiladi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

GARANDA-YU GURANDA Parranda va darranda. *Chol tog'lik-da, qush, hayvon, hasharot, garanda-yu guranda ovozini ajrata biladi.* (Dilmurod Sodiqov, Yurtkezar).

GARTAK Ozgina. [*Shunqorbek:*] – *Handalak pishurig'a gartak bor, o'n-o'n besh kun sabr qilurg'a bo'lurmi?* [*Hulkar:*] – *Ung'acha bul ne'matni ko'nglim kusamay-da qolur.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul). *U aniq eslaydi: poyezd o'sha shaharchadan o'tganda, u bilan bir bo'lmada kelayotgan yo'lovchilarning eng keksasi uzun esnoqdan so'ng: "Og'aynilar, kech bo'lib qoldi, gartak-gartak cho'zilaylik", dedi.* (Luqmon Bo'rixon, Yalangoyoq). – *Ay, shu odamlar, xotinlar unday-munday gapirib yotishipti-da, elda gap jotoma? Ne qilding kelindi? – Gartak aytishdik. Pichagina yuzini silab ham qo'ydim. Bollarni olib biroz aylanib kel dedim, aka-pakasinikida bir-ikki kun dam olib, aylanib boradi-da, nima qiladi bir yerda diqqinafas bo'lib.* (Sobir O'nar, Dunyo shunday tururmi?) *Og'ilning tomi har safar loysuvoq qilinganida, gartak xarxasha qilib bo'lsa-da, tepaga chiqib olardim.* (Husan Karvonli, Qishloq).

GAVARA I 1. *Suyak. Qorajon ko'p o'ylab o'tirmasdan nariroqqa bir soyga qarab, shunday qarasaki, harom o'lgan eshaklarning, otlarning gavarasi-savarasi yotgan ekan.* (Alpomish. Aytuvchi: Xushboq baxshi Mardonaqul o'g'li). *Meni hayron qoldirgani terilangan molning gavarasiga tig'tegmagan, faqat lahm go'sht sidirib olingan edi. Ichak-qorni, o'pka-bovurigacha joyida turibdi. Rosa ajablandim, men qaytishim bilan quzg'unlar to'y qilib ketishdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya). **2.** *Shox. Keksaga bug'u gavarasi „durr“ silkindi, paxmoq junlari hurpaydi.* (Ayrishox). **3.** *Vujud. Tag'in ustozining, agar bu baxshining oxirgi qo'shig'i bo'lsa, ichi bo'shab, govarasi shovshab qoladi, degan so'zi yodiga tushib vujudi titrab ketdi.* (Bobo Ravshan, Shom va tong orasi).

GAVARA II *Beshik. Sabrning gavarasi – Saksovul – sho'rlik armon – kuymagan bir sen qolding, Yonmagan bir sen qolding.* (Usmon Azim, Turdi Farog'iy).

GAVRAPO'SH *Beshik yopinchoq'i. Burchakda cho'g'dek gavrapo'sh yopilgan yangi beshik oldida cho'kkalagan oyim ukamga ko'krak tutyapti.* (O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi). *Shu bilan ko'ngli joyiga*

tushgan Hanifa xola beshikning ustiga baxmal **gavrapo‘shni** yopib ko‘rib, kam-u ko‘stlarini tuzatishda davom etdi. (Pirimqul Qodirov, Olmos kamar). Qarasa, beshikning **gavrapo‘shi** chetga surilgan, Yodgoraning yuzi ochiq, tunchiroqning xira shu‘lasida qizalog‘i shiringina jilmayib so‘rg‘ich so‘rar, beshik esa o‘z-o‘zidan tebranardi. (Muhabbat Hamidova, Tugallanmagan sevgi qissasi).

GAVSHANA Paxmoq soch. Tunovgi ko‘rgani **gavshana** qalandar, tel-pagi qayqayib, enasining qoshida o‘tiribdi. (“Rustamxon” dostoni).

GAYAK Qaysar odam yoki hayvon. – Meni o‘g‘irlab kelishni buyurdimi? Tal‘at aka qarz so‘ragan odammi? Agar... qo‘yib yuborsangiz, to‘rt juft tilla uzuk keltirib beraman. Ishonmaysizmi? – Men bilan savdolashma, **gayak!** – Qancha so‘raysiz? Topib berolaman! Tal‘at akaning qarzlarini ham to‘layman. (Azamat Qorjovov, Adashgan qiz qasosi).

GAZAR (Qarnob) Yaylovning suvli joyi. Ular [qarnobliklar] bema-lol, shoshilmasdan so‘zini – enag‘anin; suvni – su; qatiqni – qattiq; akani – oka; cho‘kayapmanni – biqillayapman; yaylovning suvli joyini – **gazar** deyishadi. (Ismat Sanayev, Qarnob ota).

GAZZIK (Xorazm) Navbat. – Ha-aa, – dedi qari va qorliqqan tovush. – Darrov chiqding? **Gazzik** yetmadimi yo? (Shuhrat Matkarim, Indamas).

GAZZIK-GAZZIK (Xorazm) Navbat bilan. – **Gazzik-gazzik** jugarini qo‘riqlab chiqamiz bunnan buyoqqa! (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

GASHIR (Xorazm) Sabzi. Ikki kilo Ziri shaytonning (Zirhi shahidon qishlog‘ining) quyruqi qaytgan kichkina sershira **gashiri** (sabzisi), besh kilo Pishkanikning (Xiva yaqinidagi qishloq) anoriday suvli piyozi, yarim kilo yuluk (ilik), bir chimdim sariyog‘, ikki kilo “yetmish beshlik” yurt guruchi va ziravorlar solib to‘rt o‘mcha (tarasha) tashlab, past olovda to‘rt soat **gashir**-piyozi bilqillaydi, to‘rt soat shu **gashir**-piyozning suvida, qirg qizil murchning suviga yuvilgan guruch bilqillaydi. (Komil Avaz Baxramandlig‘ saodati). Qariqning o‘rtasiga yana makka, kormovoy lavlagi, solmasining ikki chetiga yarmisiga pamidor, qolganiga **gashir** ekar ekan. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

GASHTAKXO‘R (Jizzax) Gapda birga o‘tiradigan o‘rtoq. **Gashtakxo‘r** jo‘ralar har qanday sharoitda ham jo‘raboshining izmida. (Nazir Safa-

rov, Ko‘rgan-kechirganlarim). *Ravotlik, oqpo‘rg‘onlik, uratepalik, hatto jizzaxlik va sovungarlik mahallalardan ham **gashtakxo‘r** yigitlarni o‘z jo‘raboshlari boshlab kelgandi.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

GACHCHI (Xorazm) Echki. *Endi qirqlardan oshgan Sovur bozor ko‘rgan **gachchi** bo‘lsa-da hozir bir zumgagina tipirchilab qoldi.* (Shuhrat Matkarim, Yolg‘on).

GELAGAY (Qashqadaryo) Yangi tug‘gan sigir sutidan tayyorlanadigan taom. *Ona sovliq yangi tug‘ganida **gelagay** qilib, shopirib-shopirib, hur-hur ichganmisiz? (G‘ozi Rahmon, Qo‘sh kabutar chizilgan uy). Qog‘anoq, **gilagay** ichib, Jegda-kebanagin yechib, Cho‘lig‘i chalar sibiziq Masirqab, dunyodan kechib.* (Hol Muhammad Hasan, O‘lan). ***Gelagay**-dan og‘imiz oqarmasa, tog‘dan qo‘ziqorin terib kelardik.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

GEZA Ovchilarning maxsus pistirmasi. *Boshqa mahal mayli-yu, **geza**-da sovuqdan titrab-qaqshab o‘tiramiz, endi churrak xo‘rakka tushganda qahqaha urib o‘ljani uchirvorgani chatoq.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

GIDIK (Jizzax) Kuchuk. ***Gidikning** mijozi yaxshi ekan, sal kunda qora ovqatga o‘rgandi.* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq). *Bola yana yulduzlarga termulib o‘ylanib qoladi. Elas-elas ko‘rinayotganlarini yaqinda tuqqan Ziyrak itining nimjon bolasiga qiyoslaydi. Kunduzi Ziyrak har safar bolalarini emizishga kelganda nimjon **gidik** enasini emolmay g‘ingshib qolgani esiga tushib, mitti yulduzlar ham ochlikdan yig‘layotganday tuyuladi: – Otaa?! (Abdulatif Abdullayev, Ota va bola).*

GIDIR Yomonlik, yomon niyat. – *Eh, bu tog‘liklar, deyman o‘zimga o‘zim. Bular balandlarda yurganlari uchun ham ko‘nglida **gidir** yo‘q, baland odamlar, ularning qiyosini topolmayman.* (Axtamqul Karim, Momoqiz). *Suhrob o‘zidan ham ancha-muncha gaplarni qo‘shib-chatib gapirdi, hammamiz kuldik, Karim aka, qarilik qursin, odamning esi kirdi-chiqdi bo‘lib qolar ekan, deb Yulduzxonadan kechirim so‘radi, sal-pal yengil tortdig-u ko‘nglimizdan **gidir** ketmadi... (Ahmad A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam). O‘sha kungi “mojaro”, shu qutlug‘ duo birlan do‘stona yakun top-*

di. O'rtada **gidir** qolmadi. O'rtada bir she'r qoldi. (Yahyo Tog'a, Xotira daryosi).

GIDIRMOQ 1. Sekinlamoq. *Dunyoning turli xil yuk-anjomini ortmoqlagan eski avtobus bekatga gidirib o'tdi-yu, ular bir amallab ilindi.* (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi). *Qarab tursang oldi chopib boradi, Orqasi ekin bo'lsa gidiradi.* (Ergash Jumanbulbul o'g'li, Tarjimayi hol). *Qora o'zi bilganiday, boshqa otlarni pisan qilmay nari-beri surib marraga keldi, somon chiziqni yonlab o'tayotib bir gidirdi.* (Sobir O'nar, Ot choptirsa, gumburlaydi tog'ning darasi). **2** Kutmoq. – *Ma'qul, Maxsum aka, biroq sal gidirasiz-da... – Mayli-mayli, bugun kechga, ertan kuniman navbat tegsayam mayli. Biz kutamiz.* (Soyim Is'hoqov, Ko'klam adog'ida kuz).

GIJANG-GIJANG (Xorazm) Ko'z-ko'z. – *Tandir qizdirib, zog'ora terib qo'ni-qo'shnilarga gijang-gijang (ko'z-ko'z) qilish yaxshi emas, derdi opam.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

GINALAMOQ Arazlamoq. – *Ho'-o'o' oqsoqol, bu gapingiz bilan chollarni ojizalarga tenglayapsizmi? – deya darhol ginalagan O'rozboyni bir-ikki chol qo'llab bosh irg'agan bo'lishadi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish).

GIRAK Mahkam, mustahkam, jips. *Og'ushidagi qizchani mahkam quchganicha shag'al ustiga gupillab yiqilgan Pufak momo joni bejo eshakning yuganini hanuz qo'yib yubormay, o'z tilida allanimalar deb qarq'anar, kapalagi uchgan qizcha potirlab yig'lar, qari ko'ppak esa tishlarini girak qilib, tinmay irillardi.* (Anvar Obidjon, Oltin yurakli Avtobola).

GIRDIBOD Pastdan yuqoriga tikkalay esadigan quyun, o'rama. *To'zon xas-xashakni yig'ib-jamlab, shar shakliga keltirib allaqayoqlarga eltib tashlaganini ko'rganmisiz? Ba'zan insonni ham shamol-to'zon shunday uchirib ketgan, o'rnidan ko'chirgandek bo'ladi. Girdibodga tushib, bir necha qadam bosishning o'zi naqadar mushkul ekanligini sezasan.* (Omon Muxtor, Muhabbat o'limdan kuchli).

GIRVAT Quyun. *Girvatday aylanar zulm dunyosi... qa'ridan anqirdi qora ter hidi, go'yoki bu qadim yo'llar xudosiz, go'yoki butun bir elim berk edi.* (Shavkat Rahmon, Saylanma).

GIZA q. **geza**. Suv yoqalab borayotgan edim, ikki irmoq bir-biriga qo‘shilgan qumlik oldida to‘xtadim. Pistirma – **giza** uchun bop joy ekan. (G‘.Jo‘rayev, Zarafshon to‘qayzorlarida).

GIZLI Yashirin. Sochlaring tola-tola, Labimda **gizli** nola. Ichimda to‘la hasrat, Naylay... E voh, bu hola... (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening). Men endi o‘shanday ishni qayerdan topaman? Bir ketgan joyingga yana g‘urur va nomusingni yig‘ishtirib, asl yuzingni pardalar ortiga yashirib, mug‘ombirlarcha iltifot ko‘rsatib borish kerakmi?! “Yo‘q”, deydi ichimdagi o‘sha **gizli**. (Xursandbek To‘liboyev, Hayotga qaytish).

GOVGUM Endi quyosh botgan mahal; shom. **Govgum** mahali, hamma odam hovlidagi yumushlarini yakunlab, o‘zini ichkariga urgan. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). ...uning bamaylixotir kezib yurganiga sabab shuki, uy egasini bir necha kun davomida kuzatib, kechki **govgum** pallaga qadar qirlar orasida o‘tirib rasm chizishini va uyiga kech qaytishini bilib olgan edi... (Ne‘mat Arslon, Qulfbuzar). Pirman odam-odamni tanimaydigan **govgumda** yo‘lni chap solib Qorabuloqqa jo‘nadi. (Hamid Elxon, Maynagul).

GUBURGA Urushda chalinadigan asbob. Taqbullar oqshomi bilan tabl urib, karnaylarni par-parlatib, bug‘, **guburga**, ko‘s, vag‘ir-vug‘ir, qatir-qutir, qars-qurs tong otguncha olamni buzdi. (“Xoldorxon” dostoni). Karnay, surnay, g‘ijjak, bolabon, **guburga**, jazoyil, miltiq, nayza, qilich ko‘targan, nayza qamishday irg‘olgan, pilta tumanday sassib, lashkari olambi bosib... ko‘p Lashkar kelib yurtga oraladi. (“Xoldorxon” dostoni).

GUL Qizamiq. “Falonchining uch bolasi **guld**an ketuvdi”, “Pistonchining ikki bolasini bir kunda **gul** olib ketuvdi” singari iztirobli xotiralar qayta-qayta tilga olinardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

GULAMIQ Binafsharang. Mayin, beg‘ubor shabboda esib turar; iliq quyosh nuridan rang olgan yam-yashil o‘t-o‘lanlar orasida, och **gulamiq** rang chuchmomalar ajib fusunkor va jozibali ko‘rinardi. (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

GULAFSHON Badanga toshadigan qizil donachalar. **Gulafshonim** bu yerga kim ob soldi, Gulafshonim ketarga kelib edi. (“O‘zbek xalq qo‘shiqlari”).

GULBEDA Yangi o‘rilgan beda. *Berdiqu bobo unga qarashdan erinmaydi. Erta-yu kech yemishidan, suvidan xabar oladi, hatto yarim kechasi turib, oldiga beda tashlaydi. Sal sarg‘aygan bedani bermaydi, faqat **gulbeda** yediradi.* (Mamatqul Hazratqulov, Ta‘til kunlari). *Bugun uloq-qo‘zilarini Ko‘kbeta haydamadi, **gulbeda** tashlab, qo‘raga qamab keldi.* (Hamid Alp, Bolalik qo‘shig‘i).

GULBUTA Na‘matak. *Men esa hovlimiz ichidagi **gulbutadan** har kuni tillaqo‘ng‘iz ushlayman va ko‘zimni chirt yumib ularning bo‘ynini uzib, undan marjon yasayman.* (Halima Ahmedova, Mashrabning xurjuni). *Lo‘li kampir **gulbuta** ostidagi ajinaning ovozi buyuradi: – Chaqir qizingni!* (Halima Ahmedova, Ishq gulining hidi). *Zanjirband it huradi, Tunga qarab g‘ingshinar... **Gulbutaning** tagida O‘ltiradi ajina.* (Usmon Azim, Bolalikning bir kechasi).

GULBO‘TA Buyum yasaladigan qizg‘ish tuproq. *Qiziltepaning turgan-bitgani **gulbo‘tadan** iborat.* (Shoyim Bo‘tayeov, Tandirchining armoni).

GULDURAK Momoqaldiroq. ...*Quyunlarda sarob chirpirak, Muarrixlar qoladi dog‘da. Ufq ortida yangrar **guldurak**, Bulutlar hech kutmagan chog‘da.* (O‘roz Haydar). ***Guldurak**, vahima qilasan buncha? Bor-yo‘g‘i voqea: Yomg‘ir osmondan o‘z ona yeriga qaytyapti ekan, bu uning farzandlik burchi-ku, axir!* (Qutlibeka Rahimboyeva, Ovozlar).

GULDURMOMO (Xorazm) Momaqaldiroq. ***Guldurmomo**, - derdi enam, chopqir otini katta aravasiga qo‘shib olib bulutlar ustida choptiradi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

GULKARI Naqshli. *Doniyor bobo miyig‘ida kuldi: – Toshni uchirib o‘tirish shart emas, – dedi u sinchkov nazar solgach. – O‘ziyam bilinmaydi-ku. Ja ko‘ngling to‘lmasa, **gulkari** qil. Ishing ko‘payadi-yu, puxta chiqadi. Erinmay oldi-atrofiga loy yalatib chiq, kari-o‘yiqlari yopiladi.* (Olim Jumaboyev, Gulkari).

GULMOZOR O‘simliklarga boy mozoriston. *Undan keyin **gulmozorlar** – na‘mataklar, bo‘ritaroqlar, undan u yog‘ida ko‘zi na ochiqqa, na yopiqqa yotadigan, sarg‘aygangayam sariq, sargardongayam sariq jiydaman degan tiziladi.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

GULPAXTA Qo'lda chigitlangan paxta. *Onasiga yana kun tug'ardi: yog'ga belangan gulpaxta ustidan issiq tuproqni bog'lab qo'yardi. Yara bir kechada bitardi...* (Murodxon Burxonov, Ikki tog' orasida). *Keyin, u paytlari, yana esingizda bo'lsa, hammayoq paxtazor; hamma paxtaning ichiga ko'milib paxta tergani bilan, o'zi nihoyatda tanqis, do'konlarda yo'q, ko'rpalikka topilmas matoh, opamlar terimdan keyin bir hovuchginasini fartukning ichida yumaloqlab olib kelib, chigitini chiqarib, gulpaxta qilib olar edilar.* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). *Qo'lda chivilgan paxtani gulpaxta, magazinnikini toy paxta deyishadi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). *Issiq og'ush bormi, o'zing ayt, axir, Gulpaxta solingan ko'rpadan ko'ra? Badbin xayollar yo'q, o'ylar yo'q taxir; Qishshloq deganlari mana shu, jo'ra!* (Vohid Luqmon, Qishloq).

GULCHECHAK Suvchechak. *Yuziga gulchechakning chandiqlari abadiy muhrlanib qolgan.* (Dilmuroq Sodiqov, Iztirob).

GUL CHO'MMIQNING HISOBI Chorvadorlar hisob-kitobi bo'yicha ilk bahor kunlaridagi sovuq kunlar. *Shu-shu chorvadorlar orasida Navro'z sayillari davom etayotgan kunlarda ham "Gul cho'mmiqning hisobi" dan ehtiyot bo'lish choralari ko'riladigan bo'libdi...* (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq Ajuz momo).

GUM Girdob. *Shunday hodisa suv qirg'oqlarining o'yilishi sababli suv chekkalarida paydo bo'ladigan suv aylanmasi – gumlarda ham ro'y beradi.* (Orif Sodiqov, Tog'dagi sarguzashtlar). *Sharsharaning balandligi bir terak bo'yidan ortiq, suv tushgan o'rin juda chuqur o'yilgan va bunda gum paydo bo'lib, suv aylanib turar edi. Gum atrofida har xil daraxtlar o'sgan, salqin joy edi. Bunda biroz to'xtab, yuvinib gumning pastidan suvning chap tarafiga o'tdilar.* (Orif Sodiqov, Tog'dagi sarguzashtlar).

GUMMIK (Qashqadaryo) Sovliq sutini emmagani bois o'sishdan qolgan qo'zi. *Gummik tusog'ingni ovziga arpa tegmagan. Qachon qarasam, tutga bog'langan ko'yi soyalab jotaydi, – deya zahrini to'kdi otam.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

GUNAFSHA Binafsha. *Chechakmi – chechak, Ko'kish, fusunkor, Jimjima xati, Gunafsha oti.* (Mirtemir, Ko'klam elchisi).

GUNOGUN Rang-barang. *Bahorda – qizlar qishlik ro‘dapolarini tashlab, avval yengilroq yomg‘irpo‘shda, so‘ngra ko‘zni quvnatib, ko‘ngilni ezadigan gunogun ko‘ylaklarda darsga qatnay boshlaganlarida, Burhon ijaraxonada olma archib o‘tirib, shunday deb qoldi...* (Ahmad A‘zam, Almisoqdan qolgan Karim). **Gunogun** noz-ne‘matga to‘ldirib dasturxonni, *Boplab mehmon qilishga chog‘lanmish beimonni.* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).

GUPPI Hovliqma. *Ayniqsa, Eshboy qizilning o‘g‘li Ashir guppiga qo‘shib-chatib, so‘lagini oqizib aytib berishini o‘ylab quvondi.* (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).

GURDOLI Mevasi dumaloq olxo‘ri turi. *Bir gektarcha keladigan uzumzor, atrofida turfa daraxtlar: olma, o‘rik, yong‘oq, shaftoli, olcha, qaroli, gurdoli...* (Mamatqul Hazratqulov, Ta‘til kunlari). *Aslida bu joy ham daraxtlarga burkangan bo‘lgan: noshvoti, olma, behi, gurdoli...* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

GURUNGBOZ So‘zamol odam. *Qo‘ldosh degan alomat akaxonim bor. Qiziq odam, gurunqboz. Kishti kelsa davralarda boshidan o‘tgan g‘aroyib voqealarni o‘ziga xos ohangda aytib yuradi.* (O‘rolboy Qobil, Dashtliklar). *Buvamning G‘affor oshnasi rosa gurunqboz ekan.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

GURUNGLASHMA (Xorazm) Gap. *Gurunqlashmadan keyin qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlar uyni ko‘rishdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Bir necha kundan keyin Erka akam shu xonada gurunqlashma berdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

GURVADAK Sandal eshigi. *Uyning o‘rtasiga kichik bir chuqur qaziladi. Chetlariga g‘isht yotqiziladi. Shu chuqur ustiga to‘rtburchak kub shaklidagi stolcha o‘rnatiladi. O‘sha oyoqlari o‘rtasida gurvadak deyiladigan eshikchasi bo‘ladi. Gurvadak o‘sha chuqurcha ustini qoplaydi.* (Aziz Qayumov, She‘riyat jilolari).

GOVBOSH 1. *Boshi katta. Kaltabo‘y, miqti va govbosh Kattaboy Qultosh* (Anvar Suyunov, Majlisboshi). **2.** *Ahmoq, kallavaram. Men govbosh sira parvo qilmagan ekanman. Hali Yaxshigul seni rad etdi-yu menga tegib qo‘ya qoldimi, ol-a.* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

GOVLAK Oyoqlari uzun, zotli ot. *Azonda uyg'onsam, ular ot boldirini qarichlab o'Ichayotibdi. Qancha uzun bo'lsa, shuncha yaxshi bo'lar-kan. Bu – govlak ot, dedi chol.* (Dilmurod Sodiqov, Yurtkezar).

GO'GAYIN (Xorazm) Ko'k ari. *Hozir bulbul seyrap getdi bellada, Boshqo yerda vizzildo, hay go'gayin.* (Matnazar Abdulhakim, Xorazmcha she'rlar).

GO'K (Xorazm) Ilk ko'karib chiqqan beda. *Yo'rinja ekilgan otizlarda go'k nish urdi.* (Komil Avaz, Sozanda). *Go'kni dalada alohida-alohida tersa ham bo'ladi, lekin uni tozalash, yuqorida aytilgan taomlarni tayyorlash ko'p qo'lni talab etadi.* (Komil Avaz, Sozanda).

GO'LAYMOQ Do'laymoq. *Yuvoshga musht do'layma, zo'rni ko'rsang, go'layma, och qolganda sulayma, Qizlar sendan kulmasin.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning sarguzashtlari). *Qachon qaramasang, anqov boladay lallayib og'zini ochib o'tirishadi. Mana bittasi, yana ammanniing buzog'iday go'layib turibdi.* (Habib Siddiq, Anqov ekan). *Gulnora avval go'layib turdi, biroq Aziza bilan Amir kampirga ergashgach, barmoqlarini o'quvsiz birlashtirib, yuziga yaqinlashtirdi.* (Alisher Ibodinov, Ko'l bo'yida).

GO'MMA Ichiga go'sht, kartoshka, oshqovoq, ko'k solib tayyorlanadigan somsaning bir turi. – *Kelinim tushmagur momomizning tishlariga qoyim qilib, yumshoqqina go'mma pishiramiz, yeb ketadilar, nevaralariga ham olib boradilar deb, qizi bilan xamir qorib, ijjon tayyorlayotir ekan.* (Komil Avaz, Yoqut momo). – *Yo'q, Ro'zika, men ketmasam bo'lmiydi. Ichima bir havl tushdi. Go'mma yemay yurgan yerimmi. Izzat bo'lsa shuncha bo'lar, rahmat.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Ikki ko'cha narida turadigan (ismi esimda yo'q) ayolmand bir kishi o'lib qolgandi. Momom buni eshitib, kelinoyimga bir tavoq go'mma pishirib, yo'qlab kelgin yetimlarni, savob bo'ladi, jonim bolam, deb qoldilar.* (Nodira Yangiboyeva, “Aytilmagan qo'shiqlar”).

GO'SALA 1. Buzoq. *Kuzning ko'ragi – go'salaning xo'ragi.* (Maqol). *Odamga – lafz, go'salaga – dum.* (Maqol). – *Go'sala bo'shalib ketibdi – dedi Soliya negadir velosipedning ruliga qo'lini qo'yib.* (O'tkir Hoshimov, Sirli yulduz). – *Narxi... nichevo! Turish-tarovatingizdan uch-to'rt*

so 'lkavoyning betiga qaramaydigan mardi maydonga o 'xshaysiz-da. Yana narxni so 'raysiz. Ha, ot bilan tuya bo 'larmidi... **Go'sala** bo 'lar, bo 'taloq bo 'lar... Bo 'ldi, qopni oching... Tog 'a! (Muhammad Ochil, "Mangu jang"). 2. Yengil so 'kish. Tog 'am jahl ustida oshirib yuborganini fahmladimi yoki Murshid pinhoni ishlarimizni valdirab qo 'yishidan cho 'chidimi, ancha yumshoq ohangda dedi: – Hali xatolaringni tushunasan! Kimning ummati ekanligingni unutib quyibsan, san gumroh, **go'sala!** (Nusrat Rahmat, Fojia).

GO'SAM (Qash.-Surx.) Katta serka, qo 'ylari yetaklab yuruvchi keksa serka. – Chavandozlar-ov, eshitmadim demanglar, ustiga yana bir **go'sam** serka qo 'yildi! Chavandozlar chuh-chuh, deya otlarini uloqqa chorladi. (Tog 'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). Bu ikki polvonga bir **go'sam** serka, bir juft uchlamchi kalish, besh so 'm pul qo 'yildi! (Tog 'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

GO'YANDA Ta'ziya marosimlarida yig 'i-yo 'qlov qo 'shiqklarini ijro etuvchi ayol. Har gal biror yangi ayol uyga kirganda birdan yalpi yig 'i avjga chiqar, keyin ulardan **go'yandamiz** kimdir birovi yanada dardkashlik bilan marsiyago 'ylikni boshlar edi... (Norto'xta Qilich, Hassakash).

GO'NGZAMBURUG' (Buxoro) Go'ngda o 'sadigan qo 'ziqorin. Xo 'sh, madomiki hamma namozxon ekan, nega... nima uchun o 'g 'rilar-u kazzoblar; imonsiz ko 'chirmakashlaru zar-u zavarlarga o 'ch xonimchalar bahor yomg 'iridan keyingi **go'ngzamburug'** day ko 'paygandan ko 'payayaptilar?.. (Norto'xta Qilich, Ibrat).

H

HABDORI Usti hazm qilinadigan plastiksimon modda bilan qolangan qattiq dori shakli. Tokchadagi shiqirloq idishda turadigan **xabdoridan** qo 'liga tutsam, darrovgina og 'zilariga solib, yonidagi choynakdagi sovug choy bilan yutinadi. (Gulnoz Mamarasulova, Shahardan kelgan tashvish).

HABO [a. **habo** – chang, gard] Chang, to 'zon. **Habo** – yugurdak no 'vkari to 'zonning, To 'zon - **haboning** sha 'munot begi. (Ikrom Otamurod, Olam – jadval).

HAJJA (Xorazm) Alebastr. *Ana undan keyin terilar tuki pastga, charm tomoni yuqoriga qaratib yotqiziladi va tekislanadi, ustiga hajja sepilib, tosh bilan yana tozalanadi.* (Kamil Avaz, Sozanda).

HALFANAXO‘RLIK O‘rta pul tashlab o‘tkaziladigan yig‘in, gap; halfana. *Bekorhilikdan o‘zlarini qayoqqa qo‘yishni, kuchlarini nimaga sarf qilishni bilmagan yoshlar gap-gashtakdan tashqari, har zamon-har zamonda, haftaning dushanba kuni to‘kma – halfanaxo‘rlik ham qilishardi.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

HALLOJI Paxta, junni taraydigan maxsus taroq. *Bular usta Sharif, usta Fuzayl, usta Xusayn, usta Abdusalom polvon ham bo‘lgan, mergan ham bo‘lgan. Bular do‘mbira, dutor, dux, charx, halloji yasagan.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun). *Ha, bir uyum yungni hallojidan o‘tkazganda, bir hovuch tivit qoladi: boshqasi nishxurt, chiqindi.* (Shukur Xolmirzayev, Yozuvchi kim)?

HALPIDA [*a. halb* – sut sog‘uvchi] Asnosida. *Qo‘rquv bilmas yuragiga qiziqish oraladi. Shu qiziqish halpida devor oshdi. Ko‘cha va daladan o‘qdek uchib o‘tib, tepalikka intildi.* (Normurod Norqobilov, Oqbo‘yin). **Jon halpida** Jon holatda. *...kimlardir bola-chaqasini opichlab, yetaklab, qiy-chuv qilib do‘nglikka, huv o‘sha Talas tog‘lariga tomon chopib borar; sarosimaga tushgan aholi jon halpida omon qolishga tirishar edi.* (Sobir O‘nar, Begona mehmon). *Tovuqlar jon halpida har tarafga qochib qolishdi.* (Anvar Obidjon, Hakka xolaning ig‘volari).

HANA Egar. *Eshaklarga to‘qim tikuvchilar, arqon eshuvchilar, hana yo‘nuvchilarga ham yetarli yumush topilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Eshakka ikkita arg‘amchi, bolta taqilgan, arg‘amchilar hananing qoshidan o‘tkazilib chandilgan, bolta oldingi qoshning ipiga osilib, quyushqonga qistirilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

HAKARKOVUSH [Hakkari kovush] Uchi yuqoriga qayrilgan kovush. *Kampirni yeganingda, hech bo‘lmasa hakarkovushi qolgan bo‘lardi.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).

HAKKORI Ko‘pkarida kiyiladigan poshnasi baland charm etik. *Mo‘ylablarin yog‘lagan, Hakkari durang etik, Olifta, satang, tetik, Yag‘rin tashlab hayqirib, O‘tganlarni ko‘rsatib: “O‘lmasin, yigit ekan, Qay-*

si azamat o'g'li, Uloqda katta to'qli Chovidan sirqib chiqmas". (G'afur G'ulom, Tagdo'zi). Davla miq etmay To'riq qashqaning beliga burgutdek qo'ndi. Boshiga quloqchin, ustiga esa boy ko'pkariga olib yuradigan paxtalikni va oyog'iga maxsus **hakkari** etik tortgan edi. (Ollonazar Ulug'ov, Pahlavon Davla). Boshida surteri telpak, egnida oq bosma chakmon, oyog'ida ultondan tikilgan **hakkori** etik, shu turishda Alpomish bo'lmasa ham Qo'shquloq polvonga o'xshardi. (Hamid Alp, Norkallaning uylani-shi). U ko'hnado'zlik qilar, ayollar poyabzalidan tortib chavag'onlarning poshnasi baland **hakkari** etigigacha uning qo'lida jilo topardi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

HAKRA (Xorazm) Burj; qal'aning to'p turadigan maxsus joyi. Toshhovuz **hakrasining** kunbotar tubidagi to'piri tizzaga keladigan yo'ldan mashina gaz berib o'rnidan jilganda opamning yig'lab qolganiga ko'zim tushgan edi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

HALFANA O'rta pul tashlab qilinadigan ziyofat. **Halfanaga** palov qilmoqchi bo'ldik. (G'afur G'ulom, Shum bola).

HALGANCHAK Arg'imchoq. **Halganchak** uchdim, uchdim, Sholi-poyaga tushdim, Peshonamdan o'rgilay, Sevgan yerimga tushdim. (Xalq qo'shiqlari). ...qizlar **halganchak** uchishni, qizaloqlar happak bilan topopuk o'ynashni boshlab, ...yilqichilar jona-jonada "hayt"lab, hay-hay-lagan kezda Odil polvon keliniga to'y olib bordi. (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

HALVOYGIHI Tog' giyohi. – Yo'g-e, – dedi Qudrat aka. – Sen qolaqol, men huv anavi qirdan **halvoygihi** qaziyotgan odamlardan ho'kizni so'rab, oyoqchi podasi o'tlayotgan yaylovni ko'rib kelaman. Iloji bo'lsa barra qovurtirib tur. (Isak Sattorov, Morvoz). – Qirdan turib chaqirsang **halvoygihi** qaziguvchilar kelishsa ham bo'laveradi, boraqol bo'tam. (Isak Sattorov, Morvoz).

HALG'USHTAK Belanchak. Hammadan oldin kelgan Hayitgul hayallamay **allabeshik** (halg'ushtak) ning pardasini ko'tardi, unda belangan bola qop-qora bo'g'ilib, hushsiz yotardi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

HAMPO [f.-t. **hampo** – hamqadam] Do'st, rafiq, yo'ldosh, yordamchi. Devor-darmiyon qo'shnimiz, qolaversa, kichiksan, tez-tez xabar olib

tur, bir-biringga hampo bo'lib yuringlar, o'zini yolg'iz qoldirmanglar, degan – bir kuni shirakayfligida aytib yuborib, buvim juda ajoyib kampir edilar-da, devdi. (Shoyim Bo'tayev, Men, onam va bolam).

HAMPOLIK Sheriklik, yordam. *Hatto katta onaning qizi O'g'iloy bog'-hovlida yashab, kichik onasiga hampolik qilib yuribdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

HANKIRCHAK (Xorazm) Arg'imchoq. *Har bir uyga kirganda meni ko'proq hankirchaklar qiziqtirdi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

HANPA q. **hampo**. [Iziddin inoq:] – *Sag'an biror hanpayi tegurmu-ki, bul farishtaning etakig'a shunchaliq osilursen?! – Hanpayi... Yaxshi maslahatlarin aytur, valiahd boz chaqirtursa birikib borib, tanishturmoqni va'da qilur. (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).*

HAPPAK Beshta yoki uchta mayda tosh bilan o'ynaladigan bolalar o'yini. *Sayilga chiqqan qizchalar esa happak, quvlashmahoq, beshtosh singari o'yinlar bilan band, aksariyat jamalaksoch go'daklar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). – Dastavval ikkita qiz keldi, – mayda chaynay-chaynay davom etdi. – Tushuntirdim, gapirib berdim. Indamay eshitib o'tirishdi. Keyin, ssenariy yozish happak o'ynash yoki kashta tikish emas, juda og'ir, murakkab, deb ancha-muncha notatsiya o'qishdi. (Abusaid Ko'chimov, Binafsha). ...qizlar halganchak uchishni, qizaloqlar happak bilan tolpopuk o'ynashni boshlab, ...yilqichilar jona-jonada "hayt"lab, hay-haylagan kezda Odil polvon keliniga to'y olib bordi. (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).*

HAPPOY 1. q. **hoppoy**. *Bolalagimda ko'rganman: ko'kala soqoli ko'krakka tushgan, qotmadan kelgan, kulib turuvchi ko'zlarida chaqmoq izi muhrlangan; oyog'i besh yoshli go'dakning bir happoyicha kelardi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). Bir happoy orqaga tisarilib, ko'rdimki, so'l tarafdagi kichik tepalik yonida kimdir arqonga tang'ilgan itni sudrab kelyapti. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).* **2** Chillik o'yinda bir bilak o'lchovi. – *Nahalboy, – bosh cho'ponni chaqirdi u. – Odamlaringminan qo'raning bu tomoniga o'tib, bir qator bo'lib turinglar. Oralaring o'n eki-o'n uch happoydan uzoq bo'lmasin. (Soyim Is'hoq, Vafodor).*

HAPPOZ [f.-t. **obboz** – suvchi, g‘avvos] (Buxoro) Sho‘ng‘ish. *Bino-
barin, bir zamonlar **happozi** – obboziga o‘ch yosh-yalanglarni bag‘rida
benihoya, beminnat yayratib-yashnatgan ro‘dimizning Pirmas atalganligi
ham ayni haqiqatga yaqindir.* (Norto‘xta Qilich, Ibrat).

HAQIQ Aqiq. *Kerakmas inju ham sensiz, **haqiq** ham, Kerakmas shad-
dod ham sensiz, daqiq ham, Hayot ham men uchun sensiz bema‘ni, Sensiz
o‘tmasin-da hatgo daqiqam.* (Mirtemir). *Qizlar **haqiqdek** lablariga chan-
qovuzni qo‘yib, nozik barmoqlarini harakatga keltirganlarida, ajoyib mu-
siqiy jarang yuraklarga orom bag‘ishlardi.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-ke-
chirganlarim).

HAQLAMOQ (Qarnoq) Sadaqa so‘rab tilanchilik qilmoq. *To‘xtadim.
“He, kalla! Bular devonalar-ku! – dedim ichimda. – Kichkina vaqtimda
haqlab tez-tez kelib turishardi.* (Sa‘dulla Siyoyev, Saratonda qor yog‘di).

HARASON [f.-t. haroson – qo‘rquv] Qo‘rquv, vahima. *Yer yuzidan suv-
lik chekinib, lavalalar qotib, toshga aylanayotgan davrlarda shu “adres”lar-
da yashagan tabarruk dinovavrlar **harason** ichida quruqshab borayotgan
qoyalardan so‘nggi bor o‘tgan va qotib borayotgan qorishmada uning
izlari muhrlanib qolgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Ana shunday kam
uchraydigan manzaralar bo‘ylab odimlab, hayajon va **harason** bilan kin-
dik qoni tomgan qishloq sari boryapti.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

HASALI PO‘STAK Turli rangli terilardan tikilgan, bezakli po‘stak. *Oysifat boyvuchcha bir talay ovsinlari, qayinsingil-u ovuldoshlari bi-
lan napramach, bo‘g‘jama, qurlar, oynaxalta, qoshiqlov, tuzliq singari
buyumlarni qo‘ldan chiqardi. Qancha gilam, **hasali po‘stak**, takyamatlar-
ni aytmaysizmi.* (Xo‘jamurod Toshtemirov, O‘tov). *Enasi yangalar va am-
malar ishtirokida ko‘rpa-to‘shak qaviydi, kigiz bosadi, **xasali po‘stak** ti-
kadi, qizning o‘zi gilam to‘qiydi, palaklar, kuyovga to‘n va belqars tikadi,
o‘tovning yopinchiqlari, uzuk va tuvurlig‘ini, boylar – matari, ya‘ni qur
va tizmalarini qo‘ldan chiqaradi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

HASAYNI Xalq seleksiyasida chiqarilgan, morfologik va biologik xu-
susiyatlariga ko‘ra husaynidan farq qiluvchi mahalliy xo‘raki uzum navi.
...*dadam Mamasoli degan Mirishkor tanishinikidan olib kelib ekkani qar-
silloq **hasayni** uzumlarni xaltaga joylayotsam, bolalaringni tentiratib, qa-*

chongacha shu ahvolda yurasan, o'g'lim, deya ayam qaytadan kuykanishga tushdi. (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo'llar). Atirgullar qiyg'os ochilib elektr nurida ayvon tovlanadi. Hovli etagidagi baland ishkomda sanoqsiz uzum boshlari: qora chillaki, oq daroyi, endi oqara boshlagan husayni, hasaynilar osilib yotibdi. (Hamid G'ulom, Mushkul savdo).

HAYLA (Qashqadaryo) *Hu ana. Soriboy gap boshladi. – Hayla ko'rinib turgan tosh qoyaning ustiga chiqib zerikkanim uchun tomosha qilib yotdim. Bir mahal to'qqiz qoq tarafdin chang ko'tarildi. (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).*

HAYAT 1. q. hayot. *To'rt otning ustini og'ir yoqtirdi, tong otguncha keng hayatda to'balab choptirdi, oppoq ko'pikka botirdi, tong shamoliga qotirdi, ikkita-ikkitanidan mindirib darvozaga choptirdi. ("Rustamxon"). Sangloq bilan yurib qaloqdan oshdi, hayatning ichi bilan daraxtlarni qoralab boraverdi. (Hamid Elxon, Maynagul). Ikki tarafida uchlari nayzadek ko'kka sanchilgan tik zovlar, taram-taram soyliklaru qiyaliklar, adoqda esa qishloq, dov-daraxtli hayatlar, ular aro ilonizi tosh yo'l cho'zilgan. (Hamid Elxon, Ayol va ilon). Yozda o'zlariga tegishli tomorqa (hayat) lariga o'tishgan. Qish yaqinlashganda qishloqqa, soy bo'yida qurilgan paxsa uylariga qaytganlar. (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). 2 (Toshqo'rg'on) Bedazor. Negadir toshlari o'pkadek g'ovak va teshik-teshik bo'lgan Xo'japka degan joyda "bir parcha" hayat – yo'ng'ichqazorlari bor edi... (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

HAYMA [*a. hayma* – chodir, katta soyabon] (*to'g'risi – xayma*) Chodir, o'tovga o'xshagan ulkan soyabon. *Bu dunyoda podshoman deb ko'ksin kergan Ham ostig'a kursi qo'yib hayma urgan Necha minglab cherik yig'gan xonlar qani. (Ahmad Yassaviy). Go'yo hayma uzun qish bo'yi tashna – Kutganday bu bog'ning gullashin takror. Shaharning sershovqin joylarin tashlab, Saralab bu bog'ga qo'nganday bahor. (Qutlibek Rahimboyeva, Yaxshi kunlar keldi).*

HAYOT *Imoratning oldi qismidagi bog', ekin maydoni. Erta qishda hayotimda ayiq izlarini ko'rdim. (Bahodir Qobul, Oqdala). U Biydi momoning hayot o'rtasida cho'loqlanib go'ng tashib yurgan Normatning oldiga borib, nimalardir deb, yer tepinib, o'tirib olganiga, yuziga ko'rsat-*

kich barmog'ini tirab, yer mushtlayotganiga qarab turardi. (Nazar Eshonqul, Urush odamlari).

HAYROV Ariqlarni tozalash ishlari. *Odamlarning ahilligi, birdamligi hayrovda yaqqol seziladi. Shukrki, mustaqillik tufayli bunday qadim qadriyatlarimiz yana tiklandi. "Hayrov – azaliy qadriyat". Uni Abray oqiraq hayrovga olib ketgan. Hafta-o'n kunda kelib qolar. Sabr qilsangiz, Safarning javobiniyam olarsiz. (Nurilla Chori, Qizg'aldoq). O'sha yillarda odamlar har yili erta ko'klamda Qoratepa arig'ida hayrov qilishib, suv yo'lini tozalashar edi. Bir hayrovda To'la polvon ham ishtirok etdi. (O'rolboy Qobil, Ayiqni yenggan polvon). Uning ko'z o'ngidan bahorgi yaylov va qirda tiklangan o'tovda chordona qurib o'tirgan otasi, sal narida qo'y sog'ayotgan onasi va hayrovdan endi qaytib, kunchuvoqda toblanib yotgan ukasi o'ta boshladi. (Bobo Ravshan, Shom va tong orasi).*

HAYROVCHI Ariqlarni tozalash ishlari ishtirokchisi. *Mojor qishlog'idan bir momo savob uchun hayrovchilarga bir paqir ugra osh olib keladi. (O'rolboy Qobil, Ayiqni yenggan polvon). Safari qarigan qish kunda Qizg'aldoqni ikkiga bo'lib o'tgan damariqda Abray oqiroq boshchi hayrovchilardan oldin loyqa suv keldi. (Nurilla Chori, Qizg'aldoq).*

HAZ Rohat, farog'at. *Keyin mingginchi, ehtimol millioninchi marta "Yozning hazini pashsha bilan vakil buzadi", degan dono gapni aytgan insonga tasannolar aytib, yangi vakil, komissiyani kutib olishga hozirlana boshlashdi. (Shuhrat Matkarim, Og'riq). Haz etmoq* Maza qilmoq, huzurlanmoq. – *He, chiqonlaringni ham aytirma! Ular sening ham, mening ham ustimdan haz etib kulsalar kerak. Sen bo'lsa ... farishta deysan. (Shuhrat Matkarim, Boljon). Yigitlarning yol to'shinda, Joziba bor qilmishinda, Haz atasiz og'ushinda, Galin bo'ling Xorazma. (Safo Ochil, Galin bo'ling Xorazma). Oyparchaning oyoq-qo'li biroz ilib, joni haz topdi. (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).*

HECHQURSA Hech bo'lmasa. *Hechqursa qornimiz qovzanar deb o'yladim. Lekin dasturxon nochor edi. Na ovqat, na qorinni aldashga durustroq narsa bor. (Sobir O'nar, Aka-ukalar).*

HILOL Tog' kurkasi. – *Nima sayrayapti? – cho'chib so'radi Safo aka. – Hilol, – dedim. – Juda kamyob qush. (Shukur Xolmirzayev, Olis yulduzlar*

ortida). *Tog‘ning olis cho‘qqilarida hilol sayraydi.* (Hamid Alp, Bolalik qo‘shig‘i). **Hilol** qushday hurkib-hurkib Suvga enib boraman. Buloqboshda bo‘z otliqning Poylashini kuylayin. (Sh.Salom). *Bilsam, tog‘ kurkalari – hilol kaklik – takalar uchun soqchi vazifasini o‘tarkan.* (G‘ofur Jo‘rayev, Chotqol tog‘ o‘rmonlarida).

HILPIN Shabada. ...o‘zidan ikki-uch yosh katta akachaning mehrli g‘azabda andarmon-sarson turishi juda yoqadi. ...orqada yolg‘iz qolgan bolalarni yengilgina epkin, yelpin, **hilpin** qurigan barglarni oldiga solib kelganda unga qo‘shilib bolakayning atrofida aylanib shitirlabgina, shivirlabgina qo‘rqitishni... keyin seskanib-seskanib siyib qo‘yishiniyam. (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

HIMARMOQ Shimarmoq. – *Yo‘q ko‘raman-da shu maylisingni. Nima gap ekan? Paxta-maxtaga aytishdimi? – dedi kampir dasturxon yoniga cho‘karkan keng ko‘ylagi yenglarini himarib.* (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

HINJI Inju, dur, marvarid. *Qora-qora, deyvermanglar yorimni, Qora munjiq hinji bilan aralash.* (“O‘zbek xalq qo‘shiqlari”).

HISHTAROVAMOQ Shoshmoq. *Gap qo‘shsa, kimdandir gap eshitib qoladiganday. Boyqadam ham ne bir kundan beri yalog‘ini hishtarovlagancha* shosha-pisha yalab-yulqaydi-da, dumni chotga qisib, iniga urib ketadi. (Bahodir Qobul, Bog‘dagul). *Shunda Nafas: “Ovchiga qaroridori”, dedi. Hayrat o‘qnini vahima bosdi. Nafas hishtarovlagancha* cho‘kka tushib kalima qaytara boshladi. (Bahodir Qobul, Enashamol). *O‘tira solib shoshgancha, hishtarovlagancha* kalima qaytargan bo‘ldi. (Bahodir Qobul, Enayo‘l).

HOBboni Maqtanchoq. *Bir kuni, turmush tashvishlaridan charchagan Otash hobboni* uyining orqasidan sharqirab oqib o‘tadigan ariqning bo‘yida, durrachasi bilan yelpini-ib o‘tirsas, eski, shalag‘i chiqib ketgan “Jiguli”sini varanglatib, *Bo‘tash gupir o‘tib qolibdi.* (Abdunabi Boyqo‘ziyev, Teshikmazor hangomalari). *Ikki ming so‘mga kichikroq uy qursa bo‘ladi, bu hobbonining bezrayib besh mingdan kelishini ko‘ring!* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). – *O‘zing aytding-a maqsadi boshqa deb. To‘g‘rimi? Hali oqsoqollarning gapini eshitmabsan-da. Bilasanmi,*

*Davlaboyning ham **hobboni** qilig‘i ko‘p edi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish).

HOBONILIK Maqtanchoqlik, gerdayish. *Eplay olarmikinman degan hadik ko‘ngliga g‘ulg‘ula soldi, lekin ustachilik qo‘lidan kelishini aytib **hobbonilik** qilib qo‘ygan, endi taysallash noqulay.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari). – *Xo‘rozimning shallaqiligidan bezib, oxiri pastko‘chadagi jiyanimga bervordim, – **hobbonilikni** davom ettirdi u. – Bervordim-u, haliyam qulog‘im tinchimaydi. Ertalabgacha “Qurvanaqqu-u-l! Qurvanaqqu-u-l!” deb meni chaqirib chiqadi.* (Anvar Obidjon, Buzoq guvohlikka chaqirilsin!)

HOPPOY (Qashqadaryo) Qadam. *Momomiz ikki **hoppay** tashlashi bilan buvamiz ilkis uning qo‘lidan tortib, ot egariga o‘ngarganda, otiga qamchi urgan* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). *Xullas, Saypi muallim qadami bilan hoppoylab oltmish **hoppoy** sanab, u boshigayam, bu boshigayam yalpoq qayroq tosh bilan o‘yib bir chiziq tortardi.* (Sobir O‘nar, Bibisora).

HOPPOYLAMOQ Qadamlamoq. *Xullas, Saypi muallim qadami bilan **hoppoylab** oltmish hoppoy sanab, u boshigayam, bu boshigayam yalpoq qayroq tosh bilan o‘yib bir chiziq tortardi.* (Sobir O‘nar, Bibisora).

HORIMTOL Dangasa. *Dashtliklar sal **horimtol** tob, ko‘pchiligi bersang jeyman deydi xilidan.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). *Kuz sarg‘ayar, Kuzdir **horimtol** Tabassumi ko‘rinmas ko‘zga. Go‘yoki u muhtoj ham emas Biror rag‘bat – maqtovli so‘zga.* (Rajab Xolbek, Ovozsiz kuylar).

HOVAR Tekislik. – *Ha, polvonjonlar, bo‘shashmanglar, jonli-jonli olishinglar, – deya chirkin somon, yog‘och qirindisi qalin to‘shalgan **hovarda** bellashayotgan o‘spirinlar atrofida aylanib turardi u, – zot kam bo‘lsa, hali yana qo‘shaman.* (Luqmob Bo‘rixon, Quyosh hali botmagan). *Ota-onadan kechib bo‘lmaydi ekan, keng **hovariniyam** tepa deb bildik.* (Murodxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida). *Katmanning **hovari** yana huvillab qoldi.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya). **Hovarda qolmoq** Qarovsiz, kimsasiz qolmoq; ko‘chada qolmoq. *Sizdan yaxshiliklar ko‘rdim... Agar men dumalab ketsam, Xolmat bilan Xojar **hovarda qolmasin,** opa-*

jon... (Nazar Eshonqul, Urush odamlari). – *Hech kimsaning o‘ligi hovarda qolmaydi, oshna. Yaxshisi, nomai a‘molingni o‘yla, so‘rov-savol bo‘ladi, – degan do‘rillash eshitildi.* (Xolmuhammad Karimiy, Janoza).

HOVVAR q. **hovar**. *Tashvishga tushib qolgan Toshqul butaning panasidagi andak hovvarni joriblab, tozaladi, o‘rtasi teshik sholchani tashlab, Xadichani o‘tqazdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

HULKARGA QARAGAN (KUTGAN) TAKADAY Kimdir nimanidir kutib yoki kutib turgandek o‘tirgan holatga nisbatan aytiladigan ibora. Kimdir nimanidir kutib tursa yoki kutib turgandek o‘tirgan bo‘lsa, unga qarata biroz iztehz o bilan shunday deyiladi: “Ha, falonchi, nega **hulkarga qaragan takaday** bo‘lib o‘tiribsan?” *Hulkar – bir to‘p g‘uj yulduzlarning nomi. “Yetti qaroqchi” – “Katta ayiq” turkumiga kiruvchi yulduzlarning “qo‘shnisi”. Qish adog‘ida Somon yo‘lida ana shu yulduzlar dastasining botishi kuzatiladi. To shu yulduzlar botmagunicha kiyikning erkagi – takasi urg‘ochisi bilan qo‘shilmaydi. Agarda oldinroq qovushib qo‘ysa, (kiyik homilasini besh oy ko‘taradi) tug‘ilajak kiyik uloqchalari qishning ayni o‘rtasida tug‘iladi va boshpanasiz tog‘ bag‘rida nobud bo‘lib ketishadi. Buning hisobini instinkt ravishda biladigan taka kiyik hulkar yulduz botishini kutib, ko‘kka qarab yotaveradi.* (Shodmonqul Salom).

HULULI Na‘matak. *Chakamuk, hululi pishgan, Ayiqlar yeyishga tushgan, Zamburlar chippa yopishgan Kuylashib “ming‘ir-ming‘ir” lab.* (Hol Muhammad Hasan, Sehr).

HULVO [f.-t. **hulbo‘y**] Yalpiz. *Qovjiradim yoz guliday sog‘ingancha o‘shal joyni, xoli kecha, yetim hulvo, yarqiragan ulkan oyni...* (Shavkat Rahmon, Esdalik). *Qiqir-qiqir jilg‘alar, Qir-adirdan sirg‘alar, Hulvo taqib sirg‘alar, Bulbul g‘azalxon bugun. Ko‘ngil farovon bugun.* (Iqbol Mirzo, Ko‘klamoyim). *Hulvolar xush bo‘y sochadi.* (Oydin Hojiyeva, Chiroq).

HUMOY Afsonaviy baxt qushi. *Xo‘p desam mardlik bo‘lsa, yo‘q desam nomardlik bo‘lsa, kel endi nima bo‘lsa ham peshonangdagi-da, deb qarchig‘ayday qayrilib, humoy qushday burilib, otining jilovini tortib, tizginini bo‘shatib, Odil polvonga tananing bir sonini ushlatib, sinamoq uchun tortishib, taqimlashib, chortoqqa yaqinlashib ham hazil, ham chin shu so‘zlarni aytib borayotir.* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

HUQ HAM URMAYDI Hech narsa qilmaydi. *Bechora akajoniga Nortoy ikkalasi ham sog‘lom buyragining bironi bersa, huq ham urmasligini, qolaversa, akajoni ham yashab qolib, bola-chaqasiga egalik qilishini xayoliga keltirdi.* (G‘ozi Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida).

HUSNYUSUF Qizil olma navi. *Bu yerda husnyusuf olma, naqsh olma, qirmizak olma, nok-nashvati, javzaki va qandak o‘rik, may gilosi, olxirot-dan tortib chillaki uzum va kishmishgacha bor.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

HUTTULAK Hut. *Fevralda hut kiradi. Shevada huttulak deyiladi. Shu vaqtda ot yana bog‘lab qo‘yiladi, egarlanmaydi.* (Nargiza Rahmatul-layeva, Badash).

HUYYO-HUY Ota allasi. *Sen kir yuvishga tutinarding. Buvim o‘choqboshiga ketardi. Bolamiz beshikda yig‘lasa, buvim, “Otayam qarasin-da, ho‘kkidek so‘ppaymasdan, o‘tir huyyo-huy aytib ovutib tur”, derdi.* (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

HUSHTULLOQ q. **shuvillak.** *Uzoqlardan uloq-qo‘zilarning mayin ma‘rashi quloqqa chalinar, kimdir ko‘k loydan yasab olgan hushtullog‘ini zo‘r berib hushillatardi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

HO‘K Bo‘yni yo‘g‘on. *Ammo hamma jamoada bo‘lgani kabi bu redaksiyada ham ho‘k, ters xodimlar bor.* (Shuhrat Matkarim, Ijodkorlar).

HO‘KAK q. **ho‘kki.** *Tong azonda uydan chiqib axtaligidan semirib ketgan shalpanquloq eshagimni uchi nayzaday o‘tkir irg‘ay xalacho‘p bilan “ix-ix”lab yetganimda, ko‘rdimki, qo‘shnimiz chag‘irko‘z, hammaga o‘xshatib laqab qo‘yadigan, belida churrasi borligidan egilib yuradigan Sharif ho‘kak “Qishloqlar tinchmi?” deyishga bazo‘r ulgurib, qo‘y-qo‘zilarni bir-bir sanay ketdi.* (G‘ozi Rahmon, Tilsimli tog‘lar).

HO‘KKAYMOQ Bukchaymoq. *Otasining yuzlari ajin-bujin, qo‘llari g‘adir-budur, ketmon ezvorgani uchunmi, yelkasi ho‘kkayib chiqqan.* (Norto‘xta Qilich, O‘pqqon).

HO‘KKI Bukur. *Zimdan ko‘z yugurtirgan yigitning diqqatini hamsoyasining odmi va uringanroq kiyim-boshi, pidjagining yelka qismini ko‘tarib turgan ho‘kki kifllari tortdi.* (Qamchibek Kenja, Indamas odam). *Sen kir yuvishga tutinarding. Buvim o‘choqboshiga ketardi. Bolamiz be-*

shikda yig'lasa, buvim, "Otayam qarasin-da, **ho'kkidek** so'ppaymasdan, o'tir huyyo-huy aytib ovutib tur", derdi. (Ma'mura Zohidova, Boychechak). Qirq yil muttasil uzzu-kun stolga muk tushib gazeta o'qiganidanmi tik qaddi bukchayib, tug'ma **ho'kkiga** o'xshab qolgan. (Shuhrat Matkarim, Kulgich).

HO'PIQMOQ Nafas ololmay qolmoq. – *Burdug'imni olmang, – ho'piqib unga yolbordi bola, – sizga ham yetar, menga ham. Olmang. Ushlang.* (Erkin Samandar, Sulton Jaloliddin). *Yigit suzishni yaxshi bilardi, bir hamla bilan qizga yetib olishi, uni qutqarishi MUMKIN EDI! Ammo, u joyidan jilmadi. Jon talashayotgan, ho'piqib, dodlab, o'zidan tobora uzoqlashayotgan begunoh qizga loqayd qarab turaverdi.* (Abdunabi Hamro, Yerto'ladagi umr.)

HO'QQI Qo'pol muomala qiladigan. *Enamning otasini kamgap, kam-suqum, mehnatkash, ko'ngli ochiq, sodda, ammo o'jar, biroz ho'qqi, och sariqdan kelgan, mitti gavdali bo'lgani uchun ham "Boynazar saman" deb chaqirisharkan.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). – *O'ji, yaxshi naysha-da bu, – tilli-jag'li shofyorimiz, "sho'rt-sho'rt" shiminib, gapga tushdi yana. Umuman, haydovchi zotini, bitta-ikkita ho'qqi, asabiysini aytmasak (ular ham avtobuschilar, asosan), kamgapini ko'rma-dim.* (Sherbek Bobonor o'g'li, Endi kimlarga tobemiz?)



IBIRLI-CHIBIRLI Nevarali-chevarali. *Yoqit momo lahzalar ichida qalbida kechgan alamli tug'yonni yuziga chiqarmay, nevara qizni alqab, duolar qildi. – Baraka top, qizim, kelinlik baxtini yaxshi joylardan ato qilsin, borgan joyingda unib-o'sgaysan, ibirli-chibirli bo'lg'aysan.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *So'zga Xoljon xola aralashib, yolbora boshladi: – Jonim bolam, otangning so'zini qaytarma. Boshingni qo'sha qilib, ibirli-chibirli bo'lish orzuimiz bor. To'yga niyatlab, otang qo'chqor boqyapti. Xudodan tilagim: baxting guldek ochilsin.* (Fozil Zohid, Musibatdagi sabr).

IDISHOQ (Surxondaryo) Idish-tovoq turadigan joy. *Uyga kiraverishdagi chap tomonda idish-tovoq turgan. Idish-tovoq turgan qism idishoq deyiladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

IDISHQAYTDI Qiz unashtirishda kuyov tomondan yuborilgan dasturxon va uni kutib olish marosimi. *Beknazarning hatna to'yida pichma qo'y yetaklab kelishgan va sovrinning "idishqaytdi"si – latta-sarpo vajidan ranjib, arazlab ketishgan, o'sha bo'yi o'lim-yitimdan o'zga mahallarda deyarli bordi-keldi qilmay qo'yishgan o'gay amma va pochchani-kidan panoh topishni maslahatlashishdi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

IDRAMOQ 1. Qaltiramoq. *Jununman, hasratim har dam o'zim-o'zimga so'zlarman, Vujud titrar, dilim idrar, unim chiqmaydi – bo'zlarman.* (Hol Muhammad Hasan). *O'sha kez bahaybat Oqtirnog'imning qoyadek ag'darilganini va cho'botlar iti ildamlilik bilan bo'g'ziga chang solganini ko'rdim. Ichim idrab ketdi.* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq). **2.** Titilib, uvadasi chiqmoq. *Men kazarmaning idrab turgan bir burchagiga suyanib, cho'k tushaman. Qur'on tilovat qilaman.* (Qo'chqor Norqobil, Kitob va kinoga sig'magan og'riq). *Lekin, changalidagi titilib, idrab qolgan pullarga ko'zi tushishi bilanoq, tag'in o'z ishiga kirishib ketdi. U yana hisobdan adashmadi.* (Eshqobil Shukul, Pul sanayotgan odam).

IGRIM Girdob. *Tuyg'ularim igrim va igrim. Sizga qaytdim, hazrati Kubro, Sizga qaytdim, Pahlavon Piyrim. Senga keldim, quyoshim, yana.* (Matnazar Abdulhakim, Qaytish).

IJJON (Xorazm) Qiyma. – *Hali endi tong otdi-ku, ozib-yozib bir ke-libsan, shoshaverma, borasan, qochib ketmas uying, – degani bilan Ro'zika momo qaddini rostlab, oshxona tomonga borib qaytdi va qat'iy ohangda so'zini davom ettirdi. – Kelinim tushmagur momomizning tishlariga qoyim qilib, yumshoqqina go'mma pishiramiz, yeb ketadilar, nevaralariga ham olib boradilar deb, qizi bilan xamir qorib, ijjon tayyorlayotir ekan.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Bir kuni eri uch-to'rtta jo'ralari bilan borishini, go'sht chiqarib, go'mma qilishini va ozgina ijjon ham tayyorlashini buyurdi.* (Gulsara Ibodulloh, O'g'ildanmi, qizdanmi...). *Chol kampirni ijjon etib chopayotgan, kampir o'zining bor hunarini ishga solib oqtig'ini*

oqlashga intilib yotgan vaqtda Shaydo ne ish etib bo'lsa ham Davlatyorga gapini aytib qolish yo'llarini zo'r berib izlar edi. (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

IJIKILAMOQ Ezmalanmoq. *Himmat uning fikrini uqqanday, "Ustani ishdan qo'yapsan, hozir otam kelib qoladi" deya, go'yo opasiga tanbeh bermoqchi bo'lar, ammo Xongul ukasining e'tirozi, ogohlantirishlariga qo'l siltar va labini burib, "Nima, bilgim kelyapti-da" deb, yana Beknazarga ijikilab savol yog'dirishda davom etardi. (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari). – Qayerda qo'lingizga tushdi? – Riga shahrida. – Hm-m, Riga degan shaharda deng. Nega u yerga bordingiz? – ijikilab so'rar edi leytenant. (Nurali Qobul, Kechagi kun). – Texnikumni bitirganmisiz? Ayol bosh irg'adi. – To'rt yillikmidi? Ayol yana bosh irg'adi. Endi cho'qqisoqol ijikilab so'rayotganining sababini ayon etdi. (Shoyim Bo'tayev, Men, onam va bolam). Hang-mangim uchdi, yo piray, mutlaq xayolda yo'q narsalarni so'raydi-ya. Shunda ham o'zimni qo'lga olib, Xoldorga ijikilab tushuntirdim, "Og'ayni, muhtaram g'uliy, kitob davlat nashriyotida bosilgan, ungacha ham rosa chig'iriqdan o'tgan, bir nechta muhr bilan tasdiqlangan. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).*

ILASHMACHOQ Yopishqoq. *Qorlar yuza qismi erib, ilashmachoq bo'lganda, qush oyog'idan tushgan no'xotdek urpoq bir dumalaydi va o'ziga qorni ilashtirib, shu taxlit dumalab, ham bo'yiga, ham eniga kattalashib boraveradi, oxiri ulkanlashib, juda katta kuchga aylanadi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

ILDIRMA (Xorazm) Ilk ko'karib chiqqan beda, un, tuxum, sariyog' aralashtirib tayyorlanadigan, atalaga o'xshash taom. – *Mani qora qayg'um – kun botmasidan tiyrimni to'dirib, uyga borib, bir ildirma qilish. (Komil Avaz, Sozanda).*

ILGIR Yosh bolaning tomo'g'ida turib qolgan po'choq, qipiqnlarni olib tashlaydigan tabib. *Badanlarini qitiqlab kuldirishardi. Unga yashirincha meva-cheva, shirinliklardan berishardi. Hattoki, tomog'ida qolgani-da ham akalari uni eshakka mindirib, Sanam ilgirga opkelib, tomog'ini tozalatib ketardi. (Shodiyor Hazrat Ismat, O'tinch).*

ILIK Qo‘l. – *Qani, qo‘lni bering! – deya ilik uzatdi. – Yettovini ko‘tarasiga bichaymi yoki... (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).*

ILONPECHAK Sutpechak. *Bahrom chol barini xuddi kechagiday yaxshi eslaydi: endi ko‘chib kelgan chog‘lari bog‘da yovvoyi o‘t-o‘lanlar g‘ovlab ketgan, ba‘zi daraxtlar esa quriyozgan, tarvaqaylagan g‘umaylar, devorga chirmashgan chirmovuqlar-u **ilonpechaklar** oralab kaltakesaklar, mov mushukday kalamushlar, barmoqday biqqi, bir qarichday keladigan echkiemarchalar ko‘zlari chaqchayib devor kovaklarida o‘rmalab yurar edi. (Norto‘xta Qilich, Zilzila). O‘tloq ancha «oriqlab» qolibdi. Faqat chekkaroq qismlarida oqboosh, **ilonpechak**, tuyatovon, yantoqlar panasida selkillagan ajriqlarni topish mumkin. (S.Umarova, Mening kelinchak singlim).*

ILONQUYRUQ Yaylov-o‘tloqlarda o‘sadigan dorivor o‘simlik. *Jar-ko‘cha yoqasida bo‘yniga dor osmagan qolmaydi. Bo‘riguldan tortib pochagirqar, dilikaptar, **ilonquyruq**, arslonquyruq, itbodom, itog‘iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig‘-u eshakmi-yagacha. (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).*

ILONCHO‘P (Lithospermum officinale L.) Govzabondoshlar oilasiga mansub, adir, tog‘larda o‘sadigan dorivor ko‘p yillik o‘t. *Zamonaviy tabobatda **iloncho‘p** o‘tining barglari va poyalaridan suvda tayyorlangan ekstraktlarning tajriba sharoitida gormonlarga qarshi ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan. (Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar).*

IMMA (Xorazm) Xotinlarning birgalashib ko‘rpa-to‘shak tikishi. *Ular [xotinlar] har tomonga eshiklar qo‘yilgan ayvon deb atalmish katta uyda o‘tirib **imma** qilishardi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).*

IMZANMOQ (Xorazm) Intilmoq. *Keyingi ikki yil davomida biror marotaba manaman degan polvon ham yurak yutib, kurashga **imzanmagan** Bola polvon bilan olishishga bel bog‘lagan, kurash chakmonisiz bu yigit hali olishuv sir-u sinoatidan bexabar bo‘luvi, oyog‘i osmondan kelib, mayib bo‘lib qolishini istamaganidanmi, Ustoz polvon uni yoniga chaqirdi. (Komil Avaz, Sozanda). Yoqut momo ketishga **imzangan** edi, Ro‘zika momo uni “Bir kecha ming kecha emas. Bugun shu yerda qolasan,*

so‘zlashib tong ottiramiz, chiqon”, deb qo‘yib yubormadi. (Komil Avaz, Yoqut momo). [Yoqut momo:] *Onam bechoraning ko‘zlari yoshlandi, lekin anorga imzanmadi.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Endi zo‘rg‘a rozi bo‘lganida, izg‘irinli shamol uning borliq imzanishini – intilishini yo‘qqa chiqardi.* (Komil Avaz, Sozanda).

INAK Sigir. *Uning mushkullari oson bo‘lishi uchun ko‘k inak yordamga keladi, kechasi bilan qizning chekiga tushgan paxtalarni yigirib, ip qilib chiqadi, qaldirg‘och akasidan xat keltiradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

INJILMOQ Biror ishga yoki kimningdir iltimosiga norozi bo‘lib turmoq, og‘rinmoq. *Qurbon chavandoz shunga ishora qilayotgandi. Otimizni o‘zidan boshqaga ishonmaydigan bobom ancha vaqt injilib turgach, Qurbon chavandoz kutilmaganda: – Ana, nevarangni mindirib jo‘nat, yem-suvini o‘zi beradi! – dedi.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

INTIBOQCHILIK Ahillik. *Tegirmonchining mung cho‘mgan ko‘zlarida allaqanday masrurlik zohir bo‘la boshladi: – Ko‘zim ochiqligida o‘rinli qilay deyman-da. O‘zlari kulib yurishadi, shaharda uyimiz bor-ku, deb. Bari bir-biri bilan ahil; intiboqchiligini ko‘rib yashagim keladi.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi).

IP TAQMOQ Belgilamoq, kelishmoq. *Ularning suhbatlari anchagacha cho‘zildi: ko‘ngillarida bir fikr aylanib turganidan ixtiyoriymi yo beixtiyormi, bolalari haqida ham pardalabroq surishtirishdi: – Qizing‘izg‘a og‘iz solg‘uvchilar ko‘paygon deb eshitduk, birov ip taqib ketmadimu? – so‘radi Ulug‘oyim.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). *Shunqorbek hanuz uylanishni bo‘yniga olmay kelarmish. Demak, ota-onalari biror joyga ip taqisholmagan. Nima bo‘lganida ikkalasi bir tana-yu, bir butokdan tarqalgan urug‘dosh. O‘ldimi, shunga rioya qilsayam yo‘q demas...* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

IRGA (Surx.-Qashq.) Uy ichining poygagi. *Mulkin ko‘r-da, molin ol, Irgasin ko‘r-da qizin ol.* (Maqol). *Uy egasining uyda yo‘qligidan bexabar odamlar uni yo‘qlab keldilar: undan olgan qarzini bermoqchi bo‘lib do‘st keldi, unga bergan qarzini olmoqqa chog‘lanib do‘st dushman bo‘lib keldi, ...irga ko‘raman, deb bir xotin keldi...* (Ahmad A‘zam, Qulf tili).

IRKILMOQ To‘xtamoq, xayallamoq. *Oyparcha ancha irkilib qoldi. Bir soat o‘tdi – yo‘q. Ikki... Uch soat o‘tdi – yo‘q.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni). *O‘sha oqsoch professor irkilib ma‘ruzadan to‘xtadi, keyin siniqlik va havas bilan menga termilib qoldi.* (G‘affor Xotamov, Afsungar).

ISIRIQZOR Isiriq o‘sib yotgan yer. *O‘tib tokzor, undan keyin isiriqzor.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

ISIRG‘AGUL: Xolmon isirg‘aguli (Fritillāria eduárdii) Poyasi bargli, 40–80, ko‘p yillik, piyozlari iste‘mol qilinadigan xushmanzara o‘simlik. *Xolmon isirg‘aguli shabodada alangilanayotgan qizil boshchasini nola qilib yordam so‘ragandek, egdi.* (Nargis Qosimova, Faryod).

ISLIQMOQ Is bosmoq. *Yo‘liga shoxdan-shoxga osilib turaverib isliqqan, qaro bosgan mezon arqonlari dor osib chiqadi.* (Bahodir Qobul, Enayo‘l).

ISPAND Isiriq. *Sandiqni olib kirmay turib ham, ispandni tutatish mumkin bo‘lgan. Ispand bor iflosliklarni haydab chiqaradi deb o‘ylashgan.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

ITBODOM Ra‘nodoshlar oilasiga mansub, tog‘da o‘sadigan dorivor daraxt. *Jarko‘cha yohasida bo‘yniga dor osmagan qolmaydi. Bo‘riguldan tortib pochagirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog‘iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig‘-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

ITBURUN Na‘matak. *Qirg‘oqdan chiqib olgan Matyoqub aka itburun ostida to‘xtab, qandaydir totli xo‘rsindi.* (Shukur Xolmirzayev, Bu kishim – ustoz, men – shogird). *Shunday kunlarning birida bo‘yniga qasmog‘i bir qarich bo‘lib, oldi betida ikkita cho‘ntak, ikki biqinida qo‘shkissali bo‘g‘jamaday keladigan, surat olgich asboblarini soladigan, rangi o‘chib va sasigandan jiyib ketgan sumkasini o‘ng yelkasiga osgan, qop-qora va tarashaday jasadini chapga tashlab, qiyshayib, jangallar orasidan, itburun-u, bo‘ritaroq ostidan enkaygancha isga botib, tortanakka talanib, timirskilangan suratchi juhud chiqib keladi.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li). *[Xubon] Anbargulli ro‘molini boshidan oldi-da, xuddi qanot chiqargan kabi uchganicha pastga otildi. U bir yiqilib, bir sirg‘anib, yulg‘un va itburun butalarini tutgancha dara tubiga qulamaslik uchun intilardi.* (Meh-

mon Baxtiy, Xubon). [*Ona Bo'ri*] Tashnaligi biroz qonib, tanasi yayraganday tuyuldi, lekin ochligi kuchaydi. Keyin u tepalikka ko'tarila turib, "*itburun*" o'simligining tagiga tumshug'ini tiqdi. (O'ktam Hakimali, Uchinchi bahor).

ITORQA O'rtasiga uzun, yo'g'on yog'och qo'yilib, suv oqishi ikki yonga yo'naltirilib yopilgan inshoot (uy, molxona). *Mashina chang-to'zon ichida qirlardan aylanib-oshib itorqa tomning soyasiga kelib to'xtadi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). *Qirda itorqa loy tom eski qal'adek qaqqayib turibdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). *Itorqa tomli, uch xonali uyimizning bir xonasida otam, onam, men va opam sandalga yopilgan ko'rpaqa belimizgacha burkanib, gurunglashib o'tirardik.* (Eshqobil Shukur, Ona tilim – oltin sandig'im).

ITOG'IZ Sigirquyruqdoshlarga mansub, ba'zan chala buta shaklida uchraydigan bir yillik yoki ko'p yillik o't o'simliklar turkumi. *Itog'iz, bo'tako'z, gultojixo'roz, Gulbeor, chinnigul va cho'pkachizar Ekib qo'ya olsang bo'lar juda soz, Chetiga chim bossang chamanni bezar.* (G'afur G'ulom, Gulxona). *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochagirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

ITQUSH (Jizzax) Bo'ri. *Bitta olg'ir it yuzta xashaki itning o'rnini bosadi. U itqushlardan tog'larni tozalab, butun qishloqning mollarini asraydi.* (Soyim Is'hoq, Vafodor).

ITTIRSAK (Xorazm) Ko'z oldiga chiqadigan yiringli yara; govmijja. *Ikkinchidan, u yer bu yerga borib idora, korxonah rahbarlariga ko'z oldiga beo'rin chiqqan ittirsakday yomon ko'rinib yurilmaydi.* (Shuhrat Matkarim, Kulgich).

ITTOVON 1. (*Zygophyllum fabago*) Bo'yi 30–60 sm ga yetadigan, tuxumsimon, qalin barglari juft bo'lib joylashgan ko'p yillik dorivor o'simlik. *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochagirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li). **2.** Chillali kelin-

chak va yosh go‘dakni yomon ko‘zlardan asrash maqsadida to‘rt burchakka to‘rtta no‘xatdek hol tushuriladigan gilam turi. – *Gilamga naqshning qaysi xili bo‘lsin? – deb so‘radi Mergan momo. Mayram ko‘shmijsa “Ittovon” naqshi yoqishini aytdi.* (Nodir Normatov, Jazo).

ITYIQILISH Kurashda ikki kurashching baravar yiqilishi, bunda ikkalasi ham g‘olib deb topilmaydi. *Oqibat, ikkovida baravar yiqildi. – Bekkor, ityiqilish bo‘ldi. Boshqatdan olishinglar! – dedi davra.* (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

IYBOSHLAMOQ O‘ziga bo‘ysundirmoq. *Boybichalar qizimiz buni iyboshlarmikan, deb kuyov qilishga yuraklari dov bermas edi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

IYDIM Bayram. *Assalomu alaykum, munisim Qoplon, Qorni to‘ysa – bayram, qorni to‘ysa – iydim. Vovullashni to‘xtat, sabrda toblan, Hadeb itligingga boraverma, itim.* (Matnazar Abdulhakim).

IYIK (Xorazm) Ip yigiradigan charxning yo‘g‘onligi o‘rta barmoqdan nozikroq, qattiq daraxt shoxidan yasalgan qismi. *Ibodulla aka o‘ziga xos bu uskunada chigit tozalash, ip yigirish asboblariga nozik qismlar tayyorlar, ayniqsa, iyik tayyorlashda uning mahorati yuqori turardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). **Iyikday to‘g‘ri** Biror narsaning to‘g‘riligini isbotlash uchun aytiladigan ibora.

IYIQ Otning egar turadigan qismi. *Undan keyin iliq suvga kon tuzi solib, doka bilan iyiq va boshqa joylari surtib olinadi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

IYLAMOQ (Xorazm) Bo‘yamoq. *Bir payt biram tantiq go‘yo shirinlikka o‘ch bola, turfa rangga iylab o‘zin, sochiladi ming alvon.* (Omon Matjon).

IYRIM Girdob. – *Uf. Manavu iyrimga kirib ketadiyov deb qo‘rqib edim, – dedi murti sabza urgan.* (Shukur Xolmirzayev, Oqtosh). – *Tagi chuqur. Shundoq oyog‘imiz ostida – o‘sha ko‘k iyrim. Ya‘ni girdob! Biroq uning qirg‘oq qo‘ltig‘iga urilib, o‘rama hosil qilib o‘tayotgani sezilmas, aytishlaricha, oqimning zo‘ri suvning tubida edi. Sirti esa shunday sokin.* (Shukur Xolmirzayev, Oqtosh). *Yozgi ta‘tilda o‘rtoqlarim Normurod, Xurram va men – uchalamiz ulkan tol ostidagi iyrimda rosa cho‘mildik.*

(O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

IZMAK I (Surxondaryo) Burunga taqiladigan zirak. *Bunda sirg‘a burunning ikki chetiga, burun paraklariga hamda burun o‘rta devoriga taqilgan. Shunga ko‘ra bu sirg‘alar lativa, izmak, aravak (arabak) kabi nomlar bilan yuritilgan bo‘lsa, o‘rta devorga taqilganlari bo‘lovi, burun baldoq deb ham yuritilgan.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).

IZMAK II Jiyak. *Keyin u [Roziya] oyog‘ini men tomon uzatdi va “ana-vini ol” dedi yuzidagi ranj ifodasi bilan poychasiga ishora qilib. Izmag-ining popugiga yopishgan rindak urug‘larini ajratib olish oson kechmadi.* (Ne‘mat Arslon, Amalgama).

IZG‘OR (Xorazm) Nam, xo‘l. *Men Bog‘olonga kelib, rais Matqurbon Bobojanov, bosh agronom Soliy Xaytboyev bilan dalalarni aylanib chiqdik. Hamma yer loy, izg‘or, ekish mumkin emas edi.* (Aminboy Vapoyev, Xotiramda jonlangan o‘tmish). – *Ey, qo‘shiq, o, badbaxt qo‘shiq seni yaratganlar bir umr hijrona uchrab, bag‘rini izg‘ora barib, dunyodan toq o‘tsin.* (SalomatVafo, Umid ibodatxonasi).

ISHIG‘ Shish. *U sheriklariga (kamayib-kamayib yetti kishi qolishgandi) ikki-uch kun dam olishni, oyoqlarining ishig‘i biroz qaytgach, yo‘lga chiqishni taklif etdi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

ICHKA Ozg‘in. – *Qora juvona qo‘shga qo‘shiladigan bo‘lib qolibdi. Sag‘rini ichkaroq demasa, bir xo‘kizga turib beradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

ICHKETDI Ichburug‘, diareya. *Kampirning o‘n yashar nevarasi ichketdi bo‘lgan. Issiq tosh shunga kerak. Lekin murutak mevasidan zo‘ri yo‘q. Kampir aslida Mayram qo‘shmijadan ana shu kamchil mevani so‘ramoqchi edi.* (Nodir Normatov, Jazo). *Mergan momoning ichketdini davolash usuli shu. Avvaliga issiq toshga o‘tirg‘izadi. Tosh, ayniqsa, quyoshda qizigani ichak namini so‘radi. Talqon ichni yaxshilaydi.* (Nodir Normatov, Jazo).

ICHKARI Ishtonbog‘. *Ichkari (ishtonbog‘lari)ning po‘paklarini ham ipakdan qilaman.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

J

JAHLLANMOQ Jahli chiqmoq. *Shunga qaramay, u eshagini yaxshi ko‘radi, boisi, jahllangan paytlarida sho‘rlikka ne zulm o‘tkazsa-da, g‘iq etmaydi-da.* (Normurod Norqobilov, Erkak).

JALOV Solim. *Nakurtning ko‘pkarisida jalovga o‘n bir tana, uch toy qo‘yildi.* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

JALTANGLAMOQ Olazarak bo‘lmoq. *Bundan hosilotning jahli bo‘g‘ziga keldi, shakkokni topmoqchi bo‘lgandek jaltangladi.* Oqibatda hammaning nafasi ichiga tushib ketdi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Komandirining ko‘zi jaltanglaydi, picha indamay turaman, keyin, “mana senga” deyman-da, shartta otib tashlayman.* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

JAMCHIMISH Qaynoq yog‘ sirli idishga solinib, ikkita non to‘g‘rab, yog‘och qo‘shiq bilan aralashtirilib, yog‘ sovigandan keyin non bo‘laklari barmoqlar bilan ezilib tayyorlanadigan taom. – *Durdasini jemanglar, ta‘m bo‘maydi. Yog‘ini o‘ziga non botirib jenglar, – derdi enam, – shoshmanglar, jachimish qilib beraman!* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). *Jamchimishga to‘yganimzdan keyin biz bolalarning yonog‘iga qon yuguradi.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

JANA Do‘ng, tepa. Do‘ngning, tepaning qiyaligi. *Janada jilvir-jilvir, Ravshani kundir.* (Topishmoq. Javobi – yulduz)

JANAQUSH Yopiladigan, uchi burguttumshuq pichoqcha. *Tog‘am ikkita handalak ko‘tarib kelib, dasturxonga qo‘ydi; yelkasini ter tuzi oqartirgan kulrang kostyumining cho‘ntagidan janaqush pichoqcha olib, bittasini so‘yishga tutindi.* (Anvar Obidjon. Mo‘ttivoymisan, Mittivoymisan?)

JANDA Eski. *O‘zi janda choponni kiyib, mollarining ertalabki yem-yemishini saranjomlagani og‘ilga burildi.* (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).

JANDACHI Eskifurush. *Jandachi amaki – yuzini tikanakdek soqol qoplagan, jiyagi uniqqan do‘ppi kygan, yelkasiga to‘n tashlab olgan el-*

lik-ellik besh yoshlardagi kishi. U qishloqma-qishloq yurib eski tuskilarni yig'adi. (Shoyim Bo'tayev, Kunbotardagi bog').

JANNA Eski-tuski. *Chavag'on suqi bor; deb gumon qilingan temirchi, qassob, yana kimlardandir janna so'rash uchun shoshib chiqib ketdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Qaynota janna – churuklarni to'dalab kelganda, bemor qayt qilishdan ham to'xtab, g'ujanak bo'lib olgandi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

JARG'A Qator, saf. *Muzaffar Oni tarbiyating'izg'a olsang'iz saltanatni sudig'adur, bir kunmas bir kun donishmandlar jarg'asini peshi bo'lur.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

JANGLI BODRAK (Xorazm) Ikki shoxiga qayrilgan qamish yopishtirilgan, uchirilganda shamol ta'sirida jaranglaydigan varrak. *Devorda odamlar yuradigan tomoshalar ko'rsatiladi-i-i! O'tli jangli bodrak uchiriladi-i!* (Komil Avaz, Sozanda).

JAVONIB Atrof. *Javonib turli-tuman rusum, hajm va tUSDagi zamonaviy arobalar-u ulardan taralayotgan baland-past tovushlarga to'lib ketgan.* (Ulug'bek Hamdam, Unutilgan nay navosi). *Go'yo o'g'li shu javonibda yashirinib turgandek u yon-bu yon alangladi...* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).

JAVZAKI O'rik navi. *Javzaki o'rik pishib, bodiring endigina chiqqan. Topgan gul, topmagan bir bog' piyoz, deganlaridek, bog'i bor bolalar oltindek sap-sariq javzaki o'rikni barkashga solib, endi rang olgan qizil olichani novdaga tizib domlaga olib kelishardi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

JAG'DAY (Jizzax, Iqon) Ahvol, hol. – *Bu yovning na o'q bilan, na do'q bilan qaytadigan jo'ni-jag'dayi yo'q.* (To'ra Sulaymon, Yovqochdi).

JEGDA Yaktak. *Qog'anoq, gilagay ichib, Jegda-kebanagin yechib, Cho'lig'i chalar sibiziq Masirqab, dunyodan kechib.* (Hol Muhammad Hasan, O'lan).

JELA // JELI (Surxondaryo) Tuzoq. *Saksonipning o'g'li ham bu ish bilan shug'ullanar, ovidan qolgan ikki-uchta tirik jo'ja kaklikni qafasda saqlab, yozgacha boqib, yozda tog'ga jelasi bilan opchiqib kaklik ovi uyushtirardi.* (Sobir O'nar, Lochin). *Tush mahalida kukulayotgan musi-*

cha-yu kaptarlar – barisi bir bo‘lib o‘z tuxumiga sano aytaveradi: ku-ku, ku-ku... Ularga jela qo‘yishmaydi. (Shodmonqul Salom, Saraton). *Yetib kelgach manzilga, Otni tolga jilovlab. Qor ustiga jeli yozdi. Qo‘nib qolgan chil ovlab.* (Tursunboy Adashboyev, Chil ovi).

JELAK (Surxondaryo) Uzun yaktak. *Eshniyoz jelagini yechgan ham edi, uni chaqirib kelishdi.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati).

JERIK Boshqorong‘i. – *Ol-la-a, o‘n besh kunmish-a! Bugunni ertag‘a goldirmag‘aysen! Surishtursang atrof tumanlardin topilib qolur. Kelin jerik bo‘lg‘onin aytsa-da fahmlamadingmu, nodon!* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

JERIKLIK Boshqorong‘ilik. – **Jeriklik** – *ezgulikni boshi. Kelin yukli bo‘lubdur. Shundoq damda ayol ko‘ngli nimarsa qumsab qolur. Yer tagidin bo‘lsa-da oni topib yedirmoq lozim.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

JERKINDIK q. **yerkindik**. *Qorako‘lda bir olish bo‘ldi-ey, qiztaloq, bo‘yi bir qarich palakmurda polvoncha bizni polvonga ot solsa bo‘ladimi?! Mavlon – daroz, u esa pakana. Davrani aylanayapti – odamlar gur etib kulishadi. Anovi jerkindik tulkiday epchil ekan.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

JIG Mushak-mushaklardan iborat go‘shning parda bilan ajralgan joyi. *Ishning ko‘zini bil, go‘sh(t)ning – jigini.* (Maqol). *Ishning jigini bilgan armonda qolmas.* (Maqol).

JIGILDAK (Xorazm) Jiydaning mayda xili bo‘lib, ko‘proq Xorazm vohasida uchraydi. *Otam bu gal ham odatdagidek jingildak tagiga cho‘kkalab o‘tirdi-da, uzundan uzun qur‘on tilovat qildi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

JIKLAMOQ 1. Go‘shni bo‘lak-bo‘laklarga ajratmoq. *O‘rol go‘shni jiklab, palovga deganni bo‘lak, uyda osiladigan bosh qozonga deganni alohida, qo‘noq uylarga tarqatiladiganni bo‘lak ajratdi, undan ko‘z uzmay turgan Bo‘ynoqning nasibasini chetroqqa otdi.* (Bayram Aytmurod, Og‘a). **2.** *Oxiri, kim maydondan mag‘rur qaytsa, o‘zlariga jiklab, qon-qarindosh chiqara boshladi.* (Nurilla Chori, Bo‘ron tingan kecha).

JILI Juda, o‘ta. *Jo ‘ralaringni chaqirib, ziyofat qilib ber, jili yalang‘och bo‘lib qolmassan [dedi brigadir].* (Sa‘dulla Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi).

JILOB (Jizzax) Paypoq. *Melisaning battar jahli chiqdi: – O‘v boboy! Jonga tegdingiz lekin! Boya nevaramga jilob olaman dedingiz! Endi bu gap chiqdimi?! Qarib, miyangizni yeb qo‘yganmisiz?* (Ahmad A‘zam, Qatag‘on yili).

JIMSI (Xorazm) Qat‘iyatsiz, xaraktersiz odam. – *Hay, senga aytaman! – takrorladi Farhod unga yana. – Kayfing ketdimi? Zo‘rmi? Bir-ikki kunga berib turishim mumkin. Lekin avval kitobni yozib tashlash kerak. Ha-ay, jimsi, senga aytaman!* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

JINGILA Buralgan, jingalak. *Jingila sichqon yer qazir.* (Topishmoq. Javobi – tomchi) *Darvesh boshini ko‘tarib tepasida qo‘shnisi Bolta hovliqma bilan Yaxshim jingilani ko‘rdi.* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

JINGUL Na‘matak. *Qishloqning yuqori qismida tevaragida jingul-u chakalaklar o‘sgan Toshkelinchak degan qarovsiz joy bor edi.* (Isajon Sulton, Toshkelinchak).

JINNIBOSH (Xorazm) Sholi orasida o‘sgan o‘zga nav sholi boshog‘i. Urug‘ aynimasligi va guruch sifatini saqlash uchun bunday boshog‘lar bit-tama-bitta o‘rib olinib, yem o‘rnida ishlatiladi. *Qanor, peshgir, o‘roq, termos, ikki cho‘rak va bir qovun opketgan. Demak, akam o‘tga ketgan. Yo‘yo‘q, peshgir opketganiga qaraganda, sholi yerga – jinniboshga ketgan...* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni). – *Nasiba, qo‘ylaringdan xabar ol, qizim! Tag‘in jinnibosh yeb, bo‘kib qolishmasin, – dedi.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

JINQARCHA Chittak. *Uchqatning silliq butoqlarida jinqarcha dikdik sakraydi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JING‘IROQ Qo‘ng‘iroq. *Jing‘iroq ishlamas edi, mashinadan tushgan odam darvozani qattiq taqillatdi.* (Tohir Malik, Murdalar gapirmaydilar). *Shu payt uni seskantirib yana jing‘iroq jiringladi.* (Abdulhamid Ismoil, Sangin mehmon).

JJI Chaqaloq. *Birta yangacham bolalar boqchasida murabbiy. Yana birta yangacham yaqinda "jijilagan". Ya'ni bo'shangan. Hozir eshikda jiji boqib o'tiripti. Buvim parranda fermasida ishlab oylik o'rniga tuxum bilan pati yulingan tovuq oladi.* (Said Ahmad, Kiprikda qolgan tong). *Oil-amizda oltinchi qiz tug'ildi. Dadam ishdan kelib, "mashinaga chiqinglar, jiji ukangizni ko'rib kelamiz", dedi.* (Mo'minjon Ma'murov, Oydiyov G'oziyeva, Qaqnus).

JILLIMSIQ (Xorazm) Tentak. *O'zi RayONO bo'lgan kundun boshlab har kuni yuz xat olib boshlabdi domlaning ustidan, bu jillimsiqni ishdan olib bering, deb.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

JIQ (Xorazm) Shudring. *Yozning jaziramasi o'tgan edi. Kechalari o't-o'lanlar ustiga mo'l jiq – shudring tushardi, kunduzlari esa havo dim edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

JIQMAT (Xorazm) Qalin do'st. *Hozir Abdirim bangi bilan jiqmat birodar, u bilan birga dutor chalib, binoyidek qo'shiq aytayapti.* (Kamil Avaz, Sozanda).

JIRANDA Sel yuvib o'yilgan yer. *Bo'rtim, bo'rtim, bo'rtimboy, Qorong'ida yurtim boy, Qora ko'rsa qochdi boy, Jirandaga tushdi boy.* (Topishmoq. Javobi – sichqon). [Hakimbek] *Karvonlarga zo'rligini bildirdi, Ko'ringanin sira qo'ymay o'ldirdi. Karvonlar o'ligin bul sanab ko'rdi, Jiranda–jarlardan topib o'ldirdi, O'z tilidan gunohkor bo'p o'lgandi.* (Alpomish).

JIRIQ Bir tomonga tortilgan, qiyshiq. *Tandirimiz, odatda og'ziga o'tin tiqilmagan vaqtlarda boshiga non sovutgich katta savatni qiyshiq qo'ndirib, bir cheti uchgan, jiriq labiga tirjayib turadi.* Bahodir Qobul, Ota chiroq.

JIRLAMOQ Kuylamoq. *Bo'z yigit, men seni tinglayman har kun, Siringga oshnaman, o'zing bilmaysan. Yulduzlar charaqlab, boshlanganda tun, Garmonga jo'r bo'lib sekin jirlaysan, Xayolingda kezar yuzlari gulgun.* (Saida Zunnunova, Garmonchi). *Qiz bola xo'jali qul, borgan joyining jirini jirlab, qum-toshdek singib ketgani ma'qul. Tez-tez kelib, holimdan xabardor bo'lib tur, deyish to'g'ri emas.* (Emin Usmon, Tomir).

JIRRAK Kaklikka o‘xshash, undan kichikroq qush. *Tezda onasi hamsoyalari, erta bahorda bog‘lariga keladigan jirraklarni ovlab yuradigan G‘affor akanikiga yo‘l oldi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JIRG‘ANOQ Tog‘ zonasida o‘sadigan, bo‘yi 4–5 metrli, tilla rang-sarg‘ish, qo‘ng‘ir rangli tuxumsimon mevali buta; chakanda. – *Sen, jirg‘anoq, sharbat bo‘lasan... qariqiz, sen kasallarni terlatasan... yulg‘in, pismiq, nega yashirinyapsan? Arilarga asalni kim beradi, tentak! Afsonak! Zaharliman deb xafamisan?* (Usmon Azim, G‘oz). *Ayoqchisoy daryosiga enishdagi jirg‘anoqqa ko‘zimiz tushgani hamon do‘ppimizni osmonga otardik.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

JITIRMA Yerto‘la. *Jitirmasida, ya‘ni qorong‘i g‘allaxonasida qishda ham karsillagan toyfi uzumlar shoxda ilingan turardi.* (Sobir O‘nar, Ota-mzamon hangomalari).

JIZILLOVUQ 1. Jiz-jiz ovoz chiqaradigan. *Jizillovuq qo‘ng‘izlarning jizillashi demasa, atrof jim-jit, go‘yo qimirlagan jon borki, bari of-tob taftidan erib ketganday, daraxt butoqlaridagi chumchuq, musicha-yu g‘urraklarning ham dami o‘chgan.* (Asror Nizomov, To‘labosdi). **2. q. chizillovuq.** *Jizillovuq uni nay qilib chaldi. Quyoshning nurlari Cho‘g‘ga aylandi.* (Ikrom Narzullo, Vaqt izi).

JIZLOVUQ q. chizillovuq. *Saraton sariq choponini yelkasiga tashlab, jizlovuqlar farg‘onacha katta ashulasini boshlaganda “yaylovqochdi” qilib o‘rmalab, baland tog‘ga ko‘chamiz.* (G‘ozi Rahmon, Tilsimli tog‘lar). *Jazillaydi yozning chillasi. Jizlovuqlar jizillaydi betinim, lohas qilib qo‘yar saraton har nimarsani.* (Faxriyor, Saraton).

JIZZIQ Jizza. *Onnopli bog‘lara chiya sopaman, Jizziq solib yog‘li patir yopaman, Jizziq solib yog‘li patir yopg‘anda, Xo‘jik bola sani nerdan topaman.* (Xorazm folklori). *Tilov bobo bu yurtni tashlab ketolmaydi. Jaziramada jizziq bo‘lib qolsa ham joyidan jilmaydi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). *Bir ikki jizziq ham turar boboy ma sani poying dab. Yana bozor aro yurdim oyoqdan tushdim ham oxir, Kavush mahsi topa olmay yo‘la chiqdim ketoyin dab.* (Boltaboy Muhammad Qurbon, Jummi doyi hangomalari). *Et nimalanguncha ichkimoyni jizziq qildim.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

JISH Pati chiqmagan polapon. *Bu atrofda tirik jonning qo‘shig‘i – suv, “suv, suv” deb til chiqaradi, jish polaponlar.* (G‘ozi Rahmon, Qarqara mergan).

JOBUV Ot, eshak yopinchi*g‘i.* – *Egarini ochib, jobuvini tashla, to‘xtatmay yurgizib tur, ikki soatdan keyin joyiga opkelib boyla, bir satil choyni sovitib ichir, – dedi-da, menga o‘girilib: – Ha, dabba, o‘qishing zo‘rmi, Mardi muallim “besh” qo‘yayaptimi? – dedi.* (Sobir O‘nar, Bibisora).

JODRAMOQ Yayramoq. *Ayni ko‘klam mahali, otarlar Bobotog‘ etagida jodrab yurardi.* (Dilmurod Sodiqov, O‘zidan qochayotgan odam). *Quyosh yerga bosh urgan pallada mollar jodrab, qora yerni yutadigan-day qirlarga o‘rlab ketadi.* (Nurilla Chori, Lo‘litopmaslik chol). *Darani ko‘rib, Bo‘riboyning guppiligi tutdi. Qulochini keng yoyib dedi: “Mana, bizding yangi yurt. Jodrab-jodrab, dunyoning yarmini egallab yashanglar. Ko‘rganlaring to‘y, yeganlaring osh bo‘lsin, bovuqlarim. Bugundan bu joyning oti – Chalpaktepa. Shu yerda kovulday tomir yozinglar”.* (Muradxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida).

JONDOR Bo‘ri. – *Sobir oshna, shu chaylada olti qishladik kelinigiz bilan. Bozor-o‘charniyam bollar eplab turishadi, yemish, o‘tinniyam g‘amlab olganmiz, sabil qolsin, jondor ko‘p kelar ekan. Bir kuni mollardan xabar olay deb o‘tayotsam, simdarvozaning oldida bir qora turibdi. Odam deb o‘ylab, “Keling, mehmon”, debman. “Tak-tak” qiladi. It ham emas, anglab goldim, mol haybatli bir qop-qora bo‘ri.* (Sobir O‘nar, Otamzamon hangomalari). *Jondor kela solib, qornini yoradi. Yana deng, otning tumshug‘idan tishlab tortgan bo‘rini ko‘rganman.* (Dilmuroq Sodiqov, Yurtkezar). *Boshqa bir it tepalikda, Bodomcha soyasida cho‘nqayib o‘tirib, “jondor”ni poylayapti.* (Isak Sattorov, Oshiqlar maskani).

JONIB Tomon. *Yoqut momo qo‘lida tuguncha bilan bo‘sag‘a hatlab tashqariga chiqqanida quyosh yaraqlab, kechagi rutubat o‘rnini shavqli ravshanlik egallagan edi. Olam boshqacha, ko‘zga yoqimli, zarrin rangga kirgandek, yon jonib sirli jilmayayotgandek edi.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

JONQA (Jizzax) Uch-to‘rt xaskash tortimidagi xashak uyumi. – *Endi, o‘g‘lim, sen jonqalarni g‘aramlab tur, men qo‘chqorchalarga chirmovuq bilan bo‘tako‘z o‘rib kelay. – Dada, anov maxsarning orasi siyrak, shu yerda chirmovuq mo‘l.* (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il)

JOVLI [jov – yog‘ + li] **1.** Yog‘li; semiz, bo‘limli. **2.** Baxtiyor, masrur. *Yo‘l bo‘yidagi eski hovli qo‘li quruq tilanchi misol, sog‘inadi gavjum va jovli damlarini izlaydi xayol.* (Ikrom Otamurod, Yo‘l bo‘yidagi eski hovli).

JOVRAMOQ Sovuq yemoq. *Voy-bo‘y, jovrab qolibsizlar-ku, o‘g‘illirim. Shunday sovuqda qayerdan kelyapsizlar? – so‘radi amaki.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim). *Yoz kunida jovrab qolishdan asrasin. Saratonda muzlab o‘lgan ho‘kizim degan ekan. – U [hosilot] xursand va biroz tashvishli edi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JOVRON (Toshqo‘rg‘on) Ko‘richak kasali. *Ko‘p odam jovrondan qiriladi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JOVVA Yalpi, birgalikda. *Hamsoyalalar jovva birga ketishdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JOYPO‘SH Ko‘rpa-to‘shak ustiga yopinchiq. *Ona kunora kashtachinikiga qatnab, unga turli sovg‘a-salomlar qilib, jypo‘sh – chimildiqning bitishini tezlashtirib berishni so‘radi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Endilikda yorug‘ olamni tark etgan, ko‘pchilik eslay ham olmaydigan qishloq chevarlari tikkan jypo‘sh, so‘zanalarda pardaga ilindi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

JUGAN Jo‘xori. [Matti:] – *Ammam xuddi dilimdagidek kadili zog‘ora yopibdi, mana, endi quling o‘rgilsin jugan unidan siqmon pishirishni buyurib ketgan ekan, ular kelguncha shuni tamaddi qilib turamiz, nima deding, mulla Qutlug‘murod? Diqqat bo‘laverma, otashgirda kabob ham pishiramiz.* (Komil Avaz, Sozanda).

JUGMAN (Turkiston) Po‘sti olingan tariq. *Bilmadim, bir qopmi, ikki qopmi tariqni pishirib olaveradi, yordamga chaqirilgan bir necha qozoq xotinlar qozondan ketma-ket suzilgan tariqni hovli yuziga, bo‘z dasturxonlarga yozib turadilar. Qurigandan keyin bir necha o‘g‘urlarni qator qo‘yib yanchadilar; po‘sti ajralgach, kepchiklarda yelpib tozalaydilar. Buni jugman deymiz. Ayniqsa, yoz kunlari uyda jugman go‘ja uzilmaydi.*

Buvim yovg'on go'jani pishirib, bir-ikki tog'oraga quyadi, qatiqlab, xujraga, muzday joyga qo'yib qo'yadi. Issiq kunda kim suvsasa, kosa-kosa ichib ketaveradi. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

JULBAROQ *q. julxirs. So'ng dasturxonni qayirib, julbaroq ustiga bir bog' isiriq, yarim piyola tuz va bir kosa suv qo'ydi. (Anvar Suyunov, Qo'shburun).*

JULPAT (Jizzax) *q. julxirs. Buning evaziga ayamlar har yili julpat yoki julqurs to'qiydilar. (Nurali Qobul, Sening bolalik osmoning).*

JULQRS *q. julxirs. Jun gilam-u julqurs, kigiz-u po'staklarni to'shab, keng sayhonlikka joy solishardi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).*

JULXIRS [jun + xirs (ayiq)] Samarqand maktabiga xos uzun patli gilam. *U chorbog'ga yetib kelganida chang ko'chalarga qalin suv sepilgan, sada va o'riklar soyasidagi shohsupalarga julxirs, g'ajari gilamlar to'shalgan, paryostiqlar qo'yilganini ko'rib ko'ngli xotirjam bo'ldi. (G'oz Rahmon, Shukuhli karvon). Urchuq yigirib, qo'y yungidan arabi, taroqi, julxirs gilam-u xurjanni ko'zni yashnatadigan qilib to'qishga usta. (G'oz Rahmon, Oqibat so'qmog'ida).*

JULUN Umurtqa pog'onasi, harommag'iz. – *Eshakday gavgasi, tuyaday kuchi bor! – cho'pon o'ziga o'zi gapirayotganmidi yoki menga aytayotibmidi, anglab bo'lmasdi. – Ikki marta qo'ng'irning bo'g'izi to'g'ri keldi. Eplolmadi. Bir hamlada julunini qayirib, mayib qiladigan savlati bor-a... (Anvar Suyunov, Oqtirnoq).*

JUL Popuksiz ot yopunchig'i. *Uning sachogsiz turi jul yoki julcha deb ataladi. Digil bilan julning vazifasi va to'qilishi bir xil. (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).*

JULOB *q. jilob. Onasiga sovg'aga julob olib kelgandi, qo'liga olib, xursand bo'ldi, ko'ziga surtdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

JUMUR Qo'y yoki echkining kichik qorni. [Otam] *Tayyor bo'lgan malhamni yaradan go'ja bo'lib ketgan boshimga hafsala bilan surib chiqdi. Oxirida, qalin surilgan malhamning ustidan jumur kiydirib, chorsi ro'mol bilan tang'ib bog'ladi. (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni). Jumurda*

qorin moylari, G'orda saqlangich joylari, Boybicha kelinoylari Kubilar pishar gusirlab. (Hol Muhammad Hasan, Sehr).

JUMUSHMOQ (Jizzax) Junjikmoq. *Ustimda bir qavat ko'ylak, badanim jumushib onamning pinjiga tiqilardim.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

JUQMO G'ilmindi. *Onasi bolalariga bugun juqmo, ya'ni g'ilmindi pishiramiz, jar bo'yidan loshakarrak (qush qo'nmas) cho'plaridan terib kelinglar, atala qaynatamiz, desa ensalari qotadi.* (Sobir O'nar, Bolalik bahorlari).

JURT JOVLAR El-yurtni chaqirib beriladigan ziyofat. *To'li tugal tushgan boylar "jurt joylar" qilib, irqin-tirqin ziyofat berdi. Yomg'ir toqalagach, o'tning uchi qaytdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

JUXMA q. **juqmo.** *Bixma badik tog'inda, bixma badik, Kun-u tun-u jeganim juxma badik.* ("O'zbek xalq qo'shiqlari").

JUVANA Yosh urg'ochi qoramol, tana. *Tog'dagi juvanalaringiz inak bo'lguncha kosamiz oqarmas ekan...* (Shukur Xolmirzayev, Omon ovchining o'limi).

JUVRON Ko'richak kasali. *Hali qirqqa ham yetmagan odamning juvrontan bir kechada yo'q bo'lib qolishi katta fojea edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

JUVONA Ho'kiz. *Juvona* – ho'kizchanning egasi o'smir, uni dalaga yetaklab chiqib, bir tomoniga eshakni qo'shib, yigirma-o'ttiz killo g'allani tuproqqa sochsa ham bo'ladi... (Hakim Sattoriy, Sog'inch). – *Qora juvona* qo'shga qo'shiladigan bo'lib qolibdi. *Sag'rini ichkaroq demasa, bir xo'kizga turib beradi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

JO'GA (Forish) Buzoq. – *Qodirbek, endi jo'galarni qo'yib yubor, onalarini emsin, sho'rliklar, – dedi Xumorxonim va o'zi ikki chelak sutni olib, uyga ketdi.* (Mamadali Mahmudov, O'lmas qoyalar).

JO'GI Lo'li. – *So'kaver, qarg'ayver, Adol, – dedi Mayram lo'li, mayin kulimsirab. – So'ksang bitim to'kiladi, qarg'asang – gunohim... Lekin, man – esini tanigandan beri to'g'ri gapini aytib kelayotgan jo'gi xolangman.* (Norto'xta Qilich, Jumboq). *Ayni shu davrda taqdir meni Ona taxallusli bir ajoyib insonga yo'liqtirdiki, bu taqvodor va jo'gi ayol mening pirimga*

aylandi va ko‘p o‘tmasdanoq borliq dunyoqarashlarimni ostin-ustun qilib yubordi. (Hojiakbar Shayxov, Uyga shuuriy tashrif).

JO‘GILANMOQ (Xorazm) Ayyorlanmoq. *Bu rostdanam bilmiydimi yo jo‘gilanib o‘tiribdimi, deb yana bir-ikki savol bilan chayqashtirgan ekan, o‘risning voobshe ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketibmish.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

JO‘GICHILIK Lo‘lilik. – *Yo tavba! – dedi Darvesh. – O‘zing saqla! – Jo‘gichilik etma! O‘zing ham bu gaplardan xabardorga o‘xshaysan. – Qaysi gaplardan?* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

JO‘KKI Yengil etik. [Otam] *Bir juft jo‘kki etikni olib, xuddi birinchi marta qo‘lga olayotgandek, u yoq bu yog‘iga nazar tashladi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Hali issiq bo‘lishiga qaramasdan oyog‘ida jo‘kki etik, ustida yelvagay do‘nma to‘n, boshida silkima cho‘girma.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

JO‘LAYMOQ Olaymoq. *Ko‘chkini ayvon chetida kuzatgan chavandoz maydalangan archa payrahalari bilagiga qisib, ichkariga kirganda, xotini jo‘layib qaradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). [Qarshivoy] – *Hoy, Rizo amak eshigiga bog‘langan ko‘ppak, mavridini topib harakat qilish eng katta hunar deganimda, shubha qilgan eding! Endi bu fikringa ko‘zing jo‘layib ishonasan!..* (Asad Dilmurod, Narvon). *Mehmonlar qimtinishar, nimanidir bilmoqchi bo‘lgandek, bir-birlariga jo‘layib qarashardi.* (Hakim Sattoriy, Yurtdoshlar).

JO‘N I (Jizzax) To‘g‘ri. [To‘lg‘onoy:] *Yursa, jo‘n yursin. Bo‘lmasa terisiga somon tiqib qo‘yish qo‘limizdan keladi...* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

JO‘N II Tepalik. *Sel suvlari jo‘n atroflaridagi soyliklardan, jarlardan to‘lib oqdi.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *Xolani Yaxshiboy ota oldiga yuborib, o‘zlari changalzor bo‘lib yotgan yoyiq o‘ngirning yonidan o‘tib, jo‘n oshib bir chuqur soylik ichiga tushdilar.* (O.Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *Ulardan bir qanchasi jo‘nlar ustiga chiqib, atrofdan xabardor bo‘lib turardilar.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

JO‘NQI (Xorazm) Chapani, gerdaygan. *Jo‘nqi qo‘li bo‘shagan hamona darrov qayoqqadir pildirab qoldi.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo). *U dar-*

rov avvalgi **jo'nqi**, bezbet va takabbur odamga aylandi. (Shuhrat Matkarim, Indamas). *Quronboy aka umrida bugungiday izza bo'lmagan edi. Anavu Qodir jo'nqi bir uy odam ichida uni yer bilan bitta qildi.* (Boltaboy Matqurbonov, Jo'nqi).

JO'NQILDAMOQ (Xorazm) To'ng'illamoq. "*Qo'qir bo'lsang o'zingga*", dedi Davlatyor asta, ammo vajohat bilan. "*Qizlarga jo'nqildama! Mard bo'lsang mana bizlarga yopish.*" (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

JO'ROB Supurgi. *Ikkinchi joy esa bozorning ichida bo'lib, bozorga "Shodlik" restorani tomonidan kirishdagi darvozaning chap tomonidagi jo'rob bozoridir.* (Marziya Qalandarova, Ko'ngil izhori).

JO'ROP Paypoq. – *Ey, Oxun, san nechun burningni jiyirasan, jo'ra? – deb so'radi Qovunchi. – Oyog'im sasimaydi. Kunda ikki mahal jo'rop almashtiraman.* (Norto'xta Qilich, Eshikdara tutqunlari).

JO'YA 1. O'rin, joy. – *Voy o'layin, unday dema! Qursog'imga sig'gan bola qavmimizga sig'mas ekanma? Havlimizga sig'mas ekanma? Lekin haliyam bir jigiting ro'zg'orini gullatadig'an jo'ning bor, jo'yang bor, qizim. Biz sening baxtli-taxtli bo'lishingdi o'ylaymiz, enang o'rgilgur!* (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). **2.** Jo'yak. **Jo'yalari** odamni bo'ylatmas, toklari navlariga qarab, saf-saf qilib ekilgan edi. (Poyon Ravshanov, Birodarim). ...*Tomorqadagi kartoshkaning ikki jo'yasi kovlanib, sotildi.* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).

K

KABEDA Somon aralash beda. *Xurjunga solib kelgan kabedalarini ularning oldiga to'kib qo'yishdi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar).

KABZA (Xorazm) Odam gavdasining yelkadan pastroq qismi. *Keyingi kun kimdir kabzalarining ostiga bigiz tiqib ayovsiz tovlayotganday bo'lsa, ba'zan bel og'rigiga chidolmay uyg'onadi.* (Shuhrat Matkarim, Og'riq). – *Hovva. Yaqinda kabzamda bir og'riq sezib doktorga borsam, bezovta bo'lmang, kabzalarigizning ostidan qanot o'sib chiqayotir, siz farishga ekansiz, deydi.* (Shuhrat Matkarim, Boljon).

KADI (Xorazm) Qovoq. – *Xonqada falon fermerda bir kadi bo‘ldi, u yog‘idan qarasang bu yog‘i ko‘rinmaydi sizlarga aytsam, – deb navbatdagi lofini davom qildiradi xonqalik.* (Boltaboy Muhammad Qurbon, Jummi doyi hangomalari).

KAFT GULI Dorivor tog‘ giyohi. *A‘zoyi badaniga kaft gulining ildizi qo‘shilgan ko‘kbosh o‘simligi moyi surilib, o‘tgan tunda o‘zi tayyorlab Benazir otaga bergandan doridan ichganidan so‘ng Koshif ko‘zini ochdi.* (Nuriddin Ismoilov, Tabib).

KAHGO‘YI q. **kaft guli**. *Yerdan qor ketishi bilan norizalam, ko‘k o‘ti, jag‘-jag‘, takasoqol, qoqig‘, kahgo‘yi, tirmizak, dumaloq singari o‘simliklar tutamga kelsa, bas, shular bilan ozuqlaniladi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KAHKIL (Toshqo‘rg‘on) O‘choq tubidagi kesakning elab olingan kukuni. *Kahkil besh-o‘n yil olov yongan o‘choqning tubida rosa kuygan kesak maydalanib, xosadan o‘tkazilib olingan kukun bo‘lib, yosh go‘daklarning terisiga surkaladi. Bu bilan bola g‘ubordan xoli bo‘larmish, ham badanidaortiqcha tuklar o‘sib chiqmasmish.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KAHKILLAMOQ Kahkil surmoq. *U kirib kelganda ona arzandasiga parvona bo‘lib, oppoq to‘shakka yotqizgancha kahkillardi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KAHKUYI q. **kaft guli**. *Ko‘k o‘ti, kahkuyi, otyol, qoqig‘, shuvoq singari maysalarning anvoyi hidi olamni tutgan, ularning yelkasiga oyoq qo‘yib, ilgarilaydi, uning qadrdon maysalari tixirlik qilmay, boshlarini oyoqlari ostiga qo‘yishadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KALAMPO Boshliq, sardor. – *Nega qaqqayib turibsan, o‘tir!.. – Senga bir iltimos bor, Madrahim. Bugun konsertni bizlarsiz o‘tkazasan, jo‘ra! Ollomurod, Bekjon, Gavharjon, Zevarjon, men – beshalamiz kalampo! – Bobojon shunday deb, Hoshimjonga qaradi. – Mashinangiz qanaqa o‘zi? (Norto‘xta Qilich, Tantana). – E, bormisan, danap! – dedi Karomatxon Nilufarni gij-gijlab va menga qarab. – Ana, pattangizni oldingiz, kalampo, endi noyi bo‘ling!* (Uchqun Nazarov, Jazo).

KALGOV Shoxsiz sigir. *Norjonni enasi o‘lganda unga ag‘aynichalish Saypul besh-oltita ushoq jonlig‘-u bitta kalgov g‘unajin bilan yig‘ishtirib*

olib, qo‘ynidan to‘kilsa, qo‘njiga qabilida xotiniga ergashma kelgan o‘gay qizini nikohlab bergan edi. (G‘ozi Rahmon, Ko‘chki).

KALLAK Tog‘ning turtib chiqqan, uch tomoni jarlikdan iborat qismi. *Xayol bilan bo‘lib bir payt qaragam, tumshuqning qanshari – kallagiga kelib qolibman. (Bahodir Qobul, Oqdala).*

KALTABO‘Y Bo‘yi past, pakana. *Men o‘rtabo‘y-o‘rtabo‘y ham kaltabo‘y-kaltabo‘y g‘o‘zalarim paxtasini terib olish uchun barabanlar oralig‘ini tor-tor olaman. (Tog‘ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). ... ostonada kaltabo‘y, jingalaksoch, ko‘zlari kishiga tik va behayo boqadigan, ancha istarasi issiq... o‘ttizlarga yaqinlashgan ayol yelkasi ochiq xalatda turardi. (Nazar Eshonqul, Go‘ro‘g‘li yoxud Hayot suvi).*

KALJURJI Qarchig‘aysimonlar oilasiga mansub yirtqich qush; kaljo‘rchi. *Eng keyin tuxumdan chiqqan to‘rtinchisi esa, hozir titrab-qaqshab qolgan kaljurjiday boshini egib kelib, Pirman cholning etagi bariga kirib ketdi. (G‘ozi Rahmon, Tazarru).*

KALVASH Do‘ppi. *Shuningdek, bosh kiyimining bu turi Samarqand, Urgut, Chelak, Kattaqo‘rg‘on, Kattaqang‘li, Mirbozor atrofi qishloqlari orasida “qalpoq”, “kalvash” kabi atamalarida uchraydi. (Saodat Davlatova, O‘zbek an‘anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida).*

KAM (Surxondaryo) Tog‘ning kemtik joyi. *[Husan] – He, [Qora Pirman] kamdan oshirib ketdi [chechamni]. Uchta sherigiyam bor. Otam ham o‘laman, deb yotibdi. (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati). Ena yer mushtlab qarg‘anadi. – Bundan ko‘ra o‘sha dashtda jondor yeb ketsa bo‘lmasmidi seni! Yerd kamginasi tortibgina ketsa bo‘lmasmidi! (Normurod Norqobilov, Dashtda).*

KAMIK (Xorazm) Suyakning kemirishga o‘ng‘ay, yumshoq qismi. *Ibodulla pishillab qo‘lidagi kamikni tozalar ekan beparvo qo‘l siltadi: “E‘tibor bermang!” (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

KAMIS (Xorazm) Biror yeri kam, yetishmaydigan. *Hamisha o‘zini kamis sezib, duduqlanib turardi. (Shuhrat Matkarim, Indamas).*

KAMPIR O‘LDI *etn.* Nikoh to‘yi marosimi bo‘lib, bunda kampir o‘zini o‘lganga (uxlaganga) solib yotadi-da, keyin tirilib (uyg‘onib), ko‘rgan tushini ta‘bir qilib beradi. *Ayniqsa Surxon vohasining ba‘zi tu-*

manlarida kelin uyga kirayotganda uyning ostonasida “**kampir o‘ldi**” udumi bajariladi. Ostonaga yotib olgan uvali-juvali, nevara-chevarali kampir joyidan turayotib: “Bir tush ko‘rdim, ajab xosiyatli tush ko‘rdim. Tushimda bir eshik ko‘rdim, eshik ichida bir tilla beshik ko‘rdim. Tillo beshikning ichida qo‘sh kokilli ul ko‘rdim. Yilim halol, tushim o‘ngidan keladi. Tushimda ko‘rgan beshikka kelinning bolasini belayin, omin!” – deydi. (P.Norbo‘tayeov, Xalq udumlari “kampir o‘ldi” va “it irillar”). It g‘irillatar, **kampir o‘ldi**, soch siypatar, Qo‘l ushlatar bo‘ldi. Oyna ko‘rsatar baridan-da zavqli bo‘ldi, baridan-da gashtli bo‘ldi! (Tog‘ay Murod, Oydinda yurgan odamlar). Olimqul akaning, kech bo‘lganda sizga zarilmidi, aytsangiz o‘zim yelkalarimda ko‘tarib kelardim, degan so‘ziga momo bunday javob qildi: – Sen bola o‘zingni ko‘p koyima. Hali yelkangga bu qizchang shunaqangi ko‘p minadiki, dod deb yuborasan. Bu birlamchi. So‘g‘in meni qarib, endi yurolmay qoldi deb ham o‘ylama. Xudo umr bergan bo‘lsa, shu qizchangni to‘yida **kampir o‘ldi**, o‘zim bo‘laman. (Sanjar Tursunov, Chavandozning ko‘ngli).

KAMPIRQOVUN Sariq-yashil tusli, sirti kampir yuziday burishgan, shakli dumaloq, yumshoq pishadigan qovun navi. *Qovunlar xilining hisobi yo‘q: oq novvot, ko‘kcha, abujamil, buxor qovun, sharbati, so‘yilganda oqib turadigan, yumshoq **kampirqovun**, oq qovun, qora qovun, adras qovun...* (Naim Karimov, Mirtemir).

KAMSONMOQ Kam hisoblamoq, kamsuqumlik qilmoq. *Eshak o‘zin **kamsonmaydi** bedovdan, baho berar el o‘tkazgan so‘ng sinovdan.* (Maqol).

KANDIK O‘yilgan yer, o‘yiq. *Uy to‘rida qolgan **kandik** o‘rnini kovlashtirdi. Bir mahal karasa, chordevor tomondan Mayram qo‘shmijsa kelyapti.* (Nodir Normatov, Jazo).

KAPPIK Yoshi katta bo‘lgani holda o‘zi kichik bo‘lib o‘smay qolgan mol. ***Kappik** qo‘ziyam arpaqa to‘yinsa, devor suzadi.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

KAPCHA Ikkita qulog‘i bor belkurakning bir turi. *Yigirma besh yoshlardagi yigit **kapcha** tig‘iga bir otim loy, uning ustiga bir to‘g‘ram non qo‘yib, yo‘lni to‘sib chiqdi.* (Abdunabi Hamro, Olotning odamlari).

Nurmon ishni tomorqani chopib, biror ekin ekishdan boshlamoqchi. Qo‘shnisidan **kapcha** so‘rab chiqdi. (Ismoil Shomurodov, Kultepada kechgan hangomalar). Endigi ketmonlar qazuvlarda chig‘iro‘q tubidan loy otishga mo‘ljallangan, **kapchalardan** xiyol katta bo‘lmay ayollarning zaif quvvatlariga mo‘ljallanib yasaladigan bo‘ldi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). Qutlug‘murod **kapchadek** qo‘llari bilan uning belidan ham oshib tushadigan uzun, ikki o‘rim yo‘g‘on qora sochini siypab, yupatdi. (Komil Avaz, Sozanda).

KAPCHA ILON Kobra. **Kapcha ilon** men bo‘lib, Chaqib olsam qay-tasan? “Xalq qo‘shiqdari”. Kakliklarning yana bir dushmani kobra, ya‘ni ko‘zoynakli ilon, uni **kapcha ilon** ham deyishadi. (Azim Suyun, Nevaralarim uchun). Uni **kapcha** chaqqan ekan. Yana qayeridan deng, bo‘ynidan. Bo‘lmasa, tezda o‘lmas edi. (Nodir Normatov, Jazo).

KARAVUSH Tog‘ giyohi. Barlos momolar chaqaloq qizini go‘dakligida tog‘ cho‘qqisida o‘sadigan **karavush** giyohining iforli suviga ko‘p cho‘miltirganidan qizning bo‘yi yetar-yetmas yurganda yo‘l to‘lib, atrofga qalampirmunchiq va rayhon hidi aralash xushbo‘y hid tarqaydigan bo‘ladi. (G‘ozi Rahmon, Qo‘sh kabutar chizilgan uy).

KARRAK Kovrak. Dasht qo‘ynida yaproqlari tikanli o‘simlik o‘sadi. Uni dashtliklar “**karrak**” deyishadi. Biz **karrakni** yer ostidan tesha bilan kovlab olardik. (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

KARSON Egarning orqa suyanchig‘i. – Ko‘rdingmi, o‘g‘lim, qushlar ham anchayin mug‘ombir chiqadi. Anov mullato‘rg‘ay Bo‘bigingni aldadidi, – dedi. – Yo‘g‘-e, qaytib aldaydi, – dedi bola egar **karsoniga** suyanib, otasining yuzi tomon cho‘zilib, – qayerda ko‘rdingiz? (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il).

KARTGICH (Xorazm) Kichik o‘roq. **Kartgich** bilan ketmonda olish xayfli hisoblangan g‘o‘za tomog‘ini o‘rab olgan suv o‘ti yoki pechaklar ustalik bilan qirqilar va yig‘ib kechqurun ishdan chiqqanda ikki-uch bog‘ qilib uyda tang‘ib qo‘yilgan molga olib ketilardi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

KARTMON Cho‘ntak. Bir bosh karam – ming so‘m, qara, Ketmondan putur ketdimi. Kichik to‘rva to‘lmas sira, **Kartmondan** putur ketdimi. (Hol Muhammad Hasan, Bodi dedi).

KAROVUSH Tog‘ giyohi. – Boshladik, – dedim men, surp xaltadan dorivor giyohlarni yonma-yon qatorasiga qo‘yib: qizga yaqin kelib, – Setora, buning ismi “**Karovush**”, bu “Zirk”, ovqatga solib iste‘mol qilindi. Qozonda qaynatilib, quyuyq, xushbo‘y, yashil dorivor suyuqlikda, ya‘ni “Abro‘y” dorisi vannasida badan haroratida o‘n besh daqiqa yotasan. (Isak Sattorov, Devona tabib). Qizaloqligida momosi Toshoy kampir archa solingan ko‘rpachaga yotqizib **karavush** degan tog‘ o‘tining suviga ko‘p cho‘miltirgan, qulog‘ini qo‘shiq afsonaga to‘ldirgan. (G‘ozi Rahmon, Kelintosh afsonasi).

KARVICH (Xorazm). G‘isht. G‘alati manzarada: hech kim yo‘q ko‘cha. **Karvich** devorlar baland. Ular osha qadim gumbazlar ko‘rinib turadi. (Shukur Xolmirzayev, Xorazm, jonginam). Chunki u [Davlatyor] yarim **karvichni** ko‘tara oladigan vaqtdan beri kunlikchi akalari bilan birga qurilish qiladi. (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

KARZ (Xorazm) Chig‘irning pastdan suv olib chiqadigan katta doirasi aylanadigan chuqur; koriz. O‘sha chig‘ir **karzi** hozirgacha o‘ydim joy bo‘lib turibdi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

KASKALDAK Cho‘qmorsimon tayoq, kaltak. Xotining gapi, jo‘rasining gurungi ... Umrbek kecha eshik oldida tayyorlab qo‘ygan **kaskaldagini** olib ko‘cha boshiga qarab yurdi. (Shuhrat Matkarim, Xavf). “Xudoga shukur,” o‘yladi Umrbek qo‘lidagi **kaskaldakni** ko‘cha boshida nari otar ekan. (Shuhrat Matkarim, Xavf). Islomjon ota avval ham do‘sti uchun olishganda bunday bo‘lmasa-da, mundayroq **kaskaldaklardan** bir-ikkisini yeb ko‘rgan edi. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

KASRATKI Kaltakesak. – Marg‘u, – dedi u, – eslaysanmi, **kasratkidan** o‘lguday qo‘rqarding. – Men uni ma‘qulladim. (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim). Yonbosh ko‘rganda uchta **kasratki** bir biriga qarab turardi. (Bahodir Qobul, Ena shamol).

KATARI O‘zbek urug‘laridan biri. Darhaqiqat, shu kunlarda ham Boysuntog‘dagi bir necha qishloqda “**katari**” urug‘i yashaydi. Boysunning markazidagi men katta bo‘lgan mahalla ahlini ham **katari**lar deyishadi. (Shukur Xolmirzayev, Qadimiy Baqtriya tuprog‘ida).

KATILMOQ Yemirilmoq. – *Hoov, Berdi beri kel-chi, isitma-pisit-mang yo ‘qmi? – Sayfi maxsumning rostmana jahli chiqdi. Atay ukasining jig ‘iga tegish uchun peshonasiga qo ‘l cho ‘zdi – Azaldan isming chala edi, endi miyang ham katilibdi. O ‘zingni mullaga ko ‘rsatib ol.* (Anvar Suyun, Yo ‘qchi). *Devor og ‘ishidan qo ‘rqqandek chetlanib turar, katilib borayotgan g ‘ishtlarni ko ‘rib ichi achirdi. – Ey, ahmoq bola, qurguncha iyig ‘ing chiqib ketdi-ku!* (Olim Jumaboyev, Gulkari).

KATTABOBO. *Qo ‘limdan sal-palyog ‘och-randa ishi keladi, yengil-yel-pi, kalta-kulta ish topilsa, shu orada sizlarga ozgina xizmat qilsam, aqalli qo ‘llaringizga suv quysam, kattamning ruhi shodlanib, otam oldida yuzim yorug ‘ bo ‘larmikin?..* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari). *Dadam xo ‘p ajoyib-da, uni ko ‘p yaxshi ko ‘rardi, qayerga borsa erinmay ortidan “dum” qilib ergashtirib yurardi. Barnodek u ham to ‘ng ‘ich farzand edida. Endi esa, Barno kattasiga to ‘ng ‘ich nabira.* (Adham Damin, Hayot va o ‘lim).

KATTADAHAN Kattaog ‘iz. *Shayboniyzodalarning kuni shu zaif ko ‘knoriga qolgani uchun boshqa kattadahan biylar yangi sulolaga asos solish harakatiga tushadilar.* (Pirimqul Qodirov, Avlodlar dovoni). *Mirg ‘azab, darra uring bu kattadahan ahmoqqa!* (Pirimqul Qodirov, Avlodlar dovoni).

KATTA HO ‘LOL Yovvoyi na ‘matak. *O ‘sha go ‘daklik yillari o ‘tgan joylar, kechmish kunlardan katta ho ‘lol yodida qolgan.* (Hakim Sattoriy, Sog ‘inch).

KATTAOG ‘IZ Maqtanib gapiradigan odam. *Enasi semizgap, kattaog ‘iz, man-man ekan deb o ‘ylamang.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). *Mashrabga esa millatning farqi yo ‘q edi, oddiyoqlari u yoqda tursin, bu o ‘ramning “kattaog ‘iz” laridan sanalgan o ‘ris pivofurushni ham tap tortmay do ‘pposlayverardi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo ‘llar).

KAVRAKZOR Kavrak o ‘sib yotgan yer. *U [Zulfiqor] endi shaxt turib, qulochini yoyganicha kavrakzor oralab ketdi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

KAYPANG Ovsar. *Shu zamon Do ‘sa kaypangning o ‘rtanchasi – Eshmo ‘min shoir: “Hov, Bo ‘ri bobo, shu Chalpaktepadan boshqa ot qurib*

goldimi bizga? Ana, Parij, Rim deganga o‘xshash otni qo‘ysak-chi? Chalpaktepa ni masi? Axir, Chalpaktepa endi yo‘q, uni nom-u nishoni bilan sel yutib ketdi. Abadul-abadga...”, deydi. (Murodxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida). To‘rt-besh **kaypang** biriksa, poda bo‘lar, yoronlar Ikki urug‘ bir-lashsa, Quda bo‘lar, yoronlar. (Eshqobil Shukur).

KAYVONILIK To‘y-tomoshalarni boshqarish. Bu ovoz sohibi G‘aybulla bakovul necha yildirki to‘ydagi kurashlarda **kayvonilik** qilib, katta-kichik davralarni binoyidek boshqarib kelayotgan esa-da, aslida tabiatan kamgaproq, xususan, uydagilariga so‘zi bilan emas, ko‘z qarashlari ila hukm o‘tkazadigan og‘ir-bosiq va o‘ta jiddiy odam edi. (Normurod Norqobilov, O‘g‘ri). Buncha sasimasang! – tashqaridan to‘yga ham bakovullik, ham **kayvonilik** qilib yurgan Biydi momoning zaharli tovushi eshitildi. – Bolang tengigayam shunday deysanmi, uyatsiz. (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi). Momoning mahalla-ko‘y to‘ylarida **kayvonilik** qilib huzurlanishi ham bor. (Kamil Avaz, Yoqut momo).

KASHAKLAMOQ Biriktirmoq, ulamoq; bog‘lamoq. O‘n qulochcha balandlikdagi so‘ritokka mo‘ljallab yasalgan “eshak” oyoqlaridan biri **kashaklangan** joyidan chiqib ketib, Husanboy akam yuztuban yerga qulab tushadi. (Dadaxon Nuriy, Azim chinorlar panohi. Sattor bujur desang o‘sha kuniyoq devorga sarlavhador taxta qoqib, unga o‘zining portretini **kashaklab** qo‘ydi. (Anvar Obidjon, Mirzaqand naynovning hasratlari). Ungacha haydovchi yigit sarg‘ish rangga bo‘yalgan yapaloq katta temir bo‘chka yoniga zanjir bilan **kashaklab** qo‘yilgan uzunchoq alyumin bidon qopqog‘ini ochadi, chol uzatgan “chovli” bilan koptokka o‘xshab yumaloqlanib qolgan qaymoq bo‘lagini olib, idishga soladi... (Dadaxon Nuriy, Azim chinorlar panohi). [Anvar] “T”ning burchagiga **kashaklovchi** chiziq tortgan edi, harf dorga aylandi. (Tohir Malik, Shaytanat).

KASHAY Xurjunga o‘xshash narsa. Eshak ustiga bo‘sh **kashay** tashlagan, ust-boshi chang-tuproq, oq oralagan soqol-mo‘yloviga xas-xus ilashgan Nosir cho‘tir: – Assalomu alaykum, – deb so‘ridagilarga bosh tebratdi. (Shoyim Bo‘tayeov, Kunbotardagi bog‘).

KASHKASH (Olot) Tegirmon. *Domlaning qilmishini eshitib, uni urib-urib yog‘ chiqaradigan juvozga bog‘lashibdi, undan olib un tortadigan kashkashga bog‘lashibdi.* (“Kaltaklangan domla” ertagi).

KASHOLA (Surxondaryo) Bezovta. [*Pochchamiz:*] – Raimboy yo‘q. *Bu pallada uyda bo‘lguvchi edi. Tezda kelabermadi. Ko‘nglim kashola bo‘ldi.* (Nodir Normatov, Ismat tog‘aning tarozisi).

KACHAL [*f.-t. kachal* – oyog‘i qiyshiq] Maymoq. *Ernazar polvon uning [militsonerning] turqiga, so‘ng negadir etigiga razm soldi. “Kachal ekan, – deb o‘yladi. – Oyog‘i bilan ostonamni bulg‘adi-ya, yaramas!”* (Normurod Norqobilov, Quyosh tutilgan kun). *Oradan uch kun o‘tib, o‘zidan kichik bolalarga zug‘um qilishni yaxshi ko‘radigan Abduvali kachal buni o‘z boshidan kechirdi.* (Normurod Norqobilov, Oqbo‘yin).

KEKASHMOQ Achichiqlanmoq, o‘chakishmoq. *Fotihaga qo‘l ochib turgan qaynona-kelinlar nima qilishlarini bilmay biroz taraddudlanib qolishgandi, kelin darrov o‘zini o‘nglab: – Ha, aka, enam sizga nima yomonlik qiluvdi, sira ko‘zini ochirmaysiz? Qancha paytdan beri ko‘rganingiz yo‘g‘-u, so‘rashishning o‘rniga kekashib gapirasiz.* (Mehriniso Abdurahmonova, Qo‘shnilar). *Kampir birdan tek qotar: – Kishte, kishte... Ketmaydi, bog‘da bir olashaqshaq kekashib sayrayberar.* (Ikrom Iskandar, Tonggi voqea). *Burgaga kekashib, ko‘rpaga o‘t qo‘yma.* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘anoy).

KELAGAY Yangi tug‘gan sigir suti va undan tayyorlangan taom, og‘iz. *So‘ngra ilk sutdan palla va kelagay pishiradi.* (Nurali Qobul, Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar). *Kech bo‘ldi, hamzamon mehmon kelib qoladi. Bunday qilaversangiz, urchuq yigira olmayman. Misqolning sigiri tug‘ibdi. Kelagayi yaxshi ekan. Pallasidan olib qo‘ydim. Turing...* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

KELIN-KEPCHIK Oiladagi ayollar; ahli ayol. *Odil aka past tovushda nimalardir deydi. Anglaymanki, o‘zining javobi emas, boshqalarning gap-so‘zi-yu savoli qiziqtiradi. – Ha, siz-chi Shukur? – deb men bilan so‘rashadi do‘stim. – Kelin-kepchik, bolalar, a? Hammasi joyida? Yaxshi... (Shukur Xolmirzayev, Yozuvchi). To‘lanboy otaning yoshiga, didiga mos keladigan, atrofida parvona misoli chirillab aylanib turadigan,*

o'g'il-qizlariga, hovli to'la **kelin-kepchik**, bola-baqralarga bosh bo'ladi-gan toza tabiatligina, fahm-farosatligina, qo'y ko'rmasa ham, qumaloq ko'rgan, nasl-nasabi duragaylashmagan ayol topish lozim bo'ladi. (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). *Cho'pon shu kunning o'zida barcha tayyorgarligini ko'rdi. Ertasi saharlab o'g'il-qiz, kelin-kepchik – barisini ishga soldi.* (Xolmuhammad Karimiy, Chorva odami).

KELINBARMOQ Donalari cho'zinchoq uzum navi. – *Saratonning dami kesilar, Tiniq tortar daryo irmog'i, Tokzorlarda sahar uzilar, "shakarangur", "kelinbarmog'i".* (Oydin Hojiyeva, Avgust kunlari).

KELINSUPURGI (Diarthron vesiculosum (F. et M.) Chinniguldoshlar oilasiga mansub, poyasi silliq, bo'yi 15–40 sm, asosan, supurgi qilinadigan bir yillik o't. *Ajriqlar, shamaklar, pechaklar, takasoqollar, oqboshlar; kelinsupurgilar mol yeydigan bo'lib yetilgan payt.* (Oydin Hojiyeva, Muborak...) *Tizza bo'yi hulbo'y, kelinsupurgi, miya (sovun o't) isi dimoqqa uriladi.* (Oydin Hojiyeva, Yo'qotganim topsamki shoyad...)

KELINTILI (Surxondaryo) Torondoshlar oilasiga mansub, ildizi yo'g'on, baquvvat, poyasi sershox ko'p yillik o't; toron. *Yoshlar goh juft-juft, goh guruh-guruh bo'lib tizzaga uradigan ko'm-ko'k shudringli o'tloqlar oralab, kiyimlariga kelintili o'tlari qapishib, xushbo'y archazorlarga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.* (Bozor Ilyos al-Amin, Suv parisi).

KENAMOQ Kinoya qilmoq, kesatmoq. *Buguncha endi mudarrislik qilmay turing, Mirzoiy deb kenadilar.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). *Ana endi cholga nish urishni boshladi. Kenab-kenoqlab gap irg'itaveradi. Toy-qulov yana nimadir deb o'yib olishga chog'langan ham ediki, baxtga qarshi, qo'l telefoni jiringlab qoldi.* (Erkin A'zam, Anoyining jaydari olmasi).

KENJATO'L Kech tug'ilgan, kichkina. *Egararchalik Norkalla yelkasi yerga tegmagan polvon edi. Dong'i ketganiga qaramay juda kech uylan-gan, bolalariyam kenjato'l.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

KESA (Xorazm) Ko'ndalang, perpendikulyar. *Enam devor tubida tik turgan va ustiga pishkak kesa qilib qo'yilgan kubiga nazar tashladi-da: Qisindi, bechora, kubini choyishg'o-da madori kelmadi, - dedi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

KESKAN OSH Xamir noziktar kesilib, loviya solinib, bir muddat qaynatilib, sovutilgach, obitobida qatiq suyultirilib, aralastirib tayyorlanadigan ovqat. *Oyshaoy, ko‘p xijillik bilan, katta kostryulkaga solib berilgan keskan oshni maktabga olib boradi. Muallimlar olmasa, sharmanda bo‘laman, deb o‘ylaydi. Uning baxtiga, muallimlar qiyqirishib, ayni muddao bo‘ldi, deb ikki-uch kosadan keskan oshni ichib oladilar.* (Pirnazar Ravshanov, Birodarim).

KESMALDAK Tut navdasining bargi putab qurtga solinmaydigan qismi. *Buvisining esa javobi bitta: – Bir oy qiyinchilik nima degan gap, o‘g‘lim, ko‘z ochib yumguncha o‘tadi-ketadi. Axir hammasidan ham o‘tincho‘pini ayt: kesmaldak bo‘lmasa, qishda nima yoqamiz?* (Adham Damin, Hayot va o‘lim).

KET: Ketni yer iskamalik Juda band bo‘lmoq. *Toshkentdan hamma yo‘nalishlarga Venger kommunistik o‘rtoqlar qatorlashtirib chiqargan barisi birdek qizil “Ikarus”lar qatnaydi, ko‘pning keti yer iskamaydimi, hamma shaharma-shahar izg‘igan, “Ikarus” odam tashib ulgurmaydi.* (Ahmad A‘zam, Avtobus).

KETMONLA(N)GAN Tuproqqa ketmonlab ko‘milgan, ya‘ni o‘lgan odam. *Ketgan kelar, ketmonlagan kelmas.* (Maqol). – *Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi. Ketgan keladi, ketmonlangan kelmaydi.* (N.Yoqubov, Jon). *Ammo bo‘lar ish bo‘ldi. Ketgan keladi, ketmonlangan kelmaydi, bolam. Tiriklar esa yashashi kerak.* (Muhabbat Hamidova, Tugallanmagan sevgi qissasi).

KETMONSOP(I) Donalari yirik, cho‘zinchoq, oq rangli, husayniga o‘xshash xo‘raki uzum navi. – *Siz bu yerga pishiqchilikda bir keling. Uzum bo‘lganidayam shunaqa ko‘p bo‘ladiki, “Hasayni”, “Husayni”, “Ketmonsop”, “Mercedes”, “Rizamat ota” deysizmi? Yana yangi xil navlariyam yaratilgan. Tok ichiga Gollandiya bodringlari, achchiq kalampirlar ham ekilayapti, – dedi Shomurod maqtanib.* (Nabijon Hoshimov, Qora yostiq).

KETMONSOQOL Shakli, ko‘rinishi ketmonga o‘xshagan soqol. *Ko‘rib turibsiz, uka, xudo bo‘y-bastdan kam qilmagan. Buning ustiga ko‘krakni to‘ldirgan ketmonsoqol!* (Odil Yoqubov, Soqol). *Haligi qurg‘ur-*

dan jinday-jinday qilib o'tirsak, davramizga oq yaktak, oq do'ppi kiygan **ketmonsoqol** yigit kelib qo'shildi. (O'tkir Hoshimov, O'zbeklar).

KETSIZ Nihoyasiz, adoqsiz. ...ko'ngilning xursandchiliklarga bo'lgan **ketsiz** maylini qondirish bilangina ovora edi. (Cho'lpon, Kecha va kunduz). Uning yuzlarida boshqa qizlardek **Ketsiz** qayg'ularning izlari yo'qdir. (Cho'lpon, Satang).

KEZAK Navbat, gal, kezak. Biroq kapitan endi bu fidoyilik va ishonchning qiymatini anglab yetgan edi. Eng ishonchli yo'l Puerto-Rikoga qaytguncha fitnachilardan qutulish, deb bildi. Bu kungacha bir necha fitnachini yo'l-yo'lakay orollarda qoldirib ham kelgan edi. **Kezak Xuanniki** edi. (Aleksandr Gorbovskiy, Yulian Semyonov, Mangulik qopqasin qoqib ko'rganlar. – Rus tilidan Baxtiyor Isabek tarjimasini).

KEZANAK Ot, qo'y, qoramolning to'piqdan yuqori, pochasinging ingichka qismi. Orqa **kezanagi** bolaning bilagiday bo'lib turadigan ot yaxshi keladi. Shundayini izladim. Yo'liqmadim. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). Chavandoz chilvirni uloq **kezanagidan** o'tkazib olib, bilagiga o'raydi. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom).

KEZMA Ko'p sayohat qiluvchi. So'zni bir ezmadan so'ra, bir – **kezmadan**. Maqol.

KESHMIRI Munofiq, ayyor. Shirin unga (Xamidaga) nafrat bilan tikilarkan: "**Keshmiri**, dedi ichida g'ijinib, Mizagur! Ichi to'la fitna-ya". (Mamadali Mahmudov, Qora do'lana).

KENGISH (Surxondaryo) Keng. Ikki mashina yonma-yon yursa sig'adigan bu toshloq o'ydim-chuqur ko'cha bir-ikki burilishdan keyin bolalar to'p suradigan, chillak o'ynaydigan **kengish** maydonga yetganda ikkiga bo'linib bir mashina sig'ulik tor ko'chaga aylanib ketadi. (Shukur Xolmirzayev, Saylanma). O'rtada oyoqlari chalmashgan pastak dumaloq stol, ikki tarafida ikkita savat kursi, burchakda qup-quruq bahaybat dastgoh, to'shagi qo'qib yotgan **kengish** karavot. (Erkin A'zam, Pakananing oshiq ko'ngli).

KIDIRMOQ Kutmoq, sabr qilmoq. [Ulug'oyim:] – Vo-o-o, chiroqqinalarim, sizlarki so'rabdursiz, biz yo'q dermizmi? Ozroq **kidirasizlar**, aylanaylar! (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

KIKIL Echki, qo‘zichoqning oshig‘i. *Kikilim* kikil, bekitganning qo‘yniga tiqil. (Matal).

KIMO‘ZAR Tezlik, tezkorlikdagi musobaqa. *Issiq pech yonida qunishib o‘tirgan bolalar pech ustiga tashlab isitilgan sarg‘ish paxta tolalarini bir gullab olib, barmoqchalari bilan undan chigitini amallab ayirishadi va yoniga yig‘ib, bir-biri bilan kimo‘zar o‘ynashadi.* (Habib Abdunazar, Boshpana). *Bulutlardan-da oppoq chinni kabutarlar galasi Ramiz Jo‘raning ilk tashrifi sharofatiga uning dalahovlisi uzra kimo‘zarga qanot qoqib aylana yasay boshlashdi.* (Xurshid Do‘stmuhammad, Yolg‘izim – Siz).

KINDIK Markaz, o‘rta. *Echkilarini “choshkaylik” qilib sog‘adigan mahalda mergan Oxurlik daraning kindigidan qamchi o‘rimiday chiqib turgan chashma bo‘ynidagi shuvarga yetib kelib eshakdan tushdi.* (G‘ozi Rahmon, Rahmon mergan). **Yerning kindigi** – *O‘qiganman, – dedi mudir “uf” tortib. – Davlatini uning johilligi, takabburligi xarob etgan. Aslida u ko‘plar aytadigandek qo‘rqoq bo‘lgan emas. Agar unday bo‘lganida shunchalik katta imperiyaga bosh bo‘lmagan bo‘lar edi... – Ancha jim ketganlaridan keyin qo‘shib qo‘ydi: – Yerning kindigiman, deb o‘ylaydi u.* (Shuhrat Matkarim, Og‘riq). **Kindigi bir** *Ruhan yaqin. O‘g‘lining ozroq tutun qaytarib javob berayotgani unga [Iziddin inoqqa] yoqmasi. – Shunqorminan kindiging birmu?! – dedi dag‘alroq tovushda.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). – *Men bilan kindiging bir-da, a? – dedi u ichi jun po‘stini yenglariga qo‘l suqarkan. – To‘g‘ri qilasan, Sezgir, ko‘rib qolish kerak. Balki bu so‘nggi qordir.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox).

KIROVKALANMOQ Qorong‘i bo‘lmoq, qorong‘ilashmoq. *O‘g‘liga o‘lim soya tashlayotganini sezib, Abdiqayumning ko‘z oldi kirovkalana boshladi.* (Soyim Is‘hoq), Qabrdan chiqqan qul. *Kirganimdan buyon kirovkalanib turgan xona birdan yorishib ketganday bo‘ldi.* (Soyim Is‘hoq, Osmon ustuni).

KIRPI Tipratikan. *Qarindoshlar kirpi yutgan ilonday sumrayib qolishdi.* (Zulfiya Qurolboy qizi, Boyvuchcha). *Odatda kirpilar odamlardan qochib yurishni xohlaydilar. Shundan bo‘lsa kerak, ular asosan tun qo‘ynida ovga chiqadilar, kirpichalarni ham qorong‘i tushgach ergashtirib yuradilar...* (Asad Asil, Kirpi chinqirig‘i).

KIRPIO‘T (Acantholimon) Nishtar bargli, sharsimon shaklda o‘sadigan chala buta. *Shuningdek, yostiqlik hosil qilib o‘tuvchi kirpio‘t va zira-ko‘tlar ham keng tarqalgan.* (O‘zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya).

KIRPINISH *Quyida kirpinish archalar quyruq bulutlar yirtig‘i – pistoqi... yuraging tirnar, goh uyushar, uyib toshib ketar qafasdan gohi.* (Hol Muhammad Hasan).

KIRSOVUN Tarkibidagi yog‘ kislotalari 76%dan oshmaydigan, turli gazlamalardan tayyorlangan kiyim-kechak, choyshab va boshqalarni yuvishda qo‘llanadigan maxsus sovun turi. *Opa [O‘g‘iloy] o‘nga yaqin kirsovun bilan tog‘oralarni o‘rtaga qo‘yib, ovqatdan so‘ng samovarda issiq suv bo‘lishini, kirlarimizni yuvib olishimiz mumkinligini aytdi.* (Abduqayum Yo‘ldosh, Aybdor). *Xosiyat kelin kirsovun bilan uch-to‘rt marta yuvsa ham, qo‘lidan hid (tappi hidi) ketay demasdi. Oxiri chorbog‘dan o‘tadigan ariq bo‘yiga borib, qo‘llariga loy chapladi.* (Zulfiya Qurolboy qizi, Qadimiy qo‘shiq).

KIRPICHA Guvalak. *Maktabga bora boshlagan chog‘larimda dadam tushlikka teskarilatib sinchli, guvalakli (ba‘zi qariyalar guvalak tip-ratikonga o‘xshagani uchunmi “kirpicha” deyishardi) uy qurdi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar).

KISSAVURLIK O‘g‘rilik, o‘marish. *Keyinroq kissavurlik qilib qamalanganida “endi chiqqan joyiga kirib ketdi, qorasi o‘chishi aniq”, deb o‘ylab yana adashdi.* (Tohir Malik, Shaytanat).

KITOBXO‘R Kitobsevar. *U [Mahmud Sa‘diy] juda bilimdon, kitobxo‘r; biz uni Shayx deb atar edik... (Asqad Muxtor, Tundaliklar). Ikki o‘g‘lim o‘zimga tortib kitobxo‘r bo‘lishdi: bizning xonadonni kitobchilar oilasi deyishardi, o‘g‘illarim qayerda kitob ko‘rishsa sotib olishar, uyimiz kitoblar mamlakatiga aylangandi.* (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi).

KIYAK I (Léymus racemósus) Qiyoc. *A‘zoyi badani bo‘shashib ketgan Bahodirjon nojoiz harakat qilib qo‘ymaslik uchun miyasini ishga berib, o‘n kishilik qozon tagiga yon tomonda turgan paqir satildan taxta cho‘michni to‘ldirib suv quydi, keyin samovar o‘txonasiga kiyak tutantiriqlik qo‘yib, ibtidoiy faqat oqilona usulda o‘choq o‘tiniga o‘t qo‘ydi.* (Sobir Sayhon, Armon).

KIYAK II (Qashqadaryo) Sovliq, echkilarga sakramasligi uchun qo‘chqor, taka qorni quyisiga taqiladigan teri. *Bir tutam soqol iyakda Taka torig‘ar kiyakda.* (Hol Muhammad Hasan).

KIZAK Do‘ppining tepasi va jiyagi orasidagi qismi. *Yuqori sinfga o‘tganida shaharlik ustaga buyurtma berib, kizagi baland qorako‘l teridan tikilgan po‘rim telpak sovg‘a qildilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KIZLAMOQ Yashirmoq. *Xudodan yashirmagan narsani bandasidan kizlamoq nomunosib bir yumushdir.* (Sa‘dulla Siyoyev, Yassaviyning so‘nggi safari).

KISHT: **Kishti kelmoq** G‘ayrati kelmoq, jo‘shmoq. *Erning tomog‘iga nimadir tiqilganday bo‘ldi. Ha, yonida yaqindagina visoliga yetgan tengsiz bir sohibjamolni ko‘rib, yigitning kishti kelgan, zavqi-yu g‘ayrati jo‘shgan edi o‘shanda.* (Qulman Ochilov, Soy sohili). *Hayqiriqdan kishti kelgan jonivor ham jaranglatib kishnadi.* (Xolmuhammad Karimiy, Chorva odami). *Qo‘ldosh degan alomat akaxonim bor. Qiziq odam, gurunboz. Kishti kelsa davralarda boshidan o‘tgan g‘aroyib voqealarni o‘ziga xos ohangda aytib yuradi.* (O‘rolboy Qobil, Dashtliklar).

KISHTIKOR Dehqon. *Ayni shu kunlarda ham shunday kishtikor o‘sha hududlarda – Zarmas, Vori, Qiziltom qishloqlarida yashayotgan tug‘di-bitti odamlar tomonidan davom ettirilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KOHIL [a. kohil – sust, tanbal] Sustkash, yalqov, ishyoqmas. *Dangasa – so‘zga mohir, ishga – kohil.* (Maqol).

KOMDIL Mo‘l, ko‘p. **Komdil** hosil qilishga mushtoq qizlar jonon piyolalarda sharob tutib boshingni aylantirishadi. (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

KORBAD [f.-t. kor – ish, bad – yomon] Noxush voqea. *Jazo otryadi o‘z ismiga munosib mash‘um bir korbadga tayyorlanayotgandek...* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

KOSAGUL Gullari kosadek ochiladigan o‘simlik. *Elyor kosagullar ochilib yotgan pol pushtasiga cho‘qqaydi: – Amaki, nimaga hammavaqt shu yerda o‘tirasiz?* (Shukur Xolmirzayev, Nasib etsa). *Nodirni ayvon oldidagi kosagullar yonida ko‘rmadi.* (Shukur Xolmirzayev, Hayot abadiy).

KOVIYA Metall buyumlarni kavsharlaydigan asbob. *Akam olomon-dan ajralib chetga chiqdi. Qo'lida koviya, boshini chayqab biz tomon yur-di.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

KOVUTKORLIK Ekinzor. *Uy orqasi bog', oldi kovutkorlik edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

KOZIB [*a. kozib* – soxta, yolg'on]: **subhi kozib** Tong yorishish-dan oldin paydo bo'ladigan tik (vertikal) yorug'lik. *Yigitchani uydan olib chiqishganda subhi kozib edi.* (Tohir Malik, Erkin). *Subhi kozibda qo'nalg'a-multajolarini tark etib bemavrid maskan-tumanli tog' sari yo'l olishgan besh nafar otliq – guruhning boshida qovogidan qor yog'ib Xol-bo'ta borardi.* (Shoyim Bo'tayev, Qora tuman). *Tong yulduzi ketolmay hayron, Subhi kozib qilsa-da firib. Subhi sodiq kelar-da shu on Umarxon shart ketadi turib.* (A'zam O'ktam, Sog'inch). *Fano ahli bunda bir kecha mehmon, Umr – vaqt mulkida bir subhi kozib.* (Abdumajid Azim).

KOCHCHI Qozonda qaynab turgan suvga tuz va oz-ozdan un solib, tol qoshiqda aralastirib pishiriladigan taom. *Gurung qiyomiga yetgan paytda kochchi ham tayyor bo'ldi, lagan yuziga yayratilgan, ustiga suyultirilgan chakki va qizitilgan sariyog' quyilgan ovqatdan bug' chiqib turar...* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

KUDUR [*a. kudur* – xafalik, qayg'u-alam, dil g'ashlik] Ko'ngil g'ashligi. *Ko'nglimda tushunuksiz kudur bor, kudur.* (Asad Dilmurod, Tanlangan asarlar). *Chig'atoy ko'nglida anchadan beri kudur saqlab kelgan edi.* (Asad Dilmurod, Tanlangan asarlar).

KULALI Pichan yoki o'tin tashish uchun ayri yog'ochlardan yasalgan moslama. *“Bu dog'uli o'lay deb yotsayam bironing haqini dangaliga “beraman” demaydi” – o'yladim o'zimcha. Indamay egar korsonining ortiga surildim va uni bir amallab egarga tortib oldim. Kulaliga o'xshatib, qorni bilan yuztuban yotqizdimda voyvoylatib uyiga olib ketdim.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

KULATA *q. kultapeshak. Kulatalari ustidan tushib kelgan soch-popuklariga osilgan kalit-u, jangul-jungul qubbachalarni qayta-qayta sanayman.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). – *Bu kayvoni-Biynisolarni kulatasiga osiladigan jamalak-ku!* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

KULBET Kulrang, kulrang tUSDagi (it, eshak va boshqa jonivorlar-ga nisbatan qo‘llanadi). *Yo‘l chekkasida pichan tashiydigan mashina urib ketgan oq eshak cho‘zilib yotar, tepasida kulbet eshak g‘amga cho‘mgan-cha, uzun quloqlarini osiltirib turardi.* (Normurod Norqobilov, Sadoqat). *U ulkan boshini baquvvat oyoqlari ustiga joylashtirib, qishloqni jiddiy kuzatarkan, kulbet eshak ustida ko‘ndalang cho‘zilib yotgan Oqyolni tez ilg‘adi.* (Normurod Norqobilov, Ovul oralagan bo‘ri). [Cholning] *Doimiy hamrohlari – kulbet eshagi-yu qari iti.* (Normurod Norqobilov, Mung).

KULDIRGICH Adirlarda uchraydigan, tuproqda in quradigan mal-larang mayda hasharot (yosh bolalarda uning qonini tovoniga surkasa, chopqir bo‘ladi degan qarash bor). *Yantoq ostidagi qumda “kuldirgich” degan hasharot yashaydi.* (Isajon Sulton, Tuman). **Kuldirgich** yer tagidan chiqib kelib chumolini oyog‘idan pastga torta boshlaganda uya atrofi-dagi tuproqni shartta hovuchlab, qorasaqichi issiqdan bilqillab turgan asfalt yo‘lga olib chiqib to‘kardik. (Muhammad Sharif, Kuldirgich). *Bolalar “siyohdon” [uyacha] ni ko‘rgach, tuprog‘ini kavlay-kavlay “kuldir-gich” ni topib olishar, uning qonini qotib ketgan tovonlariga surtishardi.* (Xo‘jamurod Toshtemirov, Mingtilloning kabobi).

KULTA (Xorazm) Quritilgan beda. – *Chingirik soldim de eshakka. Kulta (beda) yo‘qmi axir, – dedi va yuzlari bir zumda jiddiylashdi, keyin xiyol xushhollik belgilari paydo bo‘ldi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

KULTAPESHAK Sochni tartibga solish uchun orqa tomonda yeng-simon uzun moslama bo‘lgan ayollar bosh kiyimi. *Ergash Bibi esa o‘n sakkiz yoshligini sog‘inib, qilpillab, ro‘mollari hilpillab, kultapeshak os-tida oppoq sochlari selkillab yo‘rg‘alab davraga tushaveradi!* (Oydin Ho-jiyeva, Mehtar bobo). *Siz Ruqiya xolajonsiz! Hali ham sanamarastaday – siz, kultapeshaklar ichidan chiqib turgan sochlaringiz qizlarnikiday, – deyman.* (Oydin Hojiyeva, Telvagezak).

KULUK Poyga oti. *Kuysiz kuluk yugurmas.* (Maqol). *Arg‘umoqning yaxshisi chopsa – kuluk, sotsa – pullik.* Maqol. **Kulukni kelganda ko‘r, Dumini suzganda ko‘r.** (Maqol).

KULXONA 1. Kul to‘planadigan joy. *Cho‘yan pechning kulxonas-ini tozalayotgan onasi qoshida to‘xtadi.* (Shukur Xolmirzayev, Baxtli

bo‘linglar). *Men olovni tanchaning cho‘g‘xonasiga to‘kdim-u u lang‘illab, kulxonani ham cho‘g‘xonaga aylantirdi-qo‘ydi.* (Murod Mansur, Judolik diyori). **2.** *Ko‘chma Vayrona, g‘urbatxona. Birov umrni gulxona, birov kulxona qildi, eng og‘ir ish to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, – deydi qayerdadir eshitgan gapini takrorlab podachi.* (Bahodir Qobul, Oybuloq, Oynabuloq).

KUNBETKAY Quyosh tushib turgan tomon. *O‘rtada panjaragulchin zinadan chiqiladigan baland oynavand naqshin ko‘shk savlat to‘kib turardi, kunbetkay tushgan bir oshyonli, ikki oshyonli oq imoratlar, xonalar hovliga fusun bag‘ishlaydi.* (Muhammad Ali, Sarbadorlar). *O‘, mana, nihoyat, bu kun ulug‘vor Quyosh tog‘lar osha ko‘rsatdi jamol. Kunbetkay tomonda zap eridi qor – Bahor kunlaridan bu xabar balki?! (Asim Suyun, Balki...)* *Uch og‘a-ini botirlar qir, dovon, tog‘ oshib, yo‘l yurib, yo‘l yursayam mo‘l yurib manzilga yetganlarida kun peshindan og‘gan, yaxshiyamki quyosh chiqib tog‘ning kunbetkay tomonlari qorini xo‘p eritmoqda edi.* (Sobir O‘nar, Lochin).

KUNDA (Xorazm) Omoch. *Tuproqni olgan joyiga tashlab akalarimga qarab buyruq ohangida: – Ho‘kizlarni tayyorlanglar, kunda (omoch) bo‘yintiriqlarni sozlanglar! – derdi. Ayrim hollarda: – Hali biroz bor, tobga kelmabdi, deb boshqa yerga o‘tardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

KUNDOSHVACHCHA Kundoshning bolasi. *Kundoshing bo‘lsa-bo‘lsin, kundoshvachchang bo‘lmasin.* (Maqol).

KUNJKOV [f.-t. **kunjkov** – qiziquvchan] Qiziquvchan. *U oliftaboz bo‘lganidan nuqul oliftalar haqida so‘zlar, men esa har narsani bilib olishga havasmand, kunjkov bo‘lganim uchun uning so‘zlarini zo‘r zavq bilan tinglar, gap orasida savollar berib, hikoyaning menga noravshan joylarini tag-tomiri bilan bilib olardim.* (Sadridin Ayniy, Esdaliklar). *Kampir xalqi ko‘p kunjkov keladi, har bir so‘zingni jon qulog‘i bilan tinglab, mag‘zini chaqadi, shunga yarasha javob izlaydi.* (Nodir Normatov, Jazo).

KUNJKOVLIK Qiziquvchanlik. – *Ishqilib, yuvib ham bermaymizmi? – hazil aralash so‘radi Bobodo‘stov kunjkovlik, iddao ohangida.* (Nusrat Rahmat, Sanatoriyada). *O‘zining azaliy kunjkovlik odati bo‘yicha (darvoqe uning yaxshi bankir bo‘lib yetishuviga shu yordam bergan edi) Palmer*

shunday fikrga keldi: Mak Berns derazasidan ko‘rinuvchi bu manzarani u qayoqdan bu qadar yaxshi biladi? (Lesli Uoller, Bankir – F.Shohismoil, A.Fayzulla, Sh.Xudoyberdiyeva, J.Abdullayev tarjiması).

KUNLAMOQ Ko‘rolmaslik, hasad qilmoq. *Abduborining gapi erini kundoshidan qizg‘anayotgan ayolning gapidek ilmoqli tuyulgan esa-da, Shunqorbek miyig‘ida kulib qo‘ydi. “Nimani **kunlaydi** u, – o‘yladi ko‘nglida. – Amirzoda yo‘qlatadurki, borurmen. Bormasliqqa iloj yo‘q. Lekin biror narsa ta‘mayida bo‘lmag‘aymen. O‘zimcha oni so‘roqlab-da bormasmen”.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

KUNLIKCHI Kunbay ishlovchi (odam). *Buyruqchi buyuradi, **kunlikchi** yuguradi.* (Erkin Samandar, Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq). *Murchadayin tinmas ular, Yosh yigitlar, “**kunlikchi**”lar.* (Akmal Abdiyev, Hayot o‘zi murabbiy). *Chunki u yarim karvichni ko‘tara oladigan vaqtdan beri **kunlikchi** akalari bilan birga qurilish qiladi.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

KUNLIKCHILIK Kunbay ishlash. *Yana **kunlikchilik** qilishga chetga ketayotgan bo‘lsa. Qachon, qanday qaytishi noma‘lum bo‘lsa. Kim bo‘pti o‘zi bu Davlatyor?* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

KURRA Xo‘tik. – *Shunga bir **kurra** olib bering, – dedi xotini. – Eshakni ko‘rdi, minaman deb talpinadi.* (Shukur Xolmirzayev, Ozodlik). – *Hamma gap shunda-da Sovurjon! Bizam shu vaqtgacha **kurra** desa, eshak, kuchuk desa it, **churpa** desa to‘ng‘iz deb yuravergan ekanmiz!* (Shuhrat Matkarim, Xavf). *Shu-shu sho‘rlik [eshak] yag‘ir bo‘ldi, So‘ng... **kurra** sag‘ir bo‘ldi... (Hol Muhammad Hasan, Bojamning ko‘ligi).*

KURT Bo‘ri. ***Kurtdan** (bo‘ri) po‘st, ayiqdan do‘st bo‘lmas.* (Nurali Qobul, Qadarning g‘arib jilvasi).

KURTA (Surxondaryo) Marsak, yopinchiq. *Xizmatkor xotin **kurta** yopingan Toshgulni ergashtirib chiqdi.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati).

KURTIK Qor uyumi. *Qorniyam rosa lo‘mbozlab, **kurtik** qilib turib yedim... qoq boshiga borib tushdi.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma). *Soy ichida qor qalin ekan. Shu bois yilqilar tizzasigacha **kurtik** kechib borardi.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

KURTUK (Xorazm) Yoyilgan xamir suvda yoki sho‘rvada pishirib, tayyorlanadigan ovqat. *Otam o‘ziga xos vazminlik bilan sekingina karsandagi kurtukka qo‘l cho‘zdi...* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

KURTING q. **kurtik**. *Bir qavati qor-u-muz, bir qavati chang-u to‘zonlardan naqd paxsa devordek pishib qolgan qatlamlar, kurtinglar orasidan tomchilab chiqqan sizotlardan jilg‘alar boshlanadi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

KUY Jinsiy faollik. **Kuyga kelmoq** Jinsiy faollashmoq; kuyikmoq. *Qochirilgan sigirlar bir oy davomida qayta kuyga kelmasa, bo‘g‘oz bo‘lgan deb hisoblanib, navbatdagi sut ishlab chiqarish guruhiga o‘tkazilishi lozim.* “Veterinariya”.

KUYADORI Kuyani yo‘qotuvchi maxsus dori; dust. – *Anzirat ko‘rpalarining orasiga kuyadori sepdi. Xonani achimsiq hid tutib ketdi.* (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi). *Shu paytda onasi: – Ma! – dedi jerkibroq, kuyadori hidi burqsiyotgan sandiqdan olacha to‘n hamda belbog‘ olib uzatib. – Nega buncha serrayasan?* (Norto‘xta Qilich, Hassakash).

KUYALAMOQ Kuya tushmoq, kuya yemoq. [Ahmad] ...binobarin, tokchada mildirab yonayotgan qorachiroq yorug‘ida, **kuyalab** titilgan bo‘yrada bemalol tizzalab, ko‘zlarini yumganicha, botiniy tilovat-u tasbeh o‘g‘irish bilan mashg‘ul... (Asad Dilmurod, Mezon burji). *Sho‘rlik yupun va qiltiriq, qalin paxmoq sochi o‘sib yelkasi, kuyalaganga o‘xshash oq-qora soqoli o‘sib kindigiga tushgan.* (Asad Dilmurod, Tanlangan asarlar).

KUYDIRGICH Qiynaydigan, ozor beradigan. *Oshiq-ma‘shuqlarning ana shunday kuydirgichlari bor, chidaysiz endi.* (To‘lqin Xayit, Vafo malikasi).

KUYDIRMAJON Ishqida kuydiruvchi, ofatijon. *Tannozlik hunarini qiyib qo‘yadigan kuydirmajon qizlar atrofida pashshaxo‘rda bo‘lish, qurmagurlar ko‘nglini ovlash uchun jaraq-juruq pul sarflashni istamasdim.* (Asad Dilmurod, Xayol cho‘g‘lanishi). *Senga o‘xshash men sevgan barno, Kuydirmajon – kuydirar har kech: Qulfurar-u qo‘ynimda, ammo Yuragimga kirib bormas hech.* (Abdulla Sher, Nilufar).

KUYMANCHAK Kuyinchak. *Ayolning jonnisorligi, kuymanchakligi o‘ziga bir yarashardi.* (Murod Mansur, Judolik diyori).

KUYOVJO‘RALIK Kuyovjo‘ra bo‘lishlik. *Asadbek uylanganidan so‘ng Jalil kuyovjo‘ralik martabasidan foydalanib, “bu g‘arko‘z oshnang endi ostonangni hatlamasin”, deb shart qo‘ydi.* (Tohir Malik, Shaytanat).

KUYOVTO‘RA Yangi kuyov. *...hamqishloqlar yangi kelinchakni ko‘rish uchun kelaverib, Donaboy cholning bezorini chiqarib yuborishdi. Buning ustiga kuyovto‘ra adabiyot o‘qituvchisi emasmi, ota-onasini yuzxotir qilib o‘tirmasdan, xotini atrofida parvona bo‘lardi.* (Zulfiya Qurolboy qizi, Qadimiy qo‘shiq).

KUYOVTUG‘AR (Toshqo‘rg‘on) To‘y marosimlaridan biri. Bunda kuyov va uning jo‘ralariga kelin tikka belbog‘lar tarqatiladi. Kelin tomondan dafchi ayol kuyov va kuyovjo‘ralar oldiga kelib, dafga pul tashlashlarini so‘raydi. Kuyov va uning jo‘ralari pul tashlaydi. Dafchi ko‘proq tashlashga undaydi. Oxirida tushgan pul sanaladi, qizning otasiga beriladi. *Kuyovtug‘ar yaqin-yaqinlargacha bor edi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Qiz bola voyaga yetishi bilan qo‘liga igna berib, unga belbog‘ tiktirganlar. U kuyovtug‘ar uchun tayyorlangan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

KUYOVLAMOQ Kelinning uyiga borib tunamoq, qallic o‘yini qilmoq. *Zuhra oyim Shunqorbekning kitobdan boshqasiga chalg‘imay o‘sganligini biladi. Undagi keragidan ortiqroq soddalik, tortinchoqlik ham shuning nuqsi ekanligiga aqli yetadi. Har qalay, kuyovning qallic‘inikiga kuyovlab borib turishi mashhur udumlarning bitta rukni ekanligini unga tushuntira oldi.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

KUZAKI Kuzdagi; kuz paytiga xos. *Hammayoqni patapot, olmalarni qurt kemirib yotibdi, kuzaki mevalarni qurt bosgan, qahrabo tusda.* (Erkin A‘zam, Pakananing oshiq ko‘ngli).

KUZIV O‘rmakka bo‘g‘lanadigan ip. *Mashaqqatlardan qochmadi. O‘rmakni qanday qurishni, dastgohlarni qanday tayyorlashni, ko‘targini kuziviga qanday birlashtirishni, seruviga ipni qanday o‘rashni, adarg‘ini qay yo‘sinda o‘rnatishni, qilichni qanday qoqishni, siltashni, qoziqlarni qanday urib, oyoqlarini qanday tiklashni, nihoyat, adarg‘ini qay tartibda*

tortib borishni – hamma-hammasini miridan-sirigacha mukammal egalladi. (To‘ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

KUVAN Qo‘y, echkilarni bog‘lash uchun ikki qoziq orasiga tortilgan arqonga har yer, har yerdan bog‘lab qo‘yilgan chizimcha; ko‘gan. *Uzun bovli kuvanim, Shamol olib boradi, Bildir-bildir ko‘zima, Izi qolib boradi.* (Topishmoq. Javobi – turna).

KUVORITÓZ Ko‘kparitoz. [*Asad qaroning*] Egnida yenglari uzun, ko‘kintir ko‘ylak. *Yelka taraflari terning sho‘ridan oqargan. Boshida kuvoritózlarnikiday qiyiqcha.* (Norto‘xta Qilich, Osmon yig‘lagan kun). – *E, kim tanimaydi uni. Ota turkmanni taniyman, aka. – Hoshimjon dasturxonni yig‘ishtirib, ayvon havoza-siga osib qo‘ydi.* – **Kuvoritóz-ku u.** (Norto‘xta Qilich, Tantana).

KUCHALA Chala yongan o‘tin. *Har qalay, bo‘lajak mahbuba-yu mahbub nigohlari dastlab to‘qnashganda har ikkalasining yuragi kuchalasi-mon tutay boshlaydi, keyin har ko‘rishganida ko‘zlardan sachragan uchqunlar, so‘zlar ohangidan taralgan epkin kuchalalarni yallig‘lantirib, alanga oldiradi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

KUCHAN (Xorazm) Ot va eshaklarni aravaga qo‘shganda bo‘yniga solinadigan bo‘yinturuq ostiga qo‘yiladigan yumshoq charm anjom. *Xomit kuchan bilan arava orishlarini bog‘laydigan vosita bo‘lib, kuchanga yopishib turardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Bunday hollarda opam hali chaqaloq singilm Oyposhshani somon tiqib sirtqi tomoni charm, ichki tomoni kigiz qoplab tikilgan kuchan ichiga joylab biror daraxt soyasiga o‘tqazib qo‘yardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Sherali esa bo‘yniga kuchan solinib, omochga qo‘shilgan eshakdan farq qilmas edi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

KUCHANCHI (Xorazm) Kuchan tayyorlaydigan kosib. *Qishloqlardagi, qal‘alardagi temirchilar, elakchilar, dapmachilar, misgarlar, novvoylar, pozachilar, orvachilar, kuchanchilar, arjachilar va boshqa kosi-blarlarning holi ne kechadi?* (Kamil Avaz, Sozanda).

KO‘GALA Oq oralagan. **Ko‘gala** soqolli chol sekin haydovchining yelkasiga shapatiladi: – *O‘g‘lim, mashinani chekkaroqqa oling.* (Farruh Jabborov, Tovuq yili).

KO'GAN Qo'zi-uloqlar qator qilib bog'lab qo'yiladigan (qo'y-echkini sog'ishda ishlatiladigan) ilmoqli arqon; chilvir. *Ular (o'liklar) ortida – qo'llari orqasida bog'liq, bo'yinlariga ko'gan solingan asirlar.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati). *Oddiy etyud-da qo'zilarining sog'im arafasida ko'gandan bo'shalib sovliqni emishi aks etgandi.* (Hamid Elxon, Ilon va ayol).

KO'GANLAMOQ Ko'gan bilan bog'lamoq. – *Men biryo'la itlarni sug'orib, jildirab boraman, dedi ukasiga. – Sen qo'zi-uloqni ko'ganlaysan, kechki mol kelsa sog'dirasan, xo'pmi?* (Hamid Alp, Zuryod).

KO'HNACHI Eskifurush. *Oradan bir-ikki hafta o'tgach esa, mol egasi ko'ylaginimi-chalvorinimi ko'chada qandaydir kimsaning egnida ko'rar, u kimsa bo'lsa kimdan sotib olganini aytmas, “o'g'lim ko'hna-chidan opti”, “xotinim jo'gidan xarid qipti”, deb qo'ya qolardi.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma).

KO'HSIZ [ko'rk > ko'h + siz] Ko'rimsiz. *Xonaning shifti va devorlari ko'hsiz, lekin yaltiroq bo'yoqlar bilan bo'yalgan.* (Odil Yoqubov, Er boshiga ish tushsa).

KO'KALA Ko'k tusli. ...*tuman markazidagi bozorni pishiqchilikda ...tomteshar qulfbuzar o'g'ri bo'lib tanilgan va bir necha marta qamalib kelgan oriq, ko'kala soqol qariya shotut bilan ta'minlaydi.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma).

KO'KAN q. **ko'gan.** *Chigirtkalar qamishdan Nay yasaydi – kertadi. Ko'kandagi biyaga So'na dutor chertadi* (Tursunboy Adashboyev, Toldi buloq).

KO'KAZAK Ko'kish, ko'kka moyil. ...*tobora shalvirab, kuygan charmga o'xshab borayotgan ko'kazak yuziga tikildi.* (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi). [Maydondagilar] *go'yo bir bichimdan chiqishganday, suvning tagida yotishgandek ko'kazak yuzlar bir-biriga o'xshar, hammasi kashsiz va ko'zlari chaqchaygan odamlar edi.* (Nazar Eshonqul, Go'ro'g'li yoxud Hayot suvi). [Yo'lovchining] *bunisining ham ko'zlari sovuq, yuzi ko'ngilni sust qiladigan darajada ko'kazak, kiyimi ham xuddi oldingi yo'lovchilarnikiday edi.* (Nazar Eshonqul, Go'ro'g'li yoxud Hayot suvi).

KO'KBOSH (Echinops) Diametri 3–5 sm li ko'kish sharsimon to'puguli bo'lgan murakkabguldohlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik tikanli o't o'simlik. *Biz 20 botmon–160 pud ko'kboshni, har bir botmonini 5 tangadan hisoblab, uning [tog'amning] qarziga berdik.* (Sadriiddin Ayniy, Esdaliklar). *A'zoyi badaniga kaft gulining ildizi qo'shilgan ko'kbosh o'simligi moyi surilib, o'tgan tunda o'zi tayyorlab Benazir otaga bergandan doridan ichganidan so'ng Koshif ko'zini ochdi.* (Nuriddin Ismoilov, Tabib).

KO'KDORI Zelyonka. *Ko'p yara-chaqa bo'lgan, shuning uchun turli malhamlar va ko'kdori uydan uzilmagan. Ko'kdori borligining rad qilinmaydigan isboti ham esida.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

KO'KKALLAPISH q. **ko'kkallapo'sh**. *Mening paykalimda bitgan umrboqiy, shakarpalak, qizilmag'iz, bo'rikalla, ko'kkallapish, doniyoriy, gurvay, amiriy qovun yoki qo'zivoiy tarvuzlarimning xaridorlari har qachon yo'lda bo'ladi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

KO'KKALLAPO'SH Shakli dumaloq yoki biroz yassi, sirti oqish, ba'zan yashil, tilim-tilim, to'rsiz, eti oq handalak navlaridan biri. *Qishlog'imizda qovunchi Hasanbobo bo'lardi. Umri polizda o'tdi. Tilni yorar "bo'rikalla", "ko'kkallapo'sh", "bosvoldi"larni eshagining xurjuniga solib, tekinga hamqishloqlariga tarqatib chiqardi.* (Shoyim Shernazar, Oqibat ko'chalarida nima gap)?!

KO'KOYOQ Oyog'i ko'kish qo'ziqorin turi. *Agar qo'ziquryuqni oliy nav desak, ko'koyoqni birinchi nav desa ham bo'ladi.* (G'ofur Jo'rayev, Yuring, tog'ga chiqaylik!)

KO'KPIYOZ Piyozning oshko'k o'rnida ishlatiladigan yer ustki poyasi. *Sherzod hovli o'rtasidagi ko'kpiyoz pushtalari orasida o'toq qilayotgan ayasini darrov ko'rdi.* (O'tkir Hoshimov, Nur borki, soya bor).

KO'KTARG'OQ, ko'ktorg'oq zool. Chumchuqdan yirikroq, boshi katta, bo'yni va oyoqlari kalta, uzun to'g'ri tumshuqli qush. *E-e, ko'ktarg'oqni ko'rganmisiz – ko'kragi ko'm-ko'k baliqchi qushcha. Buning ham chiy-chiyi es-es tanish, nima ekan deb alanglasam, tolning suvga egilgan shoxchasida pastga tikilib ovini poylayapti.* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar.)

KO'KTOMIR Vena. *Qiliqsizniki qirq qarich deb shuni aytsalar kerakda, temir-tersak ichida moyga botib, shuvillatib shuvillak chalgandan ko'ra o'zingni qaratsang o'lasanmi, bo'ying uzilgur! O'zingdiyam, boshqalariyam ovorayi jahon etib nima qilasan, ko'kayimni quritib, ko'ktomirimni chiritdi-ya, bu go'rso'xta.* (Qo'chqor Norqobil, Osmon ostidagi sir).

KO'KCHOY Oz darajada ishlov berilgan, damlaganda och sariq rang chiqaradigan quritilgan choy. *Saratonning jazosi ko'kchoy deganlar.* (Said Ahmad, Sud).

KO'KCHO'P Isfarak. *Tog'-balandlik mintaqasining quyi qismida ko'proq o'tloq o'simliklar, xususan, bug'doyiq, kovrak, shirach-efemurs, oqsuqta, ko'kcho'p (isfarak), gulxayri, lolalar, anzur, arslonqo'yruq, binafsha, ismaloq, chatir va boshqa o'simliklar o'sadi.* (Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi).

KO'LBAR Uloqning terisidan oshlab ishlangan to'rva. *Ana endi Hasan ko'lbar ko'lbardagi novvoylarni chiqarib ola berdi, o'n ming odam chiqdi.* ("Xoldorxon" dostoni).

KO'LIK 1. Yuk tortuvchi hayvon, ot-ulov. – *Parilarning makoni olis, bolam, ko'liging yo'q, sheriging yo'q, qanday yetasan, – dedi kampir.* "Folklor". *Bu tengi bolakaylar ko'likda tashir o'tin.* (To'ra Sulaymon, Mo'rchamiyon). *Joy nihoyatda pinhona bo'lgani uchun atrofda biror ko'lik ko'zga tashlanmaydi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Diydor). **2** Transport, ulov. [Oqsoqol:] *bu zormandaning [aroqning] urug'i serob, qo'rqmasdan olaveringlar, magazindayam mening nomimga yozilgan ikki yashigi turibdi, biron tangning ko'liging bo'lsa, hozir borib olib kelib qo'ysalaringam bo'ladi.* (Abduqayum Yo'ldosh, Biz bo'lmagan joylarda). *Kunda tashib keltirilayotgan ikki-uch sisterna suv urvoq ham bo'lmasdi. Ko'ligi borlar o'n besh chaqirim narida qurilayotgan suv omboridan flyagalarda suv tashishga kirishdilar.* (Abduqayum Yo'ldosh, Puankare).

KO'MAK (Xorazm) Hashar. *Ko'mak Xorazm vohasida, xususan qazuv islarida ko'zga tashlanadi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Uy-joy qurayotgan qo'ni-qo'shni va qarindoshlarnikiga ko'makka borib qolsa,*

to'rtinchi, beshinchi paxsaning loyini asosan unga (Matyoqub doyiga) orttirishardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

KO'MIRTKA Qora dog', gard. *Lek, g'uncha labida ko'rib ko'mirtka, Voh, chaman sahnida gard, deb yozaman.* (Hol Muhammad Hasan, Men ham).

KO'NARGI Tomizg'i. *Bugun men ko'nargi solmoqqa keldim, Qanday tus berar u zamonrang sutga? "Bismilloh" dedim-u qo'shib yubordim, Bir sofdil bolani katta bir yurtga...* (Bobur Elmurod, Oq yo'l).

KO'PIR Ko'prik. ...Ro'zika tasmollagancha so'z qotdi: – "Kichik ko'fir bo'lsayam, katta ko'pir bo'lsin", degan donishlarimiz. (Kamil Avaz, Yoqut momo).

KO'PKARIDASHT (Qash.-Surx.) Ko'pkari chopiladigan maydon. *Anchadan beri tomoshabinlar safidan o'rin olgan ota tayog'ini beliga tutib, ko'pkaridashtga yo'l oldi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Ayt, bakovul, "Qur keldi – surur keldi", Taqimizo'r polvon bilan g'urur keldi, Ko'pkaridasht bug' ko'targan lahza bu chog', Mayda odam xayoliga putur keldi.* (Anvar Suyunov, Surur).

KO'PKARITUZ Uloqchi. *Qambar otadan o'tishda, xo'p, ko'pkaritozlar oyoqosti qilyapmiz deb qo'rqqan, o'takalari yorilgan, banda, lekin unda tulpor jonivor nimadan hurkkan?* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). *Ko'pkaritozlar qishloqqa qarab yo'l tortgan.* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). *Biror zarurat bo'lmasa, ko'pkaritoz otlar birovga berilmasligini boy yaxshi bilishi kerak.* (Soyim Is'hoq, Osmon ustuni).

KO'RGAMSIZLIK Ziqnalik, ochko'zlik. *Butun shaharchada ahvol shu! Yurakni xit qiladigan mumsiklik, ko'rgamsizlik hukmron.* (G'affor Hotamov, Afsungar).

KO'RIM (Qarnoq) Lapashang, anqov. *Hakima sharaqlab kuldi: Voy ko'rim-ey! San o'lgir semiz oyoq bilan oriqlik oyoqning farqini qayerdan bila qolding?* (Sa'dulla Siyoyev, Saratonda qor yog'di).

KO'RILON Tana uzunligi 60–80 sm bo'lgan sariq-qo'ng'ir tusli, ko'zlari kichik ilon. *Torong'iz ilonning tashqi ko'rinishi O'zbekistonda*

uchraydigan **ko'rilonga** o'xshash. (O'zME). *Suhbatim olma gul, o't chetga, og'zimda ko'rilon to'lg'ongay.* (Jontemir, Majnun).

KO'RPA-TO'SHAK Ko'rpa, ko'rpacha, to'shak, yostiq kabilarning umumiy nomi. *Qahraton qishlarda olov ko'rmagan molxona allaqachon muzxonaga aylangan, ammo negadir ko'rpa-to'shak olish hech kimning xayoliga kelmabdi.* (Odil Yoqubov, Qarnoq). **Ko'rpa-to'shak qilmoq** Kasal bo'lib to'shakda yotmoq. [*Shodmon ota*] *Oxiri o'ylab-o'ylab juda zo'r bahona topdi: ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi. Bir hafta o'rnidan turmadi.* (Said Ahmad, Suyanchiq). [*Ibn Sino*] *Hukmdorning huzuriga yetib keldi-yu, ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi.* (Mirkarim Osim, Ibn Sino qissasi).

KO'RPA-YOSTIQ Ko'rpa-to'shak. *Shamsi Saloh ichkariga kirdi-yu, eski-tuski ko'rpa-yostiqni, sholchalarni, qop-qora choydishi... chaylaning to'riga terib qo'yilgan qovun-tarvuzlarni... o'zining hamishagi nafis ko'zoynagi bilan kuzatib chiqdi.* (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi). *So'ng sitilgan momiqday toza paxtani ko'rpa-yostiq, chopon yoki nimchaga solib qaviydi.* (Ashurali Jo'rayev, Shirin paxta).

KO'RSAVOD Bilimi yo'q, uquvsiz; savodi yo'q; chalasavod. – *Hafa bo'lmang-u, do'stim, keyingi vaqtda ishga qobiliyatsiz, ko'rsavod odamlarni ishga olish ko'paydi. Axir bu sozda kelajak nima bo'ladi?* (Safar Kokilov, Tushunmasa qiyin). *“Ko'r” bo'lsang ham, ko'rsavod bo'lma! Gaze-tadan. Yon qo'shnilarimizni bezdirib, do'stdan dushman yasadik, ta'limni isloh etamiz deb, bolalarimizni ko'rsavod qildik, tibbiyot g'orat bo'ldi, erkin so'zning tomog'idan xippa oldik.* (Iqbol Mirzo). *Viloyat gazetasi-da chiqish qilib turibman. Yomon emas. Sen o'qimaysan-da, ko'rsavod.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma).

KO'RSODIQ Samarqand, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida, Farg'ona, Toshkent viloyatlarining tog' oldi hududlarida ekiladigan, mevasi o'rtacha, dumaloq, po'sti yupqa, sertuk, eti to'q sariq, ta'mi xushxo'r, suvli, shirin, mahalliy o'rik navi. *Bekorchi suv sal ko'llab qolgan joylarda ituzumlar qur soladi. Qizil, qora, sariq deganday. Keyin ko'ksultonlar aralashgan o'rikzor. Ko'rsodiq, subhoni, ahroriy, qizil yuz otliq.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

KO'RTUGUN Yechilmaydigan tugun. *Tushunmaysan – bo'lasan xafa – Har narsaning vaqti borligin. Anglab yetgum shunda ilk daf'a, Sen – yechilmay qolgan ko'rtugun.* (N.Dilso'z, Kechikkan g'uncha).

KO'S Katta nog'ora. *Bu cholg'uchilar repertuarida xalq og'zaki ijodi an'analaridagi professional musiqa asarlari, shuningdek, surnay, (nafir), nog'ora (naqora, ko's, tabl, qovurg'a) va naylarda chalinadigan turfa janrlardagi ommabop kuylar alohida o'rin egallagan.* (O'zME). *Taqbol-lar oqshomi bilan tabl urib, karnaylarni par-parlatib, bug', guburga, ko's, vag'ir-vug'ir, qatir-qutir, qars-qurs tong otguncha olamni buzdi.* ("Xoldorxon" dostoni).

KO'SAM Katta serka, qo'ylarii yetaklab yuruvchi kekxa serka. *Qirq-ta ko'sam sarkani so'ydirib qirq qozon osh damlatgan, yigirmata chori takani tashlatib ko'pkari bergan, kurashga mayda moldan tashqari qo'sh g'unon va tuya qo'ydirgan, katta o'radagi jamiki polvon-u chavandozlar-ni chaqirgan.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

KO'TAL Tog'lardan oshib o'tgan yo'l, pastroq dovon. Joy nomlari tarkibida uchraydi. *Tangi va uchma yo'llarda, tund va tez ko'tallarda qalin ot va teva qoldi.* "Boburnoma". *Kichkina ko'taldan Zinnansoyga kirishning ikki tomoni, Katta ko'taldan Toypongga o'tishning kun botish tomonidagi katta maydonni egallab yotgan qiya yerlarda Davron Ochil-boy o'g'li dehqonchilik qilgan.* (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi).

KO'TARAM Darmonsiz, yotsa turolmaydigan. *Qishga jamlangan xas-xashakdan urvoq ham qolmadi. Qoramol degani o'zini-o'zi yeb, "ko'taram" bo'lib qoldi.* (G'ozil Rahmon, Uch oyoq bo'ri izidan).

KO'TARGI Gilam to'qiydigan mahalliy dastgohning qismi. *Mashaqqatlardan qochmadi. O'rmakni qanday qurishni, dastgohlarni qanday tayyorlashni, ko'targini kuziviga qanday birlashtirishni, seruviga ipni qanday o'rashni, adarg'ini qay yo'sinda o'rnatishni, qilichni qanday qoqishni, siltashni, qoziqlarni qanday urib, oyoqlarini qanday tiklashni, nihoyat, adarg'ini qay tartibda tortib borishni – hamma-hammasini miridan-sirigacha mukammal egalladi.* (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

KO'ZANAK I 1. O'tov keragalaridan hosil bo'lgan panjara qismi. *Ko'zanaklarning keng, ya'ni yel ko'zanak hamda tor ko'zanak kabi tur-*

lari bo'lib, Jarqo'rg'onning o'troq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi asosan tor ko'zanakli uylar qurishgan. (S.Tursunov, A.To'xtayev, Jarqo'rg'on). 2. Zanjir halqasi. Shu sog'lom ijodiy pleyadaning po'lat zanjirday mustahkam silsilasida bir ko'zanak bo'lib shoir Mirmuhsin tura-di. (G'afur G'ulom, Suyanguday tog'larim bor). 3. Qushni tutish uchun qo'yiladigan qil tuzoq. Chumchuqqa qo'ysam ko'zanak, ilindi unga so'zanak. (Maqol).

KO'ZANAK II Mo'ynali yirtqich hayvon. *Ola ko'zanak ola bo'lsa ham, arslon bo'lmas. ("Zarbulmasal")*

KO'ZANAKLI I Ko'zanaklari bor. *Vohaning yarim o'troq aholisi esa yel (keng) ko'zanakli uylar qurishgan, chunki yel (keng) ko'zanakli uylar nisbatan yengil va ixcham bo'lib, ko'chish chog'ida ulov (tuya, ot yoki eshak)ga ixchamgina joy bo'lgan. (S.Tursunov, A.To'xtayev, Jarqo'rg'on).*

KO'ZANAKLI II G'ovak, serkovak. [*Yomonqum cho'lida*] **Ko'zanakli**, *do'ng va marzali qum shakllari uchraydi, quduqlar atrofida barxanli qumlar vujudga kelgan. (O'zME).*

KO'ZBAND [*t. ko'z + f. band – bog'lam*] Ko'zlarni yopish uchun bog'lanadigan boylam. *O'shandan beri Shermuhammadbek ko'ziga ko'zband bog'lab yurdi. (Mansurxo'ja Xo'jayev, Shermuhammadbek qo'rboshi).*

KO'ZOYDIN Uzoqda bo'lgan yaqin kishisi qaytib kelganda aytiladigan ibora. *O'tib ikki yiling ham, Ko'zoydin aytib bir kun Eng suluv qiz onangdan Hadya – suyunchi olsin. (Yahyo Tog'a, Askar ukam). Zaminning ko'ksini yorib, Entikib – dunyoga qiladi Bahor... Ko'zoydin... (Jumagul Suvonova, Tuproq isi).*

KO'ZTIKAN Poyasi tik o'sadigan, bo'yi 20–70 sm bo'lgan, murakabguldoshlarga mansub ikki yillik serbarg begona o't. *O'n birinchi kuni dashtni qoplab yotgan ko'ztikan-u changal, yovshan-u yulg'unlar borgan sayin siyraklashib, endi onda-sonda qurog'-u qamish, bangidevona-yu burganlar ko'zga chalina boshladi. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).*

KO'ZTUMOR Yomon ko'zlardan asrovchi tumor. *Tarlanni qashilab-qashilab egarladim. Og'ziga suvliqni solib, yuganladim. Pesho-*

nasiga do'landa shoxidan bo'lgan ko'ztumor ildim. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). Demishlar, dunyoda hasad ham illat, Uning yo'lin bog'lab, qilgaylar irim. Yurtim, darvozangda mayli bir fursat, Qaniydi, ko'ztumor bo'lolsa she'rim. (Abdulla Oripov.

KO'SHAYANA (Xorazm) Go'shanga. – *Men otangni ko'shayanada ko'rganman! (Komil Avaz, Sozanda).*

KO'SHISH [f.-t. ko'shish – harakat] Harakat. **Ko'shish ko'rsatmoq (qilmoq)** Harakat qilmoq. *Bir kuni sevimli nevarasi – yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadafdan so'radi: “Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. Eshitganim bor. Sen begona doktorlardan so'ra, bolam. Dardim nima ekan? Faqat rostini aytasan, xo'pmi?” – “Xo'p, bobojon”, dedi Sadaf. (Shukur Xolmirzayev, Tabassum). [Shunqorbek:] Navro'zg'acha itmomig'a yetkursam durust bo'lur edi. [Abdubori:] – So'ngra ne qilursiz? – Bir yumushni boshin tuturg'a ko'shish qilurmen. – Uylanish-chi? Shunqorbek kuldi (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).*

KO'CHMAK Har bir raqib beshtadan (jami o'nta) chuqurchaga navbatma-navbat tosh otib o'ynaladigan, ishtirokchilardan puxta hisob-kitob bilan harakatlanishni talab etadigan xalq o'yini (asosan cho'ponlar o'ynagan). *Biz yozda bu kamarda ham ko'p bo'lardik. Chunki bahorda oshqovoq ekardik. Ichkariga kirib ko'chmak o'ynardik. (Shukur Xolmirzayev, Bibigul. Cho'ponlar qadimdan o'ylab topgan “ko'chmak” boshdan-oyoq chorvador hayotiga moslangan. (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar). Qadimiy cho'ponlar o'yini bo'lgan “ko'chmak”da toshchalar “qo'ylar” deb atalib, agar omad kelib toshchalar ko'paysa, qo'ylar “qo'zilagan” bo'ladi. (G'ozil Rahmon, Kelintosh afsonasi).*

KO'CHMOQ Vafot etmoq, o'lmoq. *Ammo tiliga ko'kayi emas, kibri ko'chib, tomoq qirib, ukasiga yuzlangancha: – Ho'-v, Avaz! Otamiz-ku yoshini yashab, oshini oshab o'tdi. Bu yoshda ko'chganniki to'y! – dedi. (Nurilla Chori, Tashvishi yo'q odamlar).*

L

LAKKI (Xorazm) Maxsus ixcham sopol idish. *Bolalarning besh-oltitasiga bitta lakki qo'yib ketishar, unda bir kapkircha palov bo'lardi, xolos.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

LAKOT Ikkiyuzlamachi. *Xolbo'ta ana shunday kayfiyatda edi: – Bek, bo'riga o'xshab tentib yurganimizdan ko'ra o'sha lakotning jonini jahannamga yo'llamoq darkor edi... (Shoyim Bo'tayev, Qora tuman). Lekin, Abdusamat lakot ikki-uch hafta ko'rpa-to'shak qilib, labiga uchuq toshib, isitmalab yotdi.* (Shoyim Bo'tayev, Shamol o'yini).

LALMIDO'Q q. **poxoldo'q.** – *Menga ko'p aql o'rgatma, – dedi u. – Xohlagan paytimda hovlidan quvib solaman. Bunisi endi lalmido'q edi, lekin Ergash cholning yumshaganini tushunmadi.* (Murod Muhammad Do'st, Bir toychoqning xuni). *Kattalar xo'jako'rsinga lalmido'q urib ketdi, deb o'yladim. Yo'q, ertasi kuni tag'in keldi.* (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

LAPA (Xorazm) Konvert. *Bir kuni akam qo'limga lapa tutqazdi. – Boshim yana og'riyapti, – dedi u peshonasini tirishtirib, – mana shu xatda dorining nomi bor. Darmon opangga oborsang, berib yuboradi!* (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchalar).

LAPPAK Sun'iy yo'ldosh antenasi. *Uzun terak yog'ochini uchiga mahkamlangan ikkita katta mis lappak lopillaydi. – E, bugun kino bo'ladi! – deb iljayishadi kishilar.* (Isajon Sulton, Bo'ri).

LATTATIKAN q. **paxtatikan.** *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochagirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

LACHAK Ayollar boshiga o'raydigan katta oq ro'mol. *Yoqut momo Boshiga oppoq lachagini bejirim qilib o'radi.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

LIKCHO‘P Bir-ikki qarichli qattiq cho‘p yoki novdaga o‘ralgan uvada, paxta. [*Bolaboy*] *Bir bo‘lak uvada bilan **likcho‘p** yasadi.* (Soyim Is‘hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

LAYZON yoki **Layzongul** Ostiga qo‘rg‘oshin quyilgani bois irg‘itib yuborsangiz ham tik turib qolaveradigan qo‘g‘irchoq. – *Shuni manga **layzon** qilib ber, Pahlavon mesh, – dedi u. – O‘lsa, yo‘lning bo‘yiga ko‘mib, go‘riga tuppagini os. Ajabmas, uni topib, ziyorat qilsam.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning sarguzashtlari).

LANG Kasallik, epidemiya. *Bu ofatdan jaf o chekmagan xonadon yo‘q edi hisob, chunki tug‘ilgan chaqaloq beistisno shu **langga** chalinardi va ko‘pincha unga dafkelib bo‘lmasdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). – *Jelvizak essa, ichaging ovzingdan otilguday bo‘b jo‘talganing jo‘talgan. Hamma joqqa **lang** tarqatib, bosh ovriq qilasanlar.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). ...*azim shaharda har taraflama imkoniyat katta, demak, o‘sha yerda samarali davolanib, noma‘lum **langdan** qutuladi, agar loqaydlik tufayli to‘shakka mixlanib qolsa, xorij safari amalga oshmay xonumoni kuyishi mumkin, axir, mablag‘ do‘l emaski, duvillab osmondan yog‘ilsa!..* (Asad Dilmurod, Qo‘ng‘iroq).

LOYPARSILLOQ Loydan ichi po‘k shakl yasab, uni zarb bilan urib ovoz chiqarib o‘ynaladigan bolalar o‘yini. *Yana bir kuni, eshigimiz oldida **loyparsilloq** o‘ynab o‘tirgan edim, guzar tomondan bir to‘da otlig qozoq-o‘ris kelib qoldi.* (Abdulla Qahhor, O‘tmishdan ertaklar).

LOYSUPA Loydan qilingan supa. *Quyosh bosh ko‘targanda odatdagidek Obod kelin **loysupaga** joy tashladi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish). *Hovlimizning o‘rtasida qarib qolgan marvardak tut, uning ostida esa uch-to‘rt kishi davra qurib o‘tirs bo‘ladigan **loysupa** bo‘lardi.* (Muhammad Sharif, Otamakon).

LOYSHANG Loy chaplangan. *Kulrang sur bulutlar ortidan gohida quyosh mo‘ralab qolganda biz iskanalik bo‘z yigitlar endilikda botqoqqa aylana boshlagan **loyshang** ko‘chalardan kirza etiklarda kechib o‘tib, qishloq choyxonasiga yig‘ilardik-da, hammamizning umrimiz o‘zanlariga balo-qazodek bostirib kelayotgan allanechuk noma‘lum va g‘ayritabiyy ofat xususida soatlab muhokama yuritardik.* (Sherzod Komil Xalil,

Talvasa). *Ota-bola terga pishib qoldi. Ikkalasining ham qora-qizil yuzidan suv tomchilay boshladi. Qaqragan lablariga arpasomonning gardi o'tirib, burmalarida loyshang taramlar hosil qildi.* (Anvar Suyunov, Ota va o'g'il).

LOSHAKARRAK Qushqo'nmas. *Onasi bolalariga bugun juqmo, ya'ni g'ilmindi pishiramiz, jar bo'yidan lohakarrak (qush qo'nmas) cho'plaridan terib kelinglar, atala qaynatamiz, desa ensalari qotadi.* (Sobir O'nar, Bolalik bahorlari).

LUKKA Yaxlit. *U qishloq bilan Bireshak dalasi orasidagi balanddan baland, lukka, yaxlit qoyatosh.* (Bahodir Qobul, Ko'klam so'ngidagi jala).

LO'LA Yosh bola, go'dak. *Ot bo'lari qulunligidan belgili, er bo'lari lo'laligidan belgili.* (Maqol).

LO'LABOLISH Cho'zinchoq yostiqliq. – *Chori cho'pon yomondan yomon to'nglanib, yonidagi baxmal lo'labolishdan birini tizzasiga olib, unga o'mrov tirarkan, har bir so'zini salmoqlab-salmoqlab, etni junjikturivchi bir ohangda deydi: – Jondorni deb, endi uli bilan yovlashar ekanmiz-da!* (Normurod Norqobilov, Ena bo'ri). *Elmurod ko'rpachada lo'labolishga boshini qo'rganicha yonlab yotgan onasini ko'rib qo'rqib ketdi.* Fayzulla Salayev, Ota o'rni.

LO'QIMOQ Siltamoq. *Denovdan qishloqqacha mashina bir marta yam lo'qimaydi. Katta yo'ldan uyimizga qarab burildi degandan mashina olib uradi.* (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i). *Kallayam gapmi, men mashina lo'qiganda mashinadan otilib ketayin dedim.* (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i).

M

MADANG 1. Tokning ikki yillik novdasi. *O'zbekiston sharoitlarida kuzda kesilib, novdalari qo'ndoq qilingan holda tuproq yoki barda, poxol bilan yopiladi va erta bahorda ochilib, madang va novdalari ko'tarib bog'lanadi.* (O'zME). **2** Yog'och qulf. *Tol yog'och madang bo'lmas, Begona dadang bo'lmas.* (Maqol).

MAGIZAK (Jizzax) Mayda, kichkina. *Bolaligimda bu joylarga besh-olti magizak bola qo'y haydab kelardig-u do'ppaygan tepaliklar ichra "Yashinmashoq", "Taq-taq" degan o'yinlarimizga sho'ng'ib ketardik.* (Anvar Suyunov, Mangu qo'shiq).

MAK-MAK Bolalar o'yini. *Qizaloqlar beshtosh, mak-mak o'ynab, supa atrofini yalagandek qilib qo'yadilar.* (Bahodir Qobul, O'smirlik). *Shu bois, taraddudlanib qoldim, keyin asfalt yo'lda "mak-mak" o'ynayotgan qizaloqdan o'smoqchilab so'radim: Kimning uyi, bu?* (G'affor Hotam, Taqdir ajoyibotlari).

MALAK q. **manak**. *Boshida jelagi bor, qo'lida malagi bor, oshna soyning tanish ko'piklariga qaramaydi.* (Mirtemir, Tog' ertasi).

MANAK Bo'za quyiladigan idish. *Ahmadqul kech qolgani uchun uch manak, ikki zarangdam olmas, ikki zarangdam olar bo'za ichishga majbur qilindi. Bo'ta aytgancha, "yigit kishi" "ichmayman", demadi. Uch manakni osonlik bilan ichdi.* (G'afur G'ulom, Shum bola). *Siddiq aka o'ttiz-qirq yoshlarda, xushtabiat, qiziqchi kishi edi. Oyog'i bilan kulol charxini tepa-tepa, qo'lidagi loyga turli shakllar berib, tovoq, piyola, xurma, lagan, mo'ndi, manak, tuvak yasar, o'z ishidan o'zi zavqlanib, ashula aytar edi.* (Habibullo Qodiriy, Nurafshon xotiralar).

MANOTLI TAXYA (Xorazm) Girdiga kumush tanga qadalgan do'ppi. *U o'yindan zavqlanib, boshini sal orqaga tashlab kulgan chog'i beliga tushib turgan ikki o'rim sochi to'lg'onib, boshidagi manotli taxyani tushiray-tushiray deydi...* (Kamil Avaz, Sozanda).

MANJASHMOQ (Jizzax) Bahslashmoq, urushmoq. *E attang, G'ayrat aka bilan manjashib, Safarniyoz akaning o'y-bo'yiga alahsiganimda qiz allaqachon oldingi eshikka yetib olgan, tushishga shaylanib turgan ekan, tramvay to'xtashi bilan tushdi-yu ketdi.* (Ahmad A'zam, Qatag'on yili). *Bu voqea ko'p takrorlangani, sal o'tmay yana qaytarilishini bilgani uchun ko'ppak ham, mushuk ham ko'p asabiylashmay, shunchaki yo'liga manjashib turishdi-da, keyin ikkalasi ikki tomondan: mushuk tomdan, ko'ppak ko'chadan ketishdi.* (Ahmad A'zam, Qulf tili). *Saidbovo yana to'xtadi, yana javdiradi, men ham g'alati bo'lib ketdim: nima qiladi nevarasi tengi*

bola bilan **manjashib**, ket degandan keyin ketavermaydimi, hozir bularning quturgan payti bo'lsa... (Ahmad A'zam, Qatag'on yili).

MANG'IMOQ Yo'l olmoq, jo'namoq. *Hajdan qaytayotgan istambullik bir afandi bilan tanishib qoluvdik, unga ergashib bu yoqqa qarab mang'idik.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

MANSHA Manba. "Ijod"ga urg'u berayotganimiz – Mo'minjon portretlar uchun **mansha** o'rnida qahramonning fotosuratidan foydalanardi. (Fayzulla Salaev, Yettinchi bo'rdoqi).

MARDAK (Andijon, Namangan) Makkajo'xorining doni olingan qismi, o'zagi va doni olinmagan makkajo'xori; so'ta. – *Xullasi kalom, o'sha dorini qo'lga olganimni bilaman, eshikning zulfi uzilib, xrom etikka o'xshagan bir gursimos ustimga bostirib kirdi. Mardakdek qotib qoldim.* (Anvar Obidjon, XX asr talonchiligi).

MARJA (Xorazm) Kuchuk. *Meni tilka-pora etib, suyagimni g'ajishga tayyor, yurtning itiga o'xshamas, matla juni osilib qolgan, biznikilar "marja it" deydi, bo'yi bir qarich, soqoli ikki qarich qarovsiz itlar jon-jahdi bilan hurar, arvohtay ozg'in, qip-qizil emchaklarini selkillatib yurgan, qanjiqlar boshqalarining oyog'i ostida qolib ayanchli angillardi.* (Salomat Vafo, Elat).

MARJON (Forish) Maymunjon. *Bu payt Qodirbek ham, Orzugul ham Rayhon chechalariga marjon tergali soyga enib ketishgan edi.* (Mamadali Mahmudov, O'lmas qoyalari).

MARJUMAK Torondoshlar oilasiga mansub o'tsimon o'simliklar turkumi; grechixa. *Ona va qiz qozon-u tovani tengday ishga qo'shishdi – qozonda xonadon a'zolarining sevimli taomi marjumak palov, tovada esa, yo'l uchun qovurdoq tayyorlashga kirishishdi.* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni). *Yakshanba kunlari damlanadigan otaning sevimli taomi marjumak palov bolalar yuragidagi sog'inch olovini biroz pasaytirgandek bo'lardi.* Fayzulla Salayev, Ota o'rni. *Hammayoq marjumakpoya. Marjumak gullarining o'tkir hidi dimog'ini teshib yuborayozdi. Ko'zi tinib ketdi.* (Xvan Sun Von, Jala – koreyschadan Raxshona Ahmedova tarjimasi).

MARQA Elning ulug'i. *Orqali orqasini maqtar mudom, Orqasiz marqasini maqtar mudom.* (O'roz Haydar, Sukut haqqushi).

MARQAD Qabr, maqbara. *Aytishlaricha, Behbudiy qabri “Eshoni shahid” maqbarasi yaqinida bo‘lgan. Bir necha yil davomida uning marqadi e‘tiborda bo‘lib kelgan.* (Poyon Ravshanov, Behbudiyning so‘nggi manzili). *Bir marrasi Samarqand bo‘ldi, bir tomoni Sadr Vaqqos otaning marqadi bo‘ldi.* (Bahodir Qobul, Enayo‘l).

MARSINMOQ Faxrlanmoq. *Men ham ularning siriga sherik bo‘lganimdan marsinib, javoban ko‘z qisaman.* (Erkin A‘zam, Muzqaymoq). *Ulingiz o‘qib, bir stolning egasi bo‘lsa, sizgayam yaxshi-ku, ota, – To‘lanboy qontalash ufqqa jonsarak boqadi. – Marsinib yurasiz keyin! Lekin vaqt ketayapti, mollarni tezroq haydamasak bo‘maydi, ota.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). *Chavandozning marsingisi, yigitlik davrini eslab maqtangisi kelgan, chog‘i, bor gapni o‘zi aytgan.* (Nurilla Chori, Tashvishi yo‘q odamlar). *Abjir va chaqqonligiga marsinib g‘ayrati ichiga sig‘may yurgan davri.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

MARVARTAK Oq mevali tut. *O‘sha kuni Mayram qo‘shmiijaga bir kosani to‘ldirib marvartak tut terib berdi.* (Nodir Normatov, Jazo).

MASIRQAMOQ Zavqlanmoq. *Qog‘anoq, gilagay ichib, Jegda – kebanagin yechib, Cho‘lig‘i chalar sibiziq Masirqab, dunyodan kechib.* (Hol Muhammad Hasan, O‘lan). *Masirqab nay sehridan, Kechar xurning bahridan, Zar bitsa ham zahridan mordan umid qilmagil.* (Hol Muhammad Hasan, Tog‘day tilak tilamay...)

MASKA Uzum navi. *Biz esa olma, olcha, anjir, buvaki, maska va shakarangurga xaridor bo‘lib, paxsa devor ortida fursat poylaymiz.* (Oydin Hojiyeva, Odil bo‘ron bog‘i).

MASKAVAK Tomiridan nish otib chiqib, g‘uj bo‘lib o‘sadigan, bo‘yi to‘piqdan balandroq, kuz oxirida tanasining suvi qochib, qish boshida quvraydigan, dasht va qirlarida o‘sadigan tikonli o‘simlik. ... *Yo‘l labiga yaqin o‘sgan maskavakning quyuyq butalari orasidagi mullato‘rg‘ay polap-onlari sariq tumshuqchalari orasidan bigizday tilini chiqarib uzoq-uzoq yutinadi.* (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il).

MASLIQ Iflos, isqirt, o‘limtik, sassiq. *Harom o‘lgan mol misol ko‘mib tashlaydilar! Sassiq masliq misol ko‘mib tashlaydilar!* (Tog‘ay Murod, Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi). *Mazkur o‘rada odam zot yotibdimi*

yo bir **masliq** yotibdimi – el-yurtning ishi bo‘lmaydi. D o‘zax – ana shu go‘r! (Tog‘ay Murod, Tashvishi yo‘q odamlar). To‘rt-besh odam – hamsoyalar, qo‘shnilar **masliqning** atrofida aylanib turar, afsuslanib, bosh chayqashardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

MASLIQXO‘R O‘laksaxo‘r. Bir gala **masliqxo‘r** g‘ajirlar yulg‘unzor ichida, go‘yo qor supasida yotgan bir kimsani cho‘qib-cho‘qib yer edi. (Shukur Xolmirzayev, Omon ovchining o‘limi).

MASTAK Makiyon kaklik. Ovloqdagi **mastak** nag‘masi ostida mayda-chuyda erta ko‘klam gullari, barra sabza, uvotlarda chiqqan hid-bo‘yi dimog‘yorar yalpizlarni ko‘zlarimizga surmaymizmi? (I.Ismoilov, Meteorit).

MATAL Ertak. – Gunohmi?.. Mayli, aytsam aytay, – dedi buvisi kulumsirab. – Hay, shayton-a, baribir **matal** aytiradigan bo‘lding-a!.. (Norto‘xta Qilich, Hassakash). Bolalar uni oy qo‘rg‘onlagandek o‘rab olgach, shirali ovozi bilan ohangdor qilib, **matalni** boshladi... (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

MATAMOQ Bir-biriga jips qilib bog‘lamoq. G‘o‘talaning tepasidagi lalmi joyda odamlar eshak-otini butaga **matab**, xashak bo‘linishini kutmoqda. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Bolani eshakka mindirib, **matab** qo‘ydilar. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Odamlar bir-biriga deyarli **matalgandek** izma-iz yo‘l tortishardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Eshakka **matalgan** serkaning izidan qo‘y-echkilar sharpadek yo‘lga tushdilar. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

MATAR // MATOR (Allium motor) Aprel o‘rtalaridan may o‘rtalarigacha to‘g‘o‘ngirlarida o‘sadigan, mahalliy aholi undan somsa pishiradigan ko‘p yillik piyoz. Siz totumni **matardan** farq etingiz, Urp turganda chirichni tark etingiz. (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

MATIR RO‘MOL Katta to‘rtburchak ro‘mol. Tom boshlarida boshlariga **matir ro‘mol** o‘rab, ikki bir-uch bir gurung solish bilan ko‘zlari tomosha maydonida. (Komil Avaz, Sozanda).

MATOV Ikki oyoqni juft qilib bog‘lash. Havolar yog‘sin qir, tovga-o. Tuyalar kelsin **matovga-yo**, Tuyani sog‘sam iyadi-yo, Qo‘li qo‘liga tegadi-yo. (Guljahon Mardonova, Nur to‘la uy).

MAXSAR (Carthamnus) Murakkabguldoshlarga mansub bir, ikki va ko‘p yillik o‘tsimon o‘simliklar turkumi, moyli ekin. – *Dada, anov maxsarning orasi siyrak, shu yerda chirmovuq mo‘l.* (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il). *Ota o‘rog‘ini qo‘ltiqlab sariq-pushti gullagan maxsarpoya oralab, maxsar tikonlari ichida bir-bir qadam tashlab paykalga kirib ketdi.* (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il).

MAXSARZOR Maxsar o‘sgan yer. *Ota maxsarzor orasidan bir quchoq ko‘kpichan ko‘tarib chiqadi.* (Anvar Suyunov, Ota va o‘g‘il).

MAYDONBEGI Chavandozlarni izma-iz kuzatib boruvchi hakam. *To‘y oqsoqollari, duganbegilari, maydonbegi solimni belgilabdilar; uloqni pokka tashlaganga – gilam, zulqurs, takiyamat, toy, toyloq.* (To‘ra Sulaymon, Tarki jamoa).

MAYMIL (Xorazm) Maymun. *Bu galgi kino Juman maymil eshigi oldida bo‘lishi kerak ekan.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

MAYRILMOQ Bukchaymoq, qiyshaymoq. *Mayrilgan tanasini yarmini o‘zi, yarmini shamol ko‘tarib ketayotgan O‘rning borishini ko‘rgan borki bir martaga seskandi.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

MAYCHA Mocha. *Maston kampir qilarini qilib, maycha eshakka tars minib, elda mastonligini qilib, eshakning ustida ashulani chingitib yuribdi.* (“Gulruh pari” dostoni).

MAVRID Ma‘raka. *Hurmatlarini qilmoqchi bo‘lsangiz, mavridlarini yaxshilab o‘tkazing, kelgan odamlarni kutib olib, kavushini o‘ngaring.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Uylanadigan hamkasb unga yaqin, ham tengqur yigit edi, mavridlariga aralashib turdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

MASHQALA Muammo. – *Ta‘tilga chiqdim. Bug‘oltir, kassir bilan hisoblashdim. Bo‘stonliqqa – “Buloqli”ga ikki yo‘llanma! Qalay? – Voy, buvasi, yaxshi-ku, biroq uyda shuncha mashqala turib...* (Fayzulla Salayev, To‘lov). *Otamurod san-manlik mashqala ko‘rsa, bir kunlik yo‘ldan aylanib o‘tadi. O‘zining ham bu mojaroni juda ko‘ngli kusab turgani yo‘q.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

MANGTUPROQ Ma‘danli tuproq. *Kamar og‘zidan turib, ov miltiqni yelkasiga tiragancha qoyadagi mumlag‘ay yopishgan mangtuproq parchalarini urib tushirdi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

MELONG (Xorazm) Behush. *O'ris Xorazmda necha kun yursa, boshiga cho'qmor bilan urilgan laqqaday melong yurgan emish, hech o'ziga kelmabdi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

MEROVLANMOQ Dovdiramoq. *Ayol esankiradi, merovlandi – qidiri rib kelgan joyi bu yer emasligiga inonib, begona joyga adashib kirib qolgandek xijolat cheka boshladi...* (Shoyim Bo'tayev, Men, onam va bolam). *Elmurod avval merovlandi, keyin duvva qizardi, so'ngra tuban boqqanicha jilmaydi.* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni). *Terakchalardan biri ichikkan go'dakdek, biri otalarining gunohini bo'yniga olgandek ma'yus, ...biri tomoshatalab yo'lovchidek merovlanib, biri qilich ko'targan askardek ziyrak, ...biri barchani hisob-kitobini qilib kuzatayotgan qattiqqo'l oqsoqoldek ko'rinardi...* (Bahodir Qobul, Oq kamar).

MEROVLIK Jinnilik. *Ramazon hozir ayblanuvchidan ko'ra ko'proq qiziqchiga, o'zini atay merovlikka soladigan sirk masxaraboziga o'xshardi.* (Erkin A'zam). *Anoyining jaydari olmasi. Pochtachi xo'jayinga salom berdi, lekin xo'jayin chindan eshitmadimi yoki jo'rttaga o'zini merovlikka soldimi, ishqilib, salomga javob qaytarmadi.* (Murod Muhammad Do'st, Darvoza yonidagi it). *Bunaqa paytda tengsiz jangga kirishishni istamay, o'zimni merovlikka solib ketaverardim.* (Anvar Odidjon, Ajinasi bor yo'llar). *Ko'lvor ilon ham ertalab xo'rak dardida inidan sudralib chiqqan, o'zini merovlikka solib zarang shoxida sayrayotgan fotmachumchuqqa tashlanish uchun payt poylab yotardi.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a).

MEROVSIRAMOQ q. **merovlanmoq.** – *Ertachi ekkanakan, – dedim men merovsirab, xuddi o'zim yerga urug' qadaganday.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

MEZANA Boloxona. *Darvozaning ustiga randalangan to'rtta xodadan mezana qo'ndirilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

MENGARMOQ Qoyillatmoq. *Bir ishni mengarib qo'ygandek Shirin-qul o'rmon yo'liqadi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). *Sassiq og'zini jon talvasasida patirlayotgan qushga botirgan, o'ljasini ovchiga olib kelib zo'r ishni mengarganday yaloqlangan, yaltoqlangan itga o'xshayman, jo'ra!* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

MIDIMOQ Yopishtirmoq, jipslamoq. – *Buqoqmas bu, – deb nihoyat asosiy gapga o‘tdi Meshpolvon. – Buni tepki deyishadi. Davosi oson: ikkita kulchami, to‘rtta olmami, oltita varaqimi – nimaniki topsang, hisobini juft qilib, egizak tug‘gan xotinning uyiga borasan, qo‘lingdagini berib, dardingni aytasan. Yegan og‘iz uyalar degan gap bor. Xotin hamma ishini tashlab qo‘yib, kallangni po‘saxonaga **midib** yotqizadi, shishgan joyingga yalang oyog‘i bilan yetti marta tepadi. Bir haftadan keyin sen ko‘rmading, men ko‘rmadim bo‘lasan.* (Anvar Obijon, Meshpolvonning janglari).

MIN Nuqson, kamchilik. *Jyg‘ibiyroni chiqqan dadam “birovdan **min** topguncha avval qo‘lingga oyna olgin-da, o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq” deb baqirgancha quloqchakkamga qo‘yvorishiga ham bir baxya qolgan paytlar bo‘lgan, qo‘liga kosov olib, hovlini gir aylantirib quvgan ham.* (Adham Damin, Hayot va o‘lim). – *Shu-u, ne ish etamiz axir, ishlab yetibmiz, – derdi u navbatdagi tekshiruvchi-yu tergovchilarning oldiga tom-tom to‘ldirilgan hujjatlaru qog‘ozlarni zo‘rg‘a ko‘tarib qo‘yar ekan. – Mana hammasini ko‘rishlaringiz mumkin. Bir **mini** yo‘q. Hammasini to‘g‘irlab qo‘yibmiz....* (Shuhrat Matkarim, Ziyod muallim).

MINAZ Fe‘l-atvor. *Minazini buzmay larzakor va jarangdor polapon qushday ohista Yassi bo‘ylab cho‘ng alp singari zaytunzor aro devkor va yovqur she‘r yobonlarida yovshan chechaklarini tergan yozuqli qaysar suluv she‘riyatning tug‘in ko‘tarib Jinday g‘azalxon, tanti shoir Mirtemir kelayotir!..* (G‘afur G‘ulom). *Yolg‘izmerganning onasiga: “Xavotir olmang!.. Kelguningizcha, o‘lim bilan jon talashib turaman. Yengilmayman!” deyishida o‘limni-da bo‘ysundiradigan kishi **minazi** ko‘rinadi.* (Qozoqboy Yo‘ldoshev, Ko‘ngil yuksakliklarida).

MIRMUSHAL Kalamushsimon jonivor. *Mirmushal qayerda yashasa, mo‘miyo ham o‘sha yerda bo‘ladi deyishadi.* (Hamid Alp, Tog‘ elining tabobati).

MIRRIQ Majmag‘il. *Yillarki o‘zgarmas hukumat – g‘irrom, To‘tilar – meshqorin, burgutlar – **mirriq**. Usti yaltirog‘u ichi qaltiroq omi kambag‘allar vatani Mirrix.”* (Fitrat)

MIRZAQUSH Kotibqush. *Laylak, qarg‘a, burgut, **mirzaqush** kabi qushlar zaharli ilonlarni, tovuqlar qoraqurtini yeydi.* (“O‘zME”). *Tog‘lar-*

da ko'chkin tugab, ko'kat tizzaga urgan, og'ochlar tanasiga yugurgan, tog' o'ngurlarida turli-tuman gullar, lolalar yal-yal yonib, **mirzaqush**, tustovuqlar xiromon etib, tovlanib, mashriq tomondagi Hasan-Husan bu go'shaga bir alomat fayz berib, yetti rang, yetti ko'rinishda ko'zni olib, ...yilqichilar jona-jonada "hayt"lab, hay-haylagan kezda Odil polvon keliniga to'y olib bordi. (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

MIXDAY Zo'r. Kino bir soatdan keyin boshlanadi. Qari-qartanglar ham armonda qolmasin, juda **mixday** kino. (Hamid Alp, Zuryod).

MIYANG'I Ming'irlab odamning g'ashiga tegadigan kimsa. Odamzod gapi qo'r yeyishini, atrofdagilarning nozik joyini bilsa, istasa ham o'ng gapini ayta olmay qolar ekan. Bu **miyang'i** kampir esa nevaralarini juda yaxshi ko'radi, chin to'lganda bir toshmasa, jim!.. Hatto o'g'liga ham bir og'iz bir nima demaydi. (Jamila Ergasheva, Qir ustidagi ayol).

MIYIQ Mo'ylov. **Miyiqlari** sabz urgan, do'rdoq lablari iljayib turgan bu yigitning yelkasiga yamoq tushgan, ko'hna etigining poshnasi mayishgan. (Mirkarim Osim, O'tror). Mirzakarimboyning gavdasi kichik, qo'llari ingichka bo'lsa ham, zuvalasi pishiq ko'rinadi. U go'shtdor ham emas, oriq ham emas, kichik, ayyor yuzi xo'rozning tojisiday qip-qizil; oppoq soqoli va **miyiqlari** toza va taralgan... (Oybek, Qutlug' qon). Borsa Azimboyning darbozasi lang ochiq... **Miyig'i** uchib, andak kibrga sari og'ishgan. (Islom Ibodulla, Ajrim).

MIZAGUR Ayyor. Tilyog' Shirin unga (Xamidaga] nafrat bilan tikilarkan: "Keshmiri, dedi ichida g'ijlamachi. inib, **Mizagur!** Ichi to'la fitna-ya". (Mamadali Mahmudov, Qora do'lana).

MODALMOQ Taqalmoq, qadalmoq, tirg'almoq. Tegajoq nar cho'qir modani, Moda yanir: "Chug'urchuqlar bor!" Izg'irinlar kelar **modalib**, Hademay, uyquga ketadi shudgor. (Abdunabi Boyqo'ziyev).

MOHMAK Bolalar o'yini. Endi ular oqsuyak, chillak, oq terakmi-ko'k terak, lanka; qizlar mohmak, chaqimtoosh o'ynamayaptilar. (Sobir O'nar, Bolalik bahorlari). [Mag'firatning] Yurislari, boqishlari ham **mohmak** o'ynab yurgan, ermaktalab tengqurlaridan birmuncha ma'nili, kerak bo'lsa, viqorli edi. (Sobir O'nar, Farishta).

MOLHOVUZ Mol suv ichadigan hovuz. *Besh-oltita oq tovuq molhovuz chetida oyoqlarini suvga tekkizmaslikka tirishib, "fason" ini keltirib suv ichishardi: bo'yinlarini cho'zishib, tumshuqlariga sekin suv olishar, keyin boshlarini osmonga ko'tarib yutishardi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar). *Mahmud dastlab uni ko'rganida yosh bola edi. Ularning qishloqlarida beshta hovuz bo'lardi. Uchtasidan odamlar suv ichardi, biri mol hovuz, biri ot hovuz edi.* (Tohir Malik, Shaytanat).

MOLTIMOQ (Jizzax, Surxondaryo) Quloch otmasdan suzmoq. *Shu palla suvning ko'm-ko'k sathida Oqboy paydo bo'ldi-da, qo'llarini yuqoriga ko'tarib sho'ng'idi. Zum o'tmay o'n qadamlar narida, suvning kamardan chiqayotgan joyida paydo bo'ldi boshi! Keyin bizga qarab moltib, ihrab-ihrab chiqib keldi.* (Shukur Xolmirzayev, Oqtosh). – *Falokat-da, – dedi xotirjam tovushda va Shunqorbekdan so'radi: – Qaysi hovuzg'a shumg'idilaring? – Etakdag'ig'a. – Moltishni bilurmisen? – Yo'q. – Unda chuqur hovuzg'a qandoq shumg'idung? – Bilmasmen. Hulkar botib ketmasa deb qo'rqdim. – Bale, ajoyib o'g'ulsen! Moltishni bilmasang-da chuqur suvdin qo'rqmay shumg'ibsen va qizimni jonini asrabsen, – dedi u va hazil ohangida qo'shib qo'ydi. – Nasib etsa, shul qizimni seng'a berurmen. Olurmisen?* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

MOM Davrani qoyil qoldirish. – *Shu, Bakirboyning Samarqandda o'qiyotgan Jonibek uli kelgan. Yaxshi olishi bor-da. O'tgan yili kelganda Sariosiyoni mom qilib edi.* (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi).

MOMAGULDIR Momaqaldiroq. *To'yinning ustida esa savr bulutlari qismat la'natlagan ship-shiydam tog'-u tosh, yap-yalang'och adirlarga chaqin nayzalarini beayov sanchar, momaguldir silsilasi yer-u zaminni larzaga solardi.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). *Momaguldur surpo qoqar falakda, Halinchak sol, sen ipak kamalakka. Farzand bo'lsang dunyo degan malakka, Shoshil, sen ham ket bahorga aylanib.* (Shafoat Rahmatullo Termiziy, Ozod so'z).

MOMOGULDURAK Momaqaldiroq. *Sukut etma, azizam, gapir, Jimjitlikdan siqilar yurak. (Jimjit bulut ortida axir pinhon bo'lar momoguldurak...)* (Iqbol Mirzo, Sukunat). *Birdan osmonni tilib yuborgan momoguldurak ustma-ust gumburlab, Archalitog'ni zirillatgan.* (O'rin-

boy Usmon, Safo chig'irig'i). *Poyingga yiqilib momoguldurak shart o'qib tashlasa, osmonning she'rin.* (Hol Muhammad Hasan, Bahor – fasl emas...).

MOMOTUGUN Yoshi ulug' momolar to'ylarda kurash yoki ko'pkariga sovrin uchun maxsus tugun tayyorlaydi. Uning ichiga joynamoz, belbog', mahsi yoki shirinlik solib, yaxshi niyat bilan tugib qo'yiladi. *Bakovulning o'ngida, Ro'zimurod polvon so'lida, Qulmat davra aylandi. Zotiga bir momo tugun, ikki kigiz, bir uloq aytili.* (Nurilla Chori, Lo'litopmaslik chol).

MORQA (Xorazm) **1.** Baliqning oppoq bir turi. **2.** Oppoq. *Go'yo shu paytgacha biror marta ham ayol zotini, uning badani, morqa bilaklarni ko'rmaganday.* (Shuhrat Matkarim).

MORTUV (Qo'shrabot) Ajina. *Enam bo'lsa "E, attang, o'shanda mortuvning nonini butun olishim kerak ekan, hozirgidan yuz barobar bilgir bo'lar edim", deb afsuslanardi. Qiziq.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).

MORXO'R Burama shoxli echki, tog' echkilari urug'iga mansub sut emizuvchilar turi. *Bular o'zlari singari shoxdor bug'u galalari, buramashoh kiyiklar, otlar, morxo'rlar tasviri edi.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). *Erkak morxo'rning yoshini shoxlariga qarab aniqlash mumkin.* (Abramatov M.B., Allayarov S.K., Ximayeva Y.B., Morxo'r yoki burama shoxli echki (Sapra Falconeri Wagner, 1839) ning bioekologiyasi).

MONTIMOQ O'rlamoq, yurmoq. – *Qorinni yaxshilab to'ydirish kerak, – dedi Begmat sor, – tog'dan oshishga ko'p kuch kerak. Biror soat dam olinglar, keyin tepaga qarab montiysizlar.* (Qamchinek Kenja, Palaxmon toshlari).

MONG'I (Qash.-Surx.) *Besh yoshdan yoshdan qo'y yoki echki. – Ot-otingdi ovushtir, bosh zotni aytaman: Sovringa Moskov gilami, ming so'm pul, g'unon toy, yonida mong'i sarkasiyam bor.* (Hamid Alp, Zuryod).

MOXOVKOSA (*Hyoscyamus pusillus* L.) Tomatdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 15–30 sm ga yetadigan, poya va barglarida zaharli alkaloidlar bo'lgan bir yillik o'simlik; mingdevona. *Moxovkosa o'z nomidan*

ham ma'lumki, insonlar uchun zaharli, narkotik o'simlikdir. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O'zbekiston o'simliklari).

MOYAK (Qashqadaryo) Tuxum. *Men onamiz berib yubormish bo'xchani olib qarayman: bo'xhada ikkita ko'rpacha bo'ladi. Ikkita non bo'ladi. Mayiz bo'ladi, to'rtta moyak bo'ladi. Men moyaklarni archib-archib yeb olaman.* (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar).

MOYANA (Toshkent) Oylik. *Yordam kassasidan qarz bo'lsa, moyana ustidan ikki marta avans olgan bo'lsa, bu yog'ini qaydan topadi?* (Said Ahmad, Paypoq). *Abdurahmonning ham, Mashaning ham moyanasi zo'r, buning ustiga, bu maxfiy shaharchada ta'minot yaxshiligidan istagan narsalarini sotib olishar...* (Usmon Azim, Sevgi). *Xullasi, oila tirikchiligi xotini Oyparchaning bolalar bog'chasidan oladigan zig'irdekkina moyanasiga bog'lanib qoldi.* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).

MOYBALIQ Karpsimonlar oilasiga mansub, uzunligi 40 sm gacha, vazni 800 g gacha bo'lgan baliq turi. *Agar chashma suvi oqib daryoga qo'shilsa, moybaliqlar ham anhor baliqlariga qo'shib-chatishib mazali shirmoy baliqlar dunyoga keladi.* (G'ozil Rahmon, Shukuhli karvon). *Ko'lga quyiladigan irmoqdan hosil bo'lgan girdobda bir to'da kaftdek moybaliqlar kumushdek tovlanib suzib yurardi.* (Ma'rufjon Yo'ldoshev, Baliq ovida).

MOYLIQ (Xorazm) Ovqatdan so'ng qo'lni artadigan sochiq. – *Ammo ichgandan battar, – Ibodulla qo'lidagi suyakni sopol tovoqqa taraqlatib tashladi. – Shoir... – dedi qo'lni moyliqqa artar ekan.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

MOYTARMOQ Ruhiy ezmoq, qiynamoq. *Moy ichganday yuragimni moytarma! Er kishi ham yo'ldan chiqib qaytarma?* (“Gulnor pari” dostoni). *Yunus pari yuragimni moytarma, Yaxshi odam aytganidan qaytarma?* (“Misqol pari” dostoni).

MOG'OLDOQ (Xorazm) O'mbaloq. **Mog'oldoq otmoq** O'mboloq oshmoq. *Mana-man degan masxarabozlar, mag'oldoq otib, og'zidan o't puflyadigan tomoshagirlar ham o'z hunarlarini ko'rsatadila-ar! Eshitmadim demanglar!* (Komil Avaz, Sozanda). – *Yaqinda Bog'otga, jo'ramnikiga borgan edim, – degan edi qo'shnisi yoz kunlarining birida. – Fer-*

*mer xo 'jaligi bor. Qal'ajiqning qaptalinda. Yarlari qumga tutashib ketgan. Ammo suv degani **mog'oldoq otib** yotibdi. (Shuhrat Matkarim, Xavf).*

MUDGOR Umidvor, intizor. *Kampir shoshib og'ilxonaga bordi. Oxurga yemish ham tashlanmagan. Qoramollar sekingina "bo'-o'" deb qo'yishyapti. Xashak **mudgor** bo'lishayotgani-da bu. Ushbu holat ham Qirg'iy bobomiz uchun bir tarki odat. (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi). Yangasining ko'zlari pirpirab, yonoqlari uchib o'shqirishga tayyorlandi. – Jigit degan shunday bo'lama? Ikki oy bolaning, xotinning ahvolidan xabar omayma? Endi **mudgor** bo'g'ani nesi? (Sobir O'nar, Dunyo shunday tururmu?)*

MUFT [f.-t. **muft** – bepul] Tekin, bepul. *Hay attang, jiyanim, dushman o'p ekan, Sening bergan osh-nonning **muft** ekan... ("Xoldorxon" dostoni).*

MULGIMOQ Mudramoq. *Yengil guvillashdan boshqa hammasi alalaydigan sukunat, lekin kechalari rulda **mulgib** qoladigan odatim yo'q, xuddi bir narsalarni o'ylayotgandek bo'lib, xayolim bo'm-bo'sh, ko'zimni kirtaytirib, qotib ketaveraman. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'uliston-ga safar). O'tirgan joyida **mulgib** borayotganlar Azroilning tavsiyasiga ko'ra piyozga o'tkazildi. (Abduqayum Yo'ldosh, Aybdor). Vaqt allamahall bo'lgan, Ochil buva kampirining hali ham uxlamaganiga hayron bo'ldi va deraza yoniga kelib, tirqishdan ichkariga qaradi. Kampiri chiroq yorug'ida **mulgib-mulgib**, shu yil bahorgi qirqimda qirqilgan qo'y junlarini titib o'tirardi. (Raimqul Suyarov, Farzand). Gurungni tinglayotib **mulgibman**. (Anvar Suyun, Solin yo'li).*

MULLAMISHIQ Lapashang. *Arslondan ko'ppak deganlari chin ekan, bo'lmasa shunday olov erkakdan o'ngirini sudragan bir **mullamishiq** yodgor qolarmidi? (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish). – Qarab tur, baribir seni **mullamishiq** qilib qo'yaman, hali. Unaqa gaplarni kimdan o'rgana qolding erta kundan? – vaysadi Vera Nikitichna. (Odil Abdurahmon, Urush va qismat).*

MULLATO'RG'AY So'fito'rg'ay. *Mullato'rg'ay otim bo'lg'ay, Qanotimda Xatim bo'lg'ay. Bir cho'qim go'shtim Yegan kishim, Yetti eshikka Yetim bo'lg'ay... (Soyim Is'hoq, Sirdan tinch daryo yoxud yog'siz chiroq qissasi). Pichanzorlar orasida bir maromda sayrayotgan **mul-***

*lato'rg'ayning chug'ur-chug'uri adirlar bo'ylab kezadi. G'o'bdintog' etagidagi yoyilmalarda poda boqib yurgan bolakaylarning qiy-chuvi **mul-lato'rg'ay chug'ur-chug'uriga esh bo'lib, olis-olislariga uchadi.** (Anvar Suyunov, Yo'qchi).*

MUMLAG'AY Mumli tog' jinsi. *Shunda Zulfiqor **mumlag'ay** qotgan bir necha mang parchasini topib qaytganida qiya so'qmoqda qor yig'ilib qolgan edi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

MUNDALOQ Piyozni iste'mol qilinadigan o'simlik. *Lolalarning piyozlari, tuyato'ppon, **mundaloq** qazib olinib, andizlarning po'sti archilib o'zagi iste'mol qilingan, xolbovqining tomiri olinib undan foydalanib nisholdalar tayyorlangan va kir yuvilgan.* (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi).

MUNKISLANMOQ Nuqsonli bo'lmoq. *O'sha halokatdan keyin **munkislanib**, biroz soqovlanib qolgan. Yaqin-yaqinlarda ham o'g'illari or qilib tish qo'ydiraylik deb qo'ydirolmadilar.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).

MUNCHOQGUL Shoxalab o'sadigan, barglari ingichka, uzun, sarig' gulli, guli to'kilib, o'rnida mayda gullari o'rnida munchoqdek donlari paydo bo'ladigan dasht o'simligi. *Issiqning zo'ridan sarg'ayib, mo'rtilib turgan **munchoqgullarga** temirtishlar tegishi bilan omonat turgan donlari to'kilib, poyasi g'aramlar orasiga qo'shilib ketadi.* (Anvar Suyunov, Ota va o'g'il).

MURDASHUY Yuvg'uchi. *...Qo'qqis hamma bezovtalangandek bo'lib, Murodillaning qulog'iga kimningdir shivirlab gapirgani chalinib qoldi: ana, **murdasho'y** ham keldi!..* (Norto'xta Qilich, Hassakash). **Betingni murdashuy yuvsin** Qarg'ish so'z. *O'g'ri bunaqa yig'lamaydi. Balani qaqshatding, qaqshamay qolmaysan. **Betingni murdashuy yuvsin.*** (Bahodir Qobul, Ena shamol).

MURDOR BO'LMOQ Rasvo bo'lmoq. *Kutganimizday ko'pkari ham **murdor bo'ldi.** Polvonlarimiz solimgayam, jalovgayam tashlay olishmadi. Boz ustiga tuman juda quyuyq edi.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

MURRIK 1 Burushiq. *Abdal buva ariqdir, Og'zi, burni **murrik**dir.* (Topishmoq. Javobi – g'o'za). *Matti **murrik**ning sozandaligi past, ammo*

*shuhratparastligi baland. (Komil Avaz, Sozanda). 2 Kesak qisib yo lat yeb qiyshaygan qovun. Shu darajada xasis edi-ki, qovun so'rab chaylasiga bosh suqqanlarni quvlab haydardi. Juda ko'ngli iyib ketsa po'lasidanmi, **murrik-tirrig** idanmi berib yuborardi. (Soyim Is'hoq, Osmon ustuni). 3 O'smay qolgan. Rabbim esa biz qishloqdoshlarning aralashuvi bilan bitta **murrik** buzoq berib Shomalikdan qarzini uzdi, bu ishni oxiratga goldirmagani yaxshi bo'ldi lekin, bir yuzingni urishga qo'y, bir yuzingni yarashga, qabilida ish tutishib sinfdoshlar yarashib olishdi. (Is'hoq Ismoilov, Meteorit).*

MURRI Qari. *Bizaga o'xshagan murri kampirlardan nimayam gap chiqardi. (Bahodir Qobul, Bog'dagul).*

MURUTAK Marvartak tut. *Kampirning o'n yashar nevarasi ichketdi bo'lgan. Issik tosh shunga kerak. Lekin **murutak** mevasidan zo'ri yo'q. Kampir aslida Mayram ko'shmijadan ana shu kamchil mevani so'ramoqchi edi. (Nodir Normatov, Jazo).*

MUT (Xorazm) q. **muft.** – *Mut narsa hammaga yoqadi. Lekin **mutda** ham **mut** bor-da. **Mutning** ham qustirmaydiganini yutish kerak. A, ma'qulmi, so'fi buva? (Shuhrat Matkarim, Xavf). Yigit kuldi. Oyliksiz, **mut** bo'lsa ham, har kun bundan uzoqlarga yuborsalar ham tashlab ketmayman, deydi. Bu ne, xayri xudoga bo'lsa ham ishlab yuraveraman, deysizmi deb so'radim. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

MUTAMOQ Qirqib, bo'laklab olmoq, yemirmoq. *Xazinaga tushishi lozim bo'lgan mablag'lardan **mutab** turuvchilar ham faqat yuqoridagilargina emas. (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul). Yurtingga bosib kelgan bosqinchi, seni uzoq muddat **mutab** yotgan yov oxir-oqibat o'z yurtiga ketishga majbur bo'ladi. Lekin sening haqqingni hech qachon qaytarib bermaydi. (O'ktam Hakimali, E'tiqod sultoni). Umr tushdek izsiz, shitob o'tayotir, Umidimni yanchib, **mutab** o'tayotir. (Iqbol Mirzo, Ko'zlaringga termulsaydim).*

MUTTUK (Xorazm) Tol kurtaklari. ***Muttuk** uchlarida barg burchaklari ko'rindi deguncha novdani sindirib oladilar-da, po'stini shilib, undan chambarak yasaydilar va ro'mol ustidan boshlariga o'rnatib oladilar. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

MUX (Toshqo‘rg‘on) Toshidan temir ajratib olishda hosil bo‘lgan qoldiqlar. *Bunga qishloq tepasidagi muazzam g‘or bag‘rida makon topgan juda ko‘p tiriklik izlari (mol suyaklari, chicholalar, sopol idish siniqlari...), quyiroqda saqlanib qolgan mux parchalari ko‘plab tepaliklardagi qabrlar guvohlik beradilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). ...*shu hudud va umuman Toshqo‘rg‘onning atrofida mux – toshdan temir ajratib olinganda ajralib qoladigan chiqit juda ko‘p.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

MUSHUKQUYRUQ (*Alopecurus*) Boshqolari bir gulli, mevasi – gul qipig‘i bilan birga to‘kiladigan donchali, bug‘doydoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, ba‘zan bir yillik o‘simliklar turkumi. *O‘simliklar qoplami ayrim joylarda juda siyrak, boshqa joylarda juda tig‘iz bo‘lishi mumkin. Ozuqabop o‘tlardan to‘ng‘izsirt, rang, ayiqtovon, mushukquyruq, beta-ga, chalov kabi o‘tlar ko‘p o‘sadi.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).

MUSHUKTIRNOQ (*Astragalus corrugatus*) Poyasining uzunligi 5–15 sm, bargi toq, patsimon murakkab, guli binafsha rang, to‘pguli shingilsimon, dukkagining uzunligi 2–4 sm, eni 2–2,5 mm, yoysimon egik, uchi ilgaksimon qayrilgan, mushukning tirnog‘ini eslatadigan, urug‘i 14–20 ta, aprelda gullab, mayda urug‘laydigan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog‘istonning qumli yerlarida hamda tog‘ yonbag‘irlarida tarqalgan dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t. *Cho‘llarning quruq iqlim sharoitida ozuqalik qimmat kamroq – miyalar, astragallar (kiyikpanja, mushuktirnoq, no‘xotak, paxtak, singren, echkiichak), yantoq kabi qo‘y, echki va tuyalar yeydigan dukkakililar ko‘proq tarkalgan.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).

MUSHSHAYMOQ Shumshaymoq. *Nonushtadan keyin men o‘qishga jo‘nayman, Ramazon ko‘cha aylangani chiqadi. Goho shu bo‘yi uch-to‘rt kun ketadi. Bir kuni darsdan kelsam – mushshayib qotgan non kavshab o‘tirgan bo‘ladi. – Qayoqda eding?* (Erkin A‘zam, Anoyining jaydari olmasi). *Qumri xola hamon supachada mushshayib o‘tirardi.* (Latif Mahmudov. Mehr qolur)...

MUG' Otashparast. – *Dor degani bo 'lsin mug'lar bilan-a, Baxtiqaro, dili dog 'lar bilan-a.* (To'ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o'g'li el keza-di).

MUG'ILON Cho'lda o'sadigan tikanli o'simlik ...*qo 'shmozor bo 'lib birlashgan og 'zi ochiq laxatlar labida tikkaygan tikan – xori mug'ilon shoxidan qovjiragan joytanlamas, beor-benomus arpabodiyon chanoqlariga tortilgan, osilgan egasizlik bayrog 'idek pirpirayotgan to 'rlarga til soldi, bir qavat qaynoq havo ustiga kashtasini keltirib surkadi-da, yamlamay yutdi.* (Bahodir Qobul, Ota chiroq).

MUG'JA q. **mo'g'ja.** *Sen zaminda mug'ja ochgan Oftob, oy gulidirsan Atrini kuy bilan sochgan Anbari – sumbulidirsan.* (Hol Muhammad Hasan, Oygul Xalilovaga).

MO'LA 1. Tuproq, toshlarni uyub qilingan belgi. – *Avval, suruvlar yaylovga yoyilganida mo'la qo 'ydim, so 'ng otdan tushib, uzala tushib yotdim.* (Shahodat Ulug', Nomi Habibim). ...*bu tomonda qir ko 'p, tog', adir ko 'p, hammasining ham nomi bor deb o 'ylaysizmi – yo '-o 'q. Shu sabab cho 'pon-cho 'liqlar mol ortidan yurib, bekorchilikda, ermakka atrofidagi toshlardan o 'yib mo'la yasashadi – odam bo 'yidir, past yo balanddir, ish-qilib, bir belgi-da.* (Sobir O'nar, Elboshilar). **2.** *Imorat devorlariga qurilgan tayanch inshoot. Baland mo'lamiz biqiniga bekinib turdim-da, joyimdan jilmay piq-piq etib yig 'lardim.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

MO'LATOSH Katta tosh, xarsang. *O 'tdi-yu ro 'paradagi mo'latoshda savatday hurpayib turgan qoraga ko 'zi tushdi.* (G'ozzi Rahmon, Mo'minjon).

MO'LTOSHA Bo'sh-bayov. *Chunki Sherali indamas, jur 'atsiz bir mo'ltosha edi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

MO'MIQ 1. Uzun xoda. *Keng hovlining qoq o 'rtasiga ikkita mo'miq ko 'milib, ularga mis cho 'zim ulangan-da, ushbu moslamalardagi iliqli kallakunjalar mash'al qilib yoqishgan.* (Mannop Egamberdiyev, Sariq ajdar hamlası). **2.** *Biron belgi sifatida yo 'l cheti yoki maydonga ko 'mib o 'rnatiladigan yog'och ustun. – Bas endi, lo 'lijonlar, maqtozni to 'xtatin-*

glar, – dedi u **mo'miqdek** g'o'dayib. – Bular nima bo'пти? (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).

MO'NTALOQ q. **mundaloq**. – O'v, bola, qulay joy go'rda bo'ladi. Tutam-tutam oylik olsang. Keti bir chiroq yog' eltmagan odam ana shunaqa u shoxgamas bu shoxga sakrab yuradi. Tekin **mo'ntaloq** bir joyda qarab yotibdimi? (Ma'mura Zohidova, Boychechak).

MO'RCHA Chumoli. *Qo'shning ko'ngli yumshab, itga achinganini aytdi va "mashoyixlar aytibdiki, Ka'baga o't qo'yib, butga cho'qin, lekin mo'rchani og'ritmagil, ha, shunaqa bo'ladi-da", dedi.* (Shukur Xolmirzayev, Hayot abadiy). *Qudratdan ayri etsang pahlavonni, Mo'rchadek sudray olmas yirik donni.* (O'roz Haydar, Sukut haqqushi). *Yo'rg'alaysan, turasan qushday, Izlaringni o'par mo'rchalar.* (Alibek Anvari, Haydali).

MO'CHCHI Ajoyib, zo'r. *Otizda bir xirrik uzdirib, saylab-saylab, mo'chchilarini suvga tashlatib qo'ygan ekan, borgandan bir gurvak so'yirdi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

MO'G'JA (Qashqadaryo) G'uncha. *Qo'zigullar mo'g'jasi musichalar sirdoshim, Boychechak kosasiga tomgan to'rg'ay ko'z yoshim.* (Holmuhammad Hasan, Navro'z).

MO'G'JALAMOQ Kurtaklamoq. *Vatan – sof, pokiza, beg'ubor umid – ruhimda mo'g'jalab barg yozgan dunyo.* (Ikrom Otamurod). *Talpinaman har lahza, har zum, sog'inch mo'g'jalagan visolga.* (Ikrom Otamurod).

N

NAPRAMACH Gilamdan qilinadigan sandiq. *Oysifat boyvuchcha bir talay ovsinlari, qayinsingil-u ovuldoshlari bilan napramach, bo'g'jama, qurlar, oynaxalta, qoshiqlov, tuzliq singari buyumlarni qo'ldan chiqardi. Qancha gilam, hasali po'stak, takyamatlarni aytmaysizmi.* (Xo'jamurod Toshtemirov, O'tov). – Men, men... – *Ayol turolmadi. Eshniyoz uni kigizga qo'shib ko'tarib, kapaga olib kirdi. Keyin napramachga suyab o'tqazib qo'ydi.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati).

NARRASHER Qo‘rqmas, dovyurak. *Hechkim uni vaqti kelib bo‘z bolalarning ko‘kayini kesadi, ne bir narrasherlarni ortidan ergashtiradi deb o‘ylamagan.* (Hamid Elxon, Maynagul).

NASOQ 1. Isnod. – *Ena deyman, mening jurish-turishim sizlarga malol kelyaptima? Nomus qilyapsizlarma? Yo sizlarga nasog keltiryapmanma?* (To‘ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). *Orsizlar joy tiklagan qirlik, jarliklarga do‘nar bir sinat, Qalbni pastga urish – ko‘rgilik, qalbgaga nasog tushirish – la‘nat!* (Ikrom Otamurod, Xaritaga tushmagan joy). *Gapni nimaga olib kelyapsiz? Qizingiz yuradi deb betimga soldingiz, mayli, o‘zimning bolam, nasog‘i ham o‘zinniki, deb yutib yubordim.* (Ahmad A‘zam, O‘zi uylanmagan sovchi). *Lenin ordeni olgan deyishardi, ko‘p ko‘ramiz albatta, kostyum-shim, galstukda qirrali yurardi, shu kishining qizi do‘xtirlikdek zo‘r o‘qishga kirgan, lekin o‘zi bilan birga o‘qigan xora-zmlik yigit bilan topishib, otasini juda nasogqaga qo‘ygan.* (Ahmad A‘zam, Quroq). **2.** Malomat. [Tegirmonchi:] – *Burgaga achchiq qilib, ko‘rpaga o‘t qo‘yish yaramaydi. Bo‘lar ish bo‘lgan, bo‘yog‘i singan. Ikki o‘rtada Hoji A‘lo qizining nasog‘iga qolib, kuyib kul bo‘lmasin.* (Mamadali Mahmudov, O‘lmas qoyalar).

NAVDAM Yosh. *Birinchi bo‘b nomi chiqqan sen bo‘lding, Ajdodlar chirog‘ing yoqqan sen bo‘lding. Navdam ketib yoshim to‘kkan sen bo‘lding, Navdam bo‘lgan vaqti toring uzildi.* (Hamid Alp, Tog‘ elining tabobati).

NIMJO‘SH Mayin. *Tashqaridagi nimjo‘sh va sokin rutubat ularning ham ruhiyatiga singgandek edi.* (Anvar Suyunov, Majlisboshi).

NIMKALA Kuchsiz, bequvvat. *Ot nimkala, yigit bo‘lsa kuchi kam, To‘daning ichida halol qiladi (“Bulbul taronalari”) Qilichini nimkalaroq siltasa, Qattiq siltaganday kesib boradi. (“Bulbul taronalari”). – Anovi bizga berilayotgan qora sigir bor-ku, shuning suti nimkalaroq-da. Dadasiyam, bolalariyam oq oshni yaxshi ko‘rishadi.* (Is‘hoq Ismoilov, Ukamning xati).

NIMKALASOZ Istar-istamas. *Uyat bo‘lsa, gapirmaydi Asaloy, Bu gap yoqsa nimkalasoz kuladi.* (“Yusuf va Ahmad” dostoni).

NISPAK Tog‘ giyohi. *Tog‘ qo‘rqinchli. Nispak* yoki bolamchalar bo‘ri bo‘lib ko‘rinadi. *Qo‘shiqni baralla qo‘yib, hakkalab yo‘l olayapman.* (Isak Sattorov, Devona tabib).

NISHAKI Undirilgan bug‘doy. *Bilagi baquvvat nishakini uxurda tuyib, elakdan o‘tkazadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

NISHLAMOQ Nish urmoq. *Yo‘l-yo‘lakay anchadan beri ustara tegmay nishlagan soqolini silay-silay bir kular, bir to‘rsayar edi.* (Asad Dilmurod, Kunsuluv). *Bo‘zqirlarda maysalar nishlab, ilk bahor rangini ola boshladi.* (Nurali Qobul, Kechikkan turnalar).

NON (Toshqo‘rg‘on) Azador kishilarni chaqirib qur‘on tilovat qilish udumi. *Joriy bo‘lgan taomil – azadorlarni yaqin kishilar xonadoniga taklif qilishi bo‘yicha Umrboqi tog‘a hammani nonga aytdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

NON GASHTAK Tandirdan chiqqan nonni muzday suvga bo‘ktirib yeyish. *O, non gashtak tanovul qilayotganingda ko‘zlaring shivirlaydi, nigohlaring cho‘g‘lanadi.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

NONJIYDA Jiydagullilar oilasiga mansub, bo‘yi 3–4 m ga yetadigan, mevasi sariq, oltisimon cho‘ziq, dumaloq danakli jiyda turi. *Biz yetim-yesir va qashshoqlar tirikchiligi uchun tabiatning o‘zi non-osh o‘rniga sigir-u echki sutidan boshqa yana ko‘plab rizq yaratib qo‘ygan ekan. Bular o‘rik, olma, behi, yong‘oq, uzum, nonjiyda, qarg‘ajiyda, hattoki.. tut daraxtlari.* (Ohunjon Hakim, Cho‘chqa mingan chavandozlar).

NONPALLA q. **nonpalov.** *Dunyoda yalma, umoch, nonpalla, yovg‘on sho‘rva, piyoz va pomidorga un aralashtirilib, qaymoqda qovurilgan bulamiq singari taomlar ham borligini o‘sha “begona yurtlar”da ko‘rib bilganman.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). *Meshpolvon ishni maydalab o‘tirmadi, tog‘oradagi qatiqqa sharbat-u qaymoq, murabbo-yu sarimsoq, mastava-yu nonpalla, yalma-yu atala, sho‘rkaram-u holva, qalampir-u tuppini aralashtirib, go‘shetni bulab uraverdi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). *Enamga nonpalla yedirib o‘tirgan onamdan ohista so‘rayman: – Opa, qor qachon yog‘di? (Husniniso Ahmedova, Laylakqor, azizim...).*

NONPALOV Qotgan nondan tayyorlanadigan ovqat turi. *Lekin enam to'yib yegani qo'ymaydi. Non so'rasak, bir burdagina beradi. Ba'zan nonpalov pishiradi. Nonpalovga sabzi ham qo'shadi, sabzili nonpalovni men yomon ko'raman, faqat nonlarini terib yeyman.* (Isajon Sulton, Qismat).

NONG'O'LA O'choqdan uzilgan issiq nonning qatiga sariyog' tiqib, ezib tayyorlanadigan taom. *Ish tugagach, ikki hamsoya nong'o'la bilan tamaddi qilishdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

NORIZALAM (navro'zi olam) Boychechakka o'xshash, piyozi undan kattaroq tog' giyohi. *Ayniqsa, norizalam ko'zlargacha to'tiyo edi, uni qaynatib, ozgina un qo'shsa yana yaxshi, ichsa, jonga mador bo'ladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

NORPO'S (Xorazm) Quritilgan anor po'sti, teriga rang berish uchun ishlatiladi. *U vaqtlarda norpo's degan so'zning ma'nosini faqat men emas, mendan kattalar ham tushunavermas ekan, chamamda.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

NOX (Xorazm) Ip. – *Innadan nox o'tkazib berib tursang bo'gani, – deya, xotinini rag'batlantirdi.* (Komil Avaz, Sozanda).

NOXUNO (Jizzax) Uloqchi otlarda uchraydigan kasallik. – *Buning noxuno bo'lgan-ov! – dedi Qurbon bobo egarga joylashib o'tirgach, Hamid akaga. – Burni bejo pirqillayapti. Qo'noqqa tushganda eslat, ko'rib qo'yaman.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

NOVSHAKAR Shakarqamish. *Kichkina chorbog' ichida o'zi bitta novshakar.* (“Shoda-shoda marvarid”).

NOYMIT (Xorazm) [noumid so'zidan] Odatda yosh bolalarni shunday deb erkalashadi. – *Oyog'ingni to'g'ri bosib yursang bo'miymo, noymit, etikni qiyshaytirib tashabsan, dedi [Amat kalta].* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Shu... har kun muni shamollatish uchun olib chiqaman, dedi noymit, – chol kuldi. – Keyin gaplashib qoldik.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

NOZBO'Y Rayhon. *Shu payt shabada esib, uy oldini to'sib turgan murch rayhon-u nozbo'ydan xushbo'y hid taraldi.* (Nodir Normatov, Jazo).

NOZIK Liboslarga qadaladigan mayda munchoqsimon bezak, ya'ni, biser. *Mana, qo'shni kelinchaklarning havasini keltirgan, yoqa, o'miz,*

yeng va etaklariga oltin rang **nozik** qadalgan ko'ylagi. (Risolat Haydarova, Daraxt meva tugganda).

NUQRA Kumush. *Quyosh nurlarida quyiga intilgan zumrad buloqlar mis ko'zaga tortilgan nuqra naqshdek yaltirab ko'rinadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

NUQULI (Xorazm) Ertapishar o'rik navi. *Bizning va Eltazor bobomning uylari orasida ertapishar nuquli o'rigi bo'lar edi ularning.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

NO'XATAK Burchoqdoshlar (dukkakdoshlar) oilasiga mansub, cho'l, adirda o'sadigan yem-xashakbop bir yillik o't. *Tog' chumchuq shuvoqqa chirmashib o'sgan no'xatak donini cho'qib titkilagan. Kaltakesak xarsang tagidan chiqib, qumoq tuproqda ag'nagan.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). *Cho'gdek lolaqizg'aldoqlar, oltindek tovlanuvchi qo'zigullar, nofarmon chuchmomo, nofarmon no'xatak, chitir gullari, yovvoyi shivit, sariq gulsapsar, isparak gullari barq urib o'sib yotgan qirning yonbag'rida bir suruv qo'zili qo'ylar o'tlab yuribdi.* (Jo'ra Yo'lbarsov, Yulduzlar mangu porlaydi).

0

OBBOZ [*f.-t.* obboz – suvchi, g'avvos] (Buxoro) Sho'ng'ish. *Bino-barin, bir zamonlar happozi – obboziga o'ch yosh-yalanglarni bag'rida benihoya, beminnat yayratib-yashnatgan ro'dimizning Pirmas atalganligi ham ayni haqiqatga yaqindir.* (Norto'xta Qilich, Ibrat).

OBJO'SHI Qaynagan suvga solib tayyorlangan mayiz. *...yong'oq ustidan bodom, pista ustidan rusta, mayiz ustidan oftobi, uning ustidan objo'shi miska mayiz; sho'rva ustiga polov, choy ustiga shirchoy, uning ustiga sarimoy, ziyofat ustiga ziyofat tortayotir, ortganini opketayotir, daladagi qizlar yeb ketayotir, ko'rgan qizlar "ha senimi", deb ketayotir.* ("Ravshan").

OBIKOR Sanoati rivojlangan. *Bu makondan obikor joylarga majburan yoki ixtiyoriy ko'chib ketganlar hovlisiga devor solib, darvozadan kirib-chiqib, sho'rvasiga kartoshka, sabzi solsa-solayotgandir, buyo-*

qdagilar hamon ota-bobolari kabi devor-darmiyonsiz past-baland uylarda orqasidan teshik-tuynuk ochib, yashab keladi. (G‘ozi Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida).

OBOQ Hibsxona. *Shu bolaning dastidan, Oltoy yotdim oboqda.* (O‘zbek xalq qo‘shiqlari).

OBOYLAMOQ Ehtiyot bo‘lmoq. – *Zaharni sepishda oboyla - u yer-bu yeringg‘a tekkurmag‘il, bildurib-da qo‘ymag‘il. Ne qilsang qil – oyoqini upa ustig‘a bostirg‘il. Unda o‘zgarish bo‘lsa, senda o‘zungni navqoslong‘ong‘a ol. Qolg‘on yumushlarni so‘g‘un so‘zlashurmiz.* (Soyim Is‘hoqov, Qabrdan chiqqan qul).

OBRAV (Jizzax) Mahalla, guzar. *Marjonning enasi Jizzax bilan Zomin obravida tilga tushgan chevarlardan edi.* (To‘ra Sulaymon, Chimildiqa kirgan chol).

ODOSH (Jizzax) Tamom. *Uyga yetib borgunimcha bir do‘ppi olmurudni yeb odosh qilardim. O‘sha o‘tgan kunlar menga tushdek ko‘rinardi.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

ODIQQAN (Xorazm) Taniqli, nomdor. *To‘y sozandasi ham odiyqan xalfa, ko‘zlari ojiz Dilash qoriy, yonidagi sherigi avvalari ayollar bazmlarida dovrug‘li raqqosa bo‘lgan...* (Komil Avaz, Sozanda).

OFTOBI Oftobda quritilgan mayiz. *...yong‘oq ustidan bodom, pista ustidan rusta, mayiz ustidan oftobi, uning ustidan objo‘shi miska mayiz; sho‘rva ustiga polov, choy ustiga shirchoy, uning ustiga sarimoy, ziyofat ustiga ziyofat tortayotir, ortganini opketayotir, daladagi qizlar yeb ketayotir, ko‘rgan qizlar “ha senimi”, deb ketayotir.* (“Ravshan”).

OJUD (Megacarpaea orbiculata) (“Dovjut”ning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli) *q. dovjut. Olg‘i demang, ojud demang bizni, uch oy boqamiz sizni.* (Maqol). *Tog‘larga chiqqanlarida ojud (katta sabziday, tomirlari xushbo‘y, xushta‘m o‘simlik bo‘lib, uning tomirini xuddi lavlagini pishirganday pishirib yeydilar. Ilgarilari ocharchilik bo‘lganda xalq shuni yeb tirikchilik o‘tkazgan), olg‘i (tomirida xuddi kartoshkaga o‘xshagan tugunaklari bo‘ladi, uni sutda pishiradilar) degan o‘simliklarni ham teradilar.* (Mamamtqul Jo‘rayev, Navro‘z qo‘shiqlari). *Non taqchil paytlari ojud o‘simligining ildizini lavlagi singari damlab, keyin qatiqqa*

belab yeyishni ham onamizdan o'rganganmiz. (Akram Aminov, Turkona choylar).

OLABUTA Sho'radoshlarga mansub bir yillik o'tsimon yoki yarim buta o'simliklar turkumi. *Bo'rlitov, Qirqqiz qal'asi etaklari, qumliklar bag'ridagi qo'tontumshuq, tuyasingir, chitir, qizg'aldoq, ko'knorqizg'aldoq, yovvoyi kandir, qo'zitikan, mingbosh, **olabuta**, teresken, sarisazan, tuyaqorin, oqsor, cherkez, quyonsuyak, quyonyung, baliqko'z, chog'on, bo'zang, biyurg'un va boshqa yuzlab o'simliklarning xosiyati bir yaratganga-yu, bir boyaqish Narsavga ayon. (Yangiboy Qo'chqorov, Etikdo'zning elchisi).*

OLAPAYCHA Oyoqlari ola-bula. *Birodarlar, jiyron – malla ot bo'ladi. Oyog'i **olapaycha**. (Ayrimlari peshonasida qashqasida bo'ladi). Bunisida yo'q bo'ldi. (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). Daralarda **olapaycha** Toylashini kuylayin. (Shodmonqul Salom). Shu chopishda yakkamix qoziqda qantarig'lik turgan **olapaycha** samaniga yetdi-da, no'xtani ot boshidan siyirib, yoldan mahkam ushlagancha, sakrab mindi. Bir zumda uning ortidan yengil to'zon ko'tarilib, hamma hangu mang bo'lganicha, og'zini ochib qoldi. (P.Ravshanov, R.O'roqov, Ajdodlarimiz qadri).*

OLAQANOT Yovvoyi o'rdak. *Tuni bilan uxlamay tomma-tom chopib, chumchuq, **olaqanot**, zag'izg'on – duch kelgan qushni tutib kelaverganlarning sanog'iga yetmaysiz. Hech ilojini topmagani bobosi kunchivoqda mudrab o'tirib tutib bergan musichaga bo'yoq chaplab chiqqan. (Muhammad Sharif, Qushlar bayrami).*

OLAXOMMA Xorazm qovun turi. *Quyosh tushmasligi uchun ustilariga bo'z matolar yopilgan qator rastalardagi Patrakning shirmoyi partirlari, Yangariqning tilyorar gurvaklari, **olaxommalari**, Pishkanik, Qiyotning anorlari-yu Sayotning shappotday-shappotday anjirlari, ...sarxil meva-chevalardan taralayotgan turfa iforlardan odamning boshi aylanadi. (Komil Avaz, Sozanda). Bozor darvozasi yoniga ikki yuk mashinasi kelib to'xtadi. Bittasidan eng avvalo bir paytlari mening onam ipak qurti boqqanida ustiga so'kchak o'rnatadigan yog'och xarilarni tushirishdi. Keyin Xorazmning "**olaxomma**" navli qovunlarini ehtiyotkorlik bilan*

qo'lma-qo'l olib o'sha xarilarga ilishdi. (Yangiboy Qo'chqorov, Xorazmning olmos cho'qqisi).

OLISH Kurash. – *Qulmat-ay! – dedi. – Qo'shxonalarga bor-da, mehmonlarga xabar ber! Olish boshlandi, de! Chop, zuvillab borib, zuvillab kel!* (Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). *Voyaga yetganda esa kurash (olish), ko'pkari, chavgon, ot chopish va hokazolarda ishtirok etishgan.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

OLMA Kekirdakning yutinganda harakatlanadigan bo'rtig'i: qushtomoq. *Ayoli esa uning tomog'ini, shishgan bo'rtiq olmasini siladi, shunda halqumi biroz yumshab, yutinishi osonlashdi, shundagina gap nimadaligini angladi.* (Nodir Normatov, Olma daraxti).

OLMOSO'T (Ranunculus severtzovii Rgl.) Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, cho'l, adirda o'sadigan, dorivor ko'p yillik o't. *Yana dadam bizga zaharli "olmoso't"ni ko'rsatdilar, agar qo'y-echkilar yesa, shu zahotiyoq o'lar ekan.* (G'ofur Jo'rayev, Yuring, tog'ga chiqaylik!)

OLMOVUT Zotli ot. *Tog'am qo'sh olmovut ot qo'shilgan, yarqiragan, yumshoq izvoshda yuradi. Bizda izvoshchik yo'q, Qo'qon aravamiz bor, xolos. Ammo dadam ko'pincha piyoda yo velosipedda yuradi.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening). *Yiltiragan, bir-biridan go'zal qo'sh olmovut otlar yengil yurib ketishdi. Fayton ko'zdan yo'qolguncha, ko'chada tik qotib turgan Eshonxon ichkariga kirdi.* (Oybek, Ulug' yo'l). *Olmovut qushday uchar to'p-to'p olmovut, burgutlarday solishar chovut.* (Mirtemir, Chavandoz).

OLMURUD // OLMURUT Nok. *Ular cho'qqiga chiqib bordilar. Cho'qqining usti keng maydon, bu yerda olma, olmurut va pistalar changal bo'lib o'sib yotar edi. Oyoq ostida kech bahorning qalamqosh gullari.* (Shukur Xolmirzayev, Jarga uchgan odam). *Deyarli har kuni maktabdan qaytish chog'imda yo'l-yo'lakay momonikiga kirib, do'ppimni olmurudga to'ldirib chiqardim.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

OLOMONTO'YDI Uzum navi. *Olomonto'ydi degan donasi naq olxo'riday keladigan uzumlar kunchiqar tarafda qad rostlab turardi. Bu toklar ko'p emasdi.* (P.Ravshanov, Birodarim).

OLQINDI Sovun qoldig‘i. Sovun pishib bo‘lgach, buvim uni katta shohkosalarga taqsimlab qo‘yardi. Oppoq, qattiq sovun tayyor bo‘ladi. Har qanday ishga shunday epchil, shunday usta edi, buvim. U sovunni kichkina, o‘rtacha kosalarga quymas edi, soni oshsa, ishlatilganda, **olqindisi**-da ko‘payar emish. Lekin buvim bizlarga sovunni piyolalarga quyib berar va “Dastro ‘mol yuvasizlar”, der edi kulib. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

OLVIRAMOQ O‘zini yo‘qotmoq, garangsimoq. [Onasi Qamarsultonga] Nega **olvirab** qolding? Gapir! (Komil Avaz, Sozanda). Bu ne **olvirab** yotibsiz? – dedi endi muallima negadir qo‘rs ovozd. – Ertadan goldirmay olib beraman dedim-ku! Boljon sinfdan chiqib ketar ekan Sali ma uning izidan qarab qoldi. (Shuhrat Matkarim, Jannat mevasi).

OLVOLI Olcha. – Tushimga Shamsi aka kiribdi, – dedi xafaliginiyam, xursandliginiyam bilib bo‘lmaydigan parishonlik bilan. – **Olvoli** ostidagi chorpoyasida gurunglashib o‘tiribmiz, emish. Ko‘p xudarov odam edi, qadriga chilig‘iy yetmabmiz... (Abdusaid Ko‘chimov, Kamtarlikning baland cho‘qqisi). **Olvoli** nordon, tatiganda tukungni tikka qiladi, u no‘xotdan kattaroq, qip-qizil meva. Adabiy tilda olcha deyiladi, biz esa shevada **olvoli**, deymiz. Turmush ham **olvolimikin**, deyman-da, gohi yoqimli, ko‘ngil tusaydi, gohi esa nordon... Chidasang – yashaysan... Ertalabki janjalimiz yodimga tushdi-yu, Sardor akamni kechirib yubordim. Bu turmush: achchig‘i bor, chuchugi bor... (Matluba Ulkanboyeva, Olvoli). Abbasxon indamay hovliga kirdi. Otini **olvoli** tanasiga bog‘ladi. (Ma‘rifat Aliyeva, Ibn Sino).

OLG‘I (Korolkovia severtzovii Rgl.) Piyozguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 20–60 sm keladigan, piyozi sharsimon ko‘p yillik o‘simlik. **Olg‘i** demang, ojud demang bizni, uch oy boqamiz sizni. (Maqol). Tog‘larga chiqqanlarida ojud (katta sabziday, tomirlari xushbo‘y, xushta‘m o‘simlik bo‘lib, uning tomirini xuddi lavlagini pishirganday pishirib yeydilar. Ilgarilari ocharchilik bo‘lganda xalq shuni yeb tirikchilik o‘tkazgan), **olg‘i** (tomirida xuddi kartoshkaga o‘xshagan tugunaklari bo‘ladi, uni sutda pishiradilar) degan o‘simliklarni ham teradilar. (Mamamtqul Jo‘rayev, Navro‘z qo‘shiqdari). **Olg‘i** adir va tog‘ mintaqalarining o‘rta qismigacha

bo'lgan loy tuproqli yon bag'irliklarda tarqalgan. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O'zbekiston o'simliklari).

ONA QARZ Asosiy qarz. *Bechora dehqon shuncha yil paxta berib, uying kuygur ona qarz – o'n tillaning hali ham kamaymaganiga hayron bo'lar edi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

ONASOP (Surxondaryo) Chillak o'yinida kichik tayoq (bolasop) ni uradigan katta tayoq. *Chillak, ya'ni onasop bilan bolasop olib yo'ng'ichqapoyaga yo'rtaman. Rahmatlarning devori yoniga borib, bukri yong'oqning tanasiga onasop bilan bir-ikki uraman.* (Shukur Xolmirzayev, Chillak). *Bolalar birin-ketin bolasopni onasop bilan urib osmonga otadilar.* (Ibrohim Sodiqov, Alpomishning bolaligi).

ONACHO'P q. **onasop.** *Uyga vaqtida kirmagan bolani onacho'p bilan mana bunday quvishgan.* (Ibrohim Sodiqov, Alpomishning bolaligi).

OPA Ona. **Opam** o'n bitta tug'gan. *Shundan sakkizimiz hayot – besh qiz, uch o'g'il.* (Norto'xta Qilich, Qor yoqqan kecha).

OPIKA Opa. **Opikam** shu yil o'zimizdagi Rus tili institutini tugatib bordi. *Hozir bir bolasi bilan uyda o'tiribdi.* (Norto'xta Qilich, Qor yog'gan kecha). – *Mening judayam mehribon, judayam sodda bir Momom bor; – dedi. – Momom har ikki gapining birida, opikang to'kkan obro'yimizni sen ko'tarib berishing kerak, otang baxtiqatti ko'cha-ko'yda bosh ko'tarib yurolmay, otizdan beri kelolmaydigan bo'lib qoldi: biz sening tezroq o'qishni tugatib qaytishingni kutib yotibmiz, deydi.* (Norto'xta Qilich, Tantana).

OQDALA Hosil yig'ib olingan dala. **Oqdaladan** terilgan mashoq, somon yig'gan-terganniki. (Bahodir Qobul, Oqdala).

OQDORI Itkuchala. *Sumbulgiyohni, oqdori (itkuchala)ni kimdir ming dardga davo deb e'lon qildimi, ularniyam kovla-kovla qilib quritib yuborishdi.* (G'ozil Rahmon, Tazarru). *Andiz, tog'dori, oqdori, oqchayir, qontepar, do'lana, yovvoyi bodom... xullas toshlar orasida nish urib turgan neki noyob giyoh, buta bor, omon qo'ymaydi.* (Is'hoq Ismoilov, Meteorit).

OQJOL 1 Qobon. 2. Insofsiz qariya. *Mehr-oqibat, hamiyatni biy oqjoldin kutmagil, Ichi qarodin qaro, lek tili boldin kutmagil.* (To'ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi). – *Buvam sizga biror joyga*

boryapman demaganmidi? – qaynonaning gapini bo‘ldi kelin. – Yo‘q-da! – qalqib ketdi kampir. – Uying kuygur oqjol shu sovuqda qayoqda yurgan ekan? Bir og‘izgina aytib ketsa bo‘lardi-ku? (Xoliyor Safarov, Boringizga shukur).

OQIQ Oqish natijasida hosil bo‘lgan shakl. *Bu xonaning bosh tarafida xuddi teatr sahnasiga o‘xshagan qismi bor bo‘lib, xuddi uning ikki yoni parda tortilgandek yupqa mineral oqiqlardan tuzilgan.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *G‘or ichidan o‘rtoqlarning ko‘rib chiqqan va oqiq shaklda paydo bo‘lgan mineral massalar g‘or ichida qanday hosil bo‘lgan va qanday bo‘lib tuzilgan degan savolga javob berishga hollari qolmay uyquga ketgan bo‘lsalar ham, bu tabiiy hodisani bilmoq uchun qishning sovuq kunlarida, tomning tarnovidan oqqan suv muzlab uzun bo‘lib osilib tushganini eslashgina kifoya qiladi. Qor ichida ikki o‘rtoq ko‘rgan ohaklar va boshidan suv qo‘yib o‘tirgan qiz va boshqa shakllar hammasi oqiqdan hosil bo‘lgan.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

OQMIYA (*Vexibia alopecuroides* (L.) jakov) Dukkakdoshlar oilasiga mansub ildiz bachkili, tik poyali, gullari sarg‘ish shoda to‘pgulga yig‘ilgan ko‘p yillik begona o‘t. *Miyalar (Glycyrrhisa L) – ko‘pyillik, yo‘g‘on ildizpoyali o‘tsimon o‘simlik. Uning qizil miya, oqmiya va achchiqmiya kabi turlari uchraydi.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).

OQPARPI (*Aconitum talassicum* M. Pop.) Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, tugunak ildizli ko‘p yillik o‘t. **Oqparpi** Toshkent, Samarqand viloyatlaridagi tog‘ mintaqasining toshli yonbag‘irliklarida uchraydi. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari).

OQPON Yanvardagi olti kun. **Oqpon-oqpon** olti kun, *Oy-hoy sening qotuving.* (Maqol). **Oqponda** ot odimiday kun uzayar. (Maqol). – *Ha, o‘tgan qish bog‘dagi olmurutni ham kesvorganmiz. Yaxshiyam kunlar isib ketib, o‘shandan oz-moz qolgan. – Ha, oqpondan keyin ilib qoldi. Olmurutni bekor kestiribsanda. O‘zi qurib to‘kildirdi, qorinog‘riqqa doriydi-ya. Odamlar yozi bilan qoqisini axtarib yuradi.* (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

OQQALDIRG‘OCH Tugmachagul. *Onasi uning [qizining] boshini siladi. Lekin gulzordan ko‘z uzmay: – Gullarning nomini juda topib qo‘yishadi-da, – dedi, – tugmachagul, gulibeor, qirqog‘ayni, oqqaldirg‘och... rostdan ham, qaldirg‘ochga o‘xshaydi. Qizligimda menga nuqul oqqaldirg‘och sovg‘a qilishsa, deb orzu qilardim.* (Nazar Eshonqul, Yalpiz hidi).

OQQUVRAY Cho‘l-dashtda o‘sadigan, dukkakdoshlar oilasiga mansub yovvoyi o‘t. *Yo‘ldan chetroqda, oqquvray butasiga qo‘nib turgan zarg‘aldoq beg‘am tovush bilan “chu-chuch-chuch-chululu” deb sayrab qo‘ydi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar). *Bahorlanib bunda kutar yoz, Oqquvraydan to‘shab poyonoz-u Eli shirinsuxan, sharonoz Yil o‘n ikki oy mehmoni bor.* (Hol Muhammad Hasan, Ketgan emas Boysundan Boysun...) *Agar biror yerda shu so‘zni eshitsam, o‘sha bolaligim yalangliklarida qolgan barra oqquvraylar bargida sahar chog‘lari osilib turadigan shudringlar, beixtiyor, olmosdek tovlanib, ko‘z oldimga kelar, olis bir sog‘inch, olis bir tashnalik entiktirib yuborar edi.* (Luqmon Bo‘rixon, Xizr ko‘rgan yigit).

OQQUYRUQ Ustyurt yassi tekisligi, Sharqiy va Janubiy Orolbo‘yi, Orol dengizining qurib qolgan hududlarida tarqalgan, butunlay yo‘qolib ketish arafasida turgan sayg‘oq turi. *Jilg‘a suvi qizga o‘xshar sho‘xlikda, Oqquyruqday birpas turmas teklikda.* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy). *Sayg‘oq suruklaridan biri bo‘rilar yotgan tepalik yonidan o‘tib borar, jilviragan quruq chiy orasidan oqquyruqlarning shuvillab o‘tib turgan sag‘ri va biqinlari, taka kiyiklarning shoxlari turtib chiqqan, yerga tomon egilgan kallalari ko‘rinib qolardi.* (Chingiz Aytmatov, Qiyomat – Ibrohim G‘afurov tarjimas).

OQTAMOQ Tomog‘i oq bulbul. *Oqtamoqning quyrug‘idan taralgan anvoyi hidga to‘ya boshlagan Pardum kuzgi xas-xashak rangiga monand “kiyinib” oldida, juftining atrofida aylanib-o‘rgilib o‘zini har alfozga solishdan charchamadi. Oqtamoq ham qarab turmadi.* (G‘ozi Rahmon, Oshiq dunyo).

OQTIQ (Xorazm) Nevara. – *Bor, – dedi Poshsho momo. Oqtig‘ining boshidan mehr bilan o‘pib qo‘ydi. – Dim aqlli bu. Buvasi bilan gaplashadi.*

bilan, nafrat bilan so'ridan tappa tashladim. Beqasam choponlik bilan bo'zbolalarni **oracha qilayin**, dedim. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). Men direktorimiz tizzasini tatalab-tatalab tashlayman. Men direktorimiz tizzasini tishlab-tishlab tashlayman. Muallimlarimiz **oracha etadi**. (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). Davradagilarga qarata: – Og'aynilar, to'y qiziq o'tsin deb, polvonga atay talab soldim. Yengimdan ushlasa, yengimni, etagimdan ushlasa, etagimni uzib berishini bilaman. Bizlarni **oracha qilinglar**-da, bosh tovoqni katta polvonga beringlar, – dedi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

ORACHI Urushayotganlarni ajratuvchi. *Birodarlar, orachiga* – olti tayoq! (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). – *Bir yaxshilik qilay emish! Orachiga bitta musht! Nega oraga tushasan? Zarilmi senga birovning g'alvasiga tumshug'ingni suqib?!* (Azamat Qorjovov, Hech qachon yig'lama).

ORISH (Xorazm) Aravaning otga qo'shish uchun mo'ljallangan, yon tomonidagi ikkita yog'och xodasi. *Ot o'ta ozgan edi. Ilgari u aravaga qo'shilganda ikki orish orasini to'ldirib turardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

ORKASH Oriyatli. *Ma'lum bo'ladiki, G'azanfarboyning bo'y yetgan jiyanlari, ya'niki, bizning singlimiz (ammo shu tobda uning bizga singil ekani aslo hisobga kirmaydi) bugun tag'in ko'chaga boshyalang chiqibdi! Uni ko'rib orkash tog'aning nomusi kelibdi. Bor gap shu.* (Erkin A'zam. Bizning tog'a). – *Chorjetimliklar hali hech kimdi sharmanda qilma-gan, og'izga qarab gapiring, rais, – dedi Sharif chavandoz o'ksingan va haqoratlangan qiyofada. U juda orkash, lekin sipo odam edi. O'zi brigadirlik qiladigan qishloqlar haqida yomon fikr bo'lishini istamasdi.* (Nazar Eshonqul, Urush odamlari). *Ikki barvasta posbon orkash polvonning ikki yonidan tutib, mashina tomon ishora qilishdi.* (Luqmon Bo'rixon, Quyosh hali botmagan).

ORKASHLIK Or qilish. *Shu kuni Mirzaga yana bir haqiqat ayonlashdi, buni qarangki, "Yetar endi..." deya tussiz zamonga o'zicha qarshi chiqqan Yoqub cho'pon begona emas, ota tarafdin o'zlariga uzoqroq xesh ekan, undagi ovkarlik va orkashlik Mirzaning fe'lida mavjud em-*

ish. (Normurod Norqobilov, Yakkasuv). *Bir qarashda, bu qisqa ibora biror-bir ma'noni anglatmaydigandek esa-da, aslida uning zamirida quyidagi alamli xitob mujassam edi: "Orkashlik qursin, aka, orkashlik!"* (Normurod Norqobilov, Kurash).

ORQALANMOQ Bozordan u-bu xarid qilib, ko'tarib kelmoq. *Biridaniga o'zgarib, boyib, orqalanib kirib borsang uyingga; otang, onang o'zlarida yo'q quvonishadi: "Bizning moltopar o'g'limiz, mana, oilaning yukini bir o'zi eplaydigan bo'libdi!"* (Sobir O'nar, Yigitlarning biri). *Mo'min xotini orqalanib kelishi boisini anglaganday bo'ldi, biroq Zarif zargarning mehmoniga nima uchun choy ichirishi kerakligini tushunmadi.* (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo'rdoqi).

ORQAYIN (Xorazm) **1.** Bemalol, xotirjam. *Bugun bir orqayin tin olar Toshkent, Tongda bir xotirjam kerishadi. Sen kecha Toshkentga jo'nab ketib eding, Toshkent diydoringga erishadi.* (Matnazar Abdulhakim). – *Yana kelasizmi? – rais ayyorona kulimsiradi turishga urinarkan. – Hovva, kelimiz. – Orqayin, bi-i-r kelingda munday, oyoqni uzat-i-i-b chaq-chaq qilayliq. – Xudo xohlasa kelimiz.* (Abdunabi Hamro, Muso rais). – *Siz shaharda yashaysiz-da, ulim, – dedi urush ishtirokchilari. – O'tin-cho'p demaysiz. Issiq-sovug'ingiz oldingizda, shu bois, orqayin bo'lib yurasiz. Bizda, mana, serjant Orziqulov biladi, bir kallada ming xil tashvish.* (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i). *Chalganda ham bungacha mingisini bo'g'izlaganday ishini orqayi-in bajargan.* (Shuhrat Matkarim, Indamas). **2.** Suyanchiq. *Suluv bir hisobdan bu hovlida cholining zaxrini qirquvchi, kundoshiga kelajak tayoqdan qutqaruvchi bo'lsa, boshqa hisobdan o'zi ham choliga biram orqayin bo'lib qolgan ediki, hech naryog'i yo'q.* (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi).

ORQOVUL (Qashqadaryo) Kun botish, qibla. *o'rmon – orqovuldan boshlangan taroq, kezib o'tasan.* (Faxriyor).

ORTMOQ (Iqon) Sut, qaymoq osiladigan chambarak. *Ortmoqda kosalar, o'chog'ida non, bir nima jizg'irar, Nedir qo'g'urar.* (Mirtemir, Bu o'sha).

ORCHI Or qiladigan kishi. *O'rgildim senday orchidan! Bir ishga jaramasang o'zingni o'zing qulingsan-da.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

OTABOSHI Bolalar o'yini. *Kichkina ammam – Qursiya to'ti ham bizning mahallada yashaydi. Uning Sharofat degan katta qizi – mening tengdoshim, o'rtog'im. Biz hamisha u bilan birga o'ynaymiz. Ko'cha to'piqdan oshadigan bilq-bilq tuproq. Changitib, soatlab otaboshi o'ynaymiz.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

OTALASH 1. Bir otadan, ammo boshqa-boshqa onadan tug'ilgan bolalar. *Otalashning oti o'zguncha, Ovuldoshning toyi o'zsin.* (Maqol). **Otalashning sovg'asi oyida qaytadi.** (Maqol). **2.** Aka-ukalarning farzandlari. *Sharif aka bizning uzoq qarindoshimiz. Yoshlari mendan katta bo'lganligi sababli "aka" deb atadim. Aslida esa bir tomondan, otalash urug'dosh-og'aynimiz, ikkinchi tomondan, bizning yaqin ammalarimizdan birining o'g'illaridan biri bo'ladilar.* (Marziya Qalandarova Ko'ngil izhori).

OTAM ZAMONI Qadimdan, azaldan. – *Men ne derdim, – dedi og'ir so'lish olib. – Otam zamoninda shundoq edi va bundin so'g'unda shundoq qolur. Oni sen tuzata olmassen. Fikrlaringni eshitg'uvchi quloq topilmas.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

OTASHGIR (Xorazm) O'choqdan o't olishda ishlatiladigan ikki sixlik temir asbob. [Matti:] – *Ammam huddi dilimdagidek kadili zog'ora yopibdi, mana, endi quling o'rgilsin jugan unidan siqmon pishirishni buyurib ketgan ekan, ular kelguncha shuni tamaddi qilib turamiz, nima deding, mulla Qutlug'murod? Diqqat bo'laverma, otashgirda kabob ham pishiramiz.* (Kamil Avaz, Sozanda).

OTASHGOH O'choq. *Keksa avlodning xotirasida bir-biriga ulashib ketgan tomlar, otashgohning o'rni va masjid saqlanib qolgan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

OTIZ (Xorazm) Ekin ekilgan maydon, marza. *Choshgoh ham bo'ldi, chig'irni hamon Ibrohim ota bilan Polvon aylantirmoqdalar, Bekjon ketmon bilan otizdan otizga o'tib, kichik ariqlarni. bog'laydi, charchagan otasining o'rnini bosadi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). *Darvesh uning*

yoniga ham bormadi, ne gap, deb ham so‘ramadi. U ham hech gap aytmadi. **Otizdan** chiqib ust-boshini hafsala bilan qoqdi-da qanday kirib kelgan bo‘lsa shunday gap – so‘zsiz chiqib ketdi. (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

OTJALLOB Ot sotuvchi. – So‘radim. Yoshi to‘rtta. Egasi xudojo‘y odam edi, yolg‘n gapirmas, o‘zi ham ko‘rinib turibdiku, – **otjallob** kalta kuzalgan, oq oralagan soqolini qashladi. (Hamid Alp, Zuryod).

OT NINACHI Katta ko‘k tusli ninachi. Qishloq tomorqalari aro olingan sarg‘ish guvalak devor ustiga quyosh chiqmasidan ninachilar qo‘nib olishgan. Ular turli-tuman. Masalan, kichkina sariq ninachi zaif bo‘ladi, tez charchab qoladi. Qizg‘ish tusli yana bir turi ham bor. Eng kattasini, ko‘k ranglisini **ot ninachi** deymiz, u sira toliqmaydi. (Isajon Sulton, Onaizorim).

OTOVNARI To‘y qilgan kishining to‘yda bel bog‘lab xizmat qilgan do‘st-u qadrdonlariga beradigan ziyofati. To‘y tarqab, endi to‘yning **otovnari** boshlanibdi. (To‘ra Sulaymon, Tarki jamoa).

OTCHUMOLI Oyoqlari uzun, katta chumoli. **Otchumolining** ko‘ziday shu olma urug‘i bir paytlar gultuvakda ko‘kardi, daraxt bo‘ldi. (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

OVGO Tog‘ yo‘li, dovon; aqba. Chamasi uch soat vaqt o‘tmay, vahimali daralarni ortda qoldirib, **ovgoga** chiqib oldik. (Isak Sattorov, Devona tabib).

OVODON (Xorazm) Chiroyli, go‘zal. [So‘naning] Yuzi o‘n to‘rt kechalik oyga mangzash, tog‘g‘a tushgan bo‘lak-bo‘lak qorg‘a mangzash, yanoqlari g‘unchaga, mamalari tunchaga mangzash, kaptar to‘piqli, maral yurishli, hilol qoshli, oltin sochli, marvarid tishli, to‘ti tovushli, barno, xushro‘y, qomati ar-ar, qaddi sarvi sanobar bir **ovodon** qizki, ta‘rifini ado qilib bo‘lmas. (“Oshiqnoma” dostoni).

OVSAR Asov otlar va tuyalarning boshiga kiydiriladigan po‘lat moslamali no‘xta, maxsus boshvoq. Shu tufayli vujudini qamragan hayajonni yengib, sayislar **ovsarda** zo‘rg‘a tutib turgan qora ayg‘irning yuganidan ushladi. (Soyim Is‘hoqov, Ko‘klam adog‘ida kuz).

OVSARLAMOQ No‘xtalamoq. *Ot itoatkorona ilgarilay turib, hali jahldan tushib ulgurmagan suvoriysiga ko‘z qiri bilan odamga o‘xshab qandaydir munis nigoh tashladi. Bu bilan u, garchi jag‘larini yirtib yuborgan esa-da, qayta ovsarlatdirmagani uchun Sarimsoq polvondan minnatdor bo‘lib ketayotganday ko‘rindi.* (Soyim Is‘hoqov, Ko‘klam adog‘ida kuz).

OVSIL Molning og‘ziga chiqadigan yara. *Sigirlarga ovsil dorigan, televizorda aytdi deydi. – Qaysi yurtning sigirlariga? – so‘radi yonidagi yoshroq ayol. – Xudo biladi, dengizning naryog‘ida deydi-ku! – Uyi kuysin uning! Odam ovsildan ham qo‘rqadimi! – dedi boyagi ayol sekin-gina. – Ovsil degani norasida go‘dakning tili oq yem bo‘lganiday gap, molning tilini bir-ikki marta tuz bilan ishqalab, qatiq ichkizilsa, hech narsa ko‘rmaganday bo‘lib ketadi.* (Murodboy Nizanov, Aqchagul).

OVURTMOQ Cho‘ponlar belga taqadigan chaqmoq tosh. *Belbog‘iga osilgan pichoqning takaki qini ham, eski, bir zamonlar mohir charmgar usta tomonidan ovurtmoq va pistonlar taqib bezatilgan, kumush tasma yugurtirilgan, bezaklarning rangi ketgan bo‘lsa ham bejirimligini yo‘qotmagan.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a). *Men otam aytganiday qilganman va shunda jikkak, qop-qora, ko‘rimsiz, qosh-u ko‘zi, og‘zi-burni, qulog‘igacha oppoq gard bo‘lib ketgan cholning yuz kilolik yukni ko‘rdim demay o‘zi ko‘tarib tushirib, ertasi kuni mixday qilib ortib berib, arqon bilan eshagimning ayili ustidan ovurtmoq qilib boylab, meni qopning ustiga ko‘tarib o‘tqazib qo‘yganini ko‘rib qoyil qolganman.* (Sobir O‘nar, Tegirmonchining bolasi).

OVUSH Almashish, siljish. *Bir otim bor ovushgina, Piyodaga kovushgina.* (Topishmoq. Javobi – eshak). *Esadi iliq-iliq Yalqov shabboda ovush. Tumshug‘in cho‘mich qilib Hansirab nur ichar qush.* (Sa‘dulla Hakim, Choshtepada yoz).

OVUSHTIRMOQ Almashtirmoq. – *Ot-otingdi ovushtir, bosh zotni aytaman: Sovringa Moskov gilami, ming so‘m pul, g‘unon toy, yonida mong‘i sarkasiyam bor.* (Hamid Alp, Zuryod).

OXIRA (Xorazm) Qazuv ishlarida qazuvchilar dastlab loy tashlaydigan o‘ydim yer; u yerdan loy yuqoriga otiladi. *Ikkinchi qazuvchi oxiradan [loyni] olib yuqoriga otardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

OYOPA Qaynegachi. – *Oyopajon, posbonimdan ayrildim man. Qanotimdan ayrildim man, oyopajon!* (Norto‘xta Qilich, Hassakash).

OYYANGA Kelinoyi. *Ona yanayam g‘amgin oh urib:– Oyyangajon! Dardimni kimlarga aytaman endi, oyyangajon!– dedi. – G‘amguzorim, onajonim!..* (Norto‘xta Qilich, Hassakash).

OYDIN (Xorazm) Ko‘llarning o‘rtasidagi o‘simliksiz, ochiq suv maydoni. *Qorabayir oydin chetida birpas qalqib-qalqib turdi-da, bir qarorga keldi shekilli, oldinga – oydin o‘rtasini ko‘zlab suza ketdi.* (Erkin Samandar, Sulton Jaloliddin). *Endi xotirada varanglaydi o‘q, tasavvurda qular oydinga g‘ozlar.* (Matnazar Abulhakim, Safar taassurotlari).

OYDIY (Xorazm) Yaxshi. *Oydiy yuribdi-ku, ne yerlardagi gaplarni topasiz? – dedi kampir ranjib.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

OYNATOSH Tekis yuzali ko‘z gusimon tosh. *Suv bo‘ylab yurib devorga o‘xshagan, usti oynadek yaltiragan oynatoshga yetdilar.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *Oynatoshlar bir-biriga qattiq ishqalanish tufayli paydo bo‘lgan.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

OYQARA Bir barini boshiga, ikkinchi barini oyoq tomon qilib yopmoq (to‘n, chakmon haqida). *Yotib, chakmonini oyqara yopindi. Nogahon Mengliboyning ko‘zlari nimadandir bezovtalanayotgan bo‘ri bolasining ko‘zlariga tushib qoldi.* (Azim Suyun, Nevaralarim uchun).

OYOQ: Oyoq ilmoq To‘xtamoq. *Ortimda kelayotgan Hamid aka bilan Boybo‘l akaning otlariyam pirqillashib oyoq ildi.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li). **Oyoq olmoq** Yurmoq. *Ot o‘rlovga ko‘tarila boshladi; mushakdor sonlari taranglashib, ildam oyoq olishi cho‘ponning havasini keltirdi: “Otmisan, ot! Tilloga almashtirsang, yutqazmaysan, – dedi o‘ziga o‘zi – Hee, manov zalli-zamonda yo‘qchi bilan kasalga qiyin, ikkoviyam qidirib yashaydi”.* (Anvar Suyun, Yo‘qchi).

OYTO‘TI (Qarnoq) Opa. – *Ma, qorako‘z. Qaylarda yuribsang? Bir sag‘ir oyto‘tim bor edi, deb yo‘qlamading ham, tentagim.* (Sa‘dulla Siyoev, Saratonda qor yog‘di).

OYG'IZ-OYG'IZ Yo'l-yo'l, taram-taram. *Xaskash orasidan tirnalgan tuproqning gardi ko'tarilib, turib qoladi. Bolaning peshonasidan reza-reza ter quyuladi. Ter qurimasidan chang o'tirib, oyg'iz-oyg'iz – taram-taram, kirlangan izi qoladi.* (Anvar Suyunov, Ota va o'g'il).

OZITQI Ajina. *U qanday kun edi, qayda yo'qoldim, ozitqi ozdirgan jinlarning tuni. Bir suluv shaklida o'ptirdi shayton, uni quchdim, o'chdi yurakning uni.* (A'zam Ismoil, Ustoz Rauf Parfiga). *Yo'q, Shokir, bu aldangan sohibjamol emas. Bu hammani aldab domiga tortadigan ozitqi! Aldoqchi, tovlamachi, o'g'ri, fohisha!* (Nurillo Abbosxon, Sho'rqishloq).

OZURDALIK Qayg'u. *Bu faqat men o'qigan maktab emas, balki barcha xo'jaliklarga safarbar qilingan bolalar qismatiga qayd etilgan ozurdaliklardir.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

OG'DIQ (Xorazm) Qiyshiq. *U 25 yoshlardagi ozg'in yigit edi. Bir ko'zi xiyol qisiq, shunga monand og'zi ham sezilar-sezilmas og'diq (qiyshiq).* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Riyim muallim mehmonadan chiqib keldi. Qisiq ko'zlari va xiyol og'diq og'zidagi tishlarini ko'rsatib: – Galdingmi-iy? – deb menga xushomad qilgan bo'ldi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

OG'IRBO'Y Homilador. *Naql etishlariga ko'ra, Mavlono Lutfulloh onasi og'irbo'y ekanligida tushiga katta suv kirgan ekan, go'yo bor olamni suv qamragan emish...* (Muhammad Ali, Abadiy sog'inchlar).

OG'IZBIRLIK q. **og'zibirchilik.** *Qolaversa, dalaga qo'ni-qo'shnilar jam bo'lib chiqsa, go'k terish mavsumi ommaviy boshlanganiga ishora, og'izbirlilik, mehr-oqibat belgisidir.* (Komil Avaz, Sozanda).

OG'UZOQI Sut-qatiq mahsulotlari. *Nodira hujjatlarni tayyorlar ekan, shunda unga onasi: – Qizim, seni o'qitishga sharoitimiz yo'q. Bittagina sigirimizni sotsak, ro'zg'orimizga og'uzoqi qolmaydi.* (Isak Sattorov, Tutash taqdirlar).

OG'ZI BIR (Xorazm) Ahil. *Qishloqdagilar bir-birlari bilan o'ta ahil, og'zi bir, erksevar va jasoratsifat odamlar bo'lgan ekan.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

OG‘ZIBIRCHILIK (Xorazm) Hamjihatlik. *[Qiltiriq] – Shuning uchun og‘zibirchilik qilib kim ko‘makka muhtoj bo‘lsa, borib ko‘rish kerak...* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

OSHIQ Baxshi. “Zokir bulbulmikan?” – Zokir bulbul degan **oshiqning** ba‘zi kechalarda dasht-u dalalarga sarson-sargardon chiqib ketish odati borligini u eshitgandi, ilkis yodiga tushdi. (Shoyim Bo‘tayeov, Shamol o‘yini).

OSHIRMA Kurashda o‘zidan oshirib yiqitish usuli. *Chalib yiqitishni yoqtirmasdi, ko‘proq oshirma usulini qo‘llab, odamlardan: “O‘h, buni qara-ya, Alpomish bo‘p ket-e!”, degan olqishni eshitishni yaxshi ko‘rardi...* (Dilmurod Sodiqov, Iztirob).

OSHOQ Yer, joy. *Eshikdan o‘ram oshoqidagi Guljon momo kirib keldi.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

OSHQINLAMOQ Kuchaymoq. *Kaltadum bo‘lib, yengil-yelpi kiyinib yurgan yigit-qizlarning ko‘pi buyrak shamollashiga yo‘liqqan. Toshmurodniki esa Magadanda oshqinlab ketgan.* (G‘ozi Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida).

OSHTOQ Qo‘ra. *Soyda og‘il-oshtoq va kattagina qo‘ton bor. Kamardagi keng tomorqada endi tupaklagan makkajo‘xori sarg‘ayib qovjiragan, ozroq joyda sangloqning toshidek tarvuzlar sochilib yotibdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor).

OSHUV Dovon. *Bu oshuv [Jarg‘ard dovoni] esa orqa Turkiston bilan Farg‘ona vodiysi oralig‘idagi Olatov tog‘lari ichida eng egiz dovonlardan hisoblanadi.* (Alixonto‘ra Sog‘uniy, Turkiston qayg‘usi). *Tumshuq qishlog‘ining usti bilan Arpalining oshuviga yurdik.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li). *[Yorqul] Eshagiga irg‘ib minib, xala bosdi. Oshuvdagi bir o‘tar joygacha chidab bordi.* (G‘ozi Rahmon, Tepalikdagi uy).

OCHA (Xorazm) Shoxlar orasi. *Bibining otilishini istab turgan qarindoshlaridan biri Eltazor bobomning yoniga kelib, miltiqni yuqorida ta‘riflangan gujum ochasi – shoxlar orasiga joylaydi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

ONG q. ang. – O‘tagan merganning qayoqqa ketganini haqiqatan ham ko‘pchilik bilmasdi. Buni keyingi kunlardagina payqashdi. Biroq, yurgan-dir-da **ong** quvlab, deb o‘ylashdi. (Soyim Is‘hoq, Vafodor).

P

PADBARA Yog‘ochi qattiq daraxt. Yo‘lda archa (4–5 xil), irg‘ay, uch-qat, **padbara** kabi daraxtlarga, baldirg‘on, chukri, taran (tataron) kabi o‘simliklarga duch kelish mumkin. (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron). U [omoch] **padbara**, yong‘oq, zardoli singari daraxtlarning biroz bukchaygan shoxlaridan yo‘niladi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

PAHLIDAR Dahliz. Yoki o‘zi yaratgan bog‘ga, tilsiz daraxtlarga termulib, har kuni necha kishi kirib chiqadigan **pahlidarga** bosh qo‘ygancha jon bergan otaning armonlari nima edi? (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

PAHMAYMOQ Shishib ko‘tarilmoq, bo‘rtmoq. Oyog‘i toshga tek-kanda sirg‘alib ketdi. Xuddi yerga tushgan parashyutday **pahmayib** qoldi. (Dilmurod Sodiqov, Najot daraxti).

PALAXMON Sopqon, roqatka. U o‘ta hafsula bilan yasagan **palax-moniga** mushtdan kichikroq tosh solib, boshi uzra viz-viz aylantirib, qo‘sh bog‘ichning birini qo‘yib yubordi. (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda).

PAJIZ Qimor o‘yini. Ashir mahram o‘sha kuni kechasi Nurlovoyda – mehmonxonada Shernazarboy, Matchon to‘ra va boshqalar bilan **pajiz** o‘yini o‘ynab o‘tirgan Eshshining oldiga bordi. (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

PALAKMURDA 1. Palagi qurigan. Ayni shu chog‘da handalakdan kattaroq, bir **palakmurda** qovun to‘p etib oyog‘i ostiga tushib yorildi. (Nor-to‘xta Qilich, Xavotir). **2.** Haqorat uchun ishlatiladigan so‘z. Qorako‘lda bir olish bo‘ldi-ey, qiztaloq, bo‘yi bir qarich **palakmurda** polvoncha bizni polvonga ot solsa bo‘ladimi?! Mavlon – daroz, u esa pakana. Davrani aylanayapti – odamlar gur etib kulishadi. Anovi jerkindik tulkiday epchil ekan. (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). – Stop! Ho‘, kimga aytyapman? Stop!.. Mundoq to‘xtasangiz-chin, Qutbiddinov! Odamni

qon qilib yubordingiz-ku. Aktyor ham shupaqa **palakmurda** bo'ladimi? (Ashurali Jo'rayev, Hayot o'yini).

PALANG Yo'lbars. *Mamay cho'pon: "Bir palang sharsharaga sajda qip turganini ko'rganman", dedi.* (Dilmurod Sodiqov, Najot daraxti).

PALLA Yangi tug'ilgan sigir sutidan tayyorlangan taom. *Misqolning sigiri tug'ibdi. Kelagayi yaxshi ekan. Pallasidan olib qo'ydim. Turing...* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

PALG'ARI Uzum novdasini yerga ko'mib, boshqa joyga o'tqazish. Yerga ko'milgan qism kelajakda tomirga aylanadi va tol kuchli oziqlanadi. *Payvandlash texnologiyasi o'simlikni urug', parxish, palg'ari yoki qalamchalar bilan ko'paytirish mumkin bo'lmaydigan hollarda qo'llaniladi.* (Mavjud iqlim sharoitiga chidamli texnologiya va amaliyotlar bo'yicha ma'lumotnoma)

PANJAKASH Loysuvoq. *Qachonlardir panjakash somon suvoq qilingan-u, keyin qo'l tegmay qolib ketgan o'n uch bolorli, vassajuft xona odam to'laverganidan so'ng binoyidek mehmonxona siyoqiga kirdi.* (Abdusaid Ko'chimov, Tubsiz quduq). *Toshdan orasiga loy qo'yib, panjakash qilib suvalgan pastmakkina, archa balorli uylar, shundoqqina uylar yonida ulardan-da pastmak qilib yasalgan qo'y qo'tonlaridan shiptir hidi anqib yotardi.* (G'ozzi Rahmon, Gulguna).

PANJI Besh yoshli qo'chqor yoki taka. *Avval oqrabotlik mashhur Do'sa chavandoz o'rta tashlangan to'qson kilolik panji takani bo'z ot bilan ikki marta olib jo'nadi, ikkovidayam qutulolmadi.* (Hamid Alp, Zuryod). *Ayniqsa, beshchashmalik ustalar tomonidan quyma, terma po'stloqdan yelimplab yasalgan, ajdar boshli, quyma karsonli egarlarning har qaysisiga ikki panji qo'chqorning pulini bersang ham, puling o'zing bilan ketadi.* (G'ozzi Rahmon, Shukuhli karvon).

PAPOQ (Xorazm) Uzun mo'ynali baland telpak. *Oyog'imda eski yirtiq kalish, ustimda u yer-bu yeriga yamoq solingan kamzul, boshimda akalarimning qaysi biridir kiyib eskirtgan papoq.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

PAQ-PAQ (Physalis alkekengi) Tomatdoshlar oilasiga mansub, sug'oriladigan yerlarda o'sadigan, qovoqrang-qizil mevali ko'p yillik o't.

Tojikistonda **paq-paq** mevalari suvini sutga aralashtirib, bolalarga tomoq og'rig'i davosiga ishlatiladi. (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar).

PARDEVOR Bir qator g'isht yoki sinchli yupqa devor. *Pardevor-a, pardevor, Pardevorning gardi bor.* "O'zbek xalq qo'shiqlari".

PARMANCHAK Maymunjon. *Bunda ikki yuzdan ortiq bola dam oladi. Biri cho'milib shamollasa, boshqasi parmanchak teraman deb oyoq-qo'lini timdalatib keladi. Bularning hammasi vrachga tashvish.* (Said Ahmad, Zumrad). *Sirasini aytganda, mahallamizning kun yurish tomonidan yangi yo'l chiqarilgandan keyin bu so'qmoqdan odam kam yurar, onda-sonda, shoshib turgan bitta-yarimta kimsagina o'tib koladi. Gohi-gohida parmanchak terib yeyayotgan bolalarni uchratish mumkin.* (Qamchibek Kenja, Xilvat so'qmoqdagi yolg'iz tosh).

PAROG' Katta g'alvir. *Dehqon yerga girgittan Don tozalar parog'da. Tulki cho'chib burgutdan Qochar ko'zi alag'da.* (Tursunboy Adashboyev, Qo'biz tinglab...)

PARTOL Yuk ortiladigan ot. *Ana endi qo'shin jo'namoqchi bo'ldi. Partol yuk ortganlar jo'nayotir.* ("Xoldorxon" dostoni).

PARCH (Xorazm) Zich. *Otam qo'y va mollar tepkisidan parch bo'lib qolgan go'ng qatlamlariga belni sanchar, uning qulog'ini choriq kiyib olgan oyog'i bilan zarbli tepar, bel qulog'igacha yerga ko'milardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

PASAK Past tomon, orqa tomon. *Pasak qizardi, Ichidan mol chiqdi.* (Topishmoq. Javobi – quyosh).

PASMANDA Aqlda va jismoniy rivojlanishda boshqalardan orqada. *O'zim pasmanda bo'lsam ham, Ko'nglim – osmonda.* (Maqol). – *Turobboyini o'g'li o'zi pasmanda, ko'ngli osmonda bola bo'lgan ekan. E, Xudo, o'zing kechir. Birovning ustidan gapirib qo'ydim-a. Kulgilik emas, taqdir-da, bolam. Hukmida nima bo'lsa shu bo'ladi. Rahmatlik enam aytardilar, o'zingda turibdi bir ayb, kishiga kulmagin qinqayib.* (Ma'mura Zohidova, Boychechak).

PASMAK Pastak. *O'sha to'ntarishning ufq kuygandagi kabi qontalash asorati – burun qonaganda dimoqda qoladigan noxush hidi pasmak-*

kina tog' orasidagi Sarkentiga ham yetib keldi. (G'ozni Rahmon, Qo'sh kabutar chizilgan uy).

PATAKGUL Aloe guli. *Shundan buyon terak shaboda essa ham, esmasa ham, mudom titrab turarmish. Ayolning izlaridagi qon tomchilaridan tikanli patakgullar unibdi. (Gulnora Rahmon, Sipohiyalar xonadoni).*

PATGILAM Ust qismiga 1–1,5 sm uzunlikdagi jun ip tolasi chiqarilib, zich qilib to'qiladigan gilam. *Sanam xola patgilamni ko'tarib, Avazlarning bo'sh yotgan xonalariga olib kirdi-da, sholchanning ustidan bir to'shab ko'rdi. (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar). Yurgan yo'lida urchuq ko'tarib, jun yigiradigan momolar terma, arabi, g'ajari, patgilamlarni qotirib to'qiydi. (G'ozni Rahmon, Shukuhli karvon).*

PATINJON (Namangan) Pomidor. *Bir yili bahor sarida, unda kuchim ham ko'p edi-da – oltmishdan o'tuvdim, borsam, Rizvon boyaqish oldidagi patinjon ekadigan bo'ldak yerni ketmonchada chopib yuribdi. "O'g'ling qani?" desam. "Ko'chaga ketdi. Urishsam yolg'iz, urishmasam, yalmog'iz, opa, nima qilay endi", deydi. (Ma'mura Zohidova, Boychechak). Erta bilan sut-saryog' bilan nonushta qilindi, peshinda sho'rva, ayniqsa, shakarob patinjon, piyoz, ozgina qalampir ustiga qatiq quyilgani juda mazali bo'lardi. (Jo'ra Qori Bo'tako'z, Bo'tako'znoma).*

PATIK (Xorazm) Ship. *Patikda chiyillar qanoti qiyg'och, Inina giribdi ilon – go'zzi och. Oramiza girib Qorabotirlar, Yolg'iz qoldim men ham go'yo qaldirg'och. (Safo Ochil, Yorimnan ayrildim). Xonaning o'rtasida o'ta yorug' narsa osilib turardi. Uni Erka akam sim bilan patikka (shiftga) osibdi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

PATOS I Yallig'langan joyda to'planadigan suyuqlik, yiring, fasod. *Men esam hech vaqoga aqlim yetmay, bir yaradan shuncha patos chiqarkanmi deb, tasavvur eta olmay ichim sidirilib boryapti: jo'mrakdan oqqandek patos – qanday zardob ekanki, bir yara tagiga shunchasi yig'ilaqol-sa? (Murod Mansur, Judolik diyori). Xotini yana: – Xafa bo'lmang. Erta bilan turib bitta kosani qo'ltiqqa tiqib, falon to'qayga borasiz. U joyda ayiqlar podshosining oyog'iga cho'gir kirib, shishib, yurolmay yotibdi. Uzun bir qamichni uchlik qilib, ayiqning oyog'idagi yarani teshib yuborasiz, zardob chiqib, patos oqib, ayiq ko'zini ochadi, – "Tila-tilag-*

ingni” desa, siz bir kosa sut tilaysiz, – deb maslahat beribdi. “Baxtli kal”. Hammaning yuragidagi **patos** yorilgandek edi. (Yayra Sa’dullayeva, Katta hovli). **Patos bog‘lamoq** Yiring bog‘lamoq. Bu, Bo‘stonliqqa salgina oldin “bosqin” uyushtirgan, so‘ng domla Ozod Sharafiddinov yozganlaridek, “dumiga chelak bog‘langan quturgan buqa misol” sharmisor etib, Bo‘stonliqdan haydalgan sho‘ro yugurdaklaridan ham o‘tib tushadigan, gumrohona harom-xarishlikning o‘zginasi bo‘lib, agar bu illatning oldi olinmasa, yomon yaraday tezda **patos bog‘lab** ketishi aniq edi. (Dadaxon Nuriy, “Shogird”ning parvozi). Mo‘ysafid: Dilida **patos bog‘lagan** va o‘zi uchun haqiqat deb bilgan fikrini chertib-chertib aytdi-qo‘ydi. (Yayra Sa’dullayeva, Katta hovli).

PATOS II Noo‘rin, ahmoqona. – Ma‘zur tuting, - Abdubori o‘ng‘aysizlanib yon berdi. – Ko‘pdin hisob va handasa o‘rganmoqqa jahd qilg‘oningizni bilurmen. Bul ilmlarg‘a aqlim yetmag‘onidan **patos** so‘zlabmen. Dilim tarix o‘rganmoqqa moyildur. Ehtimol, shul sababdin sizni ranjitqondurmen. (Soyim Is‘hoqov, Qabrdan chiqqan qul).

PATTIVIT Qo‘y, echki junini savab, ajratib olinadigan mayin tola. Junni qanday savab, undan **pattivitni** qanday ajratishni, jun bilan paxtani savash o‘rtasida farq borligini ham biladigan bo‘ldi. (To‘ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

PAXTATIKAN Poyasi tik, yuqori qismi sershox, serbarg, bo‘yi 40–100 sm, murakkabguldoshlarga mansub ildizbachkili ko‘p yillik begona o‘t. [Hovos tumani] Tekislik qismida qo‘ng‘irbosh, rang, iloq, qiyoy, sho‘ra, shuvoq, yantoq, qamish, **paxtatikan**, ituzum, shamak, g‘umay va b. o‘sadi. (O‘zME).

PAXTAVON O‘q o‘rniga qog‘oz solish. Men yarim tunda ov miltig‘i patronlarini **paxtavon** qilib, nagan va karabin o‘qlarini qaynatib, avvalgisidek shay qilib, Es qul kelishini kutib yotdim... (Isak Sattorov, Hojimirud). Drujinachilarga **paxtavon** o‘qli qurollar berilib, vokzallar, aeroportlar, bozor-guzarlarga tarqatildi. (Anvar Obidjon, XX asr talonchiligi).

PAYMANCHAK Soy, ko‘l yoki daryo bo‘yida suv olish uchun o‘yilgan zinapoya. Misol uchun, men tug‘ilib o‘sgan qishloqda “**paymanchak**”

degan soʻz bor. U – soy, koʻl yoki daryo boʻyida suv olish uchun oʻyilgan zinapoyadir. (Isajon Sulton, Jon ichra jonim mening).

PAYPISH Tuya tovon. *Oyoq ham haminqadar, boʻyi, eni bab-baravar, odamning oyogʻidan koʻra, tuyaning paypishiga oʻxshabroq ketardi.* (Nazir Safarov, Koʻrgan-kechirganlarim).

PESHQOVUZ Bugʻdoy, guruch, tariq poʻstlogʻi. *Xonlar bilan uch oy qovun, uch oy sovun, uch oy qoqvo, uch oy chavoq yeb oxirida peshqovuz yeganlarning oʻzi bir mozorot.* (Bahodir Qobul, Oy yoʻli).

PESHRAV Ilgʻor. *Maktabdagi Nasibasi ham sinfida peshravmish. Uniki ham “oʻqiyman, ho, oʻqiyman...”* (Fayzulla Salayev, Ota oʻrni).

PESHXARI Ayvon ustunlariga koʻndalang yotqizilgan old toʻsin; xari. *Erta bahor qoʻnib olib Uyimizning shiftiga. Sayrab qolar peshxarini Koʻtargancha kiftida. Koʻtargancha kiftida.* (Tursunboy Adashboyev, Qaldirgʻoch). *Musichaga manzil-makon, Tanish boʻgʻot, peshxari. Bobom tortar oʻqariq, Bar urilgan peshlari.* (Tursunboy Adashboyev, Shanbalik).

PESHVOR Sallaning yelkaga tushib turadigan qismi. *Shoir ozib-toʻzgan, egni-boshi yupun, sallasining dastori peshvoridan kir, peshvori dastoridan.* (Toʻra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli el kezadi).

PIDINA // PUDINA Yalpiz. *Navroʻz shabadasi Obirahmat va Siyob qirgʻoqlarida nishlagan pidina, ismaloq islarini xonadonlar sari yetkazishga oshiqadi.* (Asad Dilmurod, Sherdor). – *Qaramasang boʻlmaydi, qattiq tayinladi. Kecha quruq ogʻiz, och qoringa yotib qopsan. Akangning qizlari pidina terib kelgan, hozir chechang pichak pishiraman deb xamir iylayapti. Hech qayerga ketmaysan.* (Sobir Oʻnar, Dunyo shunday tururmi?) *Mezbon ifor, pudina, kashnich qoʻshilgan qatiqli osh keltirdi. Bir kosa ichdim-da, uxladim.* (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron).

PINDIK Kurtak. *Oʻrikning pindigini tepaga qilib ter, shunda shirasi oqib ketmaydi, deb oʻrgatishardi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yoʻllar). *Sahar kelgan shir-shir otib, Bekor ketmay shabbodalar. Ishchi bobo, tez ochsang-chi, Pindik ochsin yosh novdalar!* (Hamza, Tanlangan asarlar).

PISKA Tigʻli yupqa metall plastinka, lezviye. *Radioda Kokila eʻlon eshittirmoqda: – Chorvada eri bor xotinlar, kiyimlarini yuvib, dazmollab boʻlgan boʻlsalar, mehmonxonaga olib kelishsin! Otaboy aka! Otaboy*

aka! To'rtta batareya olib keling! Oysha, Oysha! G'anijon soqol qiradigan **piska** so'ragan, darrov olib kel! (Said Ahmad, Seni izlab). *Qo'l tirnoqlariga qaradi: uchi qorayib yotibdi. Shu qadar qalin, temir kabi qattiq. Doim iliq suvda ivitib, yumshagach, er pichoqda (qinli pichoqda) oladi. Qaychi, piska o'tmaydi.* (Nabi Jaloliddin, O'qilmagan kitob).

PILLAI Tish shamollab, milkda hosil bo'ladigan pufak, shish. [*Onam*] – *Shoir bo'lmay o'l, juvonmarg! Ukang ko'rsa (konfetni) bormi, hamma-sini paqqos tushiradi-yu, tishi og'rib pilla bo'ladi.* (Vali Bobomurodov, mening yuz kunim).

PILLA II Chillak o'yinida chilik tushishi kerak bo'lgan chuqurcha. *Agar chilik pillaga kirsam yoki dastaning uzunligicha yaqin kelsa, navbatdagi o'yinchi otadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

PIS Chillak o'yinida dasta chilikka tegmay qolgan holat. *Yana o'yinni shu taxlit, yo chilik pillaga kirguncha, yo "pis" bo'lguncha davom ettiradi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

PIYOZI CHAKMON Jun matodan to'qilgan yupqa chakmon. [*Qosim akamning*] *Egnida oq pishiq surpdan yaktak yoqa ko'ylak, unig ustidan ko'k bilan qora rangga moyil gazlamadan yaktak, belida to'rt-besh aylantirib o'ralgan uzun belbog' va qo'sh qiyiqcha, ustidan mavsumiga qarab beqasam yoki piyozi chakmon kiyardi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

PISHANG BERMOQ Kimnidir tezlamoq, gijgijlamoq. – *Ana shu-da, hamma shu, hech o'zga emas, xoh shaharda, xoh qishloqda, xoh do'st, xoh dushman bo'lsin – oqibati shu, – deya pishang berdi Xudoyqul. – Haliyam o'n besh ming ekan-ku.* (Sobir O'nar, Vijdon).

PICHAK Oshmagan xamirni yoyib, ichiga go'sht, qovoq yoki ko'kat solib pishiriladigan somsa. *Xullas, ertaga soat to'qqizda Ahmad sariqning uyida kadi pichak, undan so'ng Tojivoynikida yumshoqqina g'ilmind, tushda Hakimjonnikida patir bilan qaynatma sho'rva ichiladigan, undan keyin kimdir mahalla guzaridagi hovuz bo'yida tandirkabob qildirib kutadigan bo'ldi.* (O'ktam Mirzayor, Or).

PODABOQAR Cho'pon, molboqar. *Otam mulla Olim mulla Suyuning, ya'ni "quloq"ning o'g'li edi-da, shu bois unga jazo sifatida pod-*

aboqar tayog‘ini sudratishgan edi. (Azim Suyun, Tabiat hikoyalari). Yana Eshboydek **podaboqarning**, aniqrog‘i, **podaboqarga** yordamchi, ko‘klamgi to‘l mavsumida, ya‘ni mart oyining o‘ninchisidan may oyining o‘ninchisigacha cho‘ponlarga oyiga qirq so‘m evaziga soqmonchilik qilib kun ko‘ruvchi bir g‘aribning katta qizi. (Sobir O‘nar, Farishta).

PODAHAYDDAR Molni podaga qo‘shadigan payt, tong. O‘tinsiz, tezaksiz qoladigandek, ertalab **podahaydarda** podachiga, podani bugun menga yotqizib berasan, dedim. (Shoyim Bo‘tayeov, Yulduzlarga eltar yo‘l). Kampir qo‘lini soyabon qilib, quyoshning ko‘tarilayotganini kuzatadi-da, o‘zicha **podahaydar** mahali bo‘lganini fahmlaydi. (Nurali Qobul, Unutilgan sohillar). Kaptarlar qaytmagan tun. Ertasi kuni **podahaydar** mahali onam meni Egamberdi boboning oldiga ergashtirib bordi... (Nurali Qobul, Unutilgan sohillar.)

PODALOVLOV (Samarqand) Chavgon turi. – Bor. Qishloq to‘la odam. Kap-katta erkaklar ham o‘spirinlarda qo‘shilib chillak, **podalovlov** o‘ynashadi, biroq cho‘chqa boqishga ko‘nishmayapti, – dedim fig‘onimdan tutun chiqib. (Nurali Qobil, Unutilgan sohillar).

PODAYOTOQ Tush mahal poda yotin dam oladigan joy. Elburutdan **podayotoqqa** bordim. Bir toshga yonboshlab oldim. El qo‘y-echkilarini haydab keldi. Shunda... shunda, u-da keldi! (Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom). Yigitning qishloq oralab so‘rab-surishtirishlari ham natija bermagach, iziga qaytdi va Boborayimga hech kutilmagan yerda – qishloq yaqinidagi **podayotoqda** duch keldi. (Normurod Norqobilov, Quyosh tutilgan kun).

PODACHI (Jizzax) Chavgon, xokkey. Etakda, chuchmomalar aro yalangoyoq bolalar **podachi** o‘ynamoqda. (Mamadali Mahmudov, Qora do‘lana).

POKI (Xorazm) Ustara. Safargaldi so‘zida davom etdi: “O‘tar bo‘za ko‘p yaxshi chol ekan, yaramni yuvdi, o‘lgan etlarini **poki** bilan kesib tashladi, so‘ngra nimadir surdi, bechora chol kafanlikka deb qo‘ygan dokasini chiqarib berdi, O‘tar buva u bilan oyog‘imni bog‘ladi...” (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). Obdon sochimni ishqalab bo‘lib qo‘liga **pokini** oldi. Boboning ko‘zini o‘sha paytlarda ham qip-qizil go‘sht bosgan edi. (Mar-

ziya Qalandarova, Ko‘ngil izhori). *Qilich desam, qilich emas u O‘xshab qolgan eski pokiga*. (Bobomurod Erali, Hamal vasfi).

POLPIS Iflos. *Xotini og‘zidagini yutolmadi, qizaloq yig‘lamsiradi... Negaligini bilmadi-yu, oldingi turmushi tez-tez esiga tushadigan bo‘ldi. Birinchi eri uni “polpis, isqirt”, deb ko‘p so‘kardi, o‘tirganini ko‘rsa, oyog‘i bilan turtib o‘tardi, jerkib qo‘yishni ham unutmasdi*. (Nabi Jalolidin, O‘qilmagan kitob).

POLVON Ayiq. *U ham hech narsa bo‘lmagandek, pichog‘ini olib (ayiqning uyg‘nib qolishidan qo‘rqmaganini qarang), polvonnini so‘yadi-da, terisini shilib, yopinib oladi*. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

PONA Narsalarni yorish uchun ishlatiladigan tishli metall parchasi. *U oldingidan pastroqqa tushgan edi. Keyin ponalarni qoqib, mahkamladi*. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

PORIMLI Yoqimli. *Qora hangini yo‘rttirib, dalaga ketgan bobo oqshom rangi tiniqib, ruhi ochilib qaytardi, dalaning havosi odamga porimli edi*. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

POPIRI (Toshqo‘rg‘on) Popuk. *Keyin bor hunarini ishga solib, ro‘molcha tikadi, unga inja kashtalar chekadi, atrofiga popirilar to‘qiydi*. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

POPISH 1. Tuyaning tovoni. *Qoragina popish, Devorga yopish*. (Topishmoq. Javob – kaltakesak). **2.** Kalishga o‘xshash, taka charmidan (taka-kiydan) tikilgan oyoq kiyim. *O‘ziga to‘q erkaklar mukki etik, o‘rtahollari popish, kambag‘allari esa chorig‘ kiyishgan*. (Surxondaryo – etnografik makon).

POPISHAK (poyi pishang) Pedal. *Qaydasan Beshtom deb velosiped popishagini bosdim, jonivor yelday uchdi. Uylarida Darmon opadan bo‘lak hech kim yo‘q ekan. Lapani qo‘liga tutqazdim*. (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchalar). *Mo‘min tepaga ham, pastga ham, hatto sherigiga ham qaramas, chambarakka mahkam yopishganicha gaz popishagini bosardi*. (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo‘rdoqi).

PORI Go‘ng. *Har bir daraxt tagida odam bo‘yi hovuz kavlab, uni pori bilan to‘ldirar, qish bo‘yi chuqurdan suv arimasdi. Daraxt vujudining muzlashi hasharotlarga qiron keltirsa, mahalliy o‘g‘it tomiriga singib,*

*bo'yini o'stirardi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). [Ona] Goh orqalab **pori** tashiydi, goh qayerdandir o'rgan bir bog' o'tni boshiga qo'yib o'tib qoladi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

POSIRDASHMOQ (Xorazm) To'polon qilmoq, shovqin solmoq. *Shu payt pastki qavatda qaysidir kvartiraning qulfi sharaqlab ochildi, keyin kimningdir baqirgani eshitildi: – O'linglar **posirdashib**, hey onangni ...lar! (Shuhrat Matkarim, Indamas).*

POSUR-PUSIRDI (Xorazm) To'polon. *Anavi xonadagilar, ne gap ekan, deb hayron bo'lib turibdilar bu **posur-pusirdini** eshitib, – Ahmad yana atrofiga yolg'ondakam alanglab qo'ydi. – Ne gap o'zi? (Shuhrat Matkarim, Yaxshi odam).*

POXOLDO'Q Yasama, ko'z qo'rqitar uchun qilingan po'pisa. *Olmaysan desam, biydalab tashlaydi. Bunaqa paytda **poxoldo'qni** ishlatib, erkakdek bir yayravolaman. Dunyodagi hukumatlaram xalq bilan muomala qilishda mening usulimdan foydalansa, yomon bo'lmasidi. (Anvar Obidjon, Poxoldo'q).*

POYAPUL Yakkacho'p, kichik ko'prikcha. *Zarif traktorining uyi xuddi biznikiday kanal bo'yida ekan. Uyining to'g'risida xuddi biznikiday **poypapul**. (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchalar). Ko'zim **poypapuldan** o'tib ketayotgan yoki kelayotgan odamlarga ham tushadi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Ko'z oldimda uyi oldidagi **poypapul** yonida suvga termulganicha parishon o'tirgan Darmon opa gavdalanadi. ... (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchalar).*

POYNOV Ariq, hovuzning suvi chiqib ketadigan tomoni, etagi. *Qadim zamonlarda, ya'ni ko'chib yuradigan qizil qum bu qishloqdan uzoqda, Jilvon va Shofirkom (Shofirkon) ro'd (anhor)lari sersuv vaqtlarda bu qishloq juda obod bo'lgan. Ammo Jilvon ro'dini qum bosib va Shofirkomning eski ro'dini ham onda-sonda qum bosib, bu qishloq **poynov** bo'lib qolganidan keyin juda xarob bo'lgan. (Sadridin Ayniy, Esdaliklar).*

PO(Y)PO'SH Oyoq kiyim. *Qishin-yozin yengil kiyimda: egnida oq yaktak, boshida salla, oyog'ida **poypo'sh** edi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). Ot sakrash chog'ida momomizning qo'lidagi*

*toltovoq'i-yu boshidagi ro'moli, oyog'idagi **popo'shi** ham otilib, havoda o'ynab qolavergan. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).*

POYCHA Molning tizzadan pastki qismi. *Ko'pkarining sirlari haqida so'z ochib, "Takani ko'targuncha **poychasini** uzangining ipidan o'tkarib yuborsang, qo'lingga madad bo'ladi" derdilar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

POYCHO'KIR (Farg'ona) Sodda. – *Baribir, bir narsani tushunmayapman, boyaqish o'qituvchidan nima gunoh o'tibdiki, bu qadar dag'dag'a? – Muallim, siz o'ylaganday, ja-a unaqa **poycho'kir** emas-da. U: "Farg'onada kadrlarni tanlash va joyiga qo'yish noxolis, partiya Ustaviga zid usulda amalga oshirilmoqda", deb Moskvaga yozmoqchi. Qamchining bir uchi o'zizgayam tegadi, bilasiz-a, yomon tegadi... (Rahimjon Mirzaqulov, Millatchi). Mahallada kimdir vafot etsa, to'g'ri qabristonga borib go'rkovlarga yordam beradi. Dadang, to'rga chiqib o'tirishni xayoliga ham keltirmaydi. U oddiygina **poycho'kir** odam. Shuning uchun seni o'qitib, katta odam qilmoqchi... (Nabijon Qodirov, Gulyetim). – Ko'p bama'ni, **poycho'kir** yigitlar ekan-da, - dedi kampir o'rniga kirib. – Ammo Shavkatjon sal sho'xroqqa o'xshaydimi? (Anvar Muqimov, Xayri xola tish qo'yirdi).*

POZ(Z)A (Xorazm) Temirdan yasalgan omoch tishi. *Pozza ancha qimmatbaho buyumlardan hisoblanardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

POZACHI (Xorazm) Poza tayyorlovchi kosib. *Qishloqlardagi, qal'alardagi temirchilar, elakchilar, dapmachilar, misgarlar, novvoylar, **pozachilar**, orvachilar, kuchachilar, arjachilar va boshqa kosiblarning holi ne kechadi? (Komil Avaz, Sozanda). Matyoqub **pozachi** chitoyi odam. (Komil Avaz, Sozanda).*

POCHAQIRQAR Ra'nodoshlar oilasiga mansub tikanli buta. *Jar-ko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib **pochaqirqar**, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha. (Bahodir Qobul, Oy yo'li).*

PUCHMAK Nimjon. – *Ha-a, – dedim men uning **puchmak** tirnoqlarini ko'z oldimga keltirar ekanman. Momoning o'zi olgan jarohat haqida*

bunchalar olisdan hikoya so‘zlagani zavqimni keltirib yuborgandi. (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

PO‘KAN (Iqon) *q. po‘kon. Uyda qo‘y so‘yilganda, buvim qorin va po‘kan ichakni tozalab, yuvib, tuzlab, puflab qo‘yadi. Keyin po‘kanni kuzgi oppoq sariyog‘ bilan to‘latadi va qaziday bog‘lab, osib qo‘yadi. Qish kunlari ertalab uni dasturxonga yaproqlab to‘g‘raydi. Qorinlarga ham sariyog‘ni eritib joylaydi va shunday usul bilan tayyorlangan qorin yaxshi saqlanadi. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).*

PO‘KON Yo‘g‘on ichak. *Heh, po‘konidan yel o‘tmagan, deb shuni aytadi-da. Chuchvarani xom sanabsan! (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).*

PO‘LQINCHOQ Ichi po‘k. *Qancha chiransa ham barglari qovjirab, uzumlari po‘lqinchoq bo‘lib qoladi. (G‘ozi Rahmon, Tazarru).*

PO‘PAK I (Xorazm). Popuk. – *Yoqajiyaklarini chiroyli ipakdan qilaman. Ichkari (ishtonbog‘lari)ning po‘paklarini ham ipakdan qilaman. Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish. Tuvdanang suqnazarga sovut, Po‘paklar-ing-ay, taram-taram. (Hol Muhammad Hasan, Do‘mbiram). 2 Sochpopuk. Qayga yo‘rtayapsiz, hey, oqsoch yo‘llar, Oppoq alangadan oq po‘pak tang‘ib? Qaygadir bosh olib ketsa-da gullar, Zulmatdan gul hidi turibdi ang‘ib. (O‘roz Haydar).*

PO‘PAK II Baqato‘n. *Ko‘lmaklarda po‘pak bosgan loyqa suvlar oqib ketdi, ortga qaytmas oqib ketdi. (Latif Mahmudov, Mehr qolur...)*

PO‘PI Popuk. – *Anovi bodicha Yunus po‘piga (tikraytirib soch qo‘yib yurgani uchun laqabi po‘pi) xotinchasi qo‘ydan yaxshi ko‘rinib, oqshomgi navbatga kelmay qo‘ymasin, xo‘pmi? Pitراسi ko‘p solinganmi, qo‘ndoq ko‘kragimga shunday tepdiki, ot emas, tuya tepganday bo‘ldi. Yeb to‘ymas yuhodek o‘t-o‘langa yopishadi. Uygining kuygur bodi, po‘pi yaqinda uylangan. (G‘ozi Rahmon, Tilsimli tog‘lar).*

PO‘RRIQ I Lapashang. *Otam yugurib kelib ko‘tarib oldilar. – Chavandozam shunaqa po‘rriq bo‘ladimi. (Mamatqul Hazratqulov, Ko‘kko‘l). – Iye, nima bo‘ldi? – qilg‘iliqni o‘zi qilib yana o‘zi kuladiyam ukkag‘ardi bobosi. – Po‘rriq emasding-ku. (Jontemir, Turkman bobo).*

PO'RRIQ II (Xorazm) Qamishning oq ildizlari. [Bolalar] ... bir-biriga loy otib o'ynashar, loy orasidan chiqib qolgan **po'rriqlarni** – qamishning oq ildizlarini terib shimardilar. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

PO'RSANG (Xorazm) Tuproq, chang. Kelar edik to'ydan qishloqqa qaytib, Otam bilan ikkov kechib **po'rsang**, chang. Kimdir juda ham sho'x bir qo'shiq aytib Kelaverdi, qo'yib ovozini vang. (Matnazar Abdulhakim, Qo'rqoqning qo'shig'i). Polvonlarning olishayotgan joyi **po'rsang** bo'lganidan biri biridan gupillab yiqilganda ko'tarilgan chang falakka chiqdi. (Matnazar Abdulhakim, Ota Lochin hikoyatlari).

PO'RSIMOQ Yorilmoq. Beshim burut xastahol tamshanib, **po'rsigan** lablarini yaladi. (Norto'xta Qilich, Tantana).

PO'RSIQ Yorilgan. Lablaridagi **po'rsiq** uchuqlarni ohista bosib ko'rdi. – Yig'labsan-ku, o'g'lim. Nima bo'ldi? – O'zim... – Kap-katta bola-ya?! (Norto'xta Qilich, Jumboq).

PO'RTAKI To'g'riso'z. Ha, to'g'riso'z edi. Ammo qishloq odami azaldan to'g'risuo'z, **po'rtaki** keladi. (Shuhrat Matkarim, Sabrinaning ko'zlari). Tuman fermerlar uyushmasining rahbari, kal, deb yozg'irayotgani Reyim ota fermer edi. Yetmishlariga yaqinlashib qolgan. Yetti push-ti ketmon chopib bel ko'targan. **Po'rtaki**. Haqiqatparast. Yolg'onga tobi yo'q. (Shuhrat Matkarim, Yolg'on).

PO'SAXONA Ostona. – Buqoqmas bu, – deb nihoyat asosiy gapga o'tdi Meshpolvon. – Buni tepki deyishadi. Davosi oson: ikkita kulchami, to'rtta olmami, oltita varaqimi – nimaniki topsang, hisobini juft qilib, egizak tug'gan xotinning uyiga borasan, qo'lingdagini berib, dardingni aytasan. Yegan og'iz uyalar degan gap bor. Xotin hamma ishini tashlab qo'yib, kallangni **po'saxonaga** midib yotqizadi, shishgan joyingga yalang oyog'i bilan yetti marta tepadi. Bir haftadan keyin sen ko'rmading, men ko'rmadim bo'lasan. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning jangglari).

PO'SHKAL Tog'liklar unga qaymoq va piyoz qo'shib tayyorlaydigan non. Tinmas Toldibuloq ham, Maynaning zavqi jo'shgan. Nusrat momo yer tandirda, Pishirar singgi **po'shkal** (Tursunboy Adashboyev, Toldi buloq).

Q

QADAMA TAYOQ 5–10 nafar bola ishtirok etadigan, tayoq otib mo‘ljalni aniq olishga o‘rgatadigan cho‘ponlar o‘yini. “*Oq terakmi, ko‘k terak*”, “*Yalq etdi*”, “**Qadama tayoq**”, “*Eshak mindi*” singari o‘yinlar hammani qamrab olgan. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QALAMA Xoda. *Tizzadan balandroq, xonadondagi ko‘rpa-to‘shaklarni kunduzi yig‘ib qo‘yishga mo‘ljallangan, ikkita yonma-yon qalamadan yasalgan eshakka tirmashib chiqish, undan balandlikni his qilish va pastga sakrashning o‘zgacha gashti bor.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QALDIROQ Momoqaldiroq. *Yomg‘ir savalab qolar, qamchisidan tutsammi, Gumburlab ovoz berar olislarda qaldiroq.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). *Cheksiz ko‘k toqlarida qaldiroq qarsillashi... Qaldirg‘och qaytibdi-da.* (Mirtemir, Qaldirg‘och).

QALLAMA Qatlama. [*Hosilot:*] *Endi, gap bunday, qishloqda hech qaysingning katta xolang qallama pishirib, qarab o‘tirgani yo‘q.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QALLAVOCH (Xorazm) Qaldirg‘och. *Joy olibdur ko‘zlaringning ustidan bir qallavoch, Ko‘zi qiymas talpinib uchmoqqa qiyg‘ochim, gulim.* (Matnazar Abdulhakim, G‘azallar).

QANQUV Kesatiq. *Ahmoq kampir qanquv gapirib kayfini uchirgan edi.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a).

QANTAR Qish o‘rtalariga to‘g‘ri keladigan oyingning turkiycha nomi. *Qantar oyida o‘zini yana ham ehtiyotlab qoldi, pana joy izlab, bolalashga hozirlik ko‘ra boshladi.* (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim). **Qantar og‘moq** *Shundanmi, el og‘zida “Qantar og‘sa, tog‘dan qoch” degan naql yuradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QAPSI Payt, o‘nqov. *Kechqurun Ansor do‘konchinikida o‘zlari qolishgach, sheriklariga dilini yordi: – Nazarimda endi Shahrizabzdayam, Kitobdayam menga yorug‘ kun bo‘lmaydigonga o‘xshaydi. Poyimga tushgonlar bir kun bo‘lmasa bir kun qapsini topib, o‘ldirib ketishadi.* (Soyim Is‘hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

QAPTAL 1. Yonbosh. *U Ibodullaning qaptalida kichikroq qonorday do'mpayib yotgan qorniga bir qarab qo'ydi.* (Shuhrat Matkarim, Shoir). 2. Yon. *Viloyat ma'naviyat idorasiga yaqindagina uzoq tumanning uzoq qishlog'idan bo'lim mudiri bo'lib kelgan Qo'ldosh stol qaptalidagi zo'rg'a dodov turgan kursiga ehtiyot bo'libgina o'tirdi* (Shuhrat Matkarim, Havf). 3. Eshak egari. *[Bola] Hayron bo'lib, hayvon nigohini qadab turgan nuqtaga ko'z tashladi-yu, shartta qaptaldan tashlab, orqaga qarab qochdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). – *Qaptaldan mahkam ushlab ol, – degan cha tayoqni bellariga tutib, yonma-yon piyoda ketaverdilar [ota].* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QAPCHIG'AY Tog' orasi. *To'qay, tolzor, qapchig'ay, mendan qochma, hoy burgut, do'stlashaylik, qarchig'ay.* Mirtemir, Qush tili. *Mingashib toyga, Yo qapchig'oyga, Yoki bedana Qalin, soz joyga, Balig'i pana Yoyilma soyga – Ketsak-chi ikkov, Ov yaxshi-da, ov..* (Mirtemir, Ov). *Tog' orasi – qapchig'ay. Oymomo – shamsiqamar.* (Tursunboy Adashboyev, Ishonmasang...).

QAROLI Olxo'ri. *Jiyda gulining isi, qaroli gulin isi. Gullar atrin taratgan tog'imsan, Vatan, o'zing.* (Azim Suyun, Vatan fasllari). *Meva-cheva kam bitadigan, poliz mahsulotlari pishib ulgurmaydigan tog' sharoitida gilos, o'rik, undan keyin qaroli, yong'oq yetilgan bir-ikki oy shinarg'a bo'ladigan kunlar.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QARQARA E'zozli, e'tiborli. – *Gapirma o'shani! Ilmini xo'r qilib, topgan pulida xayr bormi uning? Joyidan ko'chgan daraxt kech avj oladi, bolam. Maktabda bitta bo'lsayam erkak domla bo'lsa yomonmi? Qaytanga qarqara bo'lib yurasan, – kampir sag'al xayol qildi. – Sandan boshqa hech kim qolmaptimi? To'xtarvoy domla-chi? Darsi nimaydi?* (Ma'mura Zohidova, Boychechak).

QARSHIQULOQ Bo'ri. *Qashqir yoki qarshiquloq degani qayda yotib, qayda turadi? Qayerdan kirib qayerdan chiqadi. Turgan turmushi jumboq.* (G'ozil Rahmon, Uch oyoq bo'ri izidan). – *Ha qarshiquloq, hali rizqing borakan-da, ovdan qaytayotganimda uchrab qolding.* (G'ozil Rahmon, Rahmon mergan).

QARG‘AJIYDA (E. angustifolia) Yovvoyi jiyda turi. *Biz yetim-yesir va qashshoqlar tirikchiligi uchun tabiatning o‘zi non-osh o‘rniga sigir-u echki sutidan boshqa yana ko‘plab rizq yaratib qo‘ygan ekan. Bular o‘rik, olma, behi, yong‘oq, uzum, nonjiyda, qarg‘ajiyda, hattoki.. tut daraxtlari.* (Ohunjon Hakim, Cho‘chqa mingan chavandozlar).

QASA Tuyoqli hayvonlarning tezaklaydigan organi.

QASABA [*a. qasaba* – tilla yoki kumush ip; zar uqa; kimxob, zarbof] **I** Zar aralashtirilib to‘qilgan yupqa mato. *Ombor yonidagi yo‘lakda o‘ttiz besh yoshlardagi erkak yetmish yoshlardagi, qaddi bukchaygan, qasaba ro‘mol o‘ragan keksa onaxonga yolvorardi: – Enajon, jon enajon, o‘n minggina berib turing!* (Abduqayum Yo‘ldoshev, To‘y). *Isiriq va yana allambalolarning hidiga to‘lgan badbo‘y hujraga kirganida, kampirning ohorsiz qasabasi ostidan chiqib, yelkasida yoyilib ketgan patila-patila, kirchil oq sochlari, burishib ketgan yuzlari, kipriksiz qovoqlari ostidan yiltirab turgan bit ko‘zlaridan shu qadar irganib ketgandiki, shart o‘rni-dan turib jo‘navoray dedi.* (Bahodir Abdurazzoq, Qora kiyik ta‘qibi).

QASABA [*a. qasaba* – shahar] **II** Katta qishloq, shaharcha. *Qosh qorayganda ular tushgan mashina bir qasabaga kirib keldi.* (Mamatqul Hazratqulov, Chiroq o‘chmagan kecha). *N. ertalab o‘nlarda ko‘chaga chiqdi, bekatdagi do‘kondan gazeta sotib oldi, uni buklab cho‘ntagiga solgach, avtobusga o‘tirib, quyi qasabada yashaydigan tanish ayolnikiga jo‘nadi.* (Nazar Eshonqul, Go‘ro‘g‘li). *Oyparcha bu ayolni qasabadagi to‘y-ma‘rakalarda ko‘rib yurar, hech qachon birga o‘tirib, suhbatdosh bo‘lmagandi.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

QASAMOQ Tezaklamoq. *Qasagani qasagan, Xasdan buyrak yasagan.* (Topishmoq. Javobi – mol tezagi).

QASIRG‘A Momaqaldiroq. *Bir mahal osmon gulduradi. Qasirg‘a tog‘larda aks-sado berib, chor-atrofni zabtiga oldi. Abri naysonlarni kutib, chillayi tobistonga bag‘ir ochayotgan qir-adirlar suv quygandek sokin. Qasirg‘a zumda tindi-qoldi.* (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

QATILMOQ Kamaymoq. *Yosh er-xotinlar qimtinibgina nonushta qilisharkan, mezbonlar hech gap topisholmaganidan: “Olinglar, oldilar-*

ing hech **qatilmayotti**” – degan gapdan nariga o‘tisholmasdi. (Mamadali Mahmudov, O‘lmas qoyalar).

QATORVAZNA (Surxondaryo) O‘qdon. [*Xo‘jamshukur*] – Ulim, birga ketamiz. Yo‘l olis. Har xil odam uchraydi. Anavi beshotarni ol. **Qatorvaznani** taq. To‘rt otni egarla. (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati).

QATOV Tog‘ yonbag‘irlaridagi yassi, toshli maydon. Ho‘v yuqoridagi **qatovga** bir to‘da xotin-qiz chiqib olgan. (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

QATTIQULOQ (Xorazm) Xotirasi kuchli. – Dadam o‘zi bizlarning ota-buvalarimizning hammasi ham **qattiquloq** bo‘lgan deyдилar. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

QAVACHOQ Paxtasi olingan chanoq. G‘o‘zaning **qavachog‘i** yonishga mahtal bo‘ladi. (Shukur Xolmirzayev, O‘zbek xarakteri).

QAY Kirish vaqti, mavsum qayrilishi. – Televizorda aytishibdi. Ertaga sovuq tusharkan. Xazonak ertaroq keladimi deyman. – Yo‘q, bolam, qoraqarg‘aning **qayi**. Yana havolar jo‘nashib ketadi. Dala-tuzda ekin-tikin bor. Davlatning paxtasi bor. Qantarog‘digacha qancha ish bor hali. (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

QAYIRG‘A (Xorazm) Daryo tubida to‘planib qoladigan qum uyumi. Xizmatchining gaplaridan ma‘lum bo‘ldiki, kehasi paroxod **qayirg‘a** – daryoda paydo bo‘lib qoladigan qum uyumiga urilib to‘xtab qolgan ekan. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

QAYNATOVOQ [qayintovoq] Nikoh kehasi kuyovga beriladigan alohida ziyofat. – Olti ulli boyning tili og‘ziga sig‘maydi, yetti ulli boyning dovi olamga sig‘maydi, Bibish checha! – deydi ayvonda **qaynatovoq** hozirlayotgan xotinlardan biri. (Hamid Alp, Zuryod).

QAYPINMOQ Parvo qilmoq. [*Sobir ota*] – Hech nimadan **qaypinmay**, baland ovoz bilan o‘qiyotganimdanmi? (Komil Avaz, Ichon qal‘adagi oydin kecha). U (*Qutlug‘murod*) ham **qaypinmay** polvonning belbog‘iga yopishdi. (Komil Avaz, Sozanda).

QAYROQI Chiniqqan. Tashvishlardan tin olib, bir zum orom og‘ushiga kirgan **qayroqi** tog‘liklarning farog‘atiga sherik bo‘layotgandir. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Bu toklar ko‘milmaydi. Qishda ko‘milmagan-

ligi, sovuqqa o'rganganligi uchun **qayroqi** deyiladi. (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

QAYQI Egri, egik. *Qultoy Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi tayog'ini ushlab... bir so'z aytib turgan ekan. ("Alpomish"). Unga anqayib yo'lka chetidagi temir beton to'siqqa qoqildim. Chiqib qolgan qayqi simi oyog'imga juda yomon urildi. (Ahmad A'zam, Soyasini yo'qotgan odam). Bir zumda kechardim qayqi dovondan, Olistarga boqib, shaydo bo'lardim. (Mirtemir, O'smirlik). Burang-burang, burang ot, Beli qayqi kulrang ot, Tog'i-toshdan qayrilmas, Oyoqlari tayrilmas. (Topishmoq. Javobi – chumoli).*

QAYZIQMOQ Qotib qolmoq (non, xamir kabi unli mahsulotlarga nisbatan). *Ular [non va zog'oralar] dala shabadasidan qayziqib ulgurgan bo'ladi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

QAYCHI (Xorazm) Daryo qirg'og'idan ma'lum masofada ehtimoliy suv toshqinini kesish uchun ko'tarilgan damba. *Hov, savodsizlar, bu zeykash davlatning zeykashi, zeykashning yoqasi ham davlatniki, sizlarning yeringiz, hu-uv, ana! – deb ularga qaychidan pastdagi yerlarini ko'rsataman. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

QACHOV q. **qochov**. *Usta qachov bilan o'yilgan joyni pastga tushirdi, o'qni bir-iiki tiqib ko'rdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

QIDIRMOQ Mehmonga bormoq. *Rovut yaznam u yerga sira bormagan, shuning uchun ham o'ziga yo'ldosh qilib olishni o'ylagan bo'lsa kerak. Men albatta, Jumaboy tog'amdan ruxsat olib, yaznam bilan qidiradigan bo'ldik. O'qish ochilgunicha bir aylanib kelsam, yomon bo'lmaydi. (Marziya Qalandarova, Ko'ngil izhori). – Kuchuk bo'gur, qo'ymaydi, "qidiraylik" deyaveradi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

QILDIR (Xorazm) Daryo bo'yida o'sadigan yovvoyi o'simlik. *Yugurgilayotganlarning ikki ko'zi daryoda, qo'llari bilan allanarsani ko'rsatis-har, bir-birini qistashar, mayka-tursichang ikki o'spirin yo'llarida duch kelgan tikan, jangal, qildir qo'polariga e'tibor bermay, sakrab o'tishar... edi. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

QILLIQ Qo'y junini qirqadigan qaychi. *Usta bilan suhbatlashsangiz, u kishi o'z xotiralarini shunday hikoya qiladi: Maqtanish emas, gapning*

po 'stkallasi, G'uzor va Qamashining qishloqlarida men yasagan o'roq, bel, ketmon va qilliq kirmagan xonadon yo'q hisobi. (Nurilla Aliqulov, Ortiqjon Jo'rayev, Jonbuloq jilg'alari).

QILTIQ (*Taeniatherum crinitum* (Schreb.) Nevski) Boshhoqdoshlar oilasiga mansub, adir, tog'da o'sadigan, bo'yi 20-40 santimetr bo'lgan, donida o'tkir va dag'al qiltirig'i bo'lgan bir yillik o't. *Bulardan tashqari yana shuvoq, yovvoyi bug'doy (ismaloq), taktak (yovvoyi arpa), jasmin, qo'ziquloq, karrak, qiltiq, shirach kabi o'simliklar o'sadi.* (Alibekov L.A. O'rta osiyo tabiiy geografiyasi).

QINBOG' Qinni belga taqish uchun teridan qilingan tasma. *Bulg'ori ko'k qayishdan tikilgan qinga sariq misdan poynak taqilgan. Tuya terisidan mayin qinbog'.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

QINJIR Injiq. *Sen naynov tilingni tortib so'yla. – dedi Norqizil achchiqlanib. – Bo'ying yana picha o'ssin, keyin otang adarg'iday qinjir qizni olib beradi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi). – *Meni birinchi ko'rgandayoq "Ha, so'piltirig, qinjir quyonna bozorga opketyapsanmi?" deb so'radi. Bolalar Botirjonni ozg'in jussasini, shalpanquloqlarini ko'z oldiga keltirib, yugurishdan to'xtab, qorinlarini ushlab qolishdi.* (Iqbol Mirzo, Zarb).

QINQAYMOQ Qiyshaymoq. *Ernazar bobom enkayadi, Kallasi qinqayadi, Tevaragi to'p-to'p, O'rtasi qip-qizil.* (Topishmoq. Javobi – tariq). *Rahmatlik enam aytardilar, o'zingda turibdi bir ayb, kishiga kulmagin qinqayib.* (Ma'mura Zohidova, Boychechak). *Keng dalaning etagida past-baland uylar, bostirmalar, qing'ir-qiyshiq devorlar va egri-bugri ko'chalar qinqayib yotardilar.* (Husayn Shams, Dushman).

QIRNOQ (Xorazm) Yosh bola. *Otam men tomon ishora qilib: Mullamiz, mana qirnoqni (yosh farzandlarni shu tarzda ham atashardi) olib keldim.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

QIROQ Chet. *Bir tup olmaning mevasiga bir mashina g'ovush beradi bozorda! Kuyovi ham dangasa, ishyoqmas! Shu tomorqa yerining qirog'larini o'n-o'n besh tup olma, to'rt-besh tup erta pishar, kech pishar arik eksa o'lami?* (Komil Avaz, Yoqut momo).

QIRP ETTIRMAY. Kiprik qoqmay. *Yuz yillik qayrag ‘ochdek haybatli Bola polvon ko‘zlarini qirp ettirmay Qutlug‘murodga qarab kelaverdi.* (Komil Avaz, Sozanda).

QIRQASOCH *q. qurtqasoch. Qirqasochdan ust kiyimlarni tozalaydigan, oyoq kiyimlari uchun ishlatiladigan, pol tozalaydigan, oyna-deraza artadigan, shisha idishlarni yuvishda qo‘llaniladigan cho‘tkalar va boshqa buyumlar tayyorlanadi.* (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari).

QIRQOQ *Qirg‘ich. So‘ng terilar quritilib, charm tomoni temir qirqoq bilan toki zig‘irday go‘shni qolmaguncha qirib tozalanadi.* (Komil Avaz, Sozanda).

QIRQMA *Juni kalta qilib qirg‘ilgan. Bugun Chokarning uyiga borib, qo‘zi terisidan o‘zi tikkan qirqma po‘stinni ustozga hadya qilmoqchi.* (Komil Avaz, Sozanda).

QIRRIQ *Ayyor. Maman qirriq bir o‘ra to‘la sabzini hozirgacha ochmay kelotkanakan, tunov kuni ochi ko‘rsa, balchiq bo‘lib yotgan emish.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QIRG‘IYAK *Kuz faslining boshlanish payti, qirg‘iy qushi uchib kelgan davr. Qirg‘iyakda, qirg‘oqlarda qirg‘ovullar qirildilar, Qo‘tonlarda qorasondan qoramollar qirildilar.* (Tohir Qahhor, Qirg‘iyak).

QISINMOQ *Siqilmoq, ruhan ezilmoq. [Yoqut momo:] – Tezda qaytarman, deb o‘ylagan edim, qizim. Ro‘zika momong yubormadi, noiloj, so‘zini qaytarolmay, tunab qoldim. O‘zimni ham ichimni it tirnadi. Sizlarni xavotirga qo‘yganimga ko‘p qisindim.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

QISIQLIQ *Daraning o‘tish qiyin, qisilgan tor joyi. Anchagina yo‘l yurganlaridan so‘ng soylilik ichida odatda uchraydigan qisiqlikka yetdilar.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *Bu qisiqlik havorang tovlanadigan zangori slonis toshlaridan tuzilganligi uchun osti yuqoridan yaxshi ko‘rinmas edi. Bu qisiqlikning ikki yonini tikka ko‘tarilgan va balandligi bir necha terak bo‘yi keladigan zov tashkil qilar edi.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

QIYALAMA *Qiyalik. Qiyalamada qor qalin emasdi.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

QIYIR Qumdan kattaroq tosh parchasi. *Oyog'ing ostidan ko'chib tosh – qiyir borliqni bosadi guldurak.* (Hol Muhammad Hasan).

QIYIRCHOQ Mayda toshli yer. *Shu payt kimdir sirpanib yiqildi. Yo'l mayda qiyirchoq toshli edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Endi mayda qiyirchoq toshli tik qiyalikdan deyarli o'rmalab, bir chaqirimlar tepaga ko'tarilish kerak.* (Hakim Sattoriy, Mahak toshi).

QIYRACHAK To'nka yorilayotganda yonidan uchgan mayda o'tinlar. *Yigit tutantiriq uchun ayvondan quruq qiyrachaklarni terib keldida, samovar ostidagi qo'pol o'tinlarni chiqarib tashladi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

QIYTAR (Xorazm) Bir ko'zi ochiq, ikkinchi ko'zi qisiq odam. [*O'rin podachining*] *Ko'zlari ham shunga munosib, qiytar – bir ko'zi to'la ochiq, ikkinchi ko'zi xiyol qisiq edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

QIY'G'IRAK Qiyg'ir polaponi. *Ko'zingga tahdidli tikilar g'oyir kecha tuxum yorgan qiyog'irak.* (Hol Muhammad Hasan).

QIZIL (Jizzax) Bug'doy. *O', o'rob-o'rob, bosingnor-ey, O', o'rolor to'lsin qizilg'o-ey.* (“Xalq qo'shig'i”).

QIZILARCHA (*Juniperus seravschanica* Kom.) Bo'yi 20 m ga yetadigan, diametri 9–12 mm bo'lgan mevalari yumaloq, ko'kimtir-qora tusli, O'rta Osiyo tog'larining pastki va o'rta qismida o'sadigan doim yashil daraxt yoki buta. *Tayyorlov idorasining keng hovli sahnida, daryo sohilidagi sangloqda qizilarcha o'tinlari rasta-rasta qalashib yotardi. Bu o'tin aholiga qadoqlab sotilardi.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). [*Bogazar tog'i*] *Yonbag'irlaridagi jigarrang tuproqlarda qizilarcha va saurarcha, zarang, bodom keng tarqalgan.* (O'zME).

QIZILMAG'IZ Eti qizg'ish qovun navi. *Mening paykalimda bitgan umrboqiy, shakarpalak, qizilmag'iz, bo'rikalla, ko'kkallapish, doniyoriy, gurvay, amiriy qovun yoki qo'zivoy tarvuzlarimning xaridorlari har qachon yo'lda bo'ladi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

QIZILOYOQ I 1. *Yalangoyoq. Er boshiga ish tushsa, etik bilan suv kechar, qiz boshiga ish tushsa, qiziloyoq qir kechar.* (Maqol). **2.** *Yosh bola, go'dak. Qiziloyoq paydo bo'lsa, “qizil yuz”dan ayirar.* (Maqol). **3.** *Kelin. Qizil oyoq kelib, qizil yuzdan judo qildi.* (Maqol).

QIZILOYOQ II Qipchoq qabilasi tarkibidagi urug‘. *K.Shaniyazovning dala tadqiqotlari materiallarida Farg‘ona vodiysida yashagan qipchoq qabilasining qiziloyoq urug‘i qayd qilinib, mazkur urug‘ tarkibidagi qo‘ng‘urboq, toti yoki tot, jetkan, xurmachi, ko‘chachi, biylo tarmoqlari haqida ma‘lumotlar yozib olingan.* (N.Begaliyev, A.Turobov, Samarqand toponimiyasi).

QIZILOYOQ III Bezori, kallakesar. [*Eshon Xurshidoyning otasiga*] *Shu bugun boruvdim qizing oldiga, O‘n-o‘n beshcha qiziloyoq bor ekan. Sochlarini to‘qson olti o‘ribdi, O‘rtaliqqa Xurshid qizing kiribdi, Qiziloyoqlarga kosa beribdi, Yomonlarman ashula qip [qilib] turibdi. “Xurshidoy”.*

QIZILTIKAN (Acantholimon korolkovii) Kermakdoshlar olisaga mansub, tog‘da o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik. *U karta chetidagi shira bosib yotgan qiziltikan, kakra va xas-xushlarni ko‘rsatdi* (Yo‘ldosh Shamsharov). [*Sariosiyo tumanida*] *Yovvoyi o‘simliklardan: tog‘larda zarang, yong‘oq, archa, bodom, qatrang‘i; butalardan pista, do‘lana, itburun, chiya; kserofitlardan tikanli kavrak, betaga, chaytab, oqmomiq, to‘ng‘iz-sirt, suvrang, choyo‘t, chalov, qiziltikan, astragal va b. o‘sadi.* (O‘zME).

QIZILTO‘RA Qizil tusli mahalliy xo‘raki uzum navi. *Eng ertapishari – bahor tugamasidanoq shira yig‘ib ulgiruvchi chilgi. Keyin kishmish, hasayni, husayni, qizbarmoq, shivirg‘oni, qizilto‘ra, shakarangul, qorapirqilar birin-ketin yetilaveradi.* (Anvar Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak).

QIZILYUZ O‘rik navi. *Bekorchi suv sal ko‘llab qolgan joylarda ituzumlar qur soladi. Qizil, qora, sariq deganday. Keyin ko‘ksultonlar aralashgan o‘rikzor. Ko‘rsodiq, subhoni, ahroriy, qizil yuz otliq.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

QISH: Qish bola tashladi Kuzda qor yog‘ishi. *“Eh, bu yog‘i zo‘r bo‘ldi-ku, – dedi Mahkam tabiat mo‘jizasidan to‘lqinlanib. – Qish bola tashladi – kuzda qor yog‘di!”.* Mahkam yuz-ko‘zlariga qo‘nayotgan momiq qordan huzurlanib, ko‘ksini to‘ldirib nafas oldi. (Jo‘ra Fozil, Yaqin-yiroqlar).

QOLTAG‘AY Ishlamay turib o‘zini ustamonlik bilan ishlayotgan tarzida ko‘rsatuvchi kishi. *Firiblardan holi, aldov bilmagan Tepamda zin-*

kiyib qistov qilmagan Qoltag‘ayligini yalov qilmagan Eh, bola kunlarim – may chechaklari! (Anvar Suyunov, May chechaklari).

QONTEPAR (*Biebersteinia multifida* DC.) Yorondoshlar oilasiga kiruvchi, bo‘yi 60 sm keladigan, barglari qalin momiq tuklar bilan qoplangan, yoronguldoshlar oilasiga mansub, adir, tog‘da o‘sadigan ko‘p yillik o‘t. *Yayrab giyoh terganim yodimda. Savat to‘la giyohlardan ko‘k somsa pishirib yeganmiz. Oqtog‘ qo‘ynida esa ravot, qontepar giyoh, sassiqchayir; andiz o‘sadi.* (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim). *Andiz, tog‘dori, oqdori, oqchayir, qontepar, do‘lana, yovvoyi bodom... xullas toshlar orasida nish urib turgan neki noyob giyoh, buta bor, omon qo‘ymaydi.* (Is‘hoq Ismoilov, Meteorit).

QONTOLOQ Qontalash. *Shu payt yuziga ortiqcha tortilgan ro‘mol tagidan opamning yuzidagi qontoloq qamchi o‘rniga ko‘zim tushdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

QONTOMIR Ildizi tugunakli shifobaxsh giyoh. *“Qontomir” degan giyohni qidirib topib, uning ildizida semirib pishgan har biri kartoshkadek yoki undan-da kattaroqlaridan bir nechtasini qazib oldim.* (Isak Sattorov, Devona tabib).

QOPQIR Qopag‘on. – *Hoy, polvon aka to‘xtang, – dedi cho‘pon halloslab yugurib kelib – Manovi tayoqni oling, yo‘lda qopqir iti bor suruvlar ko‘p.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi).

QOQ (Surxondaryo) Tabiiy hovuz. *Eshniyoz Bu atroflarda qachon yurganini eslolmasdi. U qoq izlab qaray boshladi.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati). *Bahor-u yoz taloshida horigan bu tuyalar chanqog‘ini adir-u tog‘lar to‘shidagi qoqlarga yig‘ilgan suvdan qondirib olib, kavsh qaytargancha quyosh tig‘ida cho‘kadilar.* (Shodmonqul Salom, Saraton).

QOQITMA Kesatiq gap. *...hammasidan ham uydagi g‘alva-g‘ishavalardan, Malikayi Turandotning yurakni zaharlangan o‘q kabi o‘yib, iljiratib o‘tadigan kesatma-qoqitmalaridan qulog‘i tinchib qolganiga xursand edi.* (Qamchibek Kenja, Ko‘ktoy). *Bu borada erlarining biron xato-patosini sezib qolishsa bormi, ilmoq-ishora, qoqitma gaplari bilan*

etlarini uzib-uzib olishlarini bir ko'rsangiz. (Abdunabi Boyqo'zi, Teshik-mozor hangomalari).

QOQITMOQ Kesatmoq. *Vatan uchun!* – **qoqitishda** davom etdi *Shohista*. – *U maktabdagi eng xushro'y bola – Davlatyor bilan o'ynar ekan.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

QOQMA 1. Kurashda qoqib yiqitish usuli. *Uning otasi Rahmon polvon qirq yoshida ham kurashda yiqilmagan, keyin bir o'rta yashar o'rta cha polvon bir qoqmada yiqitib qo'yganida – dardi shunchalikki, ombor-ga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota-yota oldin yo'talni orttirib, keyin qon qusa-qusa o'lib ketgandi.* (Shukur Xolmirzayev, Omon ovchining o'limi). *Qulmat uni na yelkadan, na qo'shshadan, na buramadan oldi. O'ngiga siltab tortib, so'ldan qoqma berib, yer iskamagan kuraklarini namchil somonga bosdi-qo'ydi.* (Nurilla Chori, Lo'litopmaslik chol). **2.** Ko'pkarining sovrinsiz, zotsiz chopishdan iborat dashtlabki qismi. *Avvaliga qoqma (zotsiz) boshlanib, yosh-yalanglar otlarda uloqni tortqilashib mashq qilishgan.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

QORA DO'NG Hali qor tushmagan, biroq yer muzlagan mahal. *Qiyaliklarda eshakning tuyog'i ilmay, sirpanib ketadi. Shuni tog'liklar "qora do'ng" deydi...* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QORAKALTAK 1916-yilda bo'lgan xalq qo'zg'oloni. *Har xil usullar ishlatib, odamlarni junbushga soladilar va keng o'ramga tarqalgan xalq harakati boshlanadi. Keyinchalik bu yurish "Qorakaltak" degan nom oladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QORAMASHOQ [Erodium cicutarium (L.) Liherit] Yoronguldoshlar oilasiga mansub, O'rta Osiyo, G'arbiy Sibirda dasht, yaylov, tog'yonbag'irlarida ekinlar orasida o'sadigan bir yillik o't. *Qoramashoq soz tuproqli va qum tuproqli yerlarda juda ko'p o'sadi.* (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O'zbekiston o'simliklari).

QORAMON // QOROMON Qayrag'ochning qattiq turi. *Qoraman yog'ochning yonori bo'lmas, Yonganda o'tining xumori bo'lmas. "Shoda-shoda marvarid". Hayit bahorga to'g'ri kelsa, yana qizlarning kuni tug'gani. Yo gujum, yo qoramon, yo o'rikka arqon tashlab, arg'imchoq*

solishadi. (Ikki-uch joyda yonma-yon va, basma-basiga uchishlar... Yana qo‘shiqlar... (Omon Matjon, Alla). Xiva yo‘lin ikki cheti qoromon, **Qoromondo** o‘sgan go‘zzi qoromon. Yorim go‘rsanmiydi Xivo yo‘lindo, Yurak qonim go‘z yoshimo qoromon. (Matnazar Abdulhakim, Xorazm termalari). Hashamatli gujumlar, **qoromonlar** savlat to‘kib turgan hovuz bo‘yidagi pishgan g‘ishtdan ko‘tarilgan baland supalarga ko‘zlarni qamashtiradigan, cho‘g‘dek qip-qizil gilamlar to‘shalgan... (Komil Avaz, Sozanda).

QORAPARANG Qoramag‘iz. Shu asnoda, yelkasiga xurjun tashlab, qo‘liga uzun hassa tutgan, baland bo‘yli, **qoraparang**, oltmish yoshlardagi bir lo‘li xotin darvozaxonaga tutash ayvondan o‘tib, so‘ri sari ildam yaqinlashaverdi. (Norto‘xta Qilich, Jumboq). Biroq... biroq **qoraparang**, jingalak soch ko‘zlari yonib turgan mehnatsevar Komiljon yosh yetim qoldi. Uylariga yaqinroq bo‘lgan internatda tarbiyalandi. (Umid Bekmhammad, Oxunlardan qolgan meros).

QORAPIRQI Mahalliy uzum navi. Eng ertapishari – bahor tugamasidanoq shira yig‘ib ulgiruvchi chilgi. Keyin kishmish, hasayni, husayni, qizbarmoq, shivirg‘oni, qizilto‘ra, shakarangul, qorapirqilar birin-ketin yetilaveradi. (Anvar Obidjon, Oddiy ayriliq haqida ertak).

QORAQARG‘A Oktyabr oyi kirishi o‘n kunligi. – Televizorda aytishibdi. Ertaga sovuq tusharkan. Xazonak ertaroq keladimi deyman. – Yo‘q, bolam, **qoraqarg‘aning** qayi. Yana havolar jo‘nashib ketadi. Dala-tuzda ekin-tikin bor. Davlatning paxtasi bor. Qantarog‘digacha qancha ish bor hali. (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

QORAQIZ (Bídens tripartíta) Bo‘yi 100 sm cha bo‘lib o‘sadigan, kuchli tarmoqlanadigan o‘q ildizga ega, poyasi yalang‘och yoki siyrak tuklar bilan qoplangan, bir yillik o‘tsimon o‘simlik. **Qoraqiz** o‘ti qaynatmasidan bolalardan teri kasalliklari, har xil diatezlarga davo uchun shifobaxsh vannalar qilinadi. (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar).

QORAQULOQ Mushuklar oilasiga mansub, tumshug‘i uzun, quloq‘ining uchi qora sutemizuvchi hayvon. ...osmonda esa qoraqush uchadi, burguti shudir, yaqin kelmaydi, juda uzoqda-da; keyin ichkarirqoqda, o‘qiganman, tovushqon, **qoraquloq**, yovvoyi cho‘chqalarning ham

umri shu qum ichida kechadi; echkiemar bo'lar ekan, ilon, qoraqurt. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).

QORAQUVRAY (Cánnabis) Nasha o'simligi. *Bekesh qarasa, qayni qoraquvrayning barg-u butoqlarini ikki kafti bilan ishqab, changchasiidan nasha tayyorlash bilan band.* (Abdulhamid Ismoil, Manaschi).

QORATIKAN G'arbiy va O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda tarqalgan, bo'yi 2-3 metrغا teng itjumrutdoshlarga mansub sertikan buta, ba'zan daraxtcha. *Keyin bo'lajak olmazorga katta shamol o'tmaydigan, shamolpana yerni belgi qildi, keyin shag'al, mayda toshini terdi, qoratikan-u bangubevonlardan tozaladi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

QORASHIRG'AY Qorachadan kelgan, qoramag'iz. *Baraka topgur rasmiy tantanaga boradigandek ko'rinishda: ohori to'kilmagan yozlik simobiy kostyum-shim, och sariq ko'ylak, shunga munosib pushti chiziqli qizg'ish bo'yinbog' bir salobatini ikki qilgan, yakkam-dukkam ajin qo'ngan qorashirg'ay enli raftoriga ayricha shukuh bag'ishlagan edi...* (Asad Dilmurod, Xayol cho'g'lanishi). **Qorashirg'ay**, nigohi tikandek qadaluvchi maykachan bir yigit darvoza darichasini ochib: "Kimligingni aytmasang, ichkariga kirmaysan!", deganday kiftini darvozaning bir tavqasiga tirab, qarshimizda ko'ndalang turib oldi. (Abdusaid Ko'chimov, Cho'qqidagi quyosh).

QORASH Qoramag'iz. *Xushbichim shu ayol – umr yo'ldoshim, anavi o'zimga o'xshagan qorash, shukrkim, o'g'lim!* (Ulug'bek Hamdam, Yolg'izlik).

QORA SHO'RAK [qora sho'r o'rik] Olxo'ri. *Bilmadim, negadir bog'da qora nordon olxo'ri (qora sho'rak) ko'p bo'lardi. Biz darhol shunga yopishardik.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

QORA TOVON Tinim bilmay mehnat qiladigan; mehnatkash. *Kelin, qishloq tili bilan aytganda naq "qora tovon", ya'ni kecha-kunduz tinim bilmaydi, yozda, kuzda yaqin-atrof qirning tezagini yasalganday qilib uyiga tashiydi.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

QORAVUT Rangning me'yordan ortiqligi. *Qarqaraning minadigan oti o'zining rang-tusiday qoravut emas.* (G'ozil Rahmon, Qarqara mergan).

QOQLIQMOQ (Xorazm) Xirillamoq. – *Ha-aa, – dedi qari va qorliqqan tovush. – Darrov chiqding? Gazzik yetmadimi yo?* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

QORTOZ Keng, mechkay. *Qorni qortoz, Burni burtoz. Otga minmas, Piyoda yurmas.* (Topishmoq. Javobi – *obdasta*)

QIVROQ Jingalak. *Oybek oriq va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir qivroq qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. (Uning sochlari keyin qoraya boshlagan).* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

QOPCHIQ Bosh chanog'i. – *Boshingning kosa suyagi qoq ikkiga ajralgan. Lopillab urib turgan miyangning qopchig'ini ham ko'rdim, - aytib berdi keyin buvim.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

QOPCHIMOQ Sakramoq. *Osmondanmi otilgan ushbu omad timsoli Jiydalining qoq markazida qubbador qilib tiklangan xo'jako'rsin darvoza – ark tepasidagi erta-yu kech tinmay javrab yotguvchi cho'yan radiokarnayga kelib urilib xushna'ma jiring etdi-yu havoda uchib zarang yerga, undan bir qopchib yo'l yoqasidagi tip-tiniq suv jildirab yotgan ariqqa tushdi...* (Erkin A'zam, Arbob Qulov Parijga boradi). *U taxminan yarim pudcha keladigan loyni havoda qopchib – ilib oladi-da, mo'ljalidagi joyga saldamlar bilan urib yopishtiradi, sirtqi tomonida xoli bo'lib ko'ringan joylarini esa mushti bilan urib-urib yopishtirib qo'yadi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

QOQRA Chiy qamish. *Qoqrada qumri in etar, Chiprodalli-dalli.* (O'zbek xalq qo'shiqlari).

QOQCHAKKA (Xorazm) Ozg'in yuzli, chakkalari kirib ketgan. *Yusuf bobo uzun bo'yli, ozg'in, qoqchakka va qotma odam edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Kattaning yordamchisi uzun bo'yli, oriq va qoqchakka, o'ta takabbur yigit edi.* (Shuhrat Matkarim, Murt). *Shu payt ulardan ancha narida turgan sariq yuzli, qo'ng'irsoch 25-27 yoshlaridagi oriq, qoqchakka yigit ayolga yaqin kelib u bilan nimalarnidir past ovozdah muhokama qila boshladi.* (Shuhrat Matkarim, Arzon mehmonxonada).

QOR: Qor bosmoq. Itlarning yoshiga nisbatan o'lchov. Bulung'urda itni birga yoki uchga kirdi deyishmaydi. Ikki qor bosdi yoki uchinchi qor bosishi deyishadi. *Gidikning mijozi yaxshi ekan, sal kunda qora ovqatga*

o'rgandi. Qish oxirida tozidek ingichka, lekin bo'ydor itga aylandi. Ikki qor bosganida qishlog'imizning oldi iti bo'ldi. (Anvar Suyunov, Oqtirnoq).

QORABALIQ *q. shirmoybaliq. Chinori ham, chinor kavagidagi kelinchakning uyi ham, buloq, undagi qorabaliqlar ham Sayrobniki. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).*

QORAKURMAK *q. shamak. Qorakurmak iyuldan kech kuzga qadar gullab, mevalaydi, asosan urug'idan ko'payadi. (O'zME).*

QORAQUSH I *Bo'ri. [Boyning xotini eriga:] – Soq bo'lsang, saqlayman degan. Bunday odatingiz yo'q edi, ne bo'ldi sizga? Itlarning hurishi bejo. Qishloqqa yo qoraqush oraladi, yo bosmachi. Turing deganda turing. (To'ra Sulaymon, Intizor).*

QORAQUSH II *Mushtariy yulduzi. Yana biroz vaqt o'tgach, ko'kka Qoraqush chiqdi. Tungi samoda jimirlab turaverdi. (Isajon Sulton, Qoraqush yulduzining siri).*

QORAVARAQA // QORAVAROQ *Yaproqlari mayda, to'q rangli, dashtda o'sadigan buta. Orqalariga ot bog'langan qator-qator aravalar, katta-kichik butalar, payhon bo'lgan yantoqlar, qoravaraqalar ochilib qoldi. (Abdulla Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari). Biz maktabdan kelgunimizcha qo'ylar och qolgan, to'qayga chiqqach, ular shapir-shupir o'tlashga kirishib, past to'rong'ilning yumshoq shoxchalarini tortib yular, qoravaroqning yangi novdalarini chimdilar, endigina gulag kirayotgan yantoqning uchlarini tortqilar edi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

QORIQ *(Xorazm) Egat. Qovun ekiladigan yer qariyb tayyor edi. Qoriqlar tortilgan, pushtalar tekislangan. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Qoriqqa qadalgan jajji boshlarni, Bilmadik kim uchun poya qilishdi. (Omon Matjon). – Qani, belni ol, mani izimdan tush. Qoriqni shap-potla. (Kamil Avaz, Sozanda). Qoriqning o'rtasiga yana makka, kormovoy lavlagi, solmasining ikki chetiga yarmisiga pamidor, qolganiga gashir ekar ekan. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

QORMA *(Xorazm) Shavla. Peshin mahali olomonga suzmapalov, qorma tarqatildi. (Kamil Avaz, Sozanda). Odatda qurbon hayiti kunlarida har bir oilada qurbon hayiti qormasi – sergo'sht va seryog' qilib pishirilgan shovla tayyorlandi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Ertalabdan Qa-*

landarxonaga sadaqaga keltirilgan qo‘y so‘yilib, katta qozonda **qorma** pishib yetilgani haqida pirga shipshidilar. (Komil Avaz, Sozanda).

QORCHIN To‘rt burchagi ham boylanadigan, taxminan 70 kilo yuk solish mimkin bo‘lgan qopning turi. *Dastavval 30-40 oila qorchin qoplarida tuyalarga tilla ortib keladi.* (Sobir O‘nar, Xoja Nonber ota).

QOT q. **qatov**. **Qotlarda o‘tlar olqori, Qoyada qiyg‘ir patlari.** *Suv sachratar sangloqlari Birgina so‘zni zikrlab.* (Hol Muhammad Hasan, Sehr). *Kurtiklab qolgan och ayiqday burama shoxinimi qayraydi olqor mo‘miyoli qot qirrasiga.* (Hol Muhammad Hasan, O‘lan).

QOTAYMOQ 1. Qotmoq. *O‘g‘ilcha ham yursin, u ham dalani ko‘rsin, suyagi qotaysin.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). **2.** Ulg‘aymoq. *Momo mamnun jilmayib qo‘ydi, ko‘nglidan “Yolg‘izim ancha qotayib qolar ekan” degan andisha o‘tdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Shu oqshom xonadonlarida nima voqea ro‘y berayotganini zarracha tushunmas, hali qotaymagan o‘g‘il ana shu izdihomning ichida ekanini his qilmasdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QOVURJIN // QOVURCHIN Yetim qovurg‘a. **Qovurjini qotgan.** O‘smir yoshidagi. *Ancha shubhali hol. Chunki, ovulning bo‘z bolalari oldindan tayyorgarlik ko‘rishi, qovurjini qotgan dadillarni to‘plashi kerak edi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi). *Teshiktosh betkayida qo‘y yoyib yurgan qovurjini qotgan bolakay qadoq qo‘llarini soyabon qilib, ko‘kdagi ozod qushlarning sirli raqsini hayratlanib kuzatib turadi.* (Anvar Suyunov, Mangu qo‘shiq). – *Otadan uchov yetim qoldik. Onamizning chehrasini esa, yaxshi eslolmayman. Lekin ikkisiniyam xudoyam ko‘p ko‘rgan ekan; ukam qovurchini qotmay bizlarni tashlab ketdi.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi). *Eshak ildam yo‘rg‘alagani sayin yo‘lovchilarning jussasi aniqlashib boradi: egarda soch-soqoliga oq oralagan o‘rta yoshli kishi. Orqasida oyoqlarini likkilatib kelayotgan, qovurchini qotgan bolakay.* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi).

QOVUNQURT Qovunni un bilan qaynatib, shinnisi qoshiqlab mato ustiga quyib, qotirilib tayyorlanadigan to‘q rangli shirinlik, pastila. *Qovun pishdi degandan buvim qovun shinni, qovunqurt, qovunqoqi tayyorlashni boshlaydi. Qovunqurt qilish uchun qovunni mayda to‘g‘rab, uni*

*un bilan pishiradi; quyilgach, men o'lhakning tomida bo'z dasturxon ustiga qoshiq bilan bitta-bitta quyib chiqaman. Qishda sandalga tikilib, qovunqurtlarni shimib o'tirishni sevardik. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening). Aksarlari qizil guldor ko'ylak kiyib, durralarini qiya o'rab olgan qiz-kelinchaklar bu qovunlarni so'yib, kun shuvoqqa yoyishar, kayvoni xotinlar esa kun bo'yi doshqozonlarda **qovunqurt** qaynatishardi, quchoqqa sig'mas kuz qovunlarini tilib, qovunqoqi qilishardi. (Odil Yoqubov, Oq qushlar, oppoq qushlar).*

QOVG'A Mol terisidan tayyorlangan idish. Quduqlardan suv tortib olishda ishlatiladi. *Tayyor bo'lgan malhamni yaradan go'ja bo'lib ketgan boshimga hafsala bilan surib chiqdi. Oxirida, qalin surilgan malhamning ustidan jumur kiydirib, chorsi ro'mol bilan tang'ib bog'ladi. Boshim kichikroq **qovg'aning** o'zi bo'ldi-qo'ydi. (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).*

QOZIQBOV Qoziqqa bog'lanadigan arqon. *Devorga yaqin ustunga Bo'tako'zning arqonini **qoziqbov** qildim. (Anvar Suyun, Solin yo'li). Yo'lning ustidagi yakka qayrag'ochga yetib to'riq g'unondan tushibdi, nariroqdagi jing'ilning to'moriga **qoziqbov** solib mahkam bog'labdi-da qayrag'ochning soyaliroq joyini o'nqlab, sallani boshiga qo'yib uyquni uraberibdi. (Hamid Elxon, Maynagul).*

QOZON: o'pkasi qozondek Arazlamoq, xafa bo'lmoq. *Ziqna laqabli Bekmirza boyning to'ni teskari, katmanlik og'aynilaridan **o'pkasi qozondek**. (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).*

QOZONYUVG'ICH Suv yuzasida suzadigan, uzun oyoqli hasharot. *Qozonyuvg'ich o'zidan ikki barobar uzun oyoqlarini suv yuziga tiragan holda pirillab uchayotganga o'xshaydi, shu sabab ba'zilar uni uchadi, boshqalar esa suzadi, deydi. (Muhammad Sharif, Tolko'prik).*

QOSH (Xorazm) Bosh to'sin. *Tirnoqqa (o'sha davr imoratlariga xos poydevor) qancha yog'och kerakligi, katta sayisxona uchun qancha gazlik **qosh** – bosh to'sin, hokazo va hokazolar haqida uzuq-yuluq gaplar bo'ldi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

QOSHIQDON Qoshiq solinadigan idish. *Chol shogirdi bo'lmish yoshgina, ozg'in, juda sertavoze yigitning qo'liga **qoshiqdon**-savatni berib, meva-chevaga yubordi-da, o'zi poygahga cho'kka tushib, mehmon-*

lar kimlar va nima uchun kelganliklari bilan ishi bo'lmay, bog'ning tarixi... to'g'risida so'zlab ketdi. (Abdulla Qahhor, Kartina). O't oldida isinib o'tirib, baliq tugadigan savat to'qidi, ortib qolganidan katta non savat va **qoshiqdon** to'qiy boshladi. (Orif Sodiqov, Tog'dagi sarguzashtlar).

QOCHIY (Xorazm) Nozik joy. – E-ee, na gap ekan, debman. Fermerlikni ham o'ng'argan o'ngaradi. Masalan, mana bizni shofyorga o'xshaganlar. Sababi hamma ishning ham **qochig'i** bor. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

QOCHOV Iskana. Kerakli hollarda burun, quloq va ko'z olmasining qo'shimcha bo'shliqlari **qochov** bilan kesib ko'riladi. (A.I.Iskandarov, D.R.Qo'ldoshev, Sud tibbiyoti). Chamamda, Nazar akam o'n besh yoshlarda, esini tanib qolgan. Mehmonlar oldiga kelishdan tortinib, omborxonada yonidagi hujrani ustaxonaga aylantirib, qosh qorayguncha ishga sho'ng'ib ketardi. Randa, tesha, bolg'a, **qachov** qo'lidan tushmasdi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

QOG'ANOQ Yangi tug'gan sigir sutidan tayyorlanadigan taom. **Qog'anoq**, gilagay ichib, Jegda – kebanagin yechib, Cho'lig'i chalar sibi-ziq Masirqab, dunyodan kechib. (Hol Muhammad Hasan, O'lan). – O'g'iz sutidan “**qog'anoq**” pishiryapman, bir qog'anoqqa seni to'ydiray. – yangam qozondagi sutni cho'mich bilan shopirdi. (Shahodat Ulug', Nomi Habibim).

QOG'ATI Yong'oq po'stning archilishi. **Qog'ati** bo'lmay yong'oq, Mo'ljal oldi shoshilib. Daydi kesak “qars” etib, G'urra qildi boshini. (Tursunboy Adashboyev, Xayrulla otgan toshlar).

QO'SHTAQIM Ko'pkarida takani sherikchilik bilan yoki kelishib tashlash. Xayollardan bo'shagach sal tetiklashib gapida davom etdi: – Shu paytgacha Quvonchga shahar-paharni ko'rsatganingda, magaram... Endi o'zing **qo'shtaqim** bo'lib oldiga tushib yo'l boshlamasang, qiyin bo'larov... (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). – Endi sinovlarni to'xtatsak ham bo'ladi, – o'g'lim tayinladi oqsoqol. – To'ylarga qatnash. Sening vazifang chavandozlar taqimidan tushgan uloqni burgut changal qilib, ilib olish. Hech bir chavandoz bilan **qo'shtaqim** bo'lma. Chalkashtirmay, yakkalab takani tashla. To'daning u tomonidan narigi to-

moniga yorib o'tishga o'rgat. Chetgirlarning otini quvib, yakka jilov qilib, qaytar. Takpo burilib ketishni bilsin. (Tursunboy Boymirov, Oqburun).

QUBOSH Polizlarda qushlarni haydash uchun o'rnatiladigan qo'riqchi. *Chuqur-chuqur botib ketgan ko'zlari xuddi poliz o'rtasiga qo'yilgan quboshnikiga o'xshab hissiz boqardi. (Ilhom Zoyir, Qismat o'chi).*

QUDAOYI Quda ayol. *Quda tomonga elchi jo'natishadi. Vakil bahonada qudaning fe'l-atvoriyu qudaoyining matoparastliginiyam bilib qaytadi. (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).*

QULFAK Semizo't. *Shoir bog'dan o't terib kelgan, endi so'rida o'tirib, qulfak somsa yemoqda edi, onasiga qarab: – Ana, qovog'ingiz uchib turgan bo'lsa, jo'gi xolangiz keldi, – dedi. – Turing, kutib oling. (Norto'xta Qilich, Jumboq).*

QULFI TO'N Bir xil ipakli matodan tikilgan to'n, kiyim. *Chopib chiqdim shotutga, Qayrilib salom berdim qulfi to'nli yigitga. (Topishmoq. Javobi – oqjo'xori).*

QULOVUZ Rahbar. – *Qul qutursa quduqqa tupiradi. Qulzodaga kun qo'psa quduqqa qulf qo'ndirarmish. Quldan qulovuz chiqsa ishni quduq ko'mishdan boshlaydi. (Bahodir Qobul, Otahayot).*

QULPAK Qo'ltiqqa solinadigan uchburchak yamoq. *Yaktak orqa-oldi yelkadan oshirib tashlangan yaxlit matodan tashkil topgan, uning ikki yoniga yonlar, yenglar tana qismiga to'g'ri ulanib, yeng va yonlar orasiga qulpak solingan. (O'zME).*

QULUQCHIN (Surxondaryo) Xodalar orasiga kesak terib, loy bilan yopish. *Qalamalar orasi kesak terilib, loy vositasida yopiladi. Bu qorakesak yoki quluqchin deyiladi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

QULCHUMMOQ HISOBI q. **Gul cho'mmiq hisobi.** *Qulchummoq hisobi bo'yicha Sunbula kirib, yoz bo'yi tog'dan yopirilib turgan olov nafasli garmselning payi qirqilgan, kechqurunlari va tongda ko'krakka xush yoqadigan salqin shabada esib qolgandi. (G'ozzi Rahmon, Rahmon mergan).*

QUMQULOQ Eshitganini darrov ilib oladigan, tez o'zlashtirib oladigan. *O'glim, qumquloq bo'l, quloq ber menga, Bitta haqiqatni ayturman senga: Yurtga qorong'ulik tushayotgan payt, Tashga chiq, jasorat*

qo‘shiq^{lar}in ayt – Bemor yuraklarga solgin alanga! (Azim Suyun, Quyosh botar payt). O‘qigani o‘ziniki bo‘lib qoladigan “**qumquloq**” bolakayga [B.Qosimovga] nafaqat kattalar, balki tengdoshlari ham hurmat bilan qarasharkan. (Qozoqboy Yo‘ldosh, Olamni bilishga intilgan olim. [Mahkam tojik:] – Eshonbobomning kitobidan yodlaganman deb, [dostonni] Rahmatullaga aytib berdi [Qirg‘iy]. Bir emranib aytdi endi, baxshiyam qoyil bo‘ldi: **qumquloq** ekan oshnangiz, ofarin, dedi. (Sobir O‘nar, Cham-bilbelning oydalasi).

QUMQUYON Cho‘l, dasht quyoni. Bir yo‘la beshta **qumquyon** bolasini yegan bo‘lsa-da, hali qorni to‘ymaganini his etdi. (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

QUMON Qumg‘on. Meni chushindingmi? – Juman qassob kampirining tumshug‘ining oldida **qumon**day mushtini o‘ynatdi. (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

QUMORTQI 1. Achchiq. Orqasidan Salomatning achchig‘ va **qumortqi** so‘zlari qamchidek kelib tegadir. (Lolaxon Sayfullina, Ichkari – Cho‘lpon tarjimasi). **2** Qalampir sho‘rva. – Puli kuygan qari qiz qizil qalampir chaynabdi, degan gapdan ma‘lum... Men ketdim, maktabda **qumortqi** tayyorlab kutib o‘tirishgandir. (Iqbol Mirzo, Zarb).

QUMROL Jigarrang, qo‘ng‘ir. Sochi **qumrol**, dudog‘i lola, yuzlari oq, yonoqlari ol... (Shavkat Rahmon). Kutdim, kirib kelding kutilmagan-da, **Qumrol** sochlaringga taqib bahorni. (Vohid Luqmon). Uxlar qiz, to xushim uchgay, uyg‘onmas, **Qumrol** sochlarida uxlaydi zulm. (Nurilloh). ...Keyin bo‘shab qoldi **qumrolrang** osmon Quchli qushchalar ham sekin aylanib, yomg‘ir hidi to‘lgan bog‘larga o‘tdi. (Qutlibeka Rahimboyeva, Bahorning bir kuni).

QUMTOVUSHQON q. **qumquyon**. Qumquyon, yana uni “**qumtovushqon**” deyishadi, xullas, bu jonivor yilda ikki-uch bolalaydi. (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

QUMURSA Chumoli. Ko‘rdim: Qoya qulab daryoni to‘sdi **Qumursa** uyasin baqalar bosdi. (Hol Muhammad Hasan, Tush).

QURALPA Tengdosh do‘st. Odamlar o‘z **quralpasi**, chiqishadigan tengdoshi bilan davra olib o‘tirgan. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Otasi-

ning boshqa tengdoshlari, **quralpalari** kelib, ezilib yig'lardilar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QURAMTA O'qdon, sadoq. *"Qon tortib, odamning ajali yetdi". U parizod quramtaga qo'l soldi, Quramtadan o'n to'rt tutam o'q oldi. Yoyning girishiga o'qini soldi. O'lding, odam! – debdi, achchig'i kepti. Sari yoyni shunday qo'lga oldi. O'tdayin parizod tutanib ketdi.* ("Murodxon" dostoni).

QURANDOZ Kitobga, suvga qarab, yoki toshlar yordami bilan fol ochuvchi. *Kunlardan bir kun podsho to'rt yuz qurandozni chaqirib, ularga shunday debdi: – O'g'limning taqdirini ko'ringlar-chi, qanday ekan? Qurandozlar kitob ko'rib qur'a tashlabdilar.* ("Kambag'al qurandoz" ertagi).

QURK Asov otlarni tutadigan sirtmoq. *Kun bo'yi qurkda tutib, G'am-alamni unutilib Sovutadi birma-bir.* (To'ra Sulaymon, Mo'rchamiyon).

QURTQASOCH (Iris songorica Schrenk) Savsarguldoshlar oilasiga mansub, cho'l, adirda o'sadigan ko'p yillik texnika o'simligi. *Ildiz tolali o'simliklardan turli xil cho'tkalar tayyorlash mumkin (oqso'xta, qurtqasoch).* "O'zbekiston o'simliklari".

QURUDIM Orol dengizi, Orol bo'yi. *Buncha ham darqahr bo'lma, Rustamjon, Qurudimga ketgan otang kelgandi(r). Qanday farzand otasiga tig' tortar, "Egilgan bo'yinni kesmaydi xanjar".* ("Murodxon" dostoni). *Necha yillar surib bu elda davron, Qurudim deb, xonim, ketib borasan.* ("Murodxon" dostoni).

QURG'UN Boy. – *Qayin ukam Avazdan eshitdim. Islomxo'jani o'zingiz bilasiz, qurg'un odam, qolaversa, Urusiyaga tanig'liq, - dedi Pirnafas aka choyni puflab icha turib.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). *Xoh noxoh qurg'un o'lsun tez eting, kech qolmasun, Borimizdin dard-u g'am daf' bo'lsinu hech qolmasun...* (Faqiriy).

QURCH Ahillik, hamfikrlik. [Mustafoqulbek] – *Jonimdan o'tib ketdi! Lekin, bek, reja-peja bilan mening qurchim chiqmasdi-da.* (Shukur Xolmirzayev, Tohir Usmonov, Qizil askar qismati).

QURCHOQ Qo‘g‘irchoq. *Oltinbek Boyhusanning ko‘zlariga samimiy boqib, “men qurchog‘iga do‘ppi yasab berdim”, dedi va unga ham jilmayganicha tikilib turaverdi. (Anvar Obidjon, O...o...jon). Og‘il, chetan, quduq boshi chang bosib, Onam sho‘rlik o‘xshar jonli qurchoqqa. (Mirtemir, Onaginam).*

QUT Shimol. *Oldindan sohibqiron Ketib borar qut tomon, Yo‘l azobi beomon. (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).*

QUTORMOQ (Xorazm) Tugamoq. – *Opa, nuvvingiz bor? – deyishardi. Opam parishon holda: Qutordi (tugadi), deb javob qilib qo‘ya qolaradi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). –Ketik, ishni qutorib qo‘yali, - dedi cjortak burchagida turgan belkurakka ishora qilib. – Olib yur! Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish. – Sen tuprog‘ingni tekisla, – dedi Ayyubnazar aka unga.– Men ishimni qutordim. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

QUTOYOQ Omadli. *Uni ham ilib ketishdi – Qoraqiz qutoyoq bo‘lib, Do‘stmuhamedov xonadoniga tuzuk-tuzuk joylardan sovchilar kela boshladi. (Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar).*

QUYONSUYAK (Ammodendron conollyi Bge.) Bo‘yi 1–1,5 m, barglari kumushrang, binafsharang gulli, burchoqdoshlarga mansub, tarikbida zaharli alkaloidlar bo‘lgan butalar turkumi. *Bo‘rlitov, Qirqqiz qal‘asi etaklari, qumliklar bag‘ridagi qo‘tontumshuq, tuyasingir, chitir, qizg‘aldoq, ko‘knorqizg‘aldoq, yovvoyi kandir, qo‘zitikan, mingbosh, olabuta, teresken, sarisazan, tuyaqorin, oqsor, cherkez, quyonsuyak, quyonyung, baliqko‘z, chog‘on, bo‘zang, biyurg‘un va boshqa yuzlab o‘simliklarning xosiyati bir yaratganga-yu, bir boyaqish Narsavga ayon. (Yangiboy Qo‘chqorov, Etikdo‘zning elchisi). Ikki-uchta o‘spirin bir-biriga hazil qilganicha, biri ko‘ziga ko‘ringan yulg‘un, selin, oq saksovul, quyonsuyak, yovvoyi jiydalar poyasiga bolta urar, qolgan ikkitasi chopilganlarini sal narida turgan eshak-aravaga ortmoqda edi. (Nargis Qosimova, Faryod).*

QUYONQUYRUQ Tik poyali, bo‘yi 30–120 sm, sariq gulli, sigirquyruqdoshlarga mansub O‘rta Osiyoda keng tarqalgan ikki yillik begona o‘t. *[Repetek qo‘riqxonasi] Boshqa qo‘riqxonalaridan ...Qoraqum cho‘lida o‘sadigan asosiy o‘simlik turkumlari (oq va qora saksovul, qandim, cherkez, quyonsuyak, borjoq, quyonquyruq, yaltirbosh, cho‘lkucha-*

la, lolaqizg'aldoq, sassiqquray, iloncho 'p, tuyayaproq, shirach va b.) bilan ajralib turadi. (O'zME).

QUYOSHLAMA Quyosh tushib turgan joy, oftobshuvoq. *Ana, chol supa labida, oyog'ining birini ikkinchisiga qo'yib, quyoshlamada, allambalo trubkasi labida, oromkursiga yaslangan ko'yi, gazeta o'qiyapti...* (Norto'xta Qilich, Zizila). *Suyuklisining oq oralagan ko'kragiga boshini qo'yib quyoshlamada erkalanib yotishini ko'rgan qay bir g'alamislar hasaddan o'zlarini qo'yarga joy topolmay, tonggacha miyovlashganlari sari Qora mushuk avvalgisidan ham ko'rkamlashib, nainki o'z hududidagi, balki olis-yaqin o'ramlardagi erkak mushuklarning yuragiga o't solar...* (Komil Avaz, Qaytar dunyo). – *O'ch! Tilim bor deb har narsani so'ylama! Quyoshlamadagi kampirlarga o'xshab gap tashima, deb nech-cha marta aytaman sen jinniga!.. – baqirib berdi ona.* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).

QUSHBOSHI Gullardan qilingan chambarak. *U atrofda chaman bo'lib ochilgan uyurtmaklarni terib qushboshi yasardi-da, qop-qora sochlariga taqardi, kulib-kulib bolaning yoniga borardi.* (Hamid Elxon, Shang'alat).

QUSHOLMASI Mayda, olmasimon mevali va manzarali buta. *Shunda yigitning nazari o'zidan bir necha qadam narida, yo'l chekkasida na'mataksimon to'p bo'lib o'sgan, novdalari tebranayotgan qusholmasiga tushdi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

QO'LJILOP Qo'lqop. – *Senga hazillashayotganim yo'q, - dedi xafa alfozda [Normat]. – Iping bo'lsa, bachalarga qo'ljilop to'qib beraman.* (Nazar Eshonqul, Urush odamlari).

QO'LINI HALOLLASH O'g'il bolani sunnat qilish. O'g'il bola sunnat qilinmasa, yoshi ulug'lar u bilan qo'l berib, so'rashishmagan, shuning uchun “qo'lini halollash” deb aytiladi. **“Qo'lini halollash”** uchun qo'y boqilgan, qip-qizil yo'l-yo'l kandirdan yaktak kiygan besh-olti yoshli bolakay tomdan-tomga sakrab o'ynar, odamlarning tashvishi-yu, otasining g'ami bilan ishi yo'q edi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). [Chavandoz:] – *O'g'limning qo'lini halollab qo'ysam, degan edim.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QO'LLIQ (Xorazm) Qo'lqop. *Juda charchagan shekilli, ota oxirgi jumlanı tugatolmay pinakka ketgandi. U o'ta yalqov va quntsizligi sabab, na yozuv mashinkasida va na kompyuterda yozishni o'rganolmadi. “Bu-*

larda tekst yozsang qizlarning ko'kragini qo'lliqda tutganday bo'lasan", derdi uquvsizligini yashirish uchun. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

QO'LOG'OCH To'qmoq. *Ko'saklarni jo'yaklarga yig'ib, tosh, ba'zan qo'log'och bilan urib ezamiz. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).*

QO'LRO'MOL Dastro'mol. *Ona tugunchagi orasidagi qo'lro'mol – hamyonini olib hisob-kitob qildi. Qishloqdan yelkalab kelgan bisotini o'g'liga topshirdi. (Anvar Suyunov, Bolalikning so'nggi kuni). Nega eslamadik sen qo'lro'mol-u Men gul tutgan zavqli damlarni, esiz. (O'roz Haydar, Eski sevgi). Shundan so'ng u [Salomatbibi] qo'lro'molchani qo'liga olib, "Endi men buni yondirib tashlayman", – dedi. (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).*

QO'LCHIROQ Fonar. *Ikkovlari qo'lchiroq yoqib, ishkonga kirishdi. Amakisi mashinani haydab ketar ekan, tayinladi: "Hech kimga aytma. Velosiped olib beraman!" (O'tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi). Dallol pisanda bilan qo'ylarni aylana boshladi. Chetdagi qo'chqorni xomcho't qildi. Qo'lchiroq olib qo'zili sovliqning tishini sanadi. (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).*

QO'M (Qash.-Surx.) Lux o'simligidan to'qilgan eshak to'qimi. *Kunning issig'iga elib, boshimni qo'mning ustiga qo'yib olganman. (Dilmurod Sodiqov, Najot daraxti).*

QO'MAY Ahmoq. *Ammo hamon Shaydoni bu qo'mayning qo'lidan qutqaradigan mard ko'rinmas edi. (Shuhrat Matkarim, Shaydo).*

QO'PO (Xorazm) Suv yoqalarida to'p bo'lib o'sadigan qildir degan o'simlikdan keyin qoladigan diametri 50–60 sm cha keladigan qoldiq. *Yugurgilayotganlarning ikki ko'zi daryoda, qo'llari bilan allanarsani ko'rsatishar, bir-birini qistashar, mayka-tursichang ikki o'spirin yo'llarida duch kelgan tikan, jangal, qildir qo'polariga e'tibor bermay, sakrab o'tishar... edi. (Shuhrat Matkarim, Yilon). Turkman bola bo'lsa bir qo'poning ustida qo'llaridagi sanchqini osmonga o'qtalغانicha chalqancha qotgan emish. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

QO'QIM Axlat, chiqindi. *Ko'zga g'ubor chekmasa shiprindi – qo'qim, O'zin tulpor bilmasa qirchang'i – so'qim. Baxmaldan bichishmasa eshak-*

ka to 'qim, Qaniydi... (Mirtemir, Dunyo bir soz qo'shiqdan zavq ololsaydi).

QO'QIMOQ Ivirsimoq, sochilib yotmoq, betartib bo'lmoq, chuvalmoq. *Changib yotgan un bozori, Qo'qib yotgan jun bozori.* ("Ravshan" dostoni). [O'sarning] *Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o'ng oyog'ini uqalab o'tirar, oppoq sochlari qo'qib ketgan – ajinadan farqi yo'q edi.* (Shukur Xolmirzayev, Qadimda bo'lgan ekan...). *Manglay chachi qo'qigan Xoli gilam to'qigan Qaynonasiga salom!* (Guljaxon Mardonova, Nur to'la uy). *"Hozir manovi eshik zarb bilan ochilib, sochlari qo'qigan kampir chiqsa-yu, kimsan, nima qilib yuribsan bizning bo'sag'ada, deya zug'um qilib qolsa, nima deyman", degan o'ydan yuragi potirlab ketdi.* (Abdusaid Ko'chimov, Binafsha).

QO'QIR Chapani. *"Qo'qir bo'lsang o'zingga", dedi Davlatyor asta, ammo vajohat bilan. "Qizlarga jo'nqildama! Mard bo'lsang mana bizlarga yopish."* (Shuhrat Matkarim, Shaydo). *Karmoningda puling yo'qmi sira uni bildirma sen, Ayo boydek yurishni men qo'qir Ramatdan o'rgandim.* (Boltaboy Muhammad Qurbon, Jummi doyi hangomalari).

QO'RAMAS Bepisand. *Haydovchilar har xil: biri qo'ramas, ikkinchisi tajang... Yurtdan yurtga o'tishganda iqlim o'zgarar, gohida ertalab bir xil, tushdan keyin boshqa xil kiyinishardi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

QO'RAMTA Bir bo'lak yog'och yoki tappi, chalmaning cho'g'i. *U davrlarda tog' va dasht qishloqlarda gugurt anqoning urug'i edi. Shu sababli har bir uyning sandalida albatta qo'ramta saqlanadi. Uzun qish kechalarida ba'zan qo'ramta kulga aylanib, ertalabgacha o'chib qolardi.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

QO'ROM Bo'rtiq yer. *Masxara cho'qqisi tagidan oqib chiqadigan buloq qo'romlardan o'tib, Echkilikdan nishablaydi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

QO'TONLAMOQ: Oy qo'tonlamoq Oyning atrofida halqasimon yog'du hosil bo'lishi. *Cho'ponlar qo'tonida oy qo'tonlab yotadi, Osmonning o'toviga kirib olgan tog'u tosh.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi).

QO'YINDI 1. Qabr, go'r. – *Shu yerdan o'tgan Nonber ota kimdan kam, – dedi [oqsoqol]. – Kelinglar, shu zotning qo'yindisini obod qilay-*

lik! (Sobir O‘nar, Vijdon). **2.** Qabriston. *Kindik qoni to‘kilgan Qo‘rg‘on qishlog‘idan chiqar-chiqmas qo‘yindi yonidan o‘taturib, hali tuprog‘i sovib ulgurmagan jigarbandlari birma-bir o‘ngidan o‘tib, ko‘ngli buzilib, ko‘kayi kesilib, ko‘ligidan tushib, tilovat qilibdi.* (To‘ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi). *Masjiding uzoq bo‘lsa ham, mozoring yaqin bo‘lsin degandek, qo‘yindi ham shundoqqina qishloqning biqinida.* (Nurali Qobul, Kechikkan turnalar). *Avtobus katta qo‘yindi – qabristonning o‘rtasidan go‘ristonni ikkiga bo‘lib, xuddi endi mayit olib kelgan ulkan tobutdek lapanglab borardi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

QO‘YLASIM Yog‘i olingan ayron. *Buvim o‘choqda qo‘ylasim qaynayotgandi.* (Ma‘mura Zohidova, Boychechak).

QO‘ZIGUL Qoqi. *Kanglum [ko‘nglim], to‘rg‘aylarga tutindik sirdosh, shaydosi bo‘ldik qo‘zigullarning.* (Ikrom Otamurod, Xaritaga tushmagan joy). *Vagoncha ro‘parasidagi tepalik qordan xalos bo‘lib, silliq to‘shi chimo‘t bilan yashillandi, qo‘zigullar diydirab, yer yorib chiqdi.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox).

QO‘ZILOLA (*Fritillaria ferganensis* A. Los.) Piyozguldoshlar oilasiga oid, bo‘yi 60 sm ga yetadigan, sharsimon piyozli, tuksiz poyali ko‘p yillik o‘t. *Turkman xalqi qo‘zilola piyozidan kraxmal olib, uni biroz un bilan aralashtirib non yopganlar.* (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari).

QO‘ZIQULOQ (*Phlomis púngens*) Otquloqning mayda bargli turi, shovul; yalpizdoshlar oilasiga mansub, tog‘li hududlarda turli ekologik sharoitda o‘sadigan ko‘p yillik sertuk o‘t o‘simliklar turkumi. Barglari keng, tuxumsimon, ko‘pincha qo‘zining qulog‘iga o‘xshab, uch tomoni uchliroq, barg band qismi ichkariga kirgan bo‘ladi. *G‘o‘bdintog‘ pichanzorlarida qo‘ng‘irbosh, qo‘ziquloq, qizilmiya, bo‘ztikan, shirach, tuyaqorin, yelkasar, yantoq, taktak, yovvoyi beda, oqquvray, sigirquyruq, shuvoq va kovrakka o‘xshash suvsizlikka chidamli o‘t-o‘lan bisyor.* (Anvar Suyun, G‘o‘bdintog‘ hikoyalari). *Jiyaklarini baland barra o‘t va qo‘ziquloqlar bosib ketgan qizil qumoq yo‘l.* (Shukur Xolmirzayev, O‘sakkizga kirmagan kim bor).

QO‘ZIQUYRUQ Qo‘ziqorinning birturi. *Yanasoyibor* “Ko ‘kbo ‘ynoq”, *O‘sar unda qorataloq. Gulxayri-yu, sunbula, Qo‘ziquyruq, elbaxa.* (Dilorom Boirova, To‘dona). ... *qo‘ziquyruq esa qo‘zichoqning dumbasiga o‘xshagani uchun unga qo‘ziquyruq nomi berilgan.* (G‘ofur Jo‘rayev, Yuring, tog‘ga chiqaylik!) *Ertasiga dadam saharda qo‘shni soyga qo‘ziquyruq tergani ketdilar.* (G‘ofur Jo‘rayev, Yuring, tog‘ga chiqaylik!)

QO‘SHA RO‘MOL (Xorazm) Ikki buklangan kattaroq dastro‘mol. *U peshin namoziga tahorat olib chiqayotgan bo‘lsa kerakki, yo‘l-yo‘lakay qo‘lidagi qo‘sha ro‘mol bilan yuz-qo‘llarini artgancha, ayollar tomon yaqinlashib kelaveradi.* (Kamil Avaz, Sozanda).

QO‘SHQULOQ Paxta yoki jundan o‘rmakda to‘qib tikilgan qop. 150 kilodan ortiq don sig‘adi. *Eshagimni bog‘lab, mezbon keltirgan bir bog‘ ko‘k bedani oldiga soldim. Qo‘shqulog‘imni qo‘ltig‘imga qisganimcha yigitning ortidan torgina dahliz orqali mehmonxonasiga kirdim.* (Soyim, Is‘hoq, Osmon ustuni).

QO‘SHXONA Uzoqdan kelgan mehmonlar qo‘nadigan xonadon. – *Qulmat-ay! – dedi. – Qo‘shxonalarga bor-da, mehmonlarga xabar ber! Olish boshlandi, de! Chop, zuvillab borib, zuvillab kel!* (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). *Oqshomlari qo‘shxonalarda tongotar gurgullar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

QO‘CHQIL Qizil. [Xurshidoy] *Toshga tegib tirnoqlari to‘kilib, Yurgan izga qo‘chqil qonlar yoqilib.* (“Xurshidoy” dostoni). [Ahmadbek:] *Martabani bergay yaratgan rahmon, Choponlarim bo‘lib qopti [qolibdi] qo‘chqil qon.* (“Yusuf bilan Ahmad” dostoni). *Mana shu mashaqqatli va noqulay paytda ziyofatxonaning ovoz yutuvchi qora-qo‘chqil sun‘iy charm qoplamali eshigi ochildi va Jin Ganjuan kirib keldi.* (Mo Yan, Musallas mamlakati – Amir Fayzulla tarjiması). **Qo‘chqil tortmoq.** Qizarmoq. *Iziddin inoqning turqi qo‘chqil tortib ko‘kardi-yu, saldayoq o‘ziga kelib, Abduboriga o‘dag‘aylab berdi: – Ahmoq!! Nasrulloni jangnomasin bitimoqni seng‘a kim qo‘yubdur!* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

QO‘N(G)ISH Qo‘shni. *Yonida jo‘ralari, hamsoya-qo‘nishi ot yo‘rtirib borishardi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi). *Ammo ko‘p ish*

ham etgan. Bizzi **qo'ngshi** bor, universitetda ishlaydi. Shu shunday deydi. Xorazmdagi shoirarning oldi edi, deydi. (Shuhrat Matkarim, Xavf).

R

RANDAK Chinniguldoshlar oilasiga mansub, adir, tog'da o'sadigan bir yillik o't. *Uni qishi bilan talaygina mol yeb ado qilolmaydi, chunki bu odmi och, randakli arpa emas, balki kaptar terganday to'q, shirali arpa.* (Hamid Alp, Zuryod).

RAPAK Tokcha. *Haligi to'ydan berilgan tugunchak rapakda turgan ekan, ona burdalab, To'datoshga tashlab kelibdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Uylarning keng tarafi rapak qilib solingan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

RAVOT Dorivor giyoh. *Enamning bir tabibcha ilmi bor edi. "Ravot – buyrak shamollashi oldini oladi, qontepargiyoh qon ketganda davo bo'ladi, sassiqchayir yo'talga malham", – deb uqtirgich edi.* (Shahodat Ulug', Nomi Habibim).

RAG'ZA Tog'liklar kiyadigan, jundan to'qilgan ishton. *Barlosning tog'chil yigitlari yog'in-sochinda kiyadigan jun chalvor rag'zani kiyib, ustidan to'qima ishton bog'ini tortib bog'ladi.* (G'ozzi Rahmon, Rahmon mergan).

RANG (*Carex phachystilis* Gay.) Hiloldoshlar oilasiga mansub, cho'l, adir, tog'da o'sadigan ozuqabop ko'p yillik o't. *Bahorda rang (qorabosh), shaytonkavush, lola va lolaqizg'aldoqlar o'sadi. Chirchiq daryosining qayirlarida yovvoyi hayvonlardan quyon, suv kalamushi, sichqon, g'oz, o'rdak, qirg'ovul, loyxo'rak, so'fito'rg'ay, suvilonlar, ondatra mavjud.* (O'zME).

RA'YLI (Xorazm) Biror sabab bilan to'xtab qolsa, yurmaydigan (ot). *Bir necha daqiqa ichida shalabbo bo'ldik. Bular ham yetmagandek ot ra'yli chiqdi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

RESH [f.-t. **resh** – zaxm, yara, jarohat] Yoriq. ...*Normat bolta urdi-da, tutib turdi, Suyar u bolta urgan reshdan mo'ljallab, bu betidan bolta urdi,*

so'ngra Normat boltasini sug'urib, yana bolta urdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

RINDAK q. **randak**. Men bu "manzara"ga qaramaslikka intilib **rindak** va chakamug'lar bilan uzoq olishdim. Barmoqlarim shilinib, qonab ketdi. **Rindakning** po'lat simdek qattiq, qavssimon urug'lari yopishgan joyidan ajralishni sira istamasdi. (Ne'mat Arslon, Amalgama).

ROBA Ildizi shifobaxsh giyoh. Oyog'im tagida **robaga** ko'zim tushdi. (Shahodat Ulug', Nomi Habibim).

ROMBOQCHI Folbin. Oqdir bilagim, oqdir; **Romboqchiga** rom boqtir. ("Shoda-shoda marvarid").

ROMISH Farog'at. [Yoqut] Dalaga boradi – brigadirning zug'umi, uyiga keladi – qaynonaning indamas nayzalari jonidan o'tib yurgan kunlari butun oila romishiga butkul darz ketar voqea sodir bo'ldi. (Komil Avaz, Yoqut momo).

ROSTON [f.-t. **rog'iston** – bog']: **rostonga topshirmoq (qo'ymoq)** Dafn etmoq. – O'zbekning odatlari qursin ekan: onang – mahalla, otang – mahalla, deb o'sha kuni qo'yarda-qo'ymay, asr namoziga chiqargan edilar; tili tanglayida qotmay, mayitni joyi **rostoniga topshirish** kerak emish!.. (Norto'xta Qilich, Zilzila). Muximi – Bolaboy ham boshqalardek uyli-joyli bo'ldi, bola-chaqa orttirdi, ukalarini uylab, alohida ajratib chiqardi. Onasi vafot qilganida izzat-hurmati bilan joyi **rostoniga** qo'ydi. (Soyim Is'hoq, Qiyomatga qolmagan qasos). **Rostonga ketmoq** O'lmoq. Atigi bir necha soniya oldin zarang shoxidagi fotmachumchuqning laz-zatli go'shti ta'mini tuyib bemalol oftobda isinib yotgan ko'lvor ilon shu taxlit joyi **rostoniga ketdi**. (Hamid Alp, Qo'nalg'a).

ROSH Ariq, kanal chetlaridagi tuproq uyumi. Maktabga yetar-etmas ariq bor edi: Zufarov muallim o'sha zamonlar ariqning ikki **roshiga** daraxt o'tqazgandi: do'lana, yong'oq, terak... deganday qo'lga ilinganini. (Nusrat Rahmat, Xonayi g'aribon). Boroliq **roshina** ekadi qayir, Ro'zika momomlar har gapga qoyil. ("Oy oldida bir yulduz"). Chavag'on charxlangan o'roq bilan qiyaliklarni, ariq **roshlarini**, butalar orasini o'tdan tozalaydi, u har o'roq sirpaganida, maysalar itoatgo'ylik bilan bosh egib

kelaveradilar, o'ti o'rilgan yer yaltirab qolaveradi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

RO'D (Buxoro) Anhor, ariq. *Biz, qurib qolgan Jilvon ro'didan suv oladigan va qum bosib qolgan bir ariqqa yetdik. Men Jilvon ro'dini eshitgan edim, lekin u ariqni bilmasdim, tog'amdan uning nomini so'radim.* (Sadridin Ayniy, Esdaliklar). *Qishloqni oralab, kecha-yu kunduz, qishin-yozin sharqirab katta Pirmas ro'd oqar edi.* (Norto'xta Qilich, Ibrat). *Ona Zarafshon chap sohilni o'z nazoratiga olgan, yo'l-yo'lakay katta-kichik "bolakaylar" – ariqlar, ro'dlarga obi-hayot taratgan.* (Muhammad Salom, Buxoroning suvlari).

RO'JAK Deraza, oyna. *Ro'jaklarni bekitib, eshikni tambalab ketamiz.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

S

SABZAZOR O'tloq. *Ba'zan kunduzlar marvarid tusli yirik-yirik yomg'ir savalab, sabzazorlar qo'ynida rohat qilayotgan shahriston havosini g'ubordan forig' aylar, hayal o'tmay tinib, siyraklashgan bulutlar orasidan quyosh mo'ralar edi.* (Asad Dilmurod, Sherdor). *Oyoqlarimizga jon kirganday bo'ldi. Ildamlab yura boshladik. Ammo qancha ko'p, tez yursak, jamolini ko'z-ko'z qilib turgan sabzazor shunchalik uzoqlashardi.* (Nuriddin Ismoilov, Baxtning olis manzili).

SABZISH TO'N Yashil rangli, yupqa, qavima to'n. *Patnisda taxlog'liq yupqa sabzish to'n, ustida qarg'a shoyi chorsi va to'rt gulli, Andijonnikiga o'xshashroq do'ppi bor edi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

SADPOK O'rta Osiyo xalqlari qishni 90 kun hisoblab, "to'qson" deb ataganlar. Yana bunga ehtiyot yuzasidan 10 kun qo'shib, yuz kunga to'lg'azib, "sadbok" deb yuritganlar. *Qirqa chidagan qirq biriga ham chidaysan endi, – onamga tasalli berardi dadam – Ko'pi ketib ozi qoldi. Ahmon-dahmon o'tdi deguncha u yog'i sadpok... savr..* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim). *Azal-azaldan donishlarimiz ayamajuz bilan yakun topadigan to'qsonga ehtiyot yuzasidan o'n kun qo'shib, "sadbok" deb ham yuritganlar.* (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq Ajuz momo).

SAK It. – *Qaysi go‘rdan ham qishloqqa ko‘chib keldi o‘sha itxo‘r. – Ona, uning astmasi bor. Shu sakning go‘sh-t-yog‘i shunga davo ekan.* (Nodir Normatov, Guldurak dashtlarida). *Vafodor sak edim umid ilgida, Azizil uzay der rishtalarimni. Yelkamga xo‘storim bo‘lib qo‘n, Toydirib ketmasin farishtalarni.* (Erpo‘lat Baxt, Chorlov).

SALDOM 1. Vazn, salmoq, zalvor. *Tanidagi ter sovugach, Ibriq o‘rnidan turib, ichkari kirmoqchi, bir ho‘plam suv ichmoqchi bo‘ldi. Biroq, oyoq-qo‘llari deganini qilmadi. O‘rnidan qo‘zg‘alolmadi. U hali boshiga tushgan og‘ir yuk **saldomini** to‘liq anglab yetmadi, balki anglagisi kelmadi.* (Komil Avaz, Ibriq). 2. Vazminlik. *Aka- uka ikkovi **saldom** bilan “Rokya”ni boshladilar va avjida “Ofiyat”ga alohida urg‘u berdilar.* (Komil Avaz, Bahramandlig‘ saodati).

SALDOMLI Og‘ir, vazmin. *Narvondan yasalgan **saldomli** eshikni ichidan tambalanganmikan deb qattiqroq itargan edi, u yengilgina qiyalab ochildi.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Matti murrik esa bir so‘zdan yengilib ketadiganlardan emas. U hali hech gap bo‘lmagandek, Qutlug‘murod bilan apoq-chapoq bo‘lib ketishiga ishonadi, chunki borliq vujudidan kuch yog‘ilib turgan odam jizzaki bo‘lmaydi, aksincha, ummonda suzadigan ulkan kema yanglig‘ **saldomli**, sokin bo‘ladi.* (Komil Avaz, Sozanda).

SALSABIL [a. **Salsabil** – jannatdagi afsonaviy buloq] Tiniq. *Qishloq mukrim mujdalar kutayotgandek sukunlik og‘ushida. Arvik yoqalab sokingina oqayotgan G‘azovot yopining suvi muzdek, **salsabil**, bir maromda osoyishtalik qo‘shig‘ini aytib borayotgandek shoshilmaydi.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Qirlardan bir yashil to‘plamlar ichdim, **Salsabil** soylardan ko‘klamlar ichdim.* (Sirojiddin Sayyid).

SALQINCHOQ Farzand. *Uning [ayolning] umidi – farzand ko‘rish, shu **salqinchog‘**ini yelkasiga tashlab, elga qo‘shilish edi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). [Singil:] ...*Qachon ta‘na-malomatlardan qutilaman, qachon bitta **salqinchoq**ni yelkamga tashlab chiqaman.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SAKIRTMA Sakrab tushadigan pog‘ona, jarlik, pog‘ona-pog‘ona (zi-napoya shaklidagi yonbag‘ir). *Har bir archa, har bir burum, **sakirtma** tan-*

ish va qadrdon, bu joylarning sog‘inchi yurakni aslo tark etmaydi. (Hakim Sattoriy, Sohibqiron abadiyati).

SALT 1. Bo‘ydoq. *Asar tugadi. Xayol girdobida junjikib teatrdan chiqdim. Shu kundan salt boshim – tinch qulog‘imdan ajradim qoldim. Na yerga sig‘aman, na osmonga. (Sarvar Azimov, Nazokat). 2 Piyoda. Polvonlar o‘tirishlarda to‘rga o‘tkazishadi. Salt qolgani yo‘q: tagida mashina, tablasida ot... Yana nima kerak? (Usmon Azim, Birovning umri).*

SALTANG Olifta. *Man-man bilan bodiga, kattazang bilan sipohi saltangga beshafqat azroyil keladi. (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).*

SANJOQ Bayroq. *Qonli sanjoq ildilar, Pablo. Yetim qilmoq bo‘ldilar ozodlikni faqat. Yana o‘zlarini yetim qildilar, Pablo. (Rauf Parfi, Pablo Neruda o‘limiga).*

SANNOVCHI Baxshi, oqin. *Berilib kuylasa, dushmani do‘stga, qo‘rqoqni botirga, botirni bahodirga, qushni qarchig‘ayga, sopolni oyga aylantira bilganini necha bor ko‘rganim bor. Endi shu sannovchini ishga solishdan o‘zga choramiz yo‘qqa o‘xshaydi, hazratim. (To‘ra Sulaymon, Yovqochdi).*

SAQINA Sochpopuk o‘rniga taqiladigan taqinchoq. *Ayolning orqa sochiga besh-oltita bir so‘mlik, yarim so‘mlik so‘lkavoylardan saqina osilgan. (G‘afur G‘ulom, Shum bola).*

SARAK Urush yillarida, g‘alla o‘rish paytida, yerga to‘kilgan boshloqlarni yig‘ib g‘amlangan bug‘doy. *Bir tomchm ko‘z yoshidek bug‘doy donasi qancha e‘zoz-u iztiroblar bilan xaltachaga tushar, agar uni “katta”lardan biri bilib qolsa, daryo-daryo ko‘z yoshlariga sabab bo‘lardi. Qo‘lga tushganda mehnat haqidan ayrilardi. Bu xazina “sarak” deb yuritilar, bir hovuch sarak o‘n kunlab yig‘ilardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). O‘g‘lim, sarak tera qol, Juda o‘ng‘ay yanchgani. O‘sha xalta kechgacha yelkamdan tushmas asti (Tursunboy Adashboyev, Yodgorlik).*

SARANCH Qo‘l tegirmonni aylantiradigan yog‘och dastak. *U kishiga [Shamsi To‘rayevichga] “shapaloq”da o‘rta barmoq rolini ajratish joiz, chunki saranch o‘z atrofida tegirmonni qanday aylantirsa, u ham asardagi barcha qahramonlarni xuddi shunday harakatga keltiradi. (Muhammad Pirriyev, Tillo tabassumlar zargari).*

SARASOPINDA Batartib. [Ro 'zika momo:] – Shukur, hammasi yaxshi, qadrdonginam, hammasi *sarasopinda*. (Komil Avaz, Yoqut momo).

SARDO'Z q. **shardo'z**. [Barot Boyqobilovning] *Qo'lida oq qog'ozga bejirim o'ralib, ustidan oq sardo'z bilan chiroyli bog'langan to'rtburchak narsani menga uzatayotib: – Mana buni sizga Sharof Rashidovich berib yubordi, – dedi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Diydor). *Erka akam bir necha joyini sardo'z bilan chandib, chiptasifat to'qilgan g'ishsha o'ramini bir arava qilib olib keldi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

SARIQSO'FIYON (Farg'ona) Sassiqlik popishak. *Gohida yashilliklarga burkangan ma'volar orasidan sariqso'fiyon tovushi kelib qolsa, qayerdaligini aniq bilardi.* (Isajon Sulton, Oftob chiqdi olamga...)

SARI(Q)TOL Barglari sariqlik turi. *Sariqtol ko'ringanga sarg'aygancha yelkasi qisilib, kim nima desa og'ziga qaraydi. Undan gap chiqqandayam biron yelkalab, o'tin qilmagan.* (Bahodir Qobul, Tanovar). *Ko'priklar ham ilma-teshik, zog'osa-yu saritollar shapshab qolgan, tuproq yo'q (cho'ng qoyalar ichida yer ham ko'prikning ilma-teshigiga tushib, “dorboz” bo'lib qolgan yoki xarini “minib” olgan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SAS-SABARSIZ Indamay. *U ponsodning to'pponchani g'ilofdan sas-sabarsiz sug'urib olganligini sezdi-yu, uning ko'zlarida shu choq shaxtidan qaytgani bois qo'rboshiga nisbatan norozilik ko'lkalari paydo bo'lganini anglolmay qoldi.* (Shoyim Bo'tayev, Qora tuman). *Kapalakdek sas-sabarsiz uchdik biz, Tikanzorni yalangoyoq quchdik biz.* (O'roz Haydar, Qirqqiztepa afsonasi). *Na chora, eshakka sas-sabarsiz qo'ndim. Buvam yo'l-yo'lakay Mavlon polvon haqida gapirib borardi.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

SASSIQCHAYIR Soyabonguldoshlarga mansub, ozuqabop, cho'l-dashtlarda o'sadigan ko'p yillik o't. *Enamning bir tabibcha ilmi bor edi. “Ravot – buyrak shamollashi oldini oladi, qontepargiyoh qon ketganda da'vo bo'ladi, sassiqchayir yo'talga malham”, – deb uqtirgich edi.* (Shahodat Ulug', Nomi Habibim).

SATIL Chelak. *Norqo'chqor orqa eshikni ochib, kelinga satilda pomidor, ko'katlar, ko'zachadagi shirbirinchni olib berdi-da, o'zi otasi oldi-*

ga kelib o'tirdi. (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). *Shundoq dahlizga chiqishimni bilaman, oyog'im satilga tegib ketib, suv to'kilib, oyog'im sirpanib, yerga dumg'azam bilan o'tirib qoldim.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

SATOSHQ (Xorazm) Aralashmoq, qo'shmoq. – *O'lga-ayy, bir charvoyiga satoshib qolibmiz, – dedi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Salima.* (Shuhrat Matkarim, Boljon). *Kim bilan satoshsa ham tashabbusni qo'lga olib bo'ynidan "xippa bo'g'ar", ko'chma ma'noda albatta, to "jon bermaguncha", qo'yib yubormas edi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas). *Ne yerga borsang bularning og'aynilarini eshitadilar-da, qo'y, bizlarni shular bilan satohtirmanglar, o'z'laringiz hal qiling, oilaviy masalangizni, deydilar.* (Shuhrat Matkarim, Tozagul).

SATQOQ (Qashqadaryo) Shamollash natijasidagi, tana a'zolari tortishadigan kasallik. *Chavag'on uni to'g'rilab yotqirib qo'ydi, bilagini qisib bog'langan ro'molni yechdi, kimningdir, "Balki satqoq bo'lgandir, qo'li uvishsa yozilib ketadi" degan maslahati bilan shunday qilishgandi, baribir nafi bo'lmadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Onam keyingi vaqtda tez-tez "Qora satqoq" degan kasalga yo'liqayotgan va qornini changallab yotib qolayotgandi.* (Mengliboy Murodov, Mening bola qalbim).

SAVA Tana terisidan qilingan mesh. *Sanoch hademay tugab savaga o'tiladi.* (To'ra Sulaymon, Mo'rchamiyon).

SAVMAL Dumbul, aqli kirarli-chiqarli. *Kolxozimizda ikkitagina firqa a'zosi bo'lib, ular ham yaqindagina o'tishgan: biri Xoltoy rais, biri Savur savmal.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni). *U esa hech narsani tushunmaydigan, savmal bir bola bo'lib ko'rinyapti ko'zimga. Shu mening o'rtog'immi, nahotki shu bilan oshna-og'aynigarchilik qilib yurgan bo'lsam?! Ovloqroq bir joy bo'lsa-yu achchiq-tizziq gaplar bilan uzib-uzib olsam.* (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi).

SAVOQ Ip. *Hozir ham onamning kashta gullariga igna urgach, quloch yozib uzun-uzun savoq tortishlari, ish tika turib chiroyli xirgoyi qilishlari ko'z o'ngimdan ketmaydi.* (Zebo Rahimova, So'z aytmoq iztirobi). *Aravalar ortidan izma-iz mezonlar savoqlari qo'l yetgan joyigacha dorosadilar. Savoqni uzunligi mana shuncha degan aniq mezoni bo'lmaydi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

SAZAQ q. sozoq. *Sultonmurod qaynotasi vafotidan keyin, mana necha yildir kim, erta kuzdan bahor oxirigacha Qoraqum ichkarilariga kirib, sazaq o'tin olib chiqib sotadi.* (Komil Avaz, Sozanda).

SAG'NOQ Toshloq. *Soylarning o'zanini sag'noq, sangloq deyishadi. Bu toshloq demak. Biroq bu sangloqlar ham egallanib, it-u qushga otar tosh topolmaysiz.* (Nurali Qobil, Kechikkan turnalar).

SANGLOQ Toshloq. *Soyda og'il-oshtoq va kattagina qo'ton bor. Kamardagi keng tomorqada endi tupaklagan makkajo'xori sarg'ayib qovjiragan, ozroq joyda sangloqning toshidek tarvuzlar sochilib yotibdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qonda bor). **Sangloq** bilan yurib qaloqdan os-hdi, hayatning ichi bilan daraxtlarni qoralab boraverdi. (Hamid Elxon, Maynagul).

SANGROV Mustaqil fikri yo'q, hardamxayol, merov. *[Otaqul] Qishlog'imizga kelgan kezlari nimjongina, sangrovroq yigit edi.* (Soyim Is'hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

SELGA Sel suvi oqib turadigan yer. *Ayniqsa, bahor kezlari yer selgib, qizigan chog'lar uning xuruji ayovsiz bo'ladi. Yo'lidagi birorta soy yoki selgani suv olib ketib, bechora o'tolmay yuribdimi?* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). *Xo'jayipokning selgasi yoqalab besh-o'n tom-toshli ovullar har-har joyda ko'zga chalinadi. Ammo bahorda bu dashtda hayot qaynaydi. Cho'pon-cho'liqning davri keladi.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

SELOVA Sel oqadigan soylik. *Seldan keyin keladigan selova hade may to'xtamadi.* (Bahodir Qobul, Ko'klam so'ngidagi jala). *Sel-u selova dala-yu dashtga olib ketadi. Teraklar shunda talosh bo'ladi.* (Bahodir Qobul, Oq kamar). *Kattasoydan boshlanib, qishloqni qoq ikkiga bo'lib, naqd Kattatog'ga borib qadaladigan yo'l aslida yog'in-sochin g'ayrat qilganda chag'at-u o'ngir, hovli-yu hayotlardan yig'iladigan sel-u selovani soyga quyadigan jar.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

SELTAYMOQ Qaqqaymoq. *Olamda shunday qurol borligini xayoliga keltirmagan qaroqchi takbiridan adashg'on imomday selgayib qoldi.* (Soyim Is'hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

SEMON Sement. *Qaytayotganda yugurgancha tepalikka chiqib, mashinasi o'tgan yoz qad ko'targan xashamatli maktab binosini aylanib soyni yangi **semon** ko'prigidan o'tguncha ajabtovur qarab qolardi!* (Latif Mahmudov, Mehr qolur...).

SERPILMOQ Tarqalmoq. *Mendan hurkkan o'laksaxo'rlar **serpilib** ketdi.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

SERTANGLAMOQ U yoqdan bu yoqqa tebranmoq. *U Biroq ke-
linchak unga aslo havaslanib, ishq-muhabbat bilan qaramas, aksincha
zarda-yu dashnomlarini boshiga yog'durgudek **sertanglardi.*** (Hamid Elx-
on, Ayol va ilon).

SERUV Gilam to'qish jarayonida iplar orasiga arqoq o'tkazishda ular-
ni ajratish uchun ishlatiladigan yog'och (tayoq) moslama. *Mashaqqatlar-
dan qochmadi. O'rmakni qanday qurishni, dastgohlarni qanday tayyor-
lashni, ko'targini kuziviga qanday birlashtirishni, **seruviga** ipni qanday
o'rashni, adarg'ini qay yo'sinda o'rnatishni, qilichni qanday qoqishni,
siltashni, qoziqlarni qanday urib, oyoqlarini qanday tiklashni, nihoyat,
adarg'ini qay tartibda tortib borishni – hamma-hammasini miridan-siri-
gacha mukammal egalladi.* (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

SECHA (Xorazm) Chumchuq. *Gujumingda jig'irdidi **sechalar,** Yo-
tib uyqum kelmas yorsiz kechalar. "Shoda-shoda marvarid". [Qo'rchi-
boshi]: El og'zida dog'i bir matal borki, **sechaning** ajali yetsa, burgut
birla o'ynashar emish. (Sa'dulla Siyoyev, Ahmad Yassaviy) ...ustozim,
rahmatli Abdirim bangi sozandalarni uch toifaga bo'lar edi: bulbul, ot,
secha qo'shiqchilar... (Kamil Avaz, Sozanda). *Pastdagilar esa bu bema'ni
imo-ishoralarining ma'nosini tushuna olmay aqldan ozadilar, iniga ilon
kirgan **secha** bolalariday chirqillab yotaveradilar.* (Shuhrat Matkarim,
Yilon). *Bola-chaqa ustiga kesak otilgan **secha** to'piday har tomonga
"porra" uchadi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

SIBJIRILMOQ Siljimoq. *Buvril chetga **sibjirilib** yaqinimizga yo'la-
may turdi.* (Anvar Suyun, Solin yo'li.) *Qo'ng'ir Oqtirnoqning tagidan
sibjirilib chiqar, u esa zilday gavdasi bilan bosib olardi.* (Anvar Suyun,
Oqtirnoq).

SIBIZIQ Sibizg‘a. *Sibiziq qadimgi bir kuyni nola qilyapti. Sibiziqning bir o‘zi bu nolaga kuchi yetmasligini bilib, unga chanqovuz qo‘shiladi.* (Usmon Azim, Tong otgan taraflarda). *Do ‘mbira tobda, sibizg‘a g‘ilofda qolaberdi. Namoz Go‘l bugun sibiziqning o‘rniga ham xurрак tortadigan bo‘ldi...* (Behzod Abdusamad, Tog‘ atirguli).

SILINMOQ Yoddan chiqmoq. *Yashil bog‘lik qishloqlarida Sulu-
vlar bor, nozli yorlar bor. Gulbibi nom bir nozanin qiz silinmaydi hanuz ko‘ngildan.* (Mirtemir, Oysanamning to‘yida).

SILKIMA (Xorazm) Juni qirqilmagan. *Bir-birlariga maqtab-maqtab, bir dona silkima po‘stinni tayyor qilishdi.* (Komil Avaz, Sozanda).

SILKIMA CHO‘GIRMA (Xorazm) Junlari burama-burama bo‘lib o‘sgan qo‘zi terisidan tikilgan telpak. [*Nurmat sho‘ro*] *Ba‘zida qish kunlari bo‘lsa, ustida silkima po‘stin, boshida silkima cho‘girma, yo‘rg‘a otda paydo bo‘lib qolardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

SIMBAG‘AZ Ishkom. *Simbag‘azlarga ko‘tarilmagan tokzorlarni kamaytirish, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarni o‘rganib, ilmiy asoslangan holda tokzorlarni simbag‘azlarga ko‘tarish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.* (“Uzum yetishtirish”).

SIMBUROV q. **simburg‘i.** *Hech zamonda itning zanjirini chilvir bilan ildiradimi qoziqqa?! – otam jahl bilan katagi tomon sudrab borardi. – Simbuurov solsang, qilt etmaydi-ku! Bo‘riga ilakishgan ola ho‘kkidan bo‘lsa bu...* (Anvar Suyunov, Oqtirnoq). *Olovning taftidan molxonaga yaqinlashib bo‘lmaydi. Aksiga olib molxonaning orqa eshiklari simbuurov qilib yopib tashlangan.* (Yusuf Siddiqov, Tokchadan topilgan xazina).

SIMBURG‘I Sim bilan burab bog‘lash, mustahkamlash. – *Mix yaxshimi, simburg‘imi? – Avvalgisi faqat mixlangani uchun tez to‘zdi. Bu safar ham mixlaymiz, ham simlaymiz. Sim uyda bor... – dedi o‘g‘il qat‘iy ohangda.* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

SIMIYO Duoxonlik, ko‘zboylag‘ichlik. *Simiyodan xabardor sergak, mardona qizga.* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).

SIMYON O‘ta jiddiy, ochilib gaplashmaydigan, ichidagi sirtiga chiqmaydigan kishi. *Ayvonda tamaddi qilayotgan simyon yigitlarning biri qovoq solib suhbatisozlar qarshisida paydo bo‘ldi: – Kechirasiz, aka,*

shundoq, tashqarida gaplashib olsak bo'ladimi? (Anvar Suyunov, Tomosha). [O'g'iloj] *Boladan qolgan xotinlarni yig'ib, ovsinlarning go'riga g'isht qalaydi. **Simyon**-da, **simyon!*** (Hamid Alp, Zuryod).

SINLAMOQ Tekshirmoq. *Ravshan shunda O'rol bobodan so'radi: – Otni olayotganda qayerlarini **sinlagan** edingiz bobo?* (Hamid Alp, Zuryod).

SIN SOLMOQ Nazar somoq. *Yoqit momo U bir maromda qadam tashlarkan, yon-atrofga salqin **sin soldi**.* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Biroq, avra-astarini ko'tarib qarasangiz, bundan avval o'tganlariga ko'zlaringizni yumib **sin solsangiz**... hammasi arzimas chaqaday tuyulib, ko'ksingiz huvullayotganday bo'layotganligini sezasiz.* (Norto'xta Qilich, Osmon yig'lagan kun).

SIPJIRILMOQ Sirpanmoq. *Otam uyda yotgan joyidan talvasa bilan **sipjirilib** ayvonga chiqqan, – deb hikoya qilgandi onasi...* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Bir zum sukut ichida quchoqlashib turishgach, qo'llar **sipjirilib** bo'shshadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SIQMON (Xorazm) Jo'xori unidan qilingan xamir, barmoqlar orasidan siqib, qaynab turgan sho'rvaga solib pishiriladigan taom. *Otasi yanada ochilishib lutf qildi: – Endi bundan keyin et dab o'tirma, dasmolni solib pishiravar, piyovami, **siqmonmi**...* Komil Avaz, Sozanda.

SIRIQ q. **suruq**. *Shukurginam, to'g'ri qozoq bo'lib o'sdi. Bo'y-basti ham rahmatli otasining o'zi. **Siriq**day uzun, ammo kamgap, mehnatdan boshqasini bilmaydi...* (G'ozirahmon, Mo'minjon).

SIRP Baquvvat. *Sapo **sirp** shu haqda o'yladi-yu xayollari ostin-ustun bo'lib ketdi.* (Komil Avaz, To'piq). *Cho'qayni aylantirib, u yoq-bu yog'iga razm solib ko'rdi-da: **Sirp**gina, yengilgina ekan, jun paytava bilan kiyib, qo'y boqishga o'ng'ayroq, – deb qo'ydi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

SIRPAMOQ Siltamoq. *Chavag'on charxlangan o'roq bilan qiya-liklarni, ariq roshlarini, butalar orasini o'tdan tozalaydi, u har o'roq **sirpaganida**, maysalar itoatgo'ylik bilan bosh egib kelaveradilar, o'ti o'rilgan yer yaltirab qolaveradi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SIRMA Usti mato bilan qoplangan. *Ustozimizning yana bir singillari Rahbar ammaning erlari – A'zam pochcha inqilobdan oldingi uchuvchi-*

*larga o'xshab tirsagigacha yetadigan keng charm qo'lqop, boshiga sirma charm quloqchin ustidan orqa tomoni yelkalariga tushib turadigan yana bir quloqchin kiyardi. (Said Ahmad, Toshkentdan Pomirgacha). **Sirma** chakmon va iliq muomala taftidanmi yoki mezbon qistovi ila ketma-ket ichilgan ikki piyola qoramurch solingan shirchoy ta'siridami qahramonimizning tanasiga iliqlik kirdi. (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).*

SIRTMA 1. q. sirma. *Bu mening Abdulhamid akani birinchi daf'a ko'rishim edi. Baland bo'yli, yirik gavdali, ustida o'ziga yarashgan farg'onacha yangi **sirtma** to'n, boshida katta suvsar telpak... (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening). **2.** Ko'krakni siqib turish uchun taqiladigan ayollar ich kiyimi. **Sirtma** taqqan qizlar ma'lum davr o'tib, ko'krak sirtmasini yechganlarida gavdalarining ko'krak qismi yalpayib, qo'pollashib ketganini ko'rasiz. ("Xotin-qizlar ensiklopediyasi").*

SIRG'ANMACHOQ Tepadan sirpanib tushishdan iborat bolalar o'yini. *Chaqirishib apil-tapil Do'stlarini, oshnasin. Sirg'anmachoq o'ynashib, Qondirishdi tashnasin. (Tursunboy Adashboyev, Onam koyir).*

SIRCHALI LA'LI Chinni lagancha. *Hammasidan ham dasturxon-da kechagi yopilgan etli patir emas, balki tandirdan yangi uzilgan to'rtta zog'ora chiroylik qilib **sirchali la'liga** terib qo'yilgan. (Kamil Avaz, Yoqut momo).*

SIVIZIQ q. sibiziq. *Dastlabki kunlari qurigan sassiq kovrak boshlarining qor ustida chirpirak uchishi, o'simlik poyalarining **siviziq** chalishidan hadiksiragan suruv qariyb har kuni, ayni bir paytda – peshinda esadigan bu shamolga tobora ko'nikib bordi va oxiri parvo qilmay qo'ydi. (Mengziyo Safarov, Ayrishox).*

SIYDIK: Ko'zining siydigini oqizmoq Yig'lamoq (salbiy). – *Qo'yabersang-chi, har qaysisi har burchakda big'illab-shig'illab o'saberadi, yo'q bo'lsa, nima qilasan – ko'zingning siydigini oqizib, Xudoga nola qilib yuraberasan, undan O'zi asrasin. (Sobir O'nar, Farishta). Agar qiz boladay salga ko'zining siydigini oqizaversa, onasi, ayniqsa, ikki singlisi, misli jalada qolgan palaponlardek, o'zlarini ojiz va panohsiz his etisharmish! (Normurod Norqobilov, Erkak.*

SIYLI (Xorazm) Yaxshi, obro‘li. *Odatdagidek otam xonaning to‘rida, siyli joyni egalladi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

SIYLIQ Sovg‘a, iltifot. *Yozilur bir kuni tarixda daholar siyliqlar olgani, ko‘milgan zamonlar qatida fitnalar ochilmay qolgani.* (Rauf Parfi, Fitnachi xususida). *[Mulla] Oshnolarini ziyorat etib, ko‘p siyliqlar ko‘rib, kelgan yo‘lidan ortga qaytdi.* (Azim Suyun, Nevaralarim uchun).

SIYLIQMOQ Sirg‘alib chiqmoq. *Ufqqa ilohiy tus berib turgan qizg‘ish tuman, tuman ostidan siyliqib chiqqan pastqam adirlar va bu adirlar qurshovida yastanib yotgan ko‘m-ko‘k vodiy kishini ohanrabodek bag‘riga chorlar, Alamazon o‘zi sezmagani holda bu fusunkor og‘ushga tezroq otilishni istab turardi.* (Anvar Obidjon, Alamazon va Gulmat). *To‘yxonadagi bunday tortishuvdan ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilgan Tashkan odamlar orasidan siyliqib tashqariladi.* (Nurilla Chori, Bo‘ron tingan kecha).

SIYRILMA Kuchli yog‘in yoki qor erishidan so‘ng quyiga surilib tushgan ko‘chki. *Kun ko‘tarilaverib, Qizil siyrimadan chiqib olishdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Qo‘liga arqon ilashib qolgan odam ham siyrimadan suvga tushib ketdi.* (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron).

SIYXOH (Xorazm) Qirg‘ich. *[Opam] Endi uzib keltirilgan oshkadini kesib siyxohdan o‘tkazdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

SIYROQ Oyoqning tizzadan pastki qismi, boldir. *Hamma tomoni bekitilgan qo‘ton qizib ketar, siyroq‘igacha semirib yog‘ bog‘lagan qo‘chqor oyog‘idan sovuq olish uchun eshikning tirqishidan... Ko‘zi qonga to‘lgan la‘nati qashqir tuyoqdan tishlab tortgan... (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). – Yaxshi ekan! Oyoqlari silliq, siyroqlari bint bilan o‘ralganday oppoq. Chiroyli ot ekan... Qani, egarla, borib ko‘ray-chi, kim uchib kelibdi ekan.* (Mixail Sholoxov, Tinch Don – Odil Sharapov tarjimas).

SIZLAMOQ Zirqiramoq. *Suyg‘un (kiyik)ning bir shoxiga ursang, ikki shoxi sizlaydi.* (Maqol). *Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi – g‘ashlik, Bedavo sizloviqday sizlatguvchi – g‘ashlik.* (Mirtemir, Onaginam).

SINGROQ (Xorazm) Tovon bilan to‘piq o‘rtasi. *Bahodir kuldi: – Lekin bularning, domla bilan RayONOning, ikkisining qiliqlarini qo‘shib*

ming yil qaynatsang ham hokimning qilig'ining **singroqiga** ham kelmaydi. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

SINGSIMOQ (Xorazm) Ming'irlab xonish qilmoq. – *Ustoz, toliblikda muallimimiz o'rgatgan bir g'azalni o'zimcha **singsib** yuribman, dedi, lekin po'stindo'z ustozim uyida bir-ikki bor xirgoyi qildim deb aytmadi...* (Komil Avaz, Sozanda). *Tayoqni “dutor” qilib, qo'shiq **singsiyverib**, hamma havas qiladigan, yag'rinlari keng, bilaklaridan kuch yog'ilib turgan o'g'il, sozandalikni havas qildi.* (Komil Avaz, Sozanda).

SOLMA (Xorazm) Otizlar orasidan o'tadigan kichik ariqcha. *Hafsala bilan qirib tozalangan **solmadan** qolgan-qutgan xas-cho'plarni qalqitib yuzaga chiqaradi-da, loyqalanib, yangidan jonlangan jonivorlar singari to'lg'onib, buralib mo'ljalga – otiz tomon tezkor o'rmlaydi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Bir oyoq **solmaning** to'ng'irtqasi bor ekan.* (“Gulruh pari” dostonidan).

SOQ Hushyor, ziyrak. *Oftobday bezavol, ohuday **soqsan** Sen elik bolasi – o'yinqaroqsan, Ko'ksimizda mudom o'chmas chiroqsan, G'urbatdan xolissan, g'amdan yiroqsan, Havasim keladi senga, bolajon.* (To'ra Sulaymon, Bolajon). *Bu uyga it ortiqcha – [yanga] o'lgudayin **soq** edi.* (To'ra Sulaymon, Xarsang). **Soq bo'lmoq** Hushyor bo'lmoq. *Qo'rangga **soq bo'l**, qo'shningni o'g'ri tutma.* (Maqol). – **Soq bo'lsang**, saqlayman degan. *Bunday odatingiz yo'q edi, ne bo'ldi sizga? Itlarning hurishi bejo. Qishloqqa yo qoraqush oraladi, yo bosmachi. Turing deganda turing.* (To'ra Sulaymon, Intizor). **Soq etmoq** Hushyor qilmoq, sergak torttirmoq. *O'g'ir tariqni tuyib so'k etar, ota o'g'lini so'kib **soq etar.*** (Maqol).

SOQINMOQ Hushyor, ehtiyot bo'lmoq. *Sinmasa er aldanur, **soqinmasa** el aldanur.* (Maqol).

SOQLAMOQ Himoya qilmoq. *Qirq qiz otlar jilovin tortib sal sergaklanar, **Soq bo'lgan soqlanar** deb.* (To'ra Sulaymon, Mo'rhamiyon).

SOQLIK Hushyorlik, ziyraklik. *Zag'izg'on **soqligidan** o'lmaydi, suqligidan o'ladi.* (Maqol).

SOQMONCHI Yordamchi. ***Soqmonchini** odam o'rnida ko'rmaganlaridanmi yoki chindan ham rang-tusi sap-sariq bo'lganidanmi “Eshnoy sariq” yoki shunchaki “sariq” deb atashar..* (Sobir O'nar, Farishta).

SOQMONCHILIK Yordamchilik. *Yana Eshboydek podaboqarning, aniqrog‘i, podaboqarga yordamchi, ko‘klamgi to‘l mavsumida, ya‘ni mart oyining o‘ninchisidan may oyining o‘ninchisigacha cho‘ponlarga oyiga qirq so‘m evaziga soqmonchilik qilib kun ko‘ruvchi bir g‘aribning katta qizi.* (Sobir O‘nar, Farishta).

SOQOLTAROSH Soqol oladigan ustara. *Yanvar kelsa yigirma uchni qarshilaydigan Elmurodi dadasi bilan soqoltarosh talashib yuraveradimi?* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

SOMONCHUMCHUQ (Xorazm) Sariq chumchuq. *Bu gaplar Sabohatning kallasiga bir pasda kelib, bitta joyda turolmaydigan somonchumchuqday pirr etib uchdi-ketdi. Xayolini yana tushida ko‘rgan ajabtovur gul egalladi.* (Erkin Samandar, Afsungar gul).

SOPALAK Bolalar o‘yini. *Oshqovoq qirsa oyim, Men-chi, girdikapalak. Esdan chiqib Oqchurmak, Unutilar sopalak.* (Tursunboy Adashboyev, Hozirgi bolalar).

SOTARMON Sotuvchi. *Jandaga o‘rangan sotarmonlar tuyay, ot, ho‘kiz, sigir... yetaklab o‘ta boshladi.* (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi). *U boradigan kun sotarmon kechga yaqin yig‘ib o‘tirgan olmalaridan xabar olay deb hovlisiga chiqsa, bir ayiq mevalarni yeb yotgan emish.* (Jasur Kengboyev, Ovchining so‘nggi ovi). *Shu zaylda Qurbon kunda-kunora bozorga qatnaydigan bo‘ldi. Tuxumning yoniga oz-oz olmagan yoki behidan qo‘shadi. Sotish ishi esa osonmas. Mo‘jazgina bozorchada olarmondan sotarmon ko‘p.* (Abdulla Ahmad, Umid chirog‘i).

SOV (Qashqadaryo) Tog‘da muz parchalarining erib, shovqin bilan pastga oqishi. *Shu kunlarda daryo qirg‘oqlaridan ajralgan muz parchalari bir-biriga qo‘shilib, ostin-ustun bo‘lib, tor joylarda tiqilib qolib, shovqin bilan oqmoqda edi. Bu holatni xalq tilida “sov” deb atashar...* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SOVURARCHA (Juniperus semiglobosa Rgl) Sarvdoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt, archaning turi. *Archa o‘rmonlari – Turkiston archasi (o‘rikarcha), yarim sharsimon archa (sovurarcha) va Zarafshon archasi (qizilarcha) turlaridan iborat.* (Alibekov L.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi). *Balandligi o‘ttiz-qirq gaz bo‘lgan ko‘k va sovurarchalar*

osmonga intilgan, atrof ko‘m-ko‘k, go‘zal manzara. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SOYIB [sohib so‘zidan] Xo‘jayin, er, turmush o‘rtoq. – *Soyibimiz kelsin, adoq-bosh yig‘ilib maslahat qilayluk, kengashaylik.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a).

SOZIVORI Tovuqsimonlar oilasiga kiradigan parranda; sezarka. *Yomg‘ir selga aylanib, do‘l aralash yog‘a boshladi. Osmondan tushgan muzning kattaligi chumchuqning va sozivori tovuqning tuxumiga tenglashardi.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

SOZOQ Saksovol. *Ularning sinfrabari baland bo‘yli, qoshlari o‘siq, cho‘ziq yuzli, arablarga o‘xshagan qirraburun o‘zini “Cho‘lda o‘sadi saksavul sozoq, Geografiya o‘qituvchisi Seytaqov Qozoq”, deb tanishtirishni xush ko‘radigan quvnoq kishi edi.* (Shuhrat Matkarim, Og‘riq).

SOCHALA 1. Sochqi. *Sochala sochingiz, sochala, Sepini ochingiz, chechalar.* (Eshqobil Shukur, Chimildiq). **2.** Unashtirish marosimi. *...o‘zidan ikki-uch yosh katta akachaning mehrli g‘azabda andarmon-sarson turishi juda yoqadi. Keyin, yana hali maktab yoshiga chiqmagan bolalarning yuzochar yo sochalaga borayotgan onalariga yetishib yurmay... keyin seskanib-seskanib siyib qo‘yishiniyam.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

SOCHALOQ Sochqi. *Barcha g‘amlarning sen bahridan o‘tgin, Sochaloq qil, teraylik bugun, biz sevinch.* (Muxtasar Tojimatova, Muhabbatning so‘rovlari bor). *Hidlarini, islarini kecha bilan Bosh ustidan sochaloq qilar bu jiydalar.* (Salim Ashur, Xanifaga bag‘ishlangan qo‘shiq).

SOCHAVRAMOQ Tarqalmoq. *Toshqo‘rg‘onlik faqat jo‘ralari qurshovida borardi, ko‘ngillari to‘lgach, sochavrab yoyilib ketishdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SOCHOQ Dasturxon. – *Nevchun kelibdilar? – Halima erining oldidagi dasturxon – sochoqni yig‘ishtirar ekan hayron bo‘ldi. – Ne xudoy urdi bularni bugun?* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

SOG‘A (Xorazm) Soqa; suv boshi. *Vohaning tuprog‘i mayin bo‘lganidan ariq boshini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochib qo‘yish mumkin hisoblanmasdi. Shunday qilinsa, bir zumda yumshoq tuproq o‘pirilib, ariqboshi kat-*

talashar va sogʻaning koʻmilib ketishi hech gap emas edi. (Matyoqub Qoʻshjonov, Dagish).

SOGʻI Qoʻnj. *Qoʻshimcha qazishlar boshlandi-yu, ahvolimiz mushkullashdi – bir yarim metr dan keyinoq yer osti suvlari sizib chiqaverdi, ikkinchi metrga borganimizda, suv etigimizning sogʻini koʻmadigan darajaga yetardi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yoʻllar). *Ichkari-tashqari zarcha qovoq tusli matodan tikilgan ixcham kamzul-shim, sogʻisi kalta koʻn etik, soyavonli qalpoq kiygan nazoratchilar qarovida. Tik boqadigan chagʻir koʻzlarda birgina maʼno: shubha!..* (Asad Dilmurod, Yortilik qonuni). [Anvarbek] *Ilon nusxa qamchinni ikki buklab etigi sogʻisiga sekin urib, otliq ofitserga nimanidir maʼqullardi.* (Nazir Safarov, Koʻrgan-kechirganlarim).

SUBHONI Andijon, Buxoro, Toshkent, Fargʻona viloyatlarida ekish uchun rayonlashtirilgan, mevasi yirik, tukli, och zargʻaldoq, eti och sariq, zargʻaldoq, shirin va biroz nordon turshakbop va xoʻraki jaydari oʻrik navi. *U tomorqa – bogʻ etagidagi ancha ilgari koʻz ostiga olib qoʻygan va oʻshandan beri u yerga bot-bot oʻtib, azmoyish olib kelayotgan joy – oʻzi kabi qari subhoni oʻrik daraxti ostini koʻzlab borardi.* (Qamchibek Kenja, Juma yomgʻiri). *Bekorchi suv sal koʻllab qolgan joylarda ituzumlar qur soladi. Qizil, qora, sariq deganday. Keyin koʻksultonlar aralashgan oʻrikzor. Koʻrsodiq, subhoni, ahroriy, qizilyuz otliq.* (Bahodir Qobul, Oy yoʻli).

SULAMA Toʻlmagan, yarim (qop, xalta). *Somonlar sulama qoplarga niqtab-niqtab tiqiladi, ikkitasi teng qoʻyilib, eshaklarga ortiladi.* (Hakim Sattoriy, Sogʻinch).

SULGUN (Xorazm) Qirgʻovul. *Qizlarining yuzi gulgun, Togʻlarida yurar sulgun, Yetib borsang agar bir kun, Bogʻida gullari bordir.* (“Gulruh pari” dostoni). *Erhasan kunlardan bir kun Goʻroʻgʻlidan ruxsat soʻrab shikora chiqish tadorigini koʻrdi. Otini, tozisi, qushi, yoyi, asbob-anjomlarini shaylab toʻrt-besh yigit bilan joʻnab ketdi. Choʻl-u sahrogʻa chiqib, kiyik, quyon, sulgun, qoʻton ovlab yurdilar.* (“Oshiqnoma” dostonidan).

SULDAR (Xorazm) Gavda, vujud. *Boljonga esa bu gaplarning mutlaqo qizig‘i yo‘q, u shoshilayotgan, suldari shu yerda, xayoli tashqarida edi.* (Shuhrat Matkarim, Boljon).

SULUKAT Hol-ahvol, xatti-harakat. – *Otangiz elning obro‘li odamlaridan edi, u-bu xarajatga sulukatingiz qanday? – deb so‘radi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SUMALANMOQ Lapashanglik qilmoq, cho‘zilib yurmoq. – *Vaqti-soati yetsa, Bo‘rsiq o‘z oyog‘i bilan kelib qoladi, ana o‘shanda tanishtirib qo‘yaman, – derdi Kalamush bo‘ladigan ishni negadir paysalga solib. – O‘zidan-o‘zi sumalanib uyga kirib kelaveradi. Odati shunaqa. Ammo unga iltifot ko‘rsatib bo‘lmaydi, ehtiyot bo‘lib gaplashish kerak. Ta‘bi nozikroq.* (Grexem Kennet, Tolzordan esgan shamol – Tilavoldi Jo‘rayev tarjimas).

SUMBULGIYOH (Hyacinthus) Barglari cho‘zinchoq, lentasimon, piyozlari dumaloq, yassi, guli xushbo‘y, piyozguldoshlar (lolagullilar) oilasiga mansub bir yillik o‘simlik; sunbul. *Sumbulgiyohni, oqdori (itkuchala)ni kimdir ming dardga davo deb e‘lon qildimi, ularniyam kovla-kovla qilib quritib yuborishdi.* (G‘ozi Rahmon, Tazarru).

SUNNI (Surxondaryo) Sun‘iy urug‘lantirish mavsumi. “*O‘g‘lim, ertami-indin sunni boshlanib qolsa, ozroq qarashsang*”, dedi. (Nodir Normatov, Ismat tog‘aning tarozisi).

SUPATOSH Yuzasi supadek silliq, tabiiy qoyatosh. *Tabiatning betimsol husnidan mutaassir bo‘lgan o‘smir supatosh ustiga bemalol joylashib o‘tirib, atrofni tomosha qilishdan to‘ygach, qo‘zg‘aladi, o‘zida inja hissiyotlar sezadi...* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SUPRAQOQDI 1. Biron nimaning oxirgisi, so‘nggisi. – *Qaynotalarining muborak tavallud kunlarini dala hovlilarida nishonlashdi, supraqoqdisi kecha shu yerda o‘tdi, uch yuz bedana sixga tortildi, taraqa-turuq mushakbozlik bo‘ldi deng, oling, nasiba, qozonda bir cho‘mich sho‘rvasi qolgan ekan.* (Latif Mahmudov, Mehr qolur...) **2.** Kenjatoy (farzand). *O‘sarqul battol otasining supraqoqdisi edi.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda).

SUPRAQULOQ Shalpangquloq. – *Norjonoy, bo‘ldi qiling yig‘ini. Mana, eshitdingiz-ku, sog‘-omon ekan o‘sha supraquloq erjoningiz. Norjon jilmaydi.* (Fayzulla Salayev, To‘lov).

SUQIM Palovga panja urish. *Matti murrik tovoqni qayta o‘rniga aylantirmoqchi edi, u odam “Qani oldik esa” deb, suqim urib yeya boyshilaydi.* (Kamil Avaz, Sozanda).

SURA: Uzun sura Uzoq vaqt davom etadigan. *Azaldan qo‘ng‘irotlarda uylanish sermarosim, serxarajat uzun surali bo‘lib, to kelin kelguncha oradan ancha vaqt, ba‘zida bir necha yil o‘tgan.* (Hamid Alp, Norkallan-ing uylanishi).

SURALAY Patlari oq-qora va jigarrang, modasi ochroq rangli, dasht, yarim dasht va cho‘llardagi sho‘r yoki chuchuk suv havzalarida o‘rdaklar oilasiga mansub qushlar urug‘i. *Suvda suralay, Ko‘zi quralay!* (Mirtemir, Ko‘klam elchisi). *Ov sirini bilmasang, Tutuv bermas suralay, To‘rg‘ayday bo‘zlamasang, Ranjir ko‘zi quralay.* To‘ra Sulaymon. *Bahor kelsa, boshlanur bog‘da bulbul xonishi, Sa‘va, qumri nag‘masi, suralay tovlanishi.* (To‘ra Sulaymon, Iltijo).

SURXOK Lalmikor yerlarda yetishtiriladigan bug‘doy navi. *Bu yerga asosan boshhoqli don ekinlari: bug‘doy, arpa, qisman maxsar ekiladi. Bug‘doyning ham lalmiga mos “surxok” navi ekiladi.* (Sobir O‘nar, Dasht odamlari). *Qizil surxoki uzumlar o‘rtaliqda, oq, husayniy navlar bog‘ning g‘arbiy sarisidan joy olgandi.* (P.Ravshanov, Birodarim).

SURDAK q. **surdov.** – *Eh-he, katta surdak bo‘ladi-yov! – Qurbon bobo qo‘lini soyabon qilib pastdagi manzarani kuzatdi. – Ikki yuzga yaqin yilqi bor bu yerda. Birdaniga nechta taka tashlasa?!* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

SURDOV Ko‘pkarida ko‘p otlarning bir joyga yig‘ilishi, tiqilinch. *Le-kin O‘rol boboning fikricha, qalin to‘dalarda uni [otni] surdovdan, yana ham yaxshisi chetdan qo‘shgan ma‘qul, yashinday yarqirab quvib yetadi.* (Hamid Alp, Zuryod). *Surdovda chavandozlarning qo‘llari uloqdan birin-ketin sitilib gola boshladi.* (Hamid Alp, Zuryod). *Ayniqsa, ko‘pkariga havasi bor kishi uloqni qanday chopish haqida gap ochib qolsa, guvullagan surdovlarning nafasi davrada ufuradi, otasi otni to‘daga haydash,*

uloqni ko'tarish, egarga solishning tafsilotlarini maroq bilan tushuntirib ketadilar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SURDOVLASHLASHMOQ Bir-biriga tiqilmoq. *Podalar buqaloch bo'lgan, juvonlar g'unajinlar ortidan **surdovlashgan**, sovliqlarning yelinlari sutga to'lgan, qo'zilari emib yayrab dirkillashgan, yelkalariga oftob teggan cho'liqlar kebanaklarini tashlashgan, qo'nishga borsak, sog'imga kelgan bo'yqizlarni ko'rarmikanmiz, deyishib qo'shiqlarini vang qo'yishardi.* (Hamid Elxon, Maynagul). *O'shanda qo'ng'irotlarning chetkirlari **surdovlashib** qamab quvishdi.* (Hamid Elxon, Xapamat).

SUROBGA OLMOQ [f.-t. **surob** – shakl, tur] Sozlamoq. *Qo'shda, o'roqda, xirmonda asqotadigan ashyolar ham qishda **surobga olib** kelinadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SUROXIY Ko'zasimon may idishi. *Avval chiqib ketgan xodim to'rtta issiq non bilan bir **suroxiy** toza sharob keltirdi va bir zumdayoq dasturxonni tuzatib, **suroxiyni** o'rtaga qo'ydi.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

SURUK Otar, suruv. *Shahg'a ish el fikrini qilmoqdur ulkim, zebkim, Bir **suruk** qo'ydur raoyo, ul shubone besh emas.* (Alisher Navoiy). *Sayg'oq **suruklari** o'tdan qo'rqqandan badtar qo'rqib, quturib qochishga tushadi.* (Chingiz Aytmatov, Qiyomat – Ibrohim G'afurov tarjiması).

SURUM Podaning bir manzilda dam olishi. *Oqqiyadan qo'zg'olib enar – enishmi, buruv, Yugurar shovur olib **surumga** turgan suruv.* (Ikrom Otamurod, Xaritaga tushmagan joy). *Agar **surumga** chiqarilgan suruv kunbotarga yo'l olsa, ehtiyot bo'lish, jonning bir mudatlik huzurini o'ylamay, qo'ylarni shamolga qarama-qarshi tomonga og'dirish lozim, chunki oldinda katta qor yoki yomg'ir bor, u boshlanib qolsa, shamol oqimida osongina o'tovga qaytib kelinadi.* (AbdunabiAbdiyev, Qantarog'guncha). *Cho'pon-cho'liqlar qo'ylarni qishlovdan to'liq va sog'lom olib chiqish, xususan, qo'zilatish mavsumini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun otargavaqti-vaqti bilan **surum** beradi...* (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq ajuz momo).

SURUQ Tuynukni ochadigan 2 metrcha keladigan tol. *Shu vaqt Eshvoy mergan yostiqni suruqqa mahkam o‘rab, uni kunjut moyiga botiradi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

SURG‘OKLIK Muttasil yog‘ingarchilik. – *Bu qo‘riq, bu botqoqlik Hali holva demakdir; Hali oldda surg‘oklik* – *Nuqul g‘alva demakdir.* (To‘ra Sulaymon, Intizor).

SUS Salobat, haybat. – *Ul dovdur ermas erdi, a‘lo hazrat, – dedi Shunqorbek o‘ng‘aysizlanib. – Bilmadimki, nedin bundoq bo‘ldi, susing‘iz bosdimu... Ozroqqina mening-da aybim bor – vaqtim bo‘lmag‘onidin “bitik”ig‘a ko‘z sololmag‘onim – aybim... (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). Necha yillardan buyon behisob qishlog‘-u kentlarni zabt etib, bunday ochiq yuz va keng quloch bilan quchoq ochib kutib olishni ko‘rmagan jahongir avvalo o‘zidan yoshi ikki barobar ulug‘ otaxon, qolaversa, uning ikki yonida va ortida jamlangan jamoaning susi bosib beixtiyor ordan tushdi.* (Otauli, Haddi Iskandariy).

SUSMARAY Yaramas, iflos. *Oftobroq yerning qori yo‘q, Susmaray qushning pari yo‘q.* (Topishmoq. Javobi – kaltakesak).

SUXANAK Gapga usta, so‘zamol. *Mudir yosh bo‘lsa ham tirishqoq, katta kichik bilan qanday gaplashishni biladigan suxanak yigit edi.* (Shuhrat Matkarim, Og‘riq).

SUVAL Tug‘magan. *Hali suval podalar qishloqqa qaytmagan, kechalari ilmaliq, yomg‘ir va shudringdan uvigan xas-xashaklarni mayin chaynab, iliklarini to‘qlamoqda.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SUVAY Boshi ochiq. *Ularning [ayollarning] aksariyati yigirma-o‘ttiz yoshlarda bo‘lib, ko‘plari hali uy ko‘rmagan yoki tul qolgan suvay edilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SUVAYDO [f.-t. **suvaydo** – dildagi dog‘] Kuyuk. *Ona ko‘ksidagi suvaydo bitmay, dunyodan kuyib o‘tib ketdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Ko‘nglim suvaydosi, ko‘zim sayguli, Bu zanjir tovushi... aylanmas tilim.* (Eshqobil Shukur, Oraliqlarda).

SUVLAT Suv o‘zani bo‘yidagi aholi yashovchi joy. *...u bir kechada yetti suvlatni kezib, rizqini terib yer ekan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Shuningdek, to‘dani qoq yorgan chavandozlar-u, bilagini moylagan pol-*

vonlarning qaysi **suvlat**ga qadam ranjida etishi ham odamlar nazarida turadi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SUVLOT 1. Jarlik. Mahalliy aholi tilida jarliklar “**Suvlot**” deb ataladi. Birinchisi – **Oxursuvlot**, ikkinchisi – **Jilg‘indisuvlot** yoki **Yulg‘inlisuvlot**, uchinchisi **Sho‘rsuvlot** yoki **Oyxonsuvlot**, to‘rtinchisi – **Suvlisuvlot** yoki **Digisuvlot** nomlari bilan mashhurdir, ularning eni 75–125, chuqurligi esa 15–20 metrga tengdir. (Beshim Mirzaqulov, Qorako‘l tarix silsilasida). **2.** Soyning mollar suv ichadigan qulay joyi. **Bekmirzaboy podani suvlotdan haydab endirdi.** Katmanliklarning suruvi tog‘ o‘rlandi, bir shu boyning podasi dashtda qolgan. (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya). **Podani suvlotdan qaytgach, xos kapalab suvlotga kelgan ovulning ikki-uch qoramolidan birini boy otning oldiga solib haydaganini ko‘rib qoldim.** (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

SUVOT Suvli, hosildor yer. **G‘o‘bdinning janubi ham suvot.** Zarafshondan suv oladigan **Tuyatortar kanalining bir nechta tarmog‘i tog‘ning janubiy qiyaliklari tegrasini obod qilib o‘tadi.** (Anvar Suyunov, Mangu qo‘shiq). **Tagsaroyning kungay beti qari lalmi (el shunday ataydi), qiblasi suvot – tayoq suqsang barg yozadi.** (Nurilla Chori, Tashvishi yo‘q odamlar).

SUVCHUMCHUQ Suvga yaqin joyda yashaydigan chumchuq turi. **Tog‘ daryosin yoqalab, joy tanladi suvchumchuq.** (Tursunboy Adashboyev, Suvchumchuq). **Kichkina ariqcha bo‘yiga suvchumchuq pirillab kelib, biron shoxga qo‘nib olsa, oqim tubidan chuvalchang topib cho‘qishini kuzatardi.** (Isajon Sulton, Oftob chiqdi olamga...). **Suvchumchuq pirillab uchadi. Juda yuksakda bir qush qanotlarini qoqmasdan tek aylanadi.** (Isajon Sulton, Mega-intellekt).

SUVO‘GIZ Shilliqqurt. **Ko‘p o‘tmasdan G‘arrovga quvur tashlandi.** **O‘nta murakkab bo‘lmagan, shaklan suvo‘giz – shilimshiqqurtning chanog‘ini eslatadigan moslama ham o‘rnatildi.** (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

SUYLUN (Xorazm) Qirg‘ovul. **Otiz-chellardayoq quyonlar bolalab, suylun (qirg‘ovul)lar ekinzorlar oralab yurishar, ba‘zan uylardan chiqib**

don-dun terib yuradigan tovuqlarga ham aralashib qolar. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

SUZGI Sut suzadigan uy-rozg‘or buyumi. *Xayolingni suzib suzgida, G‘am-anduhni, mayli qoldirsang. Bog‘ chetida saflanib turgan teraklarni o‘yga toldirsang.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi).

SUZMAPALOV (Xorazm) To‘ylarda pishiriladigan palovning xorazmcha bir turi. *Peshin mahali olomonga suzmapalov, qorma tarqatildi.* (Komil Avaz, Sozanda).

SUVILON 1. Uzunligi 10 sm dan 3,5 m gacha bo‘lgan, tashqi ko‘rinishi va rangi har xil, tishi ko‘p, jag‘ tishi qanotsimon va tanglay suyaklarida o‘rnashgan, ayrim turlarida yuqori jag‘dagi orqa tishlar zahar bezlari bilan bog‘langan ilonlar turkumi. *Bir suvilon esa undan qochib, suv yuziga rasm chizgandek, o‘zini nari yoqqa otdi.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar). **2** Makkor. *Aslida uh tortish shu xotinga ko‘proq lozim, erna bu qilmishlaridan. Yo‘q, u uh tortmaydi, nolimaydiyam bu suvilon.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

SUVKUCHUK Kalamushsimonlar oilasiga mansub mo‘ynali hayvon; ondatra. *Shu o‘yimni tasdiqlagandek, tiniq suvning tubiga bir narsa sho‘ng‘idi-da, hayalda salkam o‘ziday qorabaliqni og‘zida tishlagan suvkuchuk qaynab chiqdi.* (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

SUVSIYDIK (Xorazm) Lapashang (koyish uchun ishlatiladigan so‘z). – *Suvsiydik. Xotiniga moshin haydatib yonida o‘tiradi. Pravasini yo‘qotib qo‘ygan. – Keyin o‘g‘lining ovozi masxaralab yongsiraydi [ota].* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

SUVTOL Daryo bo‘ylari va to‘qaylarda o‘sadigan tol turi; Vilgelms toli. *To‘qaylarda asosan turong‘il, suvtol, yulg‘un kabi daraxt va butalar o‘sardi.* (Temirali Qo‘ldoshev, Sherali Qo‘ldoshev, Pop tumani tarixi). *Tog‘ning ko‘rki Burg‘uldak, Chax-chax sayrar bulbuldak Osma qilib suvtolga, In qurmoqda G‘urg‘uldak.* (Tursunboy Adashboyev, Sanoch soy).

SUYRATMA Kamharakat, dangasa odam. – *Voy, o‘lماجur, valaki-salang-ey! Qolmabdi-da o‘sha suyratmaligi. Maktabda... Terimda biror marta yigirmadan oshirib paxta tergan emas o‘shaningiz, – kuldi Hakima,*

– ammo-lekin Elmurodingiz boshqacha, tirishqoq. (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

SO‘HAN Egov. *Oldin asboblarini bolg‘a va sandon o‘rtasiga olib, uchini terishdi, so‘ng qayirmalarini yana bir tortib bog‘lab, chalg‘ining tig‘ini so‘han bilan qarillatib, obdon charxlab olishgach, o‘rimga tushib ketdilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *...chet-chetda bolg‘aning sandonga urilgan “tiq-tiq” ovozi eshitiladi, birov terilgan chalg‘ining damini so‘han bilan egovlamoqda.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SO‘KSANAR So‘kong‘ich. *Birining hukumatdan qarzi bor, ikkinchisi so‘ksanar, uchinchisi qo‘rs-u qo‘pol...* (Fayzulla Salayev, Ota o‘rni).

SO‘KICHAK 1. Stellaj. *So‘kichak tol yog‘ochidan keraga balandligida 3 qavat qilib tayyorlanadi. Uning har bir qavatida chig‘dan qilinadi. So‘kichakning tepasida non, dasturxon, surpa, o‘rta qavatida sut, qatig moy solingan idish: tagida esa, o‘choqdan bo‘shagan qozon, satil, kadi qo‘yilgan.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash.) **2.** Ishkom. *Unda baland emas uzum so‘kichak, Chilgisi qizargan bo‘lib gulchechak.* (To‘lan Nizom, Alisher).

SO‘LAKAY (Xorazm) So‘lak. *Kimningdir ko‘zidan yosh oqar hamon, kimningdir og‘zidan esa – so‘lakay.* (Matnazar Abulhakim, Safar taassurotlari).

SO‘LQIM (Xorazm) Shoda. *(Jiydaning) Bir so‘lqimini (shodasini) opamga beraman.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). – *E-ee, kelinglar! – dedi Darvesh. Hosilni yig‘ayotgan, vaqti xush edi. So‘ng qo‘lidagi bir so‘lqim uzumni ko‘z-ko‘zladi. – Muni qarang, ranggi ko‘zing olin deydi.* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

SO‘LISH Nafas. **So‘lish olmoq** Nafas olmoq. – *Men ne derdim, – dedi og‘ir so‘lish olib. – Otam zamoninda shundoq edi va bundin so‘g‘unda shundoq qolur. Oni sen tuzata olmassen. Fikrlaringni eshitg‘uvchi quloq topilmas.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

SO‘LTAMAT Gavdasi katta lekin o‘larday yalqov, g‘ayratsiz, odamlarga nafi tegmaydigan, ishyoqmas kimsa. – *Ihm. Shunaqa deng. O‘sha orqa eshikni ko‘rish sira nasib bo‘lmadi-da bizga? – Latta, so‘ltamat odamlarga ko‘rsatisharmidi orqa eshikni. Keyin?* (Anvar Muqimov, Ab-

jirlik shunchalik-da!) *Xotini yuzta gap taxlaganda ham nima deyapsan demay, yonboshlagan cha pishillab yotaveradigan Ma'di so'ltamat, saksondan oshib, beli bukchaysayam shudgordan chiqmaydigan Rajab buva, suvolg'ichini Beknazarlar tarafga sekin-sekin, kishi bilmas jildiraveradigan, ha desa, qachondir uy solayotganda qiblasini chiqarish uchun imoratining orqasida, ya'ni Beknazarlar hovlisida qolib ketgan bir suyam qiytiq yerni pisandalab xit qiladigan Nurqo'zi (Beknazarlar uni Surqo'zi deyishardi)...* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

SO'M Lahm. *Qo'shiq aytsang so'm yuraklar ezildi, Qo'shiq aytsang ko'zlarg a yosh tizildi.* (Hamid Alp, Tog' elining tabobati).

SO'NA (Xorazm) Yovvoyi o'rdak (Xorazmda qizning chiroyini ta'riflashda so'naga o'xshatiladi). *Qo'lumda cho'rchub o'ynasang, Ko'lda suqsur so'naday.* "O'zbek xalq qo'shiqlari". *Gal-a, Laylim, Galaxon, So'na bo'yim, Galaxon.* "O'zbek xalq qo'shiqlari". *Oshig'in o'ldirib, yana jon beran, So'nali qiz, bobong bilan kel tanish.* ("Oshiqnoma" dostoni).

SO'PILTIRIQ 1. Yosh o'g'il bolalar do'ppisining o'rtasiga tikilgan mayin yungli quyon yoki tulki terisidan bir parcha. **2.** Kallavaram. – *So'piltiriq, manavi do'ngpeshanani ariqchadan tutvoldingmi? Qoqbaliqni ko'zida ma'no bor-u, bunikida sirayam ko'rinmaydi-yu, a? Voy, so'piltiriq, Afrikadan qarindoshlar kelishgan deb bir og'iz aytib ham qo'ymaysan-a?* (Iqbol Mirzo, Zarb).

SO'QATOY Ochko'z. *Yaxshiyamki, erka, tantiq bir so'qatoy bo'lib qolmadi, bu imkoniyatdan yorug' kelajagi uchun o'rinli foydalandi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SO'QMA Aylana yo'lni kesib chiquvchi yolg'izoyoq yo'lak. *Amo-lekin, sal uzoqroq-da. Agar Iblisjardagi so'qmadan kesib o'tsanglar, rosa bir hafta oldin yetardinglar.* (Anvar Obidjon, Meshpolvonning sarguzashtlari).

SO'QOQ Kiyik, sayg'oq. *So'qoq-chi... ? – Kiyik degani. – Bu yerlarda kiyik bo'lganmi? – Sanog'iga yetolmasdik.* (Bahodir Qobul, Ena shamol). – *Tog'da kiyik ko'rdim. – Ha, so'qoqlarnimi. Yaqinda kelishdi.* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

SO'RIQMOQ Suvi tortilmoq; qotmoq. *Shunda har joyda chuqaloq qazib, tuproqning suvini qochiramiz. Keyin sal so'riqqan tuproqni qaziyimiz.* (Ro'zimboy Hasan, Bir sulola qissasi). *Cho'rak deb ataladigan non havonong issiqligidan so'rig'ib, arang tish o'tadigan darajaga kelib qolgan edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *[Me'mor] Bu ishlar bitib, paxsa xiyol so'riqqandan keyin uzun dastali yalpoq tarasha kapchasini qo'liga olib ishga tushardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

SO'XTA Kuydirilgan paxta. *Ustalardan biri eski uvadani kuydirib, so'xta tayyorlashga kirishdi, ikkinchisi yana bolani avrar...* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SO'ZON Nina. *Tomirimga tomchilab Zardob sizar so'zondan, Vaqt otini qamchilab O'tar shomda, azonda.* (Hol Muhammad Hasan, Qaytish).

SO'G'A (Xorazm) Uzoq yillar mobaynida Amudaryo cho'kindisidan paydo bo'lgan tuproq qatlami. *Ajdodlarimizning aql-zakovati, qalb amri ila uzoq asrlar osha, hozirgi davrgacha salobatini yo'qotmagan Amudaryoning so'g'a loyidan bunyod etilgan devor yoqalab yurarkanman, meni fikr va hissiyotlar chulg'ab oldi.* (Farhod Bobojonov, Orzuga eltuvchi yo'l) *Keyin shu vaziyatni hisobga olib, bandargohga qulay joy sifatida Eshimjiron qishlog'ini tanlashgan. Chunki, Eshimjiron qishlog'i yerlari so'g'a, qattiq tuproqli hudud bo'lgan.* (Umid Bekmuhammad, Daryo bo'yidagi bandargoh). *Masalan: qo'y juni yoki echki juni aralashtirib xumning zuvalasi qorilgan, so'g'a tuproqni ivitib aralashtirilgan, ba'zi birlari ohak suvini qum bilan qorishtirib yasaganlar.* (Arabboy Sotimov, Beg'ubor bolalikning beg'araz o'yinlarida milliylik va tarbiyaviylik).

SO'G'IN Keyin. – *Unda-munda nima qip yuribdi bu? – dedi ota ovozini bir parda ko'tarib. – Nima deganing bu? – dedi Asqar chavandoz ovozini ikki parda yuqori ko'tarib. – O'zim sovg'a qilganimdan so'g'in, bunda bo'lmay, nima, menda bo'ladimi!* (Normurod Norqobilov, O'g'ri). *Bir chanoq paxtani cho'zib-cho'zib tortaman. Kaftlarimda uqalab-uqalab olaman. Puflab-puflab shudringini quritaman. So'g'in – etagimga solaman.* (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar). *So'g'in otasiga yaqin kelarkan, o'ksik salom berdi-yu darbozadan ko'cha sari chiqdi.* (Islom Ibodulla, Ajrim).

T

TABAR MUSULMON Bolta bilan bo‘ysundirilib, musulmon bo‘lgan. *Mening tarixdan bilishimcha, janubda din qadim zamonlardan beri sust bo‘lgan, ba’zi manbalarda bu o‘lka odamlarini “tabar musulmonlar” deyishadi, – u qizning diqqat bilan quloq solayotganidan ilhomlanib, so‘radi: – Tabarni tushunarsiz, bolta degani? (Shukur Xolmirzayev, Oy yorug‘ida). Qo‘ying, ena, shu bo‘lmag‘ur gaplarni! Hozir tabar musulmon degan gap yo‘q, – dedi Omon. (Nodir Normatov, Bisot).*

TABBOSDI Gazak. *Tabbosdiga kolbasani tushirib, German ikkalamiz chekishga o‘tdik. (Akbar Yunusov, Tunukasozlar). Konyakning har galgi tanobidan so‘ng tabbosdi sho‘rvaning xo‘planmasi yuzlarni qizartirgan, ko‘zlarni xiralashtirgan, hammaning badanini nozik bir hissiyot qitiqlab, sarhush ko‘ngilni xuddi bahor faslidagi kabi erkag-u ayolga xos bir talab bilan qizita boshlagan edi. (To‘xtamurod Toshev, Adolatga xiyonat).*

TAGANAK (Surxondaryo) Buloq ko‘zlarini ochib tozalash marosimi. *Shu kecha u bilan gurung qilaman desa bova sira ko‘nmadi. Ertaga qishloq ahli taganakka chiqarkan. (Nodir Normatov, Ismat tog‘aning tarozisi).*

TAGTOM Boloxona. *Qiyaliklarda tagtom – boloxona ko‘tarilardi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

TAGXONA Yerto‘la. *Hovlining o‘rtasida pastdagi qavat – tagxonadan salqinlik urib tursin uchun tuynuk o‘rnatilgan. (Muhammad Ahmedov, O‘rta Osiyo me‘morchilik tarixi).*

TAKA (Xorazm) Yostiq. *Jumanazar uning bunchalik tirishib-tortishayotganidan ta’sirlanib yonboshlagan yeridan turib o‘tirdi. Takani qo‘ltig‘i ostiga oldi. (Shuhrat Matkarim, Yilon).*

TAKALAK Jo‘xori so‘tasi. *[Dehqon] Lavlagi barg chiqarganda, bitta qo‘ymay barglarini yulib olibdi. Jo‘xori ham yetilib shamol bo‘lsa, takalagi bir-biriga urilib shovullay boshlabdi. (“Dehqon” ertagi). Yasab tuzog‘ fashidin juvoridek takalak. Murid ko‘rmagin istab birinj to‘brasida, Birinjing‘a alishur telbalar kibi kurmak. (Miriyy).*

TAKAKI Pishirilgan teri, echki, qo‘y charmi. *Pichigina bo‘yi bor, Takakidan to‘ni bor.* (Topishmoq. Javobi – *burga*). *Ermaklar zig‘ircha naf bermadi, battar diqqati oshgani ustiga, hademay girdlari ipak bilan bir necha qator hoshiya qilingan, takaki poshnali ko‘n etigi nam tortib, qo‘shqavat jun paytavasi ho‘l bo‘ldi.* (Asad Dilmurod, Mulk). *Qurbono ortiga o‘girilib qaradi. Chollarning shalvirab qolgan soqolsiz yuzlari takaki teriday tarovatsiz.* (Ne‘mat Arslon, Tumanli mintaqa). [Egarni] *Ba‘zan echki terisidan qilingan takaki bilan ham qoplashadi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

TAKASAQOL (*Dodartia* L.) Tog‘ etaklari, yo‘l yoqalari, bog‘ va ek-inzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadigan, poyasi sershox, deyarli bargsiz, to‘pguli shingilsimon, shoxlari uchida siyrak shingillar hosil qiladigan, sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. *Ko‘zim noparmon bo‘lib ochilgan uzunchoq gulli takasaqolga tushdi. Unga tomon toshbaqa sudralib odimlaydi. Takasaqol toshbaqaning sevimli ozuqasi.* (Shahodat Ulug‘, Nomi Habibim).

TAKXONA q. **tagxona.** *Qisqasi, takxona ayvonidan ko‘tarilgan zinapoya bilan ikkinchi qavatga chiqdik.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma). *Shunda yana qo‘rqib to‘xtadim: bu kimsasiz uy, uning biqinida yoki takxonasida nima yo‘q deysiz?* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma).

TAKYA q. **taka.** *Voybo‘y, qaydanam bu gaplarni aytdim-a, deb kenja qiz boshini takyaga qo‘yib uxlashga yotdi.* (“Gulruh pari” dostoni).

TAL To‘g‘ri. *Yer surilib, haydalib, mola bosilganda keyin otni birov yetaklaydi, setkani orqaga tutqichlaridan mahkam ushlab, tal – to‘g‘ri tutib boradi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *Otamning keyingi xulosalaridan shuni angladimki, u xomitni tal va to‘g‘ri bog‘lamagan, natijada xomit singan, yana boshqa xomit izlab eshigimizga kelgan.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

TALAK (Xorazm) Qishga hosil saqlanadigan boloxona, ombor. *Bi-ning uyimiz ayvonidan ikki yon tomonga eshik qo‘yilgan bo‘lib, ular sovuq qishlarda yashaydigan xonalar hisoblanardi. Bir tomondagi xona ichkarisidan yana bir eshik bo‘lib undan “talak” deb ataladigan uyga kirilardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Onam va elim bag‘rida). *Ekin-tikin*

yig'ishtirilib, qish g'amidagi hosillar **talaklarga** chiqarilib, omborlarga jamlanib, qaddi tiklangan dehqonlar ko'ragini kerib, nafaslarini rostlaydigan quyoshli kunlar Doshyoq qumida katta to'y o'tkazilishi munosabati bilan butun Xorazmga xabar ketgan. (Komil Avaz, Sozanda).

TALXAQ (Gobelia pachycarpa) Bo'yi 30–45 sm, qalin tuk bilan qoplangan, barglari murakkab patsimon, gullari poyaning yuqorisida shingil bo'lib joylashgan, burchoqdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik; achchiqmiya. Yangiboy keltirib tashlagan bo'z tuproq tufaylimi yo gullayotgan ana shu yosh daraxtlardan go'yo izza bo'lganidanmi, balki namgarchilikning zo'ridanmi, shamol uchirib kelgan yovvoyi o'tlarning urug'lari nish urdi, bog'chani atrofi bir qadar **talxaq**, jingirtob yantoq, qoratikan, jinjak, mol og'ziga yayrab oladigan sersuv, tuguncha bargli g'armalar bilan qoplandi. (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

TALG'IR Targ'il. Cho'kkan **talg'ir** tuyasi yonida non kavshagancha hordiq olayotgan Mo'ysafid qirovlagan baroq qoshlarini uyirib, ko'ksini qoplagan qordek oppoq soqolini silay-silay uzoq sukutga toladi. (Asad Dilmurod, Mezon burji). Hovli bilan punkt orasi odimlasa ming qadamga yetmaydi. Hech narsadan bexabar qorovul yaqinda bozordan olgan **talg'ir** ho'kizchasi ipga o'ralib qolmadimi, deya xavotir olib, uyiga yo'l olganida, paxta ortgan traktorlarning ham qadami uzilgan, qoq yarim kecha bo'lgani uchun ko'chadagi elektr chiroqlari ham o'chib qolgandi. (G'ozil Rahmon. Dunyo asbobi).

TAMAN(A) (Olot) Juvoldiz. Ming ignani yig'sang **taman** bo'lmas, ming ammani yig'sang onang bo'lmas. (Maqol).

TANAQATAR (Qashqadaryo) O'g'il bola birinchi bor bozorga kelganda boshqalar bozorlik ulashishi. Hol-ahvol so'rashganlar bolani ko'rib hazillashardi: "bugun **"tanaqatar"** bo'lar..." **"Tanaqatar"** bo'ldi. (G'ozil Rahmon, Mo'minjon).

TANAVOR Pishirish yoki sharbatini siqib olish uchun tayyorlangan yarim mahsulot. Kelinchak tog'oraga uyilgan bug'doy **tanavoriga** qarab, birdan o'ylagan niyatlarining hammasi oilasi bilan bog'liq ekanligini tushunib qoldi. (Risolat Haydarova, Daraxt meva tugganda).

TANDIRKAROB Qo‘y, echki go‘shiga ziravorlar sepib, archa bar-
glarini qo‘shib, tandirda tayyorlanadigan taom. *Katta-katta fan ulamolar-
ining tandirkabob chaynab, oliy mehmonning og‘ziga tikilib o‘tirishi er-
ish tuyulardi.* (Erkin A‘zam, Kechikayotgan odam). *Tandirkabob hidini
olgan Sezgir ochiq eshikdan mo‘raladi.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox).
*G‘uzordan tandirkabob, Denovdan mayiz keldi. Marg‘ilondan qandolat,
Seuldan salat keldi.* (Sirojiddin Sayyid, Qurbon Eshmat kelmadi).

TANDIRXONA Tandir qurilgan, usti yopiq inshoot. *Tezaklar tax-
langan tandirxonaga qarab-qarab qo‘yganida ko‘zlarida qo‘rquv zohir
bo‘lishigina samimiy edi uning.* (Azamat Qorjovov, Sandiqda saqlangan
sir). *[Zulfiqor] Gandiraklab borib, yaqinidagi tandirxonaga suyandi.*
(Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

TANDOR Sog‘lom, baquvvat. – *Assalomu alaykum! – dedi Sherali.*
– *Tandormisiz?* (Shuhrat Matkarim, Indamas). *Hozir ham uzun, oriq va
bilinear-bilinmas qaltirayotgan qo‘llarini mezbonga ko‘rishish uchun uza-
tdi.* – *Tandorginamisiz?* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

TANGA SOZI (Xorazm) To‘y oxirlaganda san‘atkorlarga pul qistir-
ish. *Nihoyat chinakam portlash “tanga sozi” chog‘ida ro‘y berdi.* (Komil
Avaz, Sozanda). *Axir, uning asl niyati ham shu edi-da, ammo “tanga sozi”
vaqtidagi pul mojarosini, o‘zining haqoratlanganini aytmadi.* (Komil
Avaz, Sozanda).

TANQAYMOQ Uchi yuqoriga ko‘tarilmoq va teshiklari ko‘rinib tur-
moq (burun haqida). *Shayton shu zum g‘oyib bo‘ldi, Labin burib, tan-
qayib, Momo Havo qolaberdi O‘ltirgancha, anqayib.* (Abdulla Oripov,
Quyosh bekati). *Mehmonimiz anqayib, cho‘michday burni tanqayib, goh
bizga termuldi, goh ko‘chaga quloq tutdi.* (Abdunabi Hamro, Mehmon).
*Kibrdan tanqayib ko‘tarilgan burnining kataklari ochilib-yopilgan Xotun
valiahdga razm soldi.* (Shahodat Ulug‘, Jayhun epkinlari). *“Bexosiyat deb
aytdimi, yo‘qmi?” deb o‘yladi Sobir, lekin O‘ljaboy akaning tanqaygan
burni, qovjiragan ko‘zlariga qarab, fikridan qaytdi.* (Ahmad A‘zam, Du-
tor bilan tanbur).

TAQAMO‘YLOV Mo‘ylovi taqa shaklidagi. *Mansur yonbag‘irda
so‘ppayib-so‘ppayib turgan olma nihollarini chetlab va simto‘r devor-*

ni ko'zdan o'tkazganicha ildamlab borarkan, bir yelkasi tushib ketgan, **taqamo'ylov**, malla kishi qiyshayib chiqib kelardi. (Shukur Xolmirzayev, Ozodlik). Berditosh o'rta yoshlardagi sap-sariq, barvasta qomatli, **taqamo'ylov** kishi edi. (Ilhom Zoyir, Qismat o'chi).

TAQYOPALAK Bir palak. Chog'roqqina hovlisiga har bahor bodring, pomidor bilan qo'shib o'n-o'n besh tup handalag-u qovun ekkanlari, ular **taqyo palak** qilib keyin uzun palak otib ketishi, so'ng yong'oqdek tuynak qilishidan to rangi bo'zarguncha bir hovli bola dam-badam "ko'z-quloq" bo'lib: goh ushlab, goh burunlarini tekkizib hidlayverishgani sabab onasi bezor bo'lib quvganlari, boisi tuynakka hadeb odamning qo'li tegaversa, azbaroyi qo'l zahri ta'sir etib qovun rivojlanmay qolar emish, – hamma-hammasini zavq bilan esladi. (Sobir O'nar, Vijdon).

TARMA Qor ko'chkisi. O'tgan yili erta bahorda jordan bexos **tarma** uchdi-yu uyasi buzilib ketdi. (G'ozil Rahmon, Oypari). Bovurchi atroflari, Saringul yaqinidagi baland cho'qqida **tarma** ko'chib, bo'hron ko'tarilgan, tog' boshi changlangandek ko'rinar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TAROQI I Taroq bilan urib, qotirib to'qilgan. Tegidagi **taroqi** xurjun to'la lash-lushga. (To'ra Sulaymon, Mo'rhamiyon). Ayollari ichiga go'shtdan boshqa hech narsa solinmagan oq sho'rvani erinmay shopirib, asal qilib yuborishadi. Urchuq yigirib, qo'yungidan arabi, **taroqi**, julxirs gilam-u xurjinni ko'zni yashnatadigan qilib to'qishga usta. (G'ozil Rahmon, Oqibat so'qmog'ida). Davangir yigitlardan biri ustiga g'ojari digilni solib ustidan **taroqi** xurjinni tashladi-da, abjirlik bilan beliga mindi. (Hamid Elxon, Xapamat). [Mo'ysafid] **Taroqi** xurjundan poyiga jiringlab to'kilayotgan jaraq-juruq tangalarga zig'ircha e'tibor bermay, miyig'ida sokin kuladi: ey, Tangri suygan yigit, qulog'ingga quyib olki, sarmoya nafsni qondirgay, dil tashnaligini bosishda ojizdir! (Asad Dilmurod, Mezon burji).

TAROQI II Taram-taram. Mevasi pishganida ham xushbo'y bo'ladi. **Taroqi**... qizil bo'lib pishadi. (Nodir Normatov, Zulayho daraxti). Bog' qishloq yo'li ustida bo'lib, ertapishar **taroqi** olmalarga endigina maza kirgandi. (Nodir Normatov, Jazo).

TARMOG' Kashtali oq ip. *Tarmog'* bilan beldovning qalinligi odam panjasi kattaligida bo'ladi. (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

TAQRAVON [f.-t. **taxti ravon** – yuruvchi taxt] Beshik. *Taqir-tuqir taqravon, uni toping, dilbarim, Ichidagi mehribon, uni toping, dilbarim...* (Topishmoq. Javobi – beshik). *Taqir-tuqur taqravon, Manim dunyom shu beshik. Undan chiqqanim zamon, Armonlar qoqdi eshik.* (Shodmon Sulaymon).

TAQRON 1. O'simliksiz, taqir yer. *Taqron yerda toyning izi.* (Topishmoq. Javobi – kindik). *Shuning gilamiga o'tirgincha, borib huv anavi taqron yerga o'tiraman, zaxga o'tiraman.* (Erkin A'zam, Kechikayotgan odam). *So'ng yulqina borib hovlining o'rtasiga o'tirib oladi, ikki qo'lida hassaning ikki sinig'i, taqron yerni savalay boshlaydi: – Endi qanday bosh ko'tarib yuraman, dod! Eshitgan el-ulus nima deydi, dod! Sharmanda xotinbozning enasi bo'ldimmi, dod!* (Erkin A'zam, Hulo'l). *Hovlida o'tirib, zambilg'altakning bo'shagan tirsagini sozladi... hatto sal ovunganday ham bo'ldi, keyin, kech tushganda qarasa, taqron joyda toq o'zi o'tiribdi...* (Murod Muhammad Do'st, Dasht-u dalalarda). **2** ko'chma Silliq, tuksiz. *Soqol-mo'ylovi taqron qirilgan, boshida nasroniy qalpoqcha.* (Erkin A'zam, Shovqin).

TATARON (Polyganum coriarium Grig.) Ildizi yo'g'on, poyasi ser-shox, guli oq, yirik to'pgulda joylashgan, oshlovchi modda olinadigan, torondoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o't, toron. *Sal narida tataron, chuchri, ko'kchitir, qorayapaloq, qorao't, qizg'aldoq va ismaloq o'sib yotar edi.* (Shahodat Ulug', Nomi Habibim). *Yo'lda archa (4-5 xil), irg'ay, uchqat, padbara kabi daraxtlarga, baldirg'on, chukri, taran (tataron) kabi o'simliklarga duch kelish mumkin.* (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohibqiron).

TATTI (Qarnoq) Shirin. *Chol: Kim aytdi meni aqchaga qo'l soladi, deb? O'ngmag'an kuyoving aytdimi? Men tatti so'zga-da, savobg'a-da solaman.* (Sa'dulla Siyoyev, Saratonda qor yog'di).

TAXTASHEVALAK O'rilgan sochga taqiladigan, yog'och bo'lagi bor bezak, popuk. *Kelinning sochiga taqiladigan taxtashevalakni onasi qizligida kokiliga ilgandi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Boshchasini bol-*

ishiga ishqab yig'laganda, qo'llarini yozib ingraganda onaning ichidan bir tor uzilib, ketgandek bo'lar, "Tezroq yaxshi bo'lmasa, sochga osilgan **taxtashevalak**dek uzilib tushaman" deb fig'on chekardi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TAYPAN Notekis joy. *Keyingi galda u tag'in Qorako'lning taypanida qirg'iy – ov qushi uchirib bahs boylashgan edi.* (Sobir O'nar, Ot choptirsa, gumburlaydi tog'ning darasi).

TAYXAR q. **toyxar.** *Kulga ag'anagan tayxarday rangi toza aynib ketibdi.* (Normurod Norqobilov, Bekatdagi oq uycha). – [Sobir:] *Boya... kun tutildimikan deb o'ylabman! Keyin bunday qarasam, chang-to'zon... Kulga ag'nagan tayxar kabi toza yumalashibmiz-da o'ziam.* (Normurod Norqobilov, Qo'shnilar).

TASHNOV [tosh + f.-t. nov] Uyning kirish burchagida qo'l yuvish va yuvinish uchun maxsus joy. *Ammo qator-qator uychalaridan uch kishi zo'rg'a yonma-yon yurishi mumkin bo'lgan qing'ir-qiyshiq ko'chalar ko'rinar, ularning bariga tosh to'shalgan, tag'in uylarning tashnov-u tarnovlari shunday olingan ediki, tomlarga yog'gan, hovlichalarga to'kilgan yomg'ir suvlari hademay shu tor ko'chalarga mitti jilg'alar kabi oqib chiqadi-da, kattagina ariq hosil qilib pastga enib ketar va etakdagi chuqur anhorga borib quyuladi.* (Shukur Xolmirzayev, Saylanma).

TASHQARILAMOQ Tashqariga chiqmoq. *...qishloqda hamma-si juda osondek edi. Tashqarilab, mana endi yumushining g'oyat dushvorligini fahmlab turishibdi.* (Normurod Norqobilov, Ovul oralagan bo'ri). *Oqyol bazo'r o'ziga kelib, tashqarilaganda, undan quruq ustixongina qolgandi.* (Normurod Norqobilov, Ovul oralagan bo'ri). *Yigitning ko'zi yoshlandi. Tashqariladi. Jadal yurib og'ilxona tomonga o'tdi-yu, yelkari silkindi...* (Abdullatif Abdullayev, Marvarid donasi). *Bu gapdan otaning hovuri bosilib, tashqariladi. Turkman polvondan yiqilgan o'g'illariga g'azabkor boqdi, lek indamadi.* (Normurod Norqobilov, Quyosh tutilgan kun). *So'ngra po'stinini egniga tashlab, qiya ochib qo'yilgan nimdosh namatni yelkasi bilan turtib, asta tashqariladi va hanuz bir maromda irillayotgan itini "xarom qotkur", deya so'kib qo'ydi.* (Normurod

Norqobilov, Qoraqyun). *Umida esa sumkasini joyiga qo'yib, parishonxotir holatda shoshilmay tashqariladi.* (Fozil Farhod, Kutilmagan maktub). – *Aha, rah-ma-a-at, rahma-a-at! Rixsiyev tashqariladi.* (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom).

TAG'APCHA O'tovsozlikda qo'llanadigan, paxta yoki jundan to'qilib, eni 5 santimetr, uzunligi 2–2,5 metrcha bo'ladigan ip. *Yondor cho'pi keragaga tag'apcha ipi yordamida bog'lanadi.* (Nargiza Rahmatullaeva, Badash).

TANG O'tin bog'lami. *Suyar sakkizta tang hozirladi. U eshakni tangga yonbosh qilib o'ngarar; Normat eshakka teskari bo'lib, tangning chetdagi qismini tizzasiga qo'yib ko'tarar; so'ngra aylanib, tangning ikkinchi yarmini eshakning ustiga tashlardi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TANGI [f. tangi – torlik, siqqlik, kamarlik] Eni ikki gaz, uzunasi bir chaqirim keladigan tog' yo'lagi. *Omon-eson chiqdi arang tangidan, xavf-xatarsiz ishi kelib o'ngidan.* (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

TANGRAYMOQ 1. Tepaga qaramoq. *Sigir tangrayib o'lib yotibdi. Shishib ketgan.* (Qo'chqor Norqobilov, Kulib tur, azizim). **2.** Kekkaymoq. *Sultonxon otning boshini burib og'zi angrayib, burni tangrayib, Rustamning keyinidan qarab turdi.* (“Rustamxon” dostoni).

TEBALASHMOQ q. tepalashmoq. – *Men, – Cho'lining yuziga anduh indi. – Kecha tag'in xotin bilan tebalashib qoldim. To'rt-besh kun shu yerda yura turaman.* (Normurod Norqobilov, Tog' odami). *Shuning uchun yo'q yerdagi gaplar bilan ko'p boshimni qotirma! Emasam, bekordan bekorga tebalashib qolamiz!* (Normurod Norqobilov, Yo'lak).

TEGARAK Dumaloq. – *Mirzani chaqir! Xiyol o'tmay, Hommod boshiga qora baxmaldan tikilgan tegarak takya qo'ndirib olgan, qotmadan kelgan novcha, cho'qqisoqol cholni boshlab kirdi.* (Bo'riboy Ahmedov, Amir Temur). *Bir mahal Kozimjonning ko'zi o'ziga qarab tepalikdan tushib bostirib kelayotgan, yuzlari oftobda kuyib-qorayib ketgan tegarak yuzli kishiga tushdi.* (Ulug'bek Hamdam, Olisdagi Dilmura).

TELPAKGUL To'pguli telpakka o'xhash o'simlik. *Qumsoat ham bir kuni sinar, qum adirga ketar sochilib. Undan yantoq bo'ladi bino yo tel-*

pakgul chiqar ochilib. (Faxriyor, Qumsoat). *Qirdan tog'rayhon, kiyiko't, telpakgul, shirachnikiga o'xshagan uzun bo'yli gul terdim.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).

TEMIRTIKAN (Ríbulus terréstris) Tuyatovondoshlar oilasiga mansub, poyasi yer bag'irlab o'sadigan bir yillik o'simlik. *Temirtikan mevalarida oshlovchi moddalar va 5 foizgacha qotmaydigan yog'li moy, o'tida qatron va bo'yoq moddalar; barglarida esa anchagina miqdorda askorbinat kislota bor.* (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar). *Temirtikan o'sgan maydonlar chuqur haydab yuborilsa, u qayta o'smaydi.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev, T.S. Yem-xashak yetishtirish).

TEPKI Chuqur savat. *Farzandga tanqis odam: "Bolam kamolga kirsam, ot beliga minsa, ikki tozini iyartib sahrolarda gasht qilib yursa", deb ikkita tozini ham tepkiga solib boqib yotar edi.* ("Rustamxon" dostoni).

TEVANA Juvoldiz. *O'g'lon kampir sug'urib, chaqaloqni qo'lida tutib turgan Avliyo momoga beradi, momo tevanani quloqning yumshoq joyiga emas, karragiga tiqib oladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TIRAMO Kuz. *...negadir o'zi ham rostdan odamlar hozir shunaqa ekanligini tasdiqlash uchun amakisining o'g'liga urug'lik uchun tiramoda o'n besh ming so'm bergani, biroq uni qaytarib olish qiyin bo'lgani, ikki-uch marta besh yuz ming so'mdan berib barakasini uchirgani, oxiri ekan bug'doyini bod urib, hech narsa berolmasligini aytib turganini so'zladi.* (Sobir O'nar, Tarvuz). *O'raga tiramoda suv tushgan, qishda savzi yaxlagan. Yangalaring bunaqa narsalarning piri, bitta bargni ham chiqit qilmaydi. – Baraka topsinlar.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TIRKISH Omochni bo'yinturuqqa mahkamlaydigan qalin, bo'liq charm. *Chavag'on ertalab kecha epaqaga keltirilgan tirkishni qo'ltig'iga qistirib chiqib ketdi-yu, hayal o'tmay qaytib keldi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Teri tasma-tasma tilinib, aylana shaklida bilakning yo'g'onligida o'riladi, bo'yinturuqqa mingashtirilgan omoch dastasiga quloqchin tiqilib, tirkish bilan ulanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TIRISHMA Ko‘richakka o‘xshash kasallik. *Shu bilan qo‘shnilar ham jimiylar va Sobirning yangroq ovozi tarala boshlaydi: – Ana, etakdagi Shahid guzarda Omon polvon degan kishi o‘tgan ekan. U kishi Afg‘onistonga borib, ko‘p polvonlarni yengib, lekin tirishma degan kasalni orttirib kelgan, keyin tirishib vafot etgan ekanlar.* (Shukur Xolmirzayev, Yozuvchi). *So‘ng urushdan avvalgi yillarga o‘tib oldi: kolxoz tuzilishi, quloqlar, kechasi bittasining: “Kolxozga ishga chiqma, so‘yilasan!” – deb qo‘rqitgani, o‘zining: “Yetimlarimni boq bo‘lmasa!” deya faryod qilgani... Keyin, bir-ikki kun o‘ziga sovchi bo‘lib kelganlarni qarg‘adi-yu, eri Shodmon polvon tilidan tushmay qoldi: “Tog‘dek yigit edi. Tirishma degani vabomi? Afg‘onda bor ekan...”* (Shukur Xolmirzayev, Odam).

TIRNOQ (Xorazm) Qadimda uylar imoratlarining poydevori. *Ish qizidi. Taxminan yarim paxsa keladigan loy tirnoq tortildi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). *“Ne gap, ne gap?!” Kelin suvdan olingan baliqday og‘zini kappa-kappa ochib yumar emish, lekin bir og‘iz ham gaplamas emish. Qo‘li bilan devorning tirnog‘ini ko‘rsatib, “yilon, yilon”, debdi zo‘rg‘a.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

TIRG‘ALMOQ 1. Hadeb yopishmoq. *Ammo biz endi bir-birimizga avvalgidek bolalarcha tirk‘alishdan iymonar edik.* (Sobir O‘nar, Bibisora). *Irg‘ishlab qo‘zi quvganlari-yu, tirk‘alib minaman deganlarini esladi.* (Murodxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida). **2. salb.** Asabga tegmoq. – *Shu odamni hech tushunmayman, – derdi jo‘rasi, to‘xta, deya qamchi silkib kelayotgan cholni osongina chetlab o‘tarkan. – Dashtni toptab tashlad-ing, jondor zotining urug‘ini quritding deya, tirk‘algani tirk‘algan.* (Normurod Norqobilov, G‘animlar). *Bir gal oshnasi Esonboyga: “Zotimdan ko‘krak kerib davraga kiradigan chiqarmikan?” – degan. Oshna o‘zini eshitmaganga olgan. “Chiqmaydi”, – deb Boziringanning yana o‘zi tirk‘algan.* (Nurilla Chori, Tashvishi yo‘q odamlar). *Shunda zahar yig‘ayotgan ilondek, ichi zardaga to‘la boradi va bor-yo‘q narsalarni bahona qilib, ayoliga tirk‘alishni boshlaydi.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). *Qishloqqa qaytayotib esa, yo‘lda traktorchi yigitga tirk‘aladi.* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). **3. salb.** Suykalmog‘. *Davlatning*

yonida bo‘yi pakana, biroq juda suluv qiz bor edi, qo‘yib bersa ular shu yerdayoq suykalishni boshlashar, ammo davlatning g‘ururi baland, go‘zal qizni qo‘lga ilintirgani bilan maqtanishni o‘ziga ep bilmas, aksincha, o‘ziga **tirg‘alib** keluvchi jononlarni ko‘pincha jerkib berar; so‘kib tashlashdan ham toymas, negadir suluvlar uning so‘kinishiga parvo ham qilmas, go‘yo shunday bo‘lishi kerakday battar tirg‘alishaverardi. (Sobir O‘nar, Davlatning qaytishi).

TISKINMOQ 1. (Xorazm) Ko‘ngilga keltirmoq, seskanmoq. *U ko‘ngliga o‘tirmagan, befarosatrog kimsalar bilan bir tovoqda ovqat yeyishdan tortingan, birov bilan salomlashgach, qo‘llarini qaytadan yuvmaguncha nonga qo‘l uzatmagan, tiskingan.* (Komil Avaz, Sozanda). **2.** (Xorazm) Qo‘rqib titramoq. *Ochig‘ini aytganda otini eshitgandanoq bolalar yig‘idan to‘xtab, kattalarning tani – badaniga bir tiskinish tushadigan Poqqi mapiyga bu shaharda nafaqat qo‘l ko‘tarish, balki uning gapini ikki qilishga jur‘at etadigan odam bo‘lishi mumkinligini o‘ylash ham mushkul edi.* (Shuhrat Matkarim).

TIYR (Xorazm) Don yelpig‘ich. *Tiyr*larni to‘ldirib terilgan go‘klar obdan tozalanib, undan to‘yimli, iligingni to‘q tutadigan taomlar tayyorlanadi. (Komil Avaz, Sozanda). *Qamarsulton xolavachchasi Gulandom bilan tiyr ko‘tarib, go‘k terish uchun yo‘rinja otiziga chiqib, qizlar qatoriga qo‘shildi.* (Komil Avaz, Sozanda).

TOBINLIK Qarashlilik. – *Og‘aning bu yerlarga qanday tobinligi bo‘lsa?! – suhbatga aralashdi Sayfi aka.* (Anvar Suyun, Solin yo‘li).

TOLLIQ Tolzor. *Tolliqning bir chekkasiga joylashib oldim. ...* (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchalar).

TOLQASHOV O‘jar. [Nasrullo:] *Tolqashovliging va mansabga ruju qo‘ymaganing padaringga tortibdi.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).

TOLTUV Kaltafahm. – *Maqtanchoq, toltuv, – dedi ichida uni masxaralab Nurbek, yigirma soatlab ishlayotganingda go‘r bo‘lyapsanmi.* (Mamadali Mahmudov, Qora do‘lana). *Bunaqa bo‘ronlarning tanobini el ustida yurguvchi haydovchilar juda yaxshi biladi. U Qashqadaryodan bo‘ladimi, Xorazmdanmi yoki so‘lim Farg‘onaning xushhavo go‘shalaridanmi bu*

yo'llarda ko'p yurarli bo'lsa, albatta, betiyiq tabiatning **toltuv** zarbalari-dan totib ko'rgan... (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo'rdoqi).

TOLTUSH Peshin vaqti. – *Barchinoy do'stim, men uni **toltushda** ko'rdim, **toltushda!** Dugonalari bilan tutimiz ostida bosmalim o'ynadi.* (Tog'ay Murod, Oydinda yurgan odamlar). **Toltush** mahali ko'chada odam qorasi ko'rinmadi. Go'yoki bemalol xayol suraver degandek. (Xolmuhammad Karimiy, Zanjir).

TONQA Jo'mraksiz chovgum. *Necha yerlarda dosh qozonlarda ovqatlar pishirilyapti, **tonqa**, tunchalar vaqirlab qaynayapyi.* (Komil Avaz, Sozanda).

TOPAROYI: Toparoyida bermoq Qarzni pul bo'lganda qaytarmoq. *O'ttiz-qirq yil burungi dali-g'uliligiga bordi, "**Toparoyida berasan!**" – dedi.* (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).

TORPIQ *Yashang-e, yashang! Har gal qurtob bilan atala **torpug'**ingizga maza qilaman.* (Shoyim Bo'tayev, Kunbotardagi bog'). *Ona-bola go'sht yemasliklarini biladigan bovruchi ularga turkiycha qaymoq **torpiq** pishirib keldi.* (Pirimqul Qodirov, Avlodlar dovoni).

TORTANAK 1. O'rgimchak. [*f.-t. **tortanak** – ip tortuvchi*] *Pakana endi har erta qo'lbola turnigiga **tortanakdek** osilib mashq qilar, undan keyin odatdagi badantarbiyaga o'tar edi.* (Erkin A'zam, Pakananing os-hiq ko'ngli). *Uni daf etmoq uchun avvalo, **tortanak** uyasiga chuvalashib qolgan oyoqlarini bo'shatib olmog'i lozimligini anglagandir.* (Fozil Tilovat, Qora quzg'un). **2.** O'rgimchak ini; is. *Hammasi ko'z oldimda, shiftini **tortanak** bosgan xona, bo'm-bo'sh, men-u tokchadagi qalpoq! Ketmaganman, taxi sal ochilgan qalpoqqa qarab o'tiribman.* (Ahmad A'zam, Ketgan birov edi). *Tegirmon... to'xtab qolganidan shifflarini **tortanak** bosgan... edi.* (Nurali Qobul, Bug'doy pishig'iga yetmaganlar).

TORTQI Teridan qilingan tasma, ot abzali. **Tortqini** tarang qilib, egarqoshga aylantirib oldim. (Anvar Suyun, Solin yo'li).

TORVONGLAMOQ Lapanglamoq. [*Davlatyor*] *Robotga o'xshab **torvonglab** beso'naqay yuradi... Kamgap. Og'ir-bosiq.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo). *U [Davlatyor] asta **torvonglab** keldi-da sekin qaroqchining qo'lidan tutti.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

TOSQOQ Yugurganda otning tiyog‘idan chiqqan loy. *Oldimda ot tosqog‘i bilan ketayotgan yo‘ldoshim Ibiloxun qanday qilamiz deganday qilchayib (bezovtalanib) menga qaray bergach: “Shu yurishingni buzma, yo‘ldan chiqmay, shu chopg‘aningcha yuraber”, dedim. (Alixonto‘ra Sog‘uniy, Turkiston qayg‘usi). [Avaz] Tosqoqday terlari muzlab qotadi, Misli tosqog‘ini o‘qday otadi... “Bo‘tako‘z”.*

TOVA (Xorazm) Har bir kishi uchun ajratilgan, to‘g‘ri o‘rib yoki terib ketiladigan yo‘lak. *Paxta terimi ham ma‘lum darajada jo‘xori o‘rog‘ini eslatardi. Har kim o‘ziga tegishli tovanadan ketib, o‘n-o‘ besh kishi barobariga terardi paxtani. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish). Yonada yigirma chog‘li katta-kichik, erkak-ayol tova olib, o‘ringa tushadi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Har bir paykal g‘alladan tozalanganda tovaning boshiga chiqib o‘tirsang, bel og‘riqlari, jami charchoqlar chiqib ketadi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

TOVIN Tegishli. *Ko‘p boshni qotirma! – dedi pisanda ohangda. – Qara, bu tosh sendan ko‘ra ko‘proq menga tovin... – Qachondan beri ena kimgadir tovin bo‘lib qoldi? – dedi Tog‘ay uning sha‘masini anglab. (Normurod Norqobilov, Enatosh). Yakkasuv teng oraliqda joylashgan bo‘lishiga qaramay, ikki qishloq yoshlari o‘rtasida doimo talash, “bizga, yo‘q, sizga emas, bizga tovin”, deya dam-badam ular orasida chaqin chaqnab turadi. (Normurod Norqobilov, Yakkasuv). Maydaqadam modaning ustida o‘z maylida tebranib borayotgan mana bu jinqarcha Bozirgan cholning nevarasi. Huv-v, ana u chayla esa Bozirganga, to‘g‘rirog‘i, uning kenjasi – Eshboy eshchiga tovin. (Nurilla Chori, Tashvishi yo‘q odamlar).*

TOVUSHQON Quyon. *Bu oqshom mazali tovushqon sho‘rvadan ham ko‘ra ko‘pdan beri eslanmagan gaplarning yodga olingani bilan totli edi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).*

TOVKALA G‘ulg‘ula, tahlika. *Maslahatga chaqirmagani uchun na u va na devonbegi amir huzuriga kirolishdi. Faqat Abduqayum to‘qsobaning yuragiga tovkala tushib qoldi. (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).*

TOYLOQ (Xorazm) Yalang‘och. *Chalasavod, chalasavod bo‘lsa ham ziyoni yo‘q, g‘irt savodsiz odamning gazetada ishlashi toyloq odamning olovga kirishiday gap edi. Bunday odam olovda faqat o‘zi yonib kul*

bo'lmaydi, balki boshqalarni ham xonavayron qiladi. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

TOSHBOSDI Ravochning turi. *Tog'liklar ravochning toshbosdi degan turini yaxshi bilishadi.* (O'tkir Hoshimov, O'zbeklar). *Bunaqa ravochlarning bor kuchi toshlarni yorib nurga chiqishga sarf bo'lar ekan, keyingina barglari o'sa boshlar ekan. Shuning uchun ham bunaqa ravochlarni, ya'ni eng totli va mazalisini "toshbosdi ravoch" deyisharkan.* (G'ofir Jo'rayev, Yuring tog'ga chiqaylik!)

TOSHIRQAMOQ Toshlardan mollarning tuyoqlari yorilmoq. *Ular [yilqilar] hali o'zlarining yangi makonlariga ko'nikishmagan, soz tuproqli keng adirlarga o'rgangan tuyoqlari chag'ilda toshirqab qolgan.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a).

TOSHQOLOQ Toshlardan qurilgan (uy, devor). *Kun botar tomondagi yalanglikda jimir-jimир oqib yotgan soy, soy bo'yidagi tog' ovulining pastqam, toshqoloq uylari elas-elas ko'zga tashlanadi.* (Luqmon Bo'rixon, Ovchi qismati).

TOSHTESHAR Tumshug'i uzun, tomog'i oq, qanotlari ko'k, kichkina sayroqi qush. *Ovozi biram yoqimli, jarangdor. Iy-e, bu toshteshar-ku, xabarchi qush.* (G'ozirahmon, Mo'minjon).

TOSHTOVON Pishiq charmdan, ba'zan past poshnali qilib tikilgan mukkiga o'xshash kalta etik. *Ertasi kuni usta Hamza tikkan toshtovonini sudrab, yelvagay to'ni hilpillab, halloslagan cha Uzoq jo'raning o'zi yetib keldi.* (Nurali Qobul, Kechikkan turnalar). *[Polvon] Ko'zlarini yirib oldinda bir juft toshtovon etikni ko'rdi.* (Murod Muhammad Do'st, Dasht-u dalalarda). *[Farhod tushida] Boshida malaxay telpak, egnida og'ir chakmon, oyoqlarida qo'nji uzun, tumshug'i qayrilma toshtovon etik – dovulga qarshi ot yeldirib borayotir.* (Erkin A'zam, Shovqin). **Toshtovonim bilan choponim changga belangan, u yer-bu yerlari laxta-laxta qon.** (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

TOSHTUYLAK (Qarnoq) Pishiq, ayyor. – *Mushtday bo'lsang ham toshtuylak ekansan, bor, ikki yuz yigirma so'm! – dedi baqaloq.* (Sa'dulla Siyoyev, Saratonda qor yog'di).

TOSHCHIROQ Kichkina sirlangan qayiqsimon tosh idish shaklidagi chiroq; ichiga zig'ir yog'i solinib, unga paxtadan yasalgan pilik solinadi, pilik yo'g'ni o'ziga shimib, dud chiqarib yonadi; chiroqning orqa tomonidagi ko'zaning og'zidek doira bo'lib, u ham yog' solinadigan bo'lma, han tutqich vazifasini o'tagan. – *O'qi! Ne arz ekan? – dedi otda turib. Kutvol lippani yirtib, toshchiroq yorug'ida hijjalab o'qidi: “Nomard Rukniddin! O'g'lingni axtarib ovora bo'lma...”* (Sa'dulla Siyoev, Ahmad Yassaviy). *O'sha paytlari toshchiroq yorug'ida dars tayyorlardik. Ko'zimiz ham rosa o'tkir bo'lgan ekan-da.* (Komil Avaz, Yoqut momo).

TOG'BEGI Tog' qishloqlarida o'rmon qorovuli. [Asilbek] *Tog'begilarning ko'zini shamg'alat qilib, tog'dagi ko'ringan qoraga kun bermay qo'yadi keyin.* (Normurod Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam). *Agar o'n daqiqacha burun yuqoriga o'rlab ketgan tog'begining qaytib kelishidan hadiklanmaganda, undan Paxmoq sho'rlikning qutulishi qiyin edi.* (Normurod Norqobilov, Paxmoq). *Toshmurod tog'begi buloqdan oftobani to'ldirib kelganda, muzdek suvdan huzur qilib simirdi.* (Nurali Qobul, Unutilgan sohillar). *Uyimiz atrofidagi qir-adirlarga “qonunchi”, har bir narsa ustida odamlar bilan erinmay tortishadigan Xudoyqul chag'irko'z tog'begi bo'ldi.* (Nurali Qobul, Sangzor).

TONGTALOSH Endi tong otgan payt. *Vaqt tongtaloshga borib taqalishiga bir baxya qolishiga qaramay davra tobora jonlanmoqda edi.* (To'ra Sulaymon, Aslida beshikdan boshlanar qo'shiq).

TRA-TRA Ko'kqarg'a. *Boshimni ilkis ko'tarib qarasam, ustimdan patlari ko'm-ko'k bir jannatiy qush uchib o'tdi – ko'kqarg'a! Uning sayrog'iga qarab, tra-tra ham deydilar.* (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).

TUBCHAK Burchak. *Tugdim, Tubchakka tashladim.* (Topishmoq. Javobi – chuchvara).

TUFAK Durra. *Chimildiq ortida, sochlariga oq tufak taqilgan, ko'z yoshlaridan yoqasi ho'l bo'lib ketgan, beozor qushchadek titrab turgan xilqatni ko'rish xayoliy holat edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

TUGURCHAK Mayda do'l. *To'sat do'lmi, tugurchakdan, qolmasaydi qiyralishib.* (Mirtemir, Go'dakligim).

TUDOR (Xorazm) Xorazmlik ayollarning qadimgi bezagi. *Boshima osganim Xiva tudori, Orasinda hilpillaydi bir tori.* (Xorazm laparlari).

TULKIQUYRUQ (Prāngos) Bo‘yi 1 m gacha boradigan, ildizlari yo‘g‘on, silindrsimon, poyalari to‘g‘ri bo‘lib o‘sadigan, ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. *Tulkiquyruq O‘rta Osiyoning tog‘li rayonlarida o‘sadi.* (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar).

TULP Qobiq. *Qovun pishmasdan ilgari buvim o‘lchak oldiga chuqur tayyorlab, og‘zini kichkina qilib shuvab qo‘yardi; keyin qovun urug‘larini shu chuqurchaga sola berardik. Qorachiqdan ko‘chib ketish oldidan esa buvim chuqurni ochardi. Urug‘larning sirtidagi tulpi achib suyulgan bo‘lar, buvim uni g‘alvirga solib yuvsa, toza urug‘ qolar, so‘ng uni yoyib quritardi. Xullas, hech narsa nobud bo‘lmasdi.* (Zarifa Saidnosirova, Oy-begim mening).

TUMANLAMOQ Pastga qarab yurmoq. *Ovchilar ayri-ayri yo‘lga tushib, Novdan tumanladilar va Dehvaronda duchlashib, Qizilsuv yoqalab yurdilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

TUMSHUQ Baliq tutish uchun suvga tashlab qo‘yiladigan savat. *[Azamat] Kechqurun yorug‘da baliq tugadigan savat – tumshuqni suvga tashlab, uni mahkam bog‘lab, ustiga tosh bostirib qo‘ydi.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

TUNASH Tavof. *Bu dargohlarni bandalar har xil sabab bilan – farzandtalablar farzand so‘rab, bemorlar shifo istab, ishi yurishmaganlar omad ilinjida tavof qilar edi (xalq tilida bu amal “tunash” deb ham yuritiladi).* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

TUNCHA Jo‘mrakli chovgum. *Eshigimning oldi katta ko‘chalar, O‘tda qo‘ysam biqirdidi [biqirlaydi] tunchalar.* “Shoda-shoda marvarid”. *[So‘naning] Yuzi o‘n to‘rt kechalik oyga mangzash, tog‘g‘a tushgan bo‘lak-bo‘lak qorg‘a mangzash, yanoqlari g‘unchaga, mamalari tunchaga mangzash, kaptar to‘piqli, maral yurishli, hilol qoshli, oltin sochli, marvarid tishli, to‘ti tovushli, barno, xushro‘y, qomati ar-ar, qaddi sarvi sanobar bir ovodon qizki, ta‘rifini ado qilib bo‘lmas.* (“Oshiqnoma” dos-

toni). *Necha yerlarda dosh qozonlarda ovqatlar pishirilyapti, tonqa, tunchalar vaqirlab qaynayapyi.* (Komil Avaz, Sozanda). [*Otam*] **Tunchani** ham shu o'tga qo'yib paqirlatib qaynatar va choy damlatardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). *Qutlug'murod ayvon yonidagi o'choqda qiyshayibgina turgan qora tunchani suvga to'ldirib, tagiga o't yoqdi.* (Komil Avaz, Sozanda).

TURMA (Xorazm) Yo'g'on qizil matodan belbog'. *Ustlarida yaltiroq do'nma to'n, "turma" deb ataladigan yo'g'on qizil matodan belbog', old tomonida tugun qilib bog'langan joyida chiroyli popuklari osig'liq turadi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

TURMOQ Shimarmoq, qaytarmoq. *Bilaklarimni turdim.* Do'mbirani sozimga soldim. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). *Turg'un taraddudlandi. Baloq turilmay baliq tutib bo'lmasa. Bir-ikkida tuzuk-quruq gaplashmagan ekan. Salom berdi. Shomirza hayronlanib qo'l uzatdi.* (Ma'mura Zohidova, Boychechak). *Tog'am poychasini turib suvga tushdi-da, itlarni nari quvdi.* (Dilmurod Sodiqov, O'zidan qochayotgan odam).

TURMUQ Yorg'oq. – *Oshna, sapchiganing bilan terganing shumi? – so'radi Eshtemir ko'zini olaytirib. – takaning turmug'icha yo'q-ku.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

TURNAKO'Z Tiniq, sof. *Cho'l bag'ridagi chaman – Navoiy shahri ni tark etib, bepoyon yaylovlar va tog'lar osha ertaklarda madh etilgan turnako'z buloqlar maskani Nurotaga kirib borar ekansiz, xalq baxshisi Ergash Jumanbulbulning yuqoridagi satrlari yodga tushadi.* (Nurali Qobul, Nurota kamalagi). *O'z boshiga qarovsiz, suruv-suruv yuradigan otlar, tog'ning hammayog'iga sochilib ketgan qoramol podalari temir tuyoqlari bilan turnako'z buloqlarning ko'zini ko'r qilib, navqiron butalarni tag-tomiri bilan kemirib yubordi.* (G'ozil Rahmon, Tazarru).

TURUSH Nordon, achchiq. *Kech kuzning zaharday sovuq, turushdan turush havosi olako'sov qirov bosgan tongidan yelkasi tirishibgina uyg'ongan qishloqni aytuvchining do'rillagan ovozi bosadi.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

TUSOQ I (Qashqadaryo, Surxondaryo) [*f.-t. du* – ikki] Ikki yashar urg‘ochi qo‘y. *Shunda bog‘ adog‘ida eshak pishqirdi, tepindi. Arqoni olmaga o‘ralib qolgan tusoq qo‘zisi bo‘g‘iq ma‘radi.* (Shukur Xolmirzayev, Shudring tushgan bedazor). *Undan ko‘ra, birimiz chori, birimiz shishak, juda bo‘lmaganda to‘xli, tusoq, himmat qilganimiz yo qo‘zili qo‘y, yo to‘pichoq olib kelamiz desanglar-chi!* (To‘ra Sulaymon, Tarki jamoa). *Boshqasi dovdirab, yo‘lini yo‘qotib, oyoq ostida o‘rmlashgan tusoq chovini shart uzib sherigining oldiga tashladi.* (Bahodir Qobul, Tanovar). – *Echkini qirqqa, tusoqni ellikka ko‘tarasiga sotdim, – dedi u...* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

TUSOQ II [*tusi oq*] Qulog‘i oq, oyog‘ida ham olasi bor qo‘y. *Avaz unga javob bergisi kelmay akasiga yuzlandi: – Norboy otaning suruvidan bo‘lsa ajab emas. Har yili egiz tug‘adigan tusoq sovliq bor edi. Lekin bunaqa kech tug‘mas edi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar). *Sho‘x shirbozlarning orasida Avaz daladan topgan tusoq qo‘zichalar qam o‘ynoqlab yuribdi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko‘zlar).

TUTAN Igna. *Tokchadagi tutanning Ipi qani, yor-yor, ketayotgan singlimning Sepi qani, yor-yor.* (“Oy oldida bir yulduz...”)

TUTMAYIZ Tutdan qilingan mayiz. *Muxtorxon esa, tutmayiz bilan olma olib kelib, ikkovlon nonxo‘rak qildilar va soylik chekkasidan chiqib turgan buloq suvidan ichgandan so‘ng, qolgan ovqatlarni xurjunga solib xotirjam bo‘ldilar.* (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). *Tutmayizlar bo‘z xaltalarga solinib balandda, bolalar qo‘li yetmaydigan joyda saqlanadi.* (Ma‘rufjon Yo‘ldoshev, Avliyotut).

TUTTALQON Tutdan qilingan talqon. *Urush yillaridagi qahatchilikda tut qariyb qishloqni boqqan, onamning kuni tuttalqon qilish bilan o‘tardi.* (Muhammad Sharif, Otamakon).

TUV Tug‘magan. *Xidirali boy urushib qoldi, jamiy qirg‘izni yig‘di, tuv biyalardan, semiz tuyalardan so‘yib, keragadan qo‘rg‘on qildi...* (“Xoldorxon” dostoni).

TUVAKKO‘CHA Boshi berk ko‘cha. *Toshkentning shunday yonida, qo‘l uzatsa yetadigan joyda ovloqdan-ovloq bog‘iston ko‘cha-yu siv-*

ilizatsiyaning qadami yetmagan mavze borligini yaqin-yaqingacha ham ko'pchilik bilmasdi. **"Tuvakko'cha"** deyilgan cha bor. Oxiri berk bo'lib, Qo'shilishda tugardi. Ba'zilar uning nomini aytishga uyaliq, zo'r berib, "Tuvak" emas, "Tubanko'cha" deb isbotlashga urinib yurishdi. (Murud Mansur, Judolik diyori). Bu ko'chaning nomi ham qiziq: birovlar "berkko'cha" deydi, "xaltako'cha", **"tuvakko'cha"**, "gumbazko'cha" deydiganlar ham bor. Ko'cha adog'ida yashovchi To'lan oqsoqol osoyishtalikni nazarda tutibmi, "Halovat ko'chasi" deb atagan. (Tohir Malik, Halovat ko'chasi).

TUVANLAMOQ Hisobini olmoq, sanog'ini hisoblamoq; aniqlamoq. U paytda qamoqdagilarni qo'yni **tuvanlaganday** har kuni shom oldi **tuvanlab** chiqaydi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). Bu xil to'y-ma'rakalarda favqulodda izzatli odamga aylanadigan chol ichidan yayraydi. Turkman jo'rasi hadya qilgan chakmonni egniga tashlab, sandal nusxa kursida xonlarday savlat to'kib o'tiradi. Kim keldi, kim ketdi, barini **tuvanlaydi**. (Normurod Norqobilov, Ovul oralagan bo'ri). Ayg'ir bo'lmasa-da, chayir, olg'ir, aqlli ot. Zoir aka har zamon tog'ga chiqib ularni **tuvanlab** qo'yadi. (Mohigul Qosimova, Tog'da adashgan odam). To'lanboy Jo'rasining zamzamali chorlovidan so'ng ham holatini o'zgartirmay, xuddi podani **tuvanlayotgandek**, dashtga qadalib turaveradi. (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda). Tong otguncha olti qo'y, to'rt sovliq, ikki qo'chqorni nobud qilishibdi. **Tuvallab** qaragam, hammasi bo'lib sakkiz qo'y ketibdi. (G'ozzi Rahmon, Tilsimli tog'lar).

TUVLAMOQ Asovlik qilmoq. Jiyron qashqa nimadir sezganday bo'ldi. Beli tortilayotganda, yugan solinayotganda, ustiga xurjun ortilganda **tuvlab** – quloq jimirdi. (G'ozzi Rahmon, Qarqara mergan).

TUVLOQ Qo'lga o'rganmagan, asov. Keyinchalik eshak, toy-**tuvloq** mingan barvasta cho'pon yigitlar o'tganda ham yuragi orziqadigan bo'ldi. (Hamid Elxon, Maynagul).

TUYA: Tuyaday ters siyadi (Xorazm) Ters ish qiladigan, g'ayir. "Hmmm", ho'mraygan qassob avval kelinini, keyin o'g'liga norozi boqib. Jig'i-biyroni chiqqan Kenja bilan kelinini kampir tinchlantirdi: "Akangni

bilmasanmi?! Butun umr tuyaday ters siyadi” (Shuhrat Matkarim, Shaydo). *Omon Turdiyevich hozir keskinlikka boradigan vaqt emasligini yaxshi bilardi. Harqalay, bu jurnalist xalqining ters tomoniga chiqmagan ma’qul. Mehmonning oldida tuyaday ters siyib, hamma ishni pachava qilishi hech gap emas.* (Shuhrat Matkarim, Kulgich).

TUYAJUN Tuya junidan qilingan. *Bobomning meni yetishiga gap ko’p, tuyajun chakmoni o’zi bir otga yuk.* (Shodmonqul Salom, Qorxat). *Momo bolaning kiyimlarini tortqilab-tortqilab yechib tashladi. So’ng tagiga to’shab o’tirgan tuyajun kigiz ko’rpachaga o’radi va ko’rpasini ko’tarib issiq sandalga tiqdi.* (Xoliyor Safarov, Qo’g’irchoq).

TUYAK (Xorazm) Bug’doy yanchish. *Umuman, tuyak, o’rim-yig’imlar qay darajada mashaqqatli bo’lmasin, o’ziga xos zavq-shavqi bo’lardiki, butun oilaning kayfiyati ham shu zavq-shavqqa bog’liq edi.* (Matyoqub Qo’shjonov, Dagish).

TUYAQORIN (*Heliotropium lasiacarum*) Kampirchopondoshlarga mansub, bo’yi 30–60 sm, o’q ildizli, mayda oq gulli, sershox bir yillik zaharli o’t. *...kichkina Dovulbek tuyaqorin panasiga o’tib, ikki kun kalamushning inidan chiqishini poylagan, og’zining so’lagi oqib-oqib kutgan.* (Zulfiya Qurolboy qizi, Qadimiy qo’shiq). *Bahori tugab, yuksak tog’larga – bahoryurtga yo’l olgan cho’pon-cho’liqni qori erimaydigan manzillarga eltib, ularning qo’shxonasi, o’tov anjomlarini tog’ga ko’chirib qaytgan qo’ng’ir nortuyalar yo’l-yo’lakay tuyaqorin, shuvoq, qo’ng’irboshlarni terib yeb, dashtlarga kelib joylashadi.* (Shodmonqul Salom, Saraton). *Qiyalik etagida o’n besh-yigirma uyli qishloq joylashgan, bir tomoni kakra-yu karrak, maskavag-u tuyaqorinlar to’shalib yotgan lalmi to’qayzorga tutashib ketadi.* (Anvar Suyunov, Ota va o’g’il).

TUYAQUMIRSQA *q. otchumoli.* *Tirnalgan tuproqda turli-tuman hasharotlar, lo’kanglagan tuyaqumirsqalar yuguriklab qoladi.* (Anvar Suyunov, Ota va o’g’il).

TUYATOVUQ Kurka. *Ko’p yillardan keyin, bu mustaqillik payti, Sayrobda o’zimiz to’xtab, haydovchim bilan kabob yeb olib, baliqlarga non berib turganimizda bir pichoqchi, qo’lida tuyatovuqning qanotiday qilib*

besh-olti pichoqni tig'idan ushlab yoyib olgan, yopishdi-qo'ydi, bizning pichoqdan oling, ziyorat joy, tabarruk, deb. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar).

TUYATOSH Cho'nqayib turgan katta tosh. *Makiyon burgut tepalikdagi yirikkina tuyatoshga qo'nib, o'zidan tahminan ellik-oltmish qadamcha quyidagi kichikroq uyday keladigan tuyatosh yonida barra maysalarni chimdiyotgan kulrang quyovni diqqat bilan kuzatardi. (Soyim Ishoq, Sadoqat toshi). Qishloqning oy bus-butun yoritgan sokin va sohir kechalari va ko'chalari, yo'l bo'yida qalashib yotgan tuyatoshlar, xarobgina qishloq kutubxonasi va tuproq tomli bir uy... hammasi ana shu birgina so'zda mujassam. (Ne'mat Arslon, Amalgama).*

TUYATO'PPON Tuyatovon o'simligi. *Bir toshhovlidagi tug'dona daraxti soyasida shu yerlik qariyalardan boshqa hududlarda uchramaydigan shifobaxsh giyohlar: harron, quvontovuq, tuyato'ppon, tulkitoshak, shung'ulalarning dorivor xislatlarini so'rab-surishtirib, suhbat qurib o'tirgan edim, bir mahal sal naridagi toshqalov yonida o'zaro jiqillashib qolgan uch-to'rt bolakayning gap-so'zlari diqqatimni tortdi. (Nodir Normatov, Buyuk xazina mo'jizalari). Lolalarning piyozlari, tuyato'ppon, mundaloq qazib olinib, andizlarning po'sti archilib o'zagi iste'mol qilingan, xolbovqining tomiri olinib, undan foydalanib nisholdalar tayyorlangan va kir yuvilgan. (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi).*

TUYAYANTOQ Yantoq. *Jilg'in, tuyayantoq, qamishzor, suvloq, Qararang bosadi bir shirin mudroq. Unda yo'q darg'azab, iymonsiz vazir, Cho'lga yot dabdaba, shohona qasr. (Murtazo Ulug'ov, Istiqlol zinalari).*

TUYAYAPROQ (Rheum turkestanicum Jantsch.) Torondoshlar oilasiga mansub, qumli cho'lda o'sadigan, yirik yaproqli, ko'p yillik o't. *O'zbekiston xalq tabobatida tuyayaproq deb ataladigan bir tur ravoch id-dizlarini po'stidan tozalab to'g'raladi, quritiladi va sutga solib damlanadi-da, ko'pgina ichki kasalliklarga davo o'rnida ichiladi. (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar). Tog' balandlik mintaqasida tog' piyozi, anzur piyoz, zira, ravoch, taran, tuyayaproq, kiyik o'ti, tog'saqichi (tarkibida kau-*

chuk moddasi bor) kabi dorivor o'simliklar ham uchraydi. (Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi).

TUYACHANGAL (Salsola pestifer A.Nelson.) Sho'radoshlar oilasiga mansub, qumli cho'lda o'sadigan dorivor buta. *Cho'llarda [keyrovukning] tuyachangal, to'rg'ayo't, baliqko'z, bayalich, seta, tatir, pashmak va boshqa turlari uchraydi. (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).*

TUYACHUMOLI q. **otchumoli**. *Tilov yolg'iz, devor tagida cho'nqayib o'tirar, kattakon qizg'ish tuyachumolining orqa oyog'idan bosib, uning jon achchig'ida tipirchilashini tomosha qilardi. (Shukur Xolmirzayev, O'n sakkizga kirmagan kim bor).*

TUYNA Shish, mollarda bo'ladigan teri shishi. *Iynaning boshi tuyna. (Topishmoq. Javobi – to'g'nag'ich).*

TUZLIK To'g'rilik, halollik. *Lufing-la adolat qil, Tuzlikka dalolat qil, Man zorga karomat qil, O't endi gunohimni. "Shoda-shoda marvarid".*

TUZUV (Xorazm) Ayollar bezaklarining umumiy nomi. *Tuzuv ke-linchaklarning chiroylariga chiroy qo'shar, harakatlariga sirli musiqiy ohang bag'ishlardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).*

TUSHLIK Janub. *Yilqichi hayron ham lol, Bu qanday gap, qanday hol: Tushlikdan kelar tuman Bir qo'shin bulutsimon. (To'ra Sulaymon, Intizor).*

TUG'DI-BITDI Qarindosh. *Bo'larman bola boshidan, egachi. – doyaning ovozi jaranglab eshitilardi? – egamning marhamati bilan osongina boshi yerga tegdi. Nasib bo'lsa, umri uzun bo'ladi, peshonangga bitgan tug'di-bitdingni qo'lingga olding, endi shukur qil! (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Ikki dunyo tug'di-bitdi qondosh elingdan chiqma. Ayni shu kunlarda ham shunday kishtikor o'sha hududlarda – Zarmas, Vori, Qiziltom qishloqlarida yashayotgan tug'di-bitti odamlar tomonidan davom ettirilgan. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

TUG'DONA (Surxondaryo) Toshdaraxt. *Bu yo'l yong'oqzor ichidan o'tgan yo'l bilan jar labidagi keksa tug'dona tagida tutasharkan. (Shukur Xolmirzayev, Saylanma). [Mengliboy] To'rt-beshta kaklik otib, jildirab oqib yotgan jilg'a bo'yidagi tug'dona daraxtining tagini qo'nalg'a tutdi.*

(Azim Suyun, Nevaralarim uchun). *Momom aytardi: tug'dona xosiyatli daraxt, uni kesgan odam qatl etilgan.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox).

TUG'DONAZOR Tug'dona daraxti o'sgan yer. *Qani u tasbehtar – dunyo kezib ketdi, qani u do'mbiralalar – o'tmishning g'uborli, ong qa-qshar sarhadlariga singigan o'ksik ohanglar, qani u tug'donazor – mana shu atrofda mozor.* (Mengziyo Safarov, Ayrishox). *Yonbag'irga yaxlit, ulkan bir daraxtdek yopishib turgan o'sha gujumzor-u tug'donazorga yaqinlasharkanmiz, dara bo'ylab yovvoyi hayqiriq yangradi: – Guli-guli, guli-guli!* (Erkin A'zam, Guli-guli).

TUG'MASAK Tumsa. *Kichik kampirning zorlanishida ma'ni bor edi. Qirg'iy uni suyib, xotinlikka oldi. Biroq bu suluv xotin tug'masak chiqdi. Avval er qilib ajrashgan ekan, boisi farzandsizlik bo'lgan, shu sabab Qirg'iy uni ko'pda ayar edi, ko'ngli yumshab, ra'yini qaytargisi kelmay qolardi.* (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi). *Tirnoqqa zor kelin-kuyovlarga ham to'g'ri maslahatini berar, bir necha o'g'ilga muhtoj odamlarning o'g'illi bo'lishiga yordam berganiga guvohman. Bu endi tug'masakni tug'dirardi degani emas, ba'zi birovlarga senda urug' ko'rinmayotir deb ham ochiq aytaverardi.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari). *Kattalarning tug'masak tekkan xotiniga bo'ri og'zi, qamoqda o'tirib o'pkasini oldirgan boyvachchaga qabon go'shti, to'ng'iz yog'i, hezalakka kaklining to'shi.* (Bahodir Qobul, Oqdala).

TUNGILMOQ Bezor bo'lmoq. *Men tungildim yer yutgurdan voyvoy, Xushvaqt bo'lib meni mazaq qiladi. "Misqol pari". Tusi yaxshidan aslo Tungilma, degan gap bor, Bir yaxshiga bir yomon, Gul bor yerda alaf bor.* (To'ra Sulaymon, Xarsang). *Bizning Turkistonimizda "Tusi kelishgandan tungilma" degan qadim turkiy maqol saqlanib qolgan. Bu hozirgi o'zbek tilida aytilsa, "Chiroylidan bezor bo'lma" demakdir. Zotan, aksariyat hollarda tashqi go'zallik bilan ichki go'zallik o'zaro uyg'un...* (Otauli, Mehrga qasida).

TO'BAL Boshida oqi bor. *Bola ularni artmaydi, chunki ikkala qo'li ham band: bir qo'lida jilov, sovringa berilgan, baxmal yopilgan to'ri to'bal g'unonni yetaklab olgan.* (Hamid Alp, Zuryod).

TO'BORSIMOQ Ilviramoq, po'sti ko'chmoq. – U – boy odam. *Boylarding o'zi bir paqirga qimmat bo'lsayam ta'blari nozikligini bilsalaring kerak. Manovi kosov qo'llaringdi aytmaganimdayam, to'borsigan lablaring ko'zga bir yomon ko'rinadi. Shundan jirkanadimi deyman. Yana o'zlaring bilasizlar.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

TO'DAGIR (Qashq.-Surx.) Uloqni to'dadan tortib olib chiqadigan chavandoz. *Ne tongkim, bobom bir zo'r baytalni chopgan. To'dagir bo'lgan.* (Sobir O'nar, Ot choptirsa, gumburlaydi tog'ning darasi).

TO'FOR Urug'dan kichik etnik guruh. *Qadim qo'ng'irotlarning Mavlesh degan to'forida ham shundaylarni uchratsa bo'ladi.* (G'ozī Rahmon, Shukuhli karvon). *Barloslarning bitta to'fori negadir o'ris bashara, sarg'ishdan kelgan, ko'zlari zig'ir guliday ko'kish.* (G'ozī Rahmon, Qo'sh kabutar chizilgan uy.)

TO'LAN Besh yashar ot. *Yulduzni ko'zlaydigan, arg'umoqlarminan hali qitig'i bosilmagan to'lanlardi taqalashni o'sha kishiga chiqazgan edi.* (To'ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi). *To'lan tunda yelsa ham Ko'zi shamg'alat bo'lmas.* (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

TO'LATOQ (Xorazm) To'ladan kelgan. *Doktor o'rta bo'yli, to'la-to'q, hadeb yelkasini uchirib turadigan odam.* (Shuhrat Matkarim, Avval va keyin). *U [Ziyod muallim] kichik jussasiga qarama-qarshi o'laroq to'lato'q edi. Shungami uning harakatlari vazmin, ovozi bosiq va salobatli edi.* (Shuhrat Matkarim, Ziyod muallim). *Darvesh to'lato'q, g'o'daloqqina bola, tayoq tegib og'rikan yerini siypaladi.* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo'rqadigan odam).

TO'LPI 1. Yosh semiz urg'ochi qoramol. *...birovning bir ulog'i o'n yilda ham echki bo'lmay, boshqasining bulturgi tana-to'lpisi kechki bo'lmay tug'ib, ko'payib yurgan paytda Beshqo'tob soyda Mengliboyning rop-pa-rosa besh qo'toni, qo'tonlari to'la qo'y-echkisi bo'lgan ekan.* (G'ozī Rahmon, "Kelinuchdi" rivoyati). **2.** Bo'liq, baqaloq. *Bir kulsa, ming baxtni qilgan cha tortiq, Qiqirlab bir quchoq, to'lpi, baqaloq.* (Matnazar Abulhakim, Chaqaloq).

TO'MOR Butaning bo'g'inli qismi. – *Jovli, sen Erkinni otasi tashlab ketgan deb o'ylayapsanmi. Odamlarning gapiga qaraganda, hali O'lmas*

amaki ko 'p pul ishlab kelarmish, – deb Boymirza eshagini buloqboshidagi butaning **to'moriga bog'lay** boshladi. (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish). Yo 'lning ustidagi yakka qayrag'ochga yetib to'riq g'unondan tushibdi, nariroqdagi jing'ilning **to'moriga qoziqbov solib mahkam bog'labdi-da** qayrag'ochning soyaliroq joyini o'nqlab, sallani boshiga qo'yib uyquni uraberibdi. (Hamid Elxon, Maynagul).

TO'NBICHAR Qiz. Birdan xayoliga jo'rasi qizchalik bo'lgani kelib, cho'ntak kovladi va "**to'nbichar** qutlug' bo'lsin, umri uzun bo'lsin!" dedi. (Sobir O'nar, Vijdon). Kasallikdan tuzalib ishga chiqqanimdan ko'p o'tmay farzandli – qizli bo'ldim. Shu kuni ustoz qo'ng'iroq qilib tabriklaganidan so'ng uyushmamiz markaziy apparati a'zolaridan iborat telegram guruhimizga kirsam Sa'dulla aka "Odamlar-o, odamlar, eshitmadim demanglar. Uyushmamiz qiz nabiralik bo'ldi. Xolmurodning uyiga **to'nbi-char** keldi. Muborak bo'lsin. Hamma yalpi qulluq bo'lsinga safarbar etilsin!" deb yozibdi. (Xolmurod Salimov, Mehribon murabbiy edi).

TO'NG'IRTQA (Xorazm) Suv quvuri. **To'ng'irtqa** Shovvotdan boshlanadigan ariq boshiga ko'milardi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Bir oyoq solmaning **to'ng'irtqasi bor ekan**. ("Gulruh pari").

TO'NG'IZARRA Ikki tomonida dastasi bor, ikki kishilab arralashga ixtisoslashgan katta arra. Endi o'ttizga to'lgan akasining qop-qora yonoqlari ichiga botgan, o'z yoshidan o'n-o'n besh yoshlar katta ko'rinardi. U ustachilik qilar, poytesha-yu **to'ng'izarra** ishlatardi, kasbiga yarasha jahli ham burnining uchida turardi. (Shoyim Bo'tayev, Qarz).

TO'NG'IZSIRT (Kobresia) Hiloldoshlar oilasiga mansub, yaylovda o'sadigan yem-xashakbop ko'p yillik o't. [Ko'ksuv tizmalari] Tepalarida subalp va alp o'tloqlari, tog'-o'tloq-dasht yarim torfli tuproqlarni **to'ng'izsirt** (kobrezia) va betaga, shashir, zanjovul va boshqa yer bag'irlab o'suvchi o'simliklar egallagan. (OzME).

TO'NG'IZO'Q Yovvoyi cho'chqa ovlashga mo'ljallangan o'q. Mutaassislar uni "Polev patroni" deb ham atashadi. Fillardan ikkitasi to'fangulardan ustma-ust otilgan **to'ng'izo'qlarga** uchib yiqildi. (Pirimqul Qodirov, Avlodlar dovoni). – Unda meni atay otgan bo'lasiz... O'lmay qolishim ham mumkin, unda men bari bir sizni otib o'ldiraman! Mening patronim-

da **to'ng'izo'q**. (Shukur Xolmirzayev, Tikan orasidagi odam). *Taqdirga tan berdi Mirzo boshqa iloj yo'q, Jigar-bag'ri o't so'zlasa sachramoqda cho'g', O'shal qo'shtig' miltig'iga solib to'ng'izo'q, Aytgil otang meni qachon otar Dilnoza!* (Mirzo Karim, Dilnoza).

TO'PINMOQ (Xorazm) O'dag'aylamoq. *Ikkinchi to'p xotinlar esa qasrga to'pinib, dag'dag'a qilar edi: "Qal'adan biz o'zimiz chiqazib tashlaymiz Turkon xotunni..."* (Erkin Samandar, Sulton Jaloliddin). *Qiya eshikdan qo'ng'ir mushuk boshini suqqanicha xontaxta ustidagi go'shtga to'pinib, mana-mana tashlanay deb turar, chamasi u hid olib oldinroq kelganu g'ujanak bo'lib payt poylar edi.* (Erkin Samandar, Jazo).

TO'PTILMOQ To'planmoq. *Bu yoqlarda konsert hali rasm bo'lma-gan, qiz-kelinlar ham bir chetda to'ptilib kurashni tomosha qilishardi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

TO'PCHOQ (Jizzax) To'p bilan o'ynaladigan bolalar o'yini. *Biz mak-tabdan qaytganda katta ko'chani boshimizga ko'tarib "to'pchoq" o'ynar-dik.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

TO'QISHOYOQ Yugurganda orqa oyoqlari tizzasi bir-biriga tegadi-gan, to'qishadigan. *Bahor kezlari dasht osmonida har qanoti ikki quloch keladigan tasqaralar ham suzib qoladi. Ularning asosiy yemagi adirlard-agi chakalakzorlarni o'yib yashaydigan to'qishoyoq tovushqonlardir.* (Anvar Suyunov, Mangu qo'shiq).

TO'QMOR ILIK Kuyov oldiga qo'yiladigan ilik. *Chimildiqaqa to'qqiz tovoq va kuyov ilik (qo'yning pishirilgan to'sh qismi va to'qmor ilik) olib kiriladi.* (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi). *Shu yerlik ming qo'yli Oqbo'taboy ikki xotinidan o'n bir qizli bo'lib, o'g'il ko'rmagan, davralarning to'rida karillab o'tirganida og'ziga kuchi yetmaganda "O'g'li yo'qning o'rni yo'q, senga to'qmor ilik qo'ymaymiz", deyishib rosa yuziga solishgan.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

TO'RLAMA Qovunning qattiq etli yozgi navi. *Sahar payti karsillardi to'rlama, Bir palakdan uzar edik xuddi yuz.* (Mirtimir, Men ketganda...) – *Qovunlardi o'z qo'limiz bilan ekkamiz-u, bozordi ko'rib, bir nuqsonimiz ochilib qoldi, o'g'lim. Pahmlagan bo'lsangiz, qovunlarimizdi xili asosan*

handalag-u, to'rlama, qizil urug'minan ananas. (Nosir Fozilov, Poliz oqshomi).

TO'RSAVAT Novdalardan to'qilgan savat. *Shox-shabbadam tiklangan kapa sirtidagi arqonga kichkina-kichkina to'rsavatlar ilib qo'yilgan. (Sa'dulla Siyoyev, Ahmad Yassaviy). Istehkomga yetay deb qolganida, qo'lda tugun-u to'rsavat ushlab, chivinlarni kish-kishlab, chakalakdagi so'qmoqdan chiqib kelayotgan dehqonlarga yo'liqdi. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning janglari).*

TO'RTKO'CHA Chorraha. *Uni hamma Usta buva deydi. Haqiqiy oti Hikmatulloligini yaqinda dadamdan eshitib bildim. Uning yog'ochdan qurilgan oynavand ustaxonasi to'rtko'cha guzaridagi ariqning yoqasiga joylashgan. (Anvar Obidjon, Keksa yamoqchi). Yo'l qarab, ko'z ochiq o'zga o'zi gapirib, o'zini o'zi xursand qilgan-u, og'ir uftortib, birov eshitmadimi degancha to'rtko'chaning boshiga qaraydigan, har ufridan keyin chang bir ko'tarilib tushadigan ko'chagayam oson tutmaydilar. (Bahodir Qobul, Enayo'l).*

TO'RSIQ (Xorazm) Bo'rsiq. *Aytishlaricha u paytlarda yon to'qaylarda to'ng'iz va to'rsiqlar ko'p bo'lib, endi pishayotgan qovunlarga o'ch bo'larkan. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). [Inson] Yertuban yiqildi bo'lib sadpora. Bilmam, nechun to'rsiq quvonib kular. (Safo Ochil, Tuyg'ularim ko'zida). [Ziyod:] Bay-bay! Shog'ol, to'rsiqman deganningn barini qovun otizga chaqiradi. Menam shunday bir ozg'inman-da! Shuning uchun otamdiyn polvon bo'lmadim, ozdim, mug'allim bo'ldim. (Shuhrat Matkarim, Ziyod muallim).*

TO'RSALOQ Bo'rsiq. *Chimildiqda esa uni to'rsaloqday tirsillagan kelin kutardi. (Hamid Elxon, Maynagul).*

TO'RG'AYO'T (Petrosimonia sibirica (Pall.) Bge.) Sho'radoshlar oilasiga mansub, cho'lda o'sadigan yem-xashak bir yillik o't. *Cho'llarda [keyrovukning] tuyachangal, to'rg'ayo't, baliqko'z, bayalich, seta, tatir, pashmak va boshqa turlari uchraydi. (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish). [Dang'ara tumanida] Yovvoyi o'simliklardan qumliklarda saksovul, qandim, yulg'un, pastqamliklarda yantoq, shuvoq,*

oqbosh, sho 'rxoklarda qorabaroq, baliqko 'z, to'rg'ayo't, Sirdaryo sohil-larida turang'il, tol, ching'il va boshqalar o'sadi. (O'zME).

TO'RVASOQOL Qalin keng soqol. – *Biz yarim martayam chiqma-gan edik... Mana, ozodlikdan bahramand bo'lib, a, to'rvasoqol? – deya qorovulga nuqib so'zladi. – Sen nima deding, kurra? – Texnikum boshlig'i muoviniga ham achitib dedi. – Xullas, uchta oshna bir bo'ldi, og'zi-burni kir bo'ldi deganlariday, bitta kul kabob qilaylik deb chiqdik-da. (Shukur Xolmirzayev, Ozodlik). Balki o'rta yosh, badqovoqroq, to'rvasoqol va g'o'labir Eshmuhammadga o'rganib qolganlari uchun shunday tuyulgan-dir. (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul). Tuni bilan aroq ichib, bo'ra-latib so'kinib, uyidagilarni uxlatmay zit titratib chiqadigan bu hirsday baquvvat, buning ustiga to'rvasoqol qo'yib, jundor yalang'och ko'kragi-ni-yu badanidagi behayo rasmlarni namoyish qilganday faqat maykada yuradigan, ayniqsa butun yuzini kesib o'tgan tirtig'i yanada vahima-li ko'rsatadigan daroz Akmal aka odamga teshib yuborgudek tik qarab turaverar, mabodo o'ziga nisbatan biron e'tirozni eshitib qolgudek bo'lsa, darrov zalvorli mushtini ishga solib qolardi. (Abduqayum Yo'ldosh, Javo-bi bor...)*

TO'XATQA O'choqqa o't yoqadigan joy. *Sumalakni qilibsiz Qiz-ju-vonni yig'ibsiz To'xatqaga o't qazib, Katta bazm qilibsiz. ("Boychechak").*

TO'XCHA Yosh echki. *Ammo semizgina shoxdor to'xcha to'xtab ma'raganicha, o'zi istamagan holda gajgal tosh yoniga sudralib boraver-di. (Isak Sattorov, Vahimali chashma).*

TO'YG'IN (Xorazm) To'q. *Palosning yuvilgan joyi to'yg'in tortib tursa-da, ancha quribdi. (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).*

TO'SHSHI (Xorazm) Oqava suv ketishi uchun usti panjaralangan chuqurcha. *Yoqit momo bir amallab dugonasinikida tong ottirdi. Ro'zika momoning kelini allaqachon sigirni sog'ib, sutlarni pishirib, mehmonxonada dasturxon yozishga uringan. Momolar dahliz adanidagi to'shshi yoniga keldilar. (Komil Avaz, Yoqut momo).*

U

UL O‘g‘il. *Bo‘lmas elga bukri ul Paydo bo‘lgani misol.* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).

ULAFa [*a. ulufa* – xashak, yem) **1.** Harbiy qo‘shin va lashkar ixtiyoridagi ot-ulov uchun aholidan to‘planadigan natural soliq. **2.** Haq, ulush. *Yana ularga tortinib o‘tirmay, xazinadan ulafasini mo‘l-ko‘l olishini qayta-qayta tayinlaydilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Payg‘ambar yoshi to‘yidan ulafa sifatida oq belboqqa ikkita non, qand-qurs solib tayyorlangan tugunlar ulashindi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

ULAHAT *q. o‘lahat.* *Aksariyat qishloqning dastlabki o‘rni sifatida ulahatda Dara orqali chiqib kelishdagi Toshmalang do‘ngini qayd etardi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

ULAR Tog‘ kurkasi. *Olislab ketmasdi suruv, uyurlar, Yayrashib yurardi alqorlar, ular.* *Turkiston bulog‘i derdilar uni.* (Azim Suyun, Turkiston bulog‘i).

ULGU **1.** Kiyimning chiqib qolgan biror ipi. – *Chaqaloqli uyga bemaalda kelib bo‘lmaydi. Mabodo biron bilmasdan kelib qolsa, undan ulgu olib qolish lozim.* (Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom). **2.** Kuz mahali havoda uchib yuradigan o‘rgimchak ini, oq ip. *Mezonning yana bir oti – ulgu. Ulgudan ulgu teksa chehrada hamisha kulgu degani shunga. Ulgusi o‘sha, shamolda ketayotganlardan kim qancha ushlab qolishi, tegish degani.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

ULLI Katta. *Bir kuni ulli urug‘ni yov bosibdi Naq g‘oz uzra qirg‘iy qanot yozibdi.* (Omon Matjon).

ULLIVILON Kap-katta. – *Yotib yeganga tog‘ chidamas! Ullivilon bolasan, ko‘cha changitib, itdin chopqiliyvarincha, mollara o‘t solsang, suv barsang bo‘lmiydimi, juvormak! Dadangni-ku, ro‘zg‘or bilan ishi yo‘q! Bir man bu uyda jon kuydiraman, sochim supurgi, qo‘lim kasov!* (Komil Avaz, Yoqut momo).

URGUTI Urgutda qilingan. *Bo‘zlov adorning tokiga urguti ketmonning shamoli tegdimi, uzum boshmoldoqday yetiladi.* (G‘ozi Rahmon, Tepalikdagi uy).

URT [ovurt] Lunj. Bemorning yurak urishi susaydi. Quruqshagan *urtida* tupuk hosil bo'ldi. Burun kataklari kengaydi. (Anvar Suyunov, Tazarru). Har "otam-ov, otam!", deganida sabzi tishlagan. Bilingki, otasini yo'qlayotgan Avazning *urtida* sabzi bo'lgan. (Nurilla Chori, Tashvishi yo'q odamlar).

URYON Yalang'och. Qizlarjon, singiljonlarim! Men qizlarimiz qolib, yigitlarimizning ham andishani yig'ishtirib qo'yib, ko'cha-ko'ylarda chapillatib jevachka chaynab yurishlari, qizlarning yo *uryon*, yo erkakcha kiyinib yurishlari, birda-bir kiygan kiyimlariga qarab qaysi jinsga mansub ekanini bilmay bir holatga tushganlarimiz haqida gapirib o'tirmadim. (To'ra Sulaymon, Bir kaft zar, bir hovuch gavhar).

UQURUQ Arqon, arg'amchi. – Raviya, sening bolangdan boshqa ermagi yo'qmi? Qarab qo'yaysanmi, opang bunnoy *uqurug'*ini uzaytirvorsa, ertaga arzandasi kallakesar bo'lib chiqmaydimi? (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

USAMA-DUSAMA Tez-tez, ust-ustiga. Kechki tamaddidan keyin Ulug'oyim bir yangilikni aytib qoldi: – Eshitg'ondursiz, begim, Parvona-chi bo'langizni qizig'a *usama-dusama* sovchilar kelur ermish. (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

URGUN 1. Dovul, bo'ron. Bolalik payt... armon bo'lib qolgan yillarda, Ne bir *urgun*, sellar bilan bahslashgan olam. (Jiyanboy Izboskanov, Bu dunyoga kelib, men ham dunyolar topdim... – qoraqalpoq tilidan Azim Suyun tarjimasini). Kun bulutli, *urgunli* qor urib turar, tup degan tupuging yerga tushmaydigan darajada sovuq ekan. (Sharap Usnatdinov, Shoirning yoshligi – qoraqalpoq tilidan Muzaffar Ahmad tarjimasini). **2.** Tog' orasida izg'irin uchirib, uyib tashlagan qor. Bo'tako'zning old oyoqlari toyib, *urgunning* mo'l joyiga borib qoldi. (Anvar Suyun, Solin yo'li). Jonivor kuch bilan siltanib, ortga burildi va odamning ko'kragini bo'ylaydigan *urgundan* chiqdi. Hamid akayam *urgunda* qolgan ekan. (Anvar Suyun, Solin yo'li). Shuning dastidan Toshkent – Samarqand katta avtoyo'lidagi "yuqori nuqta"da qish kezlari ko'zni ochirmaydigan izg'irin va otni ko'mguday *urgunlar* hosil bo'ladi. (Anvar Suyunov, Mangu qo'shiq).

URCHUQ Son suyagi. *O'tgan asr boshlarida Shahrisabz begining suyukli xotini zinadan ko'tarilayotib yiqilib tushadi va **urchug'i** – son suyagi chiqib ketadi.* (Hamid Alp, Tog' elining tabobati). *Ko'kaldosh hamma joyi bo'lib moyib, **urchug'i** chiqib ketgan edi. Toyib, yura olmay qolgan edi.* (Alpomish. Umir Safarov varianti).

USTANA Ostonaning aks tomoni, eshikning tepa qismi. *Qo'sh qanot, o'yma naqshli darvoza hali ochilmagan edi, u **ustanadagi** zulfidan zanjirni tushirib, qopqaning bir tabaqasini o'ziga tortdi-yu, ostonaning u betidagi g'aroyib bir mo'jizaga ko'zi tushib, qo'lini eshik tutqichidan olishni ham unutganicha, serrayib qoldi.* (Qamchibek Kenja, Palaxmon toshlari).

UVUQ O'tov keragalari bilan tuynugini birlashtirib turadigan, bir uchi egik tayoq. *O'tovni ko'tarib turgan qiyshiq, yovvoyi tol shoxlarini **uvuq** deyishadi. Shu **uvuqlar** keragaga mahkamlangan bo'ladi.* (Shukur Xolmirzayev, Zov ostida adashuv). *Oyto'la momo ham shu yerda... Oltmish **uvuqli** oq o'tovni tikdilar.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a).

UYALAMOQ (Xorazm) In qurmoq. *Ayvon xarilarida **uyalagan** qaldirg'ochlarning "vijir-vijir"i uyg'otib yubordi.* (Fayzulla Salayev, Qamish qayiqchilar).

UYQOSH // UYQASH Uyg'un. *Jonimiz bu diyorga ko'z-qoshday tutosh asli, Tog'-u toshlari bilan nomimiz **uyqosh** asli.* (To'ra Sulaymon, Yaralmish). *Kesim-kесim ketdi ko'kka qo'shig'im Alla aytayotgan sunglimga **uyqash**. Aylandi yazloqlar, aylandi ochun, Voh, tilim aylanar sumlimga **uyqash!*** (Iqbol Mirzo, Sumlim). *Vaholanki, ismlar **uyqashligi** anchayin bir sirtqi alomat, kishining taqdir-u hayotida hech nimani anglatmas – otdoshlik deganlari omad otiga o'tqazib qo'ymaydi-ku sizni.* (Erkin A'zam, Otdosh odam).

UYRUM Girdob. ***Uyrum** qaytib to'lgach, atrofga jimlik cho'kdi, itlar suvga tikilib qoldi.* (Dilmurod Sodiqov, O'zidan qochayotgan odam).

UYUQ (Xorazm) Ko'l tubida bo'ladigan qora shilta loy. – *Menam hayronman, – dedim xaltani yerga qo'yar ekanman. Xalta **uyuq** solingan idishday yoyildi. – Yilon ham o'lib qolmasa bo'lgani edi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon). – *O'tiradigan yerda yasqa ham bo'lishi kerak. Suvga ham tushganda **uyuqqa** botib qolamiz bo'lmasa. Yasqali joy topish kerak.*

(Shuhrat Matkarim, Yilon). *Yugurib borsalar, turkman bolaning yuz-ko'zi qora uyuqqa bulg'angan, og'zi gashir o'raday ochiq, ikki ko'zi baqachanoqday potlaygan, dam-sasi yo'qmish.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

UYURTMAK Momoqaymoq. *U atrofda chaman bo'lib ochilgan uyurtmaklarni terib qushboshi yasardi-da, qop-qora sochlariga taqardi, kulib-kulib bolaning yoniga borardi.* (Hamid Alp, Tog' elining tabobati).

UZANGIDOSH Tengdosh, hamroh. *Bu yerda yotar otam ham uzangidoshlari, Har bahor eslar uni qavmi-qarindoshlari, Bahor, ketma mening bog'imdan.* (To'ra Sulaymon, Iltijo). *Yo'qsa bizning har birimiz bir uloqchi, yot, Sherigi yo'q, yo'qdir bitta uzangidoshi. Azal-abad ko'pkarida toq chavandoz mot, Ot ostida qolishi bor yolg'izning boshi.* (Halima Xudoyberdiyeva, Yolg'iz boshni...)

UZUMQO'RIQ Qushlar uzumni cho'qimasliklari uchun o'rnatiladigan qo'riqchi. *Satil teshilgach, uzumqo'riq uchun daranglatiladigan matohga aylangan.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

UZUN TUSHMOQ Cho'zilib yotmoq. *Ayvonda, xira fonus yorug'ida, ustun tagida birov uzun tushib yotibdi.* (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

USHBULLAK Hushtak. *Hayit saylida "ushbullak", ya'ni hushtakning turli rangdagisi, bir-biriga tamom yopishib yotgan, rang-barang, cho'pi bilan og'izga tiqqaningda birpasda erib tamom bo'luvchi xo'rozqandlarning ham asl muallifi Malla otam edi.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).

USHIMQQ (Iqon) Sovqotmoq. *Kakliklar tog'dan tushib, donsiz, panasiz ushib.* (Mirtemir, Qorxat).

USHOQQJON Qo'y va echkilar. – *Hozir ushoqjonga o'lat kelgan. Molingiz kelasi haftagacha yashaydi deb kim kafillik beradi?! – deb oyoq tiragan ekan.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

USHOQMOL Qo'y va echkilar. *Bir kuni qarapchi eliboylardan biri Bulung'urga ko'p ushoqmol tushiribdi.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

USHUK URMOQ Sovuq urmoq. *Ushuk urgan xotiralar bizga ne kerak, Sen-u meni qiynar endi shundayin savol!* (Bobomurod Erali, Qish qasidasi).

UCHAK (Xorazm) Tom. *Kechasi uchakka jo 'xori sepdim, Azonda qarasam yitibdi.* (Topishmoq. Javobi – osmon, yulduzlar). *Sohibiy iljaydi: – Buni jahl ustida aytding, uka. Sartaroshligingga ishonma, axir sen shoirsan. Ro 'dapo, kal, ko 'rning soch-soqolini olishing kerak bo 'ladi. Sovun, mag 'zava... Jirkanch ish. Kecha Ko 'hna ark oldidan o 'tgandim, ko 'zim do 'koningga tushdi. Devor qiyshaygan, qopisi singan, uchagi bosay deb turibdi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

UCHAR (Xorazm) Oq amur baliq'i. *Hamma yer baliq! Ko 'pi to 'rt-besh kilolik uchar. Bir baliqni urib bir odim otsak yana birisi turibdi, deydi. Yana bir odim otlsa yana emish.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

UCHIRIQ Kesatiq. *Sirojiddin parvonachi qizini Shunqorbekdan aya-masdi. Uni bolaligidan biladi – har taraflam a ko 'ngli dagiday yigit. Guloyimning uchiriqlaridan sezdi, qizi ham unga moyil.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul). *Xotini so 'riga joy solib bersa, tomdagilar "Ie, amaki, bir o 'zingiz yotgani qo 'rqmaysizmi?" deya uchiriq qiladi. Ne qilsin, endi u kasofatlarni deb yozning issig 'ida uyda uxlasinmi?* (Sa'dulla Siyoyev, Ota makon).

UCHMA (Cepagacefalus) Ayiqtovondoshlar oilasiga mansub, bo 'yi 1–7 sm, meva shoxchasi ilmoqli, barglari ingichka va panjasimon zaharli o 'simlik. *Agar molning uchma bilan zaharlanganligi ma 'lum bo 'lsa, otarni boshqa yaylovga olib o 'tish kerak. Shuning uchun cho 'ponlar juda ehtiyot bo 'lishlari, iloji boricha uchma o 'sadigan maydonlardan foydalanmasliklari zarur. Qo 'ylarni uchma bilan zaharlantirmaslik uchun cho 'ponlar va mutaxassislar yaylovlarni qunt bilan kuzatib borishlari kerak bo 'ladi.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).

UCHQAT Shilvi. *Tog ' o 'rmoni junjikkandek, nimadandir xavotirga tushgandek. Do 'lanalar, itburunlar, uchqatlar mevasi nam tortgan. Archalar vazminlashgan.* (Azim Suyun, Nevaralarim uchun). *Tanangda kuch kuchga engan norchalik, o 'sgan joying uchqat og 'och archalik.* (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy). *Archalar borgan sari quyushib borardi. Archadan tashqari, zarang, uchqat, pista, bodom daraxtlari, shuningdek, turli butalar ham uchrardi.* (Normurod Norqobilov, Bobotog' tilsimlari). *Shu'lalar zaranglarning zangori yaproqlari-yu ko 'm-ko 'k uchqat gul-*

larida akslanib shudringlardan ko'tarilgan yengil hovurni kamalakdek tovlantirardi. (Hamid Elxon, Shamg'alat).

X

XALTAKO'CHA Boshi berk ko'cha. Ko'chani chap tarafida mudom nimadir guvullab turadi, o'sha yoqdan shiptir aralash vinon-ingmi-pivoning hidi keladi. Alleya emish, oddiy bir **xaltako'cha**-ku bu. (Erkin A'zam, Adashgan maestro Jiydaliga kelmoqchi). **Xaltako'chadan** ichkarilab ketaverasiz ketaverasiz – har safar achchiq ichakdek tor shu yo'ldan borayotib orqaga – tobora ko'zdan yo'qola borayotgan katta ko'chaga o'girilib qarayveraman. Katta xolamning uyi katta ko'chaga yaqinroq emasligiga afsuslanaman. (Xurshid Do'stmuhammad, Boloxonadagi boboy). **Matluba** og'riq zo'ridanmi yo qorong'u **xaltako'chada** milt etgan nur topolmay gangib ezilganidanmi, boshini changallab o'tirdi. (Tohir Malik, Murdalar gapirmaydilar). So'ng yerga yuztuban o'girilib olib, ming bir xayolning **xaltako'chasiga** kirib ketdi... Shu zaylda o'y surib uxlab qoldi. (Anvar Suyunov, Ota va o'g'il).

XAMLIK (Surxandaryo) Qoramtir tog' jinsi. Soyning narigi beti **xamlik**, o'tloqzor. Yon tomonlarida bo'ylari osmonga cho'zilib ketgan tig'iz archalar. **Xamlik** – adir etagida qandaydir qoramtir toshlar – to'da-to'da shlaklar ko'zga tashlanadi. (Bozor Ilyos al-Amin, Suv parisi).

XAMMA Xampa. Kamida ikki-uch oy somon shuvoqli oxur – **xammada** dam olib yetilgan bug'doy donasi loy suvoqdan kuch olib mag'zi to'ladi. (G'ozzi Rahmon, Shukuhli karvon).

XANJALA Qayta-qayta yuvilib, titilgan, yigirishga tayyorlangan, bir-bir biriga ulanib uzun arqon holatga kelgandan keyin, bilakka moslab o'ralgan, o'rtasi bilaguzukdek teshik taxlangan yung bo'lagi. Chap qo'llariga bilaguzukdek **xanjala** o'tkazilgan, undan ajralib chiqayotgan pardek yung barmoqlar orasidan o'tib, urchuqning girillab aylanayotgan boshiga yo'liqar-yo'liqmas pishiq ipga aylanadi. (Bahodir Qobul, Ena shamol).

XANNOT 1. Olibsotar. *Sel keldi, Selon keldi, Maysani bosib ketdi. Dehqonga Xudo berdi, Xannotning uyi kuydi. “Chittigul”.* **2.** Ikkiyuzlamachi. – *Xa, lekin xashaki, xannot shoir. Ustimizdan u yoq-bu yoqqa yozib yurmasin deb, shef o‘shanga ham muruvvat ko‘rsatib turadi; aniqroq qilib aytganda, oldiga suyak tashlab qo‘yadi.* (Nusrat Rahmat, Buni hayot debdilar). *Mark Averenovich degan xannot esa, o‘z yurtimizda ziyolilarimiz oldiga suyak tashlab, ularni masxaralagan ekan, degan fikrga keldim.* (Nusrat Rahmat, Jadid).

XANNOTLIK Ikkiyuzlamachilik. *Bilmadim – xannotlik qilayaptimi, sinab ko‘rayaptimi?!* (Nusrat Rahmat, Buni hayot debdilar).

XAPAMAT Ayollarning rang-barang mayda munchoq, marjon, nozik, sadaf va shu kabilardan tizib yasagan, ko‘krakka taqiladigan maxsus bezagi. – *Bir yo‘la kelinlik liboslariniyam navbati bilan kiyadi, sochbog‘i, xapamatini ko‘z-ko‘z qiladi, o‘ziyam uni-buni ko‘rib yayrab keladi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

XAPPAK O‘rtacha kattalikdagi hayvonlarni ovlash uchun tuzoq. *Tulki, quyon, bo‘ri singari o‘rtacha kattalikdagi hayvonlar xappak deb atalgan tuzoq yordamida ovlangan.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

XARROT Duradgor. *Matyoqub xarrot devon g‘azalning har bir so‘zini sodda-sodda, tushuntirib o‘qidi.* (Komil Avaz, Sozanda).

XARAVOTIY (Xorazm) Qo‘li ochiq, tanti. – *Ey sohibjamol bika, bildik! Qo‘li ochiq xaravotiy qiz ekansiz!* (Komil Avaz, Sozanda).

XAYRIGUL Gulxayri. *Toshloq yo‘lni g‘ajigandek o‘rlab borayotgan “Gazik” sekinlaganda, sollarib turgan xayrigul shoxida zarg‘aldoq sayraydi.* (Shukur Xolmirzayev, Yozuvchi). *Xayrigul bargidek titragan ruhning Ozoda nafasini xo‘playman beun: Siz meni unutmang, siz meni kuting, Xazon, tushingizga kiraman bu tun...* (Halima Axmedova). *Men doston kitobimga xayrigul yaprog‘idan belgi qo‘yib, qo‘ynimga solib qo‘ydim -da, o‘rnimdan turdim.* (Isak Sattorov, O‘q ilon).

XINA YOPAR (Xorazm) Qiz uyida to‘ydan bir kun oldin bo‘ladigan to‘y, qiz bazmi. *Keyinlarda qaysi bir kayvoniy xotinlar, balki attorlarning tashviqoti, matohlari sersavdo bo‘lishligi uchun xinaning xaridorligini ko‘tarishgandirki, endilikda biror to‘y-hasham shusiz o‘tmaydi va*

qiz yig'ini ham shu giyoh mahsuli nomi bilan "**xina yopar**" deyiladigan bo'ldi. (Komil Avaz, Sozanda).

XINALAMOQ 1 To'dalanmoq. *Tepalikda qo'y suruvi xinalab, dam oladilar.* (Isak Sattorov, Oshiqlar maskani). *Mening mollarim ham xinalagan joylaridan qo'zg'alib, o'tlayapti.* (Isak Sattorov, Oshiqlar maskani). **2** *Begimiz qachon turarkan, deb tezak terib yurgan qiz qarasa, otasi to'ppa-to'g'ri o'tovga tomon eshakni xinalayapti.* (Hamid Elxon, Maynagul).

XIRMONJOY Bug'doy, arpa, no'xot kabi donli o'simliklar o'rilgandan so'ng yanchiladigan joy. *G'amlarimni uyaman, Xirmonjoydir yuragim.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). *O'zi ham egilib qaradi, otasi xirmonjoy kengligidagi tekis maydonchadagi qizilchalarni bir boshdan o'rib borardi.* (Sobir Rustamxonli, Qoyalar orasidagi qasam). *Hali yoz oxirida har xil hasharlar chiqadi, tomsuvoq deyishadi, xirmonjoy hozirlash deyishadi.* (Orziqul Ergash, Olis yulduzlar).

XIRRIK (Xorazm) **1.** Qovun uyumi. *Otizda bir xirrik uzdirib, saylab-saylab, mo'chchilarini suvga tashlatib qo'ygan ekan, borgandan bir gurvak so'yirdi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon). **2.** (Xorazm) Ko'p. – *Do'g'ri, biying. Lekin ikkinchisi. Bundaylardan menda xirrik. Keyin ikkinchilarni almashib turaversa ham bo'laveradi. Bizlar shunday etamiz. Bularniki yon tashlab ketmaydi. Xo-xo-xooo!* (Shuhrat Matkarim, Indamas). *Endi tasavvur qil. Mening moshinim bo'lsa, uy-joyim bo'lsa. Pul xirrik! Kim kimni tinglashi kerak?* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

XITAK Ikki tomoni qirilgan mol oshig'i. *Rejab bobo bir xitakni oldi-da, Qodirga uzatdi: "Bo'taloq bobongdan qolgan. Uzoq yili u kishi Qo'ytanda G'o'chchi baxshini shu do'mbira bilan mot qildi.* (Hamid Alp, Tog' elining tabobati).

XITAKI Bilib, bilmaslikka olib. *Chillalik kelinchakni kovushiga nikohi buzilganlardan biri oyoq tiqib qo'ysa gap topiladi. – Endi, tamom... Ko'ra bila turib oyoq tiqqani – nikohi buzilgan bo'zrayib, xitaki (hammasini bilib bilmaslikka olib kulish) kuladi.* (Bahodir Qobul, Ko'klam so'ngidagi jala).

XITLANMOQ Asabiylashmoq, sabrsizlanmoq. *Obbo, deyman, xitlanib, bular qanaqa odamlar, nuqul so‘rashadi, aytganingni esa tinglashmaysi.* (Asad Dilmurod, Oq Ajdar sayyorasi).

XISHTAK Kiyim qismlarini bir-biriga ulashda qo‘shib tikiladigan mato. *Xaltaning tagida bir hovuch zardolining qoq qilingani – g‘o‘lin qolgan ekan, uni xishtagiga tugib oldi...* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

XOJARI q. **g‘ojari.** – *Oynaxol, biznikiga boring, qachondan beri ko‘rishganimiz yo‘q, g‘iybatlar yig‘ilib qoldi. Nurbibingiz gilam qurgan, xojari gullardan solib berasiz-da? Aylanay.* (Hamid Alp, Zuryod). *[Boysunda] Ayollar turli xil paxtadan va jundan xojari, chumchuqko‘z, taqir kabi turli tuman nomdagi gilamlar to‘qiydilar.* (Sayfullo Tursunov, Qobil Rashidov, Boysun).

XOLBOVQI (Samarqand). *Bih. Lolalarning piyozlari, tuyato‘ppon, mundaloq qazib olinib, andizlarning po‘sti archilib o‘zagi iste‘mol qilingan, xolbovqining tomiri olinib undan foydalanib nisholdalar tayyorlangan va kir yuvilgan.* (Pirnazar Davronov, Samarqand Jomi).

XOMBO (Turkiston) Hujraning yarmidan ko‘p qismida bir gaz balandlikda taxta bilan sahn qilinib, uning oldi yupqa devor qilinib, ikki gazcha ko‘tarilib, odam kiradigan joy qoldirilib, yasladigan, tagiga ikir-chikir ortiqcha narsalar qo‘yiladiga supa. *Buvim birorta yigitchaning oyoqlarini sovunlatib, toza yuvdiradi, keyin xomboga unni to‘kdirib, yaxshilab tepkilatadi. “Shunda un zich joylanadi. Zich joylanganda, un achimaydi, mita tushmaydi”, der edi buvim. Har kuni un kerak bo‘lganida, g‘ishtday zichlangan unni temir kurakcha bilan o‘yib olar.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

XOMIT (Xorazm) Bo‘yinch. *Xomit aravaning muhim qismlaridan biridir. Xomit kuchan bilan arava orishlarini bog‘laydigan vosita bo‘lib, kuchanga yopishib turardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

XOMLAMOQ Doimiy harakatni to‘xtatish natijasida tez, chaqqon harakatlarga yaramay qolish (ot, odam). *Yog‘ – Ot xomlab qoldi, deydi, u nima degani? – Unda, ot moy tashlaydi. Keyin, ko‘pkariga yaramay qoladi. Boqilgan otni bilib-bilmay chopib qo‘ysangiz, ot ichida moy to‘lib qoladi. Bunday otni-da bir yilgacha ko‘pkarida chopib bo‘lmaydi.*

(Tog‘ay Murod, Ot kishnagan oqshom). – *Men otni olib ketsam qanday bo‘ladi? – deya Ravshan tilining uchida turgan gapini aytdi. – Elto‘rini? Olib ketsang bo‘ladi. Lekin u hozir boylovda, xomlab qoladimi... – deb ming‘irladi otasi.* (Hamid Alp, Zuryod). Ko‘pchiligimiz **“xomlab”** goldik; engashgach, ming mashaqqatsiz qaddimizni tiklay olmasdik. Kun chiqib, g‘o‘zalar quriganidan so‘ng barmoqlarimiz tilinib, qonab ketdi. (Abduqayum, Yo‘ldosh, Aybdor).

XOMSIQMOQ Siqilmoq, xafa bo‘lmoq, xo‘rliqi kelmoq. *U qizini chaqirmoqchi yo koyib kelmoqchi bo‘ldimi, ortiga o‘girilayotganida Guloyim to‘xtatdi: – Xomsiqmang‘iz, – dedi kulib. – Bir yumushi bor chog‘i, uzr so‘rab hozirg‘ina chiqib ketdi.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). *Egamnazar zimdan oqinga nazar solib xomsiqdi.* (To‘ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi). *Ortimdan termulma shaharga ketsam. Xomsiqib qolmagin, chop, o‘yna, yugur! Ajabmas uch kun yo haftalab kutsang, O‘g‘lim, ayriliqqa tayyorlanib tur!* (Muhammad Rajab, Taraddud). *Bir xotin bolani tortib mening yuzimni ko‘rsatdi, yarim yumuq ko‘zlarimga, shilingan burnim, peshonamdagi qon izi, qoraygan chap yuzimni ko‘rgan zahoti u birdaniga “dadam o‘lgan ekan-da” degan xulosaga keldi va bo‘kirib yig‘lab yubordi, ko‘zlaridan yosh tinmasdan oqdi, o‘zi yengi bilan artib ham ulgurmasdi, uni buvisi bag‘riga oldi, ikkalasi bir-biriga mahkam bag‘ir bosishdi, anchadan keyin ham bola xomsiqib-xomsiqib yig‘lardi.* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

XONBALIQ Gulmoh; forel. *Orol dengiziga quyiladigan daryo havzalarida daryo xonbaliqlari yashaydi.* (Davron Niyozov, Baliq – bitmas boylik). *Shunday qilib, yigirma-o‘ttiz yillar avval bizning Oqtosh hududimizdagi uch-to‘rtta ariqlar shu xildagi kimsalar dastidan tamoman o‘lik suv o‘zanlariga aylanib bo‘lgan, bu suvlarda yashovchi xonbaliqlardan nom-nishon ham qolmagan edi.* (Asad Asil, Xonbaliqlar, shohbaliqlar... qani).

XONQORABALIQ q. xonbaliq. *Oldida novdaga tizilgan har biri yarim kilodan keladiga tog‘ xonqorabalig‘i.* (G‘ofur Jo‘rayev, Kaklik ovi).

XOROZ (Xorazm) Tegirmon. *Chiqib ot, tuya, mol-qo'ylar, juvoz va xoroz – tegirmon borligidan darak berishdi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

XOVROZ BO'LMOQ Yetilmoq. *Kunlar isib, yer xovroz bo'lgach, uy oldidagi tomorqaga eshak qo'sh tushadi va turli poliz hamda sabzavot ekinlari qadaladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Qor ketib, yerlar xovroz bo'lgach, eshiklarning tanbasi olinib, hamma dalaga otilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

XUMGAZAK Tirmizak. *Biroq qonli qasosdan hech bir naf yo'qligi va bundan har ikkala tomon ham katta talafot ko'rishi mumkinligini bu xumgazaklarga qanday qilib tushuntirsa ekan?* (Normurod Norqobilov, Qoraqyun). *O'g'ling Robiyani yaxshi ko'radi. Endi tushundingmi? Yo haliyam aqling yetmayaptimi? Robiya suqsurdek qiz bo'lsa, sinashta bo'lsa, tag'in nima deysan, xumgazak? Buyoqqa ber! – Oqsoqol xatni Potma kelinni qo'lidan yulib oldi-da, buklab-buklab yostig'ining tagiga tiqdi.* (O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi. "O', yaramas Obid! – dedi Soatov xayolan chapagini chalib. – Sharmanda qilding-ku, xumgazak!") (Xayriddin Sulstonov, Bir og'iz so'z).

XURUMPAK O'tinning bir turi. *Sobir terdi xurumpak Loyiq emas o'tinga. Buruqsib yonar, mo'rkon ham To'lar qurum, tutunga.* (Tursunboy Adashboyev, Sinov).

XUSHPULLOQ Pufflanib chalinadigan cholg'u asbobi. *Nola og'izga qo'yib chalinadigan musiqa asboblari – chanqovuz, sibiziq (sibizg'a), xushpulloq vositasida beriladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

XO'JIK Erka. *Onnopli bog'lara chiya sopaman, Jizziq solib yog'li patir yopaman, Jizziq solib yog'li patir yopg'anda, Xo'jik bola sani nerdan topaman.* (Xorazm folklori). *Kuyov xo'jik muloyim, Ko'p go'rmasin xudoyim, Gullab tursin to'yjoyim, Galin salomin aytib.* (SafO Ochil, Kelin salom).

XO'PPOZ Yiringli yara. *Kun tun bo'lardi, tun kun bo'lardi. Bedavo dard, yorilmagan xo'ppoz yara. Ko'kayida ishqiq qattiq. Ko'ksida nafrati undan baland.* (Ma'mura Zohidova, Boychechak).

XO‘RSAKLANMOQ (Xorazm) Ko‘ngli tusamoq. *U ketgandan keyin ham xonning ko‘ngli g‘ashlanaverdi va Yusuf hoji eshonni Xivaga qaytarish borasida ilk marotaba xo‘rsaklandi.* (Komil Avaz, Sozanda).

XO‘SKOR (Buxoro) Sovchi. *Ana endi qishloqning eng obro‘li odami yoki o‘rtada sovchilik qilgan – xo‘skor padar vakillikka o‘tadi.* (Oydin Hojiyeva, Tohirjon va Zuhraxon qissasidan).

XO‘STOR (Xorazm) Suyanch, tayanch. *Najab o‘yladiki, bular boy-agi juvonning xo‘storlari bo‘lsa kerak, meni o‘ldirishga keldimikanlar.* (“Oshiqnoma”). *Qaytib borsam, do‘st-yoronim bormikan, Xo‘storim-u xavondonim bormikan.* (Safo Ochil, Tuprog‘ingni o‘parman). *Vafodor sak edim umid ilgida, Azizil uzay der rishtalarimni. Yelkamga xo‘storim bo‘lib qo‘n, Toydirib ketmasin farishtalarni.* (Erpo‘lat Baxt, Chorlov).

V

VALANGIR Buzilgan, ishga yaroqsiz, abgor; hammayog‘i ochiq. [Onam] *O‘choq-tandir valangir. Oldin ularni tuzatmasdan ko‘chib bo‘larmishmi!* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

VALANGOR q. **valangir**. *Tarix, agar unda hikmat va ma‘no bo‘lmasa, bir valangor saroydir.* (Abdulla Oripov, Jonfidolik). *Bir kun yana jo‘ramni ko‘rgani borsam, ahvoli og‘ir, huvullagan valangor hovlida, katta sadaqayrag‘och tagida yolg‘iz o‘zi qora pashshaga talanib yotibdi.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

VALISH q. **vayish**. *Hovlidagi valish ostiga stol tuzalibdi.* (Adham Damin, Hayot va o‘lim).

VARAJA 1. *Shamollash natijasida tanadagi qaltiroq. Barvasta qomatini tutolmay gangigan va a‘zoyi badaniga varaja yugurgan Qarshivoy oh-u fig‘on chekib quyiga sho‘ng‘idi.* (Asad Dilmurod, Narvon). **2.** *Titroq, qaltiroq. Charvonning qantari og‘ib, zalvorli zaminning botinidagi varaja yuzaga urib, qari kutgan yerlardan terlagan to‘riqning safisidan chiqqan hovur kabi yengil bug‘ ko‘tarila boshlagan kezlarda ikkovi ikki darada yashardi.* (G‘ozi Rahmon, Oshiq dunyo. **Varaja qilmoq** Qaltiramoq. *Shamsiddin Bir payt tamshanib ko‘zini ochsa, yumshoqqina to‘shakda*

varaja qilib g'ujanak yotibdi, yonida onasi mung'ayib o'tiribdi, beun yig'lay-yig'lay, lag'cha cho'g'dek yonayotgan peshonasiga avaylab ho'l latta bosayotir, rang-ro'yi bamisoli devor bo'lib ketgan, lablari gezargan... (Asad Dilmurod, Mezon burji. – **Varaja qilyapman**, a'zoyi badanim mu-zlab ketyapti, – dedi onam ovozi ham qaltirab. (Uyg'un Ro'ziyev, Shabnam soyasida).

VARAJALAMOQ Qaltiramoq. *Tavba, bir juma kechki payt hovlisi-dagi voyish tagida achchiqqina ko'k choy xo'plab, xayol surib o'ltirsa, bexosdan badani varajalab, nogiron qo'li asta-asta tepaga ko'tarilibdi.* (Asad Dilmurod, Oq Ajdar sayyorasi).

VAYISH Ishkom. *Otamga kimdir birov qo'yning bir qulochcha ingichka ichagini puflab, vayish ustiga tashlasa, chumchuq ilon deb o'ylab qochadi, qaytib yo'lamaydi deb yo'l o'rgatibdi.* (Ahmad A'zam, Quroq). *Inson zoti borishi qiyin bo'lmasa-da, odamlar, hatto hayvonlar ham shivar, tog'olcha shoxidagi uzum vayishida lim-lim pishgan uzum, tim qora marvariddek yetilib pishgan tog'olchadan terib yeyishga yuragi dov bermaydi.* (Isak Sattorov, Vahimali chashma).

VISIRLAMOQ Vis-vis ovoz chiqarmoq, shivirlamoq. *Anchayin nor-don tuyulgan keyingi so'zlar go'yo yiroqdan visirlab eshitildi, usta Jamshiddin birpas yongudek alfozda olayib-bo'zarib turgach, nogoh panjalari-ni changak qildi-da, g'alati liqillayotgan halqumga chang soldi: bo'g'ib o'ldirsam haqim ketur!* (Asad Dilmurod, Mezon burji). *Oqsoqol aytgan gap chippa-chin chiqayapti. Bunday erkakka o'xshab yurt so'raganning, dunyo kezganning orqasidan visirlashim nimasi, qani, ayt-chi, qaysing qishloqdan bir qadam nari chiqqansan, yana baringning karillashing boshqacha.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish).

VOJJI Ko'p gapiradigan odam. – *O'tib bo'psan, – Yusufboy ma'noli kulumsiradi. – Mengli vojjiidan shu kungacha hech kim osongina o'tib ketgan emas.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

VORQA (Xorazm) Kutilmaganda, o'rinsiz. *Shu vaqt Nukusga borishda ham, kelishda ham bir og'iz so'z aytmagan shofyor vorqa kuldi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

VOYISH (Poyariq) q. **vayish**. *Tavba, bir juma kechki payt hovlisidagi voyish tagida achchiqqina ko'k choy xo'plab, xayol surib o'ltirsa, bexosdan badani varajalab, nogiron qo'li asta-asta tepaga ko'tarilibdi.* (Asad Dilmurod, Oq Ajdar sayyorasi).

VOYVOYAK 1 Chiyabo'ri yoki shoqol bolasi. *Yo'l ustida voyvoyak. Yo'l ustida voy-voy chinq.* (Topishmoq, Javobi – tikan). **2.** Boyo'g'li. *Afandining bir oshnasi og'zi latta bilan bog'langan bir xumchani omonat topshirib: – "Buning ichida voyvoyakning bolasi bor, og'zini ocha ko'rmang, uchib ketib qoladi" deb, tayinladi.* (Latifalar).

VOG'IRDI (Xorazm) Shovqin-suron, to'polon. *Kelmasingdan bir vog'irdi qo'ptirasani.* (Shuhrat Matkarim, Indamas). *O'risdagi bola bu joyni shundiy etib solib berganki, adashib ketishdan qo'rqib kampir bilan ikkimiz qo'l ushlab yuramiz. Lekin bundan ne foyda? Huvillab yotibdi shu saroy. Bola ovozi chiqmasa, vog'irdi bo'lmasa.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

Y

YAKANDOZ Ko'rpacha. *Ulardan yangi, ohorli ko'rpalar, yakandozlar tayyorladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

YAKAN-YAKANDA Ba'zi-ba'zida. – *Masjidg'a chiqqanlari bo'lmasa, ko'pincha uyda bo'lurlar. Yakan-yakandag'ina arkka borsalar-da, peshindin so'g'un uyg'a qayturlar.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

YAKKAMIX Mol bog'laydigan katta qoziq. *Bo'tako'zga egar urmasam, bobom niyatidan qaytib qoladiganday hovliga olib chiqdim. Jonivor anchadan buyon ayvonda turganidanmi o'ktam-o'ktam kishnab yakkamixni aylandi.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

YAKTIZZA Bir tizzaga cho'kkalab. *Yigitlar mehmonxona atrofiga yaktizza bo'lib chizilishgan.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

YALAKAT 1. Egizak, qo'sh (mag'iz). *To'la anglamayapti-yu, lekin shunga intilyapti, yaxshi-da, er-xotin yalakat mag'izimiz, xursandman shunga.* (Ahmad A'zam, Noto'g'ri tush). **2.** Yaxlit, bir butun. *Balki olamning yalakatligida ignaning teshigidek qolgan ana shu kavakdan odam um-*

rining alg'ov-dalg'ovlari kirib-chiqib turar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).
Shu edi, shu edi, shu edi – yalakat bir vujud-da shu edi, yagona bir ovoz-da shu edi: – Allohu akbar! (Shoyim Bo'tayev, Hisomiddin al-Yog'iy).

YALANGLAMOQ Ko'zini ola-qula qilmoq. *G'unajin oqshom bezovta bo'lib, yalanglab turuvdi.* (G'ozzi Rahmon, Mo'minjon).

YALOQ QIZARTAR Unashtirish marosimi. *Kelganidan keyin Pirman: "Bitdima, mulla aka?" deb so'rasa: "Bitdi, lekin senga emas, ko'lqamishlik Haqqul gajakning ukasiga. Yaloq qizartar to'yini ham yeb keldim", debdi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

YANQA q. **jonqa.** ...*Meyli mo'lov o'zicha eng bo'liq qo'riqqa chalg'i solib, bir yanqa o'rib ham chiqdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

YARIMCHI (Xorazm) Ijarachi. *Otanazar degan joyda yarimchi (ijarachi) sifatida ekib, teng yarim hosilni o'zimizga, qolgan yarmini yer egasiga berish sharti bilan egalik qiladigan besh tanobcha yerimiz bor edi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

YASQA (Xorazm) Suvga tushish uchun o'ng'ay tabiiy nishab joy. – *O'tiradigan yerda yasqa ham bo'lishi kerak. Suvga ham tushganda uyusqa botib qolamiz bo'lmasa. Yasqali joy topish kerak.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

YASQOG' Yassi. *Hind yozuvchisi Krishan Chandrning "Bir qizga ming oshiq" romanini chashma yonidagi balandligi to'rt etajlik uydek, kelinchak haykaliga o'xshaydigan sirli qoya yonida yasqog' tosh ustiga yotib olib o'qiyapman.* (Isak Sattorov, Oshiqlar maskani). *Men eshakda, Yunus piyoda, kechagi joydagi yasqog' tosh biqinida o'lib yotgan ilonni ko'rdik.* (G'ozzi Rahmon, Tilsimli tog'lar).

YASUMAN q. **yosuman.** *Momo: O'ylab topa bilmadim, bundan o'zga chorani, El Yasuman desa-da menday yuzi qorani.* (To'ra Sulaymon,-Yovqochdi).

YASHINMACHOQ Bekinmachoq. *Bizlar kiplar orasida qoldirilgan shu qorong'i yo'laklarda yashinmachoq o'ynar, ba'zan chiqib ketishga yo'l topolmay qolar edik.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening). *Hali maktabga ham bormagan vaqtlarimiz, yashinmachoq o'ynab yuruvdik.* (Ahmad A'zam, Oyimning Garashalari).

YASHINTOPALOQ Bekinmachoq. [Latif:] – Menga qara, Xayrul-lajon bolam, o‘zingdan katta bir narsa deganda jim quloq solishni ham o‘rgan, durustmi? Men sen bilan **yashintopaloq** o‘ynayotganim yo‘q. (Nurulloh Muhammad Raufxon, Shu yerlik kishi). *Burchakda teshik bor, Hayitvoy bilan yashintopaloq o‘ynaganimizda men o‘sha yerdan o‘tib, berkinib olardim.* (Xudoyberdi To‘xtaboyev, Jannati odamlar).

YELAK Jelak. *Berdiyot tikdan tikilgan kostyum-shimi ustidan uzun yo‘l-yo‘l yelak* kiyib, belini oqish qiyiq bilan bog‘lab olgan edi. (Shukur Xolmirzayev, Biz kech qolib yuramiz).

YELBO‘G‘OZ Homiladorlikka o‘xshab, qorin kattalashadigan, ammo homila mavjud bo‘lmaydigan kasallik. *Lekin Mevajon o‘n oyda ham, o‘n bir oyda ham tug‘may, qorni qappayib yuraverdi. Keyin bilsalar, shuncha-ki... yelbo‘g‘oz ekan. Humoyun buni ham taqdirning achchiq bir kinoyasi deb bilib, juda qattiq iztirob chekdi.* (Pirimqul Qodirov, Avlodlar dovoni).

YELIMICHAK Osma ukolda suyuq dori yuboriladigan yumshoq plasstmassa ingichka nay. *Chap bilagiga bandlangan nina va ingichka yelimichakni ko‘rib tinchlandi.* (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo‘rdoqi).

YELINXALTA Bolalari, yoki echkemar emib qo‘ymaslik uchun mol yeliniga bog‘lab qo‘yiladigan xalta. *Qo‘limizda yelinxalta, arqon. Aslida yelinxaltalarni Ergashoy opaning echkilaridan yechib olganmiz.* (Oy-din Hojiyeva, Odil bo‘ron bog‘i). *Har galgidek, Zulayho echkini ertalab sog‘ib bo‘lganidan keyin yelinxaltasini bog‘lab qo‘ydi.* (Nurali Qobul, Salom, tog‘lar...)

YELKASAR [yelkezar] Tuyaqoringa o‘xshash, g‘uj bo‘lib o‘sadigan, sariq gulli tikansiz dasht o‘simligi. *G‘o‘bdintog‘ pichanzorlarida qo‘ng‘ir-bosh, qo‘ziquloq, qizilmiya, bo‘ztikan, shirach, tuyaqorin, yelkasar, yan-toq, taktak, yovvoyi beda, oqquvray, sigirquyruq, shuvoq va kovrakka o‘xshash suvsizlikka chidamli o‘t-o‘lan bisyor.* (Anvar Suyunov, Mangu qo‘shiq).

YELMOSLIK (Jizzax) Uchqurlik, yelday uchish. *Ilgari yelmoslik, ko‘pkarivozlik etib, chillaga kirgan norday, ko‘ngli ham lolazorday bo‘lib yurgan bo‘lsa, bu gal “sichqon iniga sig‘maydi, dumiga g‘alvir bog‘laydi” tarzida bo‘lib yuribdi.* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

YELOYOQ Uchqur; chaqqon. *Majnunning Navfaldan ayrilgani va yeloyoq otini shamoldek surib, biyobonga yo'l olgani; Zaydga yo'liqib, ahvolini ma'lum qilgani...* (Navoiy, Layli va Majnun). *Ertasi tong saharda yeloyoq Bobo Mochin Sobronga borib, samariddin hokimni boshlab keldi.* (Sa'dulla Siyoyev, Ahmad Yassaviy).

YELPIN Shabada. ...o'zidan ikki-uch yosh katta akachaning mehrli g'azabda andarmon-sarson turishi juda yoqadi. ...orqada yolg'iz qolgan bolalarni yengilgina epkin, **yelpin**, hilpin qurigan barglarni oldiga solib kelganda unga qo'shib bolakayning atrofida aylanib shitirlabgina, shivirlabgina qo'rqitishni... keyin seskanib-seskanib siyib qo'yishiniyam. (Bahodir Qobul, Oy yo'li). *Klaydning shlyapasini go'yo shamol boshidan uchirib ketgani haqidagi gapga kelganda esa, Meyson guvohlar, shuningdek, davlat meteorologiya axborotlari yordamida o'sha osoyishta kunda shamol tugul arzimagan yelpin ham bo'lmaganini isbotlab berishga o'zining tayyor ekanligini bildirdi.* (Teodor Drayzer, Amerika fojiasi – O'ktam Usmonov tarjimai).

YELPIRAMOQ Shamolda hilpiramoq. *Ochiq yuzli qizlar o'tadi; chaqchaqlashib o'tadi, qora sochlari yellarda yelpirab o'tadi.* (Mirtemir, Oynisa). *Bu chiroq yorug'ida qazib olasiz ko'mir. Yelpiratib o'lkada botirlik bayrog'ini. Yaratasiz hayotning qora oltin tog'ini.* (Mirtemir, Konchi chirog'i).

YEMTO'RVA Yem solib, otning tumshug'iga ilinadigan to'rva (ot yemni sochmay yeyishi uchun) [Otlarning] *Tumshug'iga yemto'rvasini ilib, yemini yeb bo'lgunicha terini ushatdik.* (Anvar Suyun, Solin yo'li). *Jonivorlarimiz ham ildam yo'rtish davomida bo'yinlariga osilgan yemto'rvidan oziqlanishdi.* (Shavkat Nizom, Istig'for).

YEMXALTA q. **yemto'rva**. *Qalamaga bir to'riq arqonlab qo'yilibdi. Oxurda dag'al yemish, bostirma shipiga yemxalta, lagan, qamchi osilgan.* (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi).

YERIK Boshqorong'i. *Bildim – ayolimiz qirmizi olma, dedi. Bildim – ayolimiz qirmizi olmaga yerik bo'ldi!* (Tog'ay Murod, Otamdan qolgan dalalar).

YERILON Chirillab ovoz chiqaradigan, zahari yo‘q kichik ilon. *Bir mahal uzik-uzik chirillagan tovush keldi. Bu – yerilon. Odamga ziyoni yo‘q. Qaynatib ichsa, yuz xil dardga davo... Uxlab qolibman.* (Dilmuroq Sodiqov, Yurtkezar).

YERKINDIK Pakana, rivojlanmay qolgan. – *Agar shu gap rost bo‘lsa, unda rais nimaga bunaqa pachaq? Sutdan qisilgan qo‘ziday yerkindik, – deya g‘udrandim yo‘l-yo‘lakay.* (Abdunabi Hamro, Muso rais).

YERMOYI Kerosin. *Davra o‘rtasida tarasha o‘tindan yoqilib, unga kimdir yermoyi sepib turgandi.* (G‘ozi Rahmon, Shukuhli karvon).

YERNOK(I) (*Helianthus tuberosus* L.) O‘zbekistonda silosbop ekin sifatida ekiladigan, murakkabguldoshlarga mansub ko‘p yillik, tuganak mevali o‘simlik. *Yernoki texnik, oziq-ovqat va hayvonlarga ozuqa sifatida ekiladi.* (Mirzayev O.F., Xudoyberdiyev T.S. Yem-xashak yetishtirish).

YERTOK Uzumi qoldirilgan toklarni dastalangan yantoq bilan o‘rab, bostirib chiqish. *Uyimizning orqa-oldi vayish, yertok, uzumga chumchuq bilan mayna kun bermas, tog‘ora-yu simga osilgan tunuka qutilarni taqilatib, hay-gala-gala-yu bilan ish bitmas edi.* (Ahmad A‘zam, Quroq). *O‘sha vaqtlarda ham qish qattiq bo‘lardi, lekin fevral-martga qadar yertokdagi uzum yaxshi saqlanardi.* (Poyon Ravshanov, Birodayim).

YER YOG‘I Kerosin. *Bundan keyin mesh-u mol qorinlarida yer yog‘i tashib yurishga hojat qolmas emish...* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

YERCHOY (*Orthurus kokanicus*) Bo‘yi 45 sm ga boradigan, tik poyalali, sershox, sariq gulli ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik. *Xalq tabobatida yerchoy ildizlaridan tayyorlangan qaynatmani ko‘krak og‘rig‘ida, shuningdek, burishtiruvchi vosita tariqasida ichketar mahalida ichish uchun buyuriladi.* (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar).

YEZNA Pochcha. *Kunlarning birida kichik ammamning eri – yeznam ular nomidan vakil bo‘lib, buvimning oldiga kirdi. Ammo buvim kuyoviga so‘z bermadi: “Ikki norasta qizning g‘iybati qoldimi, senlarga?! Essiz namoz! Essiz machit!.. Xudoyim to‘ppa-to‘g‘ri do‘zaxning qopqasini ochadi, senlarga! Og‘izlaringdan qonlaring kelsin!” deb qarg‘ab xaydadi.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

YENGSAK (Iqon) Yengicha. ...*Onam non yopadi bo'g'riqib-bo'rtib, Dam-badam kuyadi qo'li yengsakda.* (Mirtemir, Hali ham).

YILBOSHIGO'JA (Jizzax) O'n-o'n beshinchi mart atroflarida o'tkaziladigan, har kim uyida qurbi yetgan yegulikni tayyorlab chiqadigan, dasht o'zbeklari an'anasi. *Yilboshigo'jada kelishilganidek, el maqtab hovlisiga to'planib, bayram uyushtirdi. Norg'ul yigitlar kurash tushib, tosh ko'tarib, quvnoq bolakaylar arqon tortishib bahs boyladilar.* (Anvar Suyunov, Asrlarni qaritgan yilboshi).

YILOV (Xorazm) Daryoning muzlamay qolgan hududi. *Baliqchilar va mahalliy aholi tilida "yilov" degan tushuncha bo'lgan. Daryoning, yerning issiqligi-bug'i shu yerdan chiqib turgan. Sovuq bo'lsada "yilov"langan hudud qotmagan. Baliqchilar shu yerdan baliq ovlagan. Qayiqni chanaga yuklab "yilov"ga olib borishgan. Ayni paytda "yilov" daryoning eng chuqur hududida bo'lgan. Atrofdagi soy suvlar esa muzlab, qotib qoladi.* (Umid Bekmuhammad, Xiva xonligi tarixidan uch lavha).

YILPISHLANMOQ (Xorazm) Yolg'ondan xushomad qilmoq. *O'zi yiringga o'xshagan sap-sariq odam bo'lsa ham, ichi ko'mirday qora edi. Yiloning yog'ini yalagan. Ikkimiz yolg'iz qolsak yilpishlanib o'lar edi, go'yo biz og'a-ini, ota-bola edik.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

YITTI (Xorazm) O'tkir. *Oxunning o'siq qoshlari ostidan yitti boqqan cho'g'li ko'zlariga dosh berolmagan mahram yerga qarab, asta: – Islomxo'ja... Xo'jam berib yubordilar, – dedi.* (Komil Avaz, Sozanda). *Xullas, Otaboy akaning o'ltirishga fayz beradigan mushfiqona mushtaqiy mulozamatidan mumday erib ketgan biz xujastayi farjom o'ltirishda yaxshi so'z gadolari, Xudargan akaning yitti qarashlariniyam pisanda qilmas darajada o'zimizdan keta boshladik chog'i...* (Komil Avaz, Bir umr – bir dunyo). *Durjon momo katta o'g'li bilan o'zidan ikki yosh kichik bo'lgan ukasiga birpas yitti qarab turdi-da, tili sal patiklanib: – Sandig'imda ikkita qo'sharo'mol bor. Shularni men bilan birga qo'shib... – dedi-yu, "ko'minglar", deya olmadi.* (Komil Avaz, Ikki qo'sha ro'mol).

YIG'NOQ (Xorazm) Majlis. [Otam] – **Yig'noq** – majlis bo'ldi. *"TOZ" tuzildi? – degan va jimlikdan so'ng qo'shib qo'ydi: Hamma qo'l ko'tardi, men ham...* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

YOLIQMOQ Bezor bo‘lmoq. *Yolchidan yoliqsang, qarzdor qil.* (Maqol).

YOLQITMOQ Ko‘ngilga urmoq, me‘daga tegmoq. *Yolqitsa ham – yog‘ yaxshi, yondirsa ham yoz yaxshi.* (Maqol).

YOLCHI Yolvoruvchi, hadeb u-bu narsa so‘rab keluvchi shilqim odam. *Yolchidan yoliqsang, qarzdor qil.* (Maqol).

YOLQI Bir dona, egiz emas. – *O‘ziyam Abdug‘oni qo‘ylarimizni boqqanidan beri bir sovlig‘imizni egiz tug‘ganini ko‘rmadik. Nuqul yolqi tug‘adi.* (To‘ra Sulaymon, Tarki jamoa). *Ana shu Ermanboyga taqdir olti o‘g‘il berdi. To‘rttasi yolqi tug‘ildi, ikkita kenjasi egiz bo‘ldi.* (Shodmonqul Salom, Shovullamaning naryog‘ida...)

YONA Tik qiyalik. *Xolbek yonadan oshib, Turdining oldidan qirqib chiqmoqchi edi.* (Pirimqul Qodirov, Meros). *Sinjobut qiri bilan borib, Qamarqo‘tonga boradigan tik qiyalikdan o‘tgan yolg‘izoyoq yo‘lni yon tomonda qoldirib, yana chamasi besh yuz qadam yurilgandan so‘ng, chapga, tik yonaga burilib, uch yuz qadam yuriladi.* (Isak Sattorov, Vahimali chashma).

YONAQAY q. yona. ...qiyaligi tosh dumalasa, qush bo‘lib ketadigan yonaqaylarni omochdan boshqa “traktor” bilan haydab bo‘lmasdi... (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

YONARQURT Yorug‘lik chiqaradigan maxsus organi – lantern bo‘lgan qurt. *O, qanaqa ertakdan tushdi – Yonarqurt-ku bu tirik olov?! Uning mitti shafag‘in quchdi Yulduz kabi to‘kildi qirov.* (Usman Azim). *Go‘yoki yonarqurt yanglig‘ uchib-go‘nayotgan yulduzlar duv-duv to‘kilib darchalarga qo‘ngancha porlay boshladi.* (Xolmuhammad Karimiy, Qaytish). *Shamol puflar hadeb yonarqurtlarni, Jidd-u jahd ko‘rsatar, baribir yonmas.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi).

YONUT Ayiqqa o‘xshagan mo‘ynali kichik jussali hayvon. *Jayra, jayron, Olqar, yonut ovlari, ovchilikning sirga boy dalovlari!* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

YOP (Xorazm) Kanal. *Qadim zamonlarda Xivada bir xon o‘tgan ekan. Bu xon Shovot yopidan Xivaga bir ariq qazdiradigan bo‘libdi. O‘z qo‘l ostidagi barcha odamlarni ana shu ariqni qazishga haydabdi.* (“Oqila

qiz” – “O‘zbek xalq ertaklari” kitobidan). *Qora bulutlar tarqalib hamma yoq sutday oydin bo‘lganda, Polvonni axtarib yurgan Yoqutjonbika bilan Ol‘ga Ivanovnalari uni yop ichidan topdilar.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

YORISHMOQ Musobaqa qilmoq. *Terskayda qozoq qo‘ychivonlar bor. Shular bilan uloq talashib, yorishib kelishadi.* (Sa‘dulla Siyoyev, Saratonda qor yog‘di).

YORMOQ Tanga, pul. *Yonimizda saydamko‘lliklar somsa yoparkan, kechalari xamirini mushtlab beryapman. Harna, bir-ikki so‘m – qarmoqqa yormoq deganiday...* (Anvar Suyunov, Akamga maktub).

YOQTI (Xorazm) 1 Nur, yorug‘lik. *Paxtadan yasalgan pilikni, mol yog‘iga botirib yoqqandagi uying nim yoqtisida bo‘ladigan kitobxonliklar bir olam yog‘du bo‘lib ko‘rinardi bizga.* (Kamil Avaz, Yoqut momo). 2. Yorug‘. *Uyidagi bemehrlikdan zada bo‘lgani bir yon, mehmon oldida izza bo‘lgani bir yon bo‘lib, bu yoqti dunyodan ko‘z yumib ketishdan boshqa chora qolmaydi-ku...* (Kamil Avaz, Yoqut momo). – *Tushimda siz o‘lib qolibsiz, – dedi xotini tongda turib, ertalabki sayrga shaylanayotgan eriga. – Tavba! Dolonda yotibmishsiz. Ammo ustingizda shu uygi kiyimlaringiz. Otam, yotgan joylari yoqti bo‘lsin, bir muyushda mung‘ayibgina o‘tirganmish sizga qarab.* (Shuhrat Matkarim, Xavf).

YOQTILANMOQ Yorishmoq, yorug‘ bo‘lmoq. – *Ro‘zika momo o‘sha past ovozida muloyimgina davom qildi. – Gapingda jon bor. Mana, san kelding, uyimiz yoqtilanib getavardi.* (Kamil Avaz, Yoqut momo). *Asta yoqtilanayotgan molxonada sutdan qolgani uchun gunohkorday boshini quyi osiltirib turgan govmish Oliya tomonga qarashga botinmadi.* (Kamil Avaz, Sozanda).

YORG‘ICHOQ Qo‘l tegirmoni. *Ikki-uch joyda yorg‘ichoqlar yotardi. Yorg‘ichoqlarning quyida yashayotganlar va cho‘ponlar olib keta olmaganlari sindirilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

YOSUMAN Firibgar, hiylagar, jodugar. *Ehtimol, o‘shanda eri mana shu yosumanga tilla tangalarni eltib bergandir, shu bilan uning ko‘nglini ovlagandir.* (Nodir Normatov, Jazo). *Yuragim qon bo‘lib ketdi xatolardan, Parizod deb duch kelib bir yosumanga. Undan qanday qutulmoqni bilol-*

mayman, Jannatmi deb tushib qoldim jahannamga. (Ma'ruf Jalil, Bir yo'l ko'rsat).

YOVA (Xorazm) Panshaxa. *Osmonning kumush gardini aylanar chog'da, mag'ribi mashriq, oqshom va bugun, o'tgan va kelasi kun osmonida shahd bilan aylanmish chaqin digirchaklar... yaqin kela-kela... tarang-turung... taqa-taqur bir-biriga urilib, osmon toqidan olovli yulduzlar, olovli yova, olovli sanchqi, nayzalarini otib, qiyomat jangiga kirishdi.* (Salomat Vafo, Hasan-Husan o'q yoyi). *Endi uning qo'ngshilarini qara. Men zeykashning boshiga borsam hammasining biri qo'lida yova, biri qo'lida bolta, yugurib chiqadi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon). *Alkash bolalarini so'kkan, bir qo'lida bolta, birida yovami, pichoq bilan apachiday ko'chada chopgan!* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

YOVUSHMOQ Yaqinlashmoq. – *Shunqorminan aloqangni zinhor-bazinhor uzmag'il, – tayinladi u. – Ung'a olding'idin-da yovushurg'a ko'shish qil. Hali olar bila chala hisob-kitoblarimiz bor, yovuq bo'lsang nafi tegur.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

YOVLIQ Chevara. – *Sen ham qarimading, men ham... Hali oqtiq, chovliqlarning to'ylarini o'tkazamiz. Yovliqlar ko'ramiz...* (Shuhrat Matkarim, Avval va keyin).

YOVUTMOQ Yaqinlashtirmoq. – *O'pkang'iz o'runli, oyim. Biroq shul vaqtqachang'i bori harakatlarim Bonuni diydorini yovutmoq maqsudi bila bo'ldi. Kelg'usi juma sinovdin o'tsam, nasib etsa, narig'i jum-ag'acha to'y-da bo'lur. Valine'matim shuni tashvishida yururlar chog'i.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

YOZTOVUQ Qirg'ovul. *Zarafshonning chimtol yoqalarida Chirqillar yoztovuq polaponlari.* (Oydin Hojiyeva, O'zbekning yozi). *Yoztovuq yavshanzor – Vatanim deydi.* (Oydin Hojiyeva).

YOSHULLI (Xorazm) 1. Qariya. *G'oz turib Xorazmga qo'l berdi bir yoshulli, Miyig'ida mangulik tabassumga muhr bor.* (Omon Matjon, Karvonlar). 2 (Xorazm) Amaldor. – *Bobojon qo'shiqchi xiyol erinchoq, do'rillagan ovozda: – Raisingizga ayting, tomoshamizni ko'rajak bo'lsa, teatrga kelsin, yoshullichiligidan tushib qolmas! – dedi.* (Norto'xta Qilich, Tantana).

YOG'DOY q. **jag'day**. *Dumsiz shaytonchalar kupesidagilar kayfiyatimga, yog'doyimga juda qattiq ta'sir qilgan, ular begona, allakimlarning farzandi bo'lsa-da, o'sha manzara qahrimni qo'zg'ardi.* (Salomat Vafo, Poyezd)

YOG'CHIROQ Yog' vositasida pilta bilan yoqiladigan chiroq. *Sandiq ustida lipillab yog'chiroq yonarkan.* (Shoyim Bo'tayev, Yulduzlarga eltar yo'l). *Olim charchoq ko'zlarini yumib, biroz tin oldi. Yog'chiroq shu'lasi lipillab, o'tov uvuldiridlari va keragasida o'ynadi.* (Isajon Sulton, Qoraqush yulduzining siri).

YONGSILAMOQ (Xorazm) Taqlid qilmoq. *Mahzun un chekadi nay yoralari, Jarohatdan zada qalbni yongsilab Hajringda dilimning sadporalarin Otib kelayotir asta tong silab.* (Matnazar Abulhakim, Sonetlar chamberi).

YONGSIRAMOQ (Xorazm) 1 Taqlid qilmoq. 2 Masxaralab takrorlamoq. – *Suvsiydik. Xotiniga moshin haydatib yonida o'tiradi. Pravasini yo'qotib qo'rgan. – Keyin o'g'lining ovozi masxaralab yongsiraydi [ota].* (Shuhrat Matkarim, Shaydo). – *Yaxshi-ii... – dedi Hasan Po'latovich To'lqinning bu gaplaridan ko'ngli ko'tarilib. Yana Ahmadning gapini yangsiradi. – Yaxshi-ii... amish!* (Shuhrat Matkarim, Yaxshi odam).

YUDRUQ Musht. *Kuyovnikida quyruq yegandan – o'g'ilnikida yudruq yegan yaxshi.* (Maqol). *Yo savdogar o'g'li oyoq chaldimi – Moskva-rekada, musht janglarida? Javob berar shunda Kiribeyevich, Jingalak sochlarin silkitib turib: – O'shandog zo'r yudruq tug'ilgani yo'q – Na savdogar va na boyar zotida.* (Lermontov, Shoh Ivan Vasilyevich, navjuvon yasovul va azamat savdogar Kalashnikov haqida – Mirtemir tarjimas).

YUMURTA (Xorazm) Tuxum. *Qabristonda esa o'g'ri o'maradigan yumurta ham bo'lmaydi. Marhumlar bir-birlarining kafanlariga ko'z olaytirishmaganidek, tiriklar ham bu yerga kirganda, nogoh oxiratni o'ylab qolishadi.* (Nusrat Rahmat, Go'rkov). – *O'sha qimmatchilik, yeyishga bir burda non qayg'u, ocharchilik paytlarda bavak tug'ilgan uylarni esla, – so'z nishabini balandladi Yoqit momo. – Qaysi bir xotin ikki, qaysi biri uch, qaysi biri to'rt yumurta olib kelib, dasturxonga qo'yar edi. Qarabsanki, o'ttiz-qirq yumurta yig'ilib, chaqaloq tug'ilgan uyning mo'risi-*

dan chiqqan tutun bilan yog‘ isidan qishloqqa yana fayz kirgandek bo‘lar edi... (Komil Avaz, Yoqut momo). **Yumurtalar** o‘z oyoqlarida boqilib yurgan beminnat tovuqlar, o‘zlari jo‘ja ochib, o‘zlari ko‘payib, dasturxonni to‘ldiraveradi. (Komil Avaz, Yoqut momo). Bir qarasang Afrikadagi qaysidir qabilaning qirilib ketayotganidan, yana bir qarasang Xitoyda yashaydigan Panda ayiqlarining kam bolalayotganligidan, yana bir qarasang qo‘shni kampirning bostirgan tovug‘i **yumurtalarining** ko‘pchiligi lo‘k qolganidan, yana bir qarasang ...dan qayg‘uga tushib o‘tirgan bo‘ladi. (Shuhrat Matkarim, Indamas).

YUMURTABARAK (Xorazm) Ancha vaqtdan keyin qo‘llarga suv quyildi, biroz o‘tib **yumurtabarak** keldi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

YUT Chorva o‘lati. *Yem-xashagi yetar-yetmas bo‘lganidan qo‘ylari xutda yutga uchrab qirilibdi.* (Soyim Is‘hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

YUZOCHAR Kelin tushgan kunning ertasiga kelinni qarindoshlarga tanishtirish uchun o‘tkaziladigan nikoh marosimlaridan biri; betochar. ...o‘zidan ikki-uch yosh katta akachaning mehrli g‘azabda andarmon-sarson turishi juda yoqadi. Keyin, yana hali maktab yoshiga chiqmagan bolalarning **yuzochar** yo sochalaga borayotgan onalariga yetishib yurmay... keyin seskanib-seskanib siyib qo‘yishiniyam. (Bahodir Qobul, Oy yo‘li).

YO‘LCHIVIN Yo‘lpashsha. – *Uzoqlardan kelamiz Yo‘lchivindek sarg‘ayib.* (To‘ra Sulaymon, Mo‘rchamiyon).

YO‘NQA (Xorazm) Yo‘nib, yupqalangan taxta parchasi. *O‘zi tayyorlab qo‘ygan yo‘nqani olov yog‘dusiga tugib ko‘rdi. Oq yo‘nqa qizg‘ish rangda tovlanib ketdi.* (Erkin Samandar, Sulton Jaloliddin). Suvga tashlangan quvurning pastki qopqog‘idagi **yo‘nqaning** olib tashlanishi quvurlarning kayfiyatini o‘zgartirdi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

YO‘QCHI Biror narsasini yo‘qotib qo‘ygan odam. – *Yo‘qchiman, deng?! – chol bir ushatim holva soldi og‘ziga, keyin bir muddat uni eritish uchun shimib turdi – Qo‘ylaringiz ichida beshta olabel sovlig‘i bormidi?* (Anvar Suyunov, Yo‘qchi). – *Aylanay dugona, men yo‘qchi, yaxshilab bir ko‘rgin-chi, malla g‘unajinimiz qayda yuribdi.* (G‘ozi Rahmon, Mo‘minjon).

YO‘RINJA (Xorazm) Beda. *Yo‘rinja* ekilgan otizlarda go‘k nish urdi. (Komil Avaz, Sozanda).

YO‘G‘ASAM Bo‘lmasa, aks holda. *Yo‘g‘asam* zamonga qaramay-sanmi deng. *Sotsializmdan putur ketgani aniq: Pribaltikada Mustaqillik uchun namoyishlar bo‘lyapti. Toshkent ham tinchini yo‘qotgan...* (Shukur Xolmirzayev, Yashil “Niva”).

YOG‘DOY q. **jag‘day**. – *Hayy, – qo‘l siltadi Samandar aka. – Xudo ursin agar, dasturxoniga ikki cho‘rakni nechik etib qo‘yaman, deb o‘ylab o‘tirgani yaxshi edi bularning. Odam yog‘doyi yetsa butun cho‘rak qo‘yadi, yetmasa yarmini. Lekin asosiysi ko‘ngil tinch bo‘lish kerak.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

Z

ZAMARIQ Qo‘ziqorin. – *Ota, odam ishonadigan so‘z ayt. Osmondan baliq yog‘ganini endi eshituvim. Shunday ulli baliq nechuk yomg‘ir bilan tushadi. Yomg‘ir bilan zamariq yog‘ganini bilaman.* (Salomat Vafo, Yomg‘ir buluti xotirasi). *U [kattaning yordamchisi] bir qildan yasangan, egnida oq ko‘ylak, qora kostyum-shim. Galstugi uzun va nozik. Hammaga nopisand nazar tashlaydi. Go‘yo bu odam-u, boshqalar yerdan chiqqan zamariq.* (Shuhrat Matkarim, Murt).

ZAHAROLUD 1. Achchiq ta‘mli. *Uning o‘rniga og‘zidan zaharolud bir suv keladi, xolos. Ichi yonib-yallig‘lanib ketayotgandek, ichakchavog‘ini ayovsiz bir panja g‘ijimlab burayotgandek...* (Erkin A‘zam, Yozuvchi). *Elmurod ikkimiz shu o‘zgarishlarning zaharolud ilk mevalarini tatigan edik.* (Poyon Ravshanov, Birodarim). **2.** Zaharxanda. *Sohibqiron miyig‘ida zaharolud kuldi, axir, ikki oyog‘i bir etikka tiqilib qolgan ekan, bunga boshqa birov emas, faqat o‘zi sababchi-ku!* (Asad Dilmurod, Mezon burji). *Keyin suratkash juvonning zaharolud qarashi namoyon bo‘ladi.* (G‘affor Hotamov, Afsungar).

ZAHKASH 1. Zah, suvli, nam. *Sayohat payti goho to‘xtab, silliq soy toshlariga o‘tirib, domlaning tabiat haqida, Shovvasoyning boshlangan joylaridagi sovuq chashmalar, suvning necha ming yillik mehnati tufayli*

paydo bo'lgan ko'm-ko'k va **zakhkash** daralar, chaqir xarsanglar yumalab, tarashlanib mana bu silliq soy toshlarining paydo bo'lishi haqidagi hikoyalari ruhimizda tabiatning salqin soy havosining shavqi bilan qorishib ketganidanmi, hamma narsani unutilib quloq solar edik. (Asqad Muxtor, Qora domla). U soyga tushib kelayotganida kaltakesak **zakhkash** harsangning tagida butun olamni unutilib, chirillayotgan edi. (Shodiyor Hazrat Ismat, Yovon jonzotlari). **2.** Zovur. Momomning uylari G'oybu qishlog'ining Oyoqbog' degan tomonida edi. Bizning elat bilan ularning elatini **zakhkash** ajratib turardi. (Nodira Yangiboyeva, Aytilmagan qo'shiqlar).

ZALDOLUCHA O'rik. – Chunki Xalil bobong qishlog'imizdagi eng qari, tabarruk odam, niyat qilib oborib bersang, duo qiladilar. O'zing ham, **zaldoluchang** ham uzoq umr ko'rasizlar. (Ne'mat Aminov, Ayri).

ZANGULASOZ Qo'g'irchoq yasovchi usta. Yelkamga yo'nalding mohitob “Oqqush”, Yalpizdan sarxushman, mast erur yoz ham. Ko'rsa gar yaqosin ushlab qolardi, Buxorolik Husayn **zangulasoz** ham. (Tursunboy Adashboyev, Muqallid she'rlar).

ZARDOLI O'rik. Yuqoriga o'rlab, **zardolilar** qatoriga chiqdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). O'shanda **zardoli** guli silkinib, Bolari tilidan totar edi bol. (Halima Ahmedova, O'shanda).

ZEYKASH (Xorazm) Zovur. Keyin **zeykashga** tushib, sharra-sharra o'raveraman qamishni. Kim kelsa, mana shu qo'limdagi koreys o'roq bilan kallasini shartta olaman, deyman. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

ZIMRIQDAN UCHIRMOQ (Xorazm) Dodini bermoq. [Shukur] Qishloqning bor erkaklarini **zimriqdan uchiradi**. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

ZINDALAK O'ldiruvchi yara. Tili zahar, so'zi achchiq odam. Avlod sha'niga tushgan dog', yara, ma'nosida ham ishlatiladi. *Ayniqsa kichik xotin Matqovul biryoqqa ketishi bilan Xolnisoni burchakka siqadi.* – Ha, lav-lunjing shalviramay o'lsin! Ha, ajina qoshiq, qarimsiq yuzlaringga **zindalak** chiqsin. Ersiramay ko'zginang oqib tushsin, iloyi omin, yig'lama, nomahram eshitadi, yashshamagur. (Asqad Muxtor, Opa-singillar). Do'kondan sut olib kelayotgan Hojiqurbon uyiga yetay deb qolganida, qo'shnisining darvozasi zarb bilan ochilib, pirqiraganicha Mardivoy

chiqib keldi. Ortidan “Adidas” degan yozuvli changqoqarni do‘layib, xotini ko‘rindi. – Hu, yashshamagur! Iloyim, tilingga **zindalak** chiqsin! (Anvar Obidjon, Poxoldo‘q). Bog‘bon yurt gullasin deb joni halak, Dehqon yomg‘ir so‘rab joni potirlar. Bekorchixo‘ja-da, manov **zindalak**, Manovi bijg‘igan tugmabotirlar! (Iqbol Mirzo, Koronavirus).

ZINDACHA q. **zindalak**. – To‘lab berasan, **zindacha!** Haftiyagimni to‘lab bermay ko‘r-chi! – deya baqirib hammaning e‘tiborini o‘ziga tortdi [Xosiyat]. (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

ZING‘ITMOQ (Xorazm) Uloqtirmoq. Ichlarini ushlab qotib-qotib kulib yotsalar, turkman bola sanchqini **zing‘itib** qochib qolibdi oyog‘idagi bir poy krossovka bilan. (Shuhrat Matkarim, Yilon). – Ikki qo‘ling, ikki oyog‘ingdan tutib ko‘chaga **zing‘itib** yuboradilar-da, o‘rningga birovni qo‘yib, ishlab getavaradilar. Boshqacha bo‘lsa kallamni kesib beraman. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

ZIY Narsa-buyumning cheti, qirradi. Unga tegaman degan qiz qachon kelishini men uchun biron qog‘ozga yozib, qistirib ketgandir, deb eshikning **ziylarigacha** qarab chiqdi, kelib qolar balki, deb ancha mahtal turdi ham. (Ahmad A‘zam, Qulf tili). So‘ngra bir mushuk keldi, eshikning **ziyiga** mo‘ylovlarini suykadi, bu ochiladigan tuynukmi, ochilmaydiganmi, deb mushuk aqli bilan o‘ylanib qoldi. (Ahmad A‘zam, Qulf tili).

ZIYLAHQ (Xorazm) Zaxlamoh. Bahorda suv yer yuzidan oqsa, uning atrofi **ziylab** ketadi, o‘sin, ishdan chiqadi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

ZINGRAYMOQ Anqayib. Qulf esa bu g‘alvadan boshi qotib, **zingrayib** turaverdi. (Ahmad A‘zam, Qulf tili). Daryoda yuzadi kema, Yetti urug‘laring tamma **Zingrayib** turgan jon momo, Bu yerdan To‘lg‘on o‘tdimi? (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

ZOMBIR Qovog‘ari. Shuvillagim shuvullar, **Zombirlar** zuv-zuvillar. Saqlay olmay sirlarin Gullab qo‘yadi gullar. (Hol Muhammad Hasan, Shuvillak).

ZOMCHA (Xorazm) Handalak. Do‘rt **zomcha** olibman do‘rtisam sori, Shu kunlar bo‘libman bolani zori. Og‘a bola mehmon bo‘lsang bir oqshom, Kuygan yerlaringga bo‘laman dori. (Xorazm folklori). Tomosha-

ga to‘ymagan ingichka engak allaqayoqlardan ulkan zanglagan qaychi topib keldi. Aftidan qaychida kalta oyoq otlarning quyruqlarini qirqib orastalasa kerakki, qaychini ko‘tarib, tandirbosh it va uning atrofida aylandi. “Yo‘qol berdan, ne kerak senga, ey **zomcha** bosh?”. (Salomat Vafo, Hasan-Husan o‘q-yoyi)

ZOG‘OMA (Xorazm) Kepchik. *Alima olippan ulli zog‘omo, Bir gapim bor mnov turg‘on og‘oma, Xo‘jik bola mendan qor etaverma, Menam senga ters qaragam yog‘oma.* (Xorazm folklori). *Urug‘ solingan zog‘oma (don yelpig‘ich idish) ni qo‘lga olarkan, tantanavor va iltijoli ohangda “bismilloh”ni qayd qilar, labini qimirlatib ichida nimalarnidir o‘qirdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

ZOG‘OSA Ketmon, belkurak sopi o‘rnatiladigan teshik, zo‘g‘ota. *Kaftdek keladigan, uchi o‘tkirlangan temir parchasiga zog‘osa o‘rnatilgan, uning yelkasidan tepib, yerga kiritiladi va ajratilgan yer bo‘lagi ag‘darib tashlanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

ZOG‘OZA (Ephédra equisetína) Ikki uyli va past bo‘yli, serpoya, ildizi baquvvat, toshloq joylarda o‘sadigan buta. *Ko‘priklar ham ilma-teshik, zog‘oza-yu saritollar shapshab qolgan, tuproq yo‘q (cho‘ng qoyalar ichida yer ham ko‘prikning ilma-teshigiga tushib, “dorboz” bo‘lib qolgan yoki xarini “minib” olgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

ZONG Qonun-qoida. *Biroq zong qanday, zamon qanday. Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq. Katta to‘y bo‘lsa qochmas, o‘lmasak zamon ham tinchir.* (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).

ZULBAROQ (Jizzax) q. **zulqurs**. *Mehnatni, sarf-xarajatni hisobga olmaganda, bir zulbaroqdan kattagina ro‘zg‘orni bemalol bir oy tebratgulik non qoladi. Qolganda ham ona sutiday halol non!* (To‘ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

ZULQURS [jun + f.-t. xirs – ayiq] Patli gilam turi. *Marjonning enasi Jizzax bilan Zomin obravida tilga tushgan chevarlardan edi. U gilam, zulqurs, olacha to‘qishning piri.* (To‘ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol).

ZO‘RRIQ (Xorazm) Baland bo‘yli, daroz. *Ofoqxo‘janing aziz mehmoni, Yusuf indavaklikning o‘g‘li Avaz zo‘rriq.* (Komil Avaz, Sozanda).

O'

O'BA Qishloq. *Xon noiloj ko'ndi, Qozikalon boshchiligida ulamolarni Junaid oldiga yubordi. Sulh qilindi. Bunda Junaid katta imtiyozlar olib, o'z o'basiga ketdi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). [*O'tovlarning*] *Har birinda shi o'badan – qishloqdan o'n yigit turardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). – *O'baga shog'ol doridi. Ulli-kichchining mazasi yo'q. Kimning tovug'i, kimning qo'yini zrelab turibdi. Kecha bu yergacha kelibdi, – dedi jo'ram.* (Shuhrat Matkarim, Xavf).

O'KCHA Poshna. *Ammo kim erinmasa yanchib o'tardi, O'kchasi-ning siniq mixin sanchib o'tardi.* (Mirtemir). *Ko'rgiliklarning hammasi o'z qilmishimizdan. O'zing aytganday, hozir yurt jalovsiz, el egasiz. Etik o'kchalari chegasiz. Turkiston chegarasiz. Eshak otdan, bezot zotdan ustuvor. Boz ustiga, bosqinchilar olqovda, orli, norli bosmachilar – jig-itlarimizding satta shakamanlari qarg'ovda.* (To'ra Sulaymon, Tangriga tavallo). – *Ko'rib turibsan, qalaydan oltinga aylanganimni. Bir eshikding egasi, o'kchasiz etikning chegasi bo'lib turganimdi.* (To'ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o'g'li el kezadi).

O'LAHAT Suvli, bog'-rog'li, sug'orma dehqonchilik qilinadigan joy, voha-oasis (viloyat so'zining o'zgargan shakli). *Bozorboy asli shu qishloqlik, og'ir urush yillarida tirikchilik g'amida oilasi bilan o'lahatga ko'chib ketdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Bu joydan g'ubor ichida butun o'lahat yastanib namoyon bo'ladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

O'LANZOR O'tloq. *G'o'taladagi katta o'lanzorda har odamning o'z ulushi aniq edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

O'LCHAK I (Turkiston) **1.** Qoshnilarning navbatda-navbat sog'ilgan sutni birbiriga berish odati. *Har kuni yog' pishirmaslik uchun o'lchak qilar edik. Bu, ajoyib narsa. Uchta-to'rtta qo'shni gaplashib-kelishib oladi. Bir kuni bari sigirlarning sutini bir oilaga beradilar, ertasi ikkinchi xonadonga, indiniga uchinchisiga.* **2.** Sut hajmini o'lchash uchun novda. *Yarim metrcha keladigan bir tayoqcha bo'ladi. U ham o'lchak deb ataladi. Men qo'shnikiga bir chelak sut olib chiqaman va shu o'lchak bilan o'lchab beraman. Unda kichik ayri, katta ayri va qizil ip, ko'k ip degan*

belgilar bo'ladi. Shu oiladan ertasi biznikiga sut kiritganlarida, ular ham o'sha **o'lchak**da sutni shu belgilarga qarab quyib beradilar; ortganini tag'in o'lchab, bizni qarz qilib chiqib ketadilar. Ayollar ishi shunday yo'l bilan xiyla yengillashadi. Kuniga emas, uch-to'rt kunda bir marta sut qaynatilib uvitiladi, yog' pishiriladi. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

O'LCHAK II (Qorachiq) Yerto'la. Qorachiqda salqin bo'lsin, deb bir metr chuqurlikda yerto'la o'yiladi, so'ng uning ustiga 1,5 metr balandlikda paxsa devor olinadi; nihoyat, tom mayda yog'och shoxlar bilan yopilib, suvaladi. Bu **o'lchak** deb ataladi. **O'lchak** ichida devorlarni etdan-betdan tesha bilan o'yib, idish-tovoq qo'yish uchun tokchalar qilinadi. Men bu ishni hech kimga bermasdim, tokchalarni yolg'iz o'zim yasardim. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

O'MGANLAMOQ 1. O'mgani bilan oldinga harakat qilmoq. [Bura-mashox] Suvga tushib, **o'mganlab-o'mganlab** qirg'oqqa chiqdi. Silkindi. (Usmon Azim, Tilla buramashox). **2.** O'mganini tiramoq (stolga, yerga). Ularni boshlab kelgan militsionerning xatti-harakatiga qaraganda to'rda, stolga **o'mganlab** olgan qorindor kishi, boshliq bo'lsa kerak, xo'mrayib: "tekshiramiz, aniqlaymiz" dan nariga o'tmadi. (O'ktam Mirzayor, Zavol). Ot oldinga chiranganda, qo'yvoradi. Qarabsizki, jonivor **o'mganlaydi**. (Dilmuroq Sodiqov, Yurtkezar). **3.** Egilmoq. Erining supa chetida **o'mganlab** qusayotganini ko'rgan Oyimxol obtova ko'tarib bordi. U bir amallab o'rnidan ko'tarilgach boshidan quyilgan sovuq suv ta'sirida sal o'ziga kelgandek bo'ldi. (Holmuhammad Karimiy, Janoza). Qobilboyni kuzatayotgan ota moshina oynasiga **o'mganlab**, o'g'lidan qattiq iltimos qildi: "Hech bo'lmasa sen "svet", gaz muammolarni hal qilib beraman demagin! Yolg'on va'dalar odamlarning jonigayam tegib ketgan. Va'da bermasang ham baribir seni saylaydi". (Fozil Farhod, Noqobil).

O'MMA 1. Oyog'i tepaga bo'lgan holat. Odatdagi vaqtda otilgan hayvon yonboshiga yiqilib tushsa, otilgan minginchi hayvonning shoxi yerga, tuyoqlari esa osmonga ko'tarilib qolar ekan. Bu **o'mma** holida turish deyiladi. Aytishlaricha, otilgan hayvon **o'mma** holida turib qolsa, albatta, ovni to'xtatishi zarur edi. (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). **2.** (Xorazm) Oshiq suyagining old tomoni. Oliya: – Iloyo, shamolli kuni uyiga o't

tushsin. Go'rida o'mma yotib, chikka tursin. (Kamil Avaz, Sozanda). **Bir tiyinning ustida o'mma turadi** Pulni bekorga sarflamaydigan, o'ta pishiq odam. "O'tkir ekan! – deb xayolidan o'tkazdi bu gal Safar. – **Bir tiyinning ustida o'mma turadi!**" Manavu baqaloqning baxti-da. (Qulman Ochilov, Savdo).

O'MCHA (Xorazm) O'tin. – Mol-dunyo kishini asirtadi, – dedi yo'talib turib chol va o'zini rostlab olgach: – xatorimiz ko'payar ekan, endi g'iring dab go'r-chi, belingda o'mcha sinadi. (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). Ikki kilo Ziri shaytonning (Zirhi shahidon qishlog'ining) quyruqi qaytgan kichkina sershira gashiri (sabzisi), besh kilo Pishkanikning (Xiva yaqinidagi qishloq) anoriday suvli piyozi, yarim kilo yuluk (ilik), bir chimdim sariyog', ikki kilo "yetmish beshlik" yurt guruchi va ziravorlar solib to'rt o'mcha (tarasha) tashlab, past olovda to'rt soat gashir – piyozi bilqillaydi, to'rt soat shu gashir-piyozning suvida, qirq qizil murchning suviga yuvilgan guruch bilqillaydi. (Avaz Kamil, Bahramandlig' saodati).

O'QIRIQ Uchiga qil arqon bog'langan tayoq. – O'g'lim, – toydek bo'ronlar Asovlanar o'kirib. – Jilovlayman men uni, Yasab ulkan o'qiriq. (Tursunboy Adashboyev, O'qiriq).

O'NGIR Etak. Ammo kimsaning eshigidan mo'ralamadi, birovning o'ngirini ushlamadiyam. (Nurilla Chori, Qizg'aldoq). Xullas, to'y tugab, otiqlar tarqayotgan mahal bir juldurvoqi odam tog'amning o'ngiridan ushlab, otingizni berib turing, qo'ylarim Ilonjarga tushib ketdi, yo'g'asam ulardan ayrilib qolaman, debdi. (Dilmurod Sodiqov, O'zidan qochayotgan odam).

O'RA (Xorazm) Ustun. Ayvon o'rtasida tutundan qorayib ketgan o'ra – ustunga yelkasidan bir qop narsani tushurib, suyab qo'ydi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Opam ketgach, etlarim junjikib, chig'ir ko'machi ustidagi chertak o'ralariga – ustunlariga yon berib, o'zimni yetim boladek his qilib o'tirdim. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Oq ayvonning o'rasi-man, onajon, Bir bolangni sarasiman, onajon. ("O'zbek xalq qo'shiqlari").

O'RAM (Xorazm) Mahalla. U [kopiratchi] "baroqlar" deb ataladigan o'ramdan bo'lib, Quromboy kopratchi, derdilar uni. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). Bu o'ramdagi qush uchib o'tolmas cho'qqi – Bovurchi qo'l

uzatsa yetgudek, poygakda Qal'ayi sheron darasi guvlab yotibdi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

O'RAMAJABDUQ Ot anjomlari. *Enishning yuqorisiga o'ramajabduq va xurjunlarimizni qo'yib, otlarni tayyorladik.* (Anvar Suyun, Solin yo'li). *Oxirida pushtanni salqiroq qilib qo'ydim.* **O'ramajabduq urmoq.** Ot, eshakni egarlamoq. *Ust-boshimni almashtirib, kirza etigimni kiyib chiqqanimda, kattaotam tumshug'iga yugan solib, o'ramajabduqni urayotgan ekan.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

O'RIK ARCHA Turkiston archasi. *Archazor 800–3100 m balandlikda tog' yonbag'irlarida joylashgan va uch mintaqaga bo'linadi: tog'larning pastki qismida (800–2000 m balandlikda) qora archa yoki Zarafshon archasi, o'rta qismida (1400–2500 m) sovur archa, yuqori qismida (2500–3100 m) o'rik archa yoki Turkiston archasi o'sadi.* (O'zME). *O'rmon-zorning pastki qismida (1900–2700 balandlikda) Zarafshon archasi yoki qora archa, o'rta qismida (2100–2800) yarim sharsimon yoki savr archa, yuqori qismida (2100–3200 metr) Turkiston archasi (o'rik archa) o'sadi.* (L.A.Alibekov, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi).

O'RDA Ko'chmak o'yini. *Nimasidir damkani eslatadigan bu o'yin ba'zi joylarda "o'rda" deb ataladi. Har yurish chuqurchalardan biridagi toshchalarni olib, boshqa chuqurchalarga bittadan ulashib ko'chirish bilan boshlanadi.* (Pirimqul Qodirov, Qora ko'zlar).

O'RISH Qo'y, echki, qoramol har kun o'tlaydigan joy. *Mo'ljal bilan, suruvni tushlikda yotqizgan joyga yetib, keyin o'rish tomon ketish kerak.* (G'ozlari Rahmon, Shukuhli karvon).

O'RLAM q. **o'rish.** *Katmanliklarning suruvi tog' o'rlamda, bir shu boyning podasi dashtda qolgan.* (Xolmuhammad Karimiy, Tosh qoya).

O'RLASHMOQ Tortishmoq. – **O'rlashmang!** *Nahotki tushunmayapsizlar, Onaxon yolg'iz yeyjak.* (Komil Avaz, Sozanda).

O'ROL To'g'ri, to'g'rilik. *Gapning o'roli kelsa otangni ham ayama, deyishadi. Qarang, qatli om qilishda bemisl "ko'rsatkich"ga erishgan va behisob lagerlarga ega mamlakat sifaida SSSR Ginnesning rekordlar kitobida qayd etilgan ekan.* (Shukrullo: "Olimdan chiqqan qassoblar xavfli").

O'ROV O'jar. ...*Abduqayum to'qsoba bir kuni Baxshullani chetga tortib nasihat qildi: – Endi ukagingang'a o'rov bo'lma, bolam, oni vaqti tig'izlashg'onin payqamasmusen. Ko'ngling'a og'ir olmag'il, u bila qanchaliq oz so'zlashsang, iningg'a shunchalik ko'mak bo'lur – saboqdin chalg'imas.* (Soyim Is'hoq, Qabrdan chiqqan qul).

O'RTIK (Qarnoq) Paxtalik yopinchiq. *Tandir og'ziga ikki taxa qo'yib, ustiga o'rtik yopaman.* (Sa'dulla Siyoyev, Saratonda qor yog'di).

O'RTMAK Momoqaymoq. *Qoqigulning o'rtmaklari parq-u sharcha yasab, mayin yelda sochilib to'ziydi.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). *O'rtmakni uzsang, uzilgan joyidan oppoq sut sizib chiqadi.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

O'RTMOQ (Xorazm, Iqon) Yopmoq, qoplamoq. *Qahratonda seni ko'mdim qish bo'lib, oppoq xayolimni ustingga o'rtiding.* (Matnazar Abdulhakim, Evrilish).

O'SARO'T Semizakdoshlar (semizbargdoshlar) oilasiga mansub, yer ostki qismi tugunaksimon yo'g'onlashgan, bo'yi 5–15 sm, barglari ildiz bo'g'zidan chiqqan, etli ko'p yillik o'simliklar turkumi; tilovo't. *Biz dorivor o'tlarga qo'shib, o'saro'tdan ham bir-ikki tupdan oldik. Agar salqin uying shiftiga ipga boylab osib qo'ysangiz, o'zi havoda ildiz chiqarib, o'sa berarkan, yaproqlari orqali havodan oziqlanar ekan.* (G'ofur Jo'rayev, Yuring, tog'ga chiqaylik!)

O'TARCHI I Musofir, o'tkinchi. – *O'tarchi – musofirmiz, bir oqshomga joy so'rab turibmiz! – Qurbon bobo itlarini haydab, salom-alik qilib turgan o'rta bo'yli kishiga keksalarga xos mulozamat qildi. – Qilqondiga ko'pkarilab chiquvdik, kech tushganda adashdik-da!* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

O'TARCHI II Mollarni davolaydigan shifokor; veterinar. *O'tarchining nashtari yeng ichida, Zahar xotin nashtari til uchida.* (Maqol).

O'TINOSHI (Toshqo'rg'on) To'yda ishlatiladigan o'tinni g'amlab kelish uchun xasharchilarni yig'ish va ularga osh tarqatish marosimi. *To'y fursati yaqinlashaverib, odamlar o'tinoshiga chaqirildi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Yana to'rt-besh o'tinoshi yegan yigit bir-ikki eshakdan o'tin keltiribdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

O‘TIRIK 1. Yolg‘on. *Bilmayman, nega shunday, Haqberdi bilan yolg‘iz qolsam, har gal unga va‘da qilgan juda zarur narsamni, esimdan chiqqanidan emas, berishga qizg‘anganimdan, atay uyda qoldirib kelib, endi o‘tirik bahonalar bilan o‘zimni oqlab o‘tirganday o‘ng‘aysizlanaman...* (Ahmad A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam). – *Tarix o‘rganmak-da ko‘p savoblik yumushdur. Qaniydi, rostni o‘tiriklardan tozalab, bir tarix kitobat qilsang‘iz.* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). – *Seni o‘ldi, deymiz! Hozir ikki-uch yigitni go‘r kovlashga jo‘natmoqchiydim. Savmal qaytgunicha tovuqmi bir baloni so‘yib, o‘sha go‘rga ko‘mib kelmoqchiydik... O‘tirikdi chinday qilib, aza ochardik senga.* (Soyim Is‘hoq, Osmon ustuni). **2.** Ertak. *Tog‘asi “cho‘pon tayog‘i” deganidayoq Rahmonqul buning naql ekanligini angladi. Lekin yana qayta so‘radi: – Shu bo‘lganmikan o‘zi? – Nima, bo‘lmay cho‘pchakmi bu? Ota-buvang o‘tirik aytib qoldiradimi senga? Cho‘pon tayog‘ida gap ko‘p, qancha giyohga tegadi, shuning kuchi uradi-da unga.* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

O‘TIRIKCHI Yolg‘onchi. – *Otang “yo‘q” devdi-ku, bizlar lalmimiz – choyam, suvam ichmaymiz, deb edi-ku. Ha-a-a. Senam o‘tirikchi, otangam. Nonlaring-chi, nonlaring bormi?* (Sobir O‘nar, Chambilbelning oydalasi).

O‘ZAR Poyga. – *Unday bo‘lsa o‘zarga oz qoldi, tayyorlan o‘g‘lim, – dedi mo‘ysafid.* (“Gulruh pari” dostoni).

O‘ZMIRLIK Qaysarlik. – *Qulmatning bolasi-ku! – Shuning uchun o‘zmirlilik qilayotgan ekan-da.* (Hamid Alp, Zuryod). *Yozganlarini o‘qib ko‘rsam, o‘zim aytgan gaplarni oqizmay-tomizmay – shundayligicha qog‘ozga tushirib kelishibdi. O‘zlaridan bir og‘iz gap yo‘q. Yana tag‘in deng, o‘zmirlilik qilib, men bilan rosa spornashishdi. Bo‘lmaydi, deb uzil-kesil norozilik bildirganimdan keyingina, uch kundan so‘ng cho‘tkiy qilib kelamiz, deb ketishdi.* (Abdusaid Ko‘chimov, Binafsha). *Sababi bunday: gapdan gap chiqib tortishib qolgan Abdixol: – Soching buncha patala? O‘zingni oynaga solganmisan, hech?! – dedi, erki sig‘adigan qizga hazil aralash o‘zmirlilik qilaman, deb.* (Toshpo‘lat O‘rxun, Qahramonlar mangu yashaydi).

O'SHAK G'iybat. *Nozik jussa enamiz necha bor xalacho'pda tayog yeganlarini ham eshitardik. Balki bu gaplar haqiqatan o'shak, ya'ni g'iybatdir.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari). *Ya'nikim baytal To'qsa-bo ikkovi o'rtasida talash bo'lgan. Bu, endi, burungining o'shagi.* (Sobir O'nar, Ot choptirsa, gumburlaydi tog'ning darasi). **O'shak surmoq (qilmoq)** G'iybat qilmoq. – *Yolg'on! – Normat kuch bilan Biydi momoning og'zini yopib o'shqirdi. Birdan miyasida og'riq turib, terlay boshladi. – Agar shu martayam o'shak surgan bo'lsang, kelib sen yalmog'izni otaman!..* (Nazar Eshonqul, Urush odamlari). *“Hay, bachchag'ar, otasini o'shak qipti-da”, debdi. Mening o'zimga hech narsa demadi, biroq xafa bo'lgani shu gapdan ma'lum.* (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).

O'SHAKCHI Maydagap, g'iybatchi, chaqimchi. *Bunaqa paytda tajangroq otamiz: “Shu ukang!.. – deydi enamizga. – Shu ukang xotinday maydagap, xotinday o'shakchi-ya!” “Nima qilay, chol? – deydi enamiz nochor javranib. – Sizning oringizni ortmoqlab ovora-da sho'rlik ukagingnam!”* (Erkin A'zam, Bizning tog'a).

O'NGISHIQ (Xorazm) Tirikchilik, kun ko'rish. *Ishq faslida hamisha hamal. Bordir hayot. Yo'qdir o'ngishiq. Men uchun sen mangu mukammal, Mangu o'n sakkiz yashar qo'shiq!* (Matnazar Abdulhakim). – *Kallani ishlatsa shularning hammasina yetib, ortib ham qoladi. Ina mening o'ngishig'im kimnikidan kam?* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

O'G'ILTO'Y Sunnat to'y. **O'g'ilto'yda** tuyog'igacha yasatig'lig' *“toy keldi, qarang-qarang” ham, ko'ylagidan o'zi yengil kelinchakni otdan tushirishdagi “ko'tar-ko'tar, yerga qo'yma” ham ko'chaning yelkasida.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

O'G'ON Xudo. *Yetti vodiyan o'tib Haqiqatdin so'ylagil, Endi yetgan manziling bir O'g'ondin boshlanur.* (To'ra Sulaymon, Imtihon).

G'

G'AJARI q. g'ojari. *Yurgan yo'lida urchuq ko'tarib, jun yigiradigan momolar terma, arabi, g'ajari, patgilamlarni qotirib to'qiydi.* (G'ozirahmon, Shukuhli karvon).

G'AJIRDAMA Qirchillama. *Tuyabonning gapi bozordayoq esimdan chiqib ketgan, tuzlarni tuyalarga orttirib, haligi yosh, g'ajirdama tuyani saf boshiga qo'ydim, qolgan to'qqizta tuyani unga iyartirdim.* (Komil Avaz, Sozanda).

G'ALDIR Notekis joy, o'yi. *Qizgina suv yuvgan g'aldir bo'yiga o'tirdi-da, lozimining jiyaklariga yopishgan sertikan rindak va chakamug' urug'larini avaylab bitta-bitta tera boshladi.* (Ne'mat Arslon, Amalgama).

G'ALTING 1. (Xorazm) O'nqir-cho'nqir. *"Yo'llar yomon g'altin ekan, "Mercedes"ni tez haydolmadim", derdi u [Javhar] jilmayib. Doktorning "Mercedes"i eski, ammo hali mustahkam velosipedi edi.* (Shuhrat Matkarim, Sabrinaning ko'zlari). *Azon bilan esa yana ishga kelishi kerak. Qishloq yo'llarini bilasan, g'altin, o'ydim-chuqur. Teyingda moshin bo'lsa ham eshak aravadan tez yurib bo'lmaydi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon). **2.** (Xorazm) Qo'pol. – *Bu ne g'altin gap? Nega haydaydi? – jahl bilan ovozi ko'taradi Feruz.* (Komil Avaz, Sozanda).

G'ALTON [f.-t. g'alton – aylanadigan] Aylanadigan, aylanib turadigan, aylantiriladigan (narsa) *Yer ostida g'alton g'uldiraydi.* (Topishmoq. Javobi – tegirmon). *Lashkar qoni g'alton urib, Go'yoki bir mahshar qurib, Dushmana nayza endirib, Sanchg'animni ko'rgil, bugun.* ("Oshiqnoma" dostoni).

G'ANAK [f.-t. g'anak – bug'doy g'arami] 20–30 bog' bug'doy boshog'i ichki tomonga qo'yilib, aylana shaklda taxlangan g'aram. *Qayda g'anak biladi, Sarraklaydi, ko'madi.* (Topishmoq. Javobi – kalamush). *Mayramjon kelar hali maydayo-mayda, Bo'ynida shoda la'li, maydayo-mayda. Qo'rqa-pisa qarasam, maydayo-mayda, Imlar g'anakka, bali, maydayo-mayda.* ("Xalq qo'shiqlari"). *Bug'doylar g'aram-g'aram qilib bosib qo'yilibdi, aravaga qo'shilgan otlar yuk og'irligidan asta-sekin odimlamoqdalar. Pichanlar g'anak qilinibdi.* (Kennet Grexem, Tolzordan esgan shamol – Tilavoldi Jo'rayev tarjimasini).

G'ARMA To'p bo'lib o'sadigan ko'p poyali o'simlik. *Yangiboy keltirib tashlagan bo'z tuproq tufaylimi yo gullayotgan ana shu yosh daraxtlardan go'yo izza bo'lganidanmi, balki namgarchilikning zo'ridanmi, shamol uchirib kelgan yovvoyi o'tlarning urug'lari nish urdi, bog'chaning*

atrofi bir qadar talxaq, jingirtob yantoq, qoratikan, jinjak, mol og'ziga yayrab oladigan sersuv, tuguncha bargli g'armalar bilan qopladi. (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

G'ARG'ANAQ *q. g'org'onaq. Oradan o'n besh kunlar o'tgach, yo'lovchilar g'uj bo'lib o'sgan g'arg'anaqning ustida qushlar aylanayotganligini payqab qoladilar. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

G'AVZA *Bug'doyni o'rish uchun kaftga sig'adigan bug'doy poyalar to'pi. O'ng qo'lda o'roq, chap qo'l bilan bug'doy tanalarini g'avza qilib qamrab olish oson emas... Panja to'lguncha uch-to'rt marta g'avza olsa ham bo'ladi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

G'AZALOY *To'rg'ay turi. ...Odil polvon o'zini oldirib, kuyganidan ko'knoriga kuch berib, bo'yni g'azaloyning bo'yniday bo'lib... kun o'tkazaverdi. (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy). Odamlar so'fito'rg'ayni negadir "qarg'ish tekkan qush" deyishadi. Shundanmi, uni mullato'rg'ay, g'azaloy deb turli nomlar bilan atashadi. (Soyim Ishoq, Sirdan tinch daryo yoxud yog'siz chiroq qissasi). Ey g'azaloy, g'azaloy, Buncha shirin sayraysan. Cheksiz o'tloq bag'rida, Uchib-uchib yayraysan. (Saodat Po'lkanova, G'azaloy).*

G'AZVOL *Ovchilarning qalin qor ustida kiyadigan, g'alvirga o'xshash, gardishi yo'g'on barmoqdek keladigan novdadan to'qilgan, o'rtasiga charm tasmalar tortilgan oyoq kiyimi. Yana ov anjomlari: miltiq pashtara, o'q-dori, chaqmoq, g'azvol; ozuqalar: har biri ikki-uch kilodan keladigan ikkita yog'li ko'moch, tuz, suvdon, shuningdek, pichoq-armoq va kiyim-boshlar ko'zdan kechirildi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Tog'a – sersoqol, pahlavon kelbat odam ikki tizzasi orasiga mahkam qistirgancha g'azvolning uzilgan qatimlarini yamash bilan band edi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).*

G'ILJAYMOQ 1 *G'ururlanmoq. Daho odam tirsagidan ushladi. – Artist o'z nomi o'zi bilan artist, xa, artist! – deya g'iljaydi. – Men shoir! Eshityapsizmi, shoir! Men – fazoga intilgan inson! Men – ona-tabiatni ko'z qorachig'iday asrab-avaylaguvchi posbon! (Tog'ay Murod, Momo yer qo'shig'i). Yeyish-ichish gadosi, tutun chiqqan joyda hozir-u nozir, qishloqda otning qashqasiday taniqli to'da Do'stboyni har kuni navbat-*

dagi xonadonga sudraguday olib borishar, bechora soldatning ming qarshiliklari, aroq lim-lim piyolani tutishganida ko'ngli aynib, yuzini chetga burishlarini birgina "udumimiz shu" degan sirli jumla bilan yengishar, "uy egasini xafa qilmaylik, odamgarchilikdan chiqmaylik, o'zbekchilikni unutmaylik", deyishib, dasturxonga falonchiga qaraganda ko'proq aroq qo'yganidan g'ururlanib, **g'iljayib** o'tirgan mezbonga ishora qilishardi. (Abduqayum Yo'ldosh, Biz bo'lmagan joylarda...) **2.** Toliqmoq, bo'sharmoq. *Alqissa, ne-ne ilinjlar bilan yo'l tortgan ikki o'rtoq o'shanda och qoringa ustma-ust ichgan-u g'iljayib bir chetda e'tiborsiz qolib ketgan, so'ngra murod hosil bo'lmay – na biror ma'nili gap eshitib, na bir narsaga erishib, chayqala-chayqala shaharga qaytgan.* (Erkin A'zam, Shovqin). *Suzilib, g'iljaygan mezbon to'kis yozg'irdi. Uchinchi shisha yarimlaganida ichidagini to'kdi: – To'g'ri aytasan, jo'ra! Kim qo'yibdi menga kino yozishni... lekin upa-elik surish bilan ertaga ishonib bo'lmaydi-ku!* (Anvar Suyunov, Tomosha).

G'ILMINDI Xamirni yupqa qilib yoyib, qizdirilgan qozonda pishirib olinadigan, ustiga saryog' surib iste'mol qilinadigan taom. *Nurbibi otasi va Pirman kaltaning oldiga dasturxon yozdi, uydan olib kelgan bir tovoq g'ilmindini qo'ydi.* (Hamid Alp, Zuryod). "O'ziyam zerikib o'turuvdim. Kiraver. Salimaning qoratoylog'imisan... Kir. Nimaga muncha timirskilanasan?.. Chiq supaga. Ma, **g'ilmindi**, ye. Hozirgilar **g'ilmindini** qayerdanam biladi... (Qo'chqor Norqobil, Bu yerlarda hayot boshqacha).

G'IRRA Keskin, shartta. *U Norjonning yig'idan bo'g'riqqan yuziga nigoh tashlab bir zum turdi-da, nimanidir angladi shekilli, g'irra burilib, qaytib ketdi.* (Fayzulla Salayev, To'lov).

G'IYQILDI (Xorazm) G'iyqillagan ovoz. *Ikkinchi esa, Bo'ron bobolar hovlisining yon tomonida aylanib, suv shopirib turgan ikki chig'iring g'iyqildisi va kimningdir chig'ir aylantirayotgan otga nisbatan "chuv" degan dashnomi eshitilib qoladi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

G'ISHSHA G'isha; savag'ich o'simligi. *Gulxan qilamiz, g'ishsha qamishni yoqib, atrofida isinib o'tiramiz.* (Ahmad A'zam, Tugmachagul). *Erka akam bir necha joyini sardo'z bilan chandib, chiptasifat to'qilgan*

g'ishsha o'ramini bir arava qilib olib keldi. (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

G'ICHMOLA (Heliotropium) Mayda binafsharang gullari to'pgulga yig'ilgan, gullari va barglari quyosh harakatiga qarab buriladigan, uzoq vaqt gullaydigan ko'p yillik yarim buta. *O'zbekiston "Qizil kitobi"ga (2012) kiritilgan 50 ga yaqin tur o'simlik qo'riqxonada tarqalgan. Bularga zarafshon parpisi, cho'ziq pupanak, Bobrov astragali, Butkov astragali, yonbargchali astragal, Komarov astragali, Qashqadaryo astragali, Boysun oksitropisi, Buxoro g'ichmolasi... karraklarning bir qancha turlari misol bo'ladi.* (Xo'jamqulov B.E., Eshonqulov E.Y. Hisor davlat qo'riqxonasi bixilma-xillikni asrashdagi ahamiyati).

G'UJALA Noma'lum, mavhum, chalkash, mujmal. – *E-e, g'ujala qilmay aniqroq gapiring-da, aka! – oraga hamishagidek suqma qoshiqday so'qildi Nizomiddin. – Kimni ko'mamiz deyapsiz?* (Asad Dilmurod, Kun-suluv). – *Yaramaslar bir vagon narsa so'rashyapti-ya! – Ja g'ujala qildingiz, aka!..* (Asad Dilmurod, Oq ajdar sayyorasi). *Hozir irimiga sim qoqib ishora bersa kifoya, Alivoy Salim darhol o'pkasini qo'litiqlab yetib keladi, agar qadri yuqori vaqtini qizg'ansa, gapni g'ujala qilmay huzuriga chorlaydi-da, behisob kitob-u daftar, gazeta-yu jurnal taxlamlari to'ldirgan shinam va ko'rkam xonayi xosida jami sarxil taomni hozirlaydi...* (Asad Dilmurod, Rang va mehvar).

G'UJUR Or. *O'z vaqtida hazrat Navoiy g'ujuri, ori kelib, turkiy tilning nufuzini ko'tarmoqqa bel bog'lagan va "Xamsa"ni yaratgan edi. Ibrat shulki, har ishni g'ujuri bor odam bajaradi.* (Shodmonqul Salom, Akrom Malikning g'ujuri). – *Ha, durust! – Eshqul polvon uning vajohatiga e'tibor ham bermadi. – G'ujurdan ozgina bo'lsa-da bor ekan! Men shuyam yo'qmikan senda deb o'ylagandim!* (Normurod Norqobilov, Dasht-u dalalarda).

G'UJURLI Oriyatli. **G'ujurli**, o'z tili, adabiyoti, qo'yingki, elini suygan Akrom Malikdek olimlarimiz, ijodkorlarimiz ko'paysin. (Shodmonqul Salom, Akrom Malikning g'ujuri). *Juvon ko'zlarida yosh bilan uni og'ushladi, Pirman g'ujurli yigit, tirsillagan siynalari ko'kragiga tekkanida ko'ngli juda sust ketgan bo'lsayam, oriyati yo'l qo'ymadimi,*

Maynagulni o'zidan nari itarib, oshxonadan chiqib ketdi... (Hamid Elxon, Maynagul).

G'ULG'ULI (Farg'ona) Kurka. – *Parrandadan tovusdayam toj bo'ladu. Keyin, g'ulg'ulidayam...* (Iqbol Mirzo, Zarb).

G'UMBARAK Chambarak. *Atrofi yam-yashil maysazor, ko'p qirrali qizil ipak chodir yuqoriroqdagi tepalikdan qaralsa, ko'k baxmal choyshabga qizil g'umbarak gul tikilgandek ko'rinadi.* (Mannop Egamberdiyev, Satriq ajdar hamlasi). *Ulardan (olma yog'ochlaridan) cho'pqoshiq, cho'ptovoq, so'rilarga g'umbarak, panjara yasarkan, – dedi usta Meyli.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

G'UMBARAK Chambarak. *Atrofi yam-yashil maysazor, ko'p qirrali qizil ipak chodir yuqoriroqdagi tepalikdan qaralsa, ko'k baxmal choyshabga qizil g'umbarak gul tikilgandek ko'rinadi.* (Mannop Egamberdiyev, Satriq ajdar hamlasi). *Ulardan (olma yog'ochlaridan) cho'pqoshiq, cho'ptovoq, so'rilarga g'umbarak, panjara yasarkan, – dedi usta Meyli.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

G'UPPA Tig'iz, zich. *Tilla ko'za ichida g'uppa go'za, yor-yor, yangi kelgan yangajon, Tutmang ro'za, yor-yor.* (“Oy oldida bir yulduz...”)

G'URG'ULDAK Tog' qushi. *Tog'ning ko'rki Burg'uldak, Chax-chax sayrar bulbuldak Osmo qilib suvtolga, In qurmoqda G'urg'uldak.* (Tursunboy Adashboyev, Sanoch soy).

G'URUMOT *Men to'rroqqa o'tdim, chunki tashqari vaximali g'urumotga aylangan, tinimsiz chaqayotgan qora bulutlarni yalt-yult tilimlardi.* (Hamid Alp, Tog' elining tabobati).

G'OJARI To'qilgan, patsiz, taqir (gilam). *Yashin esa boshini to'lg'agancha havoni hidlab kishnar edi. Davangir yigitlardan biri ustiga g'ojari digilni solib ustidan taroqi xurjunni tashladi-da, abjirlik bilan beliga mindi. Yo'lga tushdilar.* (Hamid Elxon, Xapamat). *Ilonlarning badanlari rangdor, baayni g'ojari gilamning naqshlariday go'zal, ko'zlari odatdan tashqari yaltirar, og'izlarini ochib bir-birlarini yalab yulqashar, go'yo g'ajishayotgandek qattiq vishillashardi. Keyin har ikkisi o'lib qolgandek ajriqqa cho'zilishdi.* (Hamid Elxon, Ayol va ilon). – *Mana bunga tugging o'rovni, Oynaxol boybicha, bunisiga tegmang, – deya, Ravshanning enasi*

yerga yozmoqchi bo'layotgan **g'ojari** gilamni oldi. (Hamid Alp, Zuryod). Mamaraim mayyitning ustiga yopilgan duxobani ko'tardi, tol tobutning ustida **g'ojari** gilamga o'ralgan marhuma bir tutam qizg'aldoqdek bo'lib yotardi. (Jamila Ergasheva, Zulfizar).

G'ORG'ONAQ Yovvoyi tog' bodomi. *Bir tasavvur qiling: osmondan to'kilgan yulduzlar Yerko'prik bo'yidagi **g'org'onaq**, bodomcha shoxlarida munchoqday tiziladi.* (Olim Toshboyev, "Men zo'r shoir bo'lmoqchi edim...").

G'OVUSH Makka, jo'xori poyasi. *Yoqit momo birdan tutoqib ketdi: – Kim to'q? O'sha oyog'i yengil kelin to'qmi? Durust, hozir to'qchilik, lekin tomorqa yeriga **g'ovushdan** boshqa narsa ekishni bilmagan odam to'q bo'lar ekanmi? Bir tup olmaning mevasiga bir mashina **g'ovush** beradi bozorda!* (Komil Avaz, Yoqut momo). *Ko'ryapsizmi, bozorda **g'ovush**, jo'xori va beda singari ozuqalarning narxi tushgan.* (Abdulla Sobirov, Sulaymon Shoning fermer nevarasi). *Fermadagi mollar uchun **g'ovush** ekishga ham hojat yo'q. Demak, paxtani qayta ekmoq kerak!* (Aminboy Vapoyev, Xotiramda jonlangan umr).

G'ONGI Qurt boqiladigan so'kichakka solinadigan uch qismi. **G'ongi** molga o't, chiqindisi yerga oziq. (Adham Damin, Hayot va o'lim).

G'O'DIRTOSH Katta, g'adir-budir tosh. *Elomon **g'o'dirtosh** qo'yilgan burchakni cho'kichda kovlashga tushdi.* (Olim Jumaboyev, Gulkari).

G'O'DOLOQ Do'mboq. *Darvesh to'la to'q, **g'o'doloqqina** bola, tayoq tegib og'rigan yerini siypaladi.* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo'rqadigan odam). – *Hamma narsaning vaqtida bo'lgani yaxshi, – dedi past bo'yli, choponiga zo'rg'a sig'ib turgan **g'o'doloqqina**, ikki chakkasi qip-qizil odam.* (Shuhrat Matkarim, Sabrinaning ko'zlari).

G'O'JALA q. **g'ujala**. *Hutning na qishga, na bahorga o'xshaydigan **g'o'jala** havosiga hayratlanib, Obolimga yaqinlasharkanman, o'sha kunni batafsil xotirladim.* (Anvar Suyun, Solin yo'li). *Enasini emsin, shu bir parcha yerni deb Nabi kattaning oldida **g'o'jala** bo'lib o'tiribman-a. Bekor bordim. Bekor bordim. Bekor bordimmi-a? Bekorga bormadim...*" (Qo'chqor Norqobil, Yurakdagi yuk). *Allomalarning ulug' fikrlari ayolga u kutganchalik ta'sir qilmadi. Aksincha, ensasi qotdi. Na o'kinch, na*

ta'naligini bilib bo'lmaydigan g'o'jala ma'no akslandi chehrasida. (Abdusaid Ko'chimov, Binafsha).

G'O'LIN Turshak. *Gurung nihoyalayverib, ivitilgan g'o'lin kela-di. Hammalarining ishtahalari yana karnay bo'ladi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Bir kuni ustoz Said Ahmadga "Turshak so'zi aslida tursh ma'nosini anglatadi, bizda o'tgan asrning 60-70-yillarida oq, sho'r uzumdan shinni-qiyom qilishar, uni turshak deyishardi. O'rikning quritilgani esa g'o'lin yoki o'rikqoqi deyiladi" dedim. "Bo'lsa bordir, hozir uning ma'nosi o'zgarib ketgan, - dedi ustoz. – Endi, hech bo'lmasa, qolgan so'z boyligimizni asrab-avaylasak ham katta gap".* (Nodir Normatov, Buyuk xazina mo'jizalari).

G'O'RASHA Pishib yetilmagan meva. *Tutlar esa har zarbada dud-dud to'kilaradi. Pishganlariyam... g'o'rashalariyam...* (Nabijon Najmidinov, Enatut).

G'O'RIM Tosh-soy ichlarida u yer-bu yerda qolgan yolg'iz tosh; tog'tepasidan qulab tushgan toshlar uyumi, qurum. *Tor daralar orasidan ko'z yoshiday silkigan buloq suvlari pastdagi g'o'rim toshlarga yetar-yetmas singib ketadi.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a). *Burgut undan qolgan nishonalarni g'o'rimga tashlab yubordi, tumshug'idagi qon va shilimshiq go'sht yuqini patlariga artdi.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a).

SH

SHABGIR Qorong'ida ko'chada yuradigan, kezadigan (odam). *Bu ayolni Toji shabgir ham deyishardilar. Uning qorong'i zim-ziyo kechalar-da, butun qishloq uyqu og'ushida orom olayotgan paytlarda ko'chalarda daydib yuradigan odati bor edi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

SHAHTOSH Cho'qqisimon, qirrali tosh. *Bu yo'lning pasti bir necha terak keladigan zov va yo'lning yuqorisi esa qattiq shahtoshlardan tuzilgan, usti notekis, odam o'tolmaydigan darajada tilingani sababli juda murakkablashgan relyef (manzara) hosil qilgan.* (Orif Sodiqov, Tog'dagi sarguzashtlar). *Shunday dahshatli yonbag'irlik ustida onda-sonda kichki-*

na cho‘qqiga o‘xshagan **shahtoshlar**, tabiat ta‘siriga qarshilik ko‘rsatib ko‘kragini kerib turadi. (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar). U ikkita jundan eshilgan yo‘g‘on arqon uchini cho‘qqi **shahtoshga** bog‘lab, boshqa uchini beliga o‘rab, sekin-sekin bo‘shatib uning yordami bilan eshak oldiga tushdi. (Orif Sodiqov, Tog‘dagi sarguzashtlar).

SHAKIRDAK Hiqildoq, bo‘g‘iz. *Abdulla domla ham hokimning gapi rost emish, deb RayONOning shakirdagidan olg‘on ekan-da.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

SHALOYIM Quvnoq, hazilkash, qiziqchi. *Ustaxonaning ajralmas mijozlaridan va Maxsumning kulgilariga nishon bo‘ladigan shaloyimlaridan biri – Jabbor rais edi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SHALOYIMLIK Qiziqchilik, hazilkashlik. *Nonushtadan so‘ng Jovli aka keldi. O‘ziga xos shaloyimlik bilan domlanning jig‘iga tegmoqchi bo‘ldi u: – Ey, Norqul aka. Yigit odamga oyoq ovriviyam gap bo‘ldimiyey. Shunday kunda yurmaysizmi, gursullab.* (Shodmonqul Salom, Bahorgi majlislar). *Biroz nafas rostdashga to‘g‘ri kelganda, doim xursand yuradigan Xudoyberdi shaloyimlik qilar edi: – Ha, Abdilaziz, yaqin orada choting buncha terlamagan edi, bu kecha kelinga nima javob aytasan?* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SHAMAK Boshhoqdoshlarga mansub bir yillik begona o‘t. *Ajriqlar, shamaklar, pechaklar, takasoqollar, oqboshlar, kelinsupurgilar mol yeydigan bo‘lib yetilgan payt.* (Oydin Hojiyeva, Muborak). *Tog‘a ellik qadamcha narida dunyolarni unutib shamak o‘rardi.* (Ulug‘bek Hamdam, Olisdagi Dilnura). *Yulduzlar g‘ujur-g‘ujur o‘ynardi. Seryulduz osmonga tikilib, bedazorda yotgim keldi. Ariq chetida shamaklar bo‘y cho‘zgandi.* (Azamat Qorjovov, Sariq yaproqlar).

SHAMXOL Pilta miltiq. *Bir vaqtlar shamxolning yonari yonmay, pistaday o‘qni otishga qiynalib, turish-turmushi tutab ketishiga guvohi bo‘lganda, piston-piltalarning holiga kulgandi.* (Bahodir Qobul, Ota chiroq).

SHANGIL (Xorazm) Palov solishga mo‘ljallanib, suvqovoqdan yasalgan idish; krujka. *Tabiatan unda [Xo‘jiyoyoz buvada] qiziq odatlar bor edi. To‘ydan keyin o‘zi uchun shangilga palov solib olardi.* (Matyoqub

Qo‘shjonov, Dagish). *Indamasdan oshxona tarafga qarab yurdim. Shan-gilda suv obchiqar ekanman, hovlining eshigi ochilib Xadicha xolaning qorasi ko‘rindi.* (Go‘zaloy Matyoqubova, Shaharlik kelin).

SHAPPOT Kaft. “Voh”, *deb yerga cho‘zilsam, urdi shappoti bilan, Ko‘p haqoratlar qilurdi men g‘arib-u lolni.* (G‘afur G‘ulom, Kampirimning hiylasi). **Shappot urmoq** Tarsaki tushirmoq. *Alband bu so‘zni eshitib: mengo rahmi keldi, o‘xshaydi, deb Najabga yuzini o‘girdi. Najab shuni kutib turg‘on erdi, Albandning har yuziga bittadan shappot urdi.* “Oshiqnoma”.

SHAPPOTDAY Kaftday. *Quyosh tushmasligi uchun ustalariga bo‘z matolar yopilgan qator rastalardagi Patrakning shirmoyi patirlari, Yangariqning tilyorar gurvaklari, olaxommalari, Pishkanik, Qiyotning anorlari-yu Sayotning shappotday-shappotday anjirlari, ...sarxil meva-chevalardan taralayotgan turfa iforlardan odamning boshi aylanadi.* (Komil Avaz, Sozanda). *O‘z yo‘lim o‘zimga qorong‘u edi, Men o‘z etagimga qo‘limni artib, Paypaslab, birovlar etagin tutdim. Keyin, ko‘zim asta ko‘nikib, ko‘rsam Men mahkam bu yerda tutgan etakning Qo‘limda qolibdi shappotday joyi.* (Murod Ibrohim, O‘lchov).

SHARDOZ Jundan pishiq yigirilgan ip. *Shu ketganimcha Chimqishloqqa borib, Karim kaptarbozdan to‘rtta kaptar, pishiq yigirilgan o‘n qulochcha shardoz va kichik bir bo‘lak eskiroq to‘r oldim.* (Soyim, Is‘hoq, Osmon ustuni). *Temir xalajidan Ters o‘tgan momo, Qurbaqaning butiga shardoz boylab ber endi, Yig‘layapman... Yog‘li-yog‘li ilik chakib ber endi.* (Eshqobil Shukur, Aruz). *Shugina Shermatdan nima umid qilasan, deydigan odam yo‘q. Bo‘yni shardozdaygina bo‘lib bosh irg‘aydi. Beshiktebratarday chayqaladi.* (Qo‘chqor Norqobil, Yer yorilmadi). *Mana men birovning shardoziga ko‘z olaytirganim yo‘q.* (G‘ozi Rahmon, Ko‘chki).

SHARDO‘Z q. **shardoz.** *Novdalar bir quloch-yarim quloch kesiladi-da, yonma-yon qo‘yilib, yo‘g‘on shardo‘z bilan ikki-uch-to‘rt joyidan to‘qiladi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SHARRAK 1. Sharshara. *Machitni kun chiqaridan kelib Kichik sharrakda terakzorlar oralab o‘zini soyaga oladi.* (Bahodir Qobul, Oy yo‘li). 2. Ariqdan suv olish uchun ariqqa o‘rnatiladigan, toldan yo‘nil-

gan tarnov. *Shu ariqning sakirtma bir joyiga sharrak... o'rnatilgan edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Hademay sharraklardagi muzlar ko'chdi, jilg'alarni qor suvlari to'ldirdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Tursunboy suv sharqillab turgan ariqdagi sharrak bo'yiga olib boriladi, bo'yniga lungi (uning o'rnida belbog'dan foydalaniladi) solinadi, ariqdan kaftda suv olinib, bosh obdon ishqay boshlanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Yana kimlarnidir hovli supirayotgani, darvoza oldida besh-oltita xotinning suhbatlashayotgani, qizlarning sharrak oldida suvga navbat kutib qaldirg'ochlarday tizilib o'tirgani ham yaqqol ko'zga tashlanadi.* (Sanjar Tursun, Avgustning so'nggi shomi).

SHATRAMA 1 Sho'x, bezori. *Sinfda hamon mavhum bir sukunat hukm surar va u tag'in andak davom etguday bo'lsa, shatramaroq do'stlarimdan birortasi "piq" etib kulib yuborishi yoki hazil-mutoyibami, nozikroq askiyami qilishi turgan gap edi.* (Nusrat Rahmat, Buni hayot debdilar). *Gap ohangidan shu narsa ayon bo'ldiki, shoir vatan haqida berilib she'r o'qiyotganda, bu shatrama peshonasini mo'ljalga olib, pomidor bilan tushiribdi.* (Nusrat Rahmat, Fojia). 2. Shallaqi, janjalkash. *Ha, bir shatrama xotini bor, Bobili, asli oti Asolatmi, Asilami, hammaning esidan chiqib ketgan, shuning baqirishlari bilan ham ishi yo'q.* (Ahmad A'zam, Quroq).

SHAYTONKELMAS (*Eryngium bieberstenium* Nevski) Soyabonguldoshlar oilasiga mansub, sug'oriladigan yerlar, vohalarda o'sadigan, ko'k gulli bir yillik o't. *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochaqirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkovush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

SHAYTONKAVUSH q. **shaytonkosa.** *Bahorda rang (qorabosh), shaytonkavush, lola va lolaqizg'aldoqlar o'sadi. Chirchiq daryosining qayirlarida yovvoyi hayvonlardan quyon, suv kalamushi, sichqon, g'oz, o'rdak, qirg'ovul, loyxo'rak, so'fito'rg'ay, suvilonlar, ondatra mavjud.* (O'zME). *Jarko'cha yoqasida bo'yniga dor osmagan qolmaydi. Bo'riguldan tortib pochaqirqar, dilikaptar, ilonquyruq, arslonquyruq, itbodom, itog'iz, ittovon, lattatikan, otquloq, shaytonkelmas, shaytonkavush, chaqamig'-u eshakmiyagacha.* (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

SHAYTONKOSA (*Hyoscyamus*) Tomatdoshlar oilasiga mansub bir yillik va ikki yillik, qo‘llansa hidli va zaharli, barglari dori-darmon tayyorlashda qo‘llanadigan o‘simlik; mingdevona. “*Shaytonkavush*” degan, bir kunlar chapdast ustalar o‘yinchoq-kavush to‘qigan yoki “*shaytonkosa*” degan, kishini devona qiladigan o‘tlar nomi-yu, ularning o‘zini ham bu kun ehtimol, birov bilib, birov bilmaydi. (Omon Muxtor, Shayton arava).

SHASHIR q. **tulkiqyruq**. Bu joylar unumdor tuproqli yerlardan iborat bo‘lib, turli o‘simliklar, jumladan, lola va lolaqizg‘aldoq, qo‘ng‘irbosh va oq kavrak, bug‘doyiq va chalov, **shashir** va yaproq o‘sadi. (Normurod Norqobilov, Tog‘dagi ko‘pkari).

SHEROLG‘IN (*Artemisia dracunculus* L.) Murakkabguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 40–130 (150) sm keladigan, daryo sohillarida, ariq bo‘ylarida, zax yerlarda o‘sadigan ko‘p yillik o‘t; tarxun. **Sherolg‘inning** gullab turgan yuqori qismi va barglari tarkibida efir moyi, karotin, S vitamini, oz miqdorda alkaloidlar va boshqalar bor. (O‘zME). **Sherolg‘indan** Kavkaz xalqlari sevimli ziravor o‘simlik sifatida foydalanadilar. Ular bu o‘simlikni tarxun nomi bilan turli ovqatlar tayyorlashda foydalanadilar. (Q.Haydarov, Q.Hojimatov, O‘zbekiston o‘simliklari).

SHEVAR Tog‘da o‘sadigan o‘simlik. ...yaylovlarda **shevar**, gannimak, yovvoyi yo‘ng‘ichqa, annuz, chayir, ajriq, alqor, avg‘on kabi tog‘ o‘tlari tabiiy ravishda, yomg‘ir bilan unib chiqadi va saraton chillasi-ning o‘rtasida pishib yetiladi. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). Na **shevar** bor, na yo‘ng‘ichqa. Ozgina qabzantirib olsam devdim. (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SHIBAMOQ Shimarmoq. Murodxon: “Bunga chini bilan urinmasam bo‘lmaydi”, – deb bilagini **shibanib**, etagini qaytarib, abjir bo‘lib, burniga tiklab, haligi kaptarga qarab: – Qachon chiqar ekan? – deb turdi. (“Murodxon” dostoni).

SHIBAG‘A (Iqon) Ulush. *Sohibkorman, ardoqliman, mo‘l ulushlik, shibag‘alik, yashil bog‘lar, toshqin soylar..* (Mirtemir, Baxt qo‘shig‘i).

SHIGIRIN Oshlangan teri. *Ko‘nchilar qayish, saxtiyon, shigir-in* tayyorlab vofurushlarga ulgurji, yoki poyafzal tikadigan kosiblarga chakana sotadilar. (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

SHILIMSHIQURT Shilliqqurt. *Qaynonasi chopib kelyapti. Xuddi biron narsasini yo‘qotgan odamday, chopib kelyapti. Yuzida badanga o‘rmlayotgan shilimshiqqurt kabi, asabni qitiqlaydigan, “jilmayish”.* (Dadaxon Nuriy, Begona).

SHILLAK Oyoqning to‘piqdan yuqorigi ingichka qismi. – *Mahsini ki-yishingdan oldin o‘ng oyog‘ingni shillagiga boylab qo‘y.* (Bahodir Qobul, Bog‘dagul).

SHIMILDIRIQ Burun kovagida hosil bo‘lgan qotmagan shilimshiq, mishiq. *Mauzer Soatovich: O‘zimizda yuz minglab ishsizlar yuribdi salanglab, ittifoq tasarrufidagi korxonani quradi-da, yigirma ming-o‘ttiz ming “mutaxassis” olib keladi. Qurgan zavodi respublikaga shimildiriq ham bermaydi.* (O‘tkir Hoshimov, Tushda kechgan umrlar). *Aslida “qip-qizil kommunist” bo‘lib o‘tgan Nazar raisdan shimildiriq ham qolmagan.* (G‘ozi Rahmon, Oqibat so‘qmog‘ida).

SHINARG‘A Mo‘l-ko‘l, shig‘a. *Meva-cheva kam bitadigan, poliz mahsulotlari pishib ulgurmaydigan tog‘ sharoitida gilos, o‘rik, undan keyin qaroli, yong‘oq yetilgan bir-ikki oy shinarg‘a bo‘ladigan kunlar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

SHIPRINDI Axlat, chiqindi; supurindi. *Mana marmar yo‘lakni bir tarafinda – shiprindilar yillardan beri to‘dalanib yotibdur.* (Behbudiy, Tanlangan asarlar). *Ko‘zga g‘ubor chekmasa shiprindi – qo‘qim, O‘zin tulpor bilmasa qirchang‘i – so‘qim. Baxmaldan bichishmasa eshakka to‘qim, Qaniydi...* (Mirtemir, Dunyo bir soz qo‘shiqdan zavq ololsaydi).

SHIRA Endigina bosh tortgan, ammo doni qotmagan jaydari arpa. *To‘ri do‘nan O‘rol boboning qistovi bilan uch yil uloqqa qo‘shilmadi, boquv ham ko‘rmadi, sobutilmadi ham. Faqat saratonda shira yedi.* (Hamid Alp, Zuryod).

SHIRDINGLAMOQ Olifalik qilib yurmoq. – *Ah-ha, san‘atchi! – deb zahargina iljaydi. – O‘zim ham aytdim: nega bunaqa shirdinglab yuribdi deb. Bu galstuk, shlyapalar... “KPZ” da bir san‘atingizni ko‘rsatasiz endi... (Ahmad A‘zam, Qatag‘on yili). Sizda vijdon bo‘lsa, bunaqa shirdinglab yurarmidingiz? Xalq erta-yu kech mehnatning tagida yotgan pay-*

tda oyoqni ho'lga teg'izmay bunaqa olifta yurish uchun vijdonni yutgan bo'lishi kerak odam... (Ahmad A'zam, Qatag'on yili).

SHIRDON Kapasimon o'yib, tuproq bilan ko'milgan somon. Kerak paytda ochilib, chorvaga yediriladi. *Dalaning u yer-bu yerida dikkayib turgan shirdonlardan birini ochdi va yirik somonlarni bir chetga sersalab tashlab, maydasini erinmay eladi.* (Soyim, Is'hoq, Osmon ustuni).

SHIRDOQ Kigiz gilam. *Rismat bobo o'tovda Qamchi o'rib o'tirar. Ikki kampir shirdoqqa Guldan nusxa ko'chirar.* (Tursunboy Adashboyev, Ko'nglim o'sar tog'dayin).

SHIRINCHA Streptokokklar va stafilokokklar qo'zg'atadigan, asosan yosh bolalarda uchraydigan terining yuqumli yiringli kasalligi; sachratqi, impetigo. *Bu o'tdan [oq sergashdan] tayyorlangan preparatlar bolalarda uchraydigan shirincha va diatezlar mahalida ancha yaxshi naf beradi.* (Karimov V.A., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar).

SHIRMOY q. **moybaliq.** ...kimdir tok bilan baliq ovlashni ko'rib kelgan, uni boshqalar ham o'rgangan, shu bilan baliqqa qiron kelgan, **shirmoy** bechoralar oppoq qorni bilan chappa oqib qolaverar ekan, shuni olaman deb bu yoqda o'zi suvga sim tiqqani esida yo'qlar... (Ahmad A'zam. Quuroq).

SHIRMOYBALIQ q. **moybaliq.** *Agar chashma suvi oqib daryoga qo'shilsa, moybaliqlar ham anhor baliqlariga qo'shilib-chatishib mazali shirmoybaliqlar dunyoga keladi.* (G'ozil Rahmon, Shukuhli karvon). *Suhbatlardan tag'in shu narsa ayon bo'ldiki, bog'ning yonboshida katta buloq bo'lgan ekan. Uning ichida shirmoybaliqlar g'uj-g'uj bo'lib yurisharkan.* (Nusrat Rahmat, Buni hayot debdilar).

SHIRRIQ Ozg'in, tirriq. *Bakovullar bir shirriq qo'ziga tashlasangiz, og'zini to'ldirib: "Falon eldan falonchiboyning pistonchi laqabli oti bilan shu elning pismadonchi chavandozi kattakon qo'chqorga tashladi!" deb aytadi.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

SHIRG'AM q. **shirg'ay.** *Pokdomon, farishtali bu kampir besh o'g'il, uch qizni to'kis tarbiyalab voyaga yetkazgan, bolalari esli-hushli, ko'zmunchoqning donasidek shirg'am edi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SHIRG‘ANAK (Surxondaryo) Chakanda; jirg‘anak. *Endi yoshlarga yalpiz choy, qulupnay choy, rayhonchoy, shirg‘anak choy, do‘lana choy, na‘matak choy, oltin ildiz choyi, mug‘ulchoy, qalmiq choy, qozoqi choy... deb aytsangiz, ajablanib kulib qo‘yishadi.* (Akram Aminov, Turkona choylar)

SHIRG‘AY Silliq. *O‘ziga kelib olgach o‘sib ketgan soqol-mo‘ylovini tartibga solib, “shirga‘y”gina bo‘lib oldi.* (Soyim Is‘hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

SHITTAXO‘R Sodda. *Biz bir-birimizni yaxshi ko‘rar, onam ham ko‘pincha shuni o‘ylar, lekin baribir o‘zligiga boraverar, kelinining g‘irt shittaxo‘r qishloqi bo‘lishini xohlardi.* (Sobir O‘nar, Shaffof manzil). *Mag‘firat... Eshboy sariqning katalakdek zax bosgan uyida tug‘ilib, dumalab-dumalab katta bo‘lgan shittaxo‘rgina bir qiz.* (Sobir O‘nar, Farishta).

SHIVAR Buloq va chashma atrofidagi maysazor. *Tayog‘imni qo‘lga olib, “Milmil Aziz”ning o‘tib bo‘lmas toshloqlarini bosib o‘tib, bir soat deganda shivarda mollarimni o‘tlab yurganini ko‘rib, ko‘nglim taskin topdi.* (Isak Sattorov, Boshsiz miroxo‘r). *Inson zoti borishi qiyin bo‘lmasa-da, odamlar, hatto hayvonlar ham shivar, tog‘olcha shoxidagi uzum vayishida lim-lim pishgan uzum, tim qora marvariddek yetilib pishgan tog‘olchadan terib yeyishga yuragi dov bermaydi.* (Isak Sattorov, Vahimali chashma).

SHIYPINGLATMOQ Likillatmoq. *Yilqilar allaqachon shamolgohda davra qurishgan – boshlarini to‘lg‘ab, dumlarini shiypinglatgan chivin qo‘rishar, etak shamolning qo‘zg‘alishini sabr-toqat bilan kutishardi.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a).

SHISHAK Ikki yashar qo‘y, echki. *Bizga shovuloq bermadinglar. – Kim bermadi? – To‘yxonadagi kattalaring. – Nima olishni istaysizlar? – Shishak taka, zo‘ridan bo‘lsin. – Yana nima?* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi).

SHIG‘IR (Xorazm) Arava izi. *Uyga poyi piyoda kimsasiz shig‘ir yo‘ldan yurib kelardi. Shig‘ir yo‘li arava g‘ildiraklari ezgan ikki qator so‘qmoq.* (Xosiyat Rajabova, Kampirning tilagi ijobat bo‘lmadi).

SHOBIR Soya, ko'lanka. *Ot olib jo'nadi shunday falakka, Shobiri bilinmay yashinday oqib, Qattiq ketdi Tog'ay, ko'nglin xushladi.* ("Murodxon"). *Yana bir shobir paydo bo'ldi. Rustam qarasa, "enasi" kelayotir.* ("Rustamxon").

SHOLPAR Jundan to'qilgan mato. *Otash ketoman deydi Poyiz (poyingizga) yotoman deydi ichiga sholpar yuklab Anjon (Andijonga) ketoman deydi.* "Shoda-shoda marvarid". *Anvar Nigor oyim, Ra'no va o'ziga kiyimliklar sotib oldi. Nigor oyim sholpar, Ra'no atlas kiydilar.* (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon).

SHOXA Panshaxa. – *Pirmanboy, keling, to'rt shoxa tashlab bering, – dedi [O'rol bobo] xirmoni yonida qo'llarini ortiga qilib turgan Pirman kaltaga qarab.* (Hamid Alp, Zuryod). *Ko'plarning qo'lida yog'och shoxa, gavron, kamdan-kam odamda miltiq, yo ham pilta bilan ishlaydi...* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Kaltak yoki shoxa ko'tarib chiqib, yoqalashish fojea ekanini sezgan toshqo'rg'onliklar jahllarini ichga yutib, jim turadilar.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Shamol qo'zg'alishi bilan shoxalab-shoxalab otib, don somondan ajratiladi, g'alvirda elanib, chig'illar bilan o'lchanib, xaltalarga joylanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Er-u xotin yerdan o't chiqdimi chalg'i-yu o'roq, xaskash-u shoxa olib, xashakka tushadi.* (G'ozirahmon, Ko'chki).

SHOVULOQ Kuyovnavkarlar tomonidan qiz tomon yigitlariga beriladigan ziyofat. *Bizga shovuloq bermadinglar. – Kim bermadi? – To'yxonadagi kattalaring. – Nima olishni istaysilar? – Shishak taka, zo'ridan bo'lsin. – Yana nima? (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi). – Ha, juvonmargla, shovuloq uchun ham shunday qilishadimi? – dedi kampirlardan biri.* (Nurali Qobul, Tubsiz osmon).

SHONGLOQ (Xorazm) Shamol kirishi mumkin bo'lgan tirqish. *"Shit" etgan tovush kiradigan shongloq qolmadi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

SHUKRONA Oila a'zosi armiya, haj va boshqa biror uzoq safardan qaytgach elga beriladigan osh, sadaqa. – *Ey, ota bo'may keting-ey, armiyadan burun... Ketar ziyofatidayoq ichgandi-ku... Kelgan kuni shukronada ham ichdi sinfdoshlari bilan...* (Fayzulla Salayev, Ota o'rni).

SHUTTIK (Xorazm) *q. toshchiroq. Aksariyat jorlarda shuttik, to'g'rirog'i, toshchiroq ko'p tarqalgan bo'lardi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

SHUVAR *q. shivar. Echkilarni choshkaylik qilib sog'adigan mahalda mergan Oxurlik daraning kindigidan qamchi o'rimiday chiqib turgan chashma bo'yidagi shuvarga yetib kelib eshakdan tushdi.* (G'ozil Rahmon, Langar lavhalari). *Echkilarini "choshkaylik" qilib sog'adigan mahalda mergan Oxurlik daraning kindigidan qamchi o'rimiday chiqib turgan chashma bo'ynidagi shuvarga yetib kelib eshakdan tushdi.* (G'ozil Rahmon, Rahmon mergan).

SHUVILLAK Loydan yasalgan puflab chalinadigan cholg'u asbobi. *Shuvillagim shuvillar, Ovozi guv-guvillar. Tovushidan olar tin Olis-yaqin ovullar.* (Hol Muhammad Hasan, Shuvillak). *Qiliqsizniki qirq qarich deb shuni aytсалar kerak-da, temir-tersak ichida moyga botib, shuvillatib shuvillak chalgandan ko'ra o'zingni qaratsang o'lasanmi, bo'yning uzilgur! O'zingdiyam, boshqalariyam ovorayi jahon etib nima qilasan, ko'kayimni quritib, ko'ktomirimni chiritdi-ya, bu go'rso'xta.* (Qo'chqor Norqobil, Osmon ostidagi sir).

SHO'LA: Qushbegi bilan sho'la yemaydi. Hech kimni mensimaydi, ma'nosida. *Ko'nglinga iliqlik baxsh etgan Xurram turmushga chiqib ketgan. Garang cholning qizi, uning otini xam bilmayman, "qushbegi bilan sho'la yemaydi".* (Marziya Qalandarova, Ko'ngil izhori).

SHO'LQILDATMOQ (Xorazm) Burnini tortmoq. *Mana, ozgina shamoldan ham yana burnimni sho'lqildatib o'tiribman.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

SHO'LTIQ (Xorazm) Qurigan, suvi qochgan (meva). *Lekin mana, bularning birisi ham yo'q, o'zim so'ligan sho'lتيق uzumga o'xshab o'tiribman. Uning, sho'lتيق uzum haqidagi gapi, albatta, sal bo'rttirilgan edi. U hali ham tar va toza edi, ko'rsa ko'z, quchsa quchoq quvonardi.* (Shuhrat Matkarim, Indamas).

SHO'RISH 1. Azobli, achchiq. *Kampir yetmishlarga borgan, cho'pday ozg'in, iyagi ertaklardagi yalmog'iz kampirning iyagiday oldga turtib chiqqan, lablari hayotning sho'rish azoblarini tatib ko'raverganidan*

tirishib-burishib qolganday so'lg'in va quruq... (Zulfiya Qurolboy qizi, Kuygan shahar). 2. Ko'rgilik. Xullas, chekka qishloqda ulg'aygan yigitlar bu sho'rishni angrayib, garangtob qabul qilganlari aniq, chunki insoniyat boshiga tushgan bu ko'rgilikning chinakam ko'lamini katta-katta siyosatdonlar ham dastlab to'la tasavvur qila olmagan tarixdan ma'lum. (Hakim Sattoriy, Sog'inch). Bu sho'rishning ta'siri keyingi maqsadlarni belgilashda, voqealarni idrok etishda va, albatta, imkoniyatlarni baholashda aks etdi... (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

SHO'RLOQ (Xorazm) Sho'r bosgan yer. – *Ha, bog'landim. Hali-zamon kepqolar... Yayov kelishadi. "UAZik" sho'rloqdan o'tolmaydi bugun... (Fayzulla Salayev, Ota o'rni). Ana shu davrda bir davlat, bir jamiyatda bizning serquyosh yurtimizda mehnatkash xalqimiz bir qarich yerni ham bo'sh qoldirmay, qumniyam, ko'lniyam, sho'rloq yerniyam ishlab, hosildor yerga aylantirish niyatida ter to'kardi. (Aminboy Vapoyev, Xotiramda jonlangan o'tmish).*

SHO'RG'ALAMOQ Tomchilamoq. *Bunday qaragam, oynada, ne ko'z bilan ko'rayki, salla-sovut-qalqonda o'zim turibman, boshim yalang, salla yo'qolib qoldi, peshanamning manavi yerida bir enli, qip-qizil qoni sho'rg'alab turgan jarohat – qilichning izi! Ahmad A'zam, Asqartog' tomonlarda. Nechukdir shunaqa tasavvur qilaman: ko'pchilik qizlarday ho'ngrab yig'lashini ko'z oldimga keltira olmayman: tishini tishiga bosib, biror narsaga ko'zlarini o'qdek qadab, shu holicha yoshi sho'rg'alab yig'lasa kerak. (Sobir O'nar, Intizor). Burnimdan suvim, ko'zimdan yoshim sho'rg'alab qabristongacha shu alpozda qoqinib-surinib bordim, tobutga yelka talash ayotganlardan kimdir meni suyab oldi. (Sobir O'nar, Chambilbelning oydalasi).*

SHO'TANOQ Hazilkash. *O'roq vaqti O'rtacho'l dashtida bobom ishdan charchab pichanga bosh qo'yib uxlab yotsa, sho'tanoq jo'ralaridan biri o'lik buzoqboshni ipga boylab, bo'yniga osib qo'yibdi. (Sobir O'nar, Otamzamon hangomalari).*

SHO'TQARI Hazilkash. *Endi o'sha bir so'm bo'lmagandan keyin iloj qancha, sho'tqari emasman-u, lekin shaytonlik qilganimni tan olaman. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). Barno menga yoqib*

goldi. Faylasufona fikrlar yuritishdan tashqari, u anchayin **sho‘tqari** va jur’atli edi. (Nusrat Rahmat, Oq kalamushlar). [Samad Davronov:] – Shahardagi mehmonxonaga deyarli bormasdik, bormasdik. Ba’zan shiyponga kelardim-da, qorovul chol bilan gurunglashib yotardim. Nuriddin bobo edi otlari, juda **sho‘tqari** edilar. (Orziqul Ergashev, Oqdaryo, Qoradaryo).

CH

CHAGALANG (Xorazm) Qumli. Dastlab Cho‘bolonchi qishlog‘ida bandargoh-pristan qurmoqchi bo‘lishganida, u hudud **chagalang** yumshoq yer bo‘lgan. Qolaversa dagish olib qishloqni suv bosgan. (Umid Bekmuhammad, Daryo bo‘yidagi bandargoh).

CHAKANA Qishloq otari. Saroy sezdi, egasi bu kech judayam dilgir. Kuni kecha tog‘da mol egalari navbat qilib boqadigan **chakana** qo‘y-echki otariga bo‘ri oralab, besh-oltitasini yeb ketgan. (G‘ozi Rahmon, Tepalikdagi uy). – Qo‘yingni qo‘shadigan suruv qolmagani alam qilayotgandir? Odamlar qatori sen ham **chakanaga** ber! (Nurali Qobul, Sangzor).

CHAKACHANDIR Pishiq, puxta, oriq bo‘lsa-da kuchli. Tili osilgan **chakachandir** yo‘l: haliqib, toliqib, chaynaydi so‘lug‘... (Ikrom Otamurod).

CHAKIDA (Xorazm) Suzma. Sherip tochkaning ham vaqti xush bo‘lib elating do‘ndiqchasi Sanni Sanobarning yoniga borib, xuddi shamolda silkinayotgan **chakida** xaltaday bilanglab o‘ynardi. (Salomat Vafo, Sherip tochka).

CHAKIL Tosh qoyalar. Tik balandlikka ko‘tarilib qir usti bilan Yayloqchaga, keyin Shovuz cho‘qqisining o‘ng tomoni bilan **chakil** oralab yurilsa, Samarqand viloyatiga boradigan yo‘l qarshingizdan chiqadi. (Isak Sattorov, Vahimali chashma). Shimol tarafimizda **chakil**, ya‘ni osmono‘par qoyalar archazorlarga borib taqaladi. (Isak Sattorov, Oshiqlar maskani).

CHAKKI Suzma. Sut qaymog‘i olinmasdan qatiq qilib ivitiladi. Qatiq sizdirilib, **chakki** (suzma)ga aylantiriladi. (Hakim Sattoriy, Shahodat). Ayranni **chakki** xaltaga solib, suvini chakillatib qo‘yadi. (Xosiyat Rajabova, Kampirning tilagi ijobat bo‘lmadi).

CHAKLAMOQ Taqsimlamoq. *Oldin losh ovchilarning soniga qarab chaklangan, chaklashda hamma muchadan qo'yilgan.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHAKMA Kashta turi, naqsh. *Zar sim chakma qilingan buxori kovush kiydirib, qaynonasini yurgizib ko'rdirdi.* (Nodir Normatov, Jazo). *Yigirmanchi zinadan keyin uzun – o'rdaning eni qadar bir bo'lak boshlanib, uning o'ng-so'lini o'n chog'liq buxori chakma eshiklar ziynatlagan edilar.* (Abdulla Qodiriy, Mehrobdan chayon).

CHALPAKPAZON Qo'sh chiqar mahali o'tkaziladigan marosim. – *Og'aynila-ar, chalpapakzondan qolmanglaro-ov!.. – deya Ergash kalta bo'g'riqib, bo'yin tomirlari qabarib qiyqiradi.* (Shoyim Bo'tayev, Kunbotardagi bog').

CHALQOR Katta, keng. *Qor mag'zida karvon-karvon Paxta ko'rdim qorday oppoq, Soy-soy suvdek, chalqor qo'ldek Po'rtana bor to'shagida.* (Mirtemir).

CHALOB Ayron. – *Shukr, Mayram xolajon. So'riga chiqing. Chalob qilib qo'yibman. Muzdekkina.* (Norto'xta Qilich, Jumboq). *U bolaga ko'z qirini tashlab, oshxonada kuymanib yurgan keliniga qisqagina qilib, chalob, dedi-da, tag'in ishida davom etdi.* (Normurod Norqobilov, Oriyat). *Kampir tayyorlagan korson tovoqdagi chalobni bir ko'tarishda yarimlatib simirdi, qolganiga non to'g'rab, yog'och qoshiqni tovoqqa soldi.* (Qo'chqor Norqobil, Yurakdagi yuk).

CHALOV Palov turi. *Xoljonbika o'z "qarindoshinikiga" kelsa darhol qozonlar qaynagan, patirlar yopilgan, chalovlar pishirilgan bo'lar.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm). [*Qori Ishkamba*] *Men avvallar har kecha-kunduzda necha bor qazi-qo'zi, kabob, palov, chalov, manti va chuchvaralar kabi ovqatlar yerdim.* (Sadridin Ayniy, Sudxo'rning o'limi).

CHANDISHMA (Andijon) Askiya. *Elchi Yao Din-xan Dovonning martabali beklari orasidan o'rin olgandi. U goh arg'umoqlarni, goh musallasni, goh ma'nosiga yetmagan bo'lsa ham chandishmani maqtardi.* (Mannop Egamberdiyev, Sariq ajdar hamlası).

CHANTAYMOQ Kerilmoq. – *"Kim haydaganda na moshinni?" Hovva, endi munga kim haydaganining ham farqi qolmabdi. Galiningning*

chantayishini qara! O'zi aytar edim-ov, shu tutishing bo'lsa bir kunmas bu kun boshingga chiqib oladi, deb. (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

CHANTOG'LAMOQ Tirnamoq, chandiqlamoq. *Baytlaringiz goh guldirlar, goh xanjar, Goh palaxmon, dushman boshlarin yanchar. Yov mard bo'lsa, ko'ksingga shart tig' sanchar, Nomardlar oq yuzingni chantog'lar ko'p.* (Matnazar Abdulhakim).

CHAPAL Chevar. *Jumagul shunday tez to'qir ediki, dugonasi uning ketidan ulgurolmasdi: – Chiqon, muncha chapalsan,– deb qo'yardi.* (Jumaniyoz Sharipov, Xorazm).

CHAPAR Zarang shoxlaridan ko'ndalang-tikka to'qilgan, xirmonga qo'shilgan ho'kizlarga tirkaladigan moslama. *Usta Parda bola faqir yangito'shak, tag'in charchab qolmasin, deb chapar yasab bergandi.* (Hamid Elxon, Maynagul).

CHAQA Go'dak, chaqaloq. *Chaqa faryodidan yetti chinorning yetmish tomiri zirqillaydi...* (G'ozirahmon, Enabuloq).

CHAQCHIG'AY Qarchig'ay. *Bir-biriga gal bermay, Sayrar mayna, chaqchig'ay.* (Tursunboy Adashboyev, Arqitda).

CHARA Tog'ora. – *Inagingiz tug'dimi? – Yo'q, qisir qolganmi, deb qo'rqaman. – Charadakkina yelini bor edi-ku.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHARANA Qo'zi, uloq. *Qolaversa, har kim ham tomog'idan orttirib, charanani chorigacha olib chiqolmaydi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHAQIL Mayda toshli yer. *Hamma joyda chaqil, ya'ni oftob birinchi tushadigan yer bo'lardi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Chaqil taraflar, devor zihlari selgidi, poyabzalga loy ilashtirmay yurish mumkin bo'ldi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHAQIMTOSH Bolalar o'yini. *Endi ular oqsuyak, chillak, oq terakmi-ko'k terak, lanka; qizlar mohmak, chaqimtosh o'ynamayaptilar.* (Sobir O'nar, Bolalik bahorlari).

CHARNOVUQ Ombir. *Tishlab turar eding Vatanni mahkam, Charnovuq labingni yirardi nuqul.* (Eshqobil Shukur, Hamal ayvoni). *Bag'rimni changallab yuldi charnovuq, O bag'ri shamolim, chiltorim charnar.* (Eshqobil Shukur, Oraliqlarda).

CHARTAK Chorak. *Bobom ham qorinni to‘qlagach, odatdagidek onam damlagan achchiqqina choyni chartak qildi.* (Gulnoz Mamarasulova, Shahardan kelgan tashvish).

CHARXILON (Echis) Uzunligi 80 sm gacha bo‘lgan, qora ilonlar oilasiga mansub ilonlar urug‘i; efa. (Tanasining ikki yonidagi tangachalari qirrasida tishchalari bo‘ladi. Charxilonlar tanasini halqa qilib o‘raganida tangachalar ishqalanishi natijasida charx toshi aylanishiga o‘xshash tovush chiqadi (nomi shundan). *Bo‘g‘ma ilon, ko‘ndalang-targ‘il chipor ilon, o‘qilon, charxilonlar buralib-suralib, shuvillashib izg‘ishadi yoki nimalarnidir poylagani-poylagan.* (Azim Suyun, Sahro o‘rtasida to‘ntarilib yotgan toshbaqa). *Qum charxiloni zaharli bo‘lib, chaqsa ancha xavf vujudga keladi, ba‘zan o‘limga olib kelishi ham mumkin.* (Alibekov L.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi).

CHATIQ (Xorazm) Bog‘liq. *Javharning bir tomoni Siddiqjonlarga chatiq edi. Ham sinfdosh edilar.* (Shuhrat Matkarim, Sabrinaning ko‘zlari). *Shahar kichkina. Hammaning keti-boshi chatiq. Bir-birovni yaxshi biladi.* (Shuhrat Matkarim, Xavf).

CHAVAG‘ON Chavandoz. *Chavag‘on charxlangan o‘roq bilan qi-yaliklarni, ariq roshlarini, butalar orasini o‘tdan tozalaydi, u har o‘roq sirpaganida, maysalar itoatgo‘ylik bilan bosh egib kelaveradilar, o‘ti o‘rilgan yer yaltirab qolaveradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Ko‘chkini ayvon chetida kuzatgan chavag‘on maydalangan archa payraxalarini bilagiga qisib, ichkariga kirganda, xotini jo‘layib qaradi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHAVRA O‘simlikdan hosil bo‘lgan devor; izgorod. *Bir kuni katta tanaffusda ikkala sinf bolalari aralashib futbol o‘ynayotsak, yettinchida o‘qiydigan olako‘z bolaga to‘polonimiz yoqmay, so‘kinganicha kelib to‘pimizni oldi-da, maktab yaqinidagi hovlining chavra devoridan oshirib tepib yubordi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). *Bir kuni ertalab, kechasi yugur-yugurdan holi, tiniqib uxlaganman, yengil turib, havo olgani xiyobonga chiqdim, odamning belidan keladigan chavra to‘siqlarni oralab borib, qalin bog‘ga kirdim, shox-shabba tilib ketmasin deb, betimni*

qo‘lim bilan panalab yurib borib, bog‘hovlining devoriga taqalib qoldim. (Ahmad A‘zam, Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar).

CHAYPALMOQ Chaplashmoq. *Jasadning cho‘ntagi tintib ko‘rilganda ikki enlik qog‘oz topildi. Bu jinoyatchi va qotilning iziga tushishimiz uchun muhim hujjat hisoblanardi. Qog‘oz namiqib, yozuvlari **chaypalib** ketgandi.* (Olimjon Dolimov, Is‘hoqjon Nishonov, Tergovchi xotiralari). *Juvozim qaylarda sinib yo‘qoldi, Davilim devolda osilib qoldi. Yorimnan ayrildim bugun, yoronlar, Paraxat turmushim nega **chaypaldi**?* (Safo Ochil, Yorimnan ayrildim).

CHACHA Ot tuyoqlarining teparog‘idan o‘sib chiqqan soch, yolcha. *Chachasi uzun ot zotli bo‘lar.* (Maqol). *Ot **chachasi** uzunligi – o‘ziga zarar.* (Maqol).

CHACHALA Sochqi. *Ammalar [Oyto‘lg‘onning] boshidan **chachala**: tangalar, shirinliklar, ro‘molchalar sochishardi, xotin-xalaj, bola-baqra qiy-chuv ko‘tarib ularni oyoqlari ostidan terishardi.* (Hamid Alp, Norkallaning uylanishi). – *Kelinim o‘g‘il tug‘di, deb qo‘ni-qo‘shnilarga **chachala** berishimni, siz choyxonaga chiqib, bir osh buyurtirishni, “Haqberdi buva” bo‘lishni xohlamaysizmi? – dedi bir paytlar kulcha yuziga yarashib turuvchi kulgichlarini o‘ynatib.* (Xoliyor Safarov, To‘ti Momo).

CHAG‘ALDOQ (Xorazm) Chag‘alay. *Chag‘aldoq qanotlarini yozib suv ustida aylanar, biror hasharotni ko‘rib qolgudek bo‘lsa, kiftini qisib pastga sho‘ng‘ir, nimanidir tumshug‘i bilan ilib olib ovini hazm qilish uchun doirani kengroq olib uchar, xiyol vaqt o‘tgach, yana kelardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

CHAG‘AT Oftobga qaragan chag‘irtoshli tik tog‘ yonbag‘ri. *Qanot yoyib, o‘mganlarini **chag‘ot**ning mayda tosh-qumlariga bulashdi. Kichkina tugmachaday ko‘zlarini suzib-suzib oromlashdi.* (Azim Suyun, Nevvaralarim uchun). *Kattasoydan boshlanib, qishloqni qoq ikkiga bo‘lib ilon izidek buralib, naqd Kattatog‘ga borib qadaladigan yo‘l aslida yog‘insochin ko‘p bo‘lganda **chag‘at**-u o‘ngir, hovli-yu hayotlardan yig‘iladigan sel-u selovani soyga quyadigan jar.* (Bahodir Qobul, Ko‘klam so‘ngidagi jala). *Esirgap bir **chag‘at** joydan uy solgan ekan, otlarimizgayam*

joy tegmay, duch kelgan joyga bog'lab ichkariga kirdik. (Sobir O'nar, Aka-ukalar).

CHAG'IRTUT Donasi mayda tut. *Tutning ham turi ko'p ekan. Beda-natut, marvartak tut, hashaki tut, **chag'irtut**. (Ohunjon Hakim, Cho'chqa mingan chavandozlar).*

CHANGTUTUN Mayda oq qo'ziqorin. *Ana u yong'oqday va tuxum-day oppoq qo'ziqorinlarning nomi "**changtutun**", quriganda bossangiz ichidagi tutunga o'xshab chang chiqar ekan... (G'ofur Jo'rayev, Yuring, tog'ga chiqaylik!)*

CHEGAN Poliz ekinlarini xarid oldidan pishgan-pishmaganligi, ma-za-ta'mini bilish uchun yonidan uchburchak yoki to'rtburchak shaklida o'yib olinadigan kichik bo'lak. *Shunqorbek bu gal indayolmadi. Muzaffar handalaklardan birini uchburchak qilib cheganladi va mag'zini laganga qirqib olib, po'chog'ini **chegan** o'rniga joylab qo'ydi. (Soyim Is'hoq, Qa-brdan chiqqan qul).*

CHEKANAK Pechka mo'risining tirsaksimon qismi. – *Shaharga tushaman. Bitta etik oladiganman. Keyin pechkaga **chekanak** ham. – Mo'riligi bor ekanmi? – Ha, ikkita **chekanak** opkelsam bo'ldi. Sizni mashinaga solvoraman. (Ma'mura Zohidova, Boychechak).*

CHEKKAGIR (Qashqadaryo) To'dakash halol ayirib chiqqan uloqni ilib ketish uchun chetda poylab turadigan chavandoz. *Qahrim qo'zigan-dan qo'zidi. Tarlonni Samad chavandozga berdim. O'zim Samadning **chektagir** ko'k samanini mindim. To'da girdini poylab yurdim. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom). *Sergak bo'l, **Chektagir** shoqollar ziyrak, Bo'g'zinga chang solar paytini topib. (Jontemir, Darvesh qo'shiqlari). **Chektagir** chavandoz to'da chekkasida gir bo'lib poylab yuradi! Shu sa-babli-da ularni **chektagir** deydilar. O'zlari-da, otlarida chekkaga o'rgan-gan bo'ladi. (Tog'ay Murod, Ot kishnagan oqshom).**

CHEKCHI Pattachi. *Bozordan chiqarishda **chekchilarga** elini tush-untira olmay rosa ovora bo'libdi. (Anvar Suyun, Solin yo'li).*

CHEL (Qarnoq) Ekin maydonlari orasidagi chegara, uvat. *Shamol tog'a: – Oldin o'tni o'rib tashla. Keyin, huv bog'ning etagida o'rik qu-lab yotibdi, shuni sarjinlab, uyga tashib qo'yasan. Ungacha o'ting ham*

quriydi. Bog‘lab, **chelga** chiqarib ol. Suvda qolmasin. (Sa‘dulla Siyoyev, Saratonda qor yog‘di).

CHEPKAN Sof jundan to‘qilgan to‘n. *U (Xudoyor) sotib olganiga hali ikki oy ham to‘lmagan “Yava” mataseklini o‘t oldirayotganda rahmatli qaynotasidan qolgan chepkanni olib chiqqan Uldonoy: – Boshqa kun borsangiz bo‘lmaydimi? Kunning sovuqligini qarang. Matoseklda shamollab-pamollab qolmang tag‘in, – degan edi.* (Eshqobil Shukur, Oqibat oqshomi).

CHERTA Asfaltga bir va ikki xonali kataklar chizib, bir va ikki oyoqlab sakrab o‘ynaladigan qizlar o‘yini. *Bahor kelishi bilan bolalar tol novdalaridan hushtak yasashar, qizlar bo‘lsa bargak taqib, daraxt soyasida cherta o‘ynashardi.* (O‘tkir Hoshimov, Hoshimov, Hurkitilgan tush). *Osmon charog‘on, quyosh charaqlar, kamqatnov asfalt ko‘chaning o‘rtasida qizaloqlar cherta o‘ynashardi.* (O‘tkir Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

CHERTAK (Xorazm) Bostirma, ayvon. *O‘sha yilning yozida otam imorat solish uchun tayyorgarlikni boshlab yubordi. Imorat o‘rniga eski uyimiz oldidagi chertak (naves) tanlandi.* (Aminboy Vapoyev, Xotiramda jonlangan o‘tmish). *Xullas, yangi rusumdagi mashina tepasiga chertak o‘rnatildi.* (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo‘rdoqi).

CHE(R)TIK *q. pochaqirqar. Tog‘larga oshsak, Do‘lana, chetik. Qirga yondoshsak, Yigitday tetik.* (Mirtemir, Ov).

CHERTKI Barmoq bilan berilgan zarb. *Uning chertkisiga qo‘li bo‘sh qaytganlar yuzini ikkala kafti bilan yashirib, chidab berishi kerak.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar). – *Men hozir boshmaldog‘im bilan ko‘rsatkich barmog‘imni ko‘tarib, chertki ovozi chiqaraman, – dedi u.* (Isajon Sulton, Bir tomosha tarixi).

CHERCHI (Xorazm) Attor. – *Ana yaxshi bo‘ldi, cherchi (attor) buva ham keldi, oladigan narsalarim bor edi, – deb, opam o‘rnidan turdi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

CHETGIR *q. chekkagir. [Shukur buvam] Ko‘pkarida chetgirligi bilan dong qozongan. To‘dadan uloqni olib chiqqan chavandoz uning o‘ljasiga aylangan.* (O‘roz Haydar, Bug‘doyzor oralagan so‘qmoqlar).

Shunda deng, ikki tarafdin ikki chetgir chavandoz ta'qib qila boshladi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

CHECHA (Surxondaryo) Yanga. *Orada Xolcha checha kirib bo'sag'aga cho'kkaladi. (Hamid Elxon, Maynagul).*

CHIBARAK (G'allaorol) Rang-barang; kelinning sepi. *Chibarak to'zar, toy o'zar. (Maqol).*

CHIBICH Olti oylik, bolalamagan urg'ochi echki. *Odil polvon qishloq o'tog'asilarini chaqirib, qoni qaynab kelgan qadrdon qudasining izzati uchun qo'rada qaqshab turgan birgina chibichini so'yib, qon chiqazib ziyofat ustida dedi... (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy). – Biz tomonlarga shuytib kelmasangiz, boshqa payt qadam bosmay qo'yuvdingiz. Qani, Obloqul o'zimizning qo'radan bitta chibich ushla. Bu kishilar Tuyoqlining do'kay chavandozlari. Durustroq qo'noq qilmasak, gapning tagida qolamiz. (Anvar Suyun, Solin yo'li).*

CHIGI Mayda, kichik. *Tog'da qo'y boqish har holda qiyin. Tog'-u toshga chiqishing, tushishing, uloqqan chigi, kal echkini deb qirma-qir yurishingga to'g'ri kelishi tabiiy. (Bahodir Qobul, Oqdala). Bola tugul chigi uloq tog'ga o'rmalasa xabar topib, orqasidan borib surishtiradigan Shirinqul tog'begi supani ko'rgim kelib, hayhotdek sayhonda ota izi yo'llardan yolg'iz yurganimga hech narsa deyoilmaydi. (Bahodir Qobul, Ena shamol).*

CHIGIN (Xorazm) Kurmak. – *Aminboy aka pixillab kuldi. - Yotsa yotaversin, – dedi Hoji buva. – Yaxshi-ku! Sizlarga anavi narsalar bor... "Sholining orqasidan chigin suv ichibdi", deganlariday, biz tovuqdan olib turaberardik. – Mut bo'lsa bular kirpini ham butun yutadilar! (Shuhrat Matkarim, Xavf).*

CHIGIRMOQ Yigirmoq. *Yigit og'asi Qurbonboy polvon, belidagn kulrang belbog'ini yechib oldi-da, uni chigirib darra yasay boshladi. (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).*

CHIGMOQ (Andijon) Tugmoq. *Beka mendan gap so'rab o'tirmadi, kalishini shalpillatib borib, manavi yer yutgur ham o'lmay tursin-chi, deya, oyoqlari arqonda chigib bog'langanicha tandirning yonida po'killab yotgan tulkinning oldiga bir kosa suv, ikki bo'lak qotgan non qo'yib qo'ydi.*

(Anvar Obidjon, Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan?) *Xalqqa qilg'iligini qip ko'yib, o'zi esa dumini **chigib**, qochvorgan poshsolariniyam ko'p eshitganman, ko'rganmanam.* (Abdurahmon Odil, Urush va qismat).

CHIKANAK Kichkina, ammo chaqqon. *U jikkak, chopog'on, chittakdek chaqqon bo'lgani uchun bolalar unga Safar **chikanak** laqabi berishgandi. Safarning zehni tez, xalfa bergan saboqni birpasda yodlab qo'yardi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

CHIKKA (Xorazm) Oshiq suyagining shox tomoni bilan tikka turi-shi. *Oliya: – Iloyo, shamolli kuni uyiga o't tushsin. Go'rida o'mma yotib, **chikka** tursin.* Komil Avaz, Sozanda. *Xullas, endi To'lanboy otaga ishning nima bilan boshlanib, nima bilan yakunlanishi belgili bo'lib qolgan edi. Faqat oshig'ining olchi yo tavka tushishi; yo **chikka**, yo pukka bo'lishi Toshpo'lat o'tog'asiga bog'liq.* (To'ra Sulaymon, Chimildiqqa kirgan chol). *Qanday tushuntirsam... shu, jo'ra, bir vaqtlar institutda o'qib yurganimda, agar kunim tug'ib, baxt qarab, oshig'im **chikka** tursa, boyib ketsam, boyligimdan ko'p emas, qirqdan birini Mahdiga beraman, deb ko'nglimga tukkan edim.* (Ahmad A'zam, Asqartog' tomonlarda).

CHIL Dasht kakligi. ***Chil** dam qo'nib, dam uchib Jamshidlar turgan tepalik etagidan o'tdi.* (Shukur Xolmirzaev, O'n sakkizga kirmagan kim bor).

CHILMAK (Xorazm) *Esimda, to'rtta-beshta bo'yanni biriktirib, shunga sigir ipini **chilmak** qilib bog'lagandim.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

CHIMKASHTA *Biri askar kiyimida, biri esa boshida **chimkashta** do'ppi, ustida bo'z ko'ylak, uzun bo'z ishton, yalangoyoq.* (Nosir Fozi-lov, Shumbolaning nabiralari). *Suluvning yoshi o'n beshda, Yeng, yoqolari **chimkeshta.** Qo'lim uzatsam qunishar, Qarchig'aydan hurkkan qushday.* (Hol Muhammad Hasan, Sibiziq).

CHIMLIK Chimli yer. *U (O'rolboy) barakatoshni supurilgan **chimlikka** qo'ydi, arpani g'alvirga olib elay boshladi.* (Hamid Alp, Zuryod).

CHIMTOL Maysa unib chiqqan, chimli. *Zarafshonning **chimtoll** yoqalarida Chirqillar yoztovuq polaponlari.* (Oydin Hojiyeva, O'zbekning yozi).

CHIMCHILOQ Jimjiloq. *O'girilsam, ro'paramda kunda kuygan, kelbati otni seskantiradigan, qo'llari qavarib, **chimchiloqlarining** bo'g'inlari yorilgan, ko'rinishidan sodda va samimiy bir kishi kulimsirab turardi.* (Anvar Suyunov, Bir kun ham umr, ming kun ham...).

CHINATOY Jimjiloq. *Tanaffusda tashqari hovlini to'ldirib, o'yinga kirishamiz. Tog'day qalashgan toy-toy paxtalar orasida yashinmachoq o'ynaymiz. O'rta barmoqlarimizni siqishib, do'stlashamiz, ammo bir lahza o'tmasdan, teskari qarab yuz o'giramiz, **chinatoyimizni** uzatib, o'rtoqlikdan chiqamiz.* (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).

CHINACHOQ Jimjiloq. – *Nima-nima? – dedi Bo'ri polvon. – Ukkag'ar Hotam polvon-e! Sizga o'xshaganlarni manavi chinachog'im bilan yiqitaman, ha! Tog'ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi. Qushning juftini yalmog'iz tiriklay yutib chinachog'iga bekitgan bo'ladi.* (Bahodir Qobul. Oy yo'li).

CHINGIRIK (Xorazm) Oq makkajo'xori poyasi. – *Hovva, – dedim men ham mehmonning yana biror narsa deb qo'yishidan qo'rqqandek, – **chingirik** soldim.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish). – ***Chingirikday** uzun, qoqchakka, yuzlari qo'tirga o'xshash yigit dovdirab qoldi.* (Shuhrat Matkarim, Boljon).

CHINGIRIKDAY Ozg'in. *Saksonidan oshib to'qsoniga yaqinlashib qolgan, qari, ikki qo'ltig'idan ikki oqtig'i suyamasa o'rnidan ham tur olmaydigan, qarilik va kasallikdan oriqlab **chingirikday** bo'lib qolgan, og'zi shaloq yezdasi Olloq kal yoki Olloq shlyapa, kimlar uchundir Olloq jalotoy bilan.* (Shuhrat Matkarim, Yubiley). – *Hech gap. U shoir. Laqabi Majnun. Sababi yosh yigit paytidagi sochini o'stirib yurish odatini hali ham tark etmagan. **Chingirikday** oriq. Qishin-yozin qalin kiyinib yuradi.* (Shuhrat Matkarim, Ijodkorlar).

CHINKA Har bir yigit ro'moldan olma olib, qizga otadi va bayt ayta-di, qiz esa unga javob qaytaradi. *U qizlik paytida, kelin bo'lish arafasida **chinka** marosimiga boradi. Udumga ko'ra, bo'lajak kelin dugonalari bilan, kuyov bo'lmish esa jo'ralari bilan hamsoyasinikga gashtakka chiqishadi. U yerda dasturxonga bir ro'mol olma keltiriladi. **Chinka** o'yini boshlanadi.* (Nodir Normatov, Zulayho daraxti).

CHINOQLIK G‘ayirlik. *Shoir esa ularga sharm-u hayo birla insof, chinoqlik o‘rniga inoqlik, qabohat o‘rniga quvnoqlik tilabdi.* (To‘ra Sulaymon, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li el kezadi). [*Samad:*] *Mana, Sotvoldiyevni olaylik, anchayin chinoqliklardan yiroq odam, lekin ba‘zida yoshlar salom bermasa og‘rinadi.* (Murod Muhammad Do‘st, Galatepaga qaytish). *Eh, oltin bolaligim, aziz Chalpaktepam, sendan ulug‘ beshik yo‘q ekan dunyoda. Saodatning, murodning hosili senda ekan. Faqat mengina chinoqlikka boribman.* (Murodxon Burxonov, Ikki tog‘ orasida).

CHIQUON Dugona. *“Chiqonimning uyidayam, ko‘nglidayam dardi yo‘q. Ko‘ngli tinch, xotirjamligi bois uyquyam uni tezgina elita qoldi. Menday yuragini og‘ir yuk bosib turganida, balki hali yana biroz suhbatlashib o‘tirgan bo‘larmidik”, – dugonasining beozorgina uxlayotganiga termilganча havas bilan o‘yladi u.* (Kamil Avaz, Yoqut momo). – *Mana eshit, latifa. – Yana gapni hazilga burdi Elmurod. – Sizlarga o‘xshagan ikki chiqon uchrashib qolibdi. Bittasi erini maqtab, “Mening erim farishta” desa, ikkinchisi esa “uf” tortib, “Mening ham xo‘jayinimga ikki qanot o‘sib chiqdi”, dermish.* (Shuhrat Matkarim, Gapirishga qo‘rqadigan odam).

CHIRILDOQ Qora chigirtka. *Hatto chirildoqlar zerikkanidan O‘zlarin bu kecha parvozza chog‘lar.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). *Tog‘oshar bugun ertalab necha yillardan beri eshitib kelayotgan chirildoq tovuşhini bu yil hisobidan birinchi marta eshitdi.* (Shofiyor Hazrat Ismat, Yovon jonzotlari). *Osmonga qarab yotardi, yulduzlar yorqin, osmon osuda, kecha tinch, hatto chirildoqlar ham uyquga ketgan.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHIRIM Kipriklarning yumilishi. *Shu alpozza tun bo‘yi Chirim qoqqmay chiqadi.* (To‘ra Sulaymon, Xarsang). *Samar shoshilganча ayolni o‘rindiqqa joyladi, yuziga suv urdi, foydasi bo‘lmadi. Qani endi ko‘zi bir chirim etsa, qo‘l-oyoqlarini butkul tashlab yubordi.* (Oyguł Mamatova, Yozuvchi).

CHIRISH q. **chirich.** *Uning aytishicha, yaqinda zog‘ora nonga qorni to‘yganiga dimog‘i chog‘, palakat urush yetaklab kelgan qahatchiligida aka-uka, opa-singillari pishmagan chirishni tomirini yeb qorni shishib*

*uzilishgandan qolgan avlod, inson nomiga sodiq qolganча, kechagi kunini unutib, biri-birin yegudek bo‘lib non tanlashiga qoni qaynarmish. (Bahodir Qobul, Oy yo‘li). Gohida nonim tugab qolsa, **chirishning** tomirini quritaman-da, to‘yib non qilib yeyman... – dedi Nurmon bobo... (Nurali Qobul, Salom, tog‘lar).*

CHIRICH (Eremurus regelii Vved.) Piyozguldoshlar oilasiga mansub, tog‘da o‘sadigan manzarali ko‘p yillik o‘t, shirach. *Siz totumni matardan farq etingiz, Urp turganda **chirichni** tark etingiz. (To‘ra Sulaymon, To‘lg‘onoy).*

CHIRKAY Iskabtopar. *Biroq bu balandlikda unga ozuqa bo‘ladigan chivin-**chirkaylar** qayoqda! Birda-yarim kelib qoladiganiniyam tez-tez esib turuvchi shamollar pastliklarga surib ketadi. (Soyim Is‘hoq, Sadoqat toshi). – Kindik qoning to‘kilgan yerning havosidan huzur qilayotgandir-san? Senlar tomonda kun issiq bo‘ladi, chivin-**chirkaylar** ham g‘o‘j-g‘o‘j deyishadi. Chinorgul rost aytadi. (Tinimboy Nurmugambetov, Chinorgul). Biya ko‘zi atrofida o‘ralashgan chirkaylardan zada, bosh silkib yo‘rg‘alaydi. (Anvar Suyunov, Ikki tong orasi).*

CHITINMOQ Chimirilmoq. *Buvim xafa bo‘lardi: “Mo‘yloving o‘ruslarnikiday, yegan ovqating harom bo‘ladi”, der edi u, kuyinib. Dadam indamas, juda ensasi qotsa, **chitinib** qo‘yar edi. (Zarifa Saidnosirova, Oybegim mening).*

CHITIR (Malcolmia hispada Litv.) Tog‘ yon bag‘irlari, soy bo‘ylari, shuningdek, sug‘oriladigan dalalar va lalmi g‘allazorlarda o‘sadigan, aprel-mayda gullab, urug‘ beradigan begona o‘t. ***Chitir** o‘t ana shu bo‘ldi! Otamiz chitir o‘t terdi. Tomiri bilan sug‘urib-sug‘urib ola berdi. **Chitir** o‘t qo‘l tegishi bilan tag‘in-da o‘tkir is taratdi. Isi dimoqni qitiqladi. (Tog‘ay Murod, Oydinda yurgan odamlar.) Shunday kunlarning birida chinakam quvonchli xabar keldi. Tog‘ga **chitir** o‘rgani boradigan bo‘ldim. Yaqinimizdagi taqir va qo‘ng‘ir tog‘larga emas, undan nari, Chotqol tog‘lariga. (Muhammad Sharif, Mening qirg‘izim). Shamolga betkay yerlarda qor tagidan qurigan shuvoq, **chitir** poyalaridan taralayotgan yoqimli hid bug‘ular dimog‘ini qitiqlay ketdi. (Mengziyo Safarov, Ayrishox).*

CHITOIYI (Xorazm) O‘ziga oro berib yuradigan odam. *Uning bu tez-rav boqishida shoirning chitoyi odamlarga qarata yozgan “Falon” she’ri uning xotirasiga kelgan edi.* (Komil Avaz, Sozanda). *Shohista chitoyi qiz. Bir marta Davlatyor haqida gap boshlagan edi, “nichik bolalarni gapli-ysan-ey!” degan xunobi chiqib.* (Shuhrat Matkarim, Shaydo). *Tanburni mohirlik bilan chalishiga, xushovozligiga, maqomlarimizni mukammal bilishiga gap yo‘q, ammo chitoyiligi, o‘ta nozik tabiatliligi, mayda-chuy-da kir-chirlardan ham qattiq jirkanuvchanligi, xullas antiqa tiynati ham hech bir maromga sig‘maydi.* (Komil Avaz, Sozanda).

CHITRANG‘I (Erysimum) Barglari qator tartibli, tukdor, gullari sar-iq, binafsha yoki oq, qo‘zoq mevali karamdoshlarga mansub bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik o‘t o‘simliklar turkumi. *Chitrang‘i – tibbiyotda yurak xastaliklari kasalliklarida, yurak faoliyatini yaxshilashda, yurak urishini biroz qisqartirishda, qon tomirlarini kengaytirishda, badandagi shishlarni kamaytirishda va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi.* (Odilshoh Bobokalonov, Shifobaxsh o‘simlik nomlarining leksik-semantik xususiyatlari).

CHITTIGUL Moychechak. *Sirlashib, qah-qah urar chittigulga chittigul.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). *Chittigul, chittigul, Etagingga gul bosdim. Qo‘ling qo‘lbog‘da bo‘lsin, Beling belbog‘da bo‘lsin.* “Chittigul”.

CHIYBAXMAL Yo‘l-yo‘l baxmal. *Nusrat baribir hovliqib ketdi, ovqatini apil-tapil yeb oldi-yu, keyin boshiga chiybaxmal kepkasii bostirib, ko‘chaga chiqdi.* (Nodir Normatov, Jazo).

CHIYLAHQ Bezab, chiroyli qilib ifodalamoq (nutq haqida). *Noroy xonadon xizmatlariga jonini tiksa-da, ustomonlik bilan gapni chiylashni bilmaydi. U “to‘q etar” gapni aytib turaveradi...* (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul). *Mana shu hovuzdagi aksni – Yaratganning olamdagi va odamdagi zuhrini tasvirlash, buyuk qudrat va hech qachon to‘la ochilmas ruhoniy sir sari odimlash zavqi barcha san‘at turlari, jumladan, adabiyotdan ham, xuddi rassom ranglarni iylagandek, so‘zni chiylashni, tovlan-tirishni, o‘ynatishni, uning oddiy odam ko‘zidan pinhon rang va ohangini yuzaga chiqarishni talab qiladi.* (Rahmon Qo‘chqor).

CHIYCHI Chegachi. – *Shu desang, shu kunlarda Karim chiychining xotini Davlatbikani Isfandiyor to‘ra Karvon saroyga oldirib, hujra bazmi qilayotgan emish.* (Komil Avaz, Sozanda).

CHIZILLOVUQ q. *chirillovuq. Chizillovuq* kuylab po‘st tashlar, Po‘st tashlar-u bo‘ladi qurbon. (Usmon Azim).

CHIZG‘AMOQ (Xorazm) Shimarmoq. *Shuncha olim tug‘ilgan yurt Nahot, chizg‘ab qo‘lini...* (Omon Matjon). *Birov bizga ish beraman, deb yengini chizg‘ab turgan bo‘lmasa...* (Shuhrat Matkarim, Shaydo).

CHICHOLA Chala yongan o‘tin qoldiqlari. *Bunga qishloq tepasidagi muazzam g‘or bag‘rida makon topgan juda ko‘p tiriklik izlari (mol suyaklari, chicholalar, sopol idish siniqlari...), quyiroqda saqlanib olgan mux parchalari ko‘plab tepaliklardagi qabrlar guvohlik beradilar.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *O‘choq tagidagi chala yongan o‘tin (chilola)lar tortildi, hamma o‘tirgan o‘rnida bir zum pinakka ketdi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHIG‘ 1. Buloq va soy bo‘ylarida o‘sadigan qamish. *Chig‘ keraga balandligicha kesiladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). *Solma eshik chig‘dan to‘qilib ustiga mato tikiladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). **2.** Novdalardan arqon bilan poyondoza o‘xshab to‘qiladigan ashyo. *Kapa deganlari atrofi bo‘lsa chig‘, bo‘lmasa daraxt shoxlari bilan o‘ralgan qo‘ra.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Shuningdek, qurut va mevalarni quritishda chig‘ beminnat dastyor.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHIG‘ANA Ho‘kiz qo‘shib g‘alla tashiladigan g‘ildiraksiz arava. *Ik-kita ho‘kiz qo‘shig‘lik chig‘ana bug‘doy dastalari oralab yurdi. Chanachi panshaxa bilan dastalarni chig‘anaga ortdi.* (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). *G‘allaning buyog‘i o‘rilyapti, buyog‘i chig‘anaga ortilib xirmonjoyga eltib to‘kiladi.* (Hamid Alp, Qo‘nalg‘a).

CHIG‘IL Bug‘doy elaydigan g‘alvir. *Dehqon xirmon ko‘targanda yaxshilab sovuradi, g‘alvir-chig‘il qiladi.* (Oydin Hojiyeva, Yo‘limdagi chiroqlar). *Shunday qilib, bug‘doy chig‘ilning ustida uch kun ko‘karti-riilib, unib chiqqanidan so‘ng sumalak pishirishga kirishiladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash). *Shamol qo‘zg‘alishi bilan shoxalab-shoxalab otib, don somondan ajratiladi, g‘alvirda elanib, chig‘illar bilan o‘lchanib, xaltalarga joylanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHIG‘LIQ Chig‘ nomli qamishdan tayyorlanadigan, qish vaqtlarida o‘tovning ichiga sovuq kirmasligi uchun qo‘yiladigan narsa. *Chig‘liq qish vaqtlarida qora uyning ichiga sovuq kirmasligi uchun qo‘yilgan.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

CHIG‘IR Suv chiqaradigan inshoot. *Bir vaqt qarasa, yo‘lning ustida aravaning digirjagiday, chig‘irning ulli ko‘machiday o‘tlar yonib, goh osmonga chiqib, goh yerga tushib, yana osmonga chiqib alomat bo‘lib turibdi.* (“Gulruh pari” dostoni).

CHIG‘IRO‘Q (Xorazm) Qishloq chig‘irlariga suv yetkazib beruvchi o‘qariq. *Shu sababdan ham ekin-tikinlar yerdan unib, bir qismi pishib ulgurguncha Shovvot suvi ham pastda, qariyb tubida oqar, chig‘iro‘qning suvi ham yerga nisbatan kamida uch-to‘rt gaz pastdan o‘tib, chig‘irlarga suv berardi.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

CHOBIRA Tog‘ etaklarida g‘alla ekiladigan, shuningdek yaylov sifatida foydalaniladigan dala. *Qo‘lidagi zarang xalacho‘pni ko‘rgach, chap-pa burilib tikanzor chobiraga o‘rlapti.* (Hamid Elxon, Maynagul).

CHOBOG‘ON q. **chavag‘on.** *Erta-mertan boshlab ko‘pkarini chobamiz. Bo‘l-ho bo‘l! Otla-a-a-n, qarindosh! Hayda-a-a, gala chobog‘on!* (Behzod Abdusamad, Tog‘ atirguli).

CHOLORQA Chalqancha. *Keyin podachi o‘zini to‘xtatolmay chalqancha, cholorqa yiqildi.* (Bahodir Qobul, Oybuloq, Oynabuloq).

CHOQQI (Xorazm) Qalamtarosh. *[Usta Ro‘zmat] Menga ham yaxshi muomala qilib, o‘rik yog‘ochidan dasta qilingan choqqi [pakki] yasab bergan.* (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

CHOPSON Chaqqon, tez, chopag‘on. *Bir-ikki chopson yigitlar qor yog‘gan kezlarida yaqin adirlardan ham kaklik tutib kelishardi.* (Sobir O‘nar, Lochin). *Chopson otda uloq chopgani uchun emas, elda nomus, or uchun talashgani sabab izzat topadi bilsang. U vaqtda chopag‘on – chopsonlar bir so‘zli bo‘lgan, erligi erkida bo‘lgan. Shundagina ko‘chgan-daraliklar bu ot Bekturdiboyning oti ekanligini bilib qolishadi.* (Dilorom Dilxoh, Oltin tulpor).

CHORATEZ Hamma narsani uddalaydigan. *Hayotning past-u balandi Yoqitday fahm-farosatli, choratez ayolni ham chig'iriqqa qisgan kunlar bo'lgan.* (Kamil Avaz, Yoqut momo).

CHORGUL To'rt yaproqli oddiy gulsimon islmiy naqsh. [*Qosim akamning*] *Boshida chorgul do'ppi.* (Nazir Safarov, Ko'rgan-kechirganlarim).

CHORI To'rt yoshli qo'chqor. *Boyxon esa aralashib, to'yda bor-yo'g' bir qozon osh damlangani, chori qo'chqordan yana bitta so'yilmagani uchun bakovullarni rosa koyidi.* (Hamid Alp, Qo'nalg'a). *O'g'lining qo'lini halolash uchun yoz bo'yi yem berib boqib yurgan chori qo'chqor oxurga tiqilib, nobud bo'libdi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Bir burda non ilinjida yer tirnab yurgan odam uchun chori qo'y katta boylik hisoblanardi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHORQOT Ro'mol. *Boshimda chorqotim junlari ipak, Sening ishing mani qilibdur halak.* "O'zbek xalq qo'shiqlari".

CHORTAK (Xorazm) Chayla. *Shu yerdan eshik ochilib, chortak qurilgandi. Yoz oylarida bu oila ko'proq shu chortak tagida istiqomar qilishars.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

CHORG'ALTAK To'rt g'ildirakli. *Mening qo'llarimni bog'lab, og'zimga latta tiqishib qopga solishayotganlarida, qo'sh ot qo'shilgan chorg'altak aravaga ko'zim tushgan edi.* (Isak Sattorov, Tutash taqdirlar).

CHOT (Xorazm) Daraxtning qurib qolgan sershox butog'i. *Men tisirlar, qo'limga ilgan xas-xashak, chot, cho'p-chorni ilonga otar, biroq u hech narsani pisand etmay menga tobora yaqinlashar edi.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

CHOTMA (Olot) Chayla. *Bir bobo ham qovun ekibdi-da, polizning yonidagi kichkinagina tepalik ustiga chotma (chayla) qurib, shuning soyasida qovunini sho'x bolalardan qo'rimoqchi bo'libdi.* (Mamamtqul Jo'rayev, Manzura Narziqulova, Mif, marosim, folklor).

CHOTMOQ Qamchilamoq. *Oshiqib tog' – daryoga, Otga qamchi chotamiz. Har aziz avliyoga Ta'zim qilib o'tamiz.* (Hol Muhammad Hasan, Maydanak).

CHOVBIR Bolalar qamchilab o‘ynaydigan yog‘och pildiroq. Yechinib, ichkariga kirishsa, ko‘zi **chovbirdek** o‘ynagan, so‘lagini chaynagan ellikta muzbashara davangir qulay fursatni kutib, qorniga yolg‘ondan sovun surtib o‘tiribdi. (Anvar Obidjon, Meshpolvonning sarguzashtlari).

CHOVKAR Qora xolli; chavkar. *Chavandozlaming birisi ko‘k chovkar va ikkinchisi ola otga mingan bahaybat chapani yigitlar edilar.* (Abdulla Qodiriy, Uloqda). *Karvonning o‘rtasida qotma gavdalik, ko‘rkam va oyo yuzli, yuz-ko‘zidan vazmin tabiatligi sezilgan, soch-soqoli oqargan bir kishi og‘ir o‘yga botgan holda ko‘k chovkar ot ustida bir maromda tebranadi.* (Xurshid Davron, Osmonda quyosh yo‘q edi). *Eshon hazratlarining o‘ng tomonlarida chovkar ot mingan bir yigit dini islomiyatning dastasining uchiga yarim oy shakli qo‘ndirilgan ko‘k bayrog‘ini baland ko‘tarib olgan.* (Xudoyberdi To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar).

CHOVLAMOQ Yurishga qiynakmoq. *Bozorga borishda molning oyog‘i bilan yo‘l bosiladi, tezlab ketilsa, semiz qo‘ylar chovlab qoladi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHOVLIQ (Xorazm) Evara. – *Sen ham qarimading, men ham... Hali oqtiq, chovliqlarning to‘ylarini o‘tkazamiz. Yovliqlar ko‘ramiz... (Shuhrat Matkarim, Avval va keyin).* – *Olmaymizmi, deydi, otes! – Olloq otaning sho‘x chovliqlaridan biri qiqirlab kuldi. – Jufti poy topildi sizga! (Shuhrat Matkarim, Yubiley).*

CHOYNAKPO‘SH Choy sovib qolmasligi uchun choynakka kiydiriladigan jild. *Birozdan keyin patnida choynakpo‘sh kiydirilgan to‘rtta choynak keltirib stol ustiga qo‘yib ketishdi. Iyagi silkinadigan bemor anchagina gapdon ekan.* (Said Ahmad, Azroil o‘tgan yo‘llarda). *Xulkar bonu choynakpo‘sh kiydirilgan choynakdan hovuri ko‘tarilibroq qolgan bir piyola choy uzatib yana so‘radi: – Yumushing‘iz o‘ta og‘irmu? (Soyim Is‘hoq, Qabrdan chiqqan qul).*

CHOSHKAYLIK Nonushta, choshgohlik. *Echkilarni choshkaylik qilib sog‘adigan mahalda mergan Oxurlik daraning kindigidan qamchi o‘rimiday chiqib turgan chashma bo‘yidagi shuvarga yetib kelib eshakdan tushdi.* (G‘ozi Rahmon, Langar lavhalari).

CHOSHLAMOQ G'allani xirmon qilib uymoq. *Ikki-uch kunlik shu taxlit mehnatdan so'ng maydalangan xirmon sovurishga mo'ljallab choshlanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch). *Umr hosilin choshlab, ko'rmoq shamolga tashlab, Qancha don, qancha somon yelniki bo'ldi, – demak.* (Hol Muhammad Hasan, Umrqa izoh).

CHOCHIQ Dasturxon. *Qoraqumg'on qaynar, yozilur chochiq, zog'orami, so'kmi, yovg'on yo umoch.* (Mirtemir, Qishlog'im).

CHUBRON [chukburon] Xatna. *Ko'pkari eson-omon tugagach, chubronni boshladilar.* (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHUKRI Ravoch. *Haydar kokulli shamollar Yax cho'qqilarni "yomon"lar. Huchchiga uchar xayollar Chukrilar totin o'g'irlab.* (Hol Muhammad Hasan, Sehr). *Yo'lda archa (4-5 xil), irg'ay, uchqat, padbara kabi daraxtlarga, baldirg'on, chukri, taran (tataron) kabi o'simliklarga duch kelish mumkin.* (Hakim Sattoriy, Hazrat Sohirqiron).

CHUKURI 1 Bozorga ravoch olib chiquvchi tog'lik. *Manavi chukurilar jashashni biladi.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar). **2** Gapirganda "j" o'rnida "y" qo'llaydigan aholi. – *Sen chukuri buzmakor-san.* (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralagan so'qmoqlar).

CHULLIK (Xorazm) Qiltiriq. *Qarang, o'sha mapiyni o'zidan ham zo'rroq bir bandit, xuligan, bosqinchi emas, balki bir ipirisqi, kechqurun bog'ining to'ridagi hojatxonaga yolg'iz borishga qo'rqadigan, shu paytgacha borligini ota-onasi, oilasi, atrofidagi uch-to'rt kishidan bo'lak hech kim bilmaydigan bir chullik bola o'ldirgan.* (Shuhrat Matkarim, Indamas). *Norimboy yalt etib qaraydi. Yana o'sha, ko'zoynakli qiz. Oriqqina. Chullikdin. Sariq yuzi sepkilli.* (Shuhrat Matkarim, Ko'zoynakli qiz).

CHUMAK Tarnovlarda hosil bo'lgan muz, sumalak. *Havo ochiq ufqda kiprik singari turgan teraklar orasidan ko'tarilgan quyoshning nurlari tomlardagi qor, tarnovlardan osilib turgan chumaklar va oyoq ostidagi muzlarda aks etib, ko'zni qamashtirar edi.* (Abdulla Qahhor, Sarob). *Tom ziyida chumaklar Yig'lashib turg'on ekan. Yolg'iz qolg'on chumakni Xudoyim urg'on ekan...* (Bolalar qo'shig'i).

CHUMBOQ Tugun. *Eshigi yo'q, Oq chumboq.* (Topishmoq. Javobi – tuxum).

CHUMDUK (Xorazm) Tumshuq. *Bir kunlik nasiba poyida qushlar Yerga ming bor **chumduk** ursalar sarson. Men kutdim labingdan bir to-tishni zor; So'ng ming yil yashay deb mast-u bearmon.* (Omon Matjon). *Yaltir-yulturga o'ch olahakkaday Archa bezagiga **chumduk** urgan ko'p. Bolaga yot tildan ot tanlab atay Otasin so'zini olmay yurgan ko'p.* (Iqbol Mirzo, Sumlim).

CHUNGUL Dara ichidagi yurish qiyin chuqur joy. *Jimirlan saraton-ning saroniday, Chori cholning unsiz xitobiday, **Chungulning** halqobiday, jimirlar suyak-suyaklarimda – bir og'riq, bir alam...* (Tilak Jo'ra, Munojoti mansur).

CHUQALOQ (Xorazm) Chuqurcha. *Shunda har joyda **chuqaloq** qazib, tuproqning suvini qochiramiz. Keyin sal so'riqqan tuproqni qazi-ymiz.* (Ro'zimboy Hasan, Bir sulola qissasi). *So'ng eski qabriston o'rniga qovun ekiladi; paykalga bostirib suv qo'yiladi, shunda eski qabr o'rinlari o'pirilib, **chuqaloq** bo'lib qoladi...* (Nabijon Boqiy, Xorazmlik olmonlar).

CHURALAY 1. Suv havzalariga yaqin joyda yashaydigan qush. *[Mo'ynoqda] Qushlarning 80 dan ziyod turi (o'rdak, g'oz, qirg'ovul, oqqushlar, birqozon, qo'ton, qoravoy, chag'alay, **churalay** va b.), sut em-izuvchilardan qobon, bo'ri, chiyabo'ri, bo'rsiq, quyonlar bor.* (O'zME). **2.** *Sog'im qo'shig'i. Cho'kayotgan tun, qizargan shafaq, **churalay** aytib, sigir sog'ayotgan suluv ayol, dala uzra yugurib yurgan kuzgi shabada... bular hammasi naqadar uyg'un, naqadar go'zal va betakror ediki, Shamsi Saloh o'zini bu narsalarga yot, begona ekanini his qildi.* (Nazar Eshonqul, Momoqo'shiq).

CHURPA Cho'chqaning bolasi. *Omon bir kuni ovdan quruq qaytdi: Zovboshida bir qobon, bir megajin va o'ntacha **churpani** kamarga qamab chiqishini kutib yotgan edi, tepada geologlarning vertolyoti paydo bo'ldi-da, naq kamar ustiga pasayib shunday shovqin ko'tardi, shamoli joni qattiq archalarni ham titratdiki, qamaldagi cho'chqalar sel bosganday vahimada chiqib, xuddi Omon pisib turgan archa tagiga o'zlarini urdi.* (Shukur Xolmirzayev, Omon ovchining o'limi). – *Hamma gap shunda-da Sovurjon! Bizam shu vaqtgacha kurra desa, eshak, kuchuk desa it, **churpa** desa to'ng'iz deb yuravergan ekanmiz!* (Shuhrat Matkarim, Xavf).

CHURAK (Xorazm) Non. – *Shunday qilgin, qo‘zim, yaxshi gap jon rohati, yomon gap bosh ofati bo‘ladi. Mana senga kichchi churak non, sal turib yegin, qo‘ling kuymasin yana.* (Nodira Yangiboyeva, Aytilmagan qo‘shiqlar).

CHURRIKES Bolalar ikki guruhga bo‘linib, bir guruh mudofaada, ikkinchi guruh hujumda bo‘ladigan bolalar o‘yini. ...*Bu safar churrikes o‘ynaladigan bo‘ldi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch). *Churrikesda mudofaada turganlardan biri boshqa raqibini aylanib chopib o‘tsa, u “o‘lgan” hisoblanadi.* (Hakim Sattoriy, Sog‘inch).

CHUST(IY) DO‘PPI To‘q yashil shoyi yoki satindan 4 karjli qilib tayyorlanadigan, tepasining har bir karjida qalampir nusxa yoki bodom shakli, kizagining har bir karjida 4 tadan mehrob (yarim doira) shaklida kashta bilan sidirg‘a qoplab oq ipda (yoki ipakda) tikiladigan do‘ppi. *Boshimda chust do‘ppi, belimda shohi qiyiq, oyog‘imda nim poshna xrom etik.* (G‘afur G‘ulom, Yodgor). *Bir mahal, ishshayib Hoshimjon kelib qoldi. Oyog‘ida yaltiragan qora tufli, egnida yangi jigarrang shim-u qizg‘ish to‘r ko‘ylak, sochini ustarada qirdirib, boshiga chorqirra chustiy do‘ppini qo‘ndirib olgan.* (Norto‘xta Qilich, Tantana).

CHUVOQ Quyosh nuri. *U yer-bu yerda o‘zini chuvoqda toplab o‘tirgan qari-qartanglar, qiy-chuv bilan o‘ynashayotgan bolakaylar ko‘zga tashlanadi.* (Luqmon Bo‘rixon, Sirli muallim). *Chumolilar chuvoqda yo‘l olar qator-qator, Shunday payt nimani ham tashiydilar iniga.* (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). *Isinib turardim yetim chuvoqda. Bir kuni bir qora ko‘rindi xira.* (Salim Ashur, O‘tinchi qiz).

CHUVVABOSH So‘poq. *Rasm chizaman debmi-ey, nima balolarni o‘ylab, katta shaharda necha yillardan buyon uloqib yurgan To‘xtasin ham chuvvabosh edi!* (Shoyim Bo‘taev, Kunbotardagi bog‘).

CHUYKA Yigirishga mo‘ljallangan paxta yoki jun o‘rami. – *Aylanib ketay Sodat! Sodat deyman. Minda qaragin kelin! Urchig‘ingni uzat bolam. Bo‘sh o‘tirippan! Bekordan Xudoy bezor. Urchiqni uzat. Harna-da bir ikki chuyka juningni yigirib ketay, – deydi ammasi tushmagur.* (Shahodat Ulug‘, Qush begi yoki yarqiroviq tug‘sa, subhidam sovir emish...)

CHUYKALAMOQ Yigirish uchun qo‘y yungini o‘ramoq. *Barchin momo urchuq yigirishdan to‘xtadi, supa chetiga kelib o‘tirgan o‘g‘liga ko‘z ostidan qarab qo‘ydi. Titilib, chuykalangan junni tizzasidan olib, ro‘moliga sola boshladi.* (Nodir Normatov, Guldurak dashtlarida).

CHUCHUKLIK (Jizzax) Shirinlik. *Kichikligimda men chuchuklikka o‘ch edim.* (Nazir Safarov, Ko‘rgan-kechirganlarim).

CHUCHUKMIYA Shirinmiya. *U har qanday dag‘al o‘tni, hatto g‘o‘zapoya, chuchukmiya kabi qattiq xashaklarni kukunga aylantirib beradi.* (Fayzulla Salayev, Yettinchi bo‘rdoqi). *Narsav bittagina chuchukmiyaning ildizidan qanchalar quvvatli dorilar tayyorlagan edi-ya.* (Yangiboy Qo‘chqorov, Etikdo‘zning elchisi).

CHUCHCHA: chuchchasi ko‘tarilmoq. *Burni ko‘tarilmoq. Maktab biz tomonga ko‘chganidan so‘ng “B” sinfdagilarning chuchchasi ko‘tarilib, “A” dagi tengdoshlarimizning hovuri pasaydi, ko‘proq bizning ra‘yimizga qaraydigan bo‘lishdi.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar). *Bundan O‘g‘iloyning yanayam chuchchasi ko‘tarilib, mehmonning chap biqinidan o‘ng biqiniga o‘tib ishqalanadi: – Odamlar to‘g‘risidayam ancha topishmoq bilaman. Aytam maylimi?* (Anvar Obidjon, Jaqqi). *Hajviy hikoyalarga qo‘lim ancha kelib qolganidan chuchcham ko‘tarilib, nasrga ham kengroq ko‘lamda qo‘l ura boshladim.* (Anvar Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar).

CHO‘NQAYMA Mahalliy kurashda qo‘llaniladigan usullardan biri. *Abil tentak cho‘nqaymaga oldi: g‘oyat tezlikda o‘ng qo‘li bilan Bo‘ri polvon yoqasini g‘ijimlab, halqumiga tiqib bordi.* (Tog‘ay Murod, Yulduzlar mangu yonadi). – *Nima? – ajabsinib qaradi u. – Sen bizning xirsday Mo‘minni yiqitdingmi? – Cho‘nqaymadan oldi, ukkog‘ar! – endi xizmatchining g‘azabnok ovozi samimiy havas ohangi ham jilvalandi.* (Bayram Ali, Zulm va nomus). *O‘sha to‘yda, o‘sha Hamdam chavandozning to‘yida, o‘sha Bo‘ri kalingni ikki oyog‘ining orasidan ilon chil berib ildirib oyog‘ini osmondan keltirib, (qo‘llarini havolatib) xuddi charxpalakday qilib boshimdan oshirib shunday yiqitganmanki, beli uzilib ketishiga bir bahya qolgan. Uning polvonligi chepuxa. Bir cho‘nqaymani*

biladi. Pisib, qo'rqib olishadi. Tushundingmi? Menga Bo'ri kalni maqtay-san, nokas. (Qo'chqor Norqobil, Suv ko'rmay etik yechma).

CHO'LAKI Cho'l-dashtda yetishtirilgan. Holbuki, u shundoq Xudoyqulning uyi yaqinidaga tarvuz sotuvchi odamdan, uyum ichidan tan-lab sotib olib ko'tarib kelgan, chamasi, **cho'laki**, selitruga obdon to'ygan qora tarvuz edi bu. (Sobir O'nar, Vijdon).

CHO'LKAM Guruh, firqa. Har bir urug'ning kattalari o'z **cho'lkam**-lari bilan kelib, to'rda o'tirib, qutlug' bo'lsin, qilib oshni yeb, bekni duo qilib ketabardi. ("Murodxon" dostoni).

CHO'LLAMOQ Suvsamoq. Ba'zida **cho'llab** uyimiz yonidan o'tib qolsa, enam yaxday chalob tutardi. (O'roz Haydar, Bug'doyzor oralag-an so'qmoqlar). Hayhot, endi quyosh qizdirgan manovi taqir maydonda egasiz ko'ppak misol **cho'llab**, chiyralib va och-u nahor sulayib yotishdan biron tayinli samara bormi?! (Asad Dilmurod, Xayol cho'g'lanishi).

CHO'LPI I Sochga taqiladigan shokila. Senga tuhfa bo'ladurg'an oltin zirak, bargak, **cho'lpi**, atir, upalarni uloqtir. (Komil Yashin, Hoy qiz). Bolaligimizda tanigan-bilgan odamlarimiz – oppoq soqolli nuroniy chollar-u sochlariga **cho'lpi** taqqan, sandiqchalarida doimo biz kabi bolakaylar uchun bir-ikkita popukqand topiladigan ertakchi kampirlar o'zlarining haqiqiy manzillariga – Xudoning rahmati tomonga unsizgina, hilvirabgina jo'nab ketdilar. (Isajon Sulton, Todd). Sochiga **cho'lpi** taqib olgan kampir "Nimagayam o'sha yoqlarga ketgan ekanmiz, darvoza tiq etsa vatanimdan birov keldimikin deb sochim oqardi" deb yig'ladi. (Isajon Sulton, Genetik).

CHO'LPI II Chovli. Bunday paytlarda biror mashg'ulotga ehtiyoj sezib qolsak, savat yoki **cho'lpi** to'qish bilan band bo'lardik. (Matyo-qub Qo'shjonov, Dagish). Toltovoqqa suzayin deb yalpozbarak, **Cho'lpi** qilib to'qidim tol chivig'ini. (Sulaymon Rahmon). He-e-e **cho'lpi** to'qib jiydadan Tuq qozonin kovladim. Chaqmoq chaqib qaytadan, Qanotimni tobladim. (Aziz Said).

CHO'MMIQ Qirqilgan, chopilgan, kalta. Itning ko'rimsiz, ko'z atro-flari qizargan, tuklari xastalikdanmi, siyrak, beo'xshov. Uning yotoq joyi eshik oldidagi **cho'mmiq** tol tagi. (Komil Avaz, It). Uning **cho'mmiq**

oyoqlari beo'xshov qimirlaganday bo'ldi. Qora mushuk birdan boshini ko'tarib uning oyoqlari qoldig'ini yana bir-bir yalay boshladi. (Komil Avaz, Tobut ustidagi mushuk). Rivoyat etishlaricha, olis o'tmish zamonlar bir qishloqda qo'lining barmoqlari kalta bo'lgani uchun "**cho'mmiq**" laqabini olgan Gul degan kishi yashab o'tgan ekan. U juda g'arib, birovlarining eshigida xizmatkorlik qilib topgani ro'zg'orning qora qozonini qaynatishga arang yetar ekan. (Abdunabi Abdiyev, Qahri qattiq Ajuz momo).

CHO'PKADI Suvqovoq. Jarko'chaning yaxshisini oshirib, yomonini yashirgan toklarni daraxtlarga chirmashib ketgan zanglariga **cho'pkadi**lar osilishadi. (Bahodir Qobul, Oy yo'li).

CHO'PKAN Ko'p pichan, o't. *Qilting, qilting kuloli, Qiltinglashar kuloli. Yashil cho'pkan ustida, Yalanglashar kuloli.* (Topishmoq. Javobi – zuluk).

CHO'PKOR (Xorazm) Yog'ochli. **Cho'pkor** imorat qurishning mahalliy sharoitlarga mos uslubi bor edi. (Hakim Sattoriy, Sog'inch).

CHO'PLAMOQ Termoq. *Qumdan rizqini cho'playotgan Avaz dorichi, qo'shiq aytish iqtidori, xushovozi bois xonning nazariga tushdi, boobro' odam bo'ldi.* (Komil Avaz, Sozanda). Demak, mendan dorivor giyohlarni **cho'plash**, ulardan foydalanish, tabiblarga pullash chiqmas ekan, deya kuyinib, *Qutlug'murodni ham dorichilikka undamadi.* (Komil Avaz, Sozanda).

CHO'PONALDAG'ICH Butadan-butaga sakraydigan juda kichik qush. *Yo'lning chap tomoni unga yondosh cho'zilib ketgan qizg'ish jar, jar tubida suv miltiraydi, u yerdan fotmachumchuq va cho'ponaldag'ich qushining chiq-chiq, qiyiq-qiyiq ovozlar keladi.* (Shukur Xolmirzayev, O'n sakkizga kirmagan kim bor).

CHO'PSA Tuyoqni egovlaydigan egov. *Bunda tirnoq olishda maxsus asboblari: o'roqqa o'xshaydigan qochov, cho'psa, qirg'i (tuyoqning ostki qismini kesishga mo'ljallangan asbob) hamda temirchi usta tomonidan tayyorlangan nag'al va 50 mm lik maxsus mix ishlatiladi.* (Nargiza Rahmatullayeva, Badash).

CHO'RAK (Xorazm) q. **churak**. – Yo'qning azobidan borning azo-bi yaxshi, degan gap bor, – dedim men. – U yoqdagilarini tortib olgan bo'lsalar, bu yoqdagilari turgandir. Harqalay mehmon kelsa, dasturxoniga ikki **cho'rak**ni nechik qo'yaman, deb o'ylab o'tirmagandirlar. (Shuhrat Matkarim, Yilon). Boyagi kambag'al bir **cho'ragi** ikki bo'lsa boshi os-monga yetadi. (Shuhrat Matkarim, Yilon).

CHO'PSAVAT Tol novdalaridan to'qilgan savat. *Ayvonda cho'psavat. Cho'psavatda non. Juda shirin, suvi qochgani undan ham shirin.* (Isajon Sulton, Qismat).

CHO'PCHIMA (Jizzax) Go'shtni qizdirilgan yog'da qovurib tayyorlanadigan taom. *Cho'ponlar uning [uloqning] etidan cho'pchima degan xushta'm yegulik tayyorlarkan.* (Anvar Suyun, Solin yo'li).

CHO'PCHIMOQ Sakramoq. [*Fotmachumchuq*] Bemalol, dumpat-chasini likillatib, novdalarning orasida **cho'pchib-cho'pchib**, tirikchiligini o'tkazib yuribdi. (Ahmad A'zam, Ro'yo yoxud G'ulistonga safar). *Qarasa, oti amallab cho'pchib-cho'pchib jarlikdan chiqib, egasiga ham qaramay ko'zdan yo'qoldi.* (Salim Abdurahmon, Qadr). *Chumchuqlar gur-r ko'tarilib, nariroqqa tushdi. Uch-to'rtta – botirroqlari, chanqovi bosilmagan chog'i, dik-dik cho'pchib, halqobchaga yana yaqinlasha boshladi.* (Ahmad A'zam, Almisoqdan qolgan Karim).

CHO'PCHILAMOQ Bir joyda turib sakramoq. *O'g'il ortib qolgan uchta g'aramni sig'dirish uchun qanorni tikka qilib ustida jon-jahdi bilan cho'pchiladi.* (Anvar Suyun, Ota va o'g'il).

CHO'QAY Mahsi turi. [*Otam*] *Bu Bekjonga, – dedi va bir juft cho'qay-choriqni esa: Bu menga dedi.* (Matyoqub Qo'shjonov, Dagish).

CHO'QIYTA Dangal, gapning lo'ndasi. *Qaytgoch nima qilasan, yo Xudoybergan xo'janing yurtiga ketmoqni o'ylayapsanmi? – so'radi u. – Dilingda borini cho'qiyta aytaber.* (Soyim Is'hoq, Qiyomatga qolmagan qasos).

CHO'T (Qarnoq) Tesha. *Yanga nimchasining cho'ntagidan kichkina ombir chiqardi, kimgadir “Hoy Manzura, cho't obkel” deb baqirdi.* (Sa'dulla Siyoyev, Saratonda qor yog'di). **Cho't** so'raydi, o'roq. *Ketman,*

chilbir, qozon, bolta... e, qo'ying-chi, ko'ziga ne ilashsa so'ray beradi, so'ray beradi, so'ray beradi. (Sa'dulla Siyoev, Ahmad Yassaviy). *Murodxon ham bu kampirni ko'rdi: manglaylari cho'tday, ko'zlari o'tday, iyagi egarning qoshiday, burni xamakday.* ("Murodxon" dostoni).

CHO'TIRMAK (Xorazm) Har qanday daraxtga kallak urilganidan keyin yon-veridan g'uj-g'uj shoxlar o'sib chiqib, ular ham chopib tashlangan keyin qolgan beo'xshov tana qoldig'i. *Xaltani shu yaqin oradagi doltak bosgan to'rong'u panasidagi cho'tirmakka ildirgan edim.* (Shuhrat Matkarim, Yilon).

CHO'VIT 1 Titilgan, sifatsiz, uvada paxta chiqindisi. – *Qo'lim kalta yili Matniyoz cho'vit degan sudxo'rdan qarz olgan edim.* (Komil Avaz, Sozanda). **2** To'zigan, eski. – *Bu o'rtada uni bilmaydigan odam bo'lmasa kerak. Laqabiga mos, o'ta xasis, ustidagi kiyimlari ham o'ta cho'vit – to'zigan, uvada.* (Komil Avaz, Sozanda).

CHO'G'ALCHILIK Yolg'onchilik. *Shu kuni Nasrullayev Usmonovga aytishi kerak bo'lgan barcha gapni aytdi. Biroq Hakimovning so'nggi gapini aytmadi. Aytolmadi. Aytishga tili bormadimi yoki cho'g'alchilik bo'ladi, deb o'yladimi, har qalay aytmadi.* (Nurali Qobul, Unutilgan sohillar). *Cho'g'alchilik qilmay, xush-u xursand, yayrab yashaganga nima yetsin.* (Bahodir Qobul, Ena shamol).

CHO'CHQAQULOQ (*Allium karataviense* Rgl.) Piyozdoshlar oilasiga mansub, bo'yi 15–25 sm ga yetadigan, tog'da o'sadigan ko'p yillik o't; qoratorv piyozi. *Bularga [piyozlarga] yovvoyi piyoz, gulpiyoz, cho'chqaquloq, qumpiyoz, cho'chqapiyoz, otashak piyoz, tog' piyozi, dasht piyozi, oshanin piyozi va boshqalar misol bo'la oladi.* (A.M.Rasulov, A.K.Ermatov, Tuproqshunoslik asoslari va dehqonchilik).

CHO'CHQATIKAN (S. turkestanica Iljin) Yovvoyi ismaloq. *Cho'chqatikan turi ekinzorlarda va tog' yon bag'irlaridagi o'tloqlarda begona o't tarzida uchraydi.* (O'zME). *Uning boshqa jaydari nomi ham bor – cho'chqatikan, chunki tikanli to'pmeva hosil qilgani uchun shunday atalsa kerak.* (Karim Mahmudov, O'zbek taniq taomlari).

CHO‘CHQAO‘Q q. **to‘ng‘izo‘q**. Ikki o‘qi zoye ketdi. O‘qdonida atigi bitta **cho‘chqao‘q** qoldi. Har ehtimolga qarshi uni miltig‘iga joylab ortiga qaytdi. (Soyim Is‘hoq, Vafodor). Oradan desangiz bir oy o‘tmay, juda yomon gap bo‘ldi: haligi mayorni otib ketishdi. **Cho‘chqao‘q** kallasidan tekkan ekan, o‘sha zahoti o‘libdi. (Nusrat Rahmat, Kalvak maxsum nomalari).

MUNDARIJA

Olamning dialektal lisoniy manzarasi va nominatsiya	3
A.....	54
B.....	66
D.....	86
E.....	101
F.....	108
G.....	108
H.....	119
I.....	130
J.....	139
K.....	150
L.....	180
M.....	182
N.....	199
O.....	203
P.....	219
Q.....	232
R.....	259
S.....	261
T.....	285
U.....	313
X.....	318
V.....	324
Y.....	326
Z.....	337
O'.....	341
G'.....	347
SH.....	354
CH.....	365

MUSAYEVA FERUZA

O‘ZBEK XALQ SO‘ZLARI

Toshkent –
“Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi” – 2023

Muharrir	D.Vahidova
Tex. muharrir	A.Moydinov
Musavvir	A.Shushunov
Musahhih	S. Alimboyeva
Sahifalovchi	Sh.Sirojiddinov

Nashriyot litsenziyasi AI № № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907 10.08.2020.

29.09.2022-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 70x100 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturasida.

Shartli bosma tabog‘i 14. Adadi 500 nusxa.

Buyurtma raqami № 136. Bahosi shartnoma asosida.

«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.

100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 7-uy.

Tel.: +998999209035 e-mail: nashr2019@inbox.ru